

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM
FAKULTETI**

MAKTABGACHA TA'LIM KAFEDRASI

« Tasdiqlayman »
o'quv ishlari bo'yicha prorektor
_____ D. Q. Durdiyev

« ___ » _____ 2018-y.

**Ona tili va bolalar adabiyoti
fanidan**

O' quv-u s l u b i y

m a j m u a

Bilim sohasi:	100000 –	Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 –	Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5111800 –	Maktabgacha ta'lim

B U X O R O – 2018

O`UMning muallifi : S.S. Avezov , M.B.Sharipova, S.H.Ro`ziyeva

Taqrizchilar:

D. S. O`rayeva, filologiya fanlari doktori

M. Q. Abuzalova, filologiya fanlari doktori

Kafedra yig`ilishi qarori № _____ « _____ » _____ **2018 y.**

Kafedra mudiri: **G. Q. Hasanova., p.f. n., dotsent**

Kelishildi:

Fakultet kengashi raisi: **B.J.Umarov, p.f.n. dotsent**

Fakultet yig`ilishi qarori № _ « _____ » _____ **2018 y.**

MUNDARIJA:

O`quv materiallar.....	
Mustaqil ta`lim.....	
Glossariy.....	
Ilovalar.....	
Taqdimot.....	
Tarqatma material.....	
Testlar.....	

O`quv-usuliy majmua 5111800 – Maktabgacha ta`limyo`nalishidagi 1-2-kurs talabalari uchun mo`ljallangan.

Mazkur majmuada fanni o`qitishdan maqsad va vazifalari, talablar, fanning boshqa fanlar bilan aloqasi hamda fanni o`qitishda qo`llanadigan ko`rgazmali vositalar, jihozlar, metod va texnologiyalar o`rin olgan. Shuningdek, bunda ta`lim oluvchilarning mustaqil bilim egallashi va uni o`zlashtirishiga e`tibor qaratilgan.

Majmuada maktabgacha ta`lim muassasalarining bo`lajak tarbiyachi pedagoglarningona tili fanini puxta o`zlashtirishi, adabiy asar o`qish va shu asosda mustaqil fikrlashga o`rgatish, she`rlar yod olish malakasini shakllantirish, xalq og`zaki ijodi va adabiy ijod namunalarini sevib mutolaa qilish iqtidorini rivojlantirishga e`tibor qaratilgan

Tuzuvchilar: S.S.Avezov, M.B.Sharipova, S.H.Ro`ziyeva

Taqrizchilar: D.S.O`rayeva, filologiya fanlari doktori
F.S.Safarov, filologiya fanlari nomzodi

MAKTABGACHA TA'LIM KAFEDRASI 1-SON YIG'ILISHINING

BAYONNOMASI

Buxoro shahri

2018-yil ___ avgust

Qatnashdilar: p.f.n.dots.Hasanova G.Q. (rais), dotsentlar: Y.Azimov, S.Avezov; katta o'qituvchilar: S.S.Xo'jayeva (kotiba), M.M.Nigmatova, G.U.Umarova, M.M.Akramova; o'qituvchilar: G.D.Niyozova, D.Sh.Mirzayeva, M.B.Sharipova, S.H.Ro'ziyeva.

KUN TARTIBI:

2018-2019 o'quv yiliga mo'ljallangan o'quv-uslubiy majmualar muhokamasi.

Eshitildi:

G.Q.Hasanova (kafedra mudiri): Kafedra o'qituvchilari tomonidan fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar tayyorlanganligini aytib o'tdi. Barcha o'quv-uslubiy majmualar uchun taqrizlar mavjud va ularni muhokama qilgan holda tasdiqlab berishlarini so'radi.

Yig'ilish kotibasi S.Xodjayeva va kafedra azolari muhokamasiga quyidagi o'quv-uslubiy majmualarni taqdim etdi.

1. Elementar matematika 1-kurslar – Tuzuvchilar. O'qituvchi: Jo'rayev Sh., G.Umarova
2. Ona tili va bolalar adabiyoti 1-2-kurslar – Tuzuvchilar: S.S.Avezov, M.B.Sharipova, S.H.Ro'ziyeva
3. Oila pedagogikasi - Tuzuvchilar: G.Q. Hasanova.
4. Umumiy pedagogika - Tuzuvchi: Xo'jayeva S.
5. Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi - Tuzuvchi: Umarova G.U.
6. Maktabgacha pedagogika - Tuzuvchilar: Komilova G.A., Mirzayeva D.,
7. Nutq o'stirish - tuzuvchilar: Avezov S.S.
8. Maktabgacha ta'lim 2-kurslar - tuzuvchilar: G.A.Komilova
9. Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va metodikasi – tuzuvchi: G.Sayfullayev
10. Oila va ijtimoiy pedagogika – tuzuvchi: Akramova M.
11. Maktabgacha ta'limda musiqiy tarbiya metodikasi - tuzuvchi: G.A.Komilova
12. Pedagogik maxorat - tuzuvchi: M.Negmatova
13. Maktabgacha ta'limni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish - tuzuvchi: Niyozova G.
14. Oila pedagogika (MT rus)- G. Niyazova

Yuqoridagi o'quv-uslubiy majmualar muhokamasi yuzasidan dotsentlar S.Avezov, Y.Azimov o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirdilar.

KAFEDRA YIG'ILISHI QAROR QILADI.

1. Kafedra o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan 2018-2019-o'quv yili uchun mo'ljallangan o'quv-uslubiy majmualar tasdiqlansin.

2. Ushbu qarorning tasdig'i fakultet kengashidan so'zalsin.

Yig'ilish raisi:
Yig'ilish kotibi:

G.Q. Hasanova
M.B. Sharipova

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI

Ilmiy kengashining 1-yig'ilishi bayonnomasidan ko'chirma

Buxoro sh.

2018 yil ___ avgust

Qatnashdi: Ilmiy kengashning a'zolari va fakultet o'qituvchilari.

Kun tartibi

6.Har xil masalalar.

A) “ Maktabgacha ta'lim ” kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan o'quv-uslubiy majmualar muhokamasi.

Eshitildi:

B.J.Umarov (fakultet dekani). – Fakultet jamoasi O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarni bajarishga katta etibor berib kelmoqdalar. Jumladan, o'quv usuliy, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-marifiy ishlar salohiyatini yanada oshirish maqsadida ishchi o'quv rejalari, ma'ruzalar matni, tarqatma materallar, reyting ishlanmalarining yangi variantalarini ishlab chiqish; bitiruv malakaviy ishlari va kurs ishlari sifat darajasini yanada o'stirish; pedagogik amaliyot mazmuni yangi materallar bilan boyitib, darslarni sifatli o'tishga erishish; talabalardan fanlar bo'yicha mantiqiy fikrlay olish malakasini o'stirib borish; aspirantlar ilmiy-tadqiqot ishlarni jonlashtirish; darslik, o'quv-qo'lanma, monografiya va ilmiy maqolalarning yangi avlodini yaratish yo'nalishida o'quv-uslubiy majmualarni tayyorlash shu silsilani tashkil etishni ta'kidladi.

Hozirgi kunda “ Maktabgacha ta'lim ” kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan 2018-2019 o'quv yili uchun mo'ljallangan o'quv-uslubiy majmua tayyorlanganligi hamda ushbu o'quv-uslubiy majmualar kafedraning 2018-yil ___avgust 1-yig'ilishida muhokama qilinganligini aytib o'tib, fakultet ilmiy kengash a'zolari tomonidan ushbu majmualarni tasdiqlab berishlarini so'radi.

So'zga chiqdilar:

S. Avezov (maktabgacha ta'lim kafedra dotsenti): - Chindan ham kafedramiz o'qituvchilari tomonidan o'quv-uslubiy majmualar tayyorlangan. Bu majmualardan o'quv jarayoniga kerak bo'ladigan barcha me'yoriy hujjatlar o'z aksini topgan bo'lib, ta'lim samaradorligini oshirishda bevosita xizmat qiladi. Shu sababli yuqoridagi majmualarni tasdiqlab berishlaringizni so'rayman.

QAROR QILINDI:

1.Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim uslubiyoti kafedra o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan 2018-2019 o'quv yili uchun mo'ljallangan o'quv-uslubiy majmualar tasdiqlansin.

2.Tasdiqlangan o'quv-uslubiy majmualar o'quv jarayoniga tadbiq etilsin.

Yig'ilish raisi:

B.J.Umarov

Yig'ilish kotibi:

R.Xalilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**MAKTABAGCHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM
FAKULTETI**

MAKTABGACHA TA'LIM KAFEDRASI

Ona tili va bolalar adabiyot

fanidan

O'QUV MATERIALLAR

B U X O R O – 2018

**Fanning ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar va mustaqil ta'lim
mavzularining
soatlar bo'yicha taqsimoti
1-semestr (ona tili)**

Mavzu nomi	Ma'ruza	amaliy	Se min ar	M/t
Tilshunoslik haqida umumiy ma'lumot. Tilning paydo bo'lishi, taraqqiyoti, tillarning tasnifi. Fonetika.	2	2		4
Hozirgi o'zbek adabiy tilining unli va undosh fonemalari. Bo'gin, urg'u. Fonetik jarayon.	2			2
O'zbek orfografiyasining asosiy tamoyillari va imlo qoidalari.	2	2	2	2
Leksikologiyaning predmeti va vazifalari. So'zning ko'chma ma'noda qo'llanilishi. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.	2	4		2
Tarixiylik jihatdan o'zbek tili leksikasi. Umumiy va chegaralangan leksika. Frazologiya. Iboralarning semantik va grammatik tabiati	2	2		4
Lug'atchilik va lug'at turlari. O'zbek tili leksikasining boyish manbalari	2	2	2	2
Morfemika va soz yasalishi haqida umumiy ma'lumot.	2			4
Grammatika: so'z, shakl va grammatik ma'no. Otning leksik-grammatik xususiyatlari, ma'no turlari	2	4		2
Otning grammatik shakllari	2	2	2	2
Sifatning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari; sifatning ma'no jihatdan turlari	2	2		2
Sonning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari; sonlarning ma'no jihatdan turlari	2			2
Olmoshning ta'rifi va grammatik xususiyatlari; olmoshlarning ma'no jihatdan turlari	2	2	2	2
Ravishning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari; ravishlarning ma'no turlari	2	2		2
Fe'lning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari; fe'llarning ma'no turlari. Fe'llarning zamon, shaxs-son va mayl kategoriyasi.	2	4	2	4
Yordamchi so'z turkumlari.	2	2		4
Alohida olingan so'z turkumlari.	2	2		2
Jami	30 soat	34	10	72

**Fanning ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar va mustaqil ta’lim mavzularining
soatlar bo‘yicha taqsimoti
1-semestr (bolalar adabiyoti)**

T/r	Mavzu nomi	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta’lim
		Ma’ruza	Amaliy	Seminar	
1.	I.Kirish. 1.1.Adabiyot (bolalar adabiyoti) fanining maqsad va vazifalari. Bolalar kitobxonligi haqida.	2	2		2
2.	II.Bolalar folklori. 2.1.Bolalar adabiyoti va bolalar folklorining mumtoz adabiyot namunalari bilan bog‘liqligi	2	2		6
	2.2.Qo‘shiqlar.Maqollar. Topishmoqlar. Masallar va tez aytishlar.	2	2	2	6
	2.3.Ertaklar va ularning janriy tasnifi.	2	2		6
	2.4.Adabiy ertaklar	2	2		4
3.	III. Mumtoz bolalar kitobxonligi va uning ko‘rinishlari.Alisher Navoiy va Gulxaniy ijodi 3.1.Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi dostonlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalar.	2	4	2	4
	3.2.Alisher Navoiyning pand-nasihati mazmunidagi asarlarida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy qarashlar.	2	2		6
	3.3.Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibiga kirgan masallarda ilgari surilgan g‘oyalar.	2	2		4
4.	IV. O‘zbek bolalar adabiyoti (umumiy tahlil)	2	2	2	4
5.	V. Abdulla Avloniy va Hamza ijodi 5.1 O‘zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi. 5.2. A.Avloniyning pedagogik faoliyati. Yangi maktablar, o‘quv jarayonlari, dars uslubi tashkil etishdagi faoliyati. 5.3 H.H. Niyoziy ma’rifati. Uning ta’limda joriy etilgan o‘qish kitoblari mohiyati.	2	2		6
	5.4“Turkiy guliston yoxud axloq” asarining ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati.	2	2		6

6.	VI. O'tgan asrning 30-40 –yillaridagi o'zbek bolalar adabiyoti G'afur G'ulom va Quddus Muhammadiy ijodi 6.1 G'afur G'ulomning bolalar uchun yozilgan she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar. 6.2 G'afur G'ulomning "Shum bola", "Netay", "Yodgor" qissalarida yetimlik motivi talqini.	2	4	2	6
	6.3 Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Q.Muhammadiy she'riyatida tabiatga munosabat; poetik obrazning o'rni hamda ahamiyati.	2	2		4
7.	VII. Zafar Diyor va Shukur Sa'dulla ijodi 7.1 Zafar Diyorning hayoti va ijodi. 7.2 Zafar Diyorning "Mashinist" dostonida ilgari surilgan g'oyalar. Zafar Diyorning she'riy asarlarida inson va tabiat	2	2	2	4
	7.3 Shukur Sa'dulla hayoti va ijodi. Sh.Sahdulla ijodida hayotiy voqealarning haqqoniy badiiy tasviri, janr rang-barangligi va badiiy xususiyatlari, obrazlar talqini, tarbiyaviyligi, hayotiyliigi.	2	2		4
	Jami:	30	34	10	72
2-semestr (bolalar adabiyoti)					
8.	VIII. Sulton Jo'ra va Hakim Nazir ijodi 8.1 Sulton Jo'raning hayoti va ijodi. 8.2 Shoirning ilmiy-ommabop mavzulardagi she'rlarida ifodalangan g'oyalar haqida. Sulton Jo'raning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlari tahlili. 8.5 Hakim Nazirning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan asarlariga xos xususiyatlar.	2	4		4
9.	IX. Po'lat Mo'min va Qudrat Hikmatijodi 9.1 Qudrat Hikmat va Po'lat Mo'minning hayoti va ijodi.	2	2		4
10.	X. Xudoyberdi To'xtaboev va Farhod Musajon ijodi 10.1 Xudoyberdi To'xtaboyev hayoti va ijodi. 10.2 "Sariq devni minib", "Qasoskorning oltin boshi", "Besh bolali yigitcha" asarlarining badiiy xususiyatlari.	2	2	2	6
	10.4 Farhod Musajonning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan hikoyalarida ilgari surilgan g'oyalar.	2	2		4

11.	XI. Miraziz A'zam va Tursunboy Adashboyev ijodi 11.1 Miraziz A'zamning hayoti va ijodiy faoliyati. 11.2 M.A'zam she'rlarida hayotga munosabat, ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy talqini.	2	2		4
	11.4 Tursunboy Adashboyev ijodida ona-tabiat va Vatan madhi. 11.5 T.Adashboyevning so'nggi yillardagi ijodiy faoliyati. 11.6 Shoirning ona-tabiat va Vatan mavzusidagi she'rlari badiiyati.	2			4
12.	XII. Qambar Ota va Muhammad Ali ijodi 12.1 Qambar Otaning hayoti va ijodiy faoliyati. 12.2.Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan she'rlarining mavzu doirasi.	2	2		4
	12.4 Muhammad Ali yaratgan tarixiy romanlardagi bolalar obrazlari. 12.5 Muhammad Alining ona-tabiat tasviri chizilgan asarlari.	2	2		2
13.	XIII. Anvar Obidjon va Abusaid Ko'chimov ijodi 13.1 Anvar Obidjon ijodi o'zbek bolalar adabiyotidagi yanigicha yo'nalish sifatida. 13.2Anvar Obidjonning "Sen eshitmagan qo'shiqlar" turkumi – o'quvchilarning eng sevimli to'plami.	2	2	2	4
	13.3Abusaid Ko'chimovning hayoti va ijodiy faoliyati. 13.4 Abusaid Ko'chimovning kichkintoylarga bag'ishlangan she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar. 13.5 Abusaid Ko'chimov ertak va dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari.	2	2		4
14.	XIV. Hamza Imonberdiyev va Abdurahmon Akbarning ijodi 14.1Hamza Imonberdiyevning hayoti va ijodiy faoliyati. 14.2Abdurahmon Akbar ijodidagi rang-baranglik. 14.3 Hamza Imonberdiyevning "Adolat kaliti" ertagida ilgari surilgan g'oyalar.	2	2		6
	14.4Abdurahmon Akbarning qofiyali nasr(saj') shaklidagi turkumidagi she'rlarning o'ziga xosligi. 14.5Abdurahmon Akbarning Vatan, tabiat va bolalar o'yinlari haqidagi she'rlari haqida. 14.6Abdurahmon Akbarningalifbo shehrlari haqida.	2	2		4

15.	<p style="text-align: center;">XV. Chet el bolalar adabiyoti</p> <p>15.1 Chet el bolalar adabiyotining umumiy tahlili. 15.2 Sharl Perroning bolalar zavq oladigan ertaklariga xos xususiyatlar haqida. 15.3 Aka-uka Grimmlar yaratgan ertaklarda ilgari surilgan g'oyalar. 15.4 Aka-uka Grimmlar yozgan ertaklarda ulug'langan yoki qoralangan fazilatlar va xislatlar haqida. 15.5 Xans Kristian Andersen ijodining ko'p qirrali va rang-barang ekanligi.</p>	2	2	4	8
16.	<p style="text-align: center;">XVI. Rus yozuvchilarining bolalarga atab yozgan asarlari</p> <p>16.1 Aleksandr Sergeyevich Pushkin yaratgan ertak-dostonlarda ilgari surilgan g'oyalar. 16.2 Nikolay Alekseyevich Nekrasov hayoti va ijodi.</p>	2	2	2	6
17.	<p style="text-align: center;">XVII. Rus yozuvchilarining bolalarga atab yozgan asarlari(davomi)</p> <p>17.1 Lev Nikolayevich Tolstoy tomonidan yaratilgan "Yangi alifbo" asari haqida. 17.2 Lev Nikolayevich Tolstoyning "Mo'ysafid olma ekdi" hikoyasida ilgari surilgan g'oyalar haqida. 17.3 Korney Ivanovich Chukovskiy ertak-dostonlarida ilgari surilgan g'oyalar. 17.4 Samuil Yakovlevich Marshak asarlarining janr jihatdan rang-barangligi.</p>	2	4		8
	Jami:	30	34	10	72

Mavzu: Tilshunoslik haqida umumiy ma'lumot. Tilning paydo bo'lishi, taraqqiyoti, tillarning tasnifi. Fonetika.

Reja:

1. Tilshunoslik fani haqida.
2. Tilning tabiati va vazifalari.
3. Til va jamiyat.
4. Til va tafakkur.
5. Til – ramziy tizim
6. Tilshunoslik tarixini davrlashtirish muammolari.
7. Eng qadimgi tilshunoslik maktablari.
8. Fonetikaning predmeti va maqsadi.
9. Fonetik birliklar.
10. Fonetika fanining turlari

Til haqidagi fan juda qadimda vujudga kelgan va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Lingvistikaning hozirgi holatini, eng muhim muammolarini yaxshiroq tushunish uchun uning shakllanish bosqichlari, asosiy manbalari to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lish zarur.

Jahon tilshunosligi tarixini o'rganish umumiy tilshunoslikning eng muhim muammolari - tilning mohiyati, til va tafakkurning munosabati, tilning taraqqiyot qonunlari va jarayonlari, tilning strukturasi va sistemalilik xarakteri, tilni tekshirish metodlarini atroflicha tushunishga juda katta yordam beradi va talaba dunyo qarashini kengaytiradi.

Lingvistika filologik ehtiyoj tug'ilgan joyda paydo bo'ladi. Eng qadimgi tilshunoslik Misr va Finikiyada taraqqiy qilgan, chunki bu mamlakatlarda birinchi marta piktografik ieroglif, keyinchalik fonografik (tovush) yozuv yaratildi.

Qadimda akkadiylar (vaviloniyaliklar) Messopotamiyaga (Yefrat va Tigr daryolarining o'rtasidagi territoriyaga) kelib, qadimgi madaniy xalqlar - shumerlar tilining birinchi lug'atlarini tuzishga kirishdilar. Shumerlar kashf qilgan mix yozuvini keyinchalik akkadiy, xett, qadimgi fors va elamiy xalqlari ham qabul qildilar.

Umuman olganda, tilshunoslik fani o'z taraqqiyoti davomida yangi-yangi faktlar va umumlashmalar bilan boyib bordi hamda lingvistik bilimlar ufqi har jihatdan kengaydi.

Eng qadimgi lingvistik an'analar Hindiston, Xitoy, Arabiston, Gretsiya, Rim va O'rta Osiyo kabi madaniyat o'choqlarida vujudga keldi.

QADIMGI HINDISTONDA TILSHUNOSLIK

Qadimgi Hindistonni til haqidagi fanning beshigi deyish mumkin, chunki falsafa va madaniyat taraqqiy etgan bu mamlakatda birinchi marta tilni o'rganishga qiziqish paydo bo'ldi. Qadimgi hind tilshunosligi amaliy ehtiyoj natijasida vujudga keldi. Davrlar o'tishi bilan diniy qo'shiqlar - vedalar tili bilan qadimgi hind yozma tili - sanskrit o'rtasida muayyan farqlar paydo bo'la boshladi. Vedalarni o'qishga, tushunishga yordamlashish, uni ogzaki til ta'siridan himoya qilish qadimgi hind tilshunosligining asosiy maqsadi va vazifasi edi.

Muqaddas gimnlar (vedalar) eramizdan qariyb bir yarim ming yil oldin yaratilgan. Eramizdan oldingi V asrga kelib sanskrit tili o'zaro aloqa, fikr almashuv vositasi vazifasini bajarmay qo'ydi. Shundan keyin hind olimlari sanskrit tilini maxsus o'rgana boshladilar, buning uchun tasviriy - normativ grammatikalar yaratildi.

Qadimgi vedalarda ham qisman fonetika, leksika va grammatikaga oid ayrim ma'lumotlar mavjud edi. Masalan, vedalardan birida fonetika va orfografiya masalalari, yana birida she'r tuzilishi, uchinchisida grammatika, keyingisida esa leksika haqida ba'zi

fikrlar bayon etilgan. Shu sababli hind tilshunosligida fonetika, grammatika va leksika chuqurroq o'rganilgan.

Grammatikani hind olimlari "vyakarana" (analiz, bo'laklarga ajratish) deb atardilar. Eramizdan ming yillar oldin so'z lug'atlari paydo bo'ldi. Masalan, eramizdan oldingi V asrda hind olimi Yaska vedalar tiliga izohlar (kommentariyalar) tayyorladi.

Qadimgi Hind tilshunosi Panipi edi (eramizdan oldingi IV asrda yashagan). U sanskrit tili grammatikasini yaratdi. Bu asar to'rt mingga yaqin grammatik qoidani o'z ichiga olgan bo'lib, she'riy yo'l bilan yozilgan edi.

Til analizi hind olimlarida lingvistik hodisalar o'rtasidagi farqli va o'xshash holatlarni aniqlash asosiga qurilgan. Bu metod ularga, ayniqsa, so'zni ma'noli qismlarga (morfemalarga) ajratishda qo'l keldi. Morfologiya so'z turkumlariga ajratish, so'z yasash va so'z o'zgartish haqidagi ta'limotdir.

Qadimgi hind tilshunoslari 4 so'z turkumini o'zaro farqlaganlar: ism (ot, sifat, son), fe'l, predlog va yuklamalar. Ot predmet ifodalovchi so'z bo'lsa, fe'l harakat bildiruvchi so'zdir, deb izohlangan. Bu esa hind olimlariga so'z turkumlari bilan gap bo'laklarini farqlash uchun imkon bergan.

So'z analizida hindlar bir so'zning turli grammatik formalarini o'zaro qiyosladilar. Natijada so'zning qismlari: o'zak suffikslar va tugallanma ajratildi. Yevropa olimlari hind tilshunoslarining lingvistik ishlari bilan tanishib, so'zlarni o'zak so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi morfemalarga ajratadigan bo'ldilar.

Qadimgi hind grammatikachilari ichki fleksiya hodisasiga ham alohida diqqat qildilar. Tilshunoslikka nol forma tushunchasini kiritdilar, tilda urg'u, hatto intonatsiyaning rolini ham alohida ta'kidladilar, hind olimlari otlarda 7 kelishikni ajratganlar, lekin ularni alohida nom bilan atamaganlar.

Qadimgi hind olimlari nutq tovushlarini klassifikatsiya qilishda fiziologik tamoyilga asoslandilar. Yunon tilshunoslaridan ancha oldin ular unli va undosh tovushlarning cho'ziq va qisqaligini, bo'g'inni, tovushlarning nutq jarayonida o'qilishi (sandxi)ni o'zaro farqlay olganlar. Nutq tovushlarini o'rganishda hind tilshunoslari artikulyatsiya o'rnini va artikulyatsiya hosil qiluvchi organni hisobga olganlar. Tayanch tushunchalar:

- Vedallar tili
 - Vyakarana (grammatika).
 - Nol morfema
 - Logogramma
 - So'z va predmet o'rtasidagi tabiiy «moslik».
 - So'z bog'lanishli nutqning eng kichik qismi.
1. Tillar tasnifi haqida.
 2. Agglutinativ tillar.
 3. Flektiv tillar.

Morfologik klassifikatsiya geneologik klassifikatsiya kabi tillarni taqqoslab o'rganishga asoslansa-da, bu ikki xil klassifikatsiyaning prinsiplari va maqsadlari turlichadir.

Geneologik klassifikatsiya tillarning tarixini o'rganishi natijasida ularning qarindoshlik munosabatini va qarindoshlik darajasini belgilaydi. Tillarning qarindoshlik munosabatini bilish uchun qiyosiy-tarixiy metod yordamida tillardagi bir-biriga o'xshash hodisalar qiyoslab o'rganiladi va tillar oilalari hamda gruppalari belgilanadi, ya'ni geneologik klassifikatsiya qilinadi. Morfologik klassifikatsiya esa tillarning kelib chiqishi, tarixi va ularning qarindoshlik munosabati bilan qiziqmaydi; bu klassifikatsiya tillarning grammatik (morfologik) xususiyatlarini, aniqrog'i, o'zak va affikslarni qarama-qarshi qo'yish asosida taqqoslab o'rganishga asoslanadi. Morfologik klassifikatsiya natijasida til tiplari ajratiladi. U yoki bu tilning qaysi morfologik tipga mansub ekanligini aniqlash uchun esa shu tillardagi so'z qurilishi (strukturasi) o'rganiladi.

Tillarning morfologik klassifikatsiyasiga yirik nemis olimi Fridrix Shlegel (1772–1829) asos soldi. U o`zining «Hindlarning tili va donoligi» (1809) nomli asarida sanskrit tilini grek, latin va turkiy tillar bilan chog`ishtirib, tillarni ikki tipga ajratadi: a) affiksli tillar; b) flektiv tillar.

F. Shlegel tillarni ikki tipga ajratishga o`zak-negizning o`zgarish va o`zgarimasligini asos qilib oladi. Affiksli tillarda grammatik ma`nolar alohida-alohida affikslar orqali ifodalanadi; flektiv tillarda esa bir affiks turli grammatik ma`nolarni ifoda etadi. F. Shlegelning bu klassifikatsiyasi keyinchalik uning ukasi Avgust fon Shlegel tomonidan qayta ko`rib chiqildi.

Avgust Shlegel o`zining «Provansal tili va adabiyoti haqida mulohazalar» (1818) nomli asarida tillarni uch tipga bo`ladi: a) flektiv tillar; b) agglutinatív (qo`shimchali) tillar; v) amorf (qo`shimchasiz) tillar.

A. Shlegel ham akasi F. Shlegel kabi xitoy tilini amorf tillarning tipik vakili deb hisoblaydi. Flektiv tillarga som va hind-yevropa tillarini kiritadi. Qolgan tillarni esa agglutinatív tillarga mansub deb qaraydi.

Umumiy tilshunoslikning asoschisi mashhur nemis olimi Vilgelm fon Gumbold tilshunoslik fanining boshqa masalalari qatorida tillarning morfologik klassifikatsiyasi masalasi bilan ham qiziqib, o`zigacha ma`lum bo`lgan tillarni to`rt tipga ajratadi: amorf, agglutinatív, flektiv va polisintetik. Polisintetik tillarga eskimos, alyeut, chukot va Amerika hindilari tillari kiradi. Bu tillarning tipologik xususiyati shundan iboratki, gap murakkab va qo`shma so`z shaklida bo`ladi.

Tillarning morfologik klassifikatsiyasi masalasi bilan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik oqimining yirik namoyandalaridan biri Avgust Shleyxer ham shug`ullangan. U dunyo tillarini uch tipga bo`ladi: o`zakli yoki ajratuvchi tillar, agglutinatív tillar va flektiv tillar.

A. Shleyxer tillarni uch tipga ajratishda so`z tuzilishiga va gap sostavida so`zlarning o`zaro grammatik munosabatlarini ifodalovchi vositalarga asoslanadi.

A. Shleyxerning fikricha, o`zakli tillarda (xitoy-tibet tillari) so`zlarni gapda bir-biri bilan bog`laydigan qo`shimchalar yo`q, shuning uchun gap o`zgarmaydigan o`zaklardan tuziladi yoki yordamchi so`zlar orqali birikadi. Agglutinatív tillarda esa so`z formalari o`zgarmay qo`shiladigan affikslar yordamida yasaladi. Bu holda har bir affiks bir grammatik ma`noni ifodalaydi. Masalan, turkiy tillar. Flektiv tillarda esa ichki va tashqi fleksiya mavjuddir.

A. Shleyxer agglutinatív tillarda ham, flektiv tillarda ham sintetik va analitik qurilishga ega bo`lgan til turlarini ajratadi. U tillarni uch morfologik tipga ajratishda va ularga baho berishda o`zining biologik (naturalistik) konsepsiyasiga asoslanadi.

Tillarning morfologik klassifikatsiyasi masalasi bilan G. Shteyntal (1821-1889), N. Fink Moskva tilshunoslik maktabining asoschisi F.F. Fortunatov (1848-1914) ham shug`ullangan. Shunday qilib, morfologik (tipologik) klassifikatsiyaga ko`ra, dunyodagi barcha tillar so`z strukturasi tuzilishi nuqtai nazaridan to`rt tipga bo`linadi. Quyida shu haqda fikr yuritiladi. –

I. O`zakli yoki ajratuvchi tillar.

O`zakli yoki ajratuvchi tillarga xitoy, birma, tay, tibet va boshqa Janubiy-Sharqiy Osiyo tillari kiradi. Bu tillarda forma yasovchi, so`z o`zgartuvchi affikslar yo`q. Boshqacha qilib aytganda, gapda so`zlarning o`zaro grammatik aloqasini ko`rsatib turuvchi affikslar bo`lmaydi. Bunday tillarda gap sostavida so`zlarning grammatik funksiyasi va ularning o`zaro munosabati so`zning o`rniga qarab belgilanadi. Grammatik munosabat so`z tartibi, urg`u, intonatsiya va boshqa vositalar orqali ifodalanadi.

O`zakli tillarda gapda so`zlarning o`zaro grammatik munosabatlari, asosan, so`z tartibi orqali ifodalanadi. Masalan, xitoy tilida so`z tartibining o`zgarishi bilan bir gapdan boshqa Yangi gaplar hosil bo`ladi. Buni quyidagi misollarda ko`rish mumkin: shu fan tszay chjotszn-shan – Kitob stolning ustida yotibdi. Chjotszm-shan fanchjd shu – Stolning ustida

yotgan narsa kitobdir. Vo jenshi chjege jen – Men bu odamni taniyman. Chjege jen va jenshi – Men taniydigan kishi shu. Xitoy tilida bir soʻz turli kontekstda turlicha maʼno va turli grammatik funksiyada kela oladi. Masalan, xao soʻzi turli soʻz birikmalari va kontekstlarda turli xil maʼno anglatadi: xao– jen – yaxshi odam, sio xao – yaxshilik qilish, dzio xao– qadimgi doʻstlik xao vo – bu kishi meni yaxshi koʻradi.

Hind-Yevropa tillarida tovushning pasayishi yoki koʻtarilishi morfologik ahamiyatga ega emas, ammo xitoy tilida tovushning pasayishi va koʻtarilishi natijasida feʼning hozirgi va oʻtgan zamon formalari yasaladi.

II. Agglutinativ tillar

Agglutinativ tillarga turkiy va fin-ugor tillari oilasidagi moʻgʻul tillari, dravid tillari, bantu tillari, yapon va boshqa tillar kiradi.

Agglutinativ tillarning boshqa tillardan ajralib turadigan asosiy grammatik xususiyatlari quyidagilar:

1. Affikslar bir maʼnoni ifodalaydi; soʻz sostavida ishtirok etayotgan har bir affiks faqat bir maʼnoni anglatgan holda birin-ketin yopishib kela beradi. Masalan, oʻzbek tilida studentlarga soʻzida -lar koʻplik, -ga joʻnalish kelishigi maʼnosini ifodalaydi, vengr tilida haz – uy, hazba– uyda, hazak – uylar, hazakba – uylarda.

Flektiv tillarda esa bir affiks bir vaqtning oʻzida bir necha grammatik maʼno ifodalashi mumkin. Masalan, rus tilida друзьям soʻzida -ям suffiksi bir vaqtning oʻzida ham koʻplik, ham joʻnalish kelishigi, ham rod maʼnosini ifodalaydi.

2. Affikslar oʻzakka mexanik ravishda qoʻshilaveradi, lekin oʻzak bilan juda birikib ketmaydi; oʻzaktan ajralib turadi. Flektiv tillarda esa negiz (yoki oʻzak) bilan juda birikib ketadi; oʻzak va affikslar mustaqil holda qoʻllanmaydi. Qiyos qiling: maktablardan, вижу (oʻzagi vid).

3. Turkiy tillarda prefiks yoʻq, grammatik maʼnolar affikslar orqali ifodalanadi. (Oʻzbek tilida tojik tilidan oʻzlashib qolgan ayrim prefikslargina mavjud.) Affikslarning ketma-ket qoʻshilishi natijasida soʻzning kengayishi faqat bir tomonga, yaʼni oʻng tomonga yoʻnalgan boʻladi. Flektiv tillarda esa prefiks ham, suffiks ham mavjud: Turkiy tillarda koʻmakchilar (posleloglar) otdan yoki ot vazifasidagi soʻzdan keyin kelib, uni boshqa soʻzga – boshqaruvchiga bogʻlaydi va ular orasidagi sintaktik munosabatlarni ifodalaydi. Masalan, Tinchlik uchun kurashamiz.

5. Turkiy tillarda grammatik rod (jins) kategoriyasi yoʻq. Shunga koʻra gapda soʻzlarning oʻzaro sintaktik aloqaga kirishuvi oʻzgacha: turkiy tillarda, jumladan, oʻzbek tilida sifat, son, olmosh, sifatdoslar ot bilan bitishuv munosabatiga kirishadi. Rus tilida esa bunday soʻzlarning birikuvi moslashuvdir. Qiyos qiling: katta bino, beshta daftar, bu odam, oʻqiyotgan bola; большо́й дом, второ́рая книга, пя́ть курс.

Hind-Yevropa tillarida kesimning morfologik belgilari faqat feʼlga qoʻshilsa, turkiy tillarda kesim vazifasida kelgan har bir soʻz turkumiga qoʻshilishi mumkin. Qiyos qiling: Это здание-институт; Men ukam bilan kinoga bordim. Biz baxtiyormiz. Bu bino institutdir.

III. Flektiv tillar.

Flektiv tillarga hind-yevropa (rus, nemis, latin, hindu va boshqa tillar), som (arab, ivrit) tillari kiradi. Soʻzning morfologik formalarining fleksiya orqali yasalishi bu tillarning asosiy morfologik xususiyatidir. Bu tillarda har bir mustaqil soʻzning dastlabki shakli ham negiz va qoʻshimchalarga boʻlinadi, natijada oʻzak-negiz mustaqil qoʻllanmaydi. Masalan, rus tilida сижу, сидишь, сидят soʻzlarining oʻzak-negizi сид, сиж boʻlib, bular mustaqil ishlatilmaydi. Bundan tashqari, flektiv tillarda (agglutinativ tillardan farqli oʻlaroq) bir qoʻshimcha bir necha grammatik maʼno ifodalashi mumkin. Masalan, rus tilida: видел soʻzidagi -ел qoʻshimchasi zamon (oʻtgan zamon), son (birlik), shaxs (birinchi), mayl, rod maʼnolarini ifodalaydi.

Flektiv tillarga soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartuvchi funksiyani bajaradigan ichki fleksiya xos. Bunda oʻzak-negizda tovush almashuvi bilan turli grammatik maʼnolar ifodalanadi.

Ichki fleksiyada undosh tovushlar ham, unli tovushlar ham oʻzgarishi mumkin. Ingliz va nemis tillarida koʻproq unli tovush oʻzgarsa, rus tilida koʻproq undosh tovushlarning oʻzgarishi kuzatiladi.

Ichki fleksiya yordamida nemis va ingliz tillarida otning birlik va koʻplik formalari yasalishi mumkin. Masalan:

nemis tilida – Brüder aka Brüder akalar

IV. Polisintetik tillar.

Polisintetik tillarga Amerika hindlari, chukot, koryak va boshqa tillar kiradi. Bu tillarning asosiy morfologik xususiyatlari – ega, aniqlovchi, toʻldiruvchi va holni ifodalab kelgan soʻzlar feʼl bilan birikib, murakkab tarkibli qoʻshma soʻz formasiga oʻxshash gap hosil qilishidir. Bunda gap boshida ega, oxirida kesim, toʻldiruvchi, hol, aniqlovchilar esa ega bilan kesimning oʻrtasida keladi. Masalan, chukot tilida tiata-kaa-nmi-rkiin– Men semiz bugʻularni oʻldiryapman. Tillarning yuqorida koʻrib oʻtilgan toʻrt tipga ajratilishi dunyo tillari soʻz strukturasi qiyoslab oʻrganishning natijasidir. Ammo tillarni toʻrt (oʻzakli, agglutinatív, flektiv va polisintetik) tipga ajratish nihoyat darajada nisbiydir. Gap shundaki, sof agglutinatív yoki flektiv til boʻlmaganidek sof oʻzakli yoki sof polisintetik til ham boʻlmaydi. Masalan, agglutinatív til hisoblangan turkiy tillarda fleksiya ham uchraydi.

XIX-XX asrlarda tuzilgan mavjud morfologik klassifikatsiya hozirgacha oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq. U tillarning grammatikalarini tuzishda, ularning tarixini oʻrganishda va dunyo tillarini qiyosiy-tipologik yoʻl bilan tadqiq qilishda xizmat qilib kelmoqda.

Analitik va sintetik tuzumdagi tillar

Tillarning tipologik xarakteristikasida yana analitik va sintetik tuzumdagi tillar farq qilinadi.

Analitik tillarning xususiyati shundan iboratki, bu tillarda grammatik munosabatlar qoʻshimchalar (affikslar) orqali emas, analitik vositalar (soʻz tartibi, bogʻlovchi, koʻmakchi va boshqalar) yordamida ifodalanadi. Ingliz, fransuz, fors kabi tillar mana shunday tillardir.

Sintetik tillarda grammatik maʼno qoʻshimchalar orqali, yaʼni soʻzning sostavida ifodalanadi. Masalan, rus tilida книга soʻzi leksik maʼnodan tashqari bir necha grammatik maʼnolarni ham ifodalaydi (винительный падеж, birlik va женский род).

Sintetik tillarga qadimgi hind-yevropa tillari, hozirgi litva, nemis, slavyan tillarining koʻpchiligi kiradi. Analitik tillarga esa roman tillari, ingliz tili, daniya tili, yangi grek tili va boshqa tillar kiradi.

Shuni ham qayd qilish kerakki, sof analitik yoki sof sintetik tillar boʻlmaydi. Sintetik til hisoblangan rus tilida analitik tillarga xos xususiyatlar ham uchraydi. Masalan, kelasi zamon yordamchi feʼl yordamida yasaladi: **Будуписать, будешьписать, будутписать, будемписать**. Analitik til hisoblangan ingliz tilida esa sintetik tillarga xos xususiyatlar uchraydi va hokazo.

Fonetikaning predmeti tilning tovush tomoni, fonetik qurilishidir. Tilning tovush tomoni nutq tovushlari boʻgʻin, urgʻu, ohang (intonatsiya, melodika) kabi birliklarni oʻz ichiga oladi.

Fonetikaning maqsadi fonetik birliklarning fizik-akustik, anatomik-fiziologik va lingvistik-funksional asoslarini oʻrganish, ularning til mexanizmidagi rolini aniqlashdan iborat. Bunday maqsad uning quyidagi vazifalarini belgilaydi: a) tovush, urgʻu, melodika kabi birliklarning yuzaga kelish qonuniyatlarini oʻrganish; b) talabalarni yuqoridagi qonuniyatlar va shu qonuniyatlarga oid ilmiy-nazariy fikrlar bilan tanishtirish; v) adabiy tilning fonetik-fonologik tizimiga oid munozarali masalalarni aniqlash, ularga munosabat

bildirish; g) talabalarda fonetik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish; d) talabalarga shu sohada ishlagan fonetist-fonologlar haqida qisqacha ma'lumot berish.

Har qanday tilning fonetik birliklari dastlab ikki guruhga—segment va supersegment birliklarga bo'linadi: a) segment birliklarga nutq tovushlari va bo'g'in kiradi. Bunday birliklar so'z yoki morfemalar tarkibida birin-ketin keladi, yotiq (gorizontal) yo'nalishda bir-biriga ulanib, zanjirsimon tarzda joylashadi. Masalan: *kitob* so'zidagi 5ta tovush (k,i,t,o,b) va ikkita bo'g'in (*ki-tob*) segment birliklar, demak, shu so'z tarkibidagi qismlar sanaladi; b) supersegment birliklarga urg'u, ohang, melodika, pauzalar kiradi. Bunday birliklar so'zga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit aloqador bo'lib, ularni so'z, gap yoki nutqdan ajratilgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ularni ustama hodisa (M.Mirtojiev) deb nomlash hollari ham uchraydi.

Fonetik birliklar til tizimida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1)shakllantiruvchi vazifa (ruscha: *образующая функция*). Bunda fonetik birliklarning so'z yoki morfemalar tarkibida yoxud gap va nutq tuzilishida qurilish materiali sifatida ishtirok etishi nazarda tutiladi. Chunonchi, *paxta* so'zining tarkib topishida 5 ta tovush (p, a, x, t, a), ikkita bo'g'in (*pax-ta*) va bitta so'z urg'usi (*paxta*) "qurilish materiali" vazifasida qatnashgan, bu birliklarning shu tartibda joylashtirilishidan *paxta* so'zining tovush qiyofasi - fonetik so'z shakllangan. Ohang, melodika, pauza kabi supersegment birliklar esa gap qurilishida yoxud nutqning tarkib topishida ustama hodisa sifatida qatnashadi: darak so'roq va buyruq gaplarning o'ziga xos intonatsiyalari, she'riy misralardagi ohang tovlanishlari bunga misol bo'ladi;

2) tanituvchivazifa (ruscha: *опознавательная функция*). Bundafonetikso'z tarkibidagifonetik birliklarningshuso'znivauningma'nosini "tanibolish" va "eslabqolish" uchunxizmatqilishinazardatutiladi: so'zvauningma'nosi (yoxudmorfemavauningma'nosi) shuso'zning (yokimorfemaning) fonetikqobig'itufayliginainsonxotirasidadoimiyayashaydi. Masalan, inson*paxta*so'zini (fonetikso'zni) eshitgandayokio'qiganda, uningxotirasida "g'o'zao'simliginingoqtolaliyumshoqmahsuli", *taxta*so'zinieshitgandayokio'qigandaesa "g'o'ladanuzunasigatilibolinganyassiyog'ochbo'lagi" esgakeladi, buholharbirso'zningfonetikqobig'ibilanshuso'zningmazmunplanidagima'nolaro'rtasidadoimiyaloqaborligidan (shaklvamazmunbirligidan) dalolatberadi. Ko'pchilikso'zlarningfonetik tarkibio'zarofarqlibo'lishinihisobgaolsak, bundayfarqlarso'zma'nolarinitafovutlashuchunxizmatqilishihamma'lumbo'ladi: "*qishloq*"ni "*pishloq*"dan, "*g'o'za*"ni "*ko'za*"dan, "*uy*"ni "*kuy*"danfarqlashimkoniyaratiladi. Demak, so'z va grammatik formalar o'zining tovush materiyasi tufayligina nutqda ma'lum ahamiyat kasb etadi. Tovushgina so'z yoki so'z shaklini eshituvchi uchun borliq tusiga kiritadi.

Fonetika fani tilning tovush tomonini turli usulda va turli maqsadlarda o'rganadi, shunga ko'ra uning quyidagi turlari o'zaro farqlanadi:

1. Umumiy fonetika. Fonetikaning bu turi barcha tillarning tovush tomoni uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar va hodisalar bilan tanishtiradi. Masalan, barcha tillarda fonetik birliklarning fizik-akustik tabiati, anatomik-fiziologik (biologik) asosi va lingvistik-funksional jihatlari bor; barcha tillarda nutq tovushlari fonema tiplariga birlashadi, barcha tillarda fonemalar fonologik oppozitsiyalar (ziddiyatlar) va korrelyatsiyalarni yuzaga keltiradi, shular orqali fonologik sistemalar shakllanadi. Tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatiga xos bo'lgan bunday nazariy masalalarni ko'rish umumiy fonetika predmeti sanaladi.

2. Xususiy fonetika. Fonetikaning bu turi konkret bir tilning fonetik tizimi haqida ma'lumot beradi: o'zbek tili fonetikasi, rus tili fonetikasi, ingliz tili fonetikasi kabi.

Xususiy fonetika ayrim olingan bir tilning fonetik tizimini o'rganishda umumiy fonetika xulosalariga, shuningdek, fonetikaning boshqa turlarida to'plangan tajribalarga tayanadi.

Uning quyidagi ikki turi bor:

a) *tavsifiy fonetika*. Bunda ayrim olingan bir tilning fonetik tizimi, undagi fonetik hodisalar va faktlar statik holatda (shu tilning oldingi tarixiy taraqqiyoti bilan bog'lanmay) o'rganiladi. Xususan, "Hozirgi o'zbek adabiy tili fonetikasi" ham aslida tavsifiy fonetikadir, chunki unda o'zbek tilining fonetik tizimi, bu tizimda mavjud bo'lgan fonetik faktlar (unli va undosh tovushlarning miqdor va sifat belgilari, tasnifi, urg'u, bo'g'in va hokazolar) hozirgi o'zbek tilida qanday bo'lsa, shundayligicha (tarixiy jarayon va faktlarga bog'lanmay) o'rganiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining tavsifiy fonetikasi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursi bo'yicha nashr etilgan ko'pchilik darsliklarda, shuningdek, "Узбекский язык" (Решетов В.В., 1959 г.), "Основы фонетики и грамматики узбекского языка" (Решетов В.В., 1965 г.), "Общая характеристика особенностей узбекского вокализма" (Решетов В.В., 1949 г.), "Фонетическая система узбекского литературного языка" АДД (Махмудов А., 1980 г.), "Hozirgi o'zbek adabiy tili" dan metodik ko'rsatmalar va konspektiv kurs: fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiya (Tursunova T., Jamolxonov H., 1981y.), "O'zbek tili fonetikasi" (Mirtojiev M.M., 1991y., 1-nashri; 1998y., 2-nashri), "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Ma'ruzalar matni (Jamolxonov H., 2000 y.) kabi ishlarda hamda "Сочетание гласных и согласных в современном узбекском литературном языке" (И. Ишаев, 1985 г.), "Редукция гласных в узбекском языке: тип, функция, программирование" (С. Атамирзаева, Х. Йулдашева, Д. Маматов, 1985 г.) kabi maqolalarda bayon etilgan;

b) *tarixiy fonetika*. Bunda ayrim olingan bir tilning fonetik tizimi, undagi fonetik hodisalar va faktlar shu tilning uzoq tarixiy taraqqiyoti bilan bog'lab o'rganiladi, shu asosda muayyan tilning fonetik- fonologik tizimida yuz bergan tarixiy o'zgarishlar (divergensiya, konvergensiya faktlari, fonologik tizimdagi eskirish va yangilanish jarayonlari) aniqlanadi. Shunga ko'ra u *diaxron fonetika* deb ham yuritiladi.

3. Qiyosiy fonetika. Fonetikaning bu turi qardosh tillarning (masalan, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman va boshqa turkiy tillarning) fonetik tizimidagi umumiy va xususiy jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

O'zbek va rus tillari fonetikasini qiyosan o'rganish rus maktablarida o'zbek tilini, o'zbek maktablarida esa rus tilini o'qitish uslubiyatini takomillashtirish nuqtai nazaridan, shuningdek, o'zbek-rus bilingvizmi (ikki tilliligi) masalalarini, bunday bilingvizmning har ikkala til strukturasi va sistemasiga ta'sirini aniqlash pozitsiyasidan foydalidir.

4. Eksperimental (instrumental) fonetika. Fonetikaning bu turida nutq tovushlarining fizik-akustik va artikulyatsion jihatlari maxsus asboblarda (pnevmoqraf, ossilograf, fonograf, spektrograf va boshqalar) yordamida tadqiq qilinadi, shu asosda tovushlarning sifat va miqdor belgilari (balandligi, kuchi, tembri, spektri, cho'ziqlik darajasi), ularning artikulyatsiyasi (hosil bo'lish o'rni, usuli) aniqlanadi. Bunday tadqiqot natijalaridan fonetik birliklarning fonologik jihatlari tavsiflashda foydalaniladi.

Tekshirish savollari:

1. Fonetikaning predmeti?
2. Fonetikaning maqsadi?
3. Fonetik birliklarga nimalar kiradi?
4. Segment va supersegment birliklar qanday farqlanadi?
5. Fonetik birliklarning shakllantiruvchi va tanituvchi vazifalarini qanday tushunasiz?
6. Fonetik so'z nima?
7. Fonetikaning qanday turlari bor?
8. Umumiy fonetika nimani o'rganadi? Xususiy fonetika-chi?
9. Tavsifiy (sinxron) va tarixiy (diaxron) fonetikalarning farqi nimada? Bu sohalarda ishlagan va ishlayotgan tilshunoslardan kimlarni bilasiz?
10. Qiyosiy va eksperimental fonetikalarda nimalar tadqiq qilinadi? Bu sohaga oid ishlardan qaysilarini bilasiz?

Mavzu: Hozirgi o'zbek adabiy tilining unli va undosh fonemalari. Bo'gin, urg'u. Fonetik jarayon.

Reja:

1. Unli fonemalar haqida.
2. Unli fonemalar tasnifi.
3. Undosh fonemalar tasnifi.
4. Undosh fonemalar tavsifi.

Vokalizm o'zbek adabiy tilining unlilari tizimidir. U 6 ta fonemani – i, e, a, u, o', o tovushlarini o'z ichiga oladi. Fonemalar miqdori bilan harflar (grafemalar) miqdori o'rtasidagi bunday har xillik ularning boshqa-boshqa hodisalar ekanligidan dalolat beradi.

Unli fonemalar undoshlardan quyidagi belgilariga ko'ra farqlanadi: a) fizik-akustik jihatdan: unlilar ovozdan tarkib topadi, unda shovqin qatnashmaydi. Undosh tovush tarkibida esa shovqinning bo'lishi shart; b) anatomik-fiziologik jihatdan: unli tovushlar talaffuzida nutq a'zolari to'siq (fokus) hosil qilmaydi, bu hol o'pkadan kelayotgan havo oqimining og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramay o'tishini ta'minlaydi. Undoshlar artikulyatsiyasida esa, albatta, to'siq (fokus) hosil qilinadi, havo oqimi shu to'siqdan portlab, sirg'alib yoki titrab o'tadi, bu jarayon undosh tovush uchun kerak bo'lgan shovqinni yuzaga keltiradi; c) lingvistik-funksional jihatdan: unlilar ham, undoshlar ham so'z va morfema tarkibida "qurilish materiali" sifatida (shakllantiruvchi funksiyada) qatnashadi; shakllantirilgan fonetik so'z yoki morfemalarning tovush qobig'ini bir-biridan farqlaydi, shu orqali ularning ma'nolarini tafovutlash imkonini yaratadi. Yana: unlilar bo'gin hosil qiluvchi asosiy tovushdir, undosh fonemalar esa unli bilan birga qatnashadi, o'zicha bo'gin hosil qilmaydi (sonantlar bundan mustasno, chunki ularda bo'gin hosil qilish xususiyati bor)¹. Shuning uchun bo'gin tarkibidagi unli shu bo'ginning cho'qqisi ("vershina sloga") sanaladi. Bundan tashqari, unlining yolg'iz o'zi leksik yoki morfologik birlik statusiga ko'tarilishi mumkin: uchinchi shaxs, birlik ma'nosidagi "u" olmoshining, shuningdek, "a?" so'roq yuklamasining ifoda plani ---moddiy-material asosi bir unlidan iboratligi buning dalilidir. Undoshlarda esa bu xususiyat yo'q.

O'zbek tilshunosligida unli fonemalar quyidagi uch belgi asosida tasnif qilinadi:

1. Lablarning ishtirokiga ko'ra: a) lablashgan unlilar (u, o', o). Bu unlilarni talaffuz qilishda lablar doira shaklida bir oz cho'ziladi; b) lablashmagan unlilar (i, e, a). Bu unlilarni talaffuz qilishda lablar doira shakliga kirmaydi va cho'zilmaydi. Tasnifning bu turi fonologik sistemadagi "lablanish-lablanmaslik oppozitsiyasi" talablaridan kelib chiqadi.

2. Tilning vertikal harakatiga ko'ra: a) yuqori tor unlilar (i, u). Bu unlilarni talaffuz qilishda og'iz tor ochiladi, til bilan qattiq tanglay orasi ham tor bo'ladi; b) o'rta keng unlilar (e, o'). Bu unlilarni talaffuz qilishda og'iz o'rta darajada ochiladi, til bilan qattiq tanglay orasi ham o'rtacha kenglikda (yuqori ko'tarilish bilan quyi ko'tarilish orasida) bo'ladi; v) quyi keng unlilar (a, o). Bu unlilarni talaffuz qilishda og'iz keng ochiladi, til bilan qattiq tanglay orasi ham yuqoridagi ikki holatdan ancha keng bo'ladi. Tasnifning bu turi fonologik sistemadagi "tilning uch darajali ko'tarilishi" oppozitsiyasiga asoslanadi.

3. Tilning gorizontal (yotiq) harakatiga ko'ra: a) old qator unlilar (i, e, a). Bu unlilarni talaffuz qilishda tilning uchki qismi pastki tishlarga tiraladi (demak, oldinga cho'ziladi); b) orqa qator unlilar (u, o', o). Bu unlilarni talaffuz qilishda tilning uchki qismi pastki tishlarga tiralmaydi (demak, bir oz orqaga tortilgan bo'ladi).

Tasnifning birinchi va ikkinchi moddalaridagi belgilar (lablanish-lablanmaslik tilning yuqori, o'rta va quyi ko'tarilishiga asoslangan alomatlar) fonemalarning fonologik xususiyatlarini ifodalaydi. Uchinchi moddadagi belgi (yotiq harakatdagi alomatlar) esa o'zicha fonologik rol o'ynamaydi, chunki tovushlarning old qator yoki orqa qator bo'lishi

¹Sonantlarning bo'gin hosil qilishi haqida qarang: Mahmudov A. Сонорные узбекского языка.- Т.: "Fan", 1980, 5 va 34-betlar.

lablarning ishtirokiga bog'liq: lablanmaslik tilning tish tomon siljishini, lablanish esa tilning tishdan orqaga tortilishini taqozo qiladi. Demak, old qator (i,e,a,) va orqa qator (u,o',o) unlilarining fonologik xususiyati lablar ishtirokisiz namoyon bo'lmaydi.

Tasnifning bu turi quyidagi jadval shaklida berilishi mumkin;

№	Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra	Tilning gorizontal (yotiq) harakatiga va lablarning ishtirokiga ko'ra.	
		Old qator, lablanmagan	Orqa qator, lablangan
1.	Yuqori tor unlilar	i	u
2.	O'rta keng unlilar	e	o'
3.	Quyi keng unlilar	a	o

O'zbek tilshunosligida unli fonemalarning boshqacharoq tasniflari ham bor. Chunonchi, "o'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari" (B. To'ychiboyev) nomli qo'llanmada vokalizm tizimining qadimgi turkiy, eski o'zbek va hozirgi o'zbek adabiy tillaridagi holatlari diaxron (tarixiy) planda o'rganilib, hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmida ham, eski o'zbek adabiy tilida bo'lganidek, 9 ta unli bor, degan xulosa beriladi (26,25-b.) Bu unlilarning sifat belgilari ham boshqacharoq baholanadi. Qo'llanmada keltirilgan quyidagi jadvalga e'tibor bering:

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi unlilar tizimi.

Lablarning ishtirokiga ko'ra		Lablanmagan		Lablangan	
Tilning tik harakatiga ko'ra	Tilning to'g'ri yo'nalishiga ko'ra	Til oldi	Til orqa	Til oldi	Til orqa
Tor		i		ō	u
o'rta keng		e		o	ö
Keng		e	ä	a	

Yuqoridagijadvaldanquyidagilarma'lumbo'ladi:

a) hozirgio'zbekadabiytilivokalizmidaunlilarningkontrastjuftlarimavjud: i-ÿ-u, o-o,e-akabi;
b)lablanmaganunlilar 3 taemas, 4 ta (i,e); c) lablanganlaresa 5 ta (u, o',o,o,a);

Prof. O. Azizovhozirgio'zbekadabiytilivokalizmini quyidagichatasnif qiladi (4,20-21):

1. Tilning ko'tarilishi va uning tanglay tomon yaqinlashuviga ko'ra:

- a) til oldi (oldingi qator) unlilari – i (i),e;
- b) til orqa (orqa qator) unlilari – (a), a, u, o;

2. Lablarning holati va ishtirokiga ko'ra:

- a) lablangan – u,ō,o,ö;
- b) lablanmagan – (ä),a, (ã),i.

3. Tilning ko'tarilishi va og'izning ochilish darajasiga ko'ra:

- a) tor unlilar – i(i), u, ō;
- b) o'rta keng unlilar – e,o,ö;
- v) keng unlilar – (ä), a, (ã).

Yuqoridagi tasnifni xulosalab, muallif shunday deydi: "Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida oltida unli fonema bo'lib, ularni belgilariga ko'ra jadvalda shunday ko'rsatish mumkin (4,21-b):

Tilning ko'tarilish o'rniga ko'ra	Til oldi (oldingi qator)		Til orqa qator	
	lablanma-ganlar	Lablan-ganlar	Lablanma-ganlar	Lablan-ganlar
Tilning ko'tarilish va og'izning ochilish darajasiga ko'ra				
Tor unlilar	i	ō		U
o'rta keng unlilar	e	Ö	-	O

Keng unlilar	e(a)	-	a (a)	
--------------	------	---	-------	--

Risoladankeltirilganbuma'lumotlarni (tasnifvajadvalni) quyidagichasharhlashmumkin: o`zbekadabiytilivokalizmi 6 unlidaniborat, ammoularningnutqdagirealko`rinishlari (demak, ottenkalari) anchako`p. "Ularibelgilarigako`rajadvaldashundayko`rsatishmumkin" deyilgandaaynishuottenkalarnazardatutilganbo`lsakerak.

Prof. M. Mirtojievning "O`zbektilifonetikasi" o`quvqo`llanmasidahambumasala o`zgachayoritilgan. Unda tor unlilarga i, i, u, u, o`rta keng unlilarga e,e,o keng unlilarga esa e,a, tovushlari kiritilgan. Tilning yonlama harakatiga ko`ra ular old qator (i, i, u, e, o) va orqa qator (u, o, a) tiplarga, lab ishtirokiga ko`ra esa lablangan (u, u, θ, o) va lablanmagan (i, i, e) tiplarga bo`lingan. Bu tasnifda ruscha o`zlashmalarda qo`llanadigan i, fonemalarining o`zbek tili vokalizmi tarkibida berilganini ko`ramiz (16,16-20).

Shunday qilib, o`zbek adabiy tili vokalizmining tasnifi va tavsifi masalalari hozircha ancha munozarali bo`lib qolayotganligini anglash qiyin emas. Bunday munozaralarga sabab bo`layotgan omillar qatorida quyidagilar bor: 1) eski o`zbek adabiy tili vokalizmiga xos 9 unlili tizimning hamda shu tizimga xos kontrast juftliklarning (i-, u-u, -a, θ-o kabi oppozitsiyalarning) hozirgi o`zbek adabiy tili vokalizmida ham saqlanganligini asoslashga intilish; 2) qipchoq lahjasi shevalari vokalizmiga xos fonologik xususiyatlarning hozirgi o`zbek adabiy tili vokalizmida borligini asoslash harakati; 3) fonemalar o`rnida ularning ottenkalarini (allofonlari, variatsiyalarini) ko`rsatish holatlarining mavjudligi; 4) quyi keng "a" fonemasining lablanish-lablanmaslik belgisiga berilayotgan tavsiflarning har xilligi va boshqalar.

Ayrim unlilar tavsifi:

"i" fonemasi- yuqori tor, old qator, lablanmagan unli. Bu fonema so`zning barcha bo`g`inlarida uchraydi; *ikki* (birinchi va oxirgi bo`g`inlarda), *birinchi* (birinchi,ikkinchi va oxirgi bo`g`inlarda) kabi. U chuqur til orqa q, g`, x undoshlari bilan yonma-yon kelganda yo`g`on (orqa qator) unli tarzida, boshqa barcha pozitsiyalarda esa ingichka (old qator) unli sifatida talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *kir* va *qir*, *tarkib* va *targ`ib*, *himmat* va *xilvat* kabi. Urg`usiz bo`g`inda kuchsizlanadi: *biroq*, *bilan* (*b`r q*, *b`l n*) kabi. So`zning oxiridagi ochiq bo`g`inda bir oz kengayadi; *bordi*>*borde*, *ketdi* > *kette* kabi:

"e" fonemasi - o`rta keng, old qator, lablanmagan unli. Bu fonema bir bo`g`inli so`zlarda (*men, sen, besh* kabi), ko`p bo`g`inli so`zlarning birinchi bo`g`inida (*beshil*, *etik*, *telpak* kabi) ko`proq qo`llanadi.

Tobe, *tole*, *voqe*, *foye*, *telefon*, *televizor* kabi o`zlashma so`zlarda qo`llangan "e" unlisi etimologik jihatdan o`zbekcha"e" ning o`zi emas.

O`zbekcha "e" *ekin*, *eshik* so`zlarining boshidagi to`la ochiq bo`g`inda, shuningdek, *ertak*, *ellik* kabi so`zlar boshidagi berkitilmagan bo`g`inda ochiqroq talaffuz etiladi, *begzod*, *mergan* kabi so`zlar boshidagi to`la yopiq bo`g`inda yumuqroq bo`ladi; *xez*, *xezlamoq* kabi so`zlarda (chuqur til orqa x undoshi bilan yonma-yon kelganda) esa orqa qator, yo`g`on unli tarzida aytiladi;

"a" fonemasi – quyi keng, old qator, lablanmagan unli. So`zning barcha bo`g`inlarida kela oladi: *anor* (birinchi bo`g`inda), *telpak* (ikkinchi,oxirgi bo`g`inda), *nafaqa* (so`zning uchala bo`g`inida) kabi.

Bu fonema ham, boshqa unlilarda bo`lganidek chuqur til orqa q,g`,x undoshlari bilan yonma-yon qo`llanganda orqa qator, yo`g`on unli tarzida talaffuz qilinadi, sayoz til orqa q, g, ng, til o`rta y va faringal h undoshlari bilan yondosh bo`lganda esa sayoz til orqa, ingichka ottenka bilan aytiladi. Qiyos qiling: *kasal* va *qasam*, *kamar* va *qamar*, *taka* va *taqa*, *mahal* va *shag`al*, *so`gal* va *nag`al*, *nasihat* va *tilxat*, *dangal* va *dag`al* kabi;

"u" fonemasi – yuqori tor, orqa qator, lablashgan unli. So`zning barcha bo`g`inlarida qo`llanadi: *uka* (birinchi bo`g`inda), *uzum* (birinchi, ikkinchi bo`g`inlarda), *ko`zgu* (oxirgi ochiq bo`g`inda) kabi. Urg`uli bo`g`inda kuchli, bir oz cho`ziq; urg`usiz bo`g`inda esa qisqa, kuchsiz talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *butun*, *uchun*, *tuzuk* (birinchi bo`g`inlar – urg`usiz,

oxirgi bo`g`inlar- urg`uli) kabi. Bu unli ham q, g, x bilan yondosh qo`llanganda yo`g`onlashadi (orqa qator ottenkaga aylanadi), q, g, ng, y, h kabi undoshlar bilan yonmayon kelganda esa old qator, ingichka ottenka bilan aytiladi. Qiyos qiling: *kul* va *qul*, *tugun* va *turg`un*, *ko`zgu* va *qayg`u*, *buyuk* (buy uk) va *urug`*, *hukm* va *xulq*, *guv* va *g`uv*, *mangu* va *urg`u* kabi;

“o” fonemasi – o`rta keng, orqa qator, lablashgan unli. Sodda so`zning birinchi bo`g`inida qo`llanadi: *o`n*, *bo`r* (bir bo`g`inli so`zlar), *o`tin*, *to`lqin* (ikki bo`g`inli so`zlar) kabi. Birinchi bo`g`indan keyin qo`llanish holatlari ayrim qo`shma so`zlarda (*gultojixo`roz*, *Go`ro`g`li* kabi) yoki tojikcha o`zlashmalarda (*obro`so`zida*) uchraydi. Bu unli ham q, g, h, y undoshlari yonida ingichkalashadi (old qator ottenka bilan qo`llanadi), q, g, x undoshlari yonida esa yo`g`on talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *ko`l* va *qo`l*, *go`l* va *g`o`r*, *ho`l* va *xo`r* (“xo`r bo`lmoq”), *yo`l* va *xo`sh* kabi;

“o” fonemasi –quyi keng, orqa qator, kuchsiz lablashgan unli. Bu fonema ham so`zning barcha bo`g`inlarida uchraydi: *ota* (birinchi bo`g`inda), *bahodir* (ikkinchi bo`g`inda), *baho* (oxirgi bo`g`inda), *bobo* (har ikkala bo`g`inda) kabi; q, g, y, h undoshlari yonida ingichka (old qator unli tarzida), q, g, x undoshlari yonida esa yo`g`on (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *komil* va *qobil*, *gov* va *g`ov*, *yosh* (*yosh*) va *qosh*, *hol* va *xol* kabi.

IZOH: *yer*, *bayon*, *tayoq*, *yaxshi*, *yurak* kabi so`zlar tarkibidagi unli fonemalarga tavsif berilganda *ye*, *yo*, *yu*, *ya* grafemalarining ikkitadan tovushni (*y+e*, *y+o*, *y+u*, *y+a* fonemalarini) ifodalayotganligi hisobga olinadi, shunga ko`ra “y” undoshi alohida “e”, “o”, “u”, “a” unlilari ham alohida tavsiflanadi.

Undosh tovushlar. Konsonantizm hozirgi o`zbek adabiy tili undosh fonemalari tizimidir. U 24 fonemani - b, v, g, d, j, j, z, y, q, l, m, n, ng, p, r, s, t, f, h, ch, sh, q, g, h tovushlarini o`z ichiga oladi. Ayrim manbalarda qorishiq "S" undoshi ham o`zbek tili konsonantizmi tarkibiga kiritilgan, shunga ko`ra o`zbek tili undoshlari 24 ta emas, 25 ta deb qaralgan (1-25, 54, 65-b.).

Undosh tovushning shakllanishida, albatta, shovqin qatnashadi, u nutq apparatidagi (masalan, og`iz bo`shlig`idagi) aktiv va passiv a`zolarining bir-biriga tegishi yoki juda yaqinlashishi natijasida hosil bo`lgan to`siqdan havo oqimining portlab yoki sirg`alib (a`zolariga ishqalanib) o`tishidan paydo bo`ladi. Bunday to`siq fonologiyada fokus deyiladi. Demak, undoshlarda fokusning bo`lishi shart.

Undoshlar tasnifi. Bunda o`zbek tili konsonantizmi tizimiga xos asosiy fonologik jihatlar – artikulyatsiya o`rni (tovushning fokusi), artikulyatsiya usuli va jarangli-jarangsizlik belgilari hisobga olinadi, shu belgilarni shakllantirishda ishtirok etadigan fizik-akustik va anatomik-fiziologik omillarga tayaniladi. Bunday tasnif quyidagi tartibda berilishi mumkin:

I. *Artikulyatsiya o`rniga ko`ra.* Bunda nutq apparatining qaysi a`zosi faol ishtirok etayotganligi va apparatning qayerida to`siq (fokus) hosil qilinishi nazarda tutiladi. Bu jihatdan tovushlar labial, til va bo`g`iz undoshlariga bo`linadi:

1. Labial undoshlar lablarning faol ishtirokida hosil qilinadi. Ular ikki xil bo`ladi: a) lab-lab undoshlari (bilabial undoshlar)- p, b, m, v⁰. Bu undoshlarning fokusi ikki lab orasida bo`ladi; b) lab-tish undoshlari (labio-dental undoshlar) – v, f. Bu undoshlarning fokusi pastki lab bilan yuqori tishlar orasida bo`ladi.

IZOH: lab-lab "v⁰" undoshi *ov*, *su*v, *qovun*, *sovuq* kabi turkiy so`zlarda ko`proq ishlatiladi. Bu tovushning lab-tish "v" dan o`sib chiqqanligi, lab-tish "v"ning esa b, g, g undoshlarida sodir bo`lgan o`zgarish asosida shakllanganligi haqida ma`lumotlar bor (26,51-b; 18,63-64-b.).¹ Hozirgi o`zbek adabiy tilidagi lab-tish "v" yuqorida keltirilgan turkiy "v" ning o`zi emas, u etimologik jihatdan boshqa til birligidir, chunki bu tovush o`zbek tiliga

¹Yanaqarang: Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X-XIII вв. из Восточного Туркестана.- Москва-Ленинград, 1961, 46-47-б. Ряснен М. Материал по исторической фонетике тюркских языков. –Москва, 1955.

arab va rus tillaridan o'zlashgan so'zlarda qo'llanadi; *vatan* (arab.), *vaqt* (arab.) *va'da* (arab.), *vagon* (rus.), *aviatsiya* (rus.) kabi.

Ayrim manbalarda hozirgi o'zbek adabiy tilida lab-lab "f" va lab-tish "f" undoshlari borligi qayd etilgan (16, 26-27-b). Bizningcha, hozirgi o'zbek adabiy tilida bitta lab-tish "f" ning o'zi bor, lab-lab "f" esa alohida mustaqil fonema emas, balki lab-tish "f" ning lablashgan unli ta'sirida (akkomodatsiya qonuniyatiga ko'ra) o'zgargan ottenkasi, xolos. Qiyos qiling: *fasl* ("f"-lab-tish), *fusunkor* ("f"- lab-lab), *afv* ("f"-lab-tish), *ufq* ("f"- lab-lab) kabi.

2. Til undoshlari - tilning faol ishtirokida hosil bo'ladigan undosh fonemalar. Ular tovush fokusi qayerda hosil bo'lishiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi: 1) til oldi undoshlari: a) til oldi dorsal undoshlar -s, z. Bu undoshlar artikulyatsiyasida tilning uchi pastki tishlarga tiraladi, tilning ikki yoni esa tarnovsimon bukilib, havo oqimi uchun bo'shliq qoldiradi; b) til oldi - alveolyar undoshlar- t, d, l, n. Bu undoshlar artikulyatsiyasida tilning uchi yuqori tishlar milkiga (alveolaga) taqalib, to'siq (fokus) hosil qiladi; v) til oldi-tanglay (kakuminal) undoshlar- sh, j, ch, j, r. Bu undoshlar artikulyatsiyasida tilning uchi yuqoriga ko'tarilib, bir oz bukilib, natijada to'siq milkda emas, qattiq tanglayning old qismida (milkka etmay) paydo bo'ladi. Sh, j, ch, j undoshlari artikulyatsiyasida ikkinchi fokus- tilning orqaroq qismi bilan yumshoq tanglay orasida yuzaga keladigan to'siq ham ishtirok etadi, shunga ko'ra sh, j, ch, j undoshlari ikki fokusli fonemalar sanaladi; 2) til o'rta undoshi (palatal undosh)-y. Bu undosh talaffuzida tilning o'rta qismi qattiq tanglay tomon ko'tariladi, fokus shu ikki a'zo oralig'ida shakllanadi; 3) sayoz til orqa undoshlari- q, g, n. Bu undoshlarning talaffuzida tilning orqa qismi yumshoq tanglayga tegib, to'siq (fokus) hosil qiladi; 4) chuqur til orqa undoshlari- q, g', x. Bu undoshlarning talaffuzida tilning eng orqa qismi (ildizi) kichik tilga tegib, to'siq (fokus) hosil qiladi, shunga ko'ra ular uvulyar undoshlar deb ham ataladi (1-64-b.).

3. Bo'g'iz undoshi (faringal undoshi)-h. Bu undoshning talaffuzida havo oqimi bo'g'iz va halqumdan ishqalanib o'tadi.

II. *Artikulyatsiya usuliga ko'ra*. Bunda o'pkadan kelayotgan havo oqimining to'siqdan (fokusdan) qay tarzda o'tishi nazarda tutiladi. Bu belgisiga ko'ra undoshlar hozirgi o'zbek tilida quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Portlovchilar - havo oqimining to'siqdan portlab o'tishidan hosil bo'luvchi undoshlar. Bularga b, g, d, p, t, q fonemalari kiradi. Bu undoshlarning talaffuzida nutq apparatidagi ikki a'zo bir-biriga tegib, havo yo'lini to'sadi, natijada portlash yuz beradi.

2. Qorishiq portlovchilar (affrikatalar)- ch, j, s. Bu undoshlar artikulyatsiyasining ish holati ikki xil kechadi: bitta fokusning o'zida portlash va sirg'alish jarayonlari sodir bo'ladi-artikulyatsiya portlash bilan boshlanib, sirg'alish bilan tugaydi.

3. Sirg'aluvchilar - v, j, z, y, l, s, f, x, sh, g', h. Bu undoshlarning talaffuzida nutq apparatidagi ikki a'zo bir-biriga juda yaqinlashadi, ammo jipslashmaydi: havo oqimining sirg'alib o'tishi uchun oraliq qoldiriladi.

4. Yumuq fokusli burun tovushlari (ruscha: смычно-носовые согласные).¹ Bu guruhga m, n, n undoshlari kiritiladi: a) "m" ning artikulyatsiyasida ikkala lab orasida yuzaga kelgan to'siq havo yo'lini yopadi (yumuq fokus yuzaga keladi), natijada, havo oqimi to'siqqa urilib, orqaga qaytadi va burun bo'shlig'idan sirg'alib o'tadi (bunda burun yo'li ochiq holatda bo'ladi); b) "n" ning artikulyatsiyasida til uchi bilan milk orasida havo yo'li yopiladi, orqaga qaytgan havo oqimi (un bilan birga) burun bo'shlig'idan sirg'alib o'tadi: v) "ng" ning artikulyatsiyasida tilning orqa qismi bilan yumshoq tanglay orasida havo yo'li yopilib, burun bo'shlig'ida sirg'alish kechimi sodir bo'ladi.

IZOH: m, n, n undoshlari artikulyatsiyasida portlash sodir bo'lmaydi, chunki havo oqimi burun bo'shlig'i tomon yo'l olganligi uchun uning yumuq to'siqdan portlab o'tishiga

¹Qarang: Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика – М: “Просвещение”, 1976 стр. 122-125.
Буланин Л.Л. Фонетика современного русского языка. – Москва: “Высшая школа”, 1970, с. 56

zarurat qolmaydi: kuch (energiya) sirg`alish tomonga yo`naltiriladi. Shuning uchun bu undoshlarni "portlovchi-sirg`aluvchilar"², "porlovchilar" (26-28- bet) deyish to`g`ri bo`lmas. Ayrim tilshunoslarning bu tip undoshlarni "sirg`aluvchilar" deb baholashi ham shundan bo`lsa kerak (16, 25-b.).

5. Titroq undosh - "r". Bu undoshning talaffuzida tilning uchi qattiq tanglayning old qismi tomon ko`tariladi va havo zarbidan titraydi, havo oqimi tebranadi.

III. *Un paychalari ishtirokiga ko`ra.* Tasnifning bu aspektida un (ovoz) paychalarining tovush hosil qilishda ishtirok etish –etmasligi nazarda tutiladi. Bu belgi asosida undoshlar quyidagi ikki turga bo`linadi:

1. Jarangsiz undoshlar- q, p, t, f, x, s, ch, sh, q, h. Jarangsiz undoshlarning talaffuzida havo oqimi bo`g`izdagi un paychalari orasidan to`siqqa uchramay o`tadi, natijada un paychalari tebranmaydi, ovoz hosil bo`lmaydi, tovush halqumda yoki og`iz bo`shlig`idagi to`siqda yuzaga kelgan shovqinning o`zidagina tarkib topadi.

2. Jarangli undoshlar- b, v, g, d, j, j, z, y, l, m, n, r, g`. Jarangli undoshlarning talaffuzida bo`g`izdagi un paychalari tortilib, taranglashadi, ular oralig`idagi bo`shliq yo`qoladi, natijada o`pkadan kelayotgan havo oqimi un paychalariga urilib, uni tebratadi, tebranish esa ovozni yuzaga keltiradi, ovoz o`z navbatida og`iz bo`shlig`idagi to`siqda paydo bo`lgan shovqinga qo`shilib, tovushning jaranglashuviga sabab bo`ladi.

IV. *Ovoz va shovqin munosabatlariga ko`ra.* Bunda tovush tarkibida ovoz, shovqin va qo`shimcha ton kabi fizik-akustik omillarning ishtirok etish darajasi nazarda tutiladi. Bu belgiga ko`ra undoshlar sonorlar va shovqinlilarga bo`linadi:

1. Sonorlarda ovoz shovqinga nisbatan ustun bo`ladi (shovqin juda kam miqdorda qatnashadi). Hozirgi o`zbek adabiy tilida m, n, ng, l, r, y undoshlari sonor tovushlar (sonantlar) hisoblanadi. Sonorlar rezonator ton manbai nuqtai nazaridan ikki guruhga bo`linadi: a) burun sonantlari- m, n, ng; b) og`iz sonantlari- r, l, y. Bulardan 1) "m"ni talaffuz qilishda bo`g`izdan kelayotgan un (ovoz) ikki lab orasidagi to`siqqa urilib, orqaga qaytadi, shu tarzda yana halqum orqali burun bo`shlig`iga yo`l oladi. Bu jarayonda bo`g`iz, halqum, og`iz bo`shlig`i va burun bo`shlig`i rezonator ton manbaiga aylanadi: shularda qo`shimcha tonlar paydo bo`lib, ovozning shovqinga nisbatan ustun bo`lishi ta`minlanadi; 2) "n"ni talaffuz qilishda bo`g`izdan kelayotgan un (ovoz) tilning uchki qismi bilan yuqori milk orasidagi to`siqqa urilib, orqaga (halqumga) qaytadi, so`ng burun bo`shlig`iga o`tadi (bunda burun yo`lidagi to`siq ochilgan bo`ladi). Natijada og`iz, halqum, bo`g`iz, burun bo`shliqlari rezonator ton manbai vazifasini bajaradi. Ammo og`iz bo`shlig`ining rezonatorlik imkoniyati "m" dagi holatdan kamroq bo`ladi (chunki hajm va shakl o`zgaradi); 3) "ng"ni talaffuz qilishda kelayotgan un(ovoz) tilning orqa qismi bilan yumshoq tanglayning boshlanish qismi orasidagi to`siqdan orqaga qaytib, yana halqum va bo`g`izga boradi, halqum orqali burun bo`shlig`iga o`tadi (bunda ham burun yo`lidagi to`siq ochilgan bo`ladi), natijada og`iz, bo`g`iz, halqum va burun bo`shliqlarida qo`shimcha tonlar paydo bo`lib, ovozning ustunligi ta`minlanadi. Bunda shuni ham alohida ta`kidlash kerakki, "ng"ning artikulyatsiyasida og`izning rezonatorlik imkoniyatlari "m"va"n" sonorlaridagi holatdan ancha cheklangan bo`ladi, chunki bo`g`izdan kelayotgan un tilning orqa qismidagi to`siqdanoq orqaga qaytganligi tufayli, og`iz bo`shlig`ining rezonatorlik maydoni juda qisqaradi; 4) "l" ni talaffuz qilishda to`siq (fokus) tilning uchki qismi bilan ustki tish (milk) orasida yuzaga keladi, ammo tilning ikki yoni ochiq bo`ladi. Undan sirg`alib o`tgan un lunj devoriga tegib, qo`shimcha tonlar hosil qiladi, bunday qo`shimcha tonlar halqum va hiqildoqda (bo`g`izda) ham yuzaga keladi, ammo burun bo`shlig`i rezonator manbai sifatida ishtirok etmaydi, chunki yumshoq tanglay oxiridagi kichik til burunga o`tadigan yo`lni to`sib qo`yadi. Shuning uchun "l" og`iz sonanti hisoblanadi; 5) "r"ni talaffuz qilishda tilning uchi qattiq tanglayning old qismi tomon ko`tariladi, bo`g`izdan kelayotgan havo oqimi

² Mirzaev M, Usmonov S, Rasulov I. O`zbek tili.- T. "O`qituvchi", 1978. 57-59-betlar.

tilning uchiga urilib, uni bir-ikki silkitadi, natijada havo tebranishi yuzaga keladi. Lunjning bir qadar kengayishi rezonator tonning hosil bo'lishiga imkon yaratadi; "r" ning artikulyatsiyasida ham burun bo'shlig'i ishtirok etmaydi, chunki havo oqimining burunga o'tadigan o'rnini kichik til tomonidan to'silgan bo'ladi; 6) "y"ni talaffuz qilishda tilning o'rta qismi qattiq tanglay tomon ko'tariladi, tilning o'zi oldinga siljiydi, uning ikki cheti yon tishlarga, uchi esa pastki tishlar milkiga tegadi. Bu sonorning hosil bo'lishida ham og'iz bo'shlig'i, halqum va bo'g'iz rezonator toni manbai bo'lib xizmat qiladi, ammo burun bo'shlig'i bu jarayonda ishtirok etmaydi (kichik til havo yo'lini to'sib turadi).

Ayrim izohlar: 1) sonorlarning barcha turlarida: a) un paychalari faol qatnashadi; b) rezonatorlar ishtirok etadi; v) ovoz shovqindan ustun bo'ladi; g) sonorlarda hatto bo'g'in hosil qilish xususiyati ham bor. Masalan: za-yl (za-yil), ma-yl (ma-yil), sha-kl (sha-kil), ha-jm (ha-jim), ba-zm (ba-zim), va-zn (va-zin), ze-hn (ze-hin), da-vr (da-vir), sa-yr (sa-yir), sa-br (sa-bir) kabi. Demak, sonorlarning bir jihati (bo'g'in hosil qila olishi) unilarga, boshqa jihatlar esa undoshlarga o'xshaydi. Bu holat ularni unilarga ham, undoshlarga ham zid qo'yish mumkin bo'lgan alohida guruhga birlashtirish imkonini beradi¹. Biroq bunday fikrga qo'shilmaydigan tilshunoslar ham bor. Chunonchi, taniqli fonolog N. S. Trubetskoy bu haqda shunday deydi: "Unli", "undosh"lar tovushga oid bo'lgan akustik tushunchalardir. Ularni ta'riflashda akustik yoki artikulyatsion tushunchalarni hisobga olmaslik albatta, mufaqqiyatsizlikka olib keladi². Adabiyotlarda o'zbek tilidagi sonor tovushlarning tarkibi ham har xil ko'rsatilib kelinmoqda. Xususan, m,n,ng,l,r undoshlarining sonantligi fonetika va fonologiyaga oid adabiyotlarning deyarli barchasida qayd etilgan bo'lsa, "y" ning sonantligi ayrim adabiyotlardagina ta'kidlangan,³ taniqli turkolog E. V. Sevortyan esa o'zbek tili sonorlari qatoriga v,g' undoshlarini ham kiritadi⁴. M Mirtojiev sayoz til orqa "n" dan tashqari, chuqur til orqa "n" ning borligini ham ko'rsatadi, ammo "y" ni sonorlar qatoriga kiritmaydi.⁵

2. Shovqinlilarda ovoz shovqinga nisbatan kam bo'ladi yoki mutlaqo qatnashmaydi. Masalan: b,g,v,d,j,z undoshlarida ovoz kam,shovqin ko'p, ammo qp,s,t,f,hs,ch,sh,q,h undoshlarida ovoz yo'q, bu undoshlar faqat shovqin hisobiga tarkib topgan.

IZOH. "g" undoshi ko'pchilik adabiyotlarda shovqinlilarga qo'shiladi, ammo uni sonant deb hisoblaydigan tilshunoslar ham bor.¹

Tekshirish savollari:

1. Vokalizm nima?
2. O'zbek adabiy tili vokalizmi qaysi fonemalarni o'z ichiga oladi?
3. Unli fonemalar undoshlardan qanday farqlanadi?
4. Unli fonemalar tasnifi nimalarga asoslanadi?
5. Lablarning ishtirokiga ko'ra unilarning turlari?
6. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra unilarning turlari?
7. Tilning gorizontaal harakatiga ko'ra unilarning turlari?
8. Tasnifga asos bo'lgan qaysi belgilar fonologik xarakterda?
9. Qaysi belgi o'z holicha fonologik xususiyatga ega emas?
10. O'zbek tilshunosligida hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmiga oid qanday masalalar munozarali bo'lib qolmoqda?

¹ Bu haqda qarang: Махмудов А. Сонорне узбекского языка. - Т.: "ФАН", 1980, с. 33-34. Yanaqarang: Зиндер Л.Р. Общая фонетика. - Ленинград. 1960. с 108.

² Трубецкой Н.С. Основы фонологии. - Москва. 1960. С. 103.

³ Buhaqdaqarang: Mahmudov A. O'zbektilisonorlari. - "O'zbektiliadabiyoti", 1969, №6. Yanashumullif: Сонорне узбекского языка. Т.: "ФАН" 1980., с. Nurmonov A O'zbektilifonologiyasivamorfologiyasi. Toshkent .

"O'qituvchi" 1990,18-bet.

⁴ Qarang: Севортян Е.В. Материал по сравнительной фонетике турецкого, азербайджанского и узбекского литературных языков. В кн. Исследования по сравнительной грамматике рюрских языков. В 3-х томах. 1. Фонетика. М - 1955. С. 36.

⁵ Qarang: Mirtojiev M. O'zbektilifonetikasi. Т "Universitet", 1998. 23-25-betlar.

¹ . Qarang: Sevortyan E.V. Ko'rsatilgan asar. 36-bet.

11. Unli fonemalarning kombinator va pozitsion ottenkalari qanday farqlanadi? Ularning har biri alohida fonema deb qaraladimi?
12. Konsonantizm nima?

Mavzu: Nutq tovushlarining o'zgarishi. Nutqning asosiy fonetik birliklari.

Reja:

1. Fonetik hodisalar haqida umumiy ma'lumot.
2. Assimilyatsiya.
3. Dissimilyatsiya

Umumiy ma'lumot. Fonemaning nutq oqimida turli ottenkalarda namoyon bo'lishi, bunday ottenkalarning yuzaga kelishida kombinator, pozitsion yoki aralash (kombinator-pozitsion) va b. omillarning ishtiroki borligi yuqorida aytib o'tilgan edi. Fonetik hodisalar ham aslida ana shu omillar mahsuli sifatida sodir bo'ladi. Ularning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

I. Kombinator omillar ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalar:

1. Assimilyatsiya bir xil kategoriyadagi tovushlarning (mas, undosh bilan undoshning) o'zaro moslashuvidir. Bunday moslashuvning quyidagi turlari bor:

a) *progressiv assimilyatsiya*- oldingi tovushning keyingi tovushni o'ziga moslashtirishi: *ketdi>ketti* (td>tt), *ekgan>ekkan* (kg>kk), *qishloqqa>qishloqqa* (qg>qq) kabi;

b) *regressiv assimilyatsiya*. Keyingi tovushning oldingi tovushni o'ziga moslashtirishi: *tuzsiz>tussiz* (zs>ss), *birta>bitta* (rt>tt) kabi;

v) *to'liq assimilyatsiya*. Bunda kuchli va kuchsiz pozitsiyadagi tovushlar bir-biriga aynan moslashadi (ular o'rtasida neytrallashuv sodir bo'ladi): *nonvoy>novvoy* (nv>vv), *terak-ga>terakka* (kg>kk) kabi;

g) *to'liqsiz assimilyatsiya*. Bunda kuchli va kuchsiz pozitsiyadagi tovushlar bir-biriga qisman moslashadi: *tan-bur>tambur* (nb>mb), *shanba>shamba* (nb>mb) kabi. Bu so'zlarda "n" (til-tish undoshi) lab-lab "b"ga faqat artikulyatsiya o'rni jihatdan moslashgan (lab-lab "m"ga o'tgan), ammo boshqa belgilari moslashmagan. Qiyos qiling: "m"-sonor, "b"-shovqinli; "m"-yumuq fokusli burun tovushi, "b"-sof portlovchi kabi;

d) *kontakt assimilyatsiya* - ketma-ket joylashgan tovushlarning o'zaro moslashuvi (q. yuqoridagi misollar);

e) *distant assimilyatsiya* - so'z tarkibida bir-biridan uzoqroqda joylashgan tovushlarning o'zaro moslashuvi: *sichqon>chichqon*, *soch>choch* kabi.

O'zbek tilida o'zak bilan affiksdagi unlilar assimilyatsiyasi ham uchraydi. Assimilyatsiyaning bu turi singarmonizm (unlilar uyg'unlashuvi) deb ham nomlanadi. Bunda unlilarning uyg'unlashuvi lab garmoniyasi va til garmoniyasi (lingval garmoniya) shaklida namoyon bo'ladi. Masalan: *keldi*- "e" (old qator), "i" (old qator). Bunda o'zak va affikslar tarkibidagi har ikkala unli old qatordir (til garmoniyasi); *qoldi*- "o" (orqa qator), "i" (orqa qator). Bunda affiksdagi old qator "i" o'zakdagi orqa qator "o"ga moslashgan- "i"ning orqa qator ottenkasi yuzaga kelgan (bu ham til garmoniyasi hisoblanadi); lab garmoniyasi ko'proq shevalarda uchraydi: *o'g'lim* (adabiy tilda)- *ulum* (qipchoq lahjasi shevalarida). Bunda o'zak va qo'shimchalardagi unlilarning lablanish jihatdan moslashuvi sodir bo'ladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida assimilyatsiyaning bu turi deyarli uchramaydi.

Assimilyatsiyada fonemaning kombinator ottenkasi yuzaga keladi (o'zgarish tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida bo'lganligi uchun).

2. Akkomodatsiya – turli kategoriyalardagi tovushlarning, masalan, unli bilan undoshning o'zaro ta'siri tufayli yuzaga keladigan moslashuv. Masalan: *kisht* (k'sht: "i"ning old qator ottenkasi, u sayoz til orqa "k" undoshiga moslashgan)- *qish* (qsh: "i"ning orqa qator ottenkasi, u chuqur til orqa "q" undoshiga moslashgan). Ba'zan unli undoshga emas, aksincha, undosh unliga moslashadi. Masalan, lab-tish (labio-dental) "f" undoshi lablashgan

"u" unlisi ta'sirida lab-lab "f"ga aylanishi mumkin. Qiyos qiling: *faqat* ("f"- lab-tish), *nufuz*("f" –lab-lab), *aft* ("f"- lab-tish)- *ufq* ("f"- lab-lab), *saf* ("f" –lab-tish)- *tuf* ("f"- lab-lab) kabi.

O'zaro ta'sirda bo'lgan tovushlarning bir-biriga nisbatan oldin yoki keyin kelishiga ko'ra akkomodatsiya quyidagi ikki turga bo'linadi:

a) *progressiv akkomodatsiya*. Bunda oldingi tovush keyingi tovushga ta'sir qiladi: *kulmoq* so'zida sayoz til orqa "k" undoshi orqa qator "u"ni old qator "u" ga aylantirgani kabi. Qiyos qiling: *qul* ("u"- orqa qator unli)- *kul* ("u"- old qator unli), *qo'l* ("o"- orqa qator "o" unlisi)- *ko'l* ("o"- old qator "o" unlisi);

b) *regressiv akkomodatsiya*. Bunda keyingi tovush oldingi tovushga ta'sir qiladi. Masalan: *to'k* so'zida sayoz til orqa "k" undoshi orqa qator "o" unlisini old qator "o"ga aylantiradi. Assimilyatsiyada bo'lganidek akkomodatsiyada ham fonemaning kombinator ottenkasi yuzaga keladi.

3. *Dissimilyatsiya* - so'z tarkibidagi bir xil (yoki o'xshash) tovushlardan birining boshqa tovushga ko'chishi: *birorta>bironta* (ror>ron), *kissa-kista* (ss>st) kabi. Bu hodisani assimilyatsiyaning aksi deyish mumkin.

Dissimilyatsiya hodisasi yo'nalishiga qarab ikki xil bo'ladi:

a) *progressiv dissimilyatsiya*. Bunda keyingi tovush o'zgaradi: *zarur>zaril* kabi;

b) *regressiv dissimilyatsiya*. Bunda oldingi tovush o'zgaradi: *maqтанmoq>maxtanmoq* kabi.

Tovushning o'zgarish darajasiga ko'ra dissimilyatsiya yana ikki turga bo'linadi:

a) *to'liq dissimilyatsiya*. Bunda ikkita bir xil tovushdan biri noo'xshash tovushga aylanadi: *kissa>kista* (ss>st) kabi;

b) *to'liqsiz dissimilyatsiya (qisman dissimilyatsiya)*. Bunda tovushning artikulyatsion xususiyatlaridan ayrimlarigina o'zgaradi. Masalan, *uchta>ushta* (ch>sh) kabi: "ch" va "t" undoshlarining ikkalasi ham portlovchi, ammo "t"ning ta'sirida "ch" sirg'aluvchi "sh" ga o'tgan.

Tovushlar o'rtasidagi masofaga nisbatan ham dissimilyatsiya ikki xil bo'ladi:

a) *kontakt dissimilyatsiya*. Bunda yonma-yon turgan tovushlardan biri o'zgaradi: *kissa>kista* kabi;

b) *distant dissimilyatsiya*. Bunda dissimilyatsiyaga uchrayotgan tovushlar bir-biridan uzoqroqda joylashgan bo'ladi. Masalan: *birorta>bironta* kabi.

4. *Nazalizatsiya* - so'z tarkibidagi burun sonantlari ta'sirida shu sonantlar yonida qo'llangan unlining rezonator ton bilan aytilishi: *non, nok men, meng* kabi. Bunday hollarda ham fonemaning kombinator ottenkasi (unlining ko'rinishi) paydo bo'ladi.

II. Pozitsion omillar ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalar:

1. Reduksiya - unli fonemaning urg'usiz bo'g'inda kuchsizlanishi: *bilan- b: len, biroq- b: roq* kabi. Bunda "i" unlisining kuchsizlangan, qisqa (bilinar-bilinmas) talaffuz etiladigan pozitsion ottenkasi yuzaga keladi;

2. So'z oxiridagi ochiq bo'g'inda tor unililarning bir oz kengayishi: *bordi>borde* kabi. Bunda ham tor "i" unlisining bir oz kengaygan pozitsion ottenkasi yuzaga keladi;

3. Jarangli "b" va "d" undoshlarining so'z oxirida jarangsizlanishi: *maktab>maktap* (b>p), *savod>savot* (d>t) kabi. Bunday holat jarangli j,j,z undoshlarida ham uchraydi: *massaj>massash* (j>sh), *dilxiroj>dilxiroch* (j>ch), *sakkiz>sakkis* (z>s) kabi. Yuqoridagi barcha holatlarda b,d,j,j,z fonemalarining jarangsizlashgan pozitsion ottenkalari qo'llangan. O'zbek tilida ko'p bo'g'inli so'zlarda portlovchi, jarangsiz "q" ning so'z oxirida sirg'aluvchi, jarangli "g" tarzida talaffuz qilinish hollari ham uchraydi: *balig>balig', o'rtog>o'rtog', tarog>tarog'* kabi.

III. Turkiy so'zlarning an'anaviy fonetik tarkibiga moslashish. O'zbek tilida bunday moslashishning quyidagi turlari uchraydi:

1. Proteza - so'z boshida tovush orttirilishi: a) *rus>o'ris, ro'za>o'raza, ro'mol>o'ramol* kabi. Ma'lumki, qadimgi turkiy tilda sonor "r" tovushi so'z boshida

qo'llanmagan, demak, uni so'z boshida qo'llash ko'nikmasi ham bo'lmagan, bu hol boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar boshidagi sonor "r"dan oldin bir unlining orttirilishiga olib kelgan, shu tariqa olinma so'zning fonetik tarkibi turkiy so'zning fonetik tarkibiga moslashtirilgan; b) *shkaf>ishkop, stakan>istakan* kabi: turkiy tillarda so'z yoki bo'g'in boshida (pozitsion omil) undoshlar o'zaro birika olmaydi (sintagmatik omil), ayni shu qonuniyat yuqorida keltirilgan ruscha o'zlashmalar boshida bir unlining orttirilishiga, demak, shu so'zlarning turkiy til qonuniyatiga moslashtirilgan shaklining yaratilishiga olib kelgan.

2. Epenteza – so'z o'rtasida tovush orttirilishi. Bu hodisa ham asosan boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar tarkibida yuz beradi – ularning fonetik tarkibi turkiy til qonuniyatlariga moslashtiriladi (so'z yoki bo'g'in boshida qatorlashib kelgan ikki undosh orasida bir unli orttiriladi: *plan>pilon, klubnika> qulupnay, traktor>tiraktir* kabi).

Ma'lumki, turkiy so'zlar tarkibida ikki unli ham yonma-yon qo'llanmaydi. Bu hol *Said, oila, soat* kabi arabcha o'zlashmalarning jonli tilda *Sayid, oyila, sog'at* deb (ikki unli orasida bir undoshning orttirilib) talaffuz qilinishiga sabab bo'ladi.

3. Epiteza (*austeza*)- so'z oxirida tovush orttirilishi: Bu hodisa ko'proq so'z oxirida qatorlashib kelgan *sq, nk* undoshlaridan so'ng yuz beradi: *otpusk>otpuska, kiosk>kioska, tank>tanka, blank>blanka* kabi. Bunda ham pozitsion-sintagmatik omil (turkiy so'z oxirida *sq nk* undoshlari birikmasining uchramasligi) ko'proq darajada asos bo'lgan.

IV. O'zbek tilida fonetik hodisalarning yana quyidagi turlari uchraydi:

1. Tovush tushishi. So'z o'zagidagi yoki unga qo'shilgan qo'shimchalar tarkibidagi ayrim tovushlarning ma'lum fonetik qurshov yoki pozitsiya ta'sirida talaffuz etilmasligi. Bu hodisaning quyidagi turlari bor:

a) prokopa - so'z boshidagi tovushning tushib qolishi: *yilon>ilon, yag'och>ag'och>og'och, yigna>igna* kabi. Bunda til o'rta "y" da ovoznining ustunligi, demak, uning unliga yaqinligi, o'zidan keyingi unliga singib ketishi kabi omillar ta'siri bor. Prokopa, asosan, tarixiy jarayon mahsuli bo'lib, hozirgi o'zbek adabiy tilida uchramaydi;

b) sinkopa - so'z o'rtasidagi tovushning tushib qolishi. Bu hodisa reduksiyaning davomi sifatida ko'proq uchraydi- o'zak morfemaga affiks morfema qo'shilganda urg'u oxirgi bo'g'inga ko'chib, o'zakdagi unli kuchsizlanadi va tushib qoladi: *burun>burnim, burning, burni; o'g'il>o'g'lim, o'g'ling, o'g'li* kabi. So'z o'rtasidagi unlining tushib qolishi ba'zan tarixiy (diaxron) planda sodir bo'lgan bo'lib, hozir sezilmasligi ham mumkin: *olcha<olicha, kelyapti<kelayapti* kabi. O'zbek tilida undosh tovushlar sinkopasi ham uchraydi: *pastqam>pasqam, pastda>pasda* kabi. Ularning ba'zi turlari tarixiy plandagina qaralishi mumkin: *erdi>edi* kabi;

c) apokopa - so'z oxiridagi tovushning yoki qo'shma so'z komponentining tushib qoldirilishi: *baland>balan, xursand>xursan, g'isht>g'ish, go'sht>go'sh, obro'y>obro', podshoh>podsho* kabi. Qo'shma so'z komponentining tushirib qoldirilishi asosan ruscha leksik o'zlashmalarda uchraydi: *metropoliten>metro, kilogramm>kilo, taksomotor>taksi* kabi.

Tovush yoki komponentning tushib qolishiga olib keladigan sabablar qatorida pozitsion (urg'usiz bo'g'indagi reduksiya) va sintagmatik (yonma-yon qo'llangan tovushlarning singishib ketishi) bilan birga fonasion energiyani tejash, ixchamlikka erishish kabi omillar ham qatnashadi;

d) eliziya- ikki so'z birikkan joyda bir yoki bir necha tovushning tushib qolishi. Bu hodisa ham ko'proq ellipsis qonuniyati asosida (ixchamlikka intilish natijasida) yuzaga keladi. Eliziya hodisasi diaxron (tarixiy) va sinxron (hozirgi) planlarda bo'lishi mumkin. Diaxron planda sodir bo'lgan eliziya ba'zi so'z yoki so'z formalarining hozirgi ko'rinishini shakllantirgan: *Dili orom>Dilorom, qayin ona> qaynana, Shoh Po'lat>Shopo'lat, nima qilsin> na qilsin, nima qilg'ay>na qilg'ay* kabi;

e) aferezis - oldingi so'zning so'nggi tovushi (yoki tovushlari) ta'sirida keyingi so'z boshidagi tovushning (yoki tovushlarning) tushishi: *aytgan edi>aytgandi* kabi. Bu hodisa sandxining bir ko'rinishi, xolos;

f) sandxi hodisasi - analitik shakllarning ixchamlashuvi natijasida sodir bo'ladigan fonetik o'zgarishlar. Masalan: *bora oldi>boroldi, ishlar edi>ishlardi, borgan emish>borganmish* kabi. Bu hodisa o'z tabiatiga ko'ra eliziyaga juda yaqin turadi.

2. Gaplogiya - yasama so'z tarkibida birin-ketin kelgan ikkita bir xil bo'g'indan birining tushirib qoldirilishi. Bu hodisa ham ko'proq ixchamlashtirish, energiyani tejash asosida sodir bo'ladi. Masalan, *tragikomediya<tragikokomediya*: bu so'zning tarkibida ikkita bir xil bo'g'in ("ko"- uchinchi bo'g'in va "ko"-to'rtinchi bo'g'in) birin-ketin kelganligidan talaffuzda ulardan biri tushirib qoldirilgan va so'zning ana shu ixchamlashtirilgan shakli adabiy til uchun me'yor bo'lib qolgan. Bunday hodisa *mineralogiya<mineralogiya, morfonologiya<morfofonologiya* so'zlarida ham kuzatiladi.

3. *Tovushlarning o'rin almashuvi (metateza)*. Bu hodisa ko'proq jonli so'zlashuvga, ayniqsa, shevalarga xos bo'lib, adabiy tilda kam uchraydi: *tuproq>turpoq* (Toshkent shevasida), *daryo>dayro* (qopchoq lahjasi shevalarida), *to'g'ramoq>to'rg'amoq* (ayrim shevalarda) kabi.

O'rin almashinuviga uchragan tovushlar so'z tarkibida bir-biriga yaqin yoki uzoq joylashgan bo'lishi mumkin, shunga ko'ra metatezaning ikki turi farqlanadi:

a) *kontakt metateza* - yonma-yon joylashgan tovushlarning o'rin almashuvi: *tuproq>turpoq* (pr>rp), *ahvol>avhol* (hv>vh) kabi;

b) *distant metateza* - bir-biridan uzoqroqda joylashgan tovushlarning o'rin almashuvi: *aylanayin>aynalayin* (bunda ikkinchi bo'g'in boshidagi "l" bilan uchinchi bo'g'in boshidagi "n" tovushlari orasida "a" unlisi bor).

Tarkibida metateza hodisasi yuz bergan ayrim so'zlar hozirgi adabiy tilda me'yor darajasiga ko'tarilgan: *yog'mir* (etimologik shakli)>*yomg'ir* (hozirgi adabiy tildagi shakli) kabi.

4. *Geminatsiya* - ikkita bir xil undoshning so'z tarkibida qavatlanishi: *muddat, izzat* kabi. Bunday qavatlanish ma'lum uslubiy maqsadlarda yuzaga keltirilishi ham mumkin: Masalan, *maza*, (bitta "z", bunda uslubiy bo'yoq yo'q.)- *mazza* (ikkita "z". So'zning bu shaklida ma'no kuchaytirilgan). Yana qiyos qiling: *yashamagur>yashshamagur, uchulasi>uchchulasi, rosa>rossa, juda>judda* kabi. *Geminatsiya* hodisasi so'z yasashida ham uchraydi: *achimoq* (fe'l)- *achchiq* (sifat), *isimoq* (fe'l)- *issiq* (sifat), *qotmoq* (fe'l)- *qattiq* (sifat) kabi. Sifatlarning kuchaytiruv (intensiv) formalarida ham *geminatsiya* hodisasi uchraydi: *oq>oppoq, sog`>soppa-sog`* kabi.

Degeminatsiya - so'z tarkibidagi *geminatsiyaning* yo'qolishi: *men+ning>mening, sizni>sizzi>sizi; qayer>qaer* kabi.

5. *Sinerezis-so'z* tarkibida yondosh qo'llangan ikki unlining diftonglashuvi - bir cho'ziq unli holiga kelishi: *mutolaa>mutola: matbaa>matba: saodat>so:dat* kabi. Bu hodisa ikki unli orasidagi undoshning tushib qolishi hisobiga yuz berishi ham mumkin: *zahar>za:r, shahar>sha:r* kabi.

6. *Spirantizatsiya* - ayrim portlovchi undoshlarning ikki unli orasida (intervokal pozitsiyada) sirg'aluvchi undoshga o'tishi: *bora ber>boraver* (b>v), *kabob>kavob* (b>v), *po'stloq>po'stlog'i* (q>g'), *tarog>tarog'i* (q>g') kabi. Bu hodisada pozitsion omil (intervokal holat) bilan birga kombinator omil (unlilarning undoshga ta'siri) ham ishtirok etgan.

Bo'g'in.

- **Bo'g'in haqida**
- **Bo'g'in turi**
- **Bo'g'in ahamiyati**

Bo'g'in bir havo zarbi bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar birikmasidir. Masalan: *ona(o-na), ota(o-ta), bola(bo-la)* kabi. Bo'g'in nutq oqimining tovushdan katta, so'zdan kichik (ba'zan bir so'zga teng) segment birligidir. Fonologik nuqtai nazardan bo'g'in *sillabema* deyiladi, uni o'rganadigan soha esa sillabika deb nomlanadi.

Bo`g`in unlisiz tuzilmaydi, shuning uchun unli tovush bo`g`inning markazi hisoblanadi- u undoshlarni o`ziga tortib, bir havo zarbi bilan aytiladigan fonetik bo`lakni (bo`g`inni) hosil qiladi. Undoshlar o`zicha bo`g`in yasamaydi (sonorlar bundan mustasno). Ular unlidan oldin kelganda kuchsiz boshlanib, kuchli tugaydi; *kitob* so`zidagi "ki-" bo`g`ini boshida kelgan "k" undoshi shunday. Undosh tovush unlidan keyin kelganda, kuchli boshlanadi, so`ng kuchsizlanib tugaydi: *kitob* so`zidagi "-tob" bo`g`ini oxirida kelgan "b" undoshi shunday. Ba`zan ikki bo`g`in orasida ikkita bir xil undosh yonma-yon kelib qoladi: *muddat* (*mud-dat*) kabi. Bu hodisa geminatsiya sanaladi. Bunda ikkala "dd" bir tovushdek talaffuz etiladi, binobarin, kuchli boshlanib, kuchli tugaydi, oraliq`ida esa bir oz pasayish kuzatiladi. Bular *ikki balandlikka ega undoshlar* sanaladi. Demak, bo`g`in tuzilishida undoshlar kuchsiz boshlanuvchi, kuchli tugovchi va ikki balandlikka ega xarakterida bo`ladi. (16, 36-bet). Shunga ko`ra bo`g`in uch qismga bo`linadi; a) bo`g`in boshi- bo`g`in yasovchi tovushning (unlining) balandligigacha bo`lgan qism; b) bo`g`in markazi (bo`g`in balandligi); c) bo`g`in markazidan keyingi qism (bo`g`in balandligidan so`nggi qism).

Bo`g`in tiplari:

1) *berkitilgan bo`g`in*. U undosh bilan boshlanadi: *olti* so`zining ikkinchi bo`g`ini (-ti);

2) *berkitilmagan bo`g`in*. U unli tovush bilan boshlanadi: *olti* so`zining birinchi bo`g`ini (ol-);

3) *yopiq bo`g`in*. U undosh bilan tugaydi: *olti* so`zining birinchi bo`g`ini (ol-);

4) *ochiq bo`g`in*. U unli bilan tugaydi: *olti* so`zining oxirgi bo`g`ini (-ti).

Tasnifning bu turida *o-ta*, *o-na* so`zlaridagi bir unlidan iborat bo`g`in, shuningdek *tartib*, *maktab* so`zlaridagi "un-dosh+unli+undosh" (CVC) tipidagi bo`g`inlar nazardan chetda qolgan. Shuning uchun mavjud adabiyotlarda bo`g`in tiplari tasnifining boshqa ko`rinishlari ham uchraydi. Masalan, M.M. Mirtojyev bo`g`in tiplarini shunday tasnif qiladi:

1) *ochiq boshlanuvchi ochiq bo`g`in*: *a+na, o+la, i+liq* kabi so`zlarning birinchi bo`g`ini;

2) *ochiq boshlanuvchi yopiq bo`g`in*: *ol+tin, il+gaq as+liy, ars+lon* kabi so`zlarning birinchi bo`g`ini;

3) *yopiq boshlanuvchi yopiq bo`g`in*: *bor+moq, qiy+shiq, non+voy, ras+som* kabi so`zlarning barcha bo`g`inlari;

4) *yopiq boshlanuvchi ochiq bo`g`in*: *da+la, qo+ra, sa+ra* kabi so`zlarning barcha bo`g`inlari.

M.M. Mirtojyev unli va undoshlardagi ovoz va shovqin miqdori har xil bo`lishini nazarda tutib, bo`g`inning akustik tasnifini ham beradi. U shunday deydi: "Unli va undosh tovushlar tarkibida, bizga ma`lumki, un va shovqin miqdori turlichadir. Agar ularni ball tizimiga asoslangan shkala bo`yicha hisoblasak unlilar 4 ball, sonorlar 3 ball, jaranglilar 2 ball, jarangsizlar esa 1 ball deb qaralishi mumkin. Shunga ko`ra bo`g`in tovushlarini tavsiflasak bo`g`inlar har xil turlarga bo`linadi. Albatta, bunda bo`g`inning boshi va oxiri nazarda tutiladi:

1) *silliq* (bo`g`in boshi va oxiri yo`q, kesilgan holatda). Masalan, a+e+ro+plan so`zining birinchi va ikkinchi bo`g`ini shunday;

2) *kuchayuvchi* (yopiq boshlanuvchi ochiq bo`g`in tiplari e`tiborda tutiladi). Masalan, *ma, de, shu, bu* so`zlarini tarkib toptirgan bo`g`in shunday;

3) *pasayuvchi* (ochiq boshlanuvchi yopiq bo`g`in tiplari e`tiborda tutiladi). Masalan, *ot, ol, it, et* kabi;

4) *kuchayuvchi-pasayuvchi* (to`la, ya`ni yopiq boshlanuvchi yopiq bo`g`in tiplari e`tiborda tutiladi). Masalan, *ko`z, non, bir, tur* kabi.

Shuni ham aytib o`tish kerakki, bri+ga+dir so`zining birinchi bo`g`ini ham kuchayuvchi bo`g`in deb qaraladi. Ammo uning bo`g`in boshi ikki undoshdan iborat.

Shunga qaramay ular ball shkalasiga ko'ra har xil, ya'ni 2-3-4 deb olinadi. Unda tovushlar kuchayib borganligi kuzatiladi..."(16,43-44).

Ilmiy adabiyotlarda bo'g'in tiplari tasnifining yana boshqa turlari ham bor. Xususan, taniqli fonetist A. Mahmudov bo'g'inlarni quyidagicha tasnif qiladi:

1) *to'la ochiq bo'g'in*. U faqat unidan iborat bo'ladi: *a+na, a+ka, o+pa* so'zlarining birinchi bo'g'ini;

2) *to'la yopiq bo'g'in*. Bunday bo'g'in undosh bilan boshlanib, undosh bilan tugaydi: *tar-tib, tar-vuz* so'zlaridagi barcha bo'g'inlar;

3) *boshi yopiq bo'g'in*. Bunday bo'g'in undosh bilan boshlanib, unli bilan tugaydi: *bo+la, ta+na* so'zlaridagi barcha bo'g'inlar;

4) *oxiri yopiq bo'g'in*. Bunday bo'g'in unli bilan boshlanib, undosh bilan tugaydi: *or+tiq, o'r+ta* so'zlarining birinchi bo'g'inlari.

Muallif to'la yopiq bo'g'in strukturasi 7 xil bo'lishini ta'kidlaydi:

1)CVC -bet,kuch; 2)CCVC-Qrim,plan; 3)CVCC- qirq, hind; 4)CCVCC – Dnepr,sport; 5)CVCCS–tekst,punkt; 6)CCCVC– shtraf,skver; 7)CCVCCC–Dnestr,Bratsk.

Boshi yopiq bo'g'in uchga bo'linadi: 1)CV–bu; 2) CCV–*drama,smena* so'zlarining birinchi bo'g'ini; 3) CCCV–*Brno* kabi.

Oxiri yopiq bo'g'inning to'rt xil bo'lishi aniqlanadi: 1)VC-o`q, el,uy; 2)VCC- ayt,ilm,arq 3)VCCC- Omsq 4)VCCCC- Ernst.

Shunday qilib, muallif o'zbek tilidagi bo'g'inlar o'n besh strukturada ifodalanayotganligini ko'rsatadi¹. Bunda o'zbek tilining o'z va o'zlashgan qatlam so'zlari birga qaralgan.

Bo'g'inning til va nutqdagi ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. So'zning, xususan, fonetik so'zning shakllanishida "qurilish material" va qoliplovchi vazifalarni bajaradi. Ayrim tillarda bo'g'inning distinktiv (tafovutlash, farqlash) funksiyasi ham bor. Masalan, koreys, vietnam, xitoy tillarida bo'g'in ohang turiga qarab so'z ma'nosini farqlaydi, ayni shu xususiyati bo'lgan tillarda u sillabema hisoblanadi. O'zbek tilida bo'g'inning bu funksiyasi nihoyatda kuchsizdir.

2. Bo'g'inning pedagogik-metodik ahamiyati ham bor: birinchi sinf o'quvchilarini to'g'ri o'qish va to'g'ri yozishga o'rgatishda, ularda to'g'ri talaffuz va imlo ko'nikmalarini shakllantirishda bo'g'inlab o'qitish va bo'g'inlab yozdirish yaxshi natija beradi.

3. Orfografiya qoidalarining bir qismi bo'g'in ko'chirilishiga asoslanadi.

4. Bo'g'inning she'riyatdagi turoqlarni, ohangdoshlik va musiqiylikni ta'minlovchi vosita sifatidagi roli ham katta. U she'riy misralardagi ritmni yuzaga keltiruvchi asosiy unsurlardan biri, ayni paytda vazn o'lchovi bo'lib xizmat qiladi.

Quyidagi she'riy parchalarni qiyoslab ko'raylik:

1. Kuy avjida uzilmasin tor,
She'r yarmida sinmasin qalam.
Yashab bo'lmay umrini zinhor,
Bu dunyodan ketmasin odam.

(E.Vohidov. "Kuy avjida uzilmasin tor").

2. She'rlarim- chechagim, hayotim,
She'rlarim boylikdir, bisotim,
Yomg'irdan namlanmas qanot
Oshaman bulutlar tog'idan!

(A. Umariy. "Yomg'irda").

Keltirilgan bu ikki she'riy parchani bir-biriga ohang jihatdan solishtirsak ularning to'qqizlik turkumiga mansubligi ma'lum bo'ladi, shunga qaramay bu ikki she'rning ritmik

¹ Qarang: Mahmudov Ahmadjon. O'zbek adabiy tilida so'zlarning fonetik strukturasi // "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1984, 2-son, 30-34-betlar.

xususiyatlari bir xil emas. Buning sababi shuki, ularning har birida bo`g`inlar turlicha guruhlanib kelmoqda. Qiyos qiling:

1. Kuy avjida⁴ / uzilmasin tor⁵=9
She`r yarmida⁴ / sinmasin qalam⁵=9
Yashab bo`lmay⁴/umrini zinhor⁵=9
Bu dunyodan⁴/ketmasin odam⁵=9
2. She`rlarim³ / chechagim³, / hayotim³=9
She`rlarim³ / boylikdir³, / bisotim³=9
Yomg`irdan³ / namlanmas³ / qanotim³=9
Oshaman³ / bulutlar³ / tog`idan³=9

URG`U.

- **Urg`u haqida**
- **Urg`u turlari**
- **Urg`uning so`zdagi o`rni**

Urg`u so`z tarkibidagi bo`g`inlardan birining boshqasiga nisbatan kuchliroq ovoz bilan aytilishi yoki gaplardagi ayrim bo`laklarning, nutq oqimidagi ayrim frazalarning maxsus ohang bilan ta`kidlanishidir. Urg`u muayyan til fonetik-fonologik tizimining supersegment birligi sanaladi. Tilning qaysi sathidagi birliklarga aloqador bo`lishiga ko`ra urg`uning quyidagi tiplari o`zaro farqlanadi: 1) so`z urg`usi; 2) sintagma urg`usi; 3) ayiruv (ta`kidlov) urg`usi.

So`z urg`usi bevosita so`zga aloqador bo`lgan, so`z tarkibidagi bo`g`inlardan biriga tushadigan urg`udir. Fonetik tabiatiga, tushadigan o`rniga va harakat qilish belgisiga ko`ra so`z urg`usi har xil bo`ladi.

1. Fonetik tabiatiga ko`raso`z urg`usi dinamik kvantitativ, tipik ottenkali va tonik (musiqiy) xarakterlarda bo`lishi mumkin:

a) *dinamik urg`u* (zarb urg`usi). Urg`uning bu turi so`z tarkibidagi bo`g`inlardan birining, ayniqsa, undagi unli tovushning kuchli zarb bilan talaffuz qilinishiga asoslanadi. Kuchli zarb va baland ovoz dinamik urg`uning akustik belgisi bo`lsa, shu ovozni yuzaga keltiruvchi nutq a`zolari muskullarining kuchlanishi (tortilishi, taranglashishi) bunday urg`uning fiziologik belgisi sanaladi. Dinamik urg`uli bo`g`inda kuchli zarbning bo`lishi uning shu so`z tarkibidagi boshqa bo`g`inlardan ajralib turishini ta`minlaydi;

b) *kvantitativ urg`u*. Urg`uning bu turi urg`uli bo`g`indagi unli tovushning cho`ziq (davomli) talaffuz etilishi bilan xarakterlanadi;

v) *tipik ottenkali urg`u* (sifat urg`usi). Urg`uning bu turi bo`g`indagi unlining o`ziga xos tipik ottenkasi (sifat belgisi) saqlangan bo`lishi bilan xarakterlanadi, shu belgisiga ko`ra u urg`usiz bo`g`indan farqlanadi;

g) *tonik (musiqiy) urg`u*. Urg`uning bu turini olgan bo`g`in ovoz tonining o`zgarishi bilan urg`usiz bo`g`inlardan farq qiladi. Demak, tonik urg`uda un paychalari chastotasi tezlashadi, ovoz toni esa balandlashadi.

Ko`pchilik tillarning so`z urg`usida yuqoridagi fonetik (fizik-akustik) belgilardan bir nechasi birga ishtirok etadi, ammo ulardan bittasi, ba`zan, ikkitasi shu til uchun yetakchi belgi hisoblanadi. Masalan: rus tilidagi so`z urg`usida tonik (musiqiy) urg`u belgisi yo`q, qolgan belgilarning barchasi bor: cho`ziqlik mavjud, bo`g`indagi unlining asosiy sifat (akustik) belgilari saqlangan, zarb ham ishtirok etadi. Quyidagi misollarning qiyosida buni yaqqol anglab olish mumkin: a) *oltin* (o`zb.) va *karantin* (rus.), *ovsin* (o`zb.) va *apelsin* (rus.) so`zlarining barchasida oxirgi bo`g`in urg`ulidir, barcha urg`uli bo`g`inlarda "i" unlisi qatnashgan, ammo ruscha *karantin*, *apelsin* so`zlaridagi "i" unlisi o`zbekcha *oltin*, *ovsin* so`zlaridagi "i" dan cho`ziqroq talaffuz etilmoqda. Bunday tafovutni mavzu (o`zb.) va meduza (rus.), mangu (o`zb.) va mangusta (rus.) so`zlarining urg`uli bo`g`inlaridagi "u" unlisi qiyosida ham ko`ramiz. Rus tili fonetistlarining ta`kidlashicha, ruscha unli

fonemalarning urg'uli bo'g'indagi cho'ziqlik darajasi urg'usiz bo'g'indan bir yarim barobar ortiqdir¹;

b) город (им.падеж, ед. число)- города (им. падеж, мн. число), вода (им. падеж, ед. число)- вод (им. падеж, мн. число) – вод (род. падеж, ед. число). Keltirilganso'zlariningbarchagrammatikshakllaridalab-lab, o'rtakeng "o" unlisiqatnashgan, ammou'zininganashusifatbelgilarini (lab-lab, o'rtakeng "o" uchuntipikottenkalarni) faqaturg'ulibo'g'indasaqlagan, urg'usizbo'g'inlardaesabubelgilaro'zgarib, "o" unlisiqisqa "a" (lablanmagan, quyikengunli) tarzidatalaffuzqilinmoqda: *gарада, вада, вад* kabi. Unli fonemaning asosiy (tipik) ottenkasi namoyon bo'lishi uchun so'z urg'usining qanday ahamiyati borligini shu misollar tahlilidan anglab olish mumkin. Shuning uchun ham so'z urg'usining fonetik tabiatini baholashda rus tilshunoslari birinchi o'ringa sifat belgilarini (unli fonemadagi asosiy ottenkalarining saqlanish darajasini), ikkinchi o'ringa cho'ziqlik belgisini va nihoyat, uchinchi o'ringa zarb belgisini qo'yadilar².

O'zbek tilida ham musiqiy urg'u yo'q, ammo unda cho'ziqlik belgisi va zarb bor. Bu belgilar urg'uli bo'g'inni shu so'zdagi urg'usiz bo'g'inlardan ajratish imkonini beradi. Bunda shuni ham ta'kidlash kerakki, so'z urg'usining cho'ziqlik darajasi rus va o'zbek tillarida bir xil emas: rus tilidagi so'z urg'usining cho'ziqlik belgisi o'zbek tilidagidan ko'proq darajada seziladi. Buni yuqorida *oltin va karantin, ovsin va apelsin* so'zlari qiyosida ham ko'rib o'tdik. Demak, o'zbek tilidagi so'z urg'usida zarb birinchi o'rinda turadi, shunga ko'ra uni dinamik urg'u deb baholash maqsadga muvofiqdir.

Musiqiy (toniq melodik) urg'u yapon, xitoy, koreys tillariga xosdir. Urg'uning bu turi boshqa fonetik belgilar, xususan, zarb urg'usi bilan aralash holda shved, norvej, serb, xorvat va litva tillarida ham uchraydi.

2.O'rniga ko'raso'z urg'usi ikki xil bo'ladi: bog'langan urg'u va erkin urg'u.

a) *bog'langan urg'uli* tillarda urg'u so'zdagi biror bo'g'inga doimiy bog'langan bo'ladi. Masalan, turkiy tillarda urg'u so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Bu xususiyat o'zbek tiliga ham xos: *kitob, daraxt, bola, ota, shahar* kabi. Venger va chex tillarida so'z urg'usi birinchi bo'g'inga, polyak tilida esa so'zning oxiridan bitta oldingi bo'g'inga tushadi. Bunday xususiyat yuqorida keltirilgan tillarning urg'u tizimiga xos doimiy va asosiy belgilardir;

b) *erkin urg'uli* tillarda urg'u so'zning turli bo'g'inlariga tushadi. Rus tili ana shunday erkin urg'uli tillar tipiga kiradi. Unda urg'u so'zning birinchi bo'g'iniga (*магний, завуч*), ikkinchi, uchinchi bo'g'inlariga (*оратор, бактерия, одуванчик, барахолка*) va oxirgi bo'g'iniga (*бандероль, пейзаж*) tushishi mumkin.

Erkin urg'uli tillarda urg'uning o'rni so'z ma'nolarini farqlash funksiyasini (fonologik vazifani) ham bajaradi, ana shu funksiyasida u *aksentema* hisoblanadi: *замок (qulf)* va *замок (qal'a, qasr, saroy, qo'rg'on)*, *парум (bug'lamoq) – парум (parvoz qilmoq)* kabi. Bog'langan urg'uli tillarda bu holat juda kam uchraydi: rus tilidan o'zlashgan so'z bilan o'zbek tili so'zlari o'rtasida shunday munosabat paydo bo'lganda (*atlas va atlas* kabi), sifatlar ravishga ko'chganda (*yangi va yangi* kabi) urg'uning o'rni ma'no farqlash xususiyatiga ega bo'lishi mumkin, ammo bu xususiyat bog'langan urg'uli tillar uchun yetakchi va doimiy belgi hisoblanmaydi.

3.*Harakat qilish belgisiga ko'ra* so'z urg'usi ko'chadigan va ko'chmaydigan turlarga bo'linadi:

a) *ko'chadigan urg'u* muayyan tildagi so'zlarda, ayniqsa, ularning turli grammatik shakllarida bir bo'g'indan boshqa bo'g'inga o'tib turadi, demak, harakatda bo'ladi. Bu xususiyat rus tilida ko'proq uchraydi. Masalan: *загнать-загнан-загонять; задать-задал-задала; рана-ранение* kabi. Rus tilidagi urg'uning turli o'rinlarga ko'chishi hatto bir so'zning o'zida ham uchraydi: *докрасна-докрасна, залиты-залиты, казаки-казаки,*

¹Buhaqdaqarang: Матушевич М.И. Современный русский язык. Фонетка. – М.: “Просвещение”, 1976, с. 226.

²Qarang: Матушевич М.И. Ko'rsatilganasar, 225-bet.

иначе-иначе, загиб-загиб kabi. Bu xususiyat rus tilidagi erkin urg'uning harakatchanlik belgisidir. Bunday belgi (harakat qilish, ko'chish) o'zbek tilidagi bog'langan urg'uda ham uchraydi. Masalan: *temir-temirchi-temirchilik* kabi. Demak, so'z urg'usining harakat qilish, ko'chish belgisi erkin urg'uli tillarda ham, bog'langan urg'uli tillarda ham bor, ammo ulardan birida (masalan, rus tilida) ko'chish turli yo'nalishda – oldingi bo'g'indan keyingi bo'g'inga yoki, aksincha, keyingi bo'g'indan oldingi bo'g'inlarga qarab bo'ladi. Masalan: *трава* (urg'u so'zning oxirgi bo'g'inida)- *трав* (urg'u oxirgi bo'g'indan oldingi bo'g'inga ko'chgan), *видно* (urg'u birinchi bo'g'inda)- *видать* (urg'u oxirgi bo'g'inga ko'chgan) kabi. O'zbek tilidagi ko'chish esa asosan bir yo'nalishda sodir bo'ladi: urg'u o'zak oxiridagi qo'shimchalarga tomon harakat qiladi. Masalan, *shahar-shaharlik-shaharliklar* kabi. Demak, o'zbek tilidagi so'z urg'usining harakat qilishi bu tildagi urg'uning oxirgi bo'g'inga bog'langanlik belgisiga xilof emas, aksincha, u ayni shu me'yor talabi asosida oxirgi bo'g'inga ko'chmoqda. O'zbek tilida so'z urg'usining oldingi bo'g'inga qarab ko'chishi juda kam uchraydi: *yangi (yangi uy) va yangi (yangi kelib-ketdi)* kabi. Bulardan tashqari, so'z ma'nolari kuchaytirilganda, bu ma'nolarga uslubiy bo'yoq qo'shish zarurati bo'lganda yuzaga keltiriladigan geminatsiya (bir xil undoshlarning qavatlanishi) hodisasida ham urg'uning oldingi bo'g'inlarga ko'chirilishi kuzatiladi: *maza qilmoq - mazza qilmoq, yashamagur- yashshamagur* kabi. Bunday paylarda urg'u fonostilistik vositaga aylanadi.

b) *ko'chmaydigan urg'u* so'z tarkibidagi bitta bo'g'inga bog'langan bo'lib, u boshqa bo'g'inlarga o'tmaydi: rus tilidagi *завод, народ, работать* so'zlarining turlanishi va tuslanishida bu hodisa kuzatiladi: *народ-народ-народов – народами – для народа; работать-работаю – работаешь – работает – работают – проработай – проработали* kabi. O'zbek tilida bu xususiyat ayrim olmoshlarning turlanishida kuzatiladi: *hamma-hammani- hammaning - hammaga- hammada- hammadan; barcha – barchani- barchaning – barchaga- barchada – barchadan* kabi.

O'zbek tilidagi qo'shma va juft so'zlarda urg'u ikki va undan ortiq bo'lishi ham mumkin. Bunday paytlarda oxirgi bo'g'indagi zarb kuchliroq bo'ladi va asosiy urg'u sanaladi, qolgan urg'ular ikkinchi darajali hisoblanadi: *kaltakesak, temirbeton, gulto'jixo'roz, aka-uka, qozon-tovoq* kabi. Bunday ikkinchi darajali urg'ular, rus tilida ham uchraydi: *железобетон, самопроизвольность, темно-синий* kabi.

So'z urg'usining til va nutqdagi roli: a) so'zning fonetik qobig'ini bir butun (kompleks) holatda ushlab turuvchi markaz bo'ladi; b) nutq oqimida so'zni boshqa so'zdan ajratib olishga yordam beradi; v) so'z urg'usining harakatchan turi so'zlarning leksik va grammatik ma'nolarini farqlashi ham mumkin; g) nutqda fonostilistik vosita bo'la oladi. Keyingi ikki holat urg'uning fonologik va aksentologik xususiyatlari sanaladi.

Sintagma urg'usi – nutq oqimining ma'no jihatdan muhim bo'lgan qismini (sintagmani) alohida ta'kidlash, ajratish uchun qo'llangan urg'u. Sintagmani aniqlash mezonni ikkitadir: a) semantik mezon; b) sintaktik mezon. Bu mezonlar sintagmaning grammatik-semantik jihatdan yaxlit bir butun konstruksiya ekanligidan kelib chiqadi. Sintagma urg'usi fraza (gap) ichidagi mazmunan yaxlit, grammatik jihatdan bir butun bo'lgan qismni maxsus ta'kidlash, uni shu fraza (gap) ichidagi boshqa sintagmalardan ajratish uchun xizmat qiladigan fonetik vositadir. Buni quyidagi nutqiy parcha tahlilida ko'rib chiqaylik: "Iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi." (Prezident I. Karimovning 1995 yil fevral oyidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasidan.)

Yuqoridagi nutqiy parchada ikkita sodda yoyiq gap bor: 1. "Iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir". 2. "Aynan

shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi". Har bir gap nutqning fonetik bo'linishida bir frazaga teng bo'lishini hisobga olsak keltirilgan nutqiy parchada ikkita fraza borligi ma'lum bo'ladi. Frazalar, ma'lumki, katta pauzalar bilan bir-biridan ajratiladi (pauza ham fonetik vosita – intonatsiyaning tarkibiy uzvlaridan biri). Har bir fraza taktlarga (sintagmalarga) bo'linadi. Demak, sintagmalar frazaning kichikroq (qisqaroq) pauzalar bilan ajratiladigan parchalaridir. Yuqoridagi ikki frazadan birinchisida quyidagi parchalar – sintagmalar bor: a) "Iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi"; b) "yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir". Bu sintagmalardan birinchisi alohida urg'u (sintagma urg'usi) bilan yakunlangan bo'lib, uning fonetik tabiati quyidagi belgilarga ega: sintagma oxiridagi "maqsadi" so'zining so'nggi bo'g'ini ochiq bo'lib, bu bo'g'indagi "i" unlisi cho'ziq talaffuz etilmoqda (kvantitativ urg'u), tovush toni ko'tarilgan (ton belgisi), kuchi esa intensivlashgan (zarb belgisi), bu hol shu sintagmaning ma'nosini alohida ta'kidlash imkonini bergan. Sintagma urg'usidan so'ng kelgan qisqa pauza birinchi va ikkinchi sintagmalarni bir-biridan ajratish vazifasini bajargan. (16,54-56). Sintagma urg'usining o'zni kuzatilgan maqsad va nutq situatsiyasiga qarab o'zgartirilishi ham mumkin. Bunday paytda u gapning grammatik jihatlariga ham ta'sir qiladi. Qiyos qiling: *Bu shifokor – Dilbarning onasi. (Bu shifokor-ega sostavi; Dilbarning onasi – kesim sostavi). Bu - shifokor Dilbarning onasi. (Bu – ega, shifokor Dilbarning onasi – kesim sostavi).*

Ayiruv urg'usi – gap bo'laklaridan birini alohida ta'kidlash uchun yoki so'zlovchining his-hayajoni, voqelikka munosabatini maxsus ifodalash maqsadida qo'llanadigan urg'u. u ikki turga bo'linadi: logik urg'u (mantiq urg'usi) va emfatik urg'u.

1. *Logik urg'u* - tinglovchining e'tiborini gap bo'laklaridan biriga alohida jalb etish, shu bo'lak orqali ifodalangan ma'noni maxsus ta'kidlash uchun qo'llanadigan urg'u. Gapning logik urg'u olgan bo'lagi odatda boshqa bo'laklardan kuchliroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: 1) *Men universitetda o'qiyman (boshqa birov emas, men...).* 2) *Men universitetda o'qiyman (litseyda emas, universitetda...).* 3) *Men universitetda o'qiyman (ishlamayman, o'qiyman...)* kabi.

Logik urg'u ob'yekti bo'lgan bo'lakning leksik urg'uli bo'g'ini boshqa bo'g'inlardan kuchliroq, undagi unli esa ancha cho'ziq talaffuz etiladi.

2. *Emfatik urg'u* (emotsional urg'u). Urg'uning bu turi ham biror gap bo'lagini alohida ta'kidlashga asoslanadi, ammo logik urg'uda bo'lakning (so'zning) ma'no tomoni ta'kidlansa, emfatik urg'uda shu ma'no bilan birga so'zlovchining his-hayajoni, voqelikka bo'lgan sub'yektiv munosabatini ifodalash ham maqsad qilinadi: bu urg'u gapdagi so'zning ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan: "*Eh, qanday go'zal manzara! Tabiat shu daraja go'zalki, ko'rib bahri diling ochiladi!*" Bu gapda *qanday* va *go'zal* so'zlariga, aniqrog'i, shu so'zlardagi "qan-" va "-zal" bo'g'inlariga emfatik urg'u tushgan: shu bo'g'inlardagi unli tovush ancha cho'ziq va maxsus ton bilan talaffuz etilgan.

Tekshirish savollari:

1. Fonetik hodisalar deganda nimani tushunasiz?
2. Kombinator omillar nima? Ular fonemaning qanday o'ttenkasini yuzaga keltiradi?
3. Assimilyatsiya, akkomodatsiya va dissimilyatsiya qanday farqlanadi? Ularning qanday turlari bor?
4. Pozitsion omillarga nimalar kiradi? Ular fonemaning qanday o'ttenkalarini shakllantiradi?
5. Pozitsion o'zgarishlarning qanday turlari bor?
6. Kombinator va pozitsion omillar fonetik jarayonda aralash ishtirok etishi mumkinmi?

7. Spirantizatsiya nima?
8. Sintagmatik omillarga nimalar kiradi? Bu omil ta'sirida qanday fonetik jarayonlar sodir bo'ladi?
9. Qanday holatlarda va nima sababdan so'z boshida, o'rtasida yoki oxirida ba'zan tovush orttiriladi?
10. Proteza, epenteza va epiteza nima?
11. Qanday holatlarda va nima sababdan so'z tarkibidagi ayrim tovushlar tushib qoladi?
12. Tovush tushishining qanday turlari bor?

O'zbek orfografiyasining asosiy tamoyillari va qoidalari

Reja:

1. Orfografiya haqida ma'lumot.
2. O'zbek orfografiyasining asosiy tamoyillari
3. Hozirgi o'zbek imlosining asosiy qoidalari.
3. Orfografik belgilar

Orfografiya (grek. Orthos- "to'g'ri" + grapho- "yozaman") yozuv sistemasining ikkinchi komponenti bo'lib, u to'g'ri yozish me'yorlarini belgilaydigan qoidalar tizimidan tarkib topadi. Orfografiya grafikadan quyidagi belgilari bilan farqlanadi: grafika qoidalari grafemalarning mazmun planini kodlashtirishga, orfografiya qoidalari esa ma'lum prinsiplar asosida orfogrammarni tanlashga asoslanadi. Chunonchi, *odam* so'zida "d" ning yozilishi "d" grafemasining grafikada kodlashtirilgan fonemasiga mos, shu sababli bu so'zning yozilishi grafik prinsipga tayanadi. *Savod* so'zida esa boshqacharoq holatga duch kelinadi: so'z oxiridagi "d" jarangsiz "t"ga o'tadi (*savot* tarzida talaffuz qilinadi), demak, uni ikki xil yozish mumkin: *savod* (fonematik prinsip asosida) – *savot* (fonetik prinsip asosida). Bu ikki holatdan birini imlo uchun me'yor (orfogramma) qilib tanlash orfografiya zimmasiga tushadi. Hozirgi o'zbek orfografiyasida *savod* deb yozish qoidalashtirilgan. Bundan tashqari, orfografiyada qo'shma so'z komponentlarining qo'shilib yoki ajratib yozilishini, so'z qismlarining satrdan satrga ko'chirilishini, bosh va kichik harflarning qo'llanishini belgilab beradigan qoidalar ham borki, ular yozuvning grafikaga aloqador bo'lmagan jihatlarini tartibga solish va boshqarish imkonini beradi.

Orfografiya prinsiplari – orfografiya qoidalarining tuzilishiga asos bo'lgan tamoyillar. Ularning quyidagi turlari bor:

1. *Fonetik prinsipi*. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalari so'z yoki so'z shakllarining talaffuzi va yozilishini (imlosini) bir-biriga yaqinlashtiradi. Masalan, tojik tilidagi *tanur* so'zining o'zbek tilida *tandir* deb, ruscha *уемка* so'zining esa *cho'tka* deb yozilishi shu so'zlarning o'zbek tilidagi talaffuz me'yorlariga (fonetik prinsipga) asoslanadi. Shuningdek, tog'+ga, bog'+ga, ek+gan, ek+guncha kabi so'z shakllari ham amaldagi (kirillcha) o'zbek yozuvi imlo qoidalari ko'ra *toqqa*, *boqqa*, *ekkan*, *ekguncha* deb (talaffuziga mos tarzda) yoziladi.

Quyidagi holatlarda ham fonetik prinsipga amal qilinadi:

- a) ayrim otlarga egalik affiksi qo'shilganda: *burun*>*burni*, *ko'ngil*>*ko'nglim*, *og'iz*>*og'zing*, *o'g'il*>*o'g'lim* kabi;
- b) ayrim sifatlardan fe'l yasalganda: *ulug'*>*ulg'aymoq*, *sariq*>*sarg'aymoq* kabi;
- v) *qotmoq*, *achimoq*, *isimoq* fe'llaridan sifat yasalganda: *qot(moq)*>*qattiq*, *achi(moq)*>*achchiq*, *isi(moq)*>*issiq* kabi;
- g) *son*, *ot*, *yosh*, *ong* so'zlaridan fe'l yasalganda: *son*>*sana*, *ot*>*atamoq*, *yosh*>*yashamoq*, *ong*>*anglamoq* kabi;
- d) *ikki*, *yetti* sonlariga "-ov" affiksi qo'shilganda: *ikki*>*ikkov*, *yetti*>*yettov* kabi;

e) "-a" yoki "-ya" bilan tugagan fe'llarga "-v" yoki "-q" qo`shilib ot yasalganda: *tanla>tanlov, sana>sanov, so`ra>so`roq, bo`ya>bo`yoq, sayla>saylov* kabi.

Orfografiyaning fonetik pirinsipi yozuv bilan talaffuzni bir-biriga yaqinlashtiradi va imlo qoidalarining o`zlashtirilishini ham osonlashtiradi.

2. *Fonematik prinsipi*. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko`ra harflar (yoki grafemalar) so`z tarkibidagi fonemalarga moslab tanlanadi. Chunonchi, *kitob, omad* so`zlarining oxiridagi "b" va "d" fonemalari jarangsiz "p" (*kitop*) va jarangsiz "t" (*omat*) tarzida talaffuz qilinsa-da, fonemaning asosiy ottenkasiga mos ravishda "b" (*kitob*) va "d" (*omad*) harflari bilan yoziladi.

3. *Morfologik pinsip*. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalari so`zning ma`noli qismlarini (o`zak va affiksial morfemalarni) ular qanday talaffuz qilinishidan qat`iy nazar, asliga mos ravishda yozishni talab qiladi. Chunonchi, "g" bilan boshlangan "-ga", "-gan", "-gani", "-guncha" qo`shimchalari "sh","t","p", "s" kabi jarangsiz undoshlar bilan tugagan o`zaklarga qo`shilganda "-ka", "-kan", "kani", "-kuncha" shakllarida talaffuz qilinsa-da, morfemalarning asl shakllariga mos ravishda "-ga", "-gan", "-gani", "-guncha" yoziladi. Qiyos qiling: *ishga* (yozuvda) – *ishka* (talaffuzda), *ketgan* (yozuvda) – *ketkan* (talaffuzda), *ketguncha* (yozuvda) – *ketkuncha* (talaffuzda), *topgan* (yozuvda) – *topkan* (talaffuzda), *misga* (yozuvda) – *miska* (talaffuzda) kabi.

Eslatma: "q","k","g","g" bilan tugagan so`zlarga "g" bilan boshlangan affikslarning qo`shilishida bu qoidaga amal qilinmaydi: ular kirilcha o`zbek yozuvda talaffuziga ko`ra (fonetik prinsip asosida) yoziladi. Qiyos qiling: *oq+gan*(asl shakli)-*oqqan* (talaffuzda)–*oqqan* (ad.-orf.yozuvda), *ek+gan* (asl shakli)–*ekkan* (talaffuzda)–*ekkan* (ad.-orf.yozuvda), *tug`+gan* (asl shakli)–*tuqqan*(talaffuzda)–*tuqqan* (ad.-orf.yozuvda), *sog`+gan* (asl shakli)–*soqqan* (talaffuzda)–*soqqan*(ad.-orf.yozuvda) kabi.

4. *Grafik prinsip*. Bu prinsip, aslida, orfografiya qoidalarini emas, grafika qoidalarini belgilaydi–grafemalarning grafikada kodlashtirilgan fonemalarini ifodalashga asoslanadi. Chunonchi, sirg`aluvchi "j" bilan qorishiq "j" ning yozuvda bitta J grafemasi orqali ifodalanishi, "n" fonemasining esa ng digrafi bilan ifodalanishi grafikada kodlashtirilgan. Yozuvda bu me`yorga amal qilinadi, xolos: *jemper* (sirg`aluvchi "j"), *jang* (qorishiq "j" va sayoz til orqa "n") kabi.

5. *Tarixiy-an`anaviy prinsip*. Bu prinsipga asoslangan imlo qoidalari so`zlarning yoki so`z shakllarining qadimdan odat bo`lib qolgan formada yozilishini hozirgi imlo uchun me`yor tarzida belgilaydi. Chunonchi, *hurriyat* so`zi tarkibida ikkita "r"ning mavjudligi hozirgi o`zbek tili uchun me`yor sanaladi, ammo shu so`z ishtirokida yasalgan *jumhuriyat* so`zida esa bir "r" yoziladi, chunki bu so`zni bir "r" bilan yozish qadimdan odat bo`lib qolgan.

Tarixiy-an`anaviy prinsip so`zning yoki so`z shakllarining haqiqiy tarkibi (fonema yoki morfemalari) yetarli aniqlanmagan holatlarga nisbatan ham qo`llanadi. Masalan, *taqozo* so`zining oxirgi bo`g`inidagi unli ba`zan "o", ba`zan "a" holida (*taqozo-taqoza* kabi) talaffuz qilinadi, shulardan qaysi biri to`g`ri ekanligi hozircha aniq emas. Biroq shu narsa ma`lumki, yozuvda *taqozo* shakli aktivroq qo`llanib kelgan, bu omil hozirgi o`zbek yozuvi imlosiga ham asos bo`lgan. Hozirgi o`zbek imlosida "*ulush, buyuk buyum, yulduz* kabi hamda *yutuq, uchqun, turg`un, butun, yumuq, tuzum, uyum, turmush, tugun, turkum, gumbur-gumbur, g`ovur-g`uvur* kabi birinchi bo`g`inida u(yu) kelgan so`zlarning ikkinchi bo`g`inida, aytilishiga muvofiq, u(yu) yoziladi", - degan qoida bor. (Q. "o`zbek orfografiyasining asosiy qoidalari", 2-paragrafning 3-bandi.) Shu qoidaga amal qilinsa, quyidagi so`zlarning ikkinchi bo`g`inida "u" yozilishi kerak: *muqum, murud, munus, muhut* kabi. Ammo bu so`zlar barcha imlo lug`atlarida *muqim, murid, munis* tarzida (ikkinchi bo`g`inida "i" bilan) berilgan, demak, ularning imlosiga ham tarixiy-an`anaviy prinsip asos qilib olingan.

Tarixiy-an`anaviy prinsipga amal qilish holatlari hozirgi paytda yaratilayotgan ayrim badiiy asarlar tilida ham uchrab turadi: klassik adabiyot tiliga taqlid tarzida so`zlarning eski o`zbek tiliga xos shakllari ishlatiladi. Masalan:

Gul fasli sanam
Sayr ila gulshanda bo`libdur.
G`uncha ko`z ochib
Gul yuzida xanda bo`libdur.
(Eski o`zbek tiliga xos birliklar – ila, ul, "-dur".)

Gullar ichida
Shohi o`zim der edi lola,
Mag`rurligidan
Ul o`zi sharmanda bo`libdur (E.V.)

6. *Differenziatsiya prinsipi (simvolik prinsip)*. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko`ra, shakli bir xil bo`lgan so`zlar (omonimlar) yozuvda signalizatorlar (ishora belgilari) vositasida farqlanadi: *atlas* (mato) – *atlas* (geografik atlas), *Yangi* (sifat) – *Yangi* (ravish), *tana* (gavda) – *ta`na* (minnat) kabi. Keltirilgan so`zlarda urg`u va tutuq belgilari orfografiyaning differenziatsiya prinsipi talabiga ko`ra qo`llangan.

7. *Shakliy-an`anaviy yozuv*. Bu prinsip so`z boshida yoki oxirida ikki undosh qatorlashib kelgan leksik birliklarning imlosini qoidalashtirishga asos bo`ladi. Ma`lumki, o`tmishda turkiy tillarda so`z boshida ikki undosh qatorlashib kelmagan. Shuning uchun boshqa tillardan o`zlashtirilgan ayrim so`zlarning boshida ikki undoshning yonma-yon qo`llanishi uchrasa, ulardan oldin yoki shu ikki undosh orasida bir unlini orttirish odati bo`lgan. Bu odat hozirgi jonli so`zlashuvda ham uchrab turadi: *shkaf* > *ishkop*, *staj* > *istaj*, *drap* > *dirap*, *plan* > *pilon* kabi. Ba`zan so`z oxirida ham ikki undosh orasida bir unli orttiriladi yoki undoshlardan biri (so`nggisi) tushirib qoldiriladi: *sabr* > *sabir*, *nasr* > *nasir*, *nashr* > *nashir*, *go`sh* > *go`sh*, *g`isht* > *g`ish* kabi. Shakliy-an`anaviy yozuv prinsipiga ko`ra bunday paytlarda so`zlar talaffuzi asosida emas, o`zlarining asl shaklini saqlagan holda yoziladi: *shkaf*, *staj*, *drap*, *plan*, *sabr*, *nasr*, *nashr*, *g`isht*, *go`sh* kabi.

8. *Semantik-uslubiy prinsip*: a) semantik prinsip turdosh va atoqli otlarning imlosini qoidalashtiradi: turdosh otlar kichik harf bilan, atoqli otlar bosh harf bilan boshlanadi. Masalan, *lola*, *po`lat* (turdosh otlar) – *Lola*, *Po`lat* (atoqli otlar) kabi; b) uslubiy prinsipasosida tuzilgan qoidalar alohida hurmat-ehtirom kabi uslubiy semalarni ifodalash maqsadida *Vatan*, *Ona*, *Siz*, *o`zingiz* kabi so`zlarning ayrim kontekstda bosh harf bilan boshlanishini belgilab beradi.

Amaldagi (kirillcha) o`zbek yozuvi imlo qoidalarining shakllantirilishida fonetik, fonematik va morfologik prinsiplarga ko`proq amal qilingan.

Imlo qoidalari.

Kirillcha o`zbek yozuvining imlo qoidalari dastlab 1940-yilning 4-iyulida yangi alifbe hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan va shu yilning o`zida "Birlashgan o`zbek alfaviti va orfografiyasi" nomli to`plamda e`lon qilingan. Keyinchalik bu qoidalar yana bir necha marta qayta ishlandi, shular asosida 1952, 1953, 1955-yillarda "O`zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" loyiha tarzida besh marta qayta nashr qilindi, nihoyat, uning 5-nashri 1956-yilning 4-aprelida O`zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan tasdiqlandi. Hozirgi (kirillcha) o`zbek yozuvining imlosi ana shu "... qoidalar"ga asoslangan. U quyidagi 5 bo`limni o`z ichiga oladi:

1. Ayrim harflar imlosi (1-30-§ qoidalari)
2. O`zak-negiz va qo`shimchalar imlosi (31-55-§ qoidalari).
3. Qo`shma so`z va so`z birikmalari imlosi (56-58-§ qoidalari).
4. Bo`g`in ko`chirilishi (59-62-§ qoidalari)
5. Bosh harflarning yozilishi (63-72-§ qoidalari).

Yangi (lotincha) o`zbek yozuvining imlo qoidalari 1995-yilning 24-avgustida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan va shu yilning o`zida "O`zbek tilining asosiy imlo qoidalari" nomi bilan kitobcha shaklida nashr qilingan. U quyidagi 7 bo`limni o`z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:
Unlilar imlosi (1-7-qoidalar)
Undoshlar imlosi (8-32-qoidalar)
2. Asos va qo`shimchalar imlosi (33-37-qoidalar).

3. Qo`shib yozish (38-50-qoidalar).
4. Chiziqcha bilan yozish (51-56-qoidalar)
5. Ajratib yozish (57-65-qoidalar)
- 6 Bosh harflar imlosi (66-74-qoidalar).
7. Ko`chirish qoidalari (75-82-qoidalar).

Adabiyotlar:

3[43-45],9[26-38],10[103-115],22[29-53],24[45-49],27[3-21],93[5-21],110[6-27].

- Imlo haqida
- Imlo qoidalari
- Imloning ahamiyati

Amaldagi "...qoidalarning" ayrim paragraflari yangi "...qoidalar"ga kiritilmagan. Masalan: 2-paragraf (3-moddasi); 6-paragraf (2 va 3-moddalari); 8-paragraf (1-moddasi); 9-paragraf ("yo" harfi), 10 paragraf ("yu" harfi), 11-paragraf ("ya"harfi), 12-paragraf (2-moddasi), 13-paragraf (v>b kabi holatlar), 21-paragraf, 22-paragraf (2-moddasi), 26-paragraf (1-moddasi), 27-paragraf, 28-paragraf, 31-paragraf, 40-paragraf, 41-paragraf,48-paragraf, 49-paragraf, 50-paragraf (2-moddasidagi "u(yu" ga aloqador qism), 52-paragraf, 58-paragraf, 14-paragraf va boshqalar. Yuqorida berilgan qoidalarning yangi qoidalar to`plamiga kiritilmaganligi bir qator omillarga asoslanadi: "e" harfining yangi yozuvda faqat "e" unlisini ifodalashi ("y"+e"ni emas), yo,yu,ya harflarining yangi alifboda yo`qligi, ayrim qoidalarning o`zini oqlamaganligi kabi sabablar shular jumlasidandir. Faktlar tahliliga murojaat etaylik:

1. 1956-yil "...qoidalari"ning 2- paragrafida "u" harfining yozilishiga oid 3 ta qoida berilgan bo`lib, shulardan bittasi (2-qoida) *qovun, sovun, tarvuz, tasavvur, quvur* kabi so`zlar imlosiga taalluqlidir. Bu qoidaga ko`ra so`zlarning oldingi bo`g`inlarida o,a,u unlilaridan biri bo`lsa va shu unlidan keyingi yopiq bo`g`in boshida v undoshi kelsa, "v"dan so`ng "u" yoziladi. Yangi (lotincha) o`zbek yozuvi imlosida bu qoida faqat "o" unlisidan keyingi yopiq bo`g`inga (*qovun, sovun, tovush* so`zlaridagi "v"dan so`ng "u" yozilishiga) nisbatan saqlangan, oldingi bo`g`inda "a" (masalan, *tarvuz* so`zida) yoki "u" (masalan, *quvur* so`zida) bo`lgan holatlar yangi "qoidalar"dan tushirib qoldirilgan.

1956-yil "...qoidalari"ning 31-§ da *osh-osh, bosh-boshla, sog`-sog`ay, yosh-yoshla* kabi so`zlarda talaffuziga ko`ra o yoki yo yozilishi, ammo *son, ong, yosh, ot* kabi bir bo`g`inli ba`zi so`zlarda yasovchi qo`shimchalar qo`shilganda, "o" tovushi "a" ga, "yo" tovushi "ya" ga aylanishi aytilgan: *son>sanamoq, sanoq; ong>angla, anglatmoq, anglashiladigan; yosh>yasha, yashamoq, yashasin; ot>ata, atamoq, ataladi* kabi. 1995-yil imlo to`plamida bu qoida berilmagan.

1956-yil "...qoidalari"ning 40-§da *isimoq, achimoq, qotmoq* kabi fe`llardan sifat yasalganda, ba`zan o`zakdagi s,ch va t undoshi takrorlanadi va shunga muvofiq yoziladi",- deyilgan: *isimoq-issiq, achimoq-achchiq, qotmoq-qattiq* kabi. Shuningdek *fan* so`ziga *-iy* qo`shib yasalgan sifat ham ikki *n* bilan yozilishi aytilgan: *fanniy* kabi. 1995-yil to`plamida bu qoida yo`q.

1956-yil to`plamida bor bo`lgan quyidagi qoidalar ham 1995-yil to`plamida yo`q: *"yoz, kel, ter, kuzat, keltir* kabi undosh bilan tugagan fe`l o`zak-negizlariga *-uv+chi, -uv+chiliq -uv+chan* qo`shimchalari qo`shilib, yangi so`z yasalganda, bu qo`shimchalar *-uv-chi, -uvchilik -uvchan* shaklida *v* bilan yoziladi: *yoz-yozuvchi, yozuvchilik kel-keluvchi, ter-teruvchi, kuzat-kuzatuvchilik, keltir-keltiruvchi, kul-kuluvchi, kuzatuvchan* kabi" (41-§.).

"Sifat va otlarni bir-biridan farq qilish uchun ishlatiladigan *-li* va *-lik* qo`shimchalari quyidagi o`rinlarda yoziladi..." (48-§).

"Familiyani bildiruvchi qo`shimchalar undosh bilan tugagan kishi otlariga *-ov, -ova* shaklida: *Sodiqov, Sodiqova...* kabi; unli bilan tugagan otlarga esa *-yev, -yeva* shaklida: *Xayrullayev, Xayrullayeva...* kabi qo`shilib yoziladi" (49-§).

Ayni paytda bir qator qoidalar yangi to'plamda yangicha talqinda, ba'zan jiddiy o'zgarishlar bilan berilganligini ham ko'ramiz. Chunonchi:

1. Rus grafikasi asosidagi o'zbek orfografiyasida "-uq"(-iq) qo'shimchasining imlosi qoidalashtirilmagan, lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi orfografiyasida esa bu qo'shimchaning imlosiga oid maxsus eslatma bor, unda shunday deyiladi: "Undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe'lga -uq qo'shiladi: uz-uzuq, yut-yutuq kabi. Lekin uyushiq, burushiq, uchiriq (shuningdek, bulduriq) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida "i" aytiladi va shunday yoziladi. (Q.: 33- qoidaning eslatma qismi);

2. Ma'lumki, otlarga egalik qo'shimchalarining qo'shilishida har xil holatlar uchraydi. Masalan, *bobo* va *avzo* so'zlariga egalik qo'shimchasi ikki xil tarzda – *bobo* so'ziga "-m" va "-ng" shakllarida (*bobom*, *bobong* kabi), *avzo* so'ziga esa "y+im", "y+ing" shakllarida ("o"dan so'ng bir "y" orttirilib) qo'shiladi: *avzo+y+im*, *avzo+y+ing* kabi. Bunday holatni "u" bilan tugagan ayrim so'zlarda ham uchramiz: *uyqu+m*, *uyqu+ng*, ammo *mavzu+y+im*, *mavzu+y+ing* kabi. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvining imlosida bunday holatlarni me'yorlashtiruvchi qoidalar yo'q. Bu hol ayrim grammatik formalarning yozuv amaliyotida turlicha ifodalanishiga (*orzum* va *orzuyim*, *inshong* va *inshoying* shakllarida yozilishiga) sabab bo'layotir. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvining imlo tizimida esa yuqoridagi kabi holatlar hisobga olingan. Unda, xususan, shunday qoida berilgan: "o,o,u,e"unlilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari –m, ng, -si; -miz, -ngiz (yoki-lari) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: *bobom*, *bobong*, *bobosi*; *bobomiz*, *bobongiz*, *bobosi* (yoki *bobolari*); *orzum*, *orzung*, *orzusi*; *orzumiz* *orzungiz*, *orzusi*, kabi;

b) *parvo*, *obro'*, *mavqe*, *mavzu*, *avzo*, so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir "u" tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim*, *parvoying*; *parvoyimiz*, *parvoyingiz*; *obro'yim*, *obro'ying*; *obro'yimiz*, *obro'yingiz* kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi *parvo*, *avzo*, *obro'*, *mavqe* so'zlariga –yi shaklida, *xudo*, *mavzu* so'zlariga esa "-si" shaklida qo'shiladi: *avzoyi*, *mavzusi* kabi (*dohiy* kabi "u" undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda "-si" qo'shiladi: *dohiysi* kabi). (Qarang: 35-qoidaning 3-bandi).

3. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra *shovul*, *ovul*, *quvur* so'zlarida "v"dan so'ng "u", *shovillamoq*, *lovillamoq*, *guvillamoq* kabi so'zlarda (taqlidiy so'zlardan yasalgan fe'llarda) esa "v"dan so'ng "i" yoziladi. (Q.: 2 va 50-paragraf qoidalari). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvida yuqoridagi ot va fe'llar uchun bitta umumiy qoida berilgan, bu qoidagi ko'ra taqlidiy so'zlardan yasalgan fe'llarda ham "v"dan so'ng "i" emas, "u" yoziladi: *shovullamoq*, *lovullamoq*, *gurullamoq* kabi. (Qarang: 37-qoidaning 1-bandi).

4. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida ("...qoida"ning 42-paragrafida) fe'llarning orttirma daraja yasovchi "-dir" qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga "-tir" shaklida qo'shilishi aytilgan, aslida esa jarangli "z"dan so'ng "-tir" emas, "-dir" qo'shiladi. Qiyos qiling: *cho'miltirmoq*, *sevintirmoq*, ammo *tomizdirmoq*, *oqizdirmoq* kabi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida bu kamchilikka barham berilgan. Unda shunday qoida bor: "nisbat shaklini yasovchi –dir qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (*kel* so'zidan boshqa), shuningdek, z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchidan keyin qo'shiladi: *quvdir*, *egdir*, *kuldir*, *yondir*; o'tkazdir, *tomizdir* kabi". (Qarang: 37-qoidaning 2-bandi).

5. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida ("qoidalar"ning 34-paragrafida) "g'" yoki "g" bilan tugagan so'zlarga "g" bilan boshlangan qo'shimchalar qo'shilganda, so'z oxiri va qo'shimcha boshidagi undoshlar, aytilishiga mos holda yozilishi qoidalashtirilgan: *bog'-boqqa*, *tog'-toqqa*, *barg-barkka*, *teg-tekkkan* kabi. Lotin grafikasiga asoslangan yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra esa bunday so'zlar talaffuziga (fonetik prinsipga) ko'ra emas,

morfemalarning asl holiga mos ravishda (morfologik prinsip asosida) yoziladi: bog`ga, tog`ga, sog`ga, og`gan, sig`guncha, bargga, teggan kabi (qarang: 37- qoidaning "d" bandi).

6. 1956-yil "qoidalari"ning 43-paragrafiga ko`ra "-gin", "-gir", "-giz", "-gaz" qo`shimchalari jarangsiz undosh bilan tugagan so`zlarga qo`shilganda aytilishiga muvofiq "-kin", "-qin", "-kir", "-qir", "-kiz", "-qiz", "-kaz", "-qaz" shakllarida yoziladi: *tortkin, topkin, tushkin, tortqiz, o`tkaz, o`tkir, chopqir* kabi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra "-gin" qo`shimchasi "-k" yoki "-q" bilan tugagan so`zlardan boshqa so`zlarga qo`shilganda, so`z qanday tovush bilan tugashidan va qo`shimchalarning bosh tovushi k yoki g aytilishidan qat`iy nazar, "g" bilan yozilishi aytilgan. Qiyos qiling: *tortkin* (1956- yil qoidasiga ko`ra), *tortgin* (1995- yil qoidasiga ko`ra), *topkin* (1956 yil qoidasiga ko`ra), *topgin* (1995 yil qoidasiga ko`ra). Biroq, "-gir", "-giz", "-gaz" qo`shimchalari bu qoida doirasiga kiritilmagan.

7. Rus grafikasi asosidagi o`zbek yozuvining "...asosiy qoidalari"da ikki otdan tuzilgan qo`shma sifatlarning ajratib yozilishi aytilgan: *dutor bo`yin* (ot+ot=qo`shma sifat), *havo rang* (ot+ot=qo`shma sifat), *bodom qovoq* (ot+ot=qo`shma sifat), *qo`y ko`z* (ot+ot=qo`shma sifat), *g`o`za po`choq* (ot+ot=qo`shma sifat) kabi (58-paragraf, 3-qoida). Qo`shma sifatlar imlosiga oid bu qoida amalda o`zini oqlagani yo`q: *orombaxsh, bug`doyrang, ilhombaxsh* so`zlari "ot+ot=qo`shma sifat " qolipida tuzilgan bo`lishiga qaramay, deyarli barcha imlo lug`atlarida qo`shib yozilgan, *devsifat, odamsifat* so`zlari esa (ular ham "ot+ot=qo`shma sifat" qolipida shakllangan) lug`atlarda har xil berilmoqda. Lotin grafikasi asosidagi yangi o`zbek yozuvi "qoidalari"da bu tipdagi qo`shma sifatlarning imlosi bir qadar tartibga solingan: "qoidalar"ning 38-bandida, xona, noma, baxsh, rang, mijoz, sifat kabi so`zlar yordamida yasalgan qo`shma ot va qo`shma sifatlarning qo`shib yozilishi qayd etilgan: qabulxona, tabriknoma, orombaxsh, kamquvvat, bug`doyrang, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab kabi. (Qarang: 38-qoida). Shu qoida talablaridan kelib chiqqan holda, *havo rang, jigarrang, bodom qovoq, qo`y ko`z* kabi qo`shma sifatlarning komponentlari ham lotincha o`zbek yozuvida qo`shib yozilishi kerak: havorang, bodomqovoq, qo`yko`z, jigarrang kabi.

8. Rus grafikasi asosidagi o`zbek yozuvi imlo qoidalariga ko`ra *ming boshi, o`n boshi, so`z boshi* kabilar "birikmalik xususiyatini saqlagan so`zlar" sifatida ajratib yoziladi (qarang: 58-paragraf, 12-qoida). Lotin grafikasi asosidagi yangi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra esa "qaratuvchili birikmaning bir so`zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo`shma otlar qo`shilib yoziladi: *mingboshi, so`zboshi, olmaoqi*"(qarang: 46-qoida).

9. 1956-yil "qoidalari"da ikkinchi komponenti "yo"lashgan tovush bilan boshlangan *sher yurak, muz yorar, ish yoqmas, qo`l yozma* tipidagi so`zlarning ajratib yozilishi aytilgan (qarang: 58-paragraf, 14-qoida). Lotin grafikasidagi yangi yozuvda bunday so`zlar qo`shilib yoziladi: *sheryurak, muzyorar, ishyoqmas* kabi (qarang: 39-qoida).

10. Rus grafikasi asosidagi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra *yeru osmon, oru nomus, tunu kun, kechayu kunduz, yoshu qari, qo`yu qo`zi* kabi juft so`zlarda defis (chiziqcha) qo`yilmaydi (58-paragraf, eslatma). Lotin grafikasi asosidagi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra ham bunday so`zlar ajratib yoziladi, ammo ularning qismlari orasida -u(-yu) bog`lovchisi kelsa, shu elementlardan oldin chiziqcha qo`yiladi: *dost-u dushman, kecha-yu kunduz* kabi (51-qoidadagi eslatmaning 2-bandi).

11. Rus grafikasi asosidagi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra yil va oylarni (chislolarni) ko`rsatuvchi arabcha raqamdan so`ng chiziqcha (defis) yozilmaydi: *1956-yil 22-sentyabr* kabi (47-paragraf qoidasi). Lotin grafikasi asosidagi yangi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra bunday o`rinlarda chiziqcha qo`yiladi: 1991-yilning 1-sentabri, 60-yillar kabi (56-qoida).

12. Rus grafikasi asosidagi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra *alla, qay* elementlari so`zga qo`shib yoziladi: *allakim, allaqanday, qaybir, qayvaqt* kabi (58-qoida, 13-bandi). Lotin grafikasi asosidagi yangi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra *qay* so`zi o`zidan keyingi yoki oldingi so`zdan ajratib yoziladi: *qay kuni*. Agar *qay* so`zi *yoq, yer* so`zlari bilan

ishlatilganda, bir "u" tovushi tushsa, bu soʻzlar qoʻshilib yoziladi: qayoqqa, qayerga kabi(60-qoida).

Izoh: lotin grafikasi asosidagi yangi oʻzbek imlosida alla (alla) komponentli soʻzlarga qoida berilmagan, ularga munosabat ham bildirilmagan.

13. Rus grafikasi asosidagi oʻzbek yozuvi imlosiga koʻra *bir oz* ravishi komponentlari ajratib yoziladi. Lotin grafikasi asosidagi yangi oʻzbek yozuvi imlosiga koʻra biroz soʻzining komponentlari qoʻshib yoziladi (60-qoida).

14. Rus grafikasi asosidagi oʻzbek yozuvi imlosida *koʻpdan-koʻp* tipidagi birliklar juft soʻzlar doirasida qaralgan, shu bois ularning komponentlari orasida chiziqchanning (defisning) yozilishi qoidalashtirilgan (57-paragraf, 1-qoida). Lotin grafikasi asosidagi yangi oʻzbek yozuvi imlosiga koʻra birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi joʻnalish kelishigida boʻlgan birikmalarning komponentlari, shuningdek, belgining ortiq darajasini bildiruvchi kopdan kop, tekndan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizigan kabilar ajratib (chiziqchasiz) yoziladi (64-qoida).

15. Rus grafikasi asosidagi oʻzbek yozuvi imlosida izofali soʻzlarning (*nuqtai nazar, oynai jahon, dardi bedavo* kabilarning) ajratib yozilishi nazarda tutilgan (58-paragraf, 7-qoida). Lotin grafikasi asosidagi yangi oʻzbek yozuvi imlosida bu qoidagi bitta oʻzgarish kiritilgan: endilikda (yangi yozuvda) izofa undosh bilan tugagan soʻzlarga "i" shaklida (masalan, *dardi bedavo* kabi), unli bilan tugagan soʻzlarga esa "yi" shaklida (masalan, *nuqtayi nazar* kabi) qoʻshiladi (65-qoida).

16. Rus grafikasi asosidagi oʻzbek yozuvi "qoidalari"ning 69 va 71-paragraflari bir xil hodisaning birikmali nomlarini ikki xil yozishga yoʻl ochadi: birikma muhim yigʻilish nomi boʻlganda, undagi har bir soʻz bosh harf bilan, birikma muhim tarixiy voqea nomi boʻlganda esa undagi birinchi soʻz bosh harf bilan, qolganlari kichik harf bilan boshlanadi, *Qirim Konferensiyasi* (69-paragraf qoidasiga mos) - *Qirim konferensiyasi* (71-paragraf qoidasiga mos).

Izoh: birinchi misolda *Qirim Konferensiyasining* muhim yigʻilish nomi ekanligi, ikkinchi misolda esa shu birikmaning muhim tarixiy voqea nomi hisoblanishi nazarda tutilgan.

Lotin grafikasi asosidagi yangi oʻzbek yozuvi imlosida shu ikki qoidadan faqat bittasi saqlangan, unga koʻra "Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navroz bayrami kabi" (70-qoida). Demak, lotin grafikasi asosidagi yangi oʻzbek yozuvi imlosida yuqoridagi ikki qoidaning parallel yashashiga chek qoʻyilgan, shu bilan mazkur qoidaning izchil boʻlishi taʼminlangan.

17. Lotin grafikasi asosidagi yangi oʻzbek yozuvi imlosining "Koʻchirish qoidalari"da rus grafikasi asosidagi oʻzbek yozuvi imlosida berilmagan quyidagi qoidalar bor:

77- qoida: oʻzlashma soʻzlarning boʻgʻinlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha koʻchiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda koʻchiriladi: dia-gramma, mono-grafiya kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga koʻchiriladi: silin-drik kabi.

79-qoida: ...boʻgʻinga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar satrdan satrga boʻlib koʻchirilmaydi: ToshDU kabi.

Izoh: 79-qoidaning bosh harflardan tuzilgan qisqartmalarga (AQSh, BMT kabilarga), shuningdek, koʻp xonali raqamlarga (16,245, 1994, XIX kabilarga) aloqador qismi rus grafikasi asosidagi oʻzbek yozuvi imlosida ham bor.

80-qoida: Harflardan iborat shartli belgi oʻzi tegishli raqamdan ajratib koʻchirilmaydi: 5-"A" sinf, V "B" guruh, 110 kg, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm kabi.

81-qoida: Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko`chirilmaydi: "Navroz-92" (festival), "Oqituvchi-91" (ko`rik tanlov), "Andijon-9", "Termiz-16" (g`o`za navlari), "Boing-767" (samolyot), "Foton-774" (televizor) kabi.

82- qoida: A.J. Jabborov, A.D. Abduvaliyev kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko`chirilmaydi. Shuningdek, v.b. (va boshqalar), sh.k. (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so`zdan ajratib ko`chirilmaydi.

Tekshirish savollari:

- 1.Orfografiya nima? U grafikadan qanday farqlanadi?
- 2.Orfografiya qoidalarining tuzilishi qanday prinsiplarga asoslanadi?
- 3.Amaldagi (kirillcha) o`zbek yozuvi imlo qoidalarini qachon tasdiqlangan? Yangi (lotincha) o`zbek yozuvining imlo qoidalarini-chi?
- 4.Amaldagi "o`zbek orfografiyasining asosiy qoidalarini" qanday bo`limlardan tarkib topgan? (Bo`limlarning nomlanishi, paragraflari...).
- 5.Yangi (lotincha) o`zbek yozuvining imlo qoidalarini qanday bo`limlardan tarkib topgan? (Bo`limlarning nomlanishi, modda va bandlari).
- 6.Amaldagi (kirillcha) o`zbek yozuvi imlosidagi qaysi qoidalar yangi (lotincha) o`zbek yozuvi imlo qoidalarini sirasiga kiritilmagan? Sabablari?

Mavzu: Leksikologiyaning predmeti va vazifalari.

Reja:

1. Leksikologiya predmeti haqida tushuncha.
2. So`z va uning ma`nolari.
3. O`z va ko`chma ma`noli so`zlar.
4. Ma`no ko`chish yo`llari.
5. So`z ma`nolarining o`zgaruvchanligi.
6. So`zlarning ma`no munosabatiga ko`ra turlari.
7. Bir ma`noli va ko`p ma`noli so`zlar.

LEKSIKOLOGIYA HAQIDA TUSHUNCHA

Leksikologiya grekcha: -leksikos -so`z va logos-ta`limot; so`z haqida talimot demakdir.

Tilshunoslikning leksik birliklarini o`rganuvchi sohasiga leksikologiya deyiladi. Tildagi so`zlarning jami leksika (lug`at sostavi)ni tashkil etadi. Leksika atamasi ayrim shaxs yoki asarga nisbatan ham ishlatiladi. Masalan: H.Olimjon leksikasi, Navoiy romani leksikasi.

Leksikologiyada so`zning semantik tarkibi, so`zlarning shakl va ma`no munosabatiga ko`ra turlari, lug`at sostavidagi aktiv va passiv so`zlar, tarixiy jihatdan o`zbek tili leksikasi, so`zlarning ekspressiv-uslubiy xususiyatlari va hokazolar o`rganiladi. Leksikologiya dastlab ikki turga bo`linadi:

1.Umumiy leksikologiya-qardosh yoki noqardosh til bo`lishidan qat`iy nazar, umuman, inson tili so`z boyligini tekshiradi.

2.Xususiy leksikologiya-aniq bir tilning so`z boyligini o`rganadi

Leksikologiyaning bu ikki tarmog`i o`zaro bog`langan holda ish ko`radi.

Tilning lug`at sostavi asosan ikki xil yo`l bilan tekshiriladi. Shunga ko`ra leksikologiya ikki tarmoqqa ajraladi: 1) sinxronik (hozirgi); 2) diaxronik (tarixiy) leksikologiya. Lug`at sostavini tekshirishda bu ikki xil usulni qo`shib olib borish ahamiyatlidir.

Leksikologiyada 3 tarkibiy qism o`zaro zich bog`langan bo`ladi:

1. Leksika-soʻz yoki lugʻat sostavi;
2. Semantika-soʻzning maʼnosi;
3. Etimologiya-soʻzning kelib chiqishi.

Masalan: kitob-soʻz. Oʻquv quroli, arabcha; ishchi-soʻz, shaxs oti, yasama, ish soʻzidan hosil qilingan.

Hozirgi kunda leksikologiya boʻlimida semasiologiya, etimologiya, onomasiologiya (marosim), antroponimiya, gidronimiya, toponimiya, oronimiya, giponimiya, graduonimiya, partonimiya va boshqalar oʻrganilib kelinmoqda.

Oʻzbek tilshunosligida, sal oldinroq frazeologiya, soʻz yasalishi, hatto leksikografiya ham leksikologiya tarkibida oʻrganilib kelinar edi. Hozir ularning har biri tilshunoslikning mustaqil bir sohasi boʻlib ajralib chiqqan. Oʻzbek semasiologiyasini ham yaratish davri allaqachonlar yetib keldi.

Leksikologiya tilshunoslikning fonetika va grammatika boʻlimlari bilan bevosita bogʻlangan: tovush boʻlmasa, soʻz boʻlmaganidek soʻz boʻlmasa, grammatikaning ham boʻlishi mumkin emas. Lugʻat sostavidan nutqda maqsadga muvofiq tarzda foydalanishni nazarda tutsak leksikologiya uslubiyat bilan ham uzviy aloqadadir.

TUSHUNCHA VA SOʻZ

Tushuncha mantiq kategoriyalaridan biridir. Tushuncha obʼyektiv borliqning umumiy tomonlarini aks ettiradi. Tushuncha tafakkurning asosiy bir shakli hisoblanadi. Tafakkur uch shaklda: tushuncha, muhokama va xulosa shakllarida oʻz ifodasini topadi. Tushuncha predmet va voqea-hodisalarning umumiy va muhim tomonlarini aks ettiradi. Muhokama predmet va voqea-hodisalarning tasdiq, yo inkor shaklida oʻzaro aloqa va munosabatlarini koʻrsatadi. Xulosa ham fikrlash jarayoni boʻlib, bir yoki bir necha muhokamada yangi bir muhokamaga kelishdir. Masalan: ruchka-yozuv quroli, suv-ichimlik.

Soʻzlar nutq tovushlaridan (ol, ich) baʼzan bir tovushdan (u,o) iborat boʻladi, Fikrning roʻyobga chiqishi, tafakkurning almashuvi gap vositasida yuz beradi. Har bir soʻz maʼnoga ega boʻlishi kepak.

Soʻz maʼnosi nima? Predmet va voqea-hodisalar yoki ular orasidagi munosabatning kishi ongida aks etishi soʻzning maʼnosi deyiladi. Soʻzlarning maʼno turlariga koʻra guruhlanishi:

1. Nomlovchilar: ot, sifat, son, feʼl, ravish
2. Ifodalovchilar: undov, yuklama, koʻmakchi, modal soʻz
3. Koʻrsatuvchilar: olmosh, bogʻlovchi.

Bulardan birinchisi leksikologiyaning tekshirish obʼyektidir.

Soʻz oʻz vazifasini grammatik shakllangandagina roʻyobga chiqaradi: "Biz universitetda oʻqiyamiz" gapi grammatik shakllarisiz "Biz, universitet, oʻqi" holida fikr ifodalay olmaydi. Demak, soʻzning mohiyatini tushunmoq uchun uning fonetik: semantik grammatik tomonlariga eʼtibor berish kerak.

Shunday qilib, maʼlum tovush yoki tovushlar kompleksidan iborat boʻlib, maʼno yoki maʼnolar tizimini ifodalaydigan grammatik butunlikka soʻz deyiladi: kitob, ruchka, paxt.

Soʻz ajralmas uch tarkibiy qismdan iborat. 1. Soʻzning sema tarkibi. 2. Soʻzning fonetik tarkibi. 3. Soʻzning morfologik tarkibi. Soʻzning semantik tarkibi shu soʻzga xos maʼno yoki maʼnolar va qoʻshimcha maʼnolardan iborat. Boshqacha aytganda, soʻz denotativ (atama) va koniotativ (qoʻshimcha maʼno) maʼnolar yigʻindisidan iborat. Bas, shunday ekan, leksikologiya bevosita semasiologiya bilan bogʻliq.

SEMASIOLOGIYA

Soʻzning maʼno tarkibi va u bilan bogʻliq hodisalarni oʻrganuvchi soha semasiologiya deyiladi.

Soʻzning maʼnosi va semantik tarkibi boshqa-boshqa hodisadir. Soʻzning maʼnosi deganda, shu soʻzning u yoki bu bitta maʼnosi anglashiladi, Masalan: kitob-soʻzining maʼnosi oʻquv quroli, non-ozuq-ovqat. Soʻzning maʼno tarkibiga uning oʻz yoki koʻchma, bir yoki koʻp maʼnosi hamda ekspressiv hissiy maʼnolari kiradi: Masalan: Bosh, qosh, goʻzap.

Soʻzning maʼno tarkibini oʻrganishda keyingi davr tilshunosligida komponent tahlil metodi vujudga keldi. Buning oʻzbek tiliga tadbiq etilishida prof. I.Qoʻchqortoyev. Sh. Rahmatullayev, H.Neʼmatov, R.Rasulovlar katta rol oʻynaydi. Ular tomonidan Oʻzbek tilshunosligida komponent taqlil usuli tadbiq etildi. Komponent tahlil metodida bir soʻzning turli semalari tahlil etiladi va uning valentligi aniqlanadi. Masalan: tuz leksemasining oq, kristall, shoʻr, ovqatga solinadigan ximiyaviy element semalari mavjud. Chogʻishtiring: Non sindi. Non-qattiq, qattiq narsa sindi. Suv sindi: suv-yumshoq bu sinmaydi. Demak, non va suv soʻzlari "qattiq" va "yumshoq" semalari valentligiga koʻra farqlanadi. Bu hodisa uslubiyat uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

Soʻz va uning maʼno tarkibini izchil oʻrganish tilga yaxlit bir tizim (sistema) sifatida qaralgandagina amalga oshishi mumkin

Oʻzbek tilshunosligida tilga sistema (tizim) sifatida yondashish, asosan, 80-yillardan paydo boʻldi. Hozir tilshunoslikdagi eng ilgʻor metod sifatida rivojlanib bormoqda. Bu oʻrinda til leksikasining sistem qurilishi haqida maʼlumot berish lozim.

Sistem qurilishning mohiyati shundan iboratki, til strukturasi soʻzlar izohli yoki ters lugʻatlarda joylashgani kabi tasodifiy belgilar (masalan, alfavit shaklida) asosida emas, balki soʻzlar orasidagi maʼno hamda vazifa oʻxshashliklari asosida maʼlum guruhlar-gleksik semantik guruhlar (toʻdalarga) (LSG) birlashgan holda yashaydi. Masalan oʻzbek tilida shaxsni yosh xususiyati jihatidan baholovchi LSG oʻz ichiga: ninni, chaqaloq, goʻdaq norasida, bola, qiz, oʻgʻil, oʻsmir oʻspirin, yigit, juvon, keksa, qariya, chol, kampir, kabi soʻzlarniʼ asliy sifatlarining ijobiy baho LSGi: yaxshi, tuzuq durust chiroyli, suluv, goʻzal, zebo, koʻrkam, ajoyib, ajib kabi soʻzlarni oladi.

Bir LSGga kiruvchi soʻzlarning maʼno va vazifalarini aniqlashda ular tarkibidagi integral (birlashtiruvchi) va differensial (farqlovchi) semalar muhim rol oʻynaydi. Boshqacha aytganda, soʻzning maʼnosi va maʼno tuzilishi turlicha integral va differensial semalar yigʻindisidan iborat.

Soʻz maʼnosi (semema)ning kichik tarkibiy qismlari semalardir.

Tabiiy moddalar kimyoviy tarkibiga koʻra ularni tashkil etuvchi elementlarga boʻlingani kabi (chunonchi, suv H₂O, tuz-NaS!) soʻzning maʼnosi ham yaxlit bir butun koʻrinsa-da, bu nisbiy boʻlib, u tarkibiy qismlarga-semalarga boʻlinadi.

Soʻz maʼnosi (semema) nutqda muayyan sema "qobigʻiga yashirinadi" va bu sema nutqda asosiy yetakchi sanaladi. Soʻz maʼnosi (semema) tarkibida boshqa semalar bilan oʻzaro bogʻlanib oʻziga xos mikrosistemasini tashkil qilib soʻz maʼnosining yaxlitligini taʼminlaydi. M: aka va opa soʻzlari bitta element (semasi) bilan, yaʼni biri erkak biri ayol jinsiga xos shaxsni ifodalashi bilan farqlanadi. Bu soʻzlarda farklovchi -differensial sema jins. Ammo "qon-qarindoshlik", "bir ota-onadan tugʻilish", "yosh jihatdan kattalik", "bir avlodga mansublik" umumiy (integral)likni bildiradi.

Bir kimyoviy element rang-barang moddalar tarkibida uchrab turgani kabi ayrim LMGning differensial va integral semalari boshqa LSGlarda takrorlanib turadi. Chunonchi, "Erkak yoki ayol jinsiga mansublik"ni farqlash semasi uka-singil, er-xotin, yigit-qiz, kuyov-kelin, qoʻchqor-qoʻy kabi minglab soʻzlar tarkibida takrorlanadi.

Soʻz maʼnosi (sememalar)ning semantik tuzilishini oʻrganishda komponent tahlil metodining ahamiyati katta. Bu metod orqali soʻz maʼnosi, uni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlar, bu tarkibiy qismlarning oʻzaro munosabati, til va nutqdagi roli, oʻrni va vazifasi, ahamiyati aniqlaniladi.

Soʻz tilda til birligi (leksema), nutqda nutq birligi sifatida oʻrganiladi. Soʻzning nutqda oʻrganilishi, uning boshqa soʻzlar bilan birika olish imkoniyati, semantik sintagma

tuzishi, o'z ma'nosini to'la ochish unun muayyan so'z va so'z shakllarini talab etishi valentlik nazariyasining asosini tashkil etadi, So'z valentligi substantsial-semantik hodisa sifatida so'z ma'nosi va uning gapda namoyon bo'lishi bilan bog'liqdir.

Valentlik nazariyasi ob'yektiv, muhim va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Chunki u so'zning ichki imkoniyati, so'zga xos muayyan semantik xususiyatlarni ochishda muhim rol o'ynaydi.

So'zlarning semantik bog'lanishi bevosita ular semalarining semantik munosabatini yuzaga keltiradi. Biror so'zning biror boshqa so'z bilan birikishi uning semantik imkoniyatiga ko'ra sodir bo'ladi.

Chog'ishtiring: suv so'zida "yumshoqlik", "suyuqlik" semalari mavjud. Shuning uchun ham u "ichmoq" fe'li bilan bevosita birika oladi. Chunki "yumshoq" va "suyuq" narsalar ichilish imkoniyatiga ega.

So'zlar orasidagi semantik munosabat esa bevosita sintaktik munosabatni yuzaga keltiradi, ya'ni sintaktik konstruksiyalar tuziladi. Chunki sintaktik munosabat asosida semantik munosabat yotadi. Bu o'z navbatida semantika va sintaksisning o'zaro dialektik bog'liqligini ko'rsatadi.

Ammo shu narsani ta'kidlash joizki, sintaktik aloqadan valentlik kelib chiqmaydi, balki valentlikdan sintaktik aloqa kelib chiqadi.

Valentik va sintaktik aloqaga xos xususiyatlarni aniqlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim.

Valentlik-ichki imkoniyat, potentsiya bo'lsa, sintaktik aloqa uning voqe bo'lishidir.

Valentlik-til birligi bo'lsa, sintaktik aloqa nutq birligi.

Valentlik-mohiyat bo'lsa, sintaktik aloqa hodisadir.

Valentlik-umumiy bo'lsa, sintaktik aloqa xususiydir.

Valentlik-zarurat bo'lsa, sintaktik aloqa tasodifdir.

Xullas, so'z valentligi va sintaktik aloqa o'zaro bog'liq, bir butun, ajralmas, ayni vaqtda har biri nisbiy "mustaqil" bo'lgan faol lingvistik hodisadir.

Valentlik nazariyasi so'zlar orasidagi mantiqiy munosabat mohiyatini bilishda, turli sintaktik birliklarning hosil bo'lish mexanizmini ochishda katta ahamiyatga ega.

LEKSIK MA'NO VA QO'SHIMCHA MA'NO

So'zning ob'yektiv borliqdagi narsa va hodisalar haqidagi dastlabki ma'nosi so'zning leksik yoki denotativ ma'nosi deyiladi. Masalan: non-oziq-ovqat, keldi-harakat. So'zning leksik ma'nosi uning o'zak negizida bo'ladi.

So'zning leksik ma'nosiga qo'shimcha tarzda sub'yektning his-tuyg'u, kayfiyatini, turli munosabatini ifodalovchi ma'no so'zning qo'shimcha (konnotativ) ma'nosi deyiladi. Masalan: yuz, aft, chehra. Bu sinonimik qatorda atash ma'nosi bitta, qo'shimcha ma'no har xil. Emotsional-ekspressiv yoki qo'shimcha ma'no so'zning semantik tarkibida bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Masalan: novcha so'zining leksik ma'nosi-uzun, qo'shimcha ma'nosi yo'q. Naynov so'zida leksik ma'no va salbiy munosabat mavjud, ya'ni emotsional-ekspressiv munosabat bor. So'zlardagi uslubiy belgi so'zning nutq funksional stillaridan biriga xosligini ham ko'rsatadi. Masalan: ozod so'zi neytral, hur so'zi badiiy uslubga xosdir.

Demak, so'zlardagi qo'shimcha ma'no emotsional-uslubiy va funksional-uslubiy ma'nolar shaklida ifodalanishi mumkin. Leksik ma'no va grammatik ma'no

Gapni tashkil etgan har bir so'z o'zining leksik ma'nosi bilan bir qatorda kamida ikki va undan ortiq grammatik vazifani bajaradi. Paxta gulladi. Paxta so'zi texnika o'simligining bir turini, gulladi esa holati-o'zgarganligi, ya'ni gullaganini bildiradi. Bu gapdagi so'zlar yuqorida qayd qilingan ma'nolardan tashqari, paxta predmet nomini bildiradi, bosh kelishik va birlik sonida, gapda ega vazifasida kelgan. Gulladi so'zi fe'l, o'tgan zamon, birlik, uchinchi shaxs, o'timsiz, aniqlik maylini bildiradi, gapda esa kesim vazifasida kelgan.

Shunday qilib, so'zning biror tushuncha, ya'ni denotat ifodalashi so'zning leksik ma'nosi deyiladi.

Soʻzning morfologik va sintaktik xususiyatlari uning grammatik maʼnosi deyiladi.

Soʻzlar gapda maʼlum sharoitda oʻz leksik-grammatik maʼnosini oʻzgartirishi mumkin.

1. Yakka soʻzlar boshqa soʻzlar bilan aloqaga kirmay leksik-grammatik maʼnoga ega boʻladi: tosh, yogʻoch, temir soʻzlari predmet, bosh kelishi, birlikni bildiradi.

2. Soʻzlar bir-biri bilan grammatik jihatdan bogʻlanganda dastlabki leksik-grammatik maʼnosini saqlagan holda, yaʼni boshqacha leksik-grammatik maʼno kasb etadi: tosh yul, yogʻoch koʻprik temir eshik. Bu soʻzlar asl leksik maʼnolarini saqlagan holda predmet maʼnosidagi keyingi soʻzlarning belgisini, qanday materialdan yasalganligini koʻrsatyapti.

Leksik-grammatik maʼno nutqda soʻz maʼnolarini va vazifalarini turini anglashga yordam beradi. Jumladan, oʻzbek tilida ot va otlashgan soʻzlar egalik, kelishik affikslerini qabul qiladi. Feʼllar tuslanadi: Rejali ish buzilmaydi. Ikkinchidan, predmetga soʻzlovchining munosabatini bildiradi: Kichkina dekcha - ichi toʻla mixcha. Bu munosabatlar gapdagi grammatik shakllar-gina -kina, -cha kabi kichraytish erkalash maʼnosidagi qoʻshimchalar bilan roʻyobga chiqqan.

SOʻZNING OʻZ VA KOʻCHMA MAʼNOLARI

Soʻzning predmet, voqea-hodisa haqidagi dastlabki real maʼnosi soʻzning oʻz maʼnosi deyiladi: Kitob-oʻquv quroli, non-ozuq-ovqat keldi-harakat qizil-rang-tus.

Soʻzning oʻz real leksik maʼnosidan tashqari oʻxshatish, mubolagʻa yo kinoya usullari bilan boshqa maʼnolarda tusllanishi soʻzning koʻchma maʼnosi deyiladi: Uy qurish uchun yer oldim (yer-joy) E, Quyosh, koʻrsat yuzing (Quyosh-goʻzal sevgili), Togʻning beli (beli oʻrtasi) kabi.

Nutqiy kuchma maʼno soʻz semantik tarkibidagi ayrim semalarni betaraflashtirish (tushirib qoldirish, chetlashtirish) va boshqacha bir semasini kuchaytirish, boʻrttirish orqali yuzaga keltiriladi. Chunonchi, yuqoridagi misolda "Quyosh" soʻzining planeta maʼnosi chetlashtirilib, chiroyli, yaltiroq, goʻzal semalarini boʻrttirish asosida kuchli konnotativ maʼno hosil qilingan.

METAFORA

Metafora soʻzi yunoncha boʻlib: koʻchirish, koʻchirma demakdir. Metafora soʻzni koʻchma maʼnoda qoʻllashning bir turidir. Uni F.A.Bulaxovskiy "atashning belgiga qarab kuchishidir"-degan edi. Biror predmet belgi yoki harakatning nomini boshqasiga oʻxshashligi asosida maʼno koʻchirishga metafora deyiladi. Bunda predmetlarning rangi, shakli, harakat-holati, xarakteri, oʻrni va paytga munosabati jihatidan oʻxshashligiga asoslaniladi.

Metafora koʻproq odamning tana aʼzolari nomlariga (bosh, yuz, burun, ogiz, quloq, til, oyoq), kiyim qismlariga (etak, yoqa), hayvon, parranda va hasharotlarning biror aʼzosi nomiga va boshqalarga oʻxshatilib hosil qilinadi.

METONIMIYA

Metonimiya soʻzi yunoncha: - yangi nom qoʻyish, nomini oʻzgartirish demakdir. Metonimiyada biror predmet xususiyati yoki voqea-hodisaning nomini aytganda, shularga oʻzaro bogʻliq boʻlgan ikkinchisi anglashiladi. Bunda predmetlarning ichki yoki tashqi oʻxshashligi nazarda tutilmaydi. Masalan:

Fuzuliyini oldim qoʻlimga.

Majnun boʻlib yigʻlab qichqirdi.

Va Navoiy tushib yoʻlimga

Faryod bilan oʻrnidan turdi. (A.O.)

SINEKDOXA

Yunoncha soʻz boʻlib: birgalikda oʻylamoq, fahmlamoq demakdir. Qism bilan butun munosabati asosida maʼno koʻchirishga sinekdoxa deyiladi. Sinekdoxa metonimiyaning bir koʻrinishi deb ham yuritiladi. Ammo undan farqli ravishda sinekdoxa, miqdoriy xarakteristikaga asoslanadi. Masalan: bosh, tuyoq soʻzlari, hayvon tushuniladi.

FUNKSIONAL (VAZIFAVIY) KOʻCHIRISH

Biror predmet nomi boshqasiga ular bajargan vazifadagi oʻxshashlikka asoslanib koʻchirilsa, funksional koʻchirish deyiladi. Funksiya lotincha: faoliyat, vazifa demakdir.

Funksional koʻchirish ham oʻxshashlikka asoslanadi. Bu jihatdan u metaforaga yaqin turadi. Farq shundaki, funksional koʻchirishda tashqi koʻrinish, material jihatdan oʻxshashlik emas, balki vazifa jihatidan oʻxshashlik asosga olinadi. Masalan: Qush organizmining uchish uchun xizmat qiladigan qismi qanot deb ataladi. Xuddi shunday vazifani bajaruvchi qism samolyotga nisbatan ham qanot deb nomlanadi. Xat yozish uchun avvallari qush pati ishlatilar edi. Uni pero der edilar. Bu asbob metaldan yasalgandan soʻng ham pero deb yuritilaverdi. Tugma yaktakning boqchini tugish. Hozir-metall. Otlanmoq-biror joyga borish va h.q.

SOʻZ MAʼNOLARINING OʻZGARUVCHANLIGI

Til lugʻat tarkibining oʻzgarishi bilan bogʻliq ravishda soʻz maʼnolari ham oʻzgara boradi. Bu oʻzgarish tilning butun tarixiy taraqqiyoti davomida yuz beradi. Baʼzi soʻzlar shaklan oʻzgarмай, maʼno tomondan oʻzgaradi. Bir maʼnoni bildirgan soʻzlar bir necha maʼnoni ifodalay boshlaydi va h.k.

Zamon oʻtishi bilan tildagi baʼzi soʻzlar dastlabki anglatgan maʼnolaridan tashqari, yana boshqa maʼnolarni ifodalay boshlaydi. Masalan: Vatan soʻzining maʼnosi kengaydi, Birovning mulki, tugʻilgan joyi maʼnosidan Oʻzbekiston maʼnosini anglatadigan boʻldi. Hozirgi oʻzbek tilida burchak toʻgarak oʻzlashtirish, kecha, yutuq boshlangʻich kabi qator soʻzlarning maʼnolari ham kengaydi. Shuningdek, qarindoshlik bildiruvchi ota, ona, xola, amaki kabilar keng maʼnoda hurmat ifodalovchi soʻzlar sifatida qoʻllanilishi soʻz maʼnosi oʻzgarishi natijasidir.

Davrlar oʻtishi bilan ikki yoki uch maʼnoni ifodalagan soʻz bir maʼnonigina anglatib qolishi mumkin. Masalan: ichkari soʻzi avval biror narsa yoki binoning ichki qismini ham, xotin-qizlar huquqsizligini ham ifodalagan boʻlsa, hozirgi vaqtda u soʻz faqat bir maʼnoni maʼlum bino yoki narsaning ichki qismini ifodalaydi. Kiyik soʻzi qadimda barcha yirtqich hayvonlarga nisbatan ishlatilgan boʻlsa, hozir faqat bir hayvon nomi - ohuni bildiradi.

Turdosh otlarning atoqli otlarga koʻchishi ham maʼno torayishiga olib keladi. Masalan, poʻlat-Poʻlat, oʻlmas-Oʻlmas kabi.

Mavzu: Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari

Reja:

1. Soʻzlarning maʼnoviy munosabati haqida
2. Sinonimiya
3. Antonimiya
4. Soʻzlarning shakliga koʻra turlari: omonim va paronimlar.
5. Omonimlarning turlari va koʻrinishlari.
6. Omonimlarning uslubiy ahamiyati.
7. Paronimlarga xos xususiyatlar

Sinonimlar.

- Sinonimlar va sinonimik qator.
- Sinonimik qatordagi soʻzlarning oʻzaro farqli xususiyatlari.

- Sinonimik qatordagi dominanta.
- Sinonimlar va dubletlar.
- Sinonimlarning paydo bo'lishi.
- Sinonimlarning nutqda qo'llanishi.

Sinonim grekcha bir nomli demak. Denotativ ma'nosi bir xil, koniotativ ma'nosi (qo'shimcha ma'no ottenkasi, stilistik bo'yog'i) va boshqa xususiyatdari farqli bo'lgan so'zga sinonimlar deyiladi: yuz, aft, bashara, chehra

Sinonimiya – bir xil nomga egalik quyidagi ko'rinishlarga ega: 1) leksik sinomiya, yani so'zlar ma'nodoshligi: ish, yumush; gapirmoq, so'zlamoq; 2) Iboralar ma'nodoshligi: boshi osmonga yetdi? terisiga sig'madi; 3) Affiksial, ya'ni grammatik shakllar ma'nodoshligi -yap, -yotir; 4) Sintaktik sinonimiya: ona bolasiga qayg'uradi, ona bolam deb qayg'uradi.

Tilshunoslikning sinomimlari, o'rgatuvchi bo'limi simonimika deyiladi. Leksikologiyada esa leksik sinonimlar o'rganiladi.

Tilshunos olimlar so'zdagi ma'no xususiyatlarini ko'zda tutib, sinonimlarga turlicha ta'rif beradilar.

Sinonimlarning mohiyatini to'g'ri tushunish uchun ikki hodisani bir-biridan farqlash lozim: 1) tushuncha va so'z, ularning o'zaro munosabati; 2) so'z va uning ma'nolari, har bir so'zning ma'no ottenkalari.

Tushuncha, (predmet, -belgi, voqea, hodisa, harakatlar haqida kishilarninig tasavvuri bo'lib, so'z shularning ma'lum tovush yig'indisi vositasida tilda reallashuvi demakdir, "Tushuncha so'zga; so'z esa tushunchaga to'la ravishda mos kelavermaydi.

Shuningdek, so'z tushunchaning hamma tomonini qamrab ololmaydi, balki uning mohiyati va muhim tomonini aks ettiradi. Tushunchaning boshqa tomoni va boshqa xususiyatlari boshqa so'zlar bilan ifodalanadi. Shu sababli tilda ma'nodosh so'zlar sinonimlar paydo bo'ladi.

Sinonimlarni ta'riflaganda, uning barcha xususiyatlarini bir ta'rif doirasiga sig'dirib bo'lmaydi. Shu sababli sinonimlar ta'rifida ularning umumlashtiruvchi ma'nosi, aytilishi va yozilishini hisobga olish kifoya.

Sinonimlar ta'rifida ma'nolari bir xil deyish to'g'ri emas, ma'nosi bir xil so'zlar dubletlar deyiladi.

Ular anchagina: arava, aroba, shoki, shoyi, gadoy, gadoi, boaq, baaql kabi.

Birlashtiruvchi ma'nosi bilan o'zaro bog'lanuvchi so'zlar gruppasi sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qator ikki va undan ortiq so'zlardan tashkil topadi: osmon, ko'k, samo, falak (to'rtta so'z), qiziq, g'alati, ajoyib, alomat, antiqa, ajab, ajib (yettita so'z).

Sinonimik qatorni tuzilishda ma'lum chegaraga va aniqlikka ega bo'lgan, stilistik jihatdan "betaraf" so'z dominanta deb yuritiladi: yurak, ko'ngil, qalb, dil qatorida dominanta yurak.

Sinonimik munosabat, odatda, bir so'z turkumi doirasida bo'ladi; ulug', buyuk, katta, (sifat), odam, inson, bashar (ot).

Sinonimik qator barcha mustaqil va yordamchi so'zlar, shuningdek, modal so'zlar doirasida uchrashi mumkin.

Bu o'rinda so'zlardagi leksik semantik guruh va sinonimik qator tushunchalari o'zaro yaqinligi, ammo ular bir-biridan farq qilinishini aytish lozim. Leksik semantik guruh tushunchasi "si.nonimik qatoridan ancha keng. U o'z ichiga "sinonimik qator" tushunchasini to'la qamrab oladi: ninni - chaqaloq - go'dak - bola - yigit - qiz –erkak - ayol kabilar bir leksik semantik guruhni tashkil etadi. Lekin sinonimik qator emas. LSG ichida sinonimik qator bo'lishi mumkin: ninni-chaqaloq-go'dak.

Sistem tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashilsa, sinonimiya hodisasi tez anglashiladi.

Bunda leksik oppozitsiyalar (qarama-qarshi belgilar) asosiy rol o'ynadi. Jumladan, xushbo'y, hidli, muattar sinonimik qatori "ijobiy belgi" semasi bilan bir xil, ammo "kitobiy"lik semasi bilan hidli va muattar so'zlari qarama-qarshi (oploziv)dir. Ana shunday

ma'lum bir juz'iy semalar bilan farqlanuvchi so'zlar sinonimlikni ta'minlaydi. Shuning uchun ham sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar qaysidir jihatlari bilan bir-birlaridan farqlanganligi uchun tilda alohida leksik birlik sifatida yashaydi.

Sinonimik qatordagi so'zlar quyidagi hodisalar nuqtai nazaridan o'zaro farqlanadilar:

1) emotsional-ekspressiv bo'yoq nuqtai nazaridan: neytral yoki emotsional-ekspressiv bo'yokdor so'zlar bo'ladi: yuz-neytral, bashara-bo'yoqli. 2) qo'llanish uslubiga ko'ra: inson, bashar sinonimik qatoridagi bashar-poetik uslubga xos.

3) adabiy tilga munosabatiga ko'ra: adabiy yoki dialektal: qidirmoq-adabiy, istamoq-dialektal.

Quyidagicha munosabatda bo'lgan so'zlar o'zaro sinonim sanalmaydi:

1. Keng tushunchani anglatuvchi so'z bilan tor tushunchani anglatuvchi so'z; uy va xona, o'tov va chayla.

2. Tur va jins tushunchasini anglatuvchi so'zlar: daraxt (jins), olma (tur), ot (jins), duldul (tur)

3. Turli sotsial davrga xos tushunchalarni anglatuvchi so'zlar: sudya, qozi, mirshab, militsiya.

Sinonimiya va polisemiya munosabati ham xarakterlidir. Ko'p ma'noli so'z har bir ma'nosi bilan boshqa-boshqa sinonimik qatorda bo'lishi mumkin. Masalan: ko'p ma'noli "bitirmoq" so'zi uch ma'nosi bilan uch sinonimik qatorga birlashadi:

1. Bitirmoq, tugatmoq, tamomlamoq, Bu so'zlar "yakuniga yetkazmoq" ma'nosi bilan o'zaro sinonimdir: Boshlasak sovuq tushmay bitiramiz (A.Q) Choyning bari tugadi, maktabni tamomlab keldi.

2. Bitirmoq, bajarmoq, ado etmoq, do'ndirmoq. Bu qatordagi so'zlar "ish, vazifa, topshiriqni amalga oshirmoq, bajo keltirmoq" ma'nosi bilan o'zaro sinonim bo'ladi: ishni ko'ngildagidek bitirib keldingiz, ishni sifatli bajardi: Shaxsiy majburiyatni ado etdi. Kuniga ikki kishi uch yarim-to'rt norma do'ndiryapmiz.

3. Bitirmoq, sop qilmoq, yo'qotmoq: bu qatordagi so'zlar "tamom (yo'q) holatga keltirmoq" ma'nosi bilan sinonimlik hosil qiladi: Qizning ota-onasining ta'rifini aytib bitirolmaydilar, Oshni bir olishda tugatdi.

Y.Pinxasov, Sh.Rahmatullayev va boshqa bir qator olimlar ideografik, stilistik va kontekstual sinanimlar haqida fikr yuritadilar. Bunga nazariy asos yo'q, deb yozadi X.Doniyorov.

Bizningcha, bu o'rinda ikki hodisani farqlash kerak bo'ladi. Birinchidan, sinonimiyani ikki so'z orasidagi bir xil ma'no deb tushunilsa, X.Doniyorov haq. Ikkinchidan, agar sinonimiyani nutqiy hodisa deb qaralsa, kontekstual sinonimlar ham mavjud. Masalan: Madamin qo'rboshini o'ldirmasak u bizni yeydi (o'ldiradi).

Tilda sinonimlar quyidagi yo'llar bilan paydo bo'ladi:

1) bir tildan ikkinchi tilga so'z o'tishi natijasida: manglay (o'zb), peshona (toj), kuch (o'zb), quvvat (toj), josus (o'zb) agent (rus)

2) mahalliy shevalardan so'z olish natijasida: do'ppi-kalapo'sh; buzoq-go'sola; paqir-satil;

3) so'z yasalihi yo'li bilan sinonim hosil qilish, ya'ni yasama so'z tub so'z bilan: hisi-sezgi, savol-so'roq, vazifa-itopshiriq.

4) so'zning yangi ma'no kasb etishi natijasida: o'rin so'zi joy va lavozim ma'nosida; qoplamoq; bint bilan o'radi va o'ramoq, chirmamoq: ilon o'raldi; egallamoq: qal'a o'raldi.

Ko'rinib turibdiki, sinonimlarning material asoslari turlicha bo'lib, ular umumiy ma'nolari asosida o'zaro boglanadilar. Har bir sinonim so'z ma'no ottenkalariga ko'ra farqlanadi. Shuning uchun ham ularning ba'zilarini ikkinchisining o'rnida ishlatib bo'lmaydi. Masalan, katta, ulug', buyuk, gigant so'zlari doimo bir-birlarini almashtirmaydi. Chog'ishtiring: qari, oqsoqol, nuroniy, keksa...

Og'zaki va yozma nutqda sinonimlarning amaliy ahamiyati katta. Sinonimlar so'zni o'rinsiz takror ishlatishga yo'l qo'ymaydi, uslubning ravonligini ta'minlaydi. Ijodiy yozma

ishlar, ayniqsa, insho yozganda sinonimlardan unumli foydalanish lozim: Shoir, yozuvchi, avtor, soʻz sanʼatkori, muallif; ulugʻ, buyuk, katta, ulkan kabi.

Sinonimlar badiiy nutqda tasvirlash vositasi boʻlib xizmat qiladi. Yozuvchilar sinonimlar vositasida kishilar xarakterini, voqea-hodisalarni, manzaralarni aniq va ravshan, jozibali qilib tasvirlaydilar. Sinonimlardagi bunday xususiyatlarni XV asrdayoq A.Navoiy sezgan edi. Oʻzining "Muhokamatul lugʻatayn" asarida "ichmoq" soʻzining oltita, "yigʻlamoq" soʻzining yettita sinonimini keltiradi: yigʻlamoq, ingramoq, singramoq, siqtamoq, oʻkirmoq, inichkirmoq, hoy-hoy yigʻlamoq, A.Navoiy bu sinonimlar bir-biridan oʻzining nozik maʼno ottenkalari bilan farq qilishini sheʼriy misralar bilan tushuntiradi.

Sinonimlardan keyingi davr shoir va yozuvchilari ham keng foydalanib kelmoqdalar. Bunga E.Vohidov, A.Oripov, T.Malik va boshqalarning asarlarini eslash kifoya.

Sinonimlar hodisasi oʻzbek tilshunosligida atroflicha ishlanilgan. U.Tursunov, A.Hojiyev, A.Doniyorov va boshqa olimlar alohida monografik tadqiqotlar olib borganlar.

Antonimlar

- Antonim va antonimiya
- Antonimiya va polisemiya
- Antonimiyaning oddiy inkordan farqi
- Antonimlarning nutqda ishlatilishi.

Antonim - grekcha: zid, nom demakdir. Oʻzaro zid, qarama-qarshi maʼnoli til birliklariga antonimlar deyiladi. Katta-kichik, uzoq-yaqin, doʻst-dushman. Antonimiya til birliklarining oʻzaro zid munosabatdagi maʼnoga ega boʻlishidir. Antonimiyaning leksik (soʻz): yaxshi- yomon, keng-tor: morfologik: -li, -siz: aqlli-aqlsiz; frazeologik: qoʻli uzun-koʻli kalta koʻrinishlari mavjud.

Antonimlarning oʻzaro zid maʼnoga ega soʻzlar ekani deyarli barcha olimlar tomonidan eʼtirof etiladi. Lekin maʼnodagi ana shu zidlikni tushunish, belgilash va talqin qilishda bir xillik yoʻq. Maʼnodagi zidlikni, demakki, antonimlikni aniq belgilashda komponentli tahlil asosida maʼno (semema) tarkibini aniqlash muhimdir. Maʼlumki, leksik maʼno (semema) maʼlum komponentlardan (semalardan) tashkil topadi Antonim soʻzlarning komponentli tahlilidan maʼlum boʻladiki, bunday soʻzlarning maʼnosida umumiy semalar bilan birga farqlovchi semalar ham boʻladi. Masalan: yupqa va qalin: yon koʻlami meyoridan kam va ortiq. Erta va kech: belgili vaqtdan ilgari va keyin. Koʻrinadiki, soʻzlarning antonimligini belgilashda umumiy (integral) sema: yon qoʻlam va vaqtni farqlovchi hamda farqlovchi (differensial) sema: "meʼyoridan kam, ortiq", "vaqtdan ilgari yoki kech" mavjud. Shuning uchun ham maʼnosi va shakli har xil boʻlgan istagan ikki soʻz oʻzaro antonim boʻlavermaydi.

Ayrim ishlarda (Y. Pinxasov) shakldosh va noshakldosh, toʻla va yarim antonimlar haqida fikr yuritiladi. Antonimlarni bunday ajratish toʻgʻri emas. Chunki aqlli-aqlsiz, baxtli-baxtsiz (shakldosh) deganda yangi leksema hosil boʻlmagan. Boshqacha aytganda, aqlli-aqlsiz, baxtli-baxtsiz soʻzlarida biror belgi predmet ("aql", "baxt")ning bor yoki yoʻqligi koʻrsatiladi va ekvivalent (teng qimmatli) oppozitsiyani tashkil etolmaydi. Demak, oddiy inkorda aynan bir narsa, belgi yoki harakat inkor etiladi. Bor-borma; qora-qora emas (oq rang koʻz oldimizga kelmaydi). Ikkinchidan, antonimlarni yarim, chorak nimchorak deb belgi darajalarini aniqlab boʻlmaydi. Ikki soʻzning oʻzaro antonimligi ularning aniq bir maʼnosidagi belgi zidligiga asoslanadi. Chogʻishtiring: chol-kampir, er-xotin kabilar oʻzaro qarama-qarshi (antonimik) maʼnolarga ega boʻlgan giponimlardir.

Shunday ekan, koʻp maʼnoli soʻzlarning antonim yoki antonim emasligi ham har gal aniq bir maʼnoning oʻz nuqtai-nazaridan belgilanadi. Masalan, qattiq soʻzi bir maʼnosida "yumshoq" soʻziga, boshqa bir maʼnosida "saxiy" soʻziga antonim boʻla oladi: Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak, yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak (Qoʻshiq). Oʻzi

ham o'lgudek qattiq bo'lsa kerak - deyishibdi (G'ayratiy) Mirzo ko'p saxiy tabiat ko'rinadi. (A.Q.) Chog'ishtiring: tirik-o'lik, tirik yoki lanj osh.

Leksik ma'no bilan leksik qo'llash orasidagi antonimik munosabat kontekstual antonimiya deb ataladi. Bunday antonimiya har gal nutqning o'zida sodir bo'ladi, nutqdan tashqarida yo'qqa chiqadi. Masalan, it-mushuk bo'lishdan na foyda. Qizimiz qo'y edi, amirlar bo'ri. ("Xat"dan).

Demak, til birligi bilan nutq birligi orasidagi munosabat kontekstual antonimlikni hosil qiladi.

Antonimlar, asosan, belgi bildiruvchi so'z (sifat va ravish)larda uchraydi, ot, fe'llarda kamroq. Vafo-jafu, yig'lamoq-kulmoq.

Antonimlar tub (oz-ko'p), yasama (unumli-unumsiz) bo'ladi. Juft holda qo'llanilgan antonimlar ko'chma ma'no ifodalaydi: Yaxshi-yomon gaplar (har xil). Erta-kech fikru xayolim senda (doim).

Badiiy asarlarda, xalq maqollarida antonimlar emotsional-ekspressiv uslubiy vosita sifatida nutqning ifodaliligi, ixchamligi, o'tkirligi uchun xizmat qiladi: Bilimli kishi o'zar, bilimsiz kishi to'zar. Do'st achitib, dushman kuldirib gapiradi (Maqol). Yozuvchi va shoirlar antonimlardan antiteza hosil qilishda foydalanadilar: Har kimki vafo qilsa, vafo topg'usidir, har kimki jafu qilsa, jafu topg'usidir. (Bobur).

Yaxshi otga qamchi bossang kishnaydi.

Yomon ot-chi, egasini tishlaydi. ("folklor")

So'zlar shakl va ma'no xususiyatlari bilan o'zaro turli munosabatda bo'ladi. Ba'zi so'zlar ma'nolari bilan bir-biriga yaqin bo'lsa, ayrimlari qarama-qarshi ma'noli bo'ladi. Ba'zi so'zlarning tashqi ko'rinishlari bir xil bo'lsa-da, ma'nolari har xil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi FA til va adabiyot instituti tomonidan 1981-yilda nashr etilgan "O'zbek tili leksikologiyasi" kitobida so'zlarning shakl munosabatiga ko'ra turi: paronim va omonimlarga ajratilgan.

Omonim grekcha: bir xil nom demakdir. Omonimlar turli LSGga kiradi, ya'ni omonimlar semantik tarkibida umumiy integral sema mavjud bo'lmaydi (Chunonchi, oteshak-xachir- LSGini ot-ism-nom LSGi bilan birlashtirib bo'lmaydi) Ikkinchidan, omonimlarni bir-biridan farqlovchi eng muhim belgi ulardagi sintagmatik munosabatlarning xilma-xilligidir: yoz, qish, kuz so'zlari egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari bilan sintagmatik munosabatga kirishsa, yoz, chiz, ko'chir so'zlari nisbat, mayl, zamon shaxs-son qo'shimchalari bilan sintagmatik munosabatga kirishadi.

Omonimlar material, talaffuz, yozilish va ma'no xususiyatlariga ko'ra quyidagi ko'rinishlarga ega:

1. Omonimiya. 2. Omofoniya. 3. Omografiya. 4. Omomorfemiya
5. Omofrazeologiya. 6. Omosintagmiya. 7. Omonimiya

Material tomonidan bir so'z turkumi doirasida uchraydigan, bir xil vazifadagi qo'shimchalarni qabul qiladigan, talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo ma'nolari turlicha bo'lgan lug'aviy birliklarga omonimiya deyiladi:

SO'Z	Ko'plik	Egalik	Kelishik
Ot1	-lar	-im	-ning
Ot2		-ing	-ni
		-i	ga
		-imiz	-da
		-ingiz	-dan
1		-lari	

FE'L: -ay -aylik -ay-aylik
 Yoz-gin-ingiz Yoz-sin -ingiz
 -sin-sin (lar) -sin- sin (lar)

Omonim so'z bir necha so'z turkumiga ham tegishli bo'lishi mumkin:

Ter -im, -imiz Ter -dim, -k
-ing, -ingiz -ding,- dingiz
-i, -lari -di, -di (lar)

Bu tip soʻzlar faqat oʻzak holatida omonimlikni tashkil etadi Oʻzlarining boshqa shakllariga koʻra omonimiya boʻlmay qoladi. Chogʻishtiring: yozni-yozsin; yozga-yozdi soʻzlari oʻzaro omonim emas.

Omofoniya - grekcha bir xil tovush demakdir. Aytilishi bir xil boʻlib, maʼnosi va yozilishi har xil boʻlgan soʻzlarga omofonlar deyiladi.

Omofonlar bir xil soʻz turkumiga ham, har xil soʻz turkumiga ham oid boʻlishi mumkim. Masalan: toʻn (kiyim), ton (ovoz);

yot (begona), yod (xotira);

urush (война), urush (harakat nomi);

yetti (7), yetdi (bordi);

Tursun (ism), tursin (feʼl).

Omofondagi oʻzaro farq ular tarkibidagi bir fonemada boʻladi. Lekin bu fonemalar biror fonetik xususiyati jihatidan bir-biriga yaqin turadi: tub-tup, yod-yot, sudxoʻr-sutxoʻr, bob-bop, sud-sut kabi.

Omografiya - grekcha bir xil yozaman, bir xil yozuv demakdir. Yozilishi bir xil boʻlib, maʼnosi va talaffuzi har xil boʻlgan soʻzlar omograflar deyiladi. Masalan: tol (daraxt), tol (qurilish ashyosi), tok-(uzum), tok (elektr toki), tom (uy), tom (kitob, asarlar majmuasi),

Omograflar yoki omogrammalar aynan bir soʻzda urgʻuning turlicha holatlarda turli boʻgʻinlarga tushishi bilan vujudga keladi. Omograflar shu xususiyati bilan omonimiyadan farq qiladi. Masalan: olma (ot), olma (feʼl), tugma (predmet), tugma (harakat), boshlar (predmet), boshlar (harakat). Omograflar faqat ikki soʻzdan iborat boʻladi;

Bogʻda gullar ochilgan,

Hidi har yon sochilgan. (Qoʻshiq)

Har yurakning oʻz bahori bor,

Har bir qalbda ishq boʻlar mehmon

Har yurakda gullar muhabbat,

Boʻston etar uni begumon. (H.Olimjon)

Shakli va talaffuzi bir xil, maʼnosi har xil boʻlgan grammatik shakllarga **omomorfemiya** (omofoma) deyiladi: kelasiz - siz shakli III shaxs koʻplik suvsiz -siz shakli sifat yasovchi qoʻshimcha; chopish -ish qoʻshimchasi harakat nomi, kelishdi -ish qoʻshimchasi feʼlning birgalik nisbati, ishchi: -chi ot yasovchi, ish-chi yuklama» toshloq - loq soʻz yasovchi, boʻtaloq -loq erkalash shakli yasovchi.

Shakllari va talaffuzi bir xil, maʼnosi har xil boʻlgan iboralarga **omofrazeologiya** deyiladi: Koʻz yumdi-yashirdi, Koʻz yumdi-vafot qildi. Boshiga koʻtardi-sevdi, erkaladi. Boshiga koʻtardi-toʻpolon qildi, Yuragini yordi-qoʻrqitdi. Yuragini yordi-baqirib aytdi. Qoʻl koʻtarmoq - tasdiqlamoq. Qoʻl koʻtarmoq- taslim boʻlmoq.

Omofrazeologiya faqat koʻchma maʼnoga asoslanadi.

Omosintagmiya (sintaktik omonim) birikmalari va gaplarning oʻzaro yoki iboralarga shaklan teng kelishi sintaktik omonimiya deyiladi: Bel bogʻlamoq, belini ip bilan bogʻlamoq. Bel bogʻlamoq ishga kirishmoq. Oqsoqol-qariya, oqsoqol-soqoli oq. Jon Vatan - soʻz birikmasi. Jon va tan-uyushiq boʻlak.

Omonimlar quyidagi yoʻllar bilan paydo boʻladi:

1. Maʼlum bir tildagi turli soʻz turkumlariga tegishli boʻlgan ayrim soʻzlarning shaklan bir xilda boʻlishi, bir xil talaffuz qilinishi natijasida: Qil-qil, qoʻy-qoʻy.

2. Baʼzi koʻp maʼnoli soʻzlarning maʼnolari orasidagi bogʻlanishning uzoqlashishi natijasida: kun: kun chiqdi (quyosh) kun koʻrish (tirikchilik), oy: yangi oy chiqdi (planeta), oʻttiz kun bir oy (vaqt).

3. Bir tildan 2-tilga soʻz olish natijasida: may-may, tur (sport), tur (xil) safar -yoʻl, safar -oy.

4. Ayrim sheva soʻzlarining adabiy tilga oʻtib qolishi natijasida: salla-narsa, gazmol, salla-oʻrama (ovqat): soʻri tok koʻtargich (Toshkent), soʻri.yogʻ och krovat (Fargʻona)

5. Baʼzi soʻzlarning oʻzak-negizlariga qoʻshimchalar qoʻshish orqali yangi soʻzlar yasalishi natijasida omonimlar vujudga keladi:

oylik - maosh yoki ish reja: Kundalik-oʻzlashtirish daftari yoki ish meʼyori, vazifa

Paronim grekcha yonidagi - nom demak.

Leksik maʼnoga koʻra oʻzaro aloqador boʻlmagan ikki soʻziing talaffuzda oʻzaro oʻxshashligiga paronimlar deyiladi: yoriq-yorugʻ, qurt-qurut, quyilmoq-quyulmoq, burch-burj, fakt-pakt.

Paronimlar oʻzicha mustaqil huquqli boʻlib, bir-biriga boʻysunmagan, bir-biriga aloqasiz maʼnaviy tizimga ega boʻladi.

Paronimlar quyidagi yoʻllar bilan paydo boʻladi:

1. Turli oʻzakdan bir xil qoʻshimcha vositasida soʻz yasash natijasida: yom-yoq yonilgʻi, yoqʻilgi, yol-yor; yolqin-yorqin.

2. Soʻz oʻzlashtirish natijasida: oʻzbekcha aro va forscha-tojikcha aro, oʻzbekcha burch va arabcha burj kabi.

3. Leksik varinatning buzilishi: yaroqli, yarogʻli Paronim komponent talaffuz jihatdan oʻzaro oʻxshash boʻlganligi uchun, ulardan badiiy adabiyotda qofiya sifatida keng foydalaniladi. Bogʻ sizniki. Uzunini yeysiz. Keyin "oʻzim yeyapman": deb yuraverasiz (Maqsum askiyabozdan).

Mavzu : Tarixiylik jihatdan oʻzbek tili leksikasi.Umumiy va chegaralangan leksika

Reja:

1. Zamonaviy qatlam haqida tushuncha
2. Eski qatlam haqida tushunchasi.
3. Yangi qatlam haqida tushuncha.

Oʻzbek tili leksikasining chegaralangan qatlami: 1) zamonga koʻra; 2) territoriyaga koʻra; 3) ijtimoiy holatga koʻra uchga boʻlib oʻrganiladi,

Tilda ayrim soʻzlar eskirab isteʼmoldan chiqsa, maʼlum talablar asosida yangi soʻzlar paydo boʻladi.

Hozirgi oʻzbek adabiy tili nuqtai-nazaridan eskirgan soʻzlarning jami eski qatlam (eski leksika), yangi soʻzlar jami yangi qatlam (yangi leksika) deyiladi,

Bu ikki qatlamdan tashqari, lugʻat sostavida adabiy til uchun, odatdagi, eskilik va yangilik boʻyogʻiga ega boʻlmagan soʻzlar qatlami ham bor Bu qatlam zamonaviy qatlam yoki neytral qatlam deyiladi.

Demak, zamon nuqtai-nazaridan oʻzbek tili leksikasi uch asosiy qatlamga boʻlinadi.

1. Zamonaviy qatlam
2. Eski qatlam
3. Yangi qatlam,

Eskilik va yangilik boʻyogʻiga ega boʻlmagan soʻzlar zamonaviy qatlam deyiladi. Oʻzbek tili leksikasining asosini shu qatlimga oid soʻzlar tashkil etadi.

Soʻz va iboralarni zamonaviy qatlamga kirishida ularning nutqda oz-koʻp ishlatilishi yoki bu qatlam soʻzlari til jamoasining barcha aʼzolari nutqida barovar ishlatilishini hisobga olish yaramaydi, Masalan, terminologik leksikaga oid soʻzlarning isteʼmol doirasi chegaralangan. Ammo, ular zamonaviy hisoblanaveradi.

Funksional-normativ, yaʼni zamonaviy soʻzlar bilan bir qatorda hozirda kam isteʼmol boʻlib qolgan eski qatlam ham uchrab turadi. Eskirgan soʻzlarga ikki tip hodisa:

1. Hozirgi til nuqtai-nazaridan soʻz ham, u nom boʻlib predmet, hodisa ham eskirgan isteʼmoldan chiqqan mirshab, amir, arbob. Bunday soʻzlar istorizmlardir.

2. Narsa va hodisaning, tushuncha yoki tasavvurlarning oʻzi emas, balki uning nomi eskirgan boʻladi. Handasa (geometriya), sarf (morfologiya), nahv (sintaksis). Bunday soʻzlar arxaizmlardir,

Demak, eskirgan soʻzlar ikki koʻrinishga ega:

1. Istorizmlar; 2. Arxaizmlar

Davr oʻtishi bilan muayyan paytda zamonaviy hisoblangan baʼzi predmetlar qoʻllanishdan qoladi. Natijada, bu narsi va hodisalarni ifodalovchi soʻzlarni ishlatish ham susayayadi va asta-sekin til lugʻat sostavining aktiv qatlamidan passiv qatlamga oʻtadi.

Shu sababli bu tip soʻzlar oʻtmish davr fakti-istorizm deb yuritiladi. Istorizmlarning leksik frazeologik koʻrinishlari mavjud.

Eskirib isteʼmoldan chiqqan oʻz sinonimiga ega boʻlmagan soʻzlarga leksik istorizmlar deyiladi: omoch, choʻri, yuzboshi. Istorizmlarning yuzaga kelishi tabiat va jamiyatdagi oʻzgarishlar, yangilanish va eskirishlar bilan aloqadordir. Istorizm eski lugʻat birligidir. Bu tip soʻzlar hozirgi davr kishisi uchun tushunilishi qiyin boʻladi. Ularni maxsus izohlar orqali anglash mumkin.

Uzbek tili leksikasidagi istorizmlarga misollar:

1) ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bogʻliq soʻzlar: podshoh, qul, quloq, batrak.

2) mansab, amal unvonlar nomi: amin, arbob, zakotchi, udaychi, shotir.

3) baʼzi hujjat nomlari: vasiqa, sanad, vakfnoma

4) maktab va maorif: mulla, xalfa, mudarris, haftiyak

5) uy-roʻzgʻor buyumlari nomi: charh duq kajava, juvoz.

6) oʻlchov, pul birliklari nomi: botmon, qadoq, tanob, arshin, tanga, qora pul.

7) kiyim-kechak nomlari: choriq, kimxob, qalami, quloh va boshqalar.

Istorizmlarning bundan tashqari frazeologik semantik turlari ham mavjud.

Eskirib isteʼmoldan chiqqan, oʻz ekvivalentiga ega boʻlmagan iboralarga frazeologik istorizmlar deyiladi: madrasa tuprogʻini yalamoq, issiq-sovuq qilmoq, tarki dunyo qilmoq, soʻfi qilmoq va h.k.

Soʻzning yangi maʼnosi

Soʻz material tomondan eskirmay, maʼno tomondan eskiradi. Bunda soʻz Yangi davrda yangi maʼnoda qoʻllanaveradi. Uning oldingi maʼnosi oʻtmishga tegishli boʻlib qoladi. Bu semantik istorizm deyiladi:

rais-boshliq, tashkilot xodimi

Soʻzning eski maʼnosi

rais-diniy rasm-rusum nazoratchisi

arbob-fan sohasida beriluvchi unvon

saroy-madaniy tadbirlar joyi oqsoqol-keksa, hurmatli boy-badavlat, serob, moʻl

arbob-qishloq oqsoqoli, arestokrat

saroy-xon, podsho qarorgohi oqsoqol-mahalla boshligʻi boy-feodal sinf vakili

Chogʻiashtiring: Boy choʻchib oʻzini chetga oldi (O). Dasturxonlar mevalarga boy.

(M. Alaviya).

Istorizmlar koʻproq oʻtmish haqida hikoya qiluvchi zamonaviy asarlarda uchraydi. Bu bilan davr ruhi, koloriti beriladi

Istorizmlarda uslubiy boʻyoq soʻz koʻchma majoziy maʼnolarda qoʻllansagina paydo boʻladi. M: Oʻzi xon, soyasi sultom bu kishini. Bu student alifni kaltak deydi.

ARXAIZMLAR

Eskirib isteʼmoldan chiqqan, ammo oʻz ekvivalentiga, sinonimiga ega boʻlgan soʻzlarga arxaizmlar deyiladi. Masalan, ulus (xalq), firqa (partiya), bitik (kitob), tilmoch (tarjimon).

Istorizmda predmet ham, nomi ham eskirgan boʻladi, arxaizmda esa predmet yoki hodisa zamonaviy boʻlib, ning utiish nomi eskiradi. Natijada, predmet yoki hodisa Yangi

bilan yuritiladi. Tilda soʻzlarning arxaiklashishi asta sekin amalga oshadi, Arxaizmlarning zamonaviy dublet (sinonim)i bu soʻz ustidan funksional-normativ jihatidan gʻolib chiqqan soʻzdir.

Tilda eskirish turli koʻrinishda namoyon boʻladi; soʻz yoki soʻz maʼnolaridan biri eskirishi mumkin. Yoki soʻzning biror morfem boʻlagi eskirishi mumkin. Xuddi shunigdek tilda frazeologik iboralarning eskirishi kuzatiladi.

Shunga koʻra arxaizmlar, eng avvalo, uch katta guruhga bulinadi:

1) leksik arxaizmlar; 2) grammatik arxaizmlar; 3) frazeologik arxaizmlar,

LEKSIK ARXAIZMLAR

Narsa va hodisalarning nomlaridan biri eskiradi: ulus (xalq), yozuq (gunoh) kabi.

Leksik arxaizmlar eskirgan hodisaning xarakterlga koʻra. Oʻz navbatida ikkiga boʻlinadi:

1) leksik arxaizmlar; 2) semantik arxaizmlar

Leksik arxaizm soʻzning, soʻz vazifasining zskirishi boʻlsa semantik arxmizm koʻp manoli soʻz maʼnolaridan birining eskirishidir. Bunda soʻz shakli eskirmaydi, balki soʻz semantik tarkibidagi semalardan biri eskiradi. Soʻz qobigʻi endi oʻsha maʼnoni anglatmaydigan, ifodalamaydigan boʻlib qoladi. Oʻsha maʼnoni anglatish soʻzning hozirgi emas, oʻtmish vazifasi hisoblanadi. Natijada soʻzning oʻsha manosi eskirgan, endilikda unutilgan boʻladi. Masalan, afandi soʻzi oʻqituvchi maʼnosiga ega boʻlgan. Ammo bu maʼno hozir eskirgan. Anjuman soʻzi bir kasb egalarining oʻziga xos yigʻilishi maʼnosini ifodalagan. Ozod soʻzi bolalarni darsdan javob berilishi maʼnosini ifodalagan; Bolalar oʻqishlarini toʻxtatib domlaga qaradilar. –Ozod!–deb yubordi domla (S. A.)

Semantik arxaizmlar soʻz va uning leksik maʼnosi bilan bogʻliq boʻlganligi uchun uni leksik-semantik arxaizmlar deb ham yuritiladi.

Leksik arxaizmlarga soʻzning shakliy va talaffuz xususiyatlari bilan aloqador boʻlgan leksik-fonetik leksik-orfografik shunmngdeq aktsentopogik arxaizmlar ham kiradi.

Aktsentologik arxaizm soʻz urgʻularidagi oʻzgarishlar natijasida sodir boʻladi. Soʻz urgʻusi vaqt oʻtishi bilan boshqa boʻlinga koʻchadi. Urguning oldingi holati eskiradi: simvol, epigraf soʻzlari rus tilida avvallari simvol, epigraf deb talaffuz qilingan. Bu talaffuz hozir eskirgan, arxaik hisoblanadi.

Eskirish soʻzining butun tarkibida emas, balki uning morfematik qismida yuz berishi mumkin. Bunday eskirish grammatik arxaizmni tugʻdiradi. Bu haqda toʻliq maʼlumot E. Kilichevning S. Ayniy asarlarida grammatik arxaizmlar, OʻTA, 1969. 1 son maqolasida berilgan.

Eskirib isteʼmoldan chiqqan, ammo oʻz ekvivalenti, sinonimiga ega boʻlgan morfologik shakllarga grammatik arxaizmlar deyiladi: -?a (-ga), -din (-dan); ulamoga, jondin;

-gan (-gan)(-mish (-gan); borgʻan, bormish;

-gi (gi): burungʻi zamonlar;

-ur (-ar): kelur, borur;

-gʻay, -gay {-sing borgʻay.borgay;

-Qani orqamdan yur. Senga aygadurgan yana bir soʻzim bor! (O. Yoqubov).

Grammatik arxaizm soʻzga, yaʼni soʻz tarkibiga aloqador boʻlganligi uchun leksik grammatik arxaizm deb ham yuritiladi

Eskirib istemoldan chiqqan, ammo oʻz sinonimiga ega boʻlgan frazeologik iboralar, frazeologik arxaizmlar deyiladi: Jismini dol aylamoq (qaddini bukmoq), fotiha olmoq (javob soʻramoq), gasadduqot qilinmoq (oʻldirilmoq) kabi.

Arxaizm va istorizmlar oʻzaro quyidagi belgilari bilan farq qiladi:

1) arxaizmlar hozir mavjud narsalarning, istorizmlar esa oʻtmish narsa-hodisalarning atamasidir;

2) arxaizmlarning sinonimi mavjud, istorizmlarning sinonimi yoʻq;

3) istorizm birdan-bir yakka nom, uning o`rnini bosuvchi so`z yo`q. Arxaizm qo`sh nomning eskirib qolganlaridan biri, eskirgani;

4) arxaizm nominativ hamda uslubiy vazifa bajaradi istorizm nominativ vazifa bajaradi;

5) arxaizmlarning paydo bo`lishi til taraqqiyoti qonunlari asosida bo`ladi, istorizmlar jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy taraqqiyoti tarixiga ko`ra paydo bo`ladi,

Arxaizm va istorizmlarni yaqinlashtiruvchi belgi ularning har ikkalasi ham eskirgan, nonormativ leksika ekanligidir.

Arxaizm va istorizmlardan xronizmlarni farqlash lozim Xronizm biror voqelik nomini vaqti kelib boshqasi bilan almashtirishdir.

YANGI QATLAM

Til leksikasiga eskirish xususiyati bilan bir qatorda yangilanish ham xosdir. Jamiyatning rivoji, ob`yektiv borliq, iibatdagi o`zgarishlar yangi so`z va atamalarni tug`diradi.

Yangi so`zlar qatlami tilshunoslikda yangi leksika deb ham yuritiladi.

Ob`yektiv ehtiyoj tufayli va til qonun-qoidalariga mos ravishda yaratilgan yangi so`zlar til leksikasini boyitadi.

Yangi so`zlar quyidagi yo`llar bilan yaratiladi:

1) affiksatsiya, so`z o`zaklarga yasovchi qo`shimchalar qo`shish bilan: reketchi, saylovchi tadbirkor, hujumkor.

2) kompozitsiya; O`zakka o`zak qo`shish bilan: yodnoma, kitobsevar, cho`lquvar, bozor iqtisodi.

3) so`zlarni juftlash asosida: ishchi-yoshlar, ilmiy-nazariy, hisobotsaylov.

4) o`zbekcha qisqartma so`zlarni yaratish asosida: BuxDU, boshbuh BMT.

5) traditsion so`zlarni yangi ma`noda qo`llash asosida: millat, vatan, ziyorat, mehnat, ozodlik.

6) so`z o`zlashtirish asosida: bakalavr, magistr, fermer.

7) kalka asosida: ekranlashtirish, radiomarkaz, shanbaliq radioto`lqin.

Yangi so`zlar tilda dastlab neologizm sifatida paydo bo`ladi. Neologizm (yunoncha: yangi so`z demak) o`zida yangilik bo`g`ini saqlagan so`zlarga neologizmlar deyiladi. Masalan: fazogir, kitobsevar, hushyorlik jamiyati, fidokorlar partiyasi.

Yangi so`z o`z yangilik bo`yog`ini yo`qotsa, tilda faol qo`llanib, odatiy so`zlar qatoriga o`tadi: 1930 yillarda paydo bo`lgan traktor, mashina, sovxoz, zveno kabi so`zlar faol so`zlarga aylanib ketdi. Ayrimlari eskirib ham qoldi: MTS, patefon, sovxoz, rayijrokom.

Demak neologizm nisbiy tushunchadir. O`z paydo bo`lish doirasi, muhitiga ko`ra neologizmlar ikkiga bo`linadi:

1. Umumtil (umumnutq neologizmlari);

2. Individual nutq neologizmlari.

Individual nutq neologizmlari alohida shaxslar, adiblar tomonidan favqulodda yaratilgan so`zlardir. Shu tufayli tilshunoslikda bu tip so`zlar okkazonalizmlar deb yuritiladi, Bunday neologizmlarga M.Shayxzoda tomonidan yaratilgan Toshkentnoma, fazoshumul, nuriston, ipaklashsin, G`.G`ulomning yalovkash, sharofobod kabilarni kiritish mumkin, Neologizmlar umumadibiy leksikani to`ldirib, boyitib turadi.

Neologizm tilga singib ketishi uchun ikki yetakchi talabga javob bermog`i kerak.

1. Yangi so`z - neologizm tushunarli bo`lishi, ma`nosi aniq, tinglovchiga tez etib boradigan bo`lmog`i kerak.

2. U tilda mavjud va yashovchan modellar asosida yaratilmog`i lozim.

Mavzu : Frazeologiya. Iboralarning semantik tabiati

Reja :

1. So`zlar bog`lanmasi va uning turlari.

2. Frazeologizmlar haqida tushuncha.

3. Frazeologik ma'no va uning kelib chiqish yo'llari.

Frazeologiya tilshunoslik fanining mustaqil sohasi deb tan olingan. Frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq anglamoq uchun, avvalo, so'zlar bog'lanmasi haqida tushunchaga ega bo'lish kerak.

Frazeologiya yunoncha: iboralar haqidagi ilm demakdir.

Tilshunoslikning frazeologik birikmalari va ularning barcha xususiyatlarini tekshiruvchi sohasi frazeologiya deyiladi

Frazeologiya termini tilshunoslikda ikki ma'noda qo'llanadi: 1) tildagi frazeologik birliklarning jamisi; 2) shunday birliklarni o'rganuvchi soha (fan) ma'nosida.

Frazeologiya dastlab adabiyotshunoslikda paydo bo'lgan. Ma'lum bir asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda, turg'un so'zlar bog'lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo'lmay qolgan. Bunda o'sha tillarda mavjud bo'lgan frazeologizmlar o'rganila boshlangan. Frazeologiya termini dunyo filologiyasida 1558-yilda ingliz adabiyotshunos olimi Neandr tomonidan birinchi marta qo'llangan. U badiiy asarlarni tarjima qilgan ekan, shu terminni ishlatishga majbur bo'lgan.

Rus tilshunosligida frazeologizmlarni o'rganish XIX asrdan boshlandi. Bu sohada akademik Shaxmatov, V.V.Vinogradov, A.I.Yefimov, N.M.Shanskiy kabi olimlarning xizmati katta.

O'zbek tilshunosligida esa iboralarini o'rganish 1950-yillardan boshlandi. Bu sohada Sh.Rahmatullayev, Y.Pinxasov, M. Husainov, I.Qo'chqortoyev kabi olimlar ilmiy ish olib bordilar, Jumladan, Sh.Rahmatullayev "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Shunday qilib, o'zbek tili frazeologiyasini o'rganish hozir ham davom etmoqda. Jumladan, B.Yo'ldoshev "Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional - uslubiy xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Frazeologik birliklar turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Jumladan, prof. Sh.Rahmatullayev o'zining "Hozirgi o'zbek adabiy tili", Toshkent, 1965-yil kitobida frazeologik birliklarni alohida tadqiq etmay, leksik hodisalar qatorida ular bilan birga o'rganadi: leksik sinonimlar va frazeologik sinonimlar va frazeologik Sinonimiya yoki leksik antonimiya va frazeologik antonimiya kabi.

O'zbek tiliga oid boshqa darslik va qo'llanmalarda esa iboralar semantik jihatdan qo'shilma, birlashma, chatishma, morfologik jihatdai ot, sifat, fe'l, ravish, frazeologik iboralar, deb tasnif qilinganini ko'ramiz. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (Toshkent, 1980) kitobida esa bunday tasniflar uchramaydi va bunday klassifikatsiyalarning ahamiyati yo'q deb qayd etiladi. Frazeologizmlarda hech qanday "qo'shilish", "natishish" kabi hodisalar yo'q deyilgan. Balki uning o'rniga frazeologik ma'no strukturasi, iboralardagi polisemiya, omonimiya, sinonimiya va antonimiyalar alohida tadqiq qilingan. Bizningcha ham, shu yo'l to'g'riga o'xshaydi.

So'z ham, frazeologizm ham lug'aviy birlik sanaladi, Tilning lug'at boyligini tashkil etadi.

Frazeologizmlar so'z birikmasi yoki gaplar singari nutq jarayonida hosil bo'lmaydi, balki ular xuddi so'zlar kabi tilda tayyor holda bo'ladi. Demak, frazeologizmlar nutq hodisasi emas, balki til hodisasi.

Frazeologizmlar ham xuddi so'zlar kabi, shakl va ma'no butunligiga ega. So'zning shakliy tomonini tovushlar hosil qilsa, frazeologizmning shakliy tomonini so'zlar hosil etadi: rahmdil-ko'ngli bo'sh, xursand-boshi osmonga etdi. Frazeologizm tarkibidagi so'zlar ma'no butunligiga ega emas. Iboralar so'zlar yig'indisining ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Shuning uchun ibora tarkibidagi bir necha so'z bir butunligicha gap bo'lagi vazifasida keladi; Ko'z ochib-yumguncha necha ming piyoda va suvoriy kishilar paydo bo'ldi. (A.Q) (Ma'nosi tez-hol vazifasida),

Lug'aviy birlik sifatida esa frazeologizmlar so'zlarga xos bir qator xususiyatlarga ega.

FRAZEOLOGIZMNING SEMANTIK TUZILISHI

Frazeologizmning semantik tuzilishi frazeologik ma'no (ma'nolar) va qo'shimcha ottenkalardan iborat bo'ladi.

Belgi, harakat kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan ma'lum frazeologik ma'no deyiladi: Qizim boshimni osmonga yetkazdi, (A.Q). Endi to'rtinchi rotani ham ratsiya bilan ta'min qilsak oshig'i olchi bo'lardi. Ibora birinchi gapda harakat ifodalasa (xursand qildi), ikkinchisida belgi (yaxshi) ifodalamoqda.

Frazeologik ma'no obrazli va jozibali bo'ladi, Shu xususiyati bilan leksik ma'noli so'zlardan bir oz farqlanib turadi. Chog'ishtiring: Xufiya - yeng ichida, beqiyos yer bilan osmoncha, xursand-og'zi qulog'ida.

Ayrim frazeologizmlar bildirgan ma'nolari bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydi: qildan qiyiq topib, janjal chiqarardi. (S.Axm) Qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarib qo'ydi.

Frazeologik ma'no ibora tarkibidagi so'zlardan birining ko'chma ma'nosiga asoslanib ko'chma ma'no berishi (shirin so'z, achchiq gap, ishning ko'zi, gapning tuzi) mumkin yoki tarkibidagi komponentlarning umumiy ma'nolariga asoslanib ko'chma ma'no ifodalashi mumkin (og'zi qulog'ida, bel bog'lamoq, og'iz ochmoq). Yoki tarkibidagi komponentlarning ma'nolariga aloqasi bo'lmay ko'chma ma'no anglatishi mumkin. (boshi osmonga yetdi, tepa sochi tikka bo'ldi, yulduzni benarvon uradi, yuragiga qil sig'maydi).

Frazeologik iboralarning shakllanishida nolisoniy va lisoniy omillar mavjud.

Lisoniy omilga iboralarni qarindosh va noqarindosh tillardan o'zlashtirish va kalkalash kiradi: bajonidil, buksirga oldi.

Tilshunos A.Mamatov o'zbek tili frazeologizmlarning shakllanish doirasini to'rt katta guruhga ajratib ko'rsatadi: 1) shaxs faoliyati va psixikasi bilan bog'liqligi jihatidan; 2) kasb-korga bog'liqligi, 3) hayvonlar obrazi asosida; 4) din va dindorlarga bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar. Misollar: og'iz ochmadi, o'pkasi to'ldi, bo'zchining mokisidek suprasi quruq; it-mushuk bo'ldi, dumi xo'rajinda, xudo ko'tarsin, payg'ambar hassasi bilan turtgan va hokazo.

Frazeologik tizim tilning leksik va grammatik tizimlariga tayanadi, Iboralar ko'chma ma'noda kelgan ikki va undan ortiq so'zlar bog'lanmasi bo'lgan til birliklaridan tashkil topadi: Tili qisqa, til chiqardi, bilim xazinasini (kitob), Sharq Yulduzi (O'zbekiston), zangori kema (mashina). Xuddi shuningdek, aforizmlar. Ulug'likka yetsang, unutmang o'zing, qachon kiysang atlas, unutmang bo'zing (A. Yugnakiy). O't ishi-qovurmoq, el ishi-sovurmoq (A.Navoiy) kabilar ham frazeologizmlarga kiradi.

Xalq maqollari semantik jihatdan ikki xil bo'ladi. a) o'z (asl) ma'nosida bo'yagan maqollar (Bugungi ishni ertaga qo'yma; dushmanga omon berma) bu ko'chma ma'nodagi maqollar (Yetti o'lchab bir kes; qolgan ishga qor yog'ar. Ko'rpangga karab oyoq uzat). Frazeologizmlarga ana shu ikkinchisi ya'ni, ko'chma ma'no ifodalagan xalq maqollari kiradi,

Frazeologizmlar tarkibidagi so'zlar boshqa oddiy birikmalardagi so'zlarga shaklan o'xshab qolishi mumkin: Qodirqul mingboshining bundaqangi ishlarga suyagi yo'q (H.H) Bu go'shtning suyagi yo'q Mirzakarimboyning qo'li uzun, bu ishlarni uddalaydi. (O) Basketbolchining qo'li uzun edi. Bunday holatlarda frazeologik ma'no kontekstga qarab aniqlanadi.

Ayrim frazeologizmlarning komponentlari qat'iy bir qolipga kirib ketganligi uchun ularni bir tildan ikkinchi tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi. So'zma-so'z tarjima fikr-chalkashligiga olib keladi. Masalan, Oydinning "Kelin o'g'il tug'di" hikoyasidan rus tiliga tarjima qilingan quyidagi kontekstga diqqat qiling: Voy, tug'may o'lay. Bu nima o'tirish,-kampirning qo'ltig'idan tarvuzi tushib, ich-ichidan ezilib ketdi.

–Вай, посмотри на них. О чем они беседуют? Старушка так рассердилась, словно уронила хороший арбуз. Gapda "tarvuziqo`ltig`idantushdi" iborasini, tarjimasinoto`g`richiqqan.

FRAZEOLOGIK POLISEMIYA

Ikki va undan ortiq ma'noga ega bo'lgan iboralarga frazeologik polisemiya deyiladi. Bosh ko'tarmoq: 1) sog'aymoq, 2) qaramoq; 3) qo'zg'olon qilmoq; o'ziga kelmoq; 1) tushunmoq; 2) sog'aymoq; ko'zi ochildi; 1) tushundi, 2) ko'rdi,

FRAZEOLOGIK OMONIMIYA

Bir xil komponent (so'z)lardan tuzilgan, ya'ni shakllari o'xshash, ammo ma'nolari har xil bo'lgan iboralar frazeologik omonim deyiladi: uyni boshiga ko'tarmoq; onasini boshiga ko'tarmoq. Ilgari bir qatra og'zimga olmas edim. (O) Komissiya hayron bo'lib qoldi, ammo hech kim meni og'ziga olmas edi. (A.Q).

FRAZEOLOGIK SINONIMIYA

Shakllari har xil, ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lgan iboralar frazeologik sinonimiya deyiladi: toqati toq bo'lmoq-sabr kosasi to'lmoq; yaxshi ko'rmoq-ko'ngil bermoq; terisiga sig'madi-boshi osmonga yetdi.

Lug'aviy birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan sinonimlik tashkil qiladi: g'azablanmoq-joni chiqmoq, sevmuq-yuragidan urmoq, maqtanmoq-ko'klarga ko'tarmoq.

FRAZEOLOGIK ANTONIMIYA

Qarama-qarshi ma'no ifodalovchi iboralar antonim frazeologizmlar deyiladi. Ko'klarga ko'tarmoq yerga urmoq, qo'li uzun-qo'li kalta, ko'ngli oq-ichi qora.

O'Z VA O'ZLASHGAN QATLAM IBORALARI

Frazeologizmlarning asosiy qismi o'z qatlamga oiddir. Ammo o'zlashgan qatlam iboralari ham bor. Iboralar ba'zan yarim kalka (dili siyoh bo'ldi, buksirga oldi) ba'zan to'liq kalka bilan o'zlashtiriladi: hech bo'lmagandan ko'ra, kech bo'lgani yaxshi – лучшепоздно, чемникогда.

UMUMIY VA CHEGARALANGAN QATLAM IBORALARI

Frazeologizmlarning asosiy ko'pchiligi umumiste'molga oiddir. Ammo chegaralangan qatlam ham mavjud, Chegaralangan qatlamga dialektal frazeologizmlar: etini yeganday bo'lmoq (juda och qolmoq); andar-mandarini chiqarmoq (vayron qilmoq), Qashqadaryo shevasiga xos bo'lsa: toqi chalmoq (ovoza qilmoq),

Mavzu: Lug'atchilik. Hozirgi o'zbek lug'atchiligi va lug'at turlari

Reja:

1. Leksikografiya haqida.

2. Lug'at va uning turlari:

- Ensiklopedik va lingvistik lug'atlar.
- Lingvistik lug'atlarning turlari.

Leksikografiya yunoncha: so'zlarni yozaman, demak.

Ma'lum bir til yoki ikki va undan ortiq til so'zlarini yig'ib, sistemalashtirilgan holda lug'at tarzida chiqarish leksikografiya deyiladi.

Leksikografiya lug'at va lug'atchilik to'g'risida bahs etadi. Leksikografiyaning ikki tarmog'i bor:

1. Lug'atchilik

2. Lug'at tuzish bilan bog'liq nazariy masalalarni o'rganuvchi tarmoq,

Lug'atlar o'z mohiyati e'tibori bilan ikki tipga bo'linadi

1. Ensiklopedik, ya'ni qomus lug'atlari;

2. Lingvistik lug'atlar,

Bu lug'atlar o'zaro ikki jihatdan farq qiladi

1. Ob'yekti jihatidan

2. So'zligi jihatidan.

Lingvistik lug'atlarning ob'yekti so'zdir. Bunday lug'atlar so'zlarning semantikasi, grammatik xususiyatlari, imlosi, talaffuzi, etimologiyasi va h.k. haqida ma'lumot beradi.

Ensiklopedik lug'atlarning ob'yekti so'zlarda ifada topgan narsa, hodisa, tushuncha, shaxs kabilardir. Bunday lug'atlarda narsa, hodisa, tushuncha, shaxs haqida ma'lumotlar qayd etiladi.

Lingvistik lug'atlarning so'zligida barcha mustakil va yordamchi so'zlar qayd etiladi.

Ensiklopedik lug'atlar o'z xarakteriga ko'ra ikki xil:

1. Umumxarakterdagi ensiklopediya;
2. Maxsus ensiklopediya.

Umumxarakterdagi ensiklopediya ilmning barcha sohalarini bo'yicha; mashhur shaxslar, olimlar, shoirlar haqida ancha keng ma'lumot beradi,

Maxsus xarakterdagi ensiklopediyalarga meditsina ensiklopediyasi, adabiyotshunoslik ensiklopediyasi va h.k. kiradi.

Filologik lug'atlarda malum bir tildagi so'zlar va iboralar ma'nosi izohlanadi yoki ikki, uch tildagi so'zlar tarjima qilib beriladi, til xususiyatiga ko'ra bunday lug'atlar uchga bo'linadi:

1. Bir tilli lug'atlar.
2. Ikki tilli tarjima lug'atlar.
3. Ko'p tilli tarjima lug'atlari,

O'ZBEK LUG'ATLARINING TIPLARI

Lug'atlar 3 nuqtai nazardan tasnif qilinadi.

1. Hajm nuqtai-nazaridan.
2. So'zlikning berilish usuli nuqtai nazaridan.
3. Maqsad nuqtai nazaridan.

Lingvistik lug'atlar hajm nuqtai nazaridan ikki tipga bo'linadi:

- 1) Umumiy lug'atlar;
- 2) Maxsus lug'atlar.

Bu tip lug'at so'zligi jihatidan farq qiladi. Umumiy lug'at so'zligi til leksikasini barcha turkumlar doirasida, barcha qatlamlar bo'yicha aks ettiradi. Maxsus lug'at so'zligidagi til leksikasi ma'lum maqsadga ko'ra chegaralab aks ettiriladi.

Umumiy lug'atlar hajmiga ko'ra 3 tipga bo'linadi:

- 1) katta lug'at;
- 2) o'rtacha lug'at;
- 3) kichik lug'at.

Terminlar, dialektal so'zlar, barcha so'z turkumidagi so'zlarni o'z iniga olgan mukammal lugatga katta hajmdagi lugat yoki akademik lug'at deyiladi. Bunday lug'atlar ko'proq izohli, tarixiy, imlo bo'yicha tuziladi. O'zbek tilida bunday lug'atlar hali yaratilmagan. U jahonda "Katta "Oksford lug'ati", "Xazina lug'at", "Trench lug'at" nomlari bilan tilga olinadi. Uni tuzish masalasi 1928 yilda R.Trench tomonidan ko'tarilgan. Bu lug'atning 1933-yilda 12 tomda qayta nashri chop etildi,

Yana shunday lug'atlar qatoriga 17 tomidan iborat rus tilining akademik lug'atini ko'rsatish mumkin.

O'RTACHA LUG'ATLAR tipiga normativ lug'atlar ham kiritiladi. O'rtacha tip lug'atlariga 1950-1955 yillarda nashr etilgan "Ruscha-o'zbekcha lug'at" 1959-yilda nashr qilingan "O'zbekcha-ruscha lug'at", "O'zbek tili izohli lug'ati" va barcha imlo, ters, tematik dialektologik lug'atlarni ko'rsatish mumkin.

MAXSUS LUG'ATLAR tipiga yon lug'atlar va maktab lug'atlari kiritiladi. Maktab lug'atlari so'zligida ko'proq darsliklarda qo'llangan so'zlar beriladi.

KICHIK LUG'ATLAR so'zligining qanday maqsadga ko'ra chegaralanganligiga ko'ra 3 tipga bo'linadi:

- 1) Leksik qatlamlar lug'ati;
- 2) Leksik tanlangan lug'at;
- 3) Terminologik lug'at.

Leksik qatlamlar lug'atiga so'zligi sinonimlar, omonimlar, frazeologik birliklar va h.k. dan tashkil topgan lug'atlar kiradi: A.Hojiyevning "Sinonimlarning qisqacha lug'ati", Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tili qisqacha frazeologik lug'ati" kabilar misol bo'ladi. Leksik tanlangan lug'atlarga so'zligiga biror muallif, biror yodgorlik, biror asar (Gorkiy lug'ati) kiradi. Masalan: Borovkovning "O'rta Osiyo tafsiri leksikasi". E.Fozilovning "Староузбекский язык" va boshqalar. Terminologik lug'atlarda biror fan yoki biror kasbga oid terminlar beriladi: S.Ibrohimovning "Paxtachilik terminlari lug'ati" (1934) N.Mamatovning "Paxtachilik terminlarining qisqacha izohli lug'ati" (1964), N.Hotamovning "Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o'zbekcha terminologik lug'at" (1960) va boshqalar.

So'zlik lug'atning mazmunini tashkil etadi. So'zlik lug'at uchun tanlangan so'zlar ro'yxati bo'lib, bu ro'yxat ma'lum tartibda beriladi. Mana shu so'zlikning berilish usuli nuqtai nazaridan lingvistik lug'atlar 3 tipga bo'linadi:

- 1) alfavit tartibli lug'atlar;
- 2) tematik lug'atlar;
- 3) uyali lug'atlar.

Alfavit tartibli lug'atlarda so'zlikni tarkib toptirgan so'zlar ro'yxati alfavit tarzida beriladi. Alfavit "sirtqi" va "ichki" tartib bo'yicha beriladi.

Tematik lug'atlarda so'zlikni tarkib toptirgan so'zlar ro'yxati ma'lum mavzularga bo'lib beriladi, bunda so'zlar avval so'z turkumlari bo'yicha ajratilib (ot, sifat, fe'l) so'ngra ular ichki tematik bo'linishlar bilan beriladi. Tematik lug'at 1975-yil Toshkentda nashr etildi. Tuzuvchilar N.Tixonov, N.Hotamov, S.Emelyanova, M.Tixonovalardir. Lug'at so'zligidagi so'zlar 16 tematik qismga bo'lingan bo'lib, yer, osmon, qazilma boyliklar, o'simliklar, odam kabi nomlangan. Lug'at ruscha-o'zbekcha tarjima lug'atidir.

O'zbek leksikograflari oldida uyadosh so'zlar lug'atini yaratish vazifa bo'lib turibdi. Xuddi shuningdek "O'zbek tili izohli lug'at"ni hozirgi sistem tilshunosligi nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish va baholash lozim. Bunda H.Saidova, R.Safarova, B.Qilichev, G.Nematova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanish zarur.

Frazeologiya

Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan til birligi frazeologik ibora deyiladi. Frazeologizmlar yaxlit-ligicha yoki muayyan so'zning ko'chma ma'noda qo'llanishi asosida yuzaga keladi. Masalan, *og'zi qulog'ida* iborasi tarkibidagi so'zlar bir butun holda ko'chma ma'noda qo'llanib, *xursand* tushunchasini ifodalagan. Biroq *qo'l ko'tarmoq* birikmasida esa *ko'tarmoq* so'zining ko'chma ma'noda ishlatilishi iborani vujudga keltirgan. Shu bois ular nutqning erkin sintaktik birliklaridan farqli ravishda, tilning turg'un birikmalari hisoblanadi. Frazeologik iboralarning so'zlar singari tilning lug'aviy birliklari qatoridan o'rin egallaydi. Bunga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

1. Frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan turg'un birikmalar bo'lsa ham, so'zlar singari, odatda, yaxlit bir tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu xususiyat ularni so'zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha olishini ta'minlaydi: *Uchiga chiqqan-o'taketgan, turgan gap-albatta, yeng ichida-xufiya, yashirin* kabilar shular jumlasidandir. Shu bois ular so'zlar singari bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi: *Komissiya hayron bo'lib qoldi, ammo hech kim meni qaytarishni og'ziga olmasedi* (A.Qahhor).

2. Frazeologizmlarda ham so'zlar singari ko'p ma'nolilik mavjud: *o'ziga kelmoq - xushini yo'qotgach o'ziga kelmoq, esiga tushmoq, asabiylikdan so'ng o'ziga kelmoq; yerga urmoq-qimmatini pasaytirmoq, obro'sizlantirmoq, biror narsaning qadriga yetmaslik*.

3. So'zlar singari frazeologizmlarning ham shakl va ma'no munosabatiga ko'ra quyidagi turlari mavjud: a) omonimlar: *boshiga ko'tarmoq - to'polon qilmoq, yaxshi ko'rmoq, e'zozlamoq*; b) sinonimlar: *fe'li aynimoq - avzoyi buzilmoq, yaxshi ko'rmoq - ko'ngil qo'ymoq, toqati toq bo'lmoq-sabr kosasi to'lmoq*; v) antonimlar: *ko'kka ko'tarmoq - yerga urmoq, yuzi yorug' - yuzi shuvut, yuragi qinidan chiqmoq - ko'ngli joyiga tushmoq*.

Frazeologizmlar nutqning ta'sirchan vositalaridan bo'lib, so'zlashuv nutqida va badiiy adabiyotda keng qo'llaniladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qanday soʻzlar umumturkiy sanaladi?
2. Oʻzbek tili leksikasining oʻz ichki imkoniyatlari asosida boyishi deganda nima tushuniladi?
3. Oʻzlashma soʻzlar qanday soʻzlar? Tilimizga qaysi tillardan soʻzlar koʻp oʻzlashtirilgan?
4. Oʻzbek tili leksikasining chegaralangan va chegaralanmagan qatlamlari haqida maʼlumot bering.
5. Tilning faol va nofaol soʻzlari haqida nimalar bilasiz?
6. Frazeologiya nimani oʻrganadi? Iboralar va soʻzlar oʻrtasidagi umumiylik haqida soʻzlab bering.
7. Tilning lugʻaviy birliklariga nimalar kiradi?

5.6. Leksikografiya

Leksikografiya (yunoncha lexis-soʻz, grapos-yozaman demakdir) oʻz mohiyatiga koʻra leksikologiya bilan uzviy bogʻliq boʻlgan boʻlimdir. Chunki leksikografiya tilning leksik qatlamiga mansub boʻlgan soʻzlar, iboralarni lugʻatlarda alfavit tartibida va baʼzan uyadoshlik asosida jamlash, ularni turli tomondan izohlash bilan shugʻullanadi. Demak, leksikografiyada lugʻat va lugʻat turlari xususida bahs yuritiladi.

1-§. Lugʻat va uning turlari. Lugʻat maʼlum bir tildagi soʻzlarning barchasini yoki aksariyat qismini jamlab, ularning maʼnolarini izohlash, imlosi va talaffuzini koʻrsatish, soʻz maʼnosini bir tildan ikkinchi tilga oʻgirish kabi maqsadlarda tuziladigan kitobdir. Lugʻatlar maqsad va vazifasiga koʻra, odatda, ikki turli boʻladi: 1) qomusiy (ensiklopedik) lugʻatlar; 2) lingvistik (filologik) lugʻatlar.

Qomusiy lugʻatlar tushuncha va maʼlumotlar soʻzligi boʻlib, ularda turli ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnik, adabiy-badiiy, tarixiy voqea-lar haqidagi tushunchalar hamda ishlab chiqarishning turli sohalari, borliqdagi narsa va hodisalar, taniqli fan, sanʼat, madaniyat, davlat arboblari haqidagi maʼlumotlar beriladi. Masalan, «Oʻzbek milliy ensiklopediyasi», «Salomatlik ensiklopediyasi», «Uy-roʻzgʻor ensiklopediyasi» shular jumlasidandir.

Lingvistik lugʻatlar. Bunday lugʻatlarda lugʻaviy birliklar tilshunoslik nuqtai nazaridan izohlanadi. Ular tilshunoslikning maʼlum bir sohasiga yoki barcha sohasiga tegishli ekanligi bilan, dastlab, maxsus va umumiy lugʻatlarga ajratiladi.

Umumiy lugʻatlarda adabiy tilning barcha soha va qatlamiga oid soʻzlar aks etadi. Shu bois bunday lugʻatlarning nomlanishi ham biror soha yoki soʻz qatlami nomi bilan cheklanmaydi. Masalan: 65 ming soʻzni oʻz ichiga olgan, ikki jilddan iborat «Oʻzbek tilining izohli lugʻati» (M., 1981.) , «Oʻzbek tilining imlo lugʻati» (T., 1976.), «Oʻzbek tilining orfoepik lugʻati» (T., 1977.), «Oʻzbek tilining qisqacha etimologik lugʻati» (T.,2000) kabilar shular jumlasidandir.

Umumiy lugʻatlar bir yoki ikki tilliligi bilan ham farqlanadi. Xususan, yuqorida sanab oʻtilgan lugʻatlar **bir tilli** lugʻatlar hisoblanadi. **Ikki tilli** lugʻatlar tarjima lugʻatlardir. Chunki bunday lugʻatlarda oʻzbekcha soʻzlarning muayyan tildagi muqobillari yoki aksincha xorijiy tildagi soʻzlarning oʻzbek tilidagi muqobili tarjima asosida koʻrsatiladi. Masalan: «Nemischa-oʻzbekcha lugʻat», «Inglizcha-oʻzbekcha lugʻat», «Fransuzcha-oʻzbekcha lugʻat», «Oʻzbekcha-ruscha lugʻat», «Oʻzbekcha-fransuzcha lugʻat», «Oʻzbekcha-inglizcha lugʻat» kabilar. Mustaqillikdan soʻng xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarning tobora rivojlanib borayotganligi sababli ikki tilli lugʻatlar dunyodagi boshqa milliy tillar asosida ham tuzilmoqda.

Maxsus lugʻatlar biror soha yoki maʼlum bir qatlamga oid soʻzlar bilan cheklangan boʻladi. Bu cheklanish ularning nomlanishida ham oʻz aksini topadi. Masalan: «Oʻzbek tili morfem lugʻati» (T.,1977.), «Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati» (T., 1974.), «Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati» (T.,1984.), «Oʻzbek tili antonimlarining izohli lugʻati» (T.,1980.), «Siyosiy terminlarning izohli lugʻati», «Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati» shular jumlasidandir.

2-§. Lugʻatshunoslik tarixidan. Barcha turkiy xalqlar kabi oʻzbek xalqining ham lugʻatshunoslik bilan bogʻliq tarixining dastlabki bosqichi Mahmud Koshgʻariyning «Devonu lugʻotit turk» asari bilan bogʻlanadi. Uning toʻliq ism-sharifi Mahmud Ibn-ul Husayn Ibn Muhammad-al-Koshgʻariy boʻlib (tavallud sanasi aniq emas), «Devonu lugʻotit turk» asari hijriy 469, melodiylar 1076-1077- yil yozilgan. Asarning yagona qoʻlyozma nusxasi 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahridan topilgan va u hozirgacha Istambulda saqlanadi. Bundan tashqari alloma tomonidan turkiy tillar

синтаксисига доир «Javohirun nahv fil lug‘otit turk» asari yaratilganligi haqida ham ma‘lumotlar mavjud. Biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan.

«Devonu lug‘otit turk», dastlab, 1915-1917 yillarda uch tomlik kitob holida Istambulda, keyinchalik, ya‘ni 1928 yilda esa sharqshunos Brokkelman tomonidan nemis tiliga tarjima qilinib Leypsikda nashr qilingan. «Devonu lug‘otit turk» asari 1960-1963 yillarda taniqli sharqshunos olim Solih Mutallibov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, Toshkentda nashr etilgan. «Devonu lug‘otit turk» asari faqat leksikografik tadqiqot bo‘lib qolmay, unda qadimgi turkiylar tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik, lingvogeografik, dialektologik xususiyatlari haqida ham qimmatli ma‘lumotlar mavjud. Shu bois Mahmud Koshg‘ariy turkiyshunoslikning sanab o‘tilgan sohalarining asoschisi sanaladi.

Zamahshariy hijriy 467, melodiy 1045 yilning 19 martida Xorazmning Zamahshar qishlog‘ida tavallud topgan. Abulqosim Mah-mud Zamahshariy taxallusi bilan arab tilida tilshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, hadis va diniy huquq kabi fanlarga doir ellikdan ortiq asar yaratib qoldirgan. Ayniqsa, uning «Al- mufassal fi sa‘at il-i‘rob», «Fleksiya san‘ati haqida mufassal kitob» ma‘nosini bildirib, bu asar (1121 yil Makka shahrida yozilgan) arab tilining grammatikasini o‘rganishda muhim qo‘llanma sifatida sharq va g‘arbda mashhur bo‘lgan. Zamahshariyning xorazmshoh Alouddavla Abdulmuzaffar Otsiz sharafiga bag‘ishlab 1137 yilda yozilgan «Muqaddimat-ul adab» (Adabiyotga kirish) asari, garchi adabiyotshunoslikka doir bo‘lsa ham, tilshunoslikning morfologiya, leksikologiya va leksikografiya sohalariga daxldor qimmatli amaliy va nazariy mulohazalar mavjud. Zotan, besh qismdan tashkil topgan bu asarda otlar, fe‘llar, bog‘lovchilar, otlarning turlanishi, fe‘llarning tuslanishi kabi masalalar xususida bahs yuritilgani holda, o‘sha davr arab tilining iste‘molda bo‘lgan barcha so‘zlari, iboralari ham o‘z aksini topadi. Bu so‘zlaning ma‘nolari va etimologiya-si yetarli darajada keng sharhlanadi. «Muqaddimat-ul adab» fors, chig‘atoy(eski o‘zbek), mo‘g‘ul va turk tillariga tarjima qilingan bo‘lib, manbalarda qayd etilishicha, uning chig‘atoy tiliga tarjimasini Zamahshariyning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan. Zamahshariyning bilim-don, zukko allomaligi unga hayotligidayoq butun musulmon Sharqida katta shuhrat keltirgan. Shu bois alloma chuqur hurmat bilan «Arablar va g‘ayri arablarning ustozini», «Xorazm faxri» kabi sharafli nomlar bilan ulug‘langan.

Alisher Navoiyning «Muhokamatul lug‘atayn» asari 1499 yilda yaratilgan bo‘lib, bu asar eski o‘zbek tilini qarindosh bo‘lmagan til – fors-tojik tili bilan chog‘ishtirib o‘rganishga doir dastlabki leksikografik tadqiqotlardan biri ekanligi bilan qimmatlidir. Adabiyot osmonida Navoiydek yorug‘ yulduz paydo bo‘lgach, uning asarlari asosida ham ko‘plab lug‘atlar yaratila boshlandi. Jumladan, «Badoi al-lug‘at», «Sangloh», «Abushqa» kabi o‘nlab lug‘atlarning yaratilishi shular jumlasidandir.

O‘zbek tilshunosligining zamonaviy bosqichida esa G‘.Abdurahmonov, Z.Ma‘rufov, O.Usmonov, Sh.Shukurov, A.Hojiyev, R.Qo‘ng‘urov, Sh.Shoabdurahmonov, S. Mutallibov, Sh.Rahmatullayev, V.Rahmonov, A.Madaliyev, N.Mamatov, S.Ibrohimov kabi olimlar lug‘atshunoslik-ning rivojishida o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Leksikografiyada nima o‘rganiladi?
2. Lug‘atlarning qanday turlari bor?
3. Lingvistik lug‘atlarning qanday turlarini bilasiz?
4. Lingvistik lug‘atlarning har bir turi misolida ularning qanday maqsadda ishlatilishini tushuntiring.
5. O‘zbek lug‘atshunosligi tarixi haqida ma‘lumot bering.

ZARURIY ADABIYOTLAR

- 1.Ш. Шоабдуракмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.ДониёровЌозиргиЊзбекадабийтили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.
- 2.Њзбек тили лексикологияси. Т., «Фан» 1981.
- 3.Ш.Раќматуллаев Њзбек тилининг изоќли фразеологик луђати. Т., «Њљитувчи» 1978.
- 4.А.Шомаљсудов, И.Расулов, Р.Њњњуров, Х.Рустамов Њзбек тили стилистикаси. Т., «Њљитувчи» 1977.
- 5.Б. Абдуракмонов, Ќ.Расулов Она тили 10-11-синфлар учун дарслик. Т., «Њљитувчи» 1995.
- 6.Њзбек тилининг изоќли луђати. 2 жилдли. М., «Рус тили»1981.
- 7.А.Ќожиев Њзбек тили синонимлапрининг изоќли луђати. Т., «Њљитувчи» 1974.

6.1. Morfemika

1§. Morfemika soʻzning maʼnolari haqidagi taʼlimotdir. Soʻzning eng kichik maʼnolari qismimorfema deyiladi. Masalan, *bogʻlarimizning* soʻz qiyosidagi maʼnolari qismimorfemalardan iborat: *bogʻ - lar - imiz - ning*. Morfemalarning har birisi oʻz doirasida oʻziga xos maʼno ifodalovchi birlikdir. Ularni yanab oʻlajaklarga boʻlinishimazkur maʼnolarning yoʻqolishiga olib keladi. Demak, morfema soʻzning eng kichik boʻlinmas maʼnolari qismidir. Morfemalardastlab kichik boʻlinadi: 1) oʻzak morfema; 2) affiks morfema.

2§. Oʻzak soʻzda albat tashqi ketadigan nutqda yakkaholda qoʻllanish mumkin boʻlgan va mustaqillugʻi aviy maʼno ifodalash xususiyatiga ega boʻlgan morfemadir. Masalan, *ishchi, ishla, ishchan, ishsiz* soʻzlaridagi *ish* oʻzak morfemadir.

3-§. Affikslar (qoʻshimchalar) yakkaholda lugʻaviy maʼno ifodalamay, oʻzakka qoʻshilib uning leksik yoki grammatik maʼnosini shakllantirishda tashqi ketadigan morfemadir. Masalan, *ish, odam, daraxt* kabilar sanominibildiruvchi oʻzaklarga -chi||ishchi, -garchilik||odamgarchilik, -zor||daraxtzorkabii affikslar qoʻshilish bilan mazkur soʻzlarning lugʻaviy maʼnolari; *ularga ish+ning, odam+lar+dan, daraxt+lar+im* zorkabii affikslar qoʻshilish bilan esa soʻzlarning grammatik maʼnolari shakllangan.

4§. Soʻz morfemalarga ajratish da soʻz tarkibidagi maʼnolari qismimorfemalarning hozirgi tildaleksik yoki grammatik maʼnoni vujudga keltirish nuqtainazaridan yondashiladi. Xususan, oʻzak sifatida ajratiladigan qism, bugungi tildamaʼnoga ega boʻlishi,

bunda noturliq qoʻshimchalarasosidashakllangan oʻzakdosh soʻzlar bilan bogʻlanish lozim. Masalan: *yigʻ+im, yigʻ+iq, yigʻ+ma, yigʻ+in+di* kabilar. Affiks sifatida ajratiladigan qism esa turli oʻzaklarning leksik va grammatik maʼnolarini shakllantirishda ishtirok eta olish, yaʼni takror qoʻllanish xususiyatiga ega boʻlishi lozim. Masalan: *ter+im, oʻr+im, bos+im* kabi. Shu bois baʼzi soʻzlar tarkibida oʻzak va affiks morfemadan iboratdek koʻrinsa ham, ular qismlarga ajratilganda takrorlanuvchi maʼnoga ega boʻlmasa, bitta maʼnolari qism hisoblanadi. Masalan: *quloqchin, tirik* soʻzlarini *quloq+chin, tir+ik* kabi maʼnolari qismlarga ajratib boʻlmaydi. Shuningdek, tarixan ikkita maʼnolari qismdan iborat boʻlib, hozirgi paytda maʼnolari qismlar tushunarsiz holga kelib qolganda ham bunday soʻzlar bitta morfema sifatida baholanadi: *bugun (bu+kun), yuksak (yuk+sa+k), qattiq (qat-iq)*.

5-§. Affikslar va ularning turlari. Affiks morfemalar vazifasiga koʻra quyidagicha turlarga boʻladi: 1) soʻz yasovchilar; 2) soʻz oʻzgartuvchilar; 3) shakl yasovchilar.

Baʼzi manbalarda affiks morfemalarning vazifasiga koʻra ikki turi farqlanadi: 1) soʻz yasovchi; 2) shakl yasovchi kabi. Shakl yasovchilar esa oʻz navbatida a) lugʻaviy shakl yasovchilar; b) sintaktik shakl yasovchilarga ajratiladi. (Qarang: N. Mahmudov, A. Nurmonov va boshqalar, Ona tili. 6-sinflar uchun darslik.)

1. Soʻz yasovchi affikslar oʻzakka qoʻshilib, yangi maʼnolari soʻz hosil qiladi. Ular koʻpincha bir turkumdagi soʻzdan boshqa bir turkumga mansub yangi soʻz yasaydi: *yoʻz, qish - ot || yoʻzgi, qishki - sifat || ish, qon - ot || ishla, qonat - feʼl || supur, oʻr - feʼl || supurgi, oʻroq - ot*. Shuningdek, ular bir turkum doirasida soʻzlar yasashi ham mumkin: *-chi: ishchi, xizmatchi, payvanchi || -bon: bogʻbon, darvozabon* kabi. Soʻz yasovchi affikslar oʻzakka birdan ortiq qoʻshilishi va yangi - yangi soʻzlar hosil qilishi mumkin: *bogʻ + bon + lik, ter+im+chi+lik*. Bunday yasaliş, odatda, negiz asosida yasaliş hisoblanadi. Xullas, soʻz yasovchilar oʻzakning lugʻaviy maʼnosini yangilovchi morfemalar boʻlib, tilning leksik qatlamini boyitadi.

2. Shakl yasovchilar (lugʻaviy shakl qoʻshimchalari) soʻzning lugʻaviy maʼnosini bir oz oʻzgartib, unga qoʻshimcha maʼno boʻyogʻi beradigan, biroq yangi soʻz hosil qilmaydigan morfemalardir. Masalan: *kitoblar, kitobcha, kattaroq, kattagina, beshinchi, beshov, uchala, borgan, ishlamoq, kuldir, kelma*. Shakl yasovchilar oʻz tabiatiga koʻra soʻzlarning lugʻaviy maʼnosiga qoʻshimcha maʼno boʻyogʻi berish bilan birga ularning sintaktik munosabatini belgilashda ham oʻziga xos oʻrnga ega boʻladi. Shu bois ularni **lugʻaviy va sintaktik shakl yasovchilar** kabi ikki turga ajratiladi. Xususan, otlardagi son (*kitob-kitoblar*), kichraytirish-erkalash (*qizcha, boʻtaloq, qoʻzichoq, onajon, bolagina*), chegara (*uygacha*), qarashlilik (*ukamniki*) shakllari, sifat va ravishlardagi daraja (*kattaroq, shiringina, qoramtir, tezgina, sekinroq*) kategoriyasiga mansub shakllar, sonlarning maʼno turlarini hosil qiluvchi (*beshta, uchinchi, ikkala, toʻrtov*) shakllar, gumon

olmoshi hosil qiluvchi qo'shimcha (*kimdir, nimadir*), fe'llardagi nisbat (*kiydi, kiyindi, kiyishdi, kiyirdi, kiyildi*), bo'lishsizlik (*chizma, o'qima*), harakatning takroriyligi, kuchsizligini ifodalovchi (*bur-bura, tep-tepkila, oqar-oqarinqira, kul-kulimsira, yul-yulqi*) shakllarni lug'aviy shakl yasovchilar sifatida, fe'llardagi zamon, mayl, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllarini esa lug'aviy-sintaktik shakl yasovchilar sifatida ajratiladi. (Qarang: Б.Бақриддинова Фельлуҗавий шакллари. Турк категорияси. НДА. Самаръанд 2002.)

3. So'z o'zgartuvchilar (aloqa – munosabat qo'shimchalari) muayyan so'zning nutqdagi boshqa so'zga nisbatan sintaktik munosabatini, aloqasini ko'rsatuvchi affikslardir. So'z o'zgartuvchilar 1) kelishik (turlovchi) qo'shimchalari; 2) egalik qo'shimchalari; 3) shaxs-son (tuslovchi) qo'shimchalaridan iborat. Masalan: *kuzning havosi, kitobni o'qidim, daladan qaytayapman* kabi birikmalar tarkibidagi so'zlar o'trtasidagi sintaktik aloqa *-ning, -ni, -dan* kabi kelishik, *-i* egalik, *-m, -man* kabi shaxs-son qo'shimchalari vositasida yuzaga kelgan.

6-§. Affikslarning tuzilishiga ko'ra turi. Affiksial morfemalar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab bo'lishi mumkin. Masalan, *gulzor, gulla, aqlli* kabi so'zlardagi *-zor, -la, -li* sodda affikslar bo'lsa, *zavqlan, dehqonchilik, isrofgarchilik* kabi so'zlardagi *-la\ n, -chi\ lik, -gar\ chi\ lik* murakkab affikslar bo'lib, ular tarkiban bir necha sodda affikslarning birikishidan tuzilgan. Demak, murakkab affikslar ikki yoki undan ortiq sodda affikslarning bitta ma'noli qism doirasida birikishi orqali yuzaga keladi.

7-§. Unumli va unumsiz affikslar. Affikslar so'z tarkibida ishtiroki darajasiga ko'ra unumli, kam unum va unumsiz turlarga bo'linadi. Bunday affikslarning aksariyat qismi so'z yasovchilarga taalluqlidir.

So'z tarkibida ma'noli qism sifatida faol ishtirok etadigan affikslar unumli sanaladi. Masalan, ot yasovchi *-chi: ishchi, ovchi, a'lochi*; sifat yasovchi *-li: mazali, totli, savodli*; fel yasovchi *-la: arrala, ishla* kabilar, shuningdek, shakl yasovchi va so'z o'zgartuvchi affikslarning asosiy qismi unumli affikslardir.

Hozirgi tildagi so'zlarning yasalishi va morfologik shakllanishida kam qatnashadigan affikslar kam unum sanaladi. Masalan, ot yasovchi – *oq: o'roq, taroq; – kash: mehnatkash, aravakash; -dosh: maktabdosh*; sifat yasovchi *–ma: bo'g'ma (ilon), qaynatma (sho'rva)* kabilar hamda shakl yasovchi *–ish: oqish; –imtir: qoramtir; –ov\ -ala: ikkov, uchala; –v\ -ov: o'qiv; –sat: ko'rsat* kabilar kam unum affikslardir.

Tarixan mavjud bo'lib, hozirgi tildagi so'zlarning yasalishi va shakllanishida ishtirok etmaydigan affikslar unumsiz affikslardir. Masalan, ot yasovchi *-vul: qorovul, bakavul, -gar: savdogar, zargar*; sifat yasovchi *–ag'on: qopag'on, bilag'on, -g'oq: toyg'oq, -kin: keskin, -mon: o'larmon, bilarmon*; fe'l yasovchi *–ar: oqar, ko'kar* kabilar, hamda *-lamchi: birlamchi, -ajak: kelajak* kabi shakl yasovchilar shular jumlasidandir.

8-§. Affikslarning shakl va ma'no turlari. Affikslar ham so'zlar singari shakl va ma'no munosabatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Omonim affikslar shakli bir xil bo'lib, ma'no va vazifasiga ko'ra bog'lanmaydigan qo'shimchalardir. Omonim affikslar qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra turlari doirasida quyidagi ko'rinishda uchraydi: 1) so'z yasovchilar doirasida: *-ki: tepki-ot yasovchi, kechki*-sifat yasovchi; 2) shakl yasovchilar doirasida: *-ish: oqish*-sifatning daraja shakli, *tortish*-fe'ning harakat nomi shakli; 3) so'z o'zgartuvchilar doirasida: *-ng: olmang*-egalik qo'shimchasi, *bording*-tuslovchi qo'shimcha; 4) so'z yasovchi va shakl yasovchilar doirasida: *-ma: bo'g'ma- (ilon)* sifat yasovchi, *qatlama* -ot yasovchi, *ketma* – fe'ning bo'lishsiz shakli; 5) so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchilar doirasida: *-im: qultum*-ot yasovchi, *kitobim*-egalik qo'shimchasi. Ba'zan o'zakdosh so'zlar ham omonim affiks qabul qilib shakldoshlikka ega bo'lishi mumkin. Masalan, *qatla* fe'lga so'z yasovchi va shakl yasovchi omonim qo'shimcha *–ma* qo'shilishi bilan *qatlama* (ot) , *qatlama* (fe'ning bo'lishsiz shakli) kabi shakldosh so'zlar hosil bo'ladi.

2. Sinonim affikslar shaklan har xil umumiy ma'nosi bir xil bo'lgan qo'shimchalardir. Masalan: *-li\ -dor: unumli-unumdor*. Affikslar sinonimligi qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra barcha turlari doirasida uchraydi: a) so'z yasovchilarda: *-siz\ -no* ma'nodoshligi asosida: *o'rinsiz - noo'rin, -li\ -ser* ma'nodoshligi asosida: *g'ayratli - serg'ayrat*; b) shakl yasovchilarda: *-ish\ -imtir* ma'nodoshligi asosida: *oqish-oqimtir, -qar\ -kar\ -qaz\ -kaz* ma'nodoshligi asosida: *qutqar - qut+qaz, o'tkaz-o'tkar, -lar\ ish* ma'nodoshligi asosida *kelishdi-keldilar*; v) so'z o'zgartuvchilarda: *-ning\ -dan* ma'nodoshligi asosida: *mehmonlar +ning|| +dan* kattasi.

Shuni ham qayd etish lozimki, sinonim qo'shimchalar barcha so'zlarda birdek ma'nodoshlikka ega bo'la olmaydi. Masalan, *noo'rin-o'rinsiz* so'zlarida *–no* va *–siz* o'zaro ma'nodosh, biroq *tanish*,

ma'lum kabi soʻzlarga bu sinonim qoʻshimchalardan faqat *-no* affiksini qoʻshib ishlatish mumkin. Chunki *tanishsiz*, *notanish* sifatlari oʻzaro sinonim boʻla olmaydi, *ma'lumsiz* shaklida esa sifat yasalmaydi

3. Antonim affikslar bir-biriga zid maʼnoli qoʻshimchalardir. Oʻzbek tilida qoʻshimchalarning zid maʼnoligi boshqa yondosh hodisalarga nisbatan ancha kam uchraydi. Ular koʻproq sifat yasalishida koʻzga tashlanadi. Masalan: *kuchli- kuchsiz*, *mazali – bemaza*, *gʻayratli-sergʻayrat*.

4. Koʻp maʼnoli affikslar birdan ortiq leksik va grammatik maʼnoni shakllantiruvchi qoʻshimchalardir. Masalan, *-chi* qoʻshimchasi: *temirchi* (*asosdan anglashilgan kasbga ega boʻlgan shaxs oti*), *hasharchi*, *ijarachi*, *pudratchi* (*oʻzakdan anglashilgan faoliyat ishtirokchisi boʻlgan shaxs oti*) kabi yasama soʻzlardagi *-chi* koʻp maʼnolidir. Affikslarning koʻp maʼnoligi shakl yasovchi va soʻz oʻzgartuvchilarga ham xos hodisadir. Xususan, *-lar* affiksining *bolalar* – sof koʻplik maʼnosida, *unlar-* tur, nav maʼnosida, *dadamlar* - hurmat maʼnosida ishlatilishi, ularning nutqiy koʻp maʼnoligidan dalolat beradi.

8-§. Oʻzak va affikslarning qoʻshilish tartibi. Affikslarning oʻzakka qoʻshilish tartibi ham oʻziga xoslikka ega. Xususan, soʻz tarkibida maʼnoli qismlar joylashishining odatdagi tartibi asosan, **oʻzak yoki negiz+ soʻz yasovchi+shakl yasovchi+soʻz oʻzgartuvchi** shaklida boʻladi. Masalan: *qishloq+dosh+lar+imiz*, *qoʻriqla+di+k*. Oʻzakka soʻz yasovchi qoʻshimcha qoʻshilishi bilan **negiz** hosil boʻladi. Masalan: *ter+im*, *quri+q*, *tinch+i* (*moq*) kabilar negizdir. Agar soʻz tarkibida birdan ortiq soʻz yasovchi qoʻshimcha ishtirok etsa, u holda negizning chegarasi oxirgi soʻz yasovchi qoʻshimcha bilan belgilanadi. Masalan: *bil+im+don+lik* yasalmasida *bilimdonlik* negizdir. Demak, odatdagi tartibga koʻra shakl yasovchi va soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalar soʻzning oʻzak qismiga (*bil+di+m*) yoki negiziga (*bil+im+lar+dan // bil+im+don +lig+i+ni*) qoʻshilishi mumkin.

Baʼzan, affiks morfemalarning odatdagi tartibida oʻzgarishlar yuz berishi ham mumkin. Bunday oʻzgarishlar koʻpincha uslubiy talablar yoki sheva taʼsirida yuzaga keladi: *aka+m+lar - aka+lar+i+im*, *koʻr+di+ng+lar - koʻr+di+lar+ing*. Ayrim hollarda yasovchi qoʻshimcha shakl yasovchi va soʻz oʻzgartuvchidan keyin qoʻshilib yangi maʼnoli soʻz hosil qilishi mumkin: *uka+lar+im+cha* (boʻlolmaysan), *tort+in+choq*, *kuy+in+chak* (kishi) kabi. Bunday holat affiks shaklidagi yuklamalar va qoʻshimchalarning oʻzakka qoʻshilishida ham kuzatiladi. Masalan, *bola+m+gina* soʻzida *-gina* urgʻusiz boʻlib, ajratish maʼnosini anglatadi, mazkur yuklama bilan shakldosh boʻlgan otlardagi erkalash qoʻshimchasi *-gina* esa oʻzakka odatdagi tartibda qoʻshiladi: *bola+gina+m*. Qoʻshimcha shaklidagi yuklamalar, odatda, barcha turdagi affiks morfemalardan keyin qoʻshiladi: *kitob+mi*, *kitob+dan-chi*, *kitob+lar+da+gina*, *bogʻ+cha+lar+dan+a* kabi. Biroq, *-mi* yuklamasi feʼllarga qoʻshilganda odatdagi tartib oʻzgarishi mumkin: *koʻr+gan+di+ng+mi// koʻr+gan+mi+di+ng*.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Morfema nima?
2. Morfema turlari haqida maʼlumot bering.
3. Oʻzak va affiksial morfemaning umumiy va farqlari nimalardan iborat?
4. Har bir affiks morfemaning oʻziga xos xususiyatlarini taʼriflang.
5. Affikslarning sinonim, omonim, antonim holatlariga misol Keltirib izohlang.
6. Affikslarning koʻp maʼnoliligi qay tarzda koʻzga tashlanadi?
7. Soʻzni morfemalarga ajratishda nimalarga eʼtibor berish lozim?
8. Oʻzak va affiksial morfemalarning joylashish tartibi xususida nimalarni bilasiz?
- 9.

ADABIYOTLAR

1. Ш.Шоабдуракмонов, М.Асъярова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.Дониев Козиргинъзбекадабийтили. 1-лъисм .Т., «Њълитувчи» 1980.
2. Њзбек тили грамматикаси. 1-том. Т., «Фан» 1975.
3. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahmedov Onatili. Umumtaʼlim maktablarining 7-sinf uchundarslik. Т., «Maʼnaviyat» 2005.
4. А.Буломов, А.Н.Тихонов, Р.Њънђуров Њзбек тили морфемлуђати. Т., «Њълитувчи» 1977.

7.1. Soʻz yasalishi

1-§. Yasama soʻzlar tarkibi. Nutqda soʻzlar tub va yasama shaklda qoʻllaniladi. Soʻzning yasovchi qismlarga ega boʻlmagan qismi **tub soʻz** deyiladi: *gul*, *inson*, *meva*, *nozik*, *bordi*, *tez*. Tub soʻzlar

shakl yasovchi va soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalar qabul qilganda ham oʻzining tubligini saqlaydi. Masalan, *uycha, kattaroq, beshinchi, koʻrindi, bogʻdan, doʻstlarim* kabilar ham tub soʻzlardir.

Tilda mavjud boʻlgan biror usul asosida hosil qilingan yangi soʻz yasama soʻz deyiladi: *gulla, mevali, bogʻbon, qaror qilmoq, ish boshi, asalari, BMT*.

Yasama soʻzlar tuzulishiga koʻra sodda, tarkibli boʻladi. **Sodda yasama soʻzlar** tarkiban bitta yasaluvchi asos va bir yoki birdan ortiq yasovchi qoʻshimchalardan tuziladi. Masalan, *ter+im, ang(ong)+la, toʻqi+ma+chilik, suv+siz+lik*. Sodda yasama soʻzlarda tashqi va ichki yasalish mavjud. Masalan, *payvand+chi, bogʻ+bon* kabi yasaluvchi asos va yasovchi qoʻshimchalarning bir soʻz turkumga mansubligi **ichki yasalish** hisoblansa, *suva(o)+q+chi, quri+q+lik* kabi turkumlararo yasalish esa **tashqi yasalish** hisoblanadi. Bu turdagi yasalishda oʻzakka avval tashqi yasovchi, keyin ichki yasovchi qoʻshilishi ham mumkin: *suvo+q+chi* yasalmasidagi *-q* tashqi, *-chi* ichki yasovchi qoʻshimchalardir.

Baʼzi sodda yasama soʻzlarning yasalishi tarixiy va zamonaviyligi bilan ham farqlanadi. Chunki yasama soʻzning tarixiy shaklida zamonaviy yasalmaga nisbatan asos va qoʻshimcha oʻrtasidagi munosabatni ilgʻab olish qiyin kechadi yoki soʻzdagi maʼnoli qismlar oʻz maʼnosini yoʻqotgan boʻladi. Shu bois *qattiq, silliq, suyuq, emakla, quloqchin* kabi tarixiy yasalishga ega soʻzlar hozirgi til nuqtai nazaridan tub soʻz hisoblanadi.

Tarkibli yasama soʻzlarda ikki yoki undan ortiq mustaqil lugʻaviy maʼnoga ega boʻlgan yasovchi asos ishtirok etadi. Masalan: *tosh+koʻmir, jigar+rang, erta+pishar, BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AYOQSH (Avtomobillarga yoqilgʻi quyish shaxobchasi)* kabilar. Bunday yasama soʻzlar ikki yoki undan ortiq maʼnoli qism ishtirokida hosil boʻlsa ham, yaxlitligicha bitta lugʻaviy maʼno ifodalashga xizmat qiladi.

2-§. Soʻz yasash usullari. Oʻzbek tilida soʻz yasalishining semantik, fonetik, abbreviatsiya, affiksatsiya, kompozitsiya kabi usullari mavjud. Bu usullar davriy nuqtai nazardan ikki guruhni tashkil qiladi: 1) tarixiy (diaxron) uasalish: semantik, fonetik, abbreviatsiya, kompozitsiya usullari; 2) zamonaviy (sinxron) uasalish: affiksatsiya kabilardan iborat.

Semantik usul. Soʻzning bir turkumdan boshqa turkumga koʻchi-shi asosida yangi soʻz yasalishidir. Masalan, sifatning otga koʻchishi asosida: *koʻk* (osmon maʼnosida), *erkak, chol, kampir*; sodda va juft feʼlning otga koʻchishi asosida: *kurash, kengash, urush, keldi-ketdi, bordi-keldi, qoʻydi-chiqdi, yurish-turish, yozuv-chizuv*; sonning ravish-ga koʻchishi asosida: *birga(ketmoq), birdan (kirmoq)*; otning ravishga koʻchishi asosida: *kunduzi, kechasi (qaytmoq), boshda (sezmoq)* kabilar shular jumlasidandir. Semantik usul asosida yasalgan soʻzning lugʻaviy maʼnosi yangilanishi bilan bir qatorda uning grammatik maʼno va vazifasi ham oʻzgaradi. Qiyoslang: *Mushuk tavadagi goʻshtni oldi-qochdi (feʼl). Oldi-qochdi gaplar hammaning joniga tekkan (sifat).*

Fonetik usul. Soʻz tarkibida yuzaga keladigan fonetik oʻzgarishlar asosida yangi maʼnoli soʻz yasalishidir. Bu usul orqali soʻz yasalishida ikki xil fonetik oʻzgarish natijasida yangi soʻz hosil boʻladi: 1) tilning tarixiy taraqqiyoti davomida soʻz tarkibida tovush oʻzgarishi natijasida yangi soʻz hosil boʻladi: *koʻr-koʻz, boʻy(doq)-boʻz, boʻr-boʻz*; 2) soʻz urgʻusining oʻrni oʻzgartirilishi bilan: *yangi-yaʼngi (hozir), endi-eʼndi (hozirgina), hoʻzir-hoziʼr*.

Abbreviatsiya usuli. Murakkab soʻz birikmalarini turli usullar yordamida qisqartirish orqali yangi soʻz yasalishidir. Masalan, *elektron hisoblash mashinasi-EHM, Birlashgan Millatlar Tashkiloti-BMT*.

Qisqartma soʻzlarning baʼzilari tilimizda aynan oʻzlashtirilgan holda ishlatiladi: *YUNESKO, NATO* kabilar shular jumlasidandir. Soʻz yasalishining bu usuli oʻzbek tilida rus va boshqa xorijiy tillar taʼsirida oʻtgan asrning boshlarida shakllangan boʻlib, faqat qisqartma otlar yasalishida ishlatiladi.

Affiksatsiya usuli. Bu usul bilan oʻzakka soʻz yasovchi qoʻshimchalar qoʻshish orqali yangi soʻz yasaladi. Masalan: *oʻr+oq, dars+lik, sez+gir, oʻzbek+cha, tor+ay(moq), mard+ona*.

Soʻz yasovchi qoʻshimchalar oʻzakka qoʻshilib kelish oʻrniga koʻra ikki turli boʻladi: **a) soʻz yasovchi ort qoʻshimchalar.** Oʻzbek tilida soʻz yasalishning asosini tashkil qiluvchi bunday qoʻshimchalar oʻzak-dan keyin qoʻshilib, yangi maʼnoli soʻz hosil qiladi. Masalan: *oʻt+loq, chiri+k, tosh+qin, ish+chan, arra+la* kabilar; **b) soʻz yasovchi old qoʻshimchalar** oʻzak oldidan qoʻshilib yangi soʻz yasaydi. Masalan: *be+tinim, no+toʻgʻri, ba+maʼni, ser+harakat, anti+demokratiya*. Old yasovchi qoʻshimchalar asosan sifat yasovchilar boʻlib, ularning koʻpchiligi fors-tojik tilidan kirib kelgan.

Kompozitsiya usuli. Birdan ortiq mustaqil ma'noli o'zak morfemalarning tobelashgan holda qo'shiluvi, birikuvi orqali yangi so'z hosil qilinishidir. Masalan: *Mirzachul, gulqand, guldasta, temir yo'l, qaror qilmoq, ahd etmoq*. Bunday yasama so'zlar ikki yoki undan ortiq mustaqil ma'onli o'zak morfemalar ishtirokida hosil bo'lsa ham, yaxlitligicha bitta lug'aviy ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Ular tuzilishiga ko'ra qo'shma so'zlar deyiladi. Kompozitsiya usuli bilan yasalgan qo'shma so'zlar ot, sifat, ravish va qisman fe'llarda keng tarqalgan. Ularning qismlari har xil va bir xil so'z turkumlaridan tuzilishi mumkin. Masalan: *Bel+bog', asal+ari, olib+chiqmoq* kabilar bir xil so'z turkumlarining qo'shilishidan, *qaror+qilmoq, osma+ko'prik, tez+oqar* kabilar esa har xil so'z turkumlarining qo'shilishidan tuzilgan.

Qo'shma so'zlar ham tarixiy va zamonaviyligi bilan farqlanadi. Agar qo'shma so'z qismlari hozirgi tilga nisbatan eskirgan yoki boshqa tillardan o'zlashtirilgan bo'lsa, ular qo'shma so'z hisoblanmaydi. Masalan: *kechqurun, qayrag'och, biror, odamshavanda, santimetr* kabilar hozirgi tilda ma'noli qismlarga ajralmaydigan sodda so'zlardir. Ba'zi o'zlashgan qo'shma so'zlar ma'noli qismlarga ajralishi ham mumkin: *fotokavera, kinoteatr, kinolenta, fotomodel* kabilar shular jumlasidandir.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'zbek tilida necha usulda so'z yasaladi?
2. So'z yasash usullarini farqlab tushuntiring.
3. Eng faol so'z yasash usullari qaysilar?
4. Tub va yasama so'zlar xususida ma'lumot bering.
5. So'z yasovchi qo'shimchalar sinonimligi, omonimligi va antonimligi haqida nimalarni bilasiz?

7.2. So'z turkumlarida so'z yasalishi

So'z yasalishi hodisasi mustaqil so'z turkumlariga xos bo'lib, bu hodisa ot, sifat, fe'l, ravish turkumlari uchun xarakterlidir. Mustaqil so'zlardan son va olmoshlar so'z yasash tizimiga ega emas. Chunki son va olmosh so'z yasash usullari orqali boshqa turkumga mansub so'zlardan yasalmaydi. Biroq bu turkumga mansub so'zlar fe'l, ravish va qisman ot yasashida ishtirok etadi.

7.3. Otlarning yasalishi

1-§.Affiksatsiya usuli bilan ot yasash eng mahsuldor bo'lib, mazkur usul orqali otlarning quyidagi qo'shimchadosh guruhlari yasaladi:

1. Shaxs oti yasovchi affikslar:

- **chi**: ot, sifat, son va harakat nomidan ot yasaydigan serunum affiksdur: *ov+chi, ish+chi, a'lo+chi, yolg'on+chi, ikki+chi, ellik sentner+chi, kurash+chi, o'quv+chi*. Bu otlar umumiy ma'nolariga ko'ra bir necha uyadosh guruhlarni tashkil etadi: 1) kasb, mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi shaxs otlari: *ishchi, neftchi, sportchi, qo'shiqchi, bo'zchi, hisobchi, tunkachi, tilchi*; 2) asosdan anglashilgan harakat va hodisada ishtirok etuvchi shaxs otlari: *jangchi, isyonchi, hasharchi*; 3) asosdan anglashilgan harakat va hodisa bilan shug'ullanuvchi shaxs oti: *respublikachi, himoyachi, xabarchi* kabilar shular jumlasidandir. —chi af-fiksi ba'zi ot yasovchilar bilan ma'nodoshlik hosil qiladi. Shu bois ular qo'shilgan o'zakkodosh so'zlar **sinonimik munosabat**da bo'ladi: *chorva+chi-chorva+dor, ko'mak+chi-ko'mak+dosh, mehnat+chi-mehnat+kash, til+chi-til+shunos*. Bu affiks so'roq, taajjub, kuchaytiruv ma'nolarini anglatuvchi - chi yuklamasi bilan **shakldosh**dir: *terim+chi, terim-chi*.

- **dosh**: otdan birgalik, sheriklik, umumiylik kabi ma'noga ega bo'lgan ot yasaydi: *vatandosh, zamondosh, safdosh, sirdosh*. Bu affiks ba'zan tojikcha ham- old yasovchi qo'shimcha bilan ma'nodoshlikka ega bo'ladi: *kasbdosh-hamkasb, suhbatdosh-hamsuhbat*.

- **kash**: otdan kasb-hunar, xususiyat otlarini yasaydi: *aravakash, meh-natkash, qalamkash*. Bu affiks otdan sifat yasovchi - kash qo'shimchasi bilan shakldoshdir. Qiyoslang: *pastkash, dilkash, dardkash*.

- **bon**: ot asosdan anglashilgan narsani saqlovchi, parvarishlovchi shaxs otini yasaydi: *bog'bon, qo'ychibon/qo'ychivon, darvozabon*.

- **boz**: ot asosdan anglashilgan narsa, mashg'ulot bilan shug'ullanuvchi otni yasaydi: *dorboz, kaptarboz, nayrangboz, qilichboz*.

- **paz**: ot anglatgan narsani pishiruvchi shaxs otini yasaydi: *oshpaz, somsapaz, kabobpaz*.

- **dor**: ot anglatgan narsaga ega bo'lgan shaxs otini yasaydi: *chorvador, mansabdor, puldor, amaldor*. Bu affiks sifat yasovchi —dor bilan shakldoshdir: *aydor, rangdor*.

-shunos: biror soha bilan shug'ullanuvchi shaxs otini yasaydi: *tilshunos, tabiatshunos*.
-xon: asosdan anglashilgan narsaning doimiy o'quvchisi ma'nosi-dagi ot yasaydi: *kitobxon, duoxon, gazetxon*.

-soz: ot anglatgan narsaning tuzatuvchisi, yaratuvchisi ma'nosidagi ot yasaydi: *soatsoz, mashinasoz, asbobsoz*.

-do'z: ot anglatgan narsani tayyorlovchi shaxs otini yasaydi: *etikdo'z, maxsido'z, do'ppido'z*.

-gar: asosdan anglashilgan narsaga bog'liq kasb bilan shug'ullanuvchi shaxs otini yasaydi: *zargar, savdogar, miskar, kimyogar*.

-xo'r: asos anglatgan narsani doim iste'mol qiluvchi, oluvchi shaxs otini yasaydi: *choyxo'r, poraxo'r, araqxo'r, tekinxo'r*.

-parast: asosdan anglashilgan hodisaga e'tiqod qiluvchi shaxs otini yasaydi: *budparast, otashparast, maishatparast*.

-go'y: asos anglatgan narsani aytib turuvchi shaxs otini yasaydi: *nasihatgo'y, maslahatgo'y, xushomadgo'y*.

-furush: asos anglatgan narsani sotuvchi shaxs otini yasaydi: *chinnifurush, paxtafurush, mevafurush*.

-vachcha: asos anglatgan kishilarga qarindosh bo'lgan shaxs otini yasaydi: *boyvachcha, amnavachcha, xolavachcha, amakivachcha*.

Qayd etilgan shaxs otini yasovchi affikslardan *-kash, -bon, -paz, -shunos, -xon, -soz, -do'z, -gar (-kor), -xo'r, -furush* kabi affikslar fors-tojik tilidan o'zlashgandır.

-uvchi/-ovchi: fe'l asosdan anglashilgan harakatni bajaruvchi shaxs otini yasaydi: *uchuvchi, tinglovchi, sog'uvchi, sotuvchi*. Shuningdek, bu affiks harakatni bajarishda vosita bo'lgan narsa otini yasashda ham ishtirok etadi: *bog'lovchi, zidlovchi, tuslovchi*.

2. Narsa, qurol, o'lchov birligi otlari yasovchi affikslar. Bu guruh ot yasovchilar, asosan, fe'lning o'zak-negiziga qo'shilib, ish - harakat bajarish uchun qo'llanadigan narsa, harakat, holat natijasi bo'lgan otlarni yasaydi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

-k (ik /-ak, -uk), -q (-iq, -oq): *taroq, to'siq, bo'lak, chaqiriq, yutuq, o'roq, yotoq*.

-gi\ -ki\ -qi\ -g'i\ -g'u: *supurgi, cholg'i, cholg'u, chopqi, achitqi, tomizg'i*.

-gich\ -kich\ -qich\ -g'ich: *o'lchagich, qirg'ich, qisqich, o'chirg'ich*.

-m, -im, -um: *to'plam, o'ram, terim, chiqim; yutum*.

-ma: *tugma, to'qima, qatlama, suzma, isitma, jamg'arma*.

-indi: *yuvindi, chiqindi*.

-qin, -qun, -g'un: *toshqin, to'lqin, uchqun, qirg'in*.

-indi: *cho'kindi, yuvindi, chiqindi, yig'indi*.

-in\ -un: *yog'in, yig'in, bo'g'in, tugun*.

-ch\ -inch: *sevinch, o'kinch, qo'rqinch*.

-ish: *qurilish, turlanish, kirish (muqaddima)*.

-uv\ -ov: *yozuv, kechuv, qistov, maqtov*.

3. O'rin-joy oti yasovchi affikslar. Asosan otning leksik ma'nosi-dan anglashilgan narsaning mavjud bo'lish o'rin-joyi bilan bog'liq otlar yasaydi:

-loq (-lov): *toshloq, qumloq, o'tloq, yaylov*.

-zor: *paxtazor, gulzor, lolazor, bedazor*.

-iston: *O'zbekiston, Guliston, qabriston*.

-qoq\ -g'oq: *botqoq*.

-xona: *oshxona, suratxona, muzxona*.

-goh: *manzilgoh, oromgoh, saylgoh*.

4. Mavhum ot yasovchi affikslar sifat, ravish, son, ot, olmosh va fe'lning o'zak-negiziga, ba'zan modal so'zlarga qo'shilgan holda mavhum tushunchalarni ifodolovchi otlar yasaladi:

-lik: *yaxshilik, tezlik, birlik, otalik, o'zlik, manmanlik, borliq, yo'qlik*.

-chilik: *pillachilik, paxtachilik*.

-garchilik: *xafagarchilik, loygarchilik*.

-izm: *realizm, chorizm, terorizm*.

-ch\ -inch: *sog'inch, quvonch, sevinch, o'kinch*.

-noma: *dalolatnoma, vasiyatnoma, tashakkurnoma*.

5. O'zbek adabiy tilida ba'zi taqlid so'zlardan ot yasovchi affikslar ham mavjudki, ular unumsiz so'z yasovchilar qatoriga kiradi:

- **ak\oq:** *qarsak, bizbizak, qaldiraq.*
- **ildoq:** *shaqildoq, chirildoq.*
- **a:** *sharshara, g'arg'ara.*
- **os:** *sharros, gulduros.*

2-§.Kompozitsiya usuli bilan ikki yoki undan ortiq soʻz shakllarining tilda mavjud boʻlgan qoliplar asosida tobelanishi orqali birikishi va bu sintaktik aloqaning hozirgi tilda kuchsizlanishi natijasida bir umumiy maʼnoga ega boʻlishi orqali qoʻshma ot yasaladi. Qoʻshma otlarni hosil qiluvchi qismlar oʻzaro quyidagi sintaktik munosabatlarga asoslanadi:

- 1) sifatlovchi+sifatlanmish: *oqsaqol, beshbarmoq, yangi yoʻl, qizilishton, itbaliq.*
- 2) qaratuvch+qaralmish: *bilaguzuk, bedapoya, belbogʻ, soʻz boshi, karvonboshi.*
- 3) toʻldiruvchi+toʻldirilmish: *muzyorar, otboqar, dunyoqarash, oʻrinbosar.*
- 4) ega+kesim: *roykeldi, goʻshtkuydi, kampiroʻldi.*
- 5) hol+hollanmish: *iskabtopar, olibsotar, ishlab chiqarish.*

Oʻzbek tilida tojikcha izofali birikmalar asosida yuzaga kelgan *gulbeor, gultojixoʻroz, guliqahqah* singari qoʻshma otlar ham mavjud boʻlib, ular doim qoʻshib yoziladi. Shuningdek, tilimizga rus tili orqali kirib kelgan *aeroport, antisiklon, aerovakzal* singari tarkibiy qisimli soʻz-lar ham borki, ularning qismlari oʻzbek tilida mustaqil ishlatilmasligi sababli qoʻshma ot hisoblanmaydi.

3-§.Semantik usul. Tilda mavjud boʻlgan koʻpgina soʻz va soʻz shakllari otlashgan shaklda ishlatilishi natijasida baʼzan otga koʻchadi. Ular tarkiban tub yoki yasama boʻlib, quyidagi soʻz turkumlaridan iborat boʻlishi mumkin :1) *usta, oqsaqol, boy, qahramon, boboy, momoy, xotin* kabi aslida sifat turkumiga mansub soʻzlar; 2) *oʻquvchi, yozuvchi, toʻquvchi, saylovchi, aniqlovchi, aniqlanmish* kabi aslida feʼlning sifatdosh shakllariga mansub soʻzlar; 3) *oʻqish, otish, kirish, chiqish, qurish, saylov, tergov* kabi aslida feʼlning harakat nomi shakliga mansub boʻlgan soʻzlar otga koʻchadi. Bundan tashqari baʼzi soʻzlarning juft va takror qoʻllanishi asosida ham ular otga xos maʼnoga ega boʻlishi mumkin: *qoʻydi-chiqdi, oldi-berdi, u-bu* kabilar shular jumlasidandir.

4-§.Abbreviatsiya usuli bilan qisqartma otlar hosil qilinadi. Qisqartma otlar nutqda ixchamlikka erishish maqsadida turgʻun soʻz birikmalarini quyidagicha qisqartirish orqali yasaladi:

1. Qisqartirilayotgan soʻzlarning birinchi tovushlaridan tarkib topadi: *BAM, BAR, BMT, GUM.*
2. Qisqartirilayotgan soʻzlarning bosh qismlaridan tarkib topadi: *Filfak, Unvermag, SamKochAvto.*
3. Birinchi soʻzning bosh qismi va keyingi soʻzlarning birinchi tovushlaridan: *Tosh MI, Sam DChTI, Sam DU.*
4. Birinchi soʻzning bosh qismi va keyingi soʻzni toʻliq olish orqali: *Medinstitut, dramteatr, avtoyoʻl.*

7.4. Sifat yasalishi

Sifatlar asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan yasaladi.

1-§.Affiksatsiya usuli. Soʻzning oʻzak yoki negiziga sifat yasovchi qoʻshimchalar qoʻshish orqali narsaning belgisini bildiradigan yangi soʻzlar yasash usulidir. Sifat yasovchi qoʻshimchalar oʻzakka qoʻshilib kelish oʻrniga koʻra ort va old yasovchilarga boʻlinadi. Bu yasovchilar koʻpincha ot yoki feʼl asosli oʻzak va negizlardan sifat yasaydi.

1. Otdan sifat yasovchi affikslar:

- **li:** ot asosdan anglashilgan narsaga egalik belgisini anglatadi: *multiqli, uchli, kuchli, sutli;* baʼzan bu affiks feʼlning harakat nomi shaklidan: *yeyishli, oʻtirishli* hamda sifatdosh shaklidan ham sifat yasaydi: *tushunarli, qiziqarli.*

- **siz:** asosdan anglashilgan narsaga ega emaslik belgisini anglatadi: *sutsiz, suvsiz, kuchsiz.*

be-: bu qoʻshimcha - siz affiksining sinonimidir: *beminnat, betinim, beparvo, begʻam.*

no-: ot va sifat turkumiga mansub soʻzlardan sifat yasaydi: *noumid, noiloj, nooʻrin, notoʻgʻri, nomunosib, nomaʻqul.*

- **chan:** asosdan anglashilgan xususiyatga moyillik belgisini ifodalovchi sifat yasaydi: *ishchan, uyatchan, sinovchan, taʻsirchan.*

- **chil:** asosdan anglashilgan narsa belgisini ifodalaydi: *dardchil, izchil, epchil.*

- **iy\viy:** asosdan anglashilgan narsaga oidlik, tegishlilik belgisiga ega sifat yasaydi: *tarbiyaviy, ommaviy, oilaviy, gʻoyaviy.* Mazkur affiks bilan birga arab tilidan kirib kelgan lugʻaviy, *maishiy,*

jinoiy, jiddiy, madaniy kabi soʻzlar oʻzbek tilida maʼnoli qismlarga ajralmaydi. Shu bois ular tub soʻz hisoblanadi.

- **gi, -ki, -qi:** asosdan anglashilgan narsaning payt va oʻringa koʻra belgisini ifodalaydi: *yozi, qishki, kechki, ichki, tashqi*.

- **simon:** asosdan anglashilgan narsaga oʻxshashlik belgisini ifodalaydi: *odamsimon, kumushsimon, tuxumsimon*.

- **shumul:** asosdan anglashilgan darajaga egalik belgisini anglatadi: *olamshumul, jahonshumul*.

- **dor:** asosdan anglashilgan narsaga egalik belgisini hosil qiladi: *mazmundor, boʻydor, unumdor, puldor, rangdor*.

- **mand:** asosdan anglashilgan narsaga egalik belgisini anglatadi: *davlatmand, orzumand, kasalmand*.

- **kor:** asosdan anglashilgan xususiyatga kuchli darajada egalik belgisini hosil qiladi: *fidokor, ehtiyotkor, isyonkor, omilkor, naqshinkor*.

- **i:** asosdan anglashilgan narsaning millat, joy yoki vaqtga oidligini bildiruvchi sifat yasaydi: *qozoqi, qishloqi, bahori*.

- **cha:** asosdan anglashilgan narsaning millat, joy yoki miqdorga oidligini bildiruvchi sifat yasaydi: *oʻzbekcha, fargʻonacha, otiqcha, erkakcha*.

- **parvar:** shaxsning asosdan anglashilgan narsani sevishi, unga sadoqati belgisini bildiruvchi sifat yasaydi: *xalqparvar, vatanparvar, adolatparvar*.

- **aki:** asosdan anglashilgan narsaning harakat usuliga koʻra belgisini ifodalaydi: *ogʻzaki, zoʻraki, xomaki, qalbaki*.

- **namo:** narsadan anglashilgan xususiyatga egalik belgisini ifodalaydi: *majnunamo, avliyonomo, darveshnamo*.

Bulardan tashqari **-kash** (*dilkash, hazilkash*), **-gar** (*ishvagar, sitamgar*), **-chil** (*dardchil, xalqchil*), **-don** (*gapdan, bilimdon*), **-msiq** (*qarimsiq*), **-m** (*qaram*), **-lom** (*sogʻlom*), **-qa** (*qisqa*), **-lik** (*koʻrpalik, koʻylaklik mato*), **-omuz** (*hazilomuz, ibratomuz*) kabi kam unum affikslar orqali ham sifat yasaladi.

2. Feʼldan sifat yasovchi affikslar:

-**choq\chaq\chiq.** Oʻzlik nisbatdagi feʼllarga qoʻshilib, harakat bajarishga moyillikning kuchliligini ifodalovchi sifat yasaydi: *maqtanchoq, tortinchoq, kuyinchak, erinchoq, sirpanchiq, qizgʻanchiq*.

-**gir\qir\gʻir\kir.** Feʼldan anglashilgan harakatning kuchliligini ifodalovchi sifat yasaydi: *topqir, uchqur, chopqir, olgʻir, sezgir, keskir*.

-**ma.** Narsaning feʼldan anglashilgan harakat vositasida yuzaga kelishini anglatuvchi sifat yasaydi: *qaynatma (shoʻrva), burma (koʻylak), koʻchma (maʼno), agʻdarma (etik)*.

-**k\q\iq\uk\uq\ak.** Harakatning natijasi boʻlgan holat belgisini ifodalovchi sifat yasaydi: *iliq, siniq, yigʻloq, chirik, oqsoq, yumshoq, boʻlak*.

-**ki\qi.** Feʼl va taqlid soʻzlardan sifat yasaydi: *sayroqi, buzuqi, yigʻloqi, jizzaki, jirtaki*.

-**kin\qin\gʻin.** Feʼl asosiga qoʻshilib, holat, xususiyat maʼnosidagi sifat yasaydi: *tushkun, joʻshqin, ozgʻin, turgʻun*.

-**mon.** Asosdan anglashilgan harakatni bajarish qobiliyati kuchli ekanligini anglatuvchi sifat yasaydi: *bilarmon, oʻlarmon, yeyarmon*.

-**agʻon.** Feʼldan anglashilgan harakatni bajarish qobiliyati kuchli ekanligini anglatuvchi sifat yasaydi: *topagʻon, bilagʻon, chopagʻon*.

-**mas.** Harakatning inkoriy belgisi boʻlgan sifat yasaydi: *yengilmas, oʻtmas, qoʻrqmas, ajralmas, qaytmas, buzilmas*.

-**ch.** faqat feʼldan sifat yasaydi: *jirkanch, tinch, shoshilinch, tiqilinch*.

- **qoq\gʻoq:** harakatni bajarishga moyilligi kuchli ekanligini anglatuvchi sifat yasaydi: *qochqoq, yopishqoq, urushqoq, tirishqoq*.

- **ildoq.** Taqlid soʻzlardan sifat yasaydi: *likildoq, shaqildoq*.

2-§. Kompozitsiya usuli. Turli turkumlarga oid soʻz shakllarining tilda mavjud boʻlgan sintaktik qoʻliqlar asosida qoʻshilishi orqali bitta belgi ifodalashga xoslangan yasama sifatlardir. Bu usul ham hozirgi oʻzbek tilidagi mahsuldor yasaliş usullaridan boʻlib, qismlarning sintaktik aloqasiga koʻra quyidagicha guruhlarni tashkil qiladi:

- 1) aniqlovchi-aniqlanmish: *olachipor, ochsariq, toʻq qizil, qiziqqon, ochkoʻz, kaltafahm;*
- 2) toʻldiruvchi-toʻldirilmish: *tinchliksevar, izquvar, muzyorar, ishbilarmon;*
- 3) hol-hollanmish: *ertapishar, tezoqar.*

Qo'shma sifatlar tarkibidagi qismlarning tub yoki yasama ekanligi bilan ham o'zaro farqlanadi. Masalan: 1) ikkala qismi ham tub so'zlardan: *xom semiz, kamgap, nimjon, ommabop, izquvar*; 2) tub va yasama so'zlardan tuziladi: *souqqon, tezoqar, erksevar, ishyoqmas*.

Bundan tashqari tilimizda qismlari qo'shma sifatlardek zich bog'lanib ketmagan *gapga usta, ko'zga yaqin, og'zi bo'sh, qo'li ochiq, bodom qovoq, katta og'iz* kabi birikmali **murakkab sifatlar** ham mavjud.

3-§. Semantik usul. Boshqa turkumga mansub so'zlarning ma'no o'zgarishi natijasida sifatga ko'chish hollari ham uchraydi. Sifatga ko'chish, ya'ni **adyektivatsiya hodisasi** quyidagi so'zlar asosida sodir bo'ladi: a) otning sifatga ko'chishi orqali: *tilla bola, asal qiz, oltin davr, kumush qish*; b) fe'lning sifatdosh shakllarining sifatga ko'chishi orqali: *kelishgan yigit, turar joy, oqar suv, kelasi yil, o'tgan zamon*; g) ravishning sifatga ko'chishi orqali: *o'zbekcha kitob, oqilona maslahat, tez odam*. Bundan tashqari so'zlarning ma'no o'zgarishi natijasida sifatga ko'chish hollari juft va takror qo'llanishi asosida ham yuz beradi: *oldi-qochdi gap, tolim-tolim yoki tol-tol soch, yo'l-yo'l ko'ylak*.

7.5. Fe'llarning yasalishi

Fe'llar, asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasaladi.

1-§. Affiksatsiya usuli. Bu usul bilan fe'l bo'lmagan so'zlarga maxsus yasovchi qo'shimchalar qo'shib fe'llar yasaladi. Fe'l yasovchi affikslar cheklangan bo'lishiga qaramay, ular vositasida yasalgan fe'llar

anchagina miqdorni tashkil etadi:

-la. Bu affiks quyidagi so'zlardan fe'l yasaydi: 1) otdan: *qatiqla, gulla, metrla*; 2) sifatdan: *oqla, yaxshila, tozala*; 3) olmoshlardan: *senla, sizla*; 4) ravishdan: *tezla, sekinla*; 5) taqlid so'zdan: *taqqilla, gursilla*; 6) undovlardan: *ohla, dodla*.

- **a.** Ot, sifat va taqlid so'zlardan: *sana, osha, ata (ot+a), yasha (yosh+a), qiyna, shildira, yaltira*.

- **y\ay.** Ot, sifat va ravishdan: *kuchay, qoray, toray, sarg'ay, pasay, susay, ko'pay, ozay*.

- **r\ar.** Faqat sifatlardan fe'l yasaydi: *qizar, oqar, ko'kar, eskir*.

- **ik\iq.** Ba'zi ot, sifat, son, ravish va undov so'zlardangina fe'l yasaydi: *yo'liq, zo'riq, birik, hayiq*.

- **ir\ur.** Ot va undov so'zlardan: *gapir, tupur*.

- **sira.** Ot va olmoshlardan yasaydi: *suvsira, qonsira, sensira, sizersira*.

- **i.** Ot va sifatdan fe'llar yasaydi: *changi, boyi, tinchi*.

- **illa.** Taqlid so'zlardan: *taqilla, shig'illa, miltilla*.

- **lan.** Ot, sifat va ikki sonidan yasaydi: *ovqatlan, jonlan, sergaklan, shodlan, ikkilan*.

- **lash.** ot, sifat va bir sonidan: *gaplash, birlash, qiyinlash, do'stlash*.

- **t\it.** Sifatdan kamsonli fe'l yasaydi: *to'lat, berkit*.

Shuningdek, fe'l yasovchi - **qir** undov so'zlardan: *hayqir*, - **sa**, - **ka** ba'zi otlardan: *suvsal, iska* fe'l yasaydi. Biroq fe'l yasovchi qo'shimchalar bilan fe'ldan fe'l yasalmaydi.

2-§. Kompozitsiya usuli. Qo'shma fe'llar komponentlarining qaysi turkumga oidligiga ko'ra ikki asosiy turga bo'linadi: 1) ot + fe'l shaklidagi qo'shma fe'llar; 2) fe'l + fe'l shaklidagi qo'shma fe'llar.

Birinci tipdagi fe'llarning asosiy qismlaridan biri sifatida *qilmoq, aylamoq, etmoq, bo'lmoq* so'zlari ishtirok etadi: *bayon qilmoq, kashf etmoq, kasal bo'lmoq* kabilar. Ular ko'pincha fe'l yasovchi affikslar bilan yasalgan fe'llarga ma'nodosh bo'ladi: *kasal bo'lmoq-kasallanmoq, hozir bo'lmoq-hozirlanmoq* kabi. Fe'l bo'lmagan so'zning *qilmoq, erimoq, aylamoq, bo'lmoq* fellaridan biri bilan birikishidan hamma vaqt ham qo'shma fe'llar hosil bo'lavermaydi. Masalan, *o'qituvchi edi, o'qituvchi bo'ldi* shaklidagi birikuv tarkibidagi fe'llar ot kesimga qo'shiladigan **bog'lamalardir**.

O'zbek tilida ikki fe'lning birikuvidan hosil bo'lgan qo'shma fe'llar uncha ko'p emas. Masalan, *olib kelmoq, sotib olmoq, terib bormoq* kabi qo'shma fe'llar shular jumlasidandir. Bu qo'shma fe'llarni *ko'rib qolmoq, o'qib chiqmoq, ishlay boshlamoq* singari ikkinchi qismi mustaqil ma'noga ega bo'lmagan **ko'makchi fe'lli birikmalardan** farqlash lozim.

7.6. Ravishlarning yasalishi

1-§. Affiksatsiya usuli. Bu usulga ko'ra, ot, sifat, son, olmosh va fe'lning sifatdosh, harakat nomi shakllariga maxsus ravish yasovchi qo'shimchalar qo'shish bilan ravishlar yasaladi. Ravishlar, asosan, quyidagi yasovchi qo'shimchalar vositasida yasaladi:

-cha: ot, sifat, olmosh, sifatdosh va ravishlardan ravish yasaydi: *inglizcha, vaqtincha, yaxshilikcha, yangicha, sench, shuncha, istagan-cha, yugurgancha, hozircha, butunicha, ko'pincha, keyincha*. Ravish yasovchi *-cha* affiksi to'g'ridan- to'g'ri o'zak-negizga qo'shilib kela olganidek, ba'zi so'z o'zgartuvchi va shakl yasovchilardan keyin qo'shilishi ham mumkin: *ista+gan+cha, butun+i+cha, o'z+i+cha, biz+ning+cha*.

-larcha affiksi yordamida yasalgan ravishlar ma'no tomonidan *-cha* affiksi bilan yasalgan ravishlardan deyarli farq qilmaydi. Biroq *-larcha* asosan, ot va sifatlardan ravish yasaydi: *o'rtoqlarcha, bolalarcha, vaxshiylarcha, aybdorlarcha, yovuzlarcha*. Bu affiks sifatga qo'shilgan-da belgi bildiruvchi so'z otga xos ma'noga ega bo'ladi: *telbalarcha, mardlarcha*.

-chasiga, ma'no jihatdan *-cha, -larcha* affikslariga nisbatan harakat belgisining to'liq o'xshashligini bildiradi va ot hamda ba'zi sifatlardan ravish yasaydi: *dehqonchasiga, qishloqchasiga, samarqandchasiga, ochiqchasiga, mardchasiga*.

-iga\ -siga: ot, sifat, olmosh, ravish va ravishdoshlardan ravish yasaydi: *qatorasiga, uzunasiga, tikkasiga, ko'tarasiga, ko'ndalangiga, shunaqasiga*.

-lab: ot, sifat, son kabi turkum so'zlardan ravish yasaydi: *oylab, bo'g'inlab, yaxshilab, ko'plab, bittalab, botmonlab*.

-ona: ba'zi bir ot, sifatlarga qo'shilib ravish yasaydi: *fidokorona, ojizona, mardona, xolisona, faqirona*.

-an: otlardan ravish yasaydi: *majburan, qisman, tamoman, tasodifan*.

-siz, be: ot va fe'lning harakat nomi shakllaridan ravish yasaydi: *to'xtovsiz, beto'xtov, ruxsatsiz, beruxsat, tinimsiz, betinim*. Bu affikslar *bevaqt, begumon* kabi o'zaklar asosida yasalganda ma'nodoshlikka ega bo'lmaydi.

Bulardan tashqari, **-n \ -in:** *ertan, kechin; -incha:* *ko'pincha; -*

ligicha: *tirikligicha, butunligicha; -lay \ -layin:* *butunlay, tiriklayin; -day (dek)qushday (uchmoq) toshday (irg'itmoq)* kabi yasovchi affikslar bilan ham ravishlar yasaladi.

2-§. Kompozitsiya usuli. Bu usul bilan turli turkumga mansub so'zlarning qo'shilishi yoki juftlanishi, takrorlanishi orqali ravishlar yasaladi. Qo'shma ravishlarning yasalishida quyidagi so'zlar faol ishtirok etadi: 1) *u, bu, shu, o'sha* kabi ko'rsatish olmoshlaridan so'ng o'rin-payt, chiqish kelishigidagi *yer, yoq, ora, o'rta* so'zlarini keltirish orqali: *u yerga, shu yerdan, o'sha yoqdan, bu orada, shu o'rada* kabi; 2) *bir* so'zining bosh yoki o'rin-payt, chiqish, jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanishi orqali: *bir oz, bir talay, bir vaqt, bir yo'la, bir onda, bir zumga, bir boshdan, bir chekkadan, bir talay* kabi; 3) *har* belgilash olmoshiga bosh va o'rin-payt, jo'nalish kelishigidagi so'zlarni qo'shish orqali: *har yoqqa, har yerda, har tomon, har onda, har lahzada, har qayerda, har safar* kabi.

Turli turkumlarga mansub so'zlarning juft va takror holda qo'llanishi asosida ham ravishlar yasaladi. Bunda quyidagi turkum so'zlarining juft va takror holda qo'llanishi kuzatiladi: 1) ot+ot: *qator-qator, yildan-yilga, tun-kun, navbatma-navbat, qadam-baqadam*; 2) sifat+sifat: *eson-omon, pishiq-pishiq, ochiqdan-ochiq, uzindan-uzoq, zo'r-bazo'r*; 3) fe'l+fe'l: *uzil-kesil, ag'dar-to'ntar, olmoq-solmoq, bilinar-bilinmas, qo'yarda-qo'ymay, turib-turib, ozib-yozib, qayta-qayta*; 4) ravish+ravish: *nari-beri, oldinma-keyin, birin-ketin, unda-bunda, hali-beri*; 5) olmosh+olmosh: *o'zidan-o'zi, o'z-o'zidan, o'z-o'zicha*; 6) aralash holda: *ochiq-oydin, to'la-to'kis, vaqt-bevaqt, chor-nochor*; 7) yordamchi so'zlar ishtirokida: *apil-tapil, taqa-taq, shartta-shartta*.

3-§. Semantik usul. Tilimizda ba'zi turkumga mansub so'zlar jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalarini olgan holda yoki hech qanday vositasiz ravishga ko'chishi mumkin. Xususan, kelishik affikslari vositasida quyidagi turkumga mansub so'zlar ravishga ko'chadi: 1) otlar jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalarini olgan holda: *oraga, orada, oradan, tubdan, tongdan, tongda, orqadan, orqaga, chetdan, chetga, chetda*; 2) sifatlar jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalarini olgan holda: *uzoqqa, uzoqdan, uzoqda, yaqinda, yaqindan, yaqinga, chindan, pastdan, quyiga, quyida, yolg'ondan*; 3) ko'rsatish olmoshlari o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalarini olgan holda ravishga ko'chadi: *unda- bunda, o'shanda, shundan, bundan*; 4) bo'lishsiz shaklidagi schifatdoshlar chiqish kelishigi qo'shimchasini olgan holda: *shoshmasdan, indamas-dan, charchamasdan, yiqilmasdan*; 5) bir soni jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalarini olgan holda: *birdan, birga, birda*. Bundan tashqari, *erta, indin, kecha, burun* kabi otlar; *yaqqol, tugal, bafurja, uzluksiz, to'xtovsiz* kabi sifatlar; *osha, o'ta, qo'sha, qayta* kabi ravishdoshlar; *shartta, tappa, chippa* kabi taqlid so'zlar hech qanday vositasiz tug'ridan-to'g'ri ravishga ko'chib yangi ma'noga ega bo'ladi.

ZARURIY ADABIYOTLAR

- 1.Ш. Шоабдуракмонов, М.Асљарова, А.Ќожиёв, И.Расулов, Х.ДониёровЌозиргиъзбекадабийтили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.
- 2.У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.РаќматуллаёвЌозиргиъзбекадабийтили. Т., «Њљитувчи» 1992.
- 3.М.Мирзаёв, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.
- 4.N.Mahmudov, A.Nurmonov,A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirza-ahmedov Ona tili. Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Т., «Ma'naviyat» 2005.

MA'RUZA

8.1. Grammatika

1-Ѓ. **Morfologiya-** yunoncha «shakl», «so'z» va «ta'limot» degan ma'noni anglatuvchi termin bo'lib, u grammatikaning (grammatika- yunoncha «yozuv san'ti» demakdir) muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Morfologiya so'z turkumlari, ularning grammatik ma'no-lari, kategoriyalari hamda so'z shakllari tizimsi haqidagi ta'limotdir. Demak, morfologiyada so'z grammatik birlik sifatida o'rganiladi. Tildagi har qanday grammatik birlik esa grammatik ma'no va shakl kasb etadi.

2-Ѓ. **So'zning grammatik ma'nosi.** Ma'lumki, so'z lug'aviy ma'nodan tashqari grammatik ma'noga ham ega bo'ladi. So'zning u yoki bu turkumga mansubligini ko'rsatib, uning ma'lum bir grammatik shaklga egaligini ifodalaydigan ma'no grammatik ma'no deyiladi. Masalan, *qalam, suv, tosh, uy* so'zlarining har biri uchun taalluqli bo'lgan lug'aviy ma'nodan tashqari, ular uchun umumiy bo'lgan ma'no, ya'ni ularning ot turkumiga mansubligi, narsalik tushunchasi, bosh kelishik va birlik shakldaligi kabilar mazkur so'zlarning grammatik ma'nosini tashkil qiladi. Demak, so'zning lug'aviy ma'nosi xususiy (ya'ni har bir so'zning o'zigagina xos bo'lgan ma'no), grammatik ma'nosi esa umumiydir.

3-Ѓ. **So'zning grammatik shakli.** So'zning nutq jarayonida muayyan grammatik ma'no ifodalovchi tarkibi uning grammatik shaklini tashkil etadi. Masalan, *gullar* so'zida undan anglashilgan lug'aviy ma'nodan tashqari mazkur narsaning ko'pligi ham anglashiladi. Ko'plik ma'nosi so'zning lug'aviy ma'nosiga qo'shiluvchi grammatik ma'no bo'lib, bu ma'no –lar shakl yasovchi affiksi orqali ifodalangan. So'zning grammatik shakli nol ko'rsatkichli va birdan ortiq shakl yasovchi affikslar ishtirokida ifodalanishi mumkin. Masalan: *talaba* so'zi birlik, bosh kelishik shaklida; talabalarimizning so'zi esa ko'plik, 1-shaxs egalik va qaratqich kelishigi shakllaridadir.

O'zbek tilida otning bosh kelishik va birlik shakli (kitob), fe'lning bo'lishli shakli (o'qi) hamda uchinchi shaxs, o'tgan zamonning –di affiksi orqali tuslanuvchi shakli (bordi), ba'zan buyruq-istak maylining ikkinchi shaxsi (tur, o'tir) nol ko'rsatkichli shakldir.

So'z shakli bevosita grammatik ma'no ifodalovchi shakl yasovchi vositalar bilan bog'liq bo'lib, mazkur vositalarning ishtirokiga ko'ra so'zning grammatik shakllarini yuzaga keltiruvchi quyidagi usullar farqlanadi: 1) **sintetik usul** maxsus grammatik shakl hosil qiluvchi affikslar vositasida yuzaga keluvchi so'z shakllarini o'zida umumlashtiradi. O'zbek tilida sintetik usul orqali o'zak yoki negiz+nol \ o'zak yoki negiz + sintaktik shakl yasovchi \ o'zak yoki negiz + lug'aviy shakl yasovchi \ o'zak yoki negiz + lug'aviy shakl yasovchi+ sintaktik shakl yasovchi kabi sodda va murakkab qoliplar asosida so'z shakllari hosil qilinadi. Masalan: *kitob+0, o'qi+0, ishla+di+k, bog'bon+lar+dan, o'qi+yap+man, uy+cha, katta+roq, tez+gina*. So'z shakli hosil qilishda ishtirok etuvchi asos (o'zak) qo'shma, juft so'z bo'lishi mumkin: *O'zbekiston Vazirlar Mahkama+si+ga, Kattaqo'rg'on+dan, ota-ona+lar+dan* ; 2) **analitik usul** mustaqil va yordamchi so'zlarni o'zaro biriktirish, juftlash, takrorlash orqali bir xil grammatik ma'no hosil qiluvchi so'z shakllarini o'zida umumlashtiradi. Bunda yordamchi so'z birikadigan mustaqil so'zning o'zi ham biror grammatik shaklga ega bo'ladi va ular birgalikda yaxlit bir so'z shaklini hosil qiladi: *do'st+im uchun, uka+im bilan, yoz+ib ko'r, bil+ib ol, ayt+a boshla, gapir+a ket, o'q+ib tashla*. Shuningdek, *ota-ona, eson-omon* kabi juft so'zlar, *ombor-ombor, yura-yura* kabi takroriy so'zlar ham umumlashtirish, ko'plik, takror kabi yaxlit grammatik ma'noga egaligi bilan ularning har biri alohida so'z shaklini tashkil etadi. So'zning grammatik shakliga xos bu kabi qismlar birligidan uning **morfologik tarkibivujudga** keladi. Masalan, yuqorida keltirilgan *ishladik* so'zining morfologik tarkibi *asos+ zamon shakli yasovchi affiks +tuslovchi affikslardan iborat: ishla+di+k*.

Soʻzning morfologik tarkini shakllantirishda asos boʻluvchi qism tub asosli yoki yasama asosli(negiz) boʻlishi mumkin: *bog'+lar+dan* - tub asosli, *bog'bon+lar+dan*-yasama asosli.

4-§. Grammatik kategoriya. Grammatik maʼno va ulaning ifodasi boʻlgan vositalar birligi grammatik kategoriya deyiladi. Muayyan grammatik kategoriya oʻzaro uzviy munosabatda boʻlgan ikki yoki undan ortiq grammatik maʼno va uni ifodalovchi grammatik shakllar (affikslar) tizmidan iborat boʻladi. Masalan, otlardagi kelishik kategoriyasi oltita kelishik maʼnosi va bu maʼnoni ifodalovchi affikslar tizimini, feʼllardagi shaxs-son kategoriyasi esa birlik va koʻplikdagi uchta grammatik shaxs maʼnosi va ularning ifodasi boʻlgan affikslar tizimini oʻzida birlashtirgan holda butunlik tashkil qiladi. Shuningdek, otlardagi son, egalik kategoriyasi, fellardagi zamon, nisbat, mayl, boʻlishli - boʻlishsizlik kategoriyalari ham ikki va undan ortiq umumiy va xususiylikka ega boʻlgan grammatik maʼno anglatuvchi shakl yasovchi affikslarlar tizimidan iborat.

Shuni ham qayd etish lozimki, baʼzi shakl yasovchi affikslar soʻzning lugʻaviy maʼno anglatuvchi qismiga qoʻshilib, ularni grammatik maʼno va vazifaga xoslangan shakllarini yuzaga keltiradi. Lekin bu grammatik maʼno va vazifalarni vujudga keltiruvchi shakl yasovchi affikslar oʻzining muayyan xususiy delgilarigagina egaligi tufayli boshqa shakl yasovchi affikslar bilan bir umumiy grammatik kategoriya hosil qila olmaydi. Shu bois soʻzning lugʻaviy maʼno ifodalovchi qismga qoʻshilib, ularni turli grammatik vazifalarga xoslovchi bunday shakl yasovchilar tilning nokategorial shakllarini tashkil etadi. Masalan, otlardagi kichraytirish, erkalash shakllari, feʼlning vazifadosh shakllari asosida ifodalangan grammatik maʼnolar faqat xususiy belgiga egaligi tufayli muayyan butunlik hosil qila olmaydigan **nokategorial shakllariga** mansubdir. Shunday qilib, til tizimidagi soʻzlarning grammatik maʼno ifodalovchi qismini tashkil etuvchi shakl yasovchi affikslar oʻzining xususiy va umumiy belgilariga koʻra ikki guruhga boʻlinadi: 1) kategorial shakl yasovchilar; 2) nokategorial shakl yasovchilar.

5-§. Soʻzlarning leksik va grammatik maʼno hamda vazifasini shakllantiruvchi qoʻshimchalarning bu kabi umumiy va xususiy belgilari affiksial morfemalarni tasniflashda oʻziga xos ahamiyat kasb etadi. Xususan, a) oʻzining xususiy va umumiy grammatik maʼnolariga koʻra muayyan kategoriyaga birlashuvchi shakl yasovchi affikslar soʻzlarning sintaktik munosabatini taʼminlashga xizmat qiladi. Masalan, otlardagi egalik, kelishik qoʻshimchalari, feʼllardagi shaxs-son qoʻshimchalari. Bunday kategorial shakl yasovchilar **sintaktik shakl yasovchilar** sifatida farqlanadi; b) oʻzining kategorial va nokategorial belgilari tufayli soʻzning lugʻaviy maʼnosiga taʼsir etish bilan bir qatorda ularning sintaktik munosabatga kirishuvida ixtirok etadigan shakl yasovchilar **lugʻaviy-sintaktik shakl yasovchilar** sifatida farq-lanadi. Masalan, feʼllardagi sifat-dosh, ravish-dosh, harakat nomiga xos affikslar shular jumlasidandir; v) soʻzning lugʻaviy maʼno tarkibiga qoʻshimcha maʼno orttirish uchun xizmat qiladigan shakl yasovchilar **lugʻaviy shakl yasovchilar** sifatida ajratiladi. Masalan, otlardagi son, sifatlardagi daraja, sonning maʼno turlarini hosil qiluvchi affikslar, feʼllardagi nisbat, boʻlishli-boʻlishsizlik shakllari shular jumlasidandir *(Qarang: N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahmedov Ona tili. Umumtaʼlim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. T., «Maʼnaviyat» 2005).

Affiksial morfemalarning soʻz yasashda ishtirok etuvchi turi oʻzi qoʻshiladigan (oʻzak) asosning bevosita lugʻaviy maʼnosiga dahldorligi bilan shakl yasashda ishtirok etadigan qoʻshimchalardan tubdan farqlanadi. Shu bois soʻz yasovchi affikslar soʻz shaklini oʻrganuvchi morfologiyada emas, balki soʻz yasash bahsida tahlil qilinadi.

8.2. Soʻz turkumlari tasnifi

Soʻzlarning lugʻaviy va grammatik maʼno jihatdan oʻxshashligiga koʻra ayrim leksik - grammatik guruhlariga ajratilish soʻz turkumlari deyiladi. Soʻzlarni turkumlarga ajratishda ularning grammatik maʼno-lari bilan bir qatorda, lugʻaviy maʼnosi ham asosiy belgilardan hisob-lanadi. Ham grammatik, ham leksik maʼnolarga ega boʻlib, gapda mustaqil sintaktik boʻlak sifatida ishtirok etadigan soʻzlar **mustaqil soʻzlar** deyiladi. Mustaqil soʻzlarga: ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish kiradi.

Shuni ham taʼkidlash joizki, tilimizdagi baʼzi mustaqil soʻzlar ham nutq jarayonida oʻzining mustaqil lugʻaviy maʼnosini yoʻqotib, grammatik maʼno ifodalashga xoslangan holda, yordamchi soʻz vazifasiga oʻtishi mumkin. Bu hodisa tilshunoslikda **grammatikalizatsiya** deb yuritiladi. Masalan: *koʻrib qolmoq, bilib olmoq, hafta ichi* kabi birikmalardagi *qol, ol, ich* soʻzlari oʻzining mustaqil lugʻaviy maʼnosini yoʻqotgan holda yordamchi soʻz sifatida qoʻllangan.

Mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmaydigan, gap bo'lagi vazifasini bajara olmaydigan, biroq so'z va gaplarni o'zaro bog'lash yoki ularga qo'shimcha ma'no nozikligi kiritish (yuklash) uchun xizmat qiladigan so'zlar **yordamchi so'zlar** deyiladi. Yordamchi so'zlar umumiy vazifalarga ko'ra uch turli bo'ladi: 1) ko'makchi; 2) bog'lovchi; 3) yuklama.

Undov, taqlid va modal so'zlar esa, yordamchi so'zlarning alohida guruhini tashkil etadi. Chunki undov va taqlid so'zlar gap bo'lagi sifatida ham, mustaqil so'z-gap sifatida ham qo'llanadi. Ayni paytda mustaqil so'zlarning yasashida ham ishtirok eta oladi. Biroq bu so'zlar harakat va hodisaning atamasi bo'la olmasligi, ya'ni lug'aviy ma'no ifoda eta olmasligi bilan yordamchi so'zlarga o'xshashdir. Shuning uchun ham undov, taqlid, modal so'zlarning har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan alohida - alohida turkumni tashkil etadi.

Ko'rinadiki, so'zlarni turkumlarga ajratishda, birinchidan, lug'aviy ma'no, ikkinchidan, morfologik shakl, uchinchidan, biror sintaktik vazifa bajarish xususiyati, to'rtinchidan, qo'llanish qurshovi (distributsiyasi) e'tiboridan kelib chiqiladi. Shunga ko'ra so'zlarning hozirgi o'zbek tilidagi turkumlari: 1) ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish kabi mustaqil so'zlar; 2) ko'makchi, bog'lovchi, yuklama kabi yordamchi so'zlar; 3) modal so'zlar, taqlid so'zlar, undov so'zlar kabi alohida yordamchi so'zlar guruhidan iborat.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Grammatikada nima o'rganiladi?
2. Grammatik ma'noni qanday tushunasiz?
3. Grammatik ma'no ifodalash vositalari xususida ma'lumot bering.
4. So'zning grammatik shakli va uni ifodalovchi vositalarning turlari xususida ma'lumot bering.
5. Grammatik kategoriya nima?
6. So'zning kategorial va nokategorial shakllari xususida malumot bering.
7. So'z turkumlari va ularni tasniflash tamoyillari haqida ngimalarni bilasiz?

ZARURIY ADABIYOTLAR

- 1.Ш. Шоабдураќмонов, М.Асльарова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.ДониёровЌозирѓинъзбекадабийтили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.
- 2.У. Турсунов, Ж. Мухторов, Ш. РаќматуллаевЌозирѓинъзбек адабийтили. Т., «Њљитувчи» 1992.
- 3.Њзбектилиграмматикаси. 1-том. Т., «Ган» 1975.
- 4.N.Mahmudov, A.Nurmonov,A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahme-dovOnatili. Umumta'limmaktablarining 7-sinfuchundarslik. Т., «Ma'naviyat» 2005

MA'RUZA

9.1.Ot so'z turkumi

1-§. Narsa-buyum, shaxslarning nomi, atamasi bo'lgan so'zlar turkumi ot deyiladi. Otlar kim? nima? qayer? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

Otlar egalik, kelishik kabi so'z o'zgartirish, turli ma'no va vazifa uchun qo'llanuvchi vazifadosh shakllarga hamda o'ziga xos so'z yasash tizimiga egaligi bilan ajralib turadi.

Otlarning muhim belgilaridan biri ularning sifat, son, olmosh, fe'l va ravish distributsiyasida kelishi, ya'ni ular bilan birika olishidir: *katta bino, ikkinchi kurs, barcha inson, kitob o'qimoq, ko'p odam.*

Ot gapning barcha gap bo'lagi vazifasida qo'llanishi mumkin. Otning bu kabi sintaktik vazifasi uning qanday grammatik shakldaligi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, otning bosh shakli, ya'ni bosh kelishik, ko'plik yoki birlik hamda egalik shakli gapda ega, Kesim kabi vazifada keladi: **O'zbekiston-mustaqil davlat. Millatim-o'zbek. O'zbekistonim-onajonim.**

Mustaqil so'zlar ot turkumiga munosabati nuqtai nazardan ikki guruhni tashkil etadi: 1) ot tipidagi so'zlar. Bu guruhga otlar kabi kim? nima? so'rog'iga javob bo'lib, otga xos grammatik shakllarda bevosita qo'llana oladigan olmoshlar (*men, sen, biz, har kim, nimadir*), jamlovchi sonning *-ov, -avlون* affiksli turi (*ikkov, ikkavlون*), fe'lning harakat nomi shakli (*o'qish, yozuv*) kiradi; 2) otlashuvchi so'zlar. Bu guruhga grammatik son, egalik, kelishik shakllaridan birida qo'llanilib,

muayyan matn doirasidagina ot vazifasida ishlatilishi mumkin bo'lgan sifat, son va ular o'rnida qo'llanadigan olmoshlar (*qanday, qancha, nechta*), ba'zi bir ravishlar, fe'lining sifatdosh shakli kiradi.

2-§. Otning ma'no guruhlari. Otlar ma'no jihatdan quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Atoqli otlar. Bir turdagi narsa yoki hodisalarning birini ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladigan otlar atoqli otlar deyiladi. Atoqli otlar shaxs ismlari, havonlarning atoqli nomlari, tashkilot va geografik makon nomlari, koinot jismlari nomlari, suv havzalari, tashkilot nomlari kabi guruhlar doirasida uchraydi: *Alisher, Ulug'bek, Zarafshon, Toshkent, Samarqand, Mars* kabi. Bunday atoqli otlar o'zaro tub va yasamali hamda tuzilishiga ko'ra farqlanishi mumkin. Masalan, *Lola, Go'zal, Amir, Gavhar Orol* kabi otlar sodda tub, *Ilonli, Do'stlik, Paxtakor* kabi atoqli otlar sodda yasama, *Ulug'bek, Alisher, Nurato, Nurobod, Qo'shrabot, Uchquduq* kabi atoqli otlar qo'shma otlardir. Atoqli otlarning asosiy qismini turdosh otlar tashkil qiladi. Biroq ular boshqa so'z turkumlari asosida ham yuzaga keladi. Masalan: *Asal, Quvonch, Anor* kabilar turdosh otdan, *O'lmas, Sotiboldi, Turdi, Tursun* kabilar esa fe'ldan, *Aziz, Botir, Shirin, Vali* kabilar sifatdan, *To'qsonboy, Oltibek* kabilar esa sonda, *Bultur, Avvalboy* kabilar esa ravishdan hosil bo'lgan atoqli otlardir.

Turli turkumga mansub bo'lgan so'zlarning atoqli ot sifatida qo'llanishi natijasida ular o'zining hususiy nominativ mohiyatidan chekingan holda, umumiy semantik ma'no tashuvchi lug'aviy birlikka aylanib qoladi. Masalan, *Uchquduq* mazkur joydagi uchta quduqni emas, balki umuman shahar tushunchasini anglatuvchi onomastik birlikdir.

2. Turdosh otlar bir jinsdagi otlarning umumiy nomini bildiruvchi otlardir. Masalan, *inson, daryo, shahar, kitob, daftar*. Turdosh otlar quyidagi ma'no guruhlariga mansubligi bilan o'zaro farqlanadi:

3. Aniq otlar bevosita narsa-buyum va shaxs, jon-zot anglatadigan otlardir. Aniq otlar bevosita sanash va ko'rish mumkin bo'lgan otlar hisoblanadi. Masalan: *kitob, talaba, daraxt, qush*.

4. Mavhum otlar his qilish, sezish mumkin bo'lgan otlardir. Ular ham ko'plik affiksleri bilan qo'llanmaydigan otlar bo'lib, ularga ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda turlicha ma'no bo'yog'i yuzaga keladi. Masalan: *sevgi, sezgi, qayg'u, alam, qadr, oriyat*.

5. Jamlovchi va yakka otlar. Bir turdagi narsaning o'zini ifodalaydigan otlar yakka otlar hisoblanadi: *kitob, gul, daraxt* kabi. Birlik shaklida bo'lib, bir xil turdagi narsaning to'dasi, jamini ifodalaydigan otlar jamlovchi otlardir: *xalq, armiya, ko'pchilik, pada, jamoa, o'rmon kabilar*.

6. Sanaladigan otlar, sanalmaydigan otlar. Sanaladigan otlar, asosan, aniq otlardan tashkil topadi: *daraxt, kitob, qalam*. Sanalmaydigan otlar modda otlari, og'irlik, suyug'lik o'lchamiga xos otlar va atoqli otlardan tashkil topadi: *tuproq, qum, havo, shakar, tuz, yog', guruch*, kabilar.

7. Bundan tashqari, tabiatan yakka bo'ladigan va juft holda uchraydigan otlar ham mavjud bo'lib, ular ham otning alohida ma'no turini tashkil qiladi. Masalan: *yurak, quyosh, oy, ko'z, qosh, oyoq* kabilar shular jumlasidandir.

Shuningdek, otlar kim? so'rog'i asosida shaxs hamda nima? so'rog'i asosida narsa otlariga ham ajratiladi. Otlarning bunday tasniflanishi o'zbek tilining, shu jumladan, boshqa turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatini belgilaydi. Ayni paytda bu tasnif ularning turli grammatik jarayonda ishtirokida ham o'z aksini topadi. Xususan, shaxs otlari to'liq tuslovchi affiksleri qabul qilgan holda qo'llana oladi: *o'quvchiman, o'quvchisan, o'quvchimiz, o'quvchisiz*. Biroq, narsa otlari (majoziy ma'nosini e'tiborga olmaganda) faqat uchinchi shaxs ma'nosidagina ishlatilishi mumkin.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, atoqli va turdosh otlar o'zaro ma'no jihatdangina emas, balki ba'zi grammatik xususiyatlariga ko'ra ham farqlanadi. Masalan, atoqli otlar faqat birlikda qo'llanadi. Ko'plikda qo'llanganda, ular grammatik ko'plik emas, boshqa ma'no bo'yoqlarga ega bo'ladi. Shuningdek, atoqli otlar turdosh otlarga va aksincha, turdosh otlar atoqli otlarga o'tib turadi. Masalan: *Lola*-atoqli ot, ayni paytda, *lola*-tog'da o'sadigan gul ma'nosida turdosh otdir. *dizel, amper, rentgen, bitner* kabi otlar esa atoqli ot asosida shakllangan turdosh otlardir. Atoqli otlarning turdosh otga aylanishida *-lik* qo'shimchasidan ham foydalaniladi: *kattaqo'rg'onlik, toshkentlik, andijonlik* kabi.

9.2. Otning grammatik kategoriyalari

Ot turkumi uch xil grammatik kategoriyaga ega: 1) son kategoriyasi; 2) egalik kategoriyasi; 3) kelishik kategoriyasi.

Otlar nutqda doimo grammatik son va kelishik kategoriyasida bo'ladi. Masalan, *kitob* - birlik sonda va bosh kelishikdagi ot. Egalik kategoriyasi esa otning grammatik shakllanishida har doim ham ishlatilmaydi.

1-§. Son kategoriyasi. Otlarning birlik va ko'plik shakllari va shu shakllarni ifodalovchi vositalar son kategoriyasini tashkil etadi.

Birlikdagi otlar bir jinsdagi narsalarning bittasini anglatadi va ular grammatik son ko'rsatgichga ega bo'lmaydi. Masalan: *kitob, olma, qalam* kabi. Birlik sondagi otlar egalik (kitobim, kitobimiz), kelishik (kitobdan, kitobning) kategoriyasiga xos qo'shimchalar bilan qo'llanganda ham o'z grammatik mohiyatini yo'qotmaydi, ya'ni birlik hisoblanaveradi.

Otlarning ko'plik shakli maxsus grammatik vosita - lar orqali ifodalanadi va bir turdagi narsaning noaniq miqdorini bildiradi. Grammatik ko'plik hosil qiluvchi -lar otlardagi lug'aviy shakl yasovchi affiks hisoblanadi. Grammatik son ma'nosini ifodalashning bu usuli **morfologik usul** deb yuritiladi. Masalan: *kitob - kitoblar, qalam - qalamlar*. Otlarning birlik va ko'plik shaklda ishlatilishi, asosan, sanaladigan va aniq turdosh otlarga xosdir. Biroq juft turdosh otlarning son kategoriyasi bilan qo'llanishida o'ziga xosliklar mavjud. Masalan, *kuch-qudrat, savlat-salobat, mehr-muhabbat, vaqt-soat* kabi otlar birlik shaklda ishlatiladigan otlardir. Juft turdosh otlarning *yigit-qiz, qiz-juvon, o'g'il-qiz* kabi turlari ko'plikda qo'llaniladigan otlardir. *Ko'rpa-to'shak, qand-qurs, fikr-mulohaza, ota-ona, oshiq-ma'shuq, oshna-og'ayni* kabi otlar esa grammatik sonning har ikki shaklida ishlatilishi mumkin.

2-§. O'zek tilida faqat birlikda ishlatiladigan otlar ham mavjud bo'lib, ularga mavhum otlar, donalab sanalmaydigan otlar, asli o'zi juft, yakka holda uchraydigan otlar, atoqli otlar, jamlovchi(*xalq, o'rmon*) va jamlik (*soch, kiprik*) otlari kiradi. Shuningdek, ma'lum soha, kasb-hunar otlari (*matematika, adabiyot, dehqonchilik, o'qituvchilik*) ham ko'plikda qo'llanmaydi. Bunday otlarga -lar affiksi qo'shilganda ko'plikdan boshqa ma'no ifodalanadi. Bu ma'no otlarga xos **modal ma'no** deb yuritiladi. Grammatik son affiksi asosida ifodalangan modal ma'nolar quyidagilardan iborat:

1. Atoqli otlarga -lar qo'shilganda sulola, avlod, oila, guruh, jamlik ma'nosi ifodalanadi: *Temuriylar, Boburiylar sulolasi, Salimovlar, Akramovlar oilasi, Halimalar (kelishdi), Majnun Farhodlarga arkon bo'lgan Sharq*. Atoqli otlarning bir turi bo'lgan geografik nomlarga qo'shilganda esa, shu joy anglatgan hududning barcha qismi anglashiladi: *Samarqandlarni aylanmoq, Toshkentlarni tomosha qilmoq kabi*.

2. Mavhum otlarga -lar affiksi qo'shilganda ma'no kuchaytiriladi: *uyqularim qochib ketdi, ko'ngillarim ozdi, hayollarim to'zg'idi* kabi. Xuddi shunday modal ma'no asli o'zi bitta yoki juft holda bo'ladigan otlarga hamda jamlik va yakka tushunchalarni ifodalovchi otlarga -lar qo'shilganda ham ifodalanadi: *ko'zlarim achishdi, qo'llari toldi, yuraklar orziqdi, sochlar to'zg'idi, kipriklar namlandi*.

3. Donalab sanalmaydigan otlarga -lar qo'shilganda tur, nav ma'nosi anglashiladi: *unlar (1,2-nav), yog'lar (paxta yog'i, sariyog', zig'ir yog'i), qumlar (qora, sariq)*.

4. Qarindoshlik, yaqinlik ko'rsatuvchi otlarga egalik qo'shimchasidan keyin -lar affiksi qo'shilganda hurmat ma'nosi ifodalanadi: *bobomlar, akamlar, amakimlar* kabi. Agar -lar affiksi egalik ko'rsatkichidan avval qo'shilsa bunday otlar ko'plik, shuningdek, boshqa modal ma'nolarga ega bo'lishi ham mumkin. Qiyoslang: *akamlar-akalarim, amakinglar-makilarim, otamlar-otalarim*. Shuningdek, hurmat ma'nosida ishlatilgan otlar bilan qaratqich kelishigi vositasida birikkan ba'zi narsa-buyum otlariga egalik qo'shimchasidan avval -lar affiksi qo'shilganda ham hurmat ma'nosi anglashiladi: *Bobomlarning sovg'alari, akamlarning ko'ylaklari, amakimlarning uylari*.

5. Shaxs otlariga (shuningdek, olmoshlarga) -lar qo'shilganda, ba'zan piching, kesatqich ma'nosi ifodalanadi: *Tojixon o'zlaridan ibrat olsa, kamina kuyovlaridan ibrat olsam, turmushimiz yaxshi bo'lib ketsa, ajab emas. (A. Qahhor)*

3-§. Narsaning birdan ortiqlik tushunchasi morfologik usuldan tashqari quyidagi unsurlar bilan ham ifodalanishi mumkin: **1)leksik-semantik usul**. Grammatik jihatdan birlikda bo'lib, mazmunan ko'plik anglatuvchi jamlovchi otlar orqali: *xalq, armiya, to'da, poda*; **2) leksik-sintaktik usul**. Son va ot turkumiga oid so'zlarni biriktirish hamda takroriy otlar orqali: *o'nta kitob, uch o'rtoq, beshta daraxt, dasta - dasta gul, qop - qop un, ombor-ombor g'alla* kabilar. Narsaning birdan ortiqligini qayd etilgan vositalar yordamida ifodalash mumkin bo'lsa-da, otning morfologik ko'pligi birgina -lar affiksi orqali shakllanadi. Unga (opozitiv) qarama-qarshi bo'lgan grammatik shakl esa birlik hisoblanadi.

4-§. Otdan boshqa so'zlarda son. Grammatik son kategoriyasi otdan boshqa so'z turkumlarga ham xos bo'lib, ular ham birlik va ko'plikda ishlatilishiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Ayni paytda son kategoriyasi bilan qo'llanadigan so'zlar ot o'rnida ishlatilishi va otlashishi jihatidan ikki guruhni tashkil qiladi.

1. Bevosita ot o'rnida qo'llaniladigan ot tipli (bunday so'zlar ism guruhi deb nomlanib, ularga mustaqil so'zlardan ot, sifat, son, olmosh kabilar va fe'ning harakat noni shakli kiritiladi) so'zlarning birlik va ko'plikda ishlatilishi quyidagicha o'ziga xos belgilarga ega. Xususan, ism guruhiga mansub *Men, hech kim, hech nima* va *o'z* olmoshlari har doim birlikda ishlatiladi. Fe'ning harakat nomi shakllari ham, asosan, birlikda ishlatiladigan so'zlardandir. Olmoshning boshqa turlari birlik va ko'plikda ishlatilishi mumkin: *Sen-senlar, u-ular, biz-bizlar, siz-sizlar, kim-kimlar, har nima-har nimalar* kabi. Bu olmoshlardan ba'zilariga –lar affiksi qo'shilganda ular turli ma'no nozikliklarga ega bo'ladi: *Sen* olmoshiga –lar qo'shilganda tinglovchi va boshqalarga murojaat yoki tinglovchini kamsitish, mensimaslik ma'nosi yuzaga keladi: *Senlarga gapirayapman!* O'zlik olmoshiga –lar qo'shilganda esa piching, kesatiq ma'nosi anglashiladi: *O'zlari qadam ranjida qilibdilar-da.*

2. Ism guruhiga mansub sifat, sifat o'rnida ishlatiladigan olmoshlar, ba'zi ravishlar va fe'ning sifat-dosh shakli kabi so'zlarga –lar affiksi qo'shilganda otlashish asosida grammatik son tushunchasi yuzaga keladi: *yaxshilar, kattalar, kichiklar, o'shalar, shular, avvallari, ilgirilar, ko'plar, o'qiganlar, boradiganlar* kabi. Miqdor sonlarga –lar qo'shilgan-da taxmin-chama ma'nosi hosil bo'ladi: *Soat ikkilarda uchrashamiz.*

Ko'plik affiksi fe'llarga qo'shilganda birgalik nisbati hosil qiluvchi –sh\–ish affiksi bilan **sinonim bo'ladi**: *bordilar-borishdi, o'qidilar-o'qishdi.*

9.3. Egalik kategoriyasi

1-§. Muayyan narsaning uch shaxsdan biriga taalluqli ekanligini anglatuvchi umumiy ma'nolar va ularni ifodalovchi shakllar tizimi egalik kategoriyasi deyiladi. Tegishlilik, egalik ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladigan affikslarni esa egalik affikslari deymiz. Egalik affikslari grammatik shaxs ma'nosi bilan birga son ma'nosini ham ifodalaydi. Masalan: *kitob+im, kitob+ing, kitob+i, kitob+imiz, kitob+ingiz, kitob+i* so'zlaridagi –im,- ing,-i,-imiz,-ingiz,-i affikslari o'zakdan anglashilgan narsaning 1,2,3-shaxsga, ya'ni **so'zlovchi, tinglovchi va o'zgaga** tegishli ekanini ifodalash bilan bir qatorda, mazkur narsaning bitta yoki bir necha shaxsga qarashlilikini ham bildiradi. Demak, egalik affiksidan anglashilgan birlik va ko'plik tushunchasi narsaga emas, balki so'zlovchi, tinglovchi, o'zga kabi grammatik shaxslarga dahldor bo'ladi.

Egalik affikslari unli va undosh bilan tugagan so'z va so'z shakllariga qo'shib kelishiga ko'ra ikki xil variantga ega bo'ladi:

Shaxslar	Bir shaxsga tegishli		Ko'p shaxsga egishli	
	Unlidan so'ng	Undoshdan so'ng	Unlidan so'ng	Undoshdan so'ng
1- shaxs (so'zlovchi)	olma+m	kitob+im	olma+miz	kitob+im
2- shaxs (tinglovchi)	olma+ng	kitob+ing	olma+ngiz	kitob+ing
3- shaxs (o'zga)	olma+si	kitob+i	olma+si	kitob+i

Egalik affikslar ot va otdan boshqa so'zlar bilan qo'llanganda quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

1. O'zakka egalik qo'shimchalari qo'shish bilan tovush tushishi, orttirilishi yoki o'zgarishi mumkin: *og'iz+im=og'zim, bo'yin+im=bo'ynim, obro'-obro'+y+im, parvo+y+im, o'rtoq+im-o'rtog'im, eshik+im-eshigim. Ba'zi so'zlarga egalik affiksi qo'shaloq qo'shiladi: bun+i+si, qay+si+si, singl+i+si*

2. Egalik affiksining 1,2- shaxsi asosdan anglashilgan narsa va belgini faqat kishilarga nisbatlaydi. 3-shaxs orqali esa asosdan anglashilgan narsa va belgi kishilardan boshqa narsalarga ham nisbatlanadi: *Mening ko'ylagim, sening ko'ylaging, uning ko'ylagi, dalaning havosi, qushlar ovozi kabi.*

3. Egalik qo'shimchalari otdan boshqa so'zlarga qo'shib keladi: *o'qishing, hammang, qahramonim, qanaqasi, o'qiganim, oqi, qorasi kabi. Barchasi, beshovi* kabi so'zlar tarkibida ular betaraf xususiyatga ega bo'ladi. Kishilik olmoshlari esa egalik qo'shimchasini qabul qilmaydi.

4. Egalik qo'shimchalari o'zi qo'shilgan so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishida ishlatiladi. Bu vaqtda egalik qo'shimchasi qo'shilgan so'z qaratqich kelishigi bilan aloqaga kirishadi. Biroq, egalik affiksi o'zi qo'shib kelgan so'zning sintaktik vazifasini ko'rsatmaydi: *mening kitobim,*

sening kitobing kabi. Agar qaratqich kelishigidagi soʻz koʻplikdagi kishilik olmoshi bilan ifodalansa, qaralmishda egalik affiksi qoʻllanmasligi ham mumkin: *bizning xonadon, bizning oila* kabi.

5. Egalik affiksini olgan ot yoki otlashgan soʻz baʼzan chiqish kelishigidagi soʻz bilan ham bogʻlanishi mumkin. Bunda egalik shaklidagi soʻz koʻpincha otlashgan soʻzlardan boʻladi: *tanishlardan bittasi, Mehmonlardan kattasi*.

6. Egalik affiksi bosh kelishikdagi soʻz bilan birikib, izohlovchi-izohlanmishli birikma hosil qilishi mumkin: *Zarafshon daryo+si, chet tillar institut+i, sut kombinat+ii*.

7. Odatda, ot va otdan boshqa soʻzlarga avval koʻplik affiksi, keyin egalik affiksi qoʻshiladi. Egalik affiksidan soʻng kelishik affiksi qoʻshilishi mumkin: *kitob+lar+im+dan, yaxshi+lar+i+ga*. Egalik affikslarini olgan qarindoshlik, yaqinlik maʼnosidagi otlar hurmat maʼnosini ifodalaganda esa, oʻzakka avval egalik keyin koʻplik affiksi qoʻshiladi: *dada+m+lar, uka+m+lar* kabi.

8. Egalik affikslari baʼzi soʻzlar tarkibida grammatik maʼnosini yoʻqotib, oʻzi qoʻshilgan soʻz bilan birga boshqa turkumga koʻchishi mumkin: *ertasi, kechasi (ravish) chamasi, yaxshisi (modal soʻz)*.

2-§. Egalik affikslarining omonimiyasi va sinonimiyasi. Egalik kategoriyasiga xos 1, 2-shaxs affikslari soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartuvchi baʼzi qoʻshimchalar bilan shakldoshlik hosil qiladi: a) egalik va ot yasovchi qoʻshimchalar: *bola+m, olma+m || chida+m, toʻpla+m*; b) egalik va tuslovchilarning 1-shaxsi va ot yasochi qoʻshimchalar: *ota+m, aka+m || keldi+m, yozdi+m || toʻpla+m, bogʻla+m*; v) egalik va tuslovchilarning 2-shaxsi hamda ot yasovchi qoʻshimchalar: *ona+ng, kitob+ing || oʻqi+ng, yoz+ing || yiri+ng*; g) egalik affiksining 2-shaxs birligi va qaratqich kelishigining men, sen olmoshlariga qoʻshiladigan –ing shakli oʻzaro omonim boʻladi: *kitob+ing || men+ing, sen+ing*.

Egalik yoki –niki affiksi qoʻshilib kelgan soʻz ot kesim vazifasida ishlatilganda sinonimik munosabatda boʻlishi mumkin: *Bu- mening kitobim || bu kitob- meniki*. Biroq bunday holda egalik affikslari oʻzi qoʻshilib kelgan otning shaxs va sonini koʻrsata olish xususiyati bilan qarashlilik shaklidan farqlanadi.

9.4. Kelishik kategoriyasi

Otning boshqa soʻzlar bilan sintaktik munosabatini koʻrsatuvchi maʼnolar va shu maʼnoni ifadolovchi shakllar tizimi kelishik kategoriyasi deb aytiladi. Otning kelishik qoʻshimchasini olib oʻzgarishi **turlanish** deyiladi. Kelishik affikslari esa **turlovchi** affikslardir. Turlovchilar affiksial morfemalarning soʻz oʻzgartuvchi (sintaktik shakl yasovchi) turiga mansubdir. Shu jihatdan qaralganda, kelishiklar oʻzak yoki negizning morfemik tarkibidagi grammatik jarayonning tugallovchi shakli hisoblanadi. Shu bois kelishik kategoriyasi oʻzi birikkan asosni nutqqa oʻtkazuvchi, uni nutqiy jarayonga xoslovchi til birligini taqozo etadi.

Kelishik kategoriyasi, asosan, ot turkumiga xos boʻlib, ular ot tipli soʻzlar, yaʼni olmosh, harakat nomi, jamlovchi sonning baʼzi koʻrinishlariga ham bevosita qoʻshila oladi: *Menga, sendan, kimni, nimani, barchaga, oʻqishga, beshovimizga* kabi.

Kelishik affikslari sifat, son va ular oʻrnida ishlatiladigan olmoshlar, feʼlning sifatdash shakli, baʼzi alohida yordamchi soʻzlar guruhiga qoʻshilganda, ularni otlashtiradi. Boshqacha aytganda, kelishiklar otlashadigan soʻzlar bilan faqat sintaktik vazifa talabiga koʻra birikadi: *Yaxshidanot qoladi, yomondan dod. (Maqol) Birni kessang oʻnni ek. (Maqol) Oʻqigan oʻqdan oʻzar. (Maqol) Mana shunda gap koʻp. Aravaning gʻichir-gʻichiridan choʻchidi*.

Kelishiklar belgili va belgisiz holda, yaʼni turlovchi affikslar bilan yoki turlovchi affikslarsiz ishlatiladi. Belgili ishlatilish barcha kelishiklarga xos hodisadir. Belgisizlik esa quyidagi kelishiklarda uchraydi: a) qaratqich kelishigi belgisiz qoʻllaniladi: *choʻl bagʻri, maktab bogʻi*; b) tushum kelishigi belgisiz qoʻllaniladi: *ariq qazimoq, koʻchat oʻtqazmoq* kabi.

Oʻzbek tilida oltita kelishik mavjud boʻlib, ularning har biri oʻz shakli va maʼnosi hamda sintaktik vazifasiga ega. Ular oʻzi birikadigan boshqa soʻzlar bilan quyidagicha munosabatda boʻladi: 1) qaratqich kelishigi ot bilan otning grammatik aloqaga kiritadi va moslashuvli birikma hosil qiladi: *kitobning varagʻi, odamning gavdasi*; 2) tushum, joʻnalishi, oʻrin, chiqish kelishiklari ot bilan feʼlni oʻzaro bogʻlaydi va boshqaruvli birikma hosil qiladi: *kitobni oʻqidi, kitobda koʻrdim, kitobga qaradi, kitobdan oldim* kabi.

Makon va zamon kelishiklari nomi bilan yuritiluvchi joʻnalish, oʻrin va chiqish kelishiklari baʼzan feʼldan boshqa soʻzlar bilan ham birika oladi: *otdan baland, itdan past, uyat oʻlimdan qattiq, xalqimga aziz*.

Kelishiklar	Kelishik affiksi	So‘roqlari	Gapdagi vazifasi
bosh kelishik	-	kim? nima? qayer?	ega, kesim, sifatlovchi, undalma, atov gap
qaratqich klishigi	-ning	kimning? nimaning? qayerning?	qaratqich aniqlovchi
tushum kelishigi	-ni	kimni? nimani? qayerni?	vositasiz to‘ldiruvchi
jo‘nalish kelishigi	-ga	kimga? nimaga? qayerga?	vasitali to‘ldiruvchi, o‘rin, payt, sabab holi
o‘rin-payt kelishigi	-da	kimda? nimada? qayerda?	vositali to‘ldiruvchi, o‘rin, payt, sabab holi
chiqish kelishigi	-dan	kimdan? nimadan? qayerdan?	vositali to‘ldiruvchi, o‘rin, payt, sabab holi

1-§. Bosh kelishik. Bosh kelishik boshqa kelishiklarga zid holda ko‘rsatkichsizdir. Bu kelishikdagi so‘zlar **kim? nima? qayer?** kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘ladi. Bosh kelishik otning bosn shakli bo‘lib, u egalik, ko‘plik qo‘shimchalari bilan qo‘llanganda ham o‘z mohiyatini yo‘qotmaydi: *kitob, kitoblar, kitobim*. Bosh kelishikdagi so‘z boshqa so‘zlar bilan quyidagicha ikki turdagi munosabatga kirishadi:

a) mikrosintagmatik munosabatli barqaror birikmalar hosil qilishda ishtirok etadi:

1. Qo‘shma so‘zlar yasashida ularning tarkibiy qismi sifatida ishtirok etib, tobe munosabatli mikrosintagmatik butunlik hosil qiladi: *toshko‘mir, oshqozon, jigar rang, kul rang, tamom bo‘lmoq, hayron bo‘lmoq, qaror qilmoq, va‘da bermoq*.

2. Bosh kelishikdagi ot takroriy (teng munosabatli mikrosintagmatik aloqada) qo‘llanib, o‘z lug‘aviy ma‘nosidan tashqari miqdoriy ortiqlik, kuchaytirish kabi qo‘shimcha ma‘no bo‘yoqlariga ega bo‘ladi: **ombor-omor g‘alla, guruh-guruh odam, quchoq-quchoq gul**.

b) makrosintagmatik munosabatni shakllantirishda ishtirok etadi

1. Gapda ega vazifasini bajaradi: **Oldin o‘tda, odam mehnatda bilinadi. Toshkent-do‘stlik shahri.**

2. Kesim yoki uning ot qismi vazifasini bajaradi: **Mustaqillik-buyuk ne‘mat. Hunarlining qo‘ligul. Anvarning akasi fermer ekan.**

3. Izohlovchi vazifasini bajaradi: **Majlisda professor Mamatov nutq so‘zladi.**

4. Sifatlovchi vazifasida qo‘llaniladi: **Asfalt yo‘ldan mashinalar g‘iz-g‘iz o‘tib turar edi.**

5. Bosh kelishikdagi otlar bilan, uchun, uzra, haqida, to‘g‘risida ko‘makchilari bilan birgalikda vositali to‘ldiruvchi vazifasida keladi: **Ona o‘g‘ilchasini oq choyshab bilan o‘radi.**

6. Payt bildiruvchi otlar bilan birikib, hol vazifasida kelishi mumkin: **Shu kuni Odilbek mehmon kutmoqda edi.**

7. Bosh kelishikdagi ot yakka yoki birikmali holda atov gap vazifasini bajaradi: **Kuz. Izg‘irin shabada hushtak chalib turibdi**

8. Undalma vazifasini bajaradi: **Chimxo‘rsan-da, qizim, shu ham osh yeyishmi? (A.Qod.)**

2-§. Qaratqich kelishigi. Narsaning shu kelishikdagi otdan angla-shilgan boshqa narsaga qarashli ekanini bildiradi va kimning? Nima-ning? qayerning? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Qaratqich kelishi-gining asosiy morfologik ko‘rsatkichi **-ning**: *ishning samarasi, uyning jihozi, dalaning havosi*. She‘riyatda **-n, -im** shaklida ham ishlatiladi: *Har bolam ufurgan nafasin atri-she‘rimning eng yetuk, eng yaxshi satri (G‘.G‘).* *O‘zbekiston-vatanim manim (A.O.).* Men, sen kabi kishilik olmoshlaridan keyin **-ing** tarzida qo‘shiladi: *Men+ing, sen+ing*.

Qarluq lahjasiga kiruvchi markaziy shahar shevalarida, so‘zlashuv nutqida **-ni** shaklida ham ishlatiladi va tushum kelishigi bilan shakldoshlikka ega bo‘ladi: *Yomoni bir qilg‘i ortiq.*

Qaratqich kelishigidagi so‘z ko‘pincha egalik affiksini olgan ot bilan birikadi. Bunda qaratqich kelishigidagi so‘z **qaratqich**, egalik affiksini olgan ot esa **qaralmish** deb nomlanadi.

Qaratqich kelishigi belgili va belgisiz ishlatiladi. U belgili qo‘llan-ganda qarashlilik ma‘nosi ta‘kidlanib, aniq anglashilib turadi: *daraxt-ning ildizi, Dehqonlarning hayoti*. Belgisiz qo‘llanganda esa qaratqich va qaralmish asosida anglashilgan qarashlilik ma‘nosi umumiy, mav-hum bo‘ladi. Bunda so‘zning qaratqich kelishigida ekanligi qaralmish-dagi egalik affiksi orqali anglashilib turadi: *daraxt ildizi, dehqonlar hayoti*. Ba‘zan qaratqich ham, qaralmish ham belgisiz qo‘llanilib, so‘zlar

o'rtasidagi sintaktik aloqa mazmun orqali anglashiladi: *O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim, Yo rab, netayin, ne yuz qaroliq bo'ldi (Bobur.)*

Bu kelishik leksik va grammatik ma'nolar talabiga ko'ra quyidagi hollarda belgisiz ishlatilishi mumkin:

1. Qaratqich kelishigidagi so'z mavhum ot bo'lganda: *vijdon amri, hayot mazmuni, kuy sehri, umr savdosi, til birligi*.

2. Qaralmish payt ma'nosini anglatuvchi so'z bo'lganda: *tush vaqti, tong mahali, yoz chog'i, ko'klam payti*.

3. Qaratqich tur-nav ma'nosini bildirganda: *bug'doy uni, chigit yog'i, cho'l qovuni, mahalla markazi, yoshlar markazi, kamolot tashkiloti*.

4. Qaratqich qaratqich bilan bog'langanda: *madaniyat rivojining shartlari, O'zbekiston madaniyatining negizi* kabilar shular jumlasidan-dir.

Gapda qaratqich kelishigidagi so'z qaratqichli aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Bu yerdan hovlining bog'cha va polizning qarovsizligi yana ham yaqqolroq ko'rinar edi (A.Q.)*.

Qaratqich kelishigidagi so'z belgili va belgisiz shaklda ba'zi ko'makchilar bilan munosabatga kirishib, ular bitta sintaktik vazifani, ya'ni to'ldiruvchi yoki hol vazifasini bajaradi: *Erkak qaddi to'g'risidagi gapi mening uchun ham yangilik (A.Q.) Ovqat orqasidan choy berildi (A.Qod). Olimxon kavak orasiga kirib ketdi (O).*

3-§. Tushum kelishigi. Ish-harakatni o'ziga qabul qilgan narsani anglatib, kimni? nimani? qayerni? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Tushum kelishigining asosiy ko'rsatkichi **-ni** bo'lib, mazkur kelishik bilan shakllangan so'z hamma vaqt o'timli fe'l bilan birikadi: *hayotni tushunmoq, vazifani bajarmoq, bahorni his qilmoq, dalani aylanmoq*.

She'riy nutqda tushum kelishigi **-n** shaklida ishlatiladi: *Tinim yo'q, har nafas sep yozar, bahor yozib o'z tugunchagin (H.O.)*.

Tushum kelishigi men, sen olmoshlaridan so'ng va mumtoz she'riyatda **-i** shaklida ishlatiladi: *Men+i tanimay, sen+i tanibdi. Adl qulog'ila eshit holim+i (Muqimiy.)*.

Tushum kelishigi belgili va belgisiz ishlatiladi. Atoqli va shaxs bildiruvchi otlar, egalik affiksini olgan turdosh ot, aniqlovchi olgan ot, harakat nomi, olmosh, son, sifat, ravish va boshqa otlashadigan so'zlar tushum kelishigi bilan turlansa har doim belgili bo'ladi: *Navoiyni oldim qo'linga (H.O.) Yo'lchi titroq qo'llari bilan Gulorning sochlarini asta siladi (O.). Egilgan boshni qilich kesmas. Bo'linganni bo'ri yer. (Maqol)*

Tushum kelishigidagi so'z, asosan, bir turdagi narsani ifoda qilib, uni ta'kidlash lozim bo'lmaganda belgisiz qo'llanadi: «*Eshon hey» degani esa «Hovliga borib ayt, nozik mehmon olib kelaman» degani bo'lar ekan (A.Q). Shoirlari g'azal yozadi, botirlari kanal qazadi (H.O).*

Tushum kelishigining doim belgisiz ishlatilishi, *ma'no kasb etmoq, farzand kutmoq, quloq solmoq* singari turg'un birikmalarda ham uchraydi.

Tushum kelishigidagi so'z gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: *Umrini ilmga bag'ishlagan odam abadiy umrga erishadi. O'n sakkizga kirgan odam olamni ming xil jilvada ko'radi... (S.A).*

4-§. Jo'nalish kelishigi. Ot orqali ifodalangan narsaning harakat yo'nalgan o'rin, vaqt, sabab yoki ish-harakatning bajarilishida vosita ekanligini anglatadi. Jo'nalish kelishigining affiksi **-ga** bo'lib, **k** yoki **g** undoshi bilan tugagan o'zakka **-ka, q** yoki **g'** undoshlari bilan tugagan o'zakka esa **-ga** tarzda qo'shiladi: *uy+ga, ish+ga, jamiyat+ga, kitob+ga, oila+ga; bezak+ga-bezakka, barg+ga-barkka, bog'+ga-bog'ga, qishloq+ga-qishloqga* kabi.

Jo'nalish kelishigi affiksi she'riyatda va o'g'uz lahjasida **-a** shaklda ham uchraydi: *Lozim siza har tilni biluv ona tilidiyek, Bilmakka ani g'ayrat eting foydayi kondur (Avaz O'tar.)*. Bu kelishik affiksi ko'rsatish olmoshlariga qo'shilganda **n** undoshi orttiriladi: *bu+n+ga, shu+n+ga, u+n+ga*.

Jo'nalish kelishigi, asosan, belgili ishlatiladi. Uning belgisiz ishlatilishi juda kam uchraydigan hodisalardan bo'lib, harakat yo'nalgan o'rin ifodalanganda belgisiz ishlatilishi mumkin. Masalan: *bozor bormoq, boshini quyi solmoq, past ketmoq* kabi sanoqli o'rinlardagina belgisiz ishlatiladi.

Jo'nalish kelishigi affiksi ba'zi so'zlar tarkibida o'z ma'nosini yo'qotgan holda uchraydi. Bunday tarzda yangi so'z, ya'ni ravish yasaladi: *birga, birdaniga, ertaga, to'g'riga*.

Jo'nalish kelishigi ot, olmosh, son, harakat nomi, sifat, sifatdosh, undov va taqlid so'zlarga qo'shilb, ko'pincha fe'lga tobelangan holda boshqaruvli birikma hosil qiladi. Bunda ot va ot tipli so'zlardan boshqa so'zlar o'z lug'aviy ma'nosini kengaytirib otlashadi: *ukasiga olmoq, barchaga*

tarqatmoq, uchoviga keltirmoq, birinchiga yetmoq, yaxshiga yondashmoq, bilmaganga tushuntirmoq, dodiga quloq solmoq, shivir-shiviriga uyg'onomoq.

Ba'zan jo'nalish kelishigidagi so'zlarni sifat, ravish va harakat nomi ham boshqarishi mumkin: *Bir yigitga qirq hunar oz. Bilganga oson, bilmaganga qiyin. U hammaning diqqatini o'ziga qaratishni biladi.*

Jo'nalish kelishigidagi so'z ko'makchilar bilan birikib, ular bilan bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi: *buyruqqa binoan kelmoq, kelishuvga ko'ra uchrashmoq, uyga qadar bormoq.*

Bu kelishigidagi ot, otlashgan so'zlar gapda qo'yidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

1. Kimga? nimaga? so'rog'iga javob bo'lib, vositali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: *To'tiniso buning sababiga qiziqdi (A.Q). Mehr va muruvvat yilining mazmun-mohiyati qari va kasalmand kishilarga g'amxo'rlikda seziladi.*

2. Qayerga? so'rog'iga javob bo'lib, o'rin holi vazifasini bajaradi: *Nayman cho'llariga chinakam bahor kirdi (S.Ahmad).*

3. Qachon? qachonga? so'rog'iga javob bo'lib, payt holi vazifasini bajaradi: *Universiada musobaqalari sentyabr oyiga qoldirildi.*

4. Nima maqsadda? nimaga? so'rog'iga javob bo'lib, maqsad holi vazifasini bajaradi: *Biz ilmning qal'asini olmoqqa keldik, baxtimizning sozini chalmoqqa keldik (Shayxzoda).*

5. Nima sababli? nega? so'rog'iga javob bo'lib, sabab holi vazifasini bajaradi: *Jonajon yurtim mustaqil bo'lganiga quvonchim cheksiz.*

6. Qanchaga? qancha? so'rog'iga javob bo'lib, miqdor holi vazifasini bajaradi: *Bu mahsulotlarning umumiy qiymati yuz ming AQSH dollariga tengdir.*

7. Jo'nalish kelishigidagi so'z gapda kesim vazifasini bajaradi: *Yosh kelsa ishga, qari kelsa oshga.*

5-§. O'rin-payt kelishigi. Otning ish-harakat o'rni, payti, sababi, holati, maqsadi kabi ma'nolarni ifodalaydi. O'rin-payt kelishigi so'z **-da** affiksi orqali shakllanadi. Og'zaki nutqda va shevalarda **-ta** shaklida ham ishlatiladi. Jo'nalish kelishigida bo'lgani kabi bu kelishik ham ko'rsatish olmoshlariga qo'shilganda **nundoshi** orttiriladi: *shu+n+da, bu+n+da, u+n+da* kabi.

O'rin-payt kelishigining belgisiz shakli payt ma'nosini anglatuvchi negizlardagina uchraydi: *Ayasi o'sha qonli oqshom yashirincha darsga ketayotgan ekan. (A. Q.)* Bu kelishikning belgisiz shakli uyushib kelgan bo'laklar tarkibida ham uchraydi: *Bolalar yasilari, bog'chalari va boshqa tarbiya maskanlarida mehnatkashlarning farzandlari tarbiyalanmoqda.*

O'rin-payt kelishigi ot o'rnida ishlatiladigan olmoshlar, fe'lning harakat nomi shakli singari ot tipli so'zlarga bevosita birikadi. Biroq sifat, son turkumlari o'rnida ishlatiladigan olmoshlarga hamda ba'zi ravishlar, fe'lning sifatdosh shakllariga qo'shilganda ular otlashadi: *Xayoli o'shanda bo'lsa kerak. Shunda biz xayrlashdik. Ko'pda bo'lsa bizda ham bo'ladi. Salima kelganida u yo'q edi.*

O'rin-payt kelishigi affiksi ot ko'makchilarga qo'shilib, ular bilan birgalikda bitta grammatik vazifaga ega bo'ladi: *Bir hafta ichida barcha topshiriqlar bajarib bo'lindi.*

O'rin-payt kelishigi affiksi ba'zan ot va otlashuvchi so'zlarga qo'shilib, yangi so'z hosil qiladi va o'z ma'nosini yo'qotadi: a) bir soni+o'rin-payt kelishigidagi payt bildiruvchi ot asosida ravish yasaladi: *bir zumda, birpasda, bir vaqtda;* b) o'rin-payt kelishigi affiksi sifat bilan birikib ravishga ko'chadi: *yaqinda, uzoqda, o'ngda, quyida;* v) holat ravishi o'rin-payt kelishigi affiksini olgan holda payt ma'nosini ifodalaydi: *tezda;* g) ko'makchiga ko'chadi: *haqida, to'g'risida, xususida, tarzda, bobida;* d) modal so'zga ko'chadi: *har holda, haqiqatda.*

O'rin-payt kelishigidagi so'zlar gapda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Kimda? nimada? so'rog'iga javob bo'lib vositali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: *Yodgor qizning bir marta kulib qarashini ko'rish orzusida sakkiz chaqirim naridan o'rtog'ining velosipetida kelib ketar edi (O'.Hoshimov). Insonda umid bo'lmasa edi, hayot lazzati so'nardi.*

2. Qayerda? so'rog'iga javob bo'lib, o'rin holi vazifasini bajaradi: *Ostonada Mastura turar edi (O.Yoqubov).*

3. Qachon? so'rog'iga javob bo'lib, payt holi vazifasini bajaradi: *Navdalarni bezab g'unchalar, Tongda aytur hayot otini (H. Olimjon).*

4. Qay tarzda? so'rog'iga javob bo'lib, vaziyat holi vazifasini bajaradi: *Qiz parishon holda uyga qaytdi (O).*

5. Nimaga? nima maqsadda? so'rog'iga javob bo'lib, maqsad holi vazifasini bajaradi: *Biz Samarqandga qadimiy obidalarni tomosha qilish niyatida yo'l oldik.*

6. Gapda yakka holda yoki to'liqsiz fe'llar bilan birikib kesim vazifasini bajaradi: *Butun xayoli, qalbi o'sha oy yuzli dilbar qizda (M.Qoriyev.). Hamma illat otamda ekan. (A.Qahhor.)*

6-§. Chiqish kelishigi ish-harakatning kelib chiqish nuqtasi, manbasi, o'rni, sababi yoki vositasi bo'lgan nasani ko'rsatadi. Chiqish kelishigi –dan affiksi orqali shakllanadi. Shevada, mumtoz adabiyotda –tan, -nan, din, -tin shakllarda ham uchraydi: *Yuzing visolig'a yetsun desang ko'ngillarni, Sochingni boshdin-oyoq shikan qilg'il (A.Navoiy). Qani, Mehmon, nonnan oling!*

Jo'nalish, o'rin-payt kelishigida bo'lgani kabi bu kelishik ham ko'rsatish olmoshlariga qo'shilganda **n** undoshi orttiriladi: *shu+n+dan, bu+n+dan, o'sha+n+dan* kabi.

Chiqish kelishigidagi so'z mustaqil so'z tomonidan boshqarilib, asosan belgili ishlatiladi. Uning belgisiz shaklini uyushib kelgan gap bo'laklaridagina uchratish mumkin: *Uning butun jihozi temir kravat, ikkita tubaretka, ustiga allanima to'kilib, qotib qolgan qo'pol stoldan iborat edi (A.Qahhor.).*

Chiqish kelishigi otdan tashqari uning o'rnida ishlatiladigan olmoshlar, harakat nomi kabi ot tipli so'zlarga bevosita qo'shiladi. Sifat, son, hamda ular o'rnida ishlatiladigan olmoshlar, ravish va sifat-doshlarga qo'shilganda bu guruhga mansub so'zlar otlashadi: *Sendan xursandman. O'qishdan charchamasdi. Yaxshidan bog' qoladi, Yoshi o'n sakkizdan oshgandi. Ko'pdan quyon qutulmas.*

Chiqish kelishigidagi so'z *keyin, so'ng, buyon, beri, boshqa* singari ko'makchilar bilan birikkanda ular bilan birga bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi: *darsdan so'ng uchrashmoq, ertalabdan buyon kutmoq.*

Chiqish kelishigi ba'zi so'zlar tarkibida qotib qolgan holda o'z ma'nosini yo'qotadi va buning natijasida quyidagi so'zlar hosil bo'ladi: 1) ravish: *birdan, zimdan, to'satdan, halitdan, qo'qqisdan;* 2) modal so'z: *aftidan, haqiqatdan, o'z-o'zidan.* Tartib sonlarga qo'shilanda ham ular modal ma'noga ega bo'ladi: *Bilimni yaxshi egallash uchun, birinchidan, qunt bilan o'qish, ikkinchidan, o'qilgan narsani takrorlab turish lozim bo'ladi;* 3) ko'makchilar hosil bo'ladi: *qaramasdan, sababdan, ustidan, ichidan, yonidan...* kabilar.

Chiqish kelishigidagi so'z gapda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Kimdan? nimadan? so'rog'iga javob bo'lib, vositali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: *U mashinadan tushib, olmos qirralari yarqirab yotgan oppoq ufq etaklarini ko'zdan kechirdi (H.G'ulom.).*

2. Qayerdan? so'rog'iga javob bo'lib, o'rin holi vazifasini bajaradi: *Faqat erinchoq xo'rozlargina olis-olislardan ovoz berib qo'yardi (S.Ahmad.).*

3. Qachondan? qachon? so'rog'iga javob bo'lib, payt holi vazifasini bajaradi: *Erta bahordan to kuzgacha chinobodliklar arava-arava shox-shabba sudrab Kuyganyor tarafga yo'l oldilar (S.Ahmad.).*

4. Nimaga? nima uchun? so'rog'iga javob bo'lib, sabab holi vazifasini bajaradi: *Sovuqdan Yo'ldoshning oyoqlari zirqiray boshladi. (H.G'ulom.)*

5. Chiqish kelishigidagi so'z tuslovchi affiks yoki to'liqsiz fe'l bilan birikib kesim vazifasini bajaradi: *Men ham asli qishloqdanman.*

7-§. Kelishik affikslari sinonimiyasi. Kelishik affikslari otning boshqa so'zlar bilan grammatik aloqasini ta'minlovchi eng faol kategoriyalardan hisoblanadi. Shu bois bu kategoriyaga mansub bo'lgan affikslar nutqiy jarayonda o'zaro hamda boshqa turli til birliklari bilan ma'nodoshlik munosabatlariga ham ega bo'ladi. Xususan, bunday ma'nodoshlik munosabatini quyidagi kelishiklarda kuzatish mumkin:

1. Qaratqich kelishigi va u asosida hosil bo'lgan birikmalar quyidagi vositalar bilan sinonimik munosabatga kirishadi: 1) chiqish kelishigi bilan ma'nodoshlik munosabatiga ega bo'ladi. Bunda qaratuvchi qaratqich kelishigida kelsa qarashlilik ma'nosi ta'kidlanadi, chiqish kelishigida kelganda qarashli bo'lgan narsadan ulush, qism, bo'lak ajratiladi: *Markaziy gazetalarning biri- markaziy gazetalardan biri, Mehmonlarning kattasi- Mehmonlardan kattasi.* Misollardan ko'rinadiki, chiqish kelishigi qaratuvchi vazifasida kelganda bu kelishik affikkisi ko'plik shaklidan keyin qo'shiladi hamda qaralmish sifatida ko'pincha miqdor yoki belgi bildiruvchi so'z ishlatiladi; 2) ba'zi birikmalar tarkibida o'rin belgi shaklini hosil qiluvchi –dagi affiksi bilan ham ma'nodoshlik hosil qilishi mumkin: *Sening irodang-sendagi iroda.*

2. Makon va zamon kelishiklari nomi bilan umumlashtiruvchi tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklari o'zaro sinonim bo'lishi mumkin. Masalan: *Chopar tezgina otini (otiga) mindi. Karvon uzoq vaqt cho'lni (cho'lda) kezib yurdi. Mehmon piyolaga quyilgan choyni (choydan) ho'pladi. Keksalar hovuz yonida (yoniga) to'planishdi. O'ylamay aytgan gapimga (gapimdan) pushaymon bo'ldim. Shu yo'lda (yo'ldan) qat'iy yurib maqsadga yetdik.*

3. Mazkr kelishiklar ma'no va vazifasiga ko'ra bosh kelishikdagi so'z bilan birikkan ko'makchilar bilan ham sinonimik munosabatda bo'ladi: *kamchiliklarni-kamchiliklar to'g'risida gapirishib oldik, sizga-siz uchun oldim, shu yo'ldan-shu yo'l bilan boriladi, telefonda-telefon orqali gaplashdik*.

8-§. Kelishik affikslari omonimiyasi. Kelishik affikslari va ularning turlicha fonetik variantlari ba'zi so'z o'zgartuvchi, so'z yasovchi hamda lug'aviy shakl yasovchi affikslar bilan quyidagicha shakldoshlikka ega bo'lishi mumkin:

1.Qaratqich kelishigining –ing\–im\–n (*Men+ing, vatanim man+im, har oila o'chog'i+n o'z qutlug' tarixi bor*) shakllari qo'yidagi affikslar bilan omonim bo'lishi mumkin: 1) 2-shaxs birlik shaklidagi egalik affiksi bilan: *maktab+ing*; 2) 2-shaxs ko'plikdagi tuslovchi affiksi bilan: *kel+ing*; 3) 1-shaxs egalik affiksi bilan: *kitob+im*; 4) ot, sifat yasovchi affiks bilan: *o'r+im, bo'l+im, siq+im, chek+im*; 5) 3-shaxs egalik affiksidan keyin kelgan tushum kellihi bilan: ... *ikki daryo yuvar kokili+n*; 6) fe'lning o'zlik va majhullik nisbatlarini hosil qiluvchi –n affiksi bilan: *tara+n+di, o'qla+n+di* omonimbo'ladi.

2. Jo'nalish kelishigining –ga\–ka\–qa (uy+ga, buloq+qa, tilak+ka) shakllari quyidagi affikslar bilan omonim bo'lishi mumkin: a) ot yasovchi: *ena+ga*; b) fe'lning davomiylik shaklini yasovchi: *sur+ga+moq*; v) sifat yasovchi: *qis+qa*; g) otning kichraytish shakli: *yo'l+ka*; d) fe'l yasovchi: *is+ka+moq*.

3.O'rin-payt kelishigining –da (maktab+da) shakli ta'kid, to'siqsizlik yuklamasi bilan omonim bo'lishi mumkin: kelsa-da.

4.Chiqish kelishigining –dan (uy+dan) shakli dona sondan taqsim son shaklini hosil qiluvchi affiks bilan omonim bo'lishi mumkin: besh+ta+dan.

9.5. Otning lug'aviy shakllari

Otlarda so'z o'zgarishi va so'z yasalishidan tashqari lug'aviy shakl yasash hodisasi ham mavjud. Otlarning leksik ma'nosiga qo'shimcha ma'no qo'shish uchun xoslangan affikslar lug'aviy shakl yasovchilar deyiladi. Ular quyidagi sintetik shakllardan tashkil topadi:

1-§. Kichraytirish shakllari. –cha affiksi shaxs bildiruvchi otlardan boshqa otlarga qo'shilganda kichraytirish ma'nosini ifodalaydi: *hovuzcha, qushcha, uycha, baliqcha* kabi. Shaxs bildiruvchi otlarga qo'shilganda esa kichraytirish bilan birga erkalash, hurmat yoki kamsitish, kesatish ma'nolarini ham hosil qiladi: *Ko'chadan bir qizcha chopqilab o'tdi. Sizni es-hushli yigitcha deb o'ylardim. Sal o'pkangizni bosib oling, yigitcha!*

Ba'zi so'zlar tarkibida –**cha** affiksi kichraytirish ma'nosini yo'qotib, yangi so'z yasashi ham mumkin. Bunday holda so'z yasovchi va kichraytuvchi affiks o'rtasida **omonimlik** munosabat hosil bo'ladi: *sholcha, ko'rpacha, bog'cha, qizilcha, taqsimcha*. Bundan tashqari, –**cha** affiksi sifat va ravish yasovchi –**cha** affiksi bilan ham shakldoshdir: *o'zbek+cha raqs, fag'ona+cha palov, qishloq+cha kiyinmoq, askar+cha yurmoq, yangi+cha fikrlamoq, o'zbek+cha gapirmoq*.

–**choq\–chak affiksi** toy, kelin, qo'zi kabi so'zlarga qo'shilgandagina kichraytirish-erkalash shaklini hosil qiladi. Masalan: *toychoq, kelinchak, qo'zichoq* kabi. *Qo'zichoq, toychoq* so'zlari ko'chma ma'noda bolalarga nisbatan ishlatilganda erkalatish shakli kuchayadi. Bu affiks ba'zi so'zlar tarkibida kichraytirish ma'nosi bilan birga ba'zi otlarni ham yasaydi: *o'yin+choq, bela+n+chak, ko'm+ir+chak*. Kichraytirish affikisning o'zlik nisbatdagi fe'lga qo'shilishi bilan sifat yasaydigan **omonimi** ham bor: *kuy+in+chak, erin+choq*.

2-§.Erkalash shakllari. –jon, –xon, –oy affikslari atoqli va turdosh otlarga qo'shilib, erkalash, suyish kabi ijobiy munosabat shakllarini hosil qiladi:*ukajon, oyijon, kuzgujon, akaxon, Abrorjon, Hulkaroy, Halimaxon*.

Bu affikslar ba'zi kishi ismlarining tarkibiy qismi sifatida ham uchraydi: *Onaxon, O'g'iloj, Mamajon* kabi. Shuningdek, *oromijon, rohatijon* kabi forsiy izofalar tarkibida jon mustaqil so'z sifatida «jonning oromi», «jonning rohati» kabi ma'nolarga teng bo'ladi; –**xon** affiksi esa, *gazetxon, kitobxon* kabi otlarning yasalishida ishtirok etib, –**xon** shakl yasovchisiga **omonim** bo'ladi.

– **(a) loq affiksi** qiz, bo'ta kabi so'zlarga qo'shilgandagina erkalash ma'nosini hosil qiladi: *qizaloq, bo'taloq, toyloq*. Ba'zi o'rinda –**cha** affiksi bilan **sinonim** bo'la oladi: *qizaloq-qizcha, toyloq-toycha*. Bu affiks o'rin-joy oti yasovchi –**loq** affiksi bilan **omonimlik** munosabatga ham ega bo'ladi: *o'tloq, qumloq*.

–**gina affiksi**. Asosan, shaxs bildiruvchi otga qo'shilib, erkalatish-kichraytirish shaklini hosil qiladi: *bolagina(m), qizgina(m), jongina(m)*. Mazkur affiks *yaxshigina, kattagina, tezgina*,

endiginakabi soʻzlarda sifat va ravishga xos shakl yasaydi. Soʻz takibida shakl yasovchi sifatida ishtirok etganda urgʻuli hisoblanadi: *bolaginaʻ, yaxshiginaʻ, ozginaʻ*. Urgʻusiz holatda esa, ayiruvchegaralov yuklamasi vazifasini bajaradi va shakl yasovchilar bilan **omonim** boʻladi. Masalan: *bolaʻgina, faqaʻtgina, soʻzlarniʻgina*.

3-§. Qarashlilik shakli ot yoki olmoshlarga **-niki** affiksini qoʻshish bilan yasaladi. Bu affiks oʻzakka qoʻshilib, narsaning asosdan anglashilgan shaxs yoki narsaga qarashli ekanligini bildiradi: *akamniki, doʻstingniki, koʻchaniki, maktabniki kabi*. Men, sen olmoshlariga qoʻshilganda qoʻshimcha tarkibidagi **n** undoshi tushiriladi: *men+iki, sen+iki*. Qarashlilik shaklidagi ot mazmunan egalik affiksini olgan otlarga sinonim boʻladi.

9.6. Otlarning tuzilish turlari

Otlar tuzilishiga koʻra toʻrt turga boʻlinadi: 1) sodda otlar, 2) qoʻshma otlar, 3) juft otlar, 4) qiqartma otlar.

1-§. Sodda ot. Bitta oʻzak morfemadan tashkil topgan ot sodda ot deyiladi. Sodda otning tub va yasama turi mavjud. 1) otning yasovchi affikslarga ega boʻlmagan mustaqil lugʻaviy maʼnoli qismi **sodda tub ot** deyiladi. Tubotlar tarkibida shakl yasovchi yoki soʻz oʻzgartuvchi affikslar qoʻllanishi ham mumkin: *quyosh, dala, qush, kitob, quyoshdan, qushchalar, daladan, kitobning*; 2) soʻzning mustaqil lugʻaviy maʼnoli qismiga ot yasovchi affikslar qoʻshilishi bilan yasalgan shakli **soddayasama ot** deyiladi. Sodda yasama otlar ichki va tashqi yasovchi affikslar asosida shakllanadi. Masalan: *zamon+dosh, mehnat+kash, osh+paz, til+shunos* kabilar ichki yasalish asosida; *oʻra+m, tutat+qi, isit+ma* kabilar esa tashqi yasalish asosida vujudga kelgan yasama otlardir.

2-§. Qoʻshma ot. Ikki yoki undan ortiq mustaqil soʻzning maʼno va grammatik jihatdan bir-biriga tobelanish yoʻli bilan birikib, bitta narsa nomini ifodalashga xoslangan ot qoʻshma ot deyiladi. Qoʻshma otlar tarkiban bir xil va har xil turkumga mansub soʻzlarning sitaktik munosabatga kirishuvidan tuzilishi mumkin. Masalan: 1) ot+otdan- *qoʻlarra, otquloq*; 2) sifat+otdan- *koʻksulton, xomtok*; 3) ot+sifatdan- *gulbeor, oshkoʻk*; 4) son+otdan- *mingoyoq, uchquduq*; 5) ot+feʼldan- *oʻrinbosar, beshiktervatar*; 6) feʼl+otdan- *yoriltosh, kuyganyor*; 7) feʼl+feʼldan- *iskabtopar, ishlabchiqarish*.

Qoʻshma otlar ikkidan ortiq soʻz ishtirokida ham tuzilishi mumkin: *gultojixoʻroz, gulhamishabahor*.

3-§. Juft ot. Birxil grammatik shaklga ega boʻlgan ikkita otning teng bogʻlanishidan tuzilib, bir umumiy maʼnoni anglatadigan ot juft ot deyiladi. Juft otlarning qismlari mustaqil urgʻuli soʻz boʻlib, ular talaffuzda yagona leksik urgʻuga birlashadi. Affikslar juft otning keyingi qismiga qoʻshiladi: *ota-onadaʻn, osh-nonniʻng, aka-ukalaʻr, arz-dodimizni*.

Juft otlar tarkiban har ikkala qismi mustaqil maʼnoli soʻzlardan, bir qismi mustaqil, ikkinchi qismi mustaqil maʼnoga ega boʻlmagan soʻzlardan va har ikkala qismi maʼnoga ega boʻlmagan soʻzlardan tuziladi:

1. Har ikkala qismi mustaqil maʼnoli soʻz boʻladi. Bunda juft soʻzlar oʻzaro ikki xil bogʻlanadi: a) bogʻlovchilarsiz: *ota-ona, qozon-tovoq*; b) *-u, -yu* yuklamalari yordamida: *togʻ-u tosh, olma-yu oʻrik*.

Juft otlarning har ikkala qismi mustaqil maʼnoli soʻzdan tuzilganda uning qismlari quyidagicha farqlanishi mumkin: 1) har ikkala qismi hozirgi tilimizda ishlatiladigan mustaqil soʻz boʻladi: *oʻyin-kulgu, togʻ-tosh, sigir-buzoq, qoʻy-qoʻzi*; 2) mustaqil soʻzlarning ikkinchi qismi tarixiy yoki eskirgan soʻz boʻladi: *koʻcha-kuy, el-ulus, idish-oyoq*; 3) mustaqil soʻzlarning birinchi yoki ikkinchi qismi oʻzlashma soʻz boʻladi: *kuch-quvvat, oʻy-xayol* (oʻzbekcha+arabcha), *tuz+namak* (oʻzbekcha+tojikcha), *savdo-sotiq, gap-soʻz* (tojikcha+oʻzbekcha); 4) mustaqil soʻzlarning har ikkalasi oʻzlashma soʻz boʻladi: *hol-ahvol, hisob-kitob, sir-asror* (arabcha).

Juft otlarning tuzilishida soʻzlar maʼno jihatdan quyidagicha munosabatda boʻladi: a) mazmunan bir-biriga yaqin, umumiy bir guruhga mansub boʻlgan uyadosh soʻzlardan: *oyoq-qoʻl, yuz-koʻz, idish-tovoq, sigir-buzoq*; b) maʼnodosh soʻzlardan: *oʻy-xayol, kuch-quvvat, or-nomus, baxt-saodat, qoʻydi-chiqdi*; v) qismlari zid maʼnoli soʻzlardan: *yer-koʻk, er-xotin, oʻgʻil-qiz, keldi-kitdi, oldi-berdi*; g) butun-boʻlak munosabatga ega boʻlgan soʻzlardan: *gap-soʻz, togʻ-tosh*.

2. Bir qismi mustaqil, ikkinchi qismi mustaqil maʼnoga ega boʻlmagan soʻzlardan tuzilgan juft otlar: *kiyim-kechak, bozor-oʻchar, temir-tersak, maza-matra, qand-qurs*.

3. Har ikkala qismi maʼnoga ega boʻlmagan soʻzlardan tuzilgan juft otlar: *gʻala-gʻovur, lash-lush, ikr-chikir, gʻidi-bidi*.

Juft otlar vositasida ifodalangan ma'no har xil bo'ladi: a) ma'no umumlashadi va kengayadi: *qovun-tarvuz, qozon-tovoq, qo'y-echki*; b) ma'no umumlashadi va jamlanadi: *o'g'il-qiz, ota-ona, aka-uka*.

Bundan tashqari, boshqa turkumga mansub so'zlar juftlashib, otga ko'chishi ham mumkin. Bunday juft so'zlar quyidagi turkumlarga doir so'zlarning ma'no ko'chishi asosida yuzaga keladi: *issiq-sovuq, oq-qora, kam-ko'st* sifatdan; *kam-ko'st, kam-ko'p* ravishdan; *yurish-turish, yeyish-ichish, yozuv-chizuv, keldi-ketdi, bordi-keldi, ur-yiqit fe'ldan; adi-badi, qiy-chuv* kabi taqlid so'zlardan.

4-§. Takroriy otlar. Bir xil grammatik shakldagi so'zlarni aynan takrorlash orqali leksik-grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil qiluvchi otlar takroriy otlar deyiladi. Takroriy otlar ko'plik va umumlash-tirish, ma'no kuchaytirish kabi leksik-grammatik maqsadlarni ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan: *Xo'jalikning bu yilgi daromadi yaxshi. Ombor-ombor g'alla, xirmon-xirmon paxta yetishtirib mo'l hosil to'plandi. Og'riq tobora zo'rayib, uning suyak-suyagigacha zirqirardi.*

Takroriy otlarning maxsus takror turi ham mavjud bo'lib, bu turdagi takror otlar mustaqil so'z va uning fonetik soyasi qolipida tuziladi hamda gumon, umumlashtirish, jamlash kabi qo'shimcha ma'nolarni yuzaga keltiradi: *ovqat-povqat, ilon-milon, non-pon, chang-chung, choy-poy, qand-qurs.*

5-§. Qisqartma otlar. Murakkab so'z birikmalarini turli usullar yordamida qisqartirish orqali yasalgan otlardir. Qisqartma otlar nutqning ixchamligini ta'minlovchi muhim vositalardan biridir. Masalan: *BMT, OAK(Oliy Attestatsiya komissiyasi), O'ztele-radio kompaniyasi, O'z-dunrobota.* Qisqartma so'zlarning ba'zilarini tilimizda aynan o'zlashtiril-gan holda ishlatiladi: *YUNESKO, NATO, Koskom* kabilar shular jumlasidandir.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ot va otning ma'no turlari xususida ma'lumot bering.
2. Otlar qanday grammatik kategoriyalarga ega?
3. Egalik kategoriyasi va u ifodalaydigan grammatik ma'nolar xususida nimalar bilasiz?
4. Egalik affikslari sinonimligi, omonimligi haqida ma'lumot to'plang.
5. Kelishik va son kategoriyasiga xos grammatik ma'nolar haqida ma'lumot Bering.
6. Kelishiklar sinonimiyasi xususida nimalar bilasiz?
7. Otlarga xos nokategorial shakllarni tavsiflang.
8. Otning tuzulishiga ko'ra turlarini jadval asosida yoriting.

ZARURIY ADABIYOTLAR

1. У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Рақматуллаев Қозиргинъзбекадабийтили. Т., «Њълитувчи» 1992.
2. М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Њълитувчи» 1978.
3. Њзбек тили грамматикаси. 1-том. Т., «Фан» 1975.
4. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahme-dov Onatili. Umumta'lim maktablarining 6,7-sinf uchundarslik. Т., «Ma'naviyat» 2005.

MATNI

Sifat

1-§. Narsaning belgisini bildirib, qanday? qanaqa? qaysi? kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladigan so'zlar turkumi sifat deyiladi. Sifat asosan otga bog'lanadi va uning belgisini aniqlaydi. Masalan: *oq ko'ylak, kuzgi ekin, aqlli qiz, yumshoq non, o'rtancha o'g'il*. Bunda belgi bildiruvchi so'z sifatlovchi, uni boshqarib kelgan ot esa sifatlanmish deyiladi.

Sifat bog'lanib kelgan ot turli so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar bilan qo'llanish mumkin, lekin sifat o'zgarmaydi: *ko'k qalam, ko'k qalamning, ko'k qalamdan* kabi. Sifat gapda asosan a) sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Bir ozdan so'ng yoqimli shamol esa boshladi*; b) kesim bo'lib keladi: *Osmon tiniq*.

Sifat ba'zan fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini bildirishi mumkin. Bunday holda sifat ravish kabi gapda hol vazifasini bajaradi: *U do'stining yuragida kechayotgan tuyg'ularni yaxshi tushunardi*.

2-§. Sifatning ma'no turlari. Sifatlar ma'no jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) xususiyat bildiruvchi sifatlar: *kamtarin, sho'x, ziqna, sodda, yo'rg'a, mehribon*;
- 2) holat bildiruvchi sifatlar: *keksa, badavlat, iliq, tinch, salqin, ochiq, xursand*;
- 3) shakl- ko'rinish bildiruvchi sifatlar: *gavdali, novcha, qiyshiq, yassi*;
- 4) rang - tus bildiruvchi sifatlar: *oq, qora, qizil, pushti*;
- 5) hajm - o'lchov bildiruvchi sifatlar: *keng, tor, uzun, yaqin, katta, og'ir*;
- 6) maza - ta'm bildiruvchi sifatlar: *nordon, achchiq, bemaza, shirin*;
- 7) hid bildiruvchi sifatlar: *muattar, xushbo'y, badbo'y*;
- 8) o'rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar: *kechki, tonggi, kuzgi, bahorgi*.

3-§. Asliy va nisbiy sifat. Sifatlar ma'no jihatdan bir-biridan farqlanadi. Ba'zi bir guruh sifatlar bevosita belgi ifodalash xususiyatiga ega bo'lsa, boshqalarida belgi tushunchasi ma'lum bir narsaning boshqa narsaga munosabati asosida anglashiladi. Shunga ko'ra ularni asliy va nisbiy sifatlarga ajratish mumkin.

1. Narsaning belgisini bevosita ifodalaydigan, belgini darajalab ko'rsata oladigan sifat **asliy sifat deyiladi**. Masalan: *yaxshi, katta, uzun, qisqa, oq, qora, semiz, kamtar* kabi tub so'zlar asliy sifatlardir.

2. Narsa belgisini o'rin yoki paytga nisbatlash, boshqa narsaga o'xshatish, chog'ishtirish kabi ma'nolar vositasida ifodalaydigan sifat **nisbiy sifat deyiladi**. nisbiy sifatlar affikslar orqali yasalgan sifatlardan tashkil topadi. Ular ma'no jihatdan a) belgini biror narsaga nisbat berish bilan ifodalaydi: *g'ayratli yigit, chiroyli surat, devoriy gazeta, ko'rpalik mato*; b) belgini o'rin va paytga nisbatlaydi: *toshkentlik kishi, yerdagi olma, kuzgi shamol*; d) belgini narsaning xususiyat, holatga nisbatlaydi: *ko'ngilchan odam, chopqir ot, tirishqoq talaba*.

4-§. Sifat darajalari. Belgining oddiy darajaga ko'ra nisbatlab, farqlanishi sifat darajalari deyiladi. Sifat darajalarining quyidagi turlari bor:

Oddiy daraja. Bir narsa belgisining boshqa narsa belgisiga nisbatlanmay ifodalanishi oddiy daraja deyiladi. Bunday sifatlar daraja bildiruvchi affikslarga ega bo'lmaydi. Masalan: *yorug', yaxshi, og'ir, chaqqon, yumshoq, baland, to'g'ri*.

Qiyosiy daraja belgining oddiy darajaga nisbatan ortiq yoki kam ekanligini qiyoslab ko'rsatadi. Qiyosiy darajadagi sifat asosan **-roq** affiksi bilan shakllanadi: *kattaroq, kichikroq, ko'kroq, balandroq, mazaliroq, achchiqroq*.

Qiyosiy daraja, odatda, ikkita narsa, hodisa, voqea yoki holat ishtirokida hosil bo'ladi. Bunda qiyoslanayotgan narsalarning belgisi ... **-ga nisbatan (qaraganda) ... -roq** yoki ... **-dan (ko'ra) ... -roq** qolipi asosida voqelanadi: *Bugungi shamol kechagiga qaraganda kuchliroq. Tut terakdan pastroq. Asal shakardan ko'ra shirinroq*.

Qiyoslash ma'nosi chiqish yoki jo'nalish kelishigidagi ot + ko'ra, nisbatan, qaraganda so'zlaridan biri hamda oddiy darajadagi sifat birligi orqali ham ifodalanishi mumkin: *Alisher boshqa bolalarga qaraganda zehnli, mehnatsevar chiqdi*.

Ba'zan bunday ma'no -roq ko'rsatkichili sifatning yakka o'zi orqali ham hosil bo'lishi mumkin: *Qalbdan aytilgan tashakkurdan qimmatliroq mukofot bo'lmaydi*.

Orttirma daraja belgining oddiy darajadan ortiq, yuqori ekanligini ifodalaydi. Orttirma daraja quyidagicha usullar vositasida hosil bo'ladi:

1.Fonetik usul: a) sifatning bosh qismi va oddiy darajadagi shaklning maxsus takrori orqali: *ko'm-ko'k, dum-dumaloq, yam-yashil, oppa-oston, teppa-teng*; b) sifat tarkibidagi unlini cho'ziq talaffuz qilish orqali: *baaland, achchiq*.

2.Leksik usul: a) sifat oldidan *eng, juda, g'oyat, g'oyatda, nihoyatda, behad, biram, tim, naq, cheksiz* kabi so'zlarni keltirish orqali: *juda go'zal, behad xursand, nihoyatda baland, g'oyat minnatdor, biram yoqimli, o'ta g'irrom, o'lgiday ziqna, naqadar ulug'vor, tim qorong'u*; b) turg'un birikmalarni sifat oldidan keltirish orqali: *xaddan ziyod achchiq, haddan tashqari maroqli, bahosi yo'q juvon*; v) takroriy sifatlarni ot oldidan keltirish orqali: *baland-baland imoratlar, zo'r-zo'r yigitlar, hashamatli-hashamatli binolar, shirin-shirin orzular*.

Bulardan tashqari, *shirindan shirin, uzindan uzoq* kabi morfologik ko'rsatkichlar ishtirokida ham orttirma daraja hosil qilinishi mumkin.

Ozaytirma daraja ko'proq rang-tus belgilariga xos bo'lib, belgining oddiy darajadan kamligi, pastligini ifodalaydi. Ozaytirma darajadagi sifatlari quyidagicha usullar yordamida hosil qilinadi:

1.Leksik usul. Belgining kuchsizlik darajasi sifat oldidan *yarim, nim, och, xiyol, xiyla, sal, aytarli, u qadar* kabi maxsus yordamchi so'zlarni keltirish yordamida hosil qilinadi: *sal durust, xiyol ochiq, bir oz yaxshi, yarim qorong'u, nim pushti, xila shum, u qadar shirin emas*. Bunda ba'zan—**roq** affiksi ishtirok etishi ham mumkin: *sal g'o'rroq, xiyol kichikroq, bir oz torroq* kabi.

2.Morfologik usul. Bunda darajaning kuchsizligi oddiy darajadagi sifatga quyidagi affikslarni qo'shish orqali shakllanadi:

a)—ish affiksi orqali: *qizg'ish, sarg'ish, ko'kish, oqish*;

v)—mitir\—imtir affiksi orqali: *qoramtir, ko'kimtir, oqimtir*;

g)—gina\—kina\—qina affiksi orqali: *kattagina, shiringina, oppoqqina, kichikkina*.

d)—roq affiksi qiyosiy daraja hosil qilish bilan bir qatorda, belgining kuchsizlik darajasini shakllantirishda ham ishlatiladi.

5-§.Sifatning otlashishi. Sifatning otlashuvi **substantizatsiya** deb yuritiladi. Sifatlar otlashganda belgini emas, otlar singari narsa yoki shaxs tushunchasini anglatadi. Sifat nutqda sifatlanmish tushirilib, uning vazifasida sifatlovchi ishlatilganda otlashadi: *ko'r (odam) tutganini qo'ymaydi, kar (odam) eshitganini*. Otlashgan sifat otlar singari kelishik, egalik, ko'plik qo'shimchalarini qabul qilgan holda quyidagi vazifalar bajaradi: a) ega: *Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib gapiradi*; b) to'ldiruvchi: *Mardni maydonda sina*; v) qaratqich aniqlovchi: *Yaxshining so'zi qaymoq, yomonning so'zi to'qmoq*;

6-§.Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari: Sifat tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va takroriy shakllarga ega bo'ladi.

1.Sodda sifatlari tarkiban bitta o'zak morfemadan iborat bo'lgan tub va yasama so'zlardan tashkil topadi. Shunga ko'ra ular sodda tub va sodda yasama kabi turlarga bo'linadi.

Mazmunan doimiy belgi anglatuvchi bir o'zakdan tarkib topgan asliy sifat **soddatub sifat** deyiladi. Masalan: *shirin, baland, oq, uzun, chaqqon, zukko, dono*. Bunday sifatlari daraja affikslari bilan qo'llanganda ham tub sifat sanaladi: *kattaroq, qoramtir, shiringina, oqish, balandroq* kabi.

Sifat yasovchi qo'shimchalar vositasida turli so'z turkumlaridan yasalgan sifat **sodda yasama sifat** deyiladi. Masalan: *bilimli, suvsiz, kechki, ishchan, oilaviy, tirishqoq, ag'darma*.

2.Qo'shma sifat birdan ortiq o'zak-negizning o'zaro qo'shilib, bitta belgi tushunchasini anglatadigan yasama sifatlardir. Qo'shma sifatlari qismlarining morfologik tarkibiga ko'ra quyidagi guruhlarini tashkil etadi:

1) ot+ot: *shira kayf, sher yurak, bezbet, bedana qadam, yer osti*;

2) ot+sifat: *mushtumzo'r, mirzaquruq, nonko'r*;

3) sifat+ot: *uzun quloq, qiziqqon, sovuqqon, shum qadam, sofdil, ochko'z*;

4) sifat+sifat: *olachipor, qora to'riq, qora qizil*;

5) ravish+ot: *kamgap, hozirjavob, kamquvvat*;

6) ot + -ar, -mas va -mon qo'shimchali sifatchi: *mehnatsevar, jonkuyar, lattachaynar, nonemas, ishyoqmas, usta buzarmon, ish bilarmon*;

7) ravish+sifatchi: *tezpishar, eapishar, tez oqar, cho'rtesar*;

8) olmosh+sifat yoki ravish: *o'zbilarmon, o'zboshimcha*;

9) son+ yasama sifat: *bir xonali, Besh qavatli, bir so'zli*.

3. Juft sifatlar ikkita soʻzning teng bogʻlanishi asosida tuzilgan sifatlardir. Juft sifatlar tarkibi har ikkiala qismi lugʻaviy maʼnoli yoki bir qismi lugʻaviy maʼnoga ega boʻlmagan soʻzlardan tuzilishi mumkin.

Har ikkala qismi lugʻaviy maʼnoli soʻzlardan tuzilgan juft sifatlar quyidagi tarkibga ega boʻladi: **1) turli antonim soʻzlardan tuziladi:** a) tub soʻzlardan: *olis-yaqin, ogʻir-yengil, oq-qora, past-baland\baland-past, yaxshi-yomon\yomon-yashi, yosh-qari, katta-kichik, oʻng-ters;* b) tub va yasama soʻzlardan: *uzun-qisqa, haq-nohaq, huda-behuda;* d) yasama soʻzlardan: *kerakli-keraksiz, qoʻlli-oyoqli, issiq-sovuq.* **2) sinonim soʻzlardan tuziladi:** *och-nahor, ola-chipor, soya-salqin, oʻydim-chuqur, puxta-pishiq, uzuq-yuluq, moʻmin-qobil, xor-zor.*

Bir qismi lugʻaviy maʼnoli, ikkinchi qismi lugʻaviy maʼnoga ega boʻlmagan soʻzlardan tuziladi: *boʻsh-bayov, xom-xatala, chala-chulpa, eski-tuski, egri-bugri, yarimta-yurimta, achchiq-tizziq.*

Har ikkala qismi yolgʻiz holda maʼno anglatmaydigan soʻzlardan tuziladi: *uvali-juvali, dalligʻulli, ikir-chikir, ayqash-uyqash.*

Juft sifatlar chiziqcha bilan ajratilib yoziladi. Biroq ular orasida –u, -yu yuklamalari bogʻlovchi vazifasida ishlatilganda chiziqcha tushiriladi: *halol-harom\ halol-u harom, issiq-sovuq\ issigʻ-u sovuq, sogʻ-salomat\sogʻ-u salomat.*

4. Takroriy sifatlar bir xil shaklga ega boʻlgan soʻzlarning aynan takroridan tuziladi. Masalan: *baland-baland, mayin-mayin, shirin-shirin.* Baʼzi takroriy sifatning birinchi qismida qoʻshimchalar mavjud boʻlishi ham mumkin: *poyma-poy, koʻpdan-koʻp, kattadan-katta, xilma-xil, limmo-lim.* Bunday sifatlar maʼnoni kuchaytirish, taʼkidlash uchun ishlatiladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sifat va uning maʼno turlarini misollar vositasida izohlang.
2. Sifat darajalari xususida nimalarni bilasiz?
3. Sifatning otlashishida qanday grammatik birliklar muhim oʻrin tutadi?
4. Sifatning gapdagi sintaktik vazifasi nimalar asosida belgilanadi?
5. Asliy va nisbiy sifatning farqini tushuntiring.

ZARURIY ADABIYOTLAR

- 1.Ш. Шоабдуракмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.ДониёровЌозиргињзбекадабийтили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.
- 2.У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.РаќматуллаевЌозиргињзбекадабийтили. Т., «Њљитувчи» 1992.
- 3.М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.
- 4.Њзбек тили грамматикаси. 1-том. Т., «Фан» 1975.
- 5.N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.MirzaahmedovOnatili. Umumtaʼlim maktablarining 6-sinf uchun darslik. Т., «Maʼnaviyat» 2005.

MAʼRUZA

Son

1-§. Narsaning, miqdori, sanogʻi yoki tartibini bildirib, qancha? nechta? nechanchi? soʻroqlaridan briga javob boʻladigan soʻzlar son deyiladi. Sonlar sifat singari belgi tasavvuri bilan aloqador boʻlib, narsaning miqdori, sanogʻi va tartibiga koʻra belgisini ifodalaydi: *beshta kitob, uchala talaba, birinchi kurs* kabi.

Son narsaning aniq yoki noaniq miqdorini ifodalash xususiyatiga egaligiga koʻra tildagi *koʻp, oz, bir oz* singari umumiy miqdor bildiruvchi soʻzlardan farqlanib turadi. Sonlar quyidagi grammatik belgilarga ega:

1.Sonlar ot bilan birikkanda soʻz oʻzgartuvchi affikslar olmaydi, aksincha ularning oʻzi otning aniqlovchisi vazifasini bajaradi: *Oʻn sakkiz yashar yigit. birinchi oʻrinda bormoq.*

2.Baʼzan son va sifat birgalikda otning aniqlovchisi vazifasini bajarishi mumkin. Bunday holda son aniqlovchi vazifasida kelgan sifatdan avval joylashadi: *Beshta baland bino, uchta qora qoʻy.*

3.Son gapda asosan aniqlovchi va kesim vazifasini bajaradi: *Mehnat kishini uchta balodan saqlaydi: yurak siqishdan, axloqiy buzilishdan, muhtojlikdan. Bu xotinning joni bitta emas, mingta (A.Qahhor).*

4. Ba'zan sonlar fe'l oldidan kelib, ravish singari hol vazifasini bajaradi: *U ariqning labidagi oshrayhon bargidan uch-to'rtta uzib keldi.*

5. Sonlar boshqa so'zlardan yasalmaydi, ya'ni son yasaliş tizimiga ega emas. Biroq ba'zi sonlardan ot yoki fe'l yasalişhi mumkin: *uch+lik, ikki+lanmoq* kabi.

6. Sonning o'ziga qo'shiluvchi –inchi, -ov, -ala, -ta, -tacha, -lab, -larcha affiksleri shakl yasovchilar bo'lib, sonning bir turidan boshqa turini hosil qiladi. Son otga bog'langanda ular orasida maxsus hisob so'zlar, ya'ni **numerativlar** ishlatiladi. Numerativlar *kilogramm, gramm, botmon, pud, so'm, tiyin, dona, nafar, hovuch, qarich, kilometr, qadam, gektar, soat, minut, daqiqa, soniya* singari ot turkumiga mansub so'zlardan tashkil topadi.

Sonning ma'no turlari. Sonlar ma'no jihatdan, dastlab, ikki guruhga bo'linadi: 1) miqdor son, 2) tartib son.

2-§. Miqdor sonlar narsani sanash, donalash, taxminlash, taqsimlashga asoslangan umumiy qiymatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Miqdor sonlar narsaning qiymatini ifodalash xususiyatiga ko'ra uch guruhni tashkil qiladi: a) **butun son** narsa-buyumning miqdoriy butunligini ifodalaydi: *bir kishi, uch o'rtoq, ikkita daraxt* kabi; b) **kasr sonlar** butun miqdorning qismini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular ko'pincha bir necha sonning sintaktik usul asosida birikishdan hosil bo'ladi: to'rt dan bir, uchdan ikki. Shuningdek, kasr sonlar *yarim, chorak, nim chorak* kabi so'zlar vositasida ham ifodalanadi; d) **aralash sonlar** butun va kasr sonlarning birligi asosida hosil bo'ladi: *bir yarim, ikki butun o'ndan besh.*

Miqdor sonlar ma'no jihatdan sanoq son, dona son, chama son, jamlovchi son, taqsim son kabi turlarga bo'linadi. Ular quyidagi xususiyatlarga egaligi bilan o'zaro farqlanadi:

1. Sanoq sonlar bir turdagi narsaning umumiy sanog'i, sonning nomini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: *bir, ikki, uch, to'rt, besh.* Sanoq sonlar numirativ so'zlarsiz va numerativ so'zlar bilan ishlatiladi: *besh kishi, o'n yil, uch qop un, o'n olti tonna bug'doy* kabi.

Sanoq sonlar numerativ so'zlarsiz yoki numerativ so'zlar bilan qo'llanib, ko'plik affiksini qabul qilganda chama, taxmin ma'nosini ifodalaydi: *soat beshlar bo'ldi, oradan uch kunlar o'tdi.* Xuddi shuningdek, ma'no sanoq sonlarning juftlanishi orqali ham ifodalanishi mumkin. Masalan: *Darchadan besh-olti kishishi kirib keldi.*

Sanoq sonlarning ba'zi turlarigagina 3-shaxs egalik affiksi qo'shib, ularni otlashtirishi mumkin: *Biri olim, biri muallim.* Sanoq sonlar hech qanday affikssiz ham otga ko'chishi mumkin. Masalan: *qirq, yetti, yigirma* kabi aza marosimlari nomi shular jumlasidandir.

Barcha sanoq sonlar o'rtasida bir soni alohida grammatik xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Uning bunday polisemantik xususiyati quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

a) bir soni ot oldidan kelib, gumon, noma'lumlik ma'nosini hosil qiladi: *Bugun sizni bir kishi so'rab keldi.* Bir soni miqdor bildiruvchi so'zlar oldida kelganda ham shunday ma'nolar hosil bo'ladi: *bir talay, bir necha, bir oz, bir qadar.*

b) holat ma'nosidagi fe'l, ot, sifat, ravish oldida kelib ma'noni kuchaytiradi: *Mashina bir silkinib, to'xtadi. Ertaga bir dam olmasam bo'lmaydi.*

d) uyushiq bo'laklar yoki sodda gaplarda biriktiruvchi bog'lovchi vazifasini bajaradi: *Xursandligidan bir kuladi, bir yig'laydi.*

c) ayiruv-chegaralov yuklamasi vazifasini bajarishi mumkin: *Mening ishonchim bir sensan.*

f) bir soni jo'nalish, chiqish kelishigi affiksi bilan hamda –day, affiksi bilan qo'llanganda ravishga ko'chadi: *birga ishlamoq, birdan kirib kelmoq, birday qaramoq.*

2. Dona sonlar bir turdagi narsani yakkalab, donalab sanaladigan umumiy miqdorini anglatadi va sanoq songa –ta affiksini qo'shish orqali shakllanadi: beshta, o'nta, ikkita. Biroq, -ta affiksi bir soniga qo'shilganda **r** undoshi **t** tovushiga o'zgaradi: bir+ta= bitta.

Dona son hosil qiluvchi –ta affiksi numerativ so'z o'rnida ishlatiluvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi: *Beshta qalam-besh dona qalam, to'rtta talaba-to'rt nafar talaba, yuzta qoramol-yuz bosh qoramol.*

Ba'zan dona sonlar fe'l oldidan kelib, hol vazifasini bajaradi: *Uning bitta gapirib, o'nta kuladigan odati bor.*

Boshqa miqdor sonlardan farqli ravishda, dona son hosil qiluvchi –ta affiksidan keyin ko'plik ifodalovchi –lar affiksi hamda kelishik qo'shimchalari qo'shilmaydi. dona sonlar 1,2-shaxs birlikdagi egalik affiksi bilan ham deyarli qo'llanmaydi. Faqat 3-shaxs egalik affiksini qabul qilib, otlashishi mumkin. Bunday holda dona sonlar turli kelishik affikslarini qabul qilishi va ot singari vazifalar bajarishi mumkin. Masalan: *Birniki mingga, mingniki tumanga.*

3. Taqsim sonlar narsaning miqdor jihatdan teng bo'linganligini ifodalaydi. Taqsim son quyidagicha hosil bo'ladi: a) sanoq songa - **tadan** qo'shimchasini qo'shish bilan: *beshtadan, to'rttadan*; b) dona sonlarni takror qo'llash orqali: *ikkita – ikkita, to'rtta – to'rtta*. Bunday holda takror qo'llangan sonning ikkinchisiga –tadan affiksi qo'shilishi ham mumkin: *ikkita-ikkitan kabi*. Miqdor sonning bu turi numerativ so'z bilan qo'llanishi mumkin: *ikki nusxadan, Besh donadan, yuz kelogrammdan*.

Taqsim sonlar boshqa miqdor sonlar kabi ot va ot vazifasidagi so'zlar yoki fe'l oldidan kelib, narsa yoki harakatning miqdoriy belgisini ko'rsatadi: *Navbatda turganlar bittadan, ikkitadan bo'lib kela boshladi*.

Taqsim sonlar ham boshqa son turlaridan farqli ravishda egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini qabul qilmaydi. Demak, ular otlashmaydi.

4. Jamlovchi sonlar narsa miqdorini jamlab, to'dalab ko'rsatadi. Ular sanoq sonlarga **-ov, -ala, -ovlon, -ovlashib** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi.

Jamlovchi sonning –ov, -ovlon affiksli shakli har doim 1-shaxs birlik shakldan tashqari, barcha egalik affiksi bilan qo'llanib, gapda ot vazifasida ishlatiladi. Shu bois sonning boshqa turlaridan farqli ravishda gapda sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Uchovining maqsadi bir. Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar*.

Biroq –ala affiksli jamlovchi son ot oldidan kelib, sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Ikkala o'rtoq bir bo'lib ishga tushdilar*. –ov, -ala, -ovlon affikslari bilan hosil bo'ladigan jamlovchi sonlarning faol qo'llanishi ikkidan yettigacha bo'lgan sonlarda ko'proq kuzatiladi.

Jamlovchi sonning –ov, -ala affiksli shakliga kelishik affikslari 3-shaxs egalik qo'shimchasidan keyin qo'shiladi, -ala affiksli shakliga esa kelishik affikslari egalik affiksining 1-shaxslaridan boshqa turlaridan keyin qo'shiladi va gapda ega, qaratqichli aniqlovchi va to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: *Ikkovi qadirdonlarcha ko'rishdilar. Ikkalasining bo'yi teng. Terimchilarning uchallasiga ham mukofot berildi. To'rta-langizdan boshqa hamma yig'ilishga qatnashdi*.

Bundan tashqari, jamlovchi son **ov+la+sh+ib** affiksi yordamida hosil bo'luvchi shaklga ham ega. Bu affiks bilan shakllangan jamlovchi sonlar ko'pincha fe'lga bog'lanib, gapda hol vazifasida keladi: *Uchovlashib ichkariga kirishdi*.

5. Chama son narsa miqdorini chamalab, taxminlab ko'rsatish uchun ishlatiladi va quyidagicha yasaladi: 1) –**tacha** affiksi orqali: *o'ntacha, beshtacha*; 2) –**lab** affiksi vositasida: *o'nlab, yuzlab*; 3) –**lar** qo'shim-chasi orqali: *soat birlar bo'ldi, o'ntalar*; 4) –**larcha** qo'shimchasi orqali: *o'nlar, yuzlar*; 5) sanoq yoki dona sonlarni juftlash orqali: *bir-ikki, ikki-uch, uch-to'rtta, besh-oltita*; 6) chama sonlarni hosil qilishda ba'zi taxmin ma'nosidagi so'zlar ham ishtirok etadi: *o'ttizga yaqin, yigirma chog'li, kamida o'nta, qariyb yuzta, yuzdan ortiq*.

Chama sonlar hisob so'zlari bilan qo'llanadi. Bunda chama ma'nosini hosil qiluvchi affikslar hisob so'ziga qo'shiladi: *Maktab uzog'i bilan yuz metrcha narida edi. Oradan bir yilcha vaqt o'tdi*.

Chama sonning gapdagi vazifasi uning qaysi so'z bilan birikishiga bog'liq bo'ladi. Masalan: a) ko'pincha otga bog'lanib, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Kuzgacha besh-oltita ketmon ishdan chiqdi. (A.Q)* b) fe'lga bog'lanib hol vazifasini bajaradi: *Ro'zimat qorong'ida ko'ziga yigirma besh yoshlarda ko'ringan edi. (A.Q.)* v) otlashgan holda shaxs ma'nosini ifodalaydi va gapda ega, vazifasini bajaradi: *bitta-yarimta sezgani yo'qmi, degan o'y bilan atrofga alangladi. (S. Ahmad)*

3-§. Tartib sonlar narsaning joylashish tartibini, o'rnini ifodalash bilan boshqa sonlardan farqlanadi. Ular sanoq songa **-nchi, -inchi, -lamchi** affiksini qo'shish orqali hosil bo'ladi: birinchi, ikkinchi, beshinchi, birlamchi, ikkilamchi kabi. Tartib sonlar boshqa son turlaridan farqli ravishda hisob so'zlari bilan qo'llanmaydi.

Tartib son yasovchi affikslar bir soniga qo'shilganda «ilk», «dastlabki», «oldingi» kabi so'zlar bilan sinonim bo'ladi: *Qishning birinchi kunlarida qor qalin yog'di*.

Tartib son yasovchi affikslar ikki soniga qo'shilganda «boshqa» so'ziga ma'nodosh bo'ladi: *Endi masalaning ikkinchi tomoniga e'tibor qarataylik*.

Narsa, hodisalar tartibini ko'rsatishda avval sanoq son undan so'ng tartib son qo'llaniladi: *Bir tomonda sho'x, ikkinchi tomonda kishining qalbini tirnaydigan katta ashula bo'lmoqda*.

Tartib son ba'zan narsaning turi yoki navini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Bunda tartib son narsaning joylashish o'rnini emas, aksincha, uning belgisi, xususiyati e'tiborga olinadi: *U yettinchi chiroqni oldiga qo'yib, erining to'nini yelkasiga tashlaganicha o'tirardi (S. Ahmad)*.

Tartib sonlar narsaning miqdoriga ko'ra belgisini ko'rsatib, gapda sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Atirgullar, ko'rkam karnaygullar, xil-xil gulbeorlar kuzning birinchi izg'irinarini pisand*

qilmaydi (O). Fe'l-kesimga bog'lanib, gapda miqdor holi vazifasini bajaradi: *Bunday go'zallikni Abrorjonning birinchi ko'rishi edi.*

Tartib son otlashadi. Ular otlashganda avval egalik qo'shimchasi so'ng kelishik qo'shimchasi qo'shiladi va gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi kabi vazifalar bajaradi: *Ikki o'tliq ancha gaplashib turgandan keyin biri qishloq tomonga ketdi, ikkinchisi orqaga qaytdi.*

Tartib sonlar gap bo'laklariga grammatik jihatdan bog'lanmay, kirish so'z vazifasida ham qo'llanadi: *Birinchidan, hali juda yoshsiz, ikkinchidan, bu vazifani uddalashga tajribangiz yetisharmikan.*

4-§. Sonning tuzilishiga ko'ra turi. Sonlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va takroriy kabi turlarga bo'linadi.

Sodda sonlar bir o'zak morfemadan iborat bo'lgan sonlardir. Hozirgi o'zbek tilida faol ishlatiladigan 23 ta sodda son bo'lib, ular yozuvda arab va rim raqamlari bilan, shuningdek, harflar vositasida ifodalanadi. Ular quyidagilar: *nol, bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to'qson, yuz, ming, million, milliard.* Sonlarning boshqa turlari mazkur sodda sonlarning qo'shilishi, juftlanishi, takroridan tuziladi. Ayni paytda, sodda sonlar sonning ma'no jihatdan turlarini shakllantirishda ham asos bo'ladi: *beshta, ikkala, to'rttadan, uchov, o'nlaracha, oltinchi* kabi.

Hozirgi tilimizda sodda sonlar qatoridan o'rin egallaydigan *oltmish, sakson va to'qson* sonlari aslida *olti-mish, sakkiz-o'n, to'qqiz-o'n* singari qo'shma sonlar asosida hosil bo'lgan.

O'zbek tilida ayrim sodda sonlar so'zlar bilan **sinonimik** munosabatga kirishadi. Masalan: *bir-yakka, yolg'iz, yagona; ikki-qo'sh, juft* kabi. Shuningdek, sodda sonlar tilimizdagi ba'zi so'zlar bilan **omonim, paronim** bo'lishi ham mumkin. Masalan: *pichoqning uchi, osmonga uch* kabilar *uch* sonining, *qirq (aza marosimi), arqonni qirq* kabilar *qirq* soningomonimidir; *to'rt* soni esa nutqda *to'r(uyning to'ri)* oti bilan paronim bo'lishi mumkin.

Qo'shma son ikki yoki undan ortiq sodda sonning birikishidan tuzilgan sonlardir: *o'n besh, yigirma sakkiz, bir yuz qirq, uchdan bir, uch butun undan ikki.*

Tildagi ba'zi qo'shma sonlar ham tarixan o'zining sinonimlariga ega bo'lgan. Masalan: *o'n ming-tuman, yuz ming-lak, o'n olti-bir pud* kabi.

Juft sonlar ikkita har xil sonning teng aloqadagi takroridan tuzilgan sonlardir. Juft sonlar sodda va qo'shma sonlarning quyidagi tartibda teng aloqaga kirishuvi orqali shakllanadi: a) sodda son+sodda son: *bir-ikki, ikkita-uchta, bitta-yarimta, to'rt-beshta* kabi; b) sodda son+qo'shma son: *o'n-o'n beshta, o'n besh+yigirmata, sakson-sakson beshta* kabi; d) qo'shma son+qo'shma son: *yigirma uch-yigima to'rt, to'rt yuz-besh yuz* kabi.

Nutqda sanoq, dona, taqsim sonlar juft holda qo'llanganda taxmin, chama ma'nosi hosil bo'ladi.

Takroriy sonlar ikkita bir xil shaklga ega bo'lgan sonlarning aynan takroridan tuziladi. Nutqda sanoq, dona va taqsim sonlar takroriy sonlar shaklida ishlatiladi: *bir-bir, ikita-ikkita, beshta-beshadan* kabi. Sonlar-ning takrori orqali taqsim son hosil bo'ladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Hozirgi o'zbek tilida faol qo'llanadigan sonlar qaysilar?
2. Son bilan sinonim bo'lgan qanday so'zlarni bilasiz?
3. Sonning grammatik ma'no va vazifalarini vujudga keltiruvchi vositalar haqida ma'lumot bering.
4. Sonning ot va sifat bilan qiyoslab tavsiflang.
5. Hisob so'zlarining qo'llaninishi xususida ma'lumot bering.

ZARURIY ADABIYOTLAR

1. Ш. Шоабдурақмонов, М. Асљарова, А. Қожиев, И. Расулов, Х. Дониёров Қозирғиёзбекадабийтили. 1-љисм. Т., «Њљитувчи» 1980.
2. У. Турсунов, Ж. Мухторов, Ш. Раќматуллаев Қозирғиёзбекадабийтили. Т., «Њљитувчи» 1992.
3. Њзбек тили грамматикаси. 1-том. Т., «Фан» 1975.
4. М. Мирзаев, С. Усмонов, И. Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.

MA'RUZA

Olmosh so'z turkumi

1-§. Olmoshlar mustaqil so'z singari shaxs, narsa, belgi yoki qiymat tushunchasini bildirmay, ular o'rnida almashib keladigan, ularning mavjudligiga ishora qiladigan so'zlardir. Masalan: *men-shaxsga, nima-narsaga, shu, bu, o'sha*-belgiga, *qancha, shuncha* olmoshlari esa miqdor-ga ishora qilishi bilan o'zaro farqlanadi. Olmoshlar aniq ma'no bilan mavhum ma'noning almashinib qo'llanishini ta'minlaydigan so'zlardir. Ularning qanday ma'noda qo'llangani matnda ishtirok etuvchi til birlik-larining munosabatiga qarab oydinlashadi. Masalan: *Shunday o'lka doim bor bo'lsin*, gapidagi *shunday* olmoshi narsa belgisini boshqasiga taqqoslab ko'rsatish uchun xizmat qilgan. Biroq, ba'zi olmoshlar, xususan, *kim, men, sen, qanday* olmoshlarini ot yoki sifat bilan almashtirib bo'lmaydi. Qayd etilganlardan ma'lum bo'ladiki, olmoshlar mustaqil so'zlarning doimiy muqobili sifatida nutqning ixchamligi, qisqaligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Olmoshlar quyidagi o'ziga xosliklarga egaligi bilan xarakterlanadi:

1. Olmoshlar boshqa turkumlardan farqli ravishda so'z yasaliş tizimi-ga ega emas. Ya'ni boshqa so'zlaridan olmosh yasalmaydi. Olmoshlar-dan affiksalar orqali sanoqli so'z yasaliş mumkin: *manmanlik, men-simaslik, sensirash, shunday*. Shuningdek, olmoshlar ba'zi so'zlar bilan birikib boshqa turkumga ko'chadi: *qayerda, ozmuncha, o'zboshimcha*.

3. Olmoshlar otlarga xos so'z o'zgartuvchilarni qabul qiladi: *kimni, bizga, hech kimdan* kabi. Ba'zi olmoshlar o'zgartuvchi qo'shimchalar bilan qo'llanganda turli fonetik o'zgarishlar sodir bo'ladi: *sen+ing, men+i; u+n+ga, shu+n+ga* kabi.

4. Olmoshlar egalik affikslari bilan qo'llanishda ayrim xususiyatlar mavjud: 1) ot tipidagi so'roq, bo'lishsizlik, belgilash, o'zlik olmoshlari egalik qo'shimchalari bilan qo'llanadi: *kimi, nimasi, hech kimim, hech nimam, o'zim, o'zing, o'zi, hammasi, barchasi* kabi; 2) paytga nisbatan so'roq ishlatiladigan va sabab - maqsadni aniqlash uchun ishlatiladigan so'roq olmoshlari, I, II shaxs kelishik olmoshlari egalik affiksini olmaydi, ya'ni qachon+im, nega+m, men+im deb ishlatilmaydi; 3) u ko'rsatish olmoshi va qaysi, necha kabi so'roq olmoshlari egalik affiksini, asosan, otlashganda qabul qiladi: qaysisi, unisi, kabi.

5. Ko'plik qo'shimchasi I shaxs birlikdagi kishilik olmoshiga qo'shilmaydi (men+lar tarzida ishlatilmaydi). II shaxs birlikdagi kishilik olmoshiga -lar qo'shimchasi qo'shilsa ko'plik emas, hurmatsizlik, mensimaslik ma'nosi hosil bo'ladi: Senlar. I-II shaxs ko'pligi esa, bir so'zlovchi va boshqalar, bir tinglovchi va boshqalar kabi ma'noga ega bo'lib, guruh ifodalash uchun xizmat qiladi: bizlar, sizlar (biz va boshqalar) kabi. So'roq olmoshiga -lar affiksi qo'shilsa quyidagicha ma'nolar hosil bo'ladi: a) taxmin ifodalaydi: *Soat nechalar bo'ldi?*; b) ma'no kuchaytiriladi: *Qanchalar qiynaldim!* d) "qadim", "ancha vaqt" ma'nosini ifodalaydi: *Qachonlardir bu yerlarda hayot qaynagan edi*.

6. Ma'no va gapdagi vazifasiga ko'ra olmoshlar a) ot vazifasidagi olmoshlar, b) sifat vazifasidagi olmoshlar, g) son vazifasidagi olmoshlar, d) ravish vazifasidagi olmoshlarga bo'linadi: 1) **men, sen, biz, siz, u, kim, nima, har kim, hamma, hech nimakabi** ot vazifasidagi olmoshlar shaxs va narsaga ishora qilib, otlarga xos so'z o'zgartiruvchi-larni qabul qiladi va gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqichli aniqlovchi vazifasini bajaradi. Masalan: *Biz abadiy bahormiz, biz insoniyat kelajagimiz. Har kimning o'z kasbi o'ziga aziz. Qadrdan do'stlarning uchrashuvi barchani o'ziga jalb etdi*; 2) **qanday, qaysi, bu, shu, shunday, allaqanday, qandaydir, ba'zi** kabi olmoshlar belgiga ishora qilib, gapda sifatlar singari ot oldida keladi va sifatlovchi aniqlovchi, hol, kesim vazifasini bajaradi: *kecha savollarni bo'lib olgan ba'zi bolalar o'qituvchini quvonib kutib oldi*; 3) **Necha, nechanchi, qancha, har qancha, bir Necha** kabi olmoshlar sonlar kabi miqdor ifodalaydi va gapda ot oldida kelib, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Biroq, olmoshlar hech qachon o'zidan avval aniqlovchi olmaydi: *Ro'yxatga nechanchi o'rinda yozildingiz?* ; 4) **Nega, qalay, qani** kabilar harakat belgisini ifodalaydi va gapda hol vazifasini bajaradi: *nega o'qimaysan, nega javob bermaysan? Gapir!*

7. Olmoshlar ergashgan qo'shma gap tarkibida nisbiy so'z sifatida ham ishtirok etadi: **Kim** ko'p mehnat qilsa, **u** yaxshi yashaydi. **Shuni** unutmazlik kerakki, **umidsizlik** kishining hayotga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi.

8. Olmoshlar ma'no xususiyatlariga ko'ra 1) kishilik, 2) ko'rsatish, 3) so'roq, 4) o'zlik, 5) belgilash, 6) bo'lishsizlik, 7) gumon kabi turlarga bo'linadi.

2-§. Kishilik olmoshlari nutq so'zlanayotgan paytda ishtirok etgan yoki tilga olingan shaxs va narsaga ishora qiluvchi so'zlardir. Kishilik olmoshlari asosan ot o'rnida qo'llanadi va uch shaxsni ifodalaydi: 1-shaxs (men) – so'zlovchi, 2-shaxs (Sen) – tinglovchi, 3-shaxs (u) – nutq jarayonida ishtirok etmaydigan, so'zlovchi va tinglovchi tomonidan eslatilgan shaxs yoki narsani ifodalaydi.

Ko'plikda esa 1-shaxs (biz) – so'zlovchi va boshqa shaxslarni, 2-shaxs (siz) tinglovchi va boshqa shaxslarni, 3-shaxs (ular) nutq jarayonida ishtirok etmaydigan birdan ortiq shaxs yoki narsani ifodalaydi.

Shaxs	Birlik	Ko'plik
1- shaxs (so'zlovchi)	men	biz
2- shaxs (tinglovchi)	sen	siz
3- shaxs (o'zga)	u	ular

1. Kishilik olmoshlari nutqda quyidagi xususiyatga ega bo'ladi:

1) kishilik olmoshlari, o'z ma'nosidan tashqari, shaxs va son ma'nosi ko'chgan holda qo'llanishi mumkin. Masalan, kamtarlik ma'nosida **men** o'rnida **biz** olmoshi ishlatiladi: *Biz o'z tadqiqotimizda sohaga doir yirik olimlarning fikrlariga tayandik.* Ba'zan xuddi shunday shaklda manmanlik ma'nosi ham yuzaga kelishi mumkin: *Biz o'z ishimizni bilib qilamiz, maslahatingizga zor emasmiz!* Ichki monologik nutqda **sen** olmoshi **men** o'rnida ishlatilishi mumkin. Bunda so'zlovchining o'z-o'zini tergashi anglashiladi: *Sen o'z odobing, g'amxo'rliging bilan odamlar ko'ngliga yo'l topa olishing kerak;* 2) I shaxs ko'plikdagi kishilik olmoshi **biz** II shaxs ko'plik-dagi **siz** olmoshi o'rnida qo'llanishi mumkin. Bunday qo'llanishda ko'pincha boshqa shaxslarni ma'lum bir ishni bajarishga tashviq qilish, undash ma'nosi anglashilib turadi: *Qani, endi biz ham ishga tushaylik.* 3) I shaxs ko'plikdagi **biz** olmoshi II shaxs birlikdagi **sen** olmoshi o'rnida qo'llanganda shaxs va son ma'nosi birlikda ko'chadi: *Xush, biz endi buyog'iga nima deymiz?* 4) kishilik olmoshlaridan **men** ko'plik affiksi bilan qo'llanmaydi. **Sen** olmoshi -lar affiksi bilan birga qo'llanganda tinglovchi va boshqa shaxslarga munosabatni yoki tinglovchiga nisbatan Mensimaslik ma'nosi ifodalanadi: *Senlar hech qachon yaxshilikni bilmaysanlar!*

2. Kishilik olmoshlarining so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar bilan ishlatilishida quyidagi kabi o'ziga xosliklar mavjud: a) kishilik olmoshlariga odatda egalik affikslari qo'shib kelmaydi; b) bu olmoshlar kelishik affikslarini olib turlanishi mumkin: *mening, seni, uning, sizda, sizga, ulardan* kabi. **Men**, **sen** olmoshlari tushum va qaratkich kelishiklari bilan turlanganda qo'shim-cha tarkibidagi **n** tovushi tushib qoladi: *men+i, men+ing, sen+i, sen+ing* kabi; d) 1,2-shaxsni ko'rsatuvchi kishilik olmoshlari kesim vazifasida kelganda shaxs-son affikslarini olib tuslanishi mumkin: *menman, sensan, bizmiz, sizsiz* kabi.

3. Kishilik olmoshlari gapda ega, qaratqich aniqlovchi, to'ldiruvchi, kesim vazifasida qo'llanadi: *Biz sof dil, kamtar, ishda tadbirli, turmushda haqqoniy bo'lishimiz kerak. (O.Yo) Hayotni qancha sevsang, u senga shuncha go'zal ko'rinadi. (O.) Hammaning e'tibori bizda.*

3-§. Ko'rsatish olmoshi. Ko'rsatish olmoshi shaxs, narsa yoki belgini ko'rsatish, ta'kidlash uchun ishlatiladi. Olmoshning bu turiga: *u, bu, shu, usha, mana shu, ushbu* kabi so'zlar kiradi. Ko'rsatish olmoshlari tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) sodda ko'rsatish olmoshlari: *u, bu, shu, o'sha*; 2) qo'shma ko'rsatish olmoshlari: *mana shu, ana shu, mana bu, anavi (ana u).*

Ko'rsatish olmoshlarini ular ishora qiladigan narsaning makon va zamonga munosabati nuqtai nazardan aniq va noaniq ma'noli ekanligi bilan farqlanadi: Aniq ma'noni ifodalovchi ko'rsatish olmoshlari makon va zamonning yaqin-uzoqligini ifodalashiga ko'ra ikki xil bo'lishi mumkin. Masalan: a) **shu** olmoshi so'zlovchiga masofa va vaqt jihatdan yaqin bo'lgan voqea yoki narsani bildiradi: *shu institutda o'qiyman* (so'zlovchi ko'rsatib gapirayotgan institut yoki so'zlovchi oldin shu haqda gapirgan, hozir eslayotgan institut); b) **o'sha** olmoshi so'zlovchidan nariroqdagi narsani yoki avvalroq bo'lgan voqeani bildiradi: *o'sha (o'sha kishini chaqiring).*

Noaniq ma'noli ko'rsatish olmoshlari noaniq narsa, notanish shaxs yoki voqealarni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Masalan, **bu**olmoshi avvaldan ma'lum bo'lmay, so'zlash jarayonidagigina ma'lum bo'lgan, so'zlovchining yaqinidagi narsa yoki shaxsni ko'rsatadi: *Bu kitob hammani qizqtiradi*. Uolmoishi ham so'zlash jarayonida ma'lum bo'lgan, lekin so'zlash vaqtida mavjud bo'lmagan yoki so'zlovchidan uzoqroqdagi narsani yoki voqearni ko'rsatadi: *U vaqtlar mustaqillik haqida gapirib bo'lmasdi*.

Mana, anaso'zlari ham masofa ko'rsatishga ko'ra farqlanadi. Masalan, **manaso'**zi ko'rsatish olmoshlari bilan birikib kelganda yaqindagi narsani, **anaesa** uzoqdagi narsani ko'rsatadi. *Mana, ana* so'zlari *o'sha* olmoshi bilan yonma-yon kelishi mumkin. Bunday vaqtda qo'shma olmosh emas, alohida so'z sifatida ishtirok etadi. Masalan: *O'sha ishlarning natijasi mana, gapida o'sha aniqlovchi, mana esa kesimdir*.

Manaso'zi **bu, shu**olmoshiga qo'shilib, so'zlovchiga yaqin bo'lgan narsa yoki belgini ko'rsatadi: *Mana bu qilingan ishlarning hisoboti. Mana bu shu yerda oldirgan suratlari*.

Anaso'zi ham **bu, shu**(ba'zan *u*) olmoshlari bilan birga qo'llanib, so'zlovchidan nariroqda bo'lgan narsa, shaxs yoki belgini ko'rsatadi: *Biz ana shu maktabda o'qigan edik*.

Mana, anaso'zlariga **bu, uolmoshlari** qo'shilganda fonetik o'zgarish sodir bo'lishi mumkin: *manavi, anavi. ertaga anavi olti otning birovini minib kelayin. (E. Jumanbulbul)*.

Ko'rsatish olmoshlari ot, sifat va ravishlar o'rnida qo'llanadi: a) ot o'rnida ishlatiladigan ko'rsatish olmoshlari otlar kabi shaxs yoki narsalarni ularga ishora qilish orqali nomlaydi. *A'zamjon bilan Toshkentda kurishgan edim, o'sha gapirib berdi (A.Q).* **Bularning ishi- qiyin ish.**; b) sifat o'rnida ishlatiladigan ko'rsatish olmoshlari ot va otlashgan so'z oldidan kelib, uning belgisini ifodalaydi: *Sen bizga eng rostgo'y, eng vijdonli odam bo'lganing uchun ham keraksan. Buni u qizga ham bildirib qo'y (P.Qodirov);* d) **shu, o'sha**olmoshlari takror holda qo'llanib, ravish o'rnida ishlatiladi: *O'sha-o'sha kampir bilan G'afforjon biznikida qolib ketdi. (A. Q)*

Ko'rsatish olmoshlari **-day, -cha** affikslarini olgan holda sifat va ravish o'rnida ishlatiladi vanarsa, harakatning belgisini, belgining belgisinibildiradi: *shunday kishi, bunday odat, ushanday uylar; bunday ushlang, shunday turing; shunday yaxshi odam, bunday chiroyli bino, bunday tez yozish*.

Ko'rsatish olmoshlari ko'pincha juftlanib yoki takrorlanib qo'llanadi:

1. **Shu, o'sha**olmoshlari takrorlanib, qo'yidagi xusu-siyatga ega bo'ladi: a) payt ma'nosini bildiradi: *Shu-shu xo'jalikning ishi yurishib ketdi*. b) «bir xil», «qadimgicha» degan ma'noni bildiradi: *Tursunoy tuzukmi? -O'sha-o'sha, opajon (As.M.)*.

2. **U, bu**olmoshlari juftlanib, quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: a) **uolmoshi** oldin, **buesa** keyin keladi. Juftlangan ko'rsatish olmoshlari bosh, tushum, chiqish va jo'nalish kelishik shakllarida ko'proq. shaxs, narsa ma'nosini bildiradi: *Do'kondan u-bu olib keldim. Hozir nafaqadaman, uyda unga-bunga qarayman;* b) o'rin-payt kelishigi shaklida qo'llanilib payt yoki o'rin ma'nosinibildiradi: *Unda-bunda biznikiga ham kelib turing. O'rik unda-bunda gullabdi*.

Ko'rsatish olmoshlari **kun, yil, payt, zamon**kabi otlar, **yoq, tomon, yerso'**zlar bilan birga qo'llanib, payt yoki o'rin ravishga ko'chadi: *shu kuni, shu yili, shu zamon, bu yoqqa, shu yerda, u tomonda*.

Ko'rsatish olmoshlari gapda quyidagi vazifalarda keladi: a) ega: *Mustaqillik. Bu-biz uchun katta sharafdir;* b) tuldiruvchi: *Shularni odam yaratgan, ularda odam qo'lining izi bor. (S.Ahm.);* d) aniqlovchi: *Qiz go'yo o'sha devordagi surat ichidan chiqib kelayotgandek tuyulardi. (M.Qoriyev);* e) hol: *Hayotga doim tabassum bilan boq, ana shunda hayot Senga do'stona qo'l cho'zadi;* f) kesim: *Niyatim ham shu edi. (S. Ahm.)*

Bundan tashqari, ko'rsatish olmoshlari ergashgan qo'shma gap tarkibida nisbiy so'z vazifasida ham qo'llanadi: *U shuni tushundiki, Zamira telefonda eshitgan muhim bir gapni aytmadi. (P.Q.) Shunday ajoyib odamlar bo'ladiki, ularni mansab ham, shon-shuhrat ham o'zgartirmaydi. (H.G')*

4-§. So'roq olmoshlari. Nutq jarayonida ishtirok etuvchilarga ma'lum bo'lmagan narsani aniqlab bilish uchun ishlatiladigan olmoshlar so'roq olmoshlari deyiladi.

So'roq olmoshlari shaxsga (*kim*), narsaga (*nima*), belgiga (*qaysi, qanday*), miqdorga (*necha, qancha*), vaqtga (*qachon*), maqsad va sababga (*nega, nimaga*) va o'ringa (*qani*) munosabat bildirishiga ko'ra o'zaro farqlanadi.

1. Kim olmoshi shaxslarga nisbatan qo'llanadi va quyidagicha xususiyatlarga ega bo'ladi: 1) shaxsga nisbatan so'roq, ifodalaydi va otlar kabi egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini qabul qiladi: *kimim, kiming, kimi, kimning, kimdan* kabi. Biroq ko'plik affiksini olganda narsaning birdan ortiq ekangini emas, shaxsninig kimligini yoki unga nisbatan hurmat ma'nosini ifodalaydi: *Darsga kimlar kelmadi? U kishi kimlar?*; 2) ba'zan takrorlakib kelib, shaxslarning kimligini aniqlash uchun qo'llanadi: *Kim-kim keldi?*

Kim olmoshi gapda ko'pincha ega, kesim, to'ldiruvchi va qaratqich aniqlovchi bo'lib keladi: *Kim o'z yurtini sevmaydi? Bemahalda eshik*

qoqqan kim? Bunaqa gaplarni kimdan eshitding? Kimning ovozi baland?

2. Nima olmoshi narsa yoki voqealarga nisbatan so'roq bildiradi va quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: 1) otlar kabi egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini olib, so'roq ma'nosini yoki noaniq narsa ma'nosini ifodalaydi. Shunga ko'ra, bu xildagi so'zlar ishtirok etgan gaplar ifoda maqsadiga ko'ra so'roq yoki darak gap bo'lishi mumkin: *Siz nimani yoqtirasiz? Nimadan gap ochishini bilmay turdi*; 2) **nima** olmoshi so'roqdan tashqari narsa, narsalar ma'nosini ifodalagani uchun ayrim hollarda tushum kelishigida belgisiz ishlatilishi mumkin: *Mendan nima istaysiz?*; 3) jo'nalish kelishigi shaklidagi so'zdan keyin kelib, e'tiborsizlikka undash, befarqlikka chaqiriq ma'nosini bildiradi: *Senga nima, istagan narsang muhayyo bo'lsa?*; 4) **nimaso'zi** III shaxs birlikda egalik affiksini olib, gapda otlarga o'xshash vazifani bajaradi: *Buning nimasi yomon?*; 5) egalik qo'shimchasini qabul qilib xoslik emas, taajjub ma'nosini ifodalovchi so'roq gaplarning kesimi bo'lib keladi: *Iya, bu nimasi?*

Bu olmosh gapda ega, kesim, tulduruvchi, ba'zan qaratqichli aniqlovchi bo'lib keladi: *Seni nima qiziqtiradi? Oting nima? Nimani istaysan? Nimaning foydasi kup?*

3. Nega (nimaga) olmoshi harakatning sodir bo'lishidagi sabab, maqsadni aniqlash uchun ishlatiladi va quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: 1) deyarli hamma vaqtravish xarakteriga ega bo'lib, bo'lishli shakldagi fe'llar oldida keladi va sabab, maqsadni aniqlash uchun beriladigan so'roqni ifodalaydi: *Nega kelding? Nega kechikding? Nimaga kechikding?*; 2) bo'lishsiz fe'l oldida kelib, deyarli hamma vaqt sababni bildiradi: *Nega meni kuzatib qo'ymaydi?*; 3) **negaso'zi -dir** affiksining qo'shilishi bilan voqea-hodisaning sodir bo'lish sababi so'zlovchi uchun noma'lum ekanligini bildiradi: *Negadir bu kishining o'zi ham sov-g'asi ham Navoiyga yoqmagan edi. (O.);* 4) **nega** olmoshi asosan ravish o'rnida ishlatilgani uchun ham so'z o'zgartuvchi affikslarni olmaydi. Shu bois **nega** olmoshi gapda asosan sabab yoki maqsad holi bo'lib keladi. *Nega ketib qoldingiz? Nega kelmadingiz?*

4. Necha (ne + cha) olmoshi **ne** o'zagi bilan bog'liq bo'lib, narsaning miqdoriga nisbatan so'roq ifodalaydi va quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: 1) ot oldidan yakka va takror holda kelib, deyarli hamma vaqt birlik shaklda qo'llanadi: *Necha voqealar bo'lib o'tmadi. Necha-necha dovonlar oshdik*; 2) bu olmosh sonlarga o'xshash tartibni ko'rsatish uchun -nchi, donalikni ifodalash uchun -ta, taqsimlash ma'nosini bildirish uchun -tadan affikslarini oladi: *Nechanchi, nechta, nechadan*; 3) **necha** olmoshi otlashib, kelishikning hamma shakllarida kela oladi: *nechanchi, nechaga, nechaning, necha-dan, nechaga*; 6) ko'plik affiksini qabul qilganda noaniq taxminiy miqdor va paytni ko'rsatadi:

Soat nechalarda yig'ilshamiz? 7) **birso**'zi bilan birga kelib, noaniq ko'plik ma'nosini bildiradi: *bir necha kishi, bir necha kitob*; 8) **nechaso**'zi narsa miqdoriga nisbatan so'roqni ifodalaganda, sonlar kabi numerativlar bilan birga qo'llanadi: *Necha kilometr yul bosdim ekan*.

Necha olmoshi gapda asosan aniqlovchi va kesim bo'lib keladi: *Necha kishi keldi? O'quvchilarning soni nechta?* Otlashib ega va to'ldiruvchi vazifasida ham kela oladi: *O'quvchilarning nechtasi keldi? Kitobning nechtasini olasan?*

5. Qanday, qanaqa olmoshi narsa yoki harakatning belgisiga nisbatan so'roqni bildirib, quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: 1) sifat oldida kelib, belgining belgisini bildiradi. Odatda, bunday qo'llanish undov gaplarda uchraydi: *Qanday chiroyli manzara!*; 2) ot oldida kelib, narsaning belgisiga nisbatan so'roqni bildiradi: *Qanday fikrlaringiz bor?*; 3) fe'l kesim oldida kelib harakatning yuzaga kelishidagi holatga nisbatan so'roqni bildiradi: *Shunday deyishga qandoy tilingiz bordi*; 4) qandayso'roq olmoshi ba'zan narsa miqdorini aniqlash uchun ham ishlatiladi: *Do'ppilarning narxi qanday?* (O).

6. Qaysi olmoshi narsaning tartibga yoki o'ringa ko'ra belgisini aniqlash uchun qo'llanadi: *Qaysi kishi?, qaysi bino?* Bu olmoshning o'zagi *qay* so'zi bo'lib, uning tarkibida egalik affiksi qotib qolgan holda ishlatiladi. Shu bois unga egalik affiksi ketma-ket qo'shiladi: *qay+si+si, qay+si+lar+i*.

Qaysi olmoshning qo'llanishida quyidagi xususiyatlar mavjud: 1) *qaysi* olmoshi sifat xarakteriga ega bo'lgani uchun otlashgandagina egalik va kelishik affikslarini oladi. Lekin bu so'z shaxs yoki narsalar qatoridan birini belgilash, ayirib ko'rsatish uchun beriladigan so'roq bo'lgani uchun ham egalikning 1-shaxs birlik shakida kelmaydi: *qaysing, qaysisi, qaysimiz, qaysingiz, qaysilari*; 2) gapda aniqlovchi, kesim, otlashganda ega, to'ldiruvchi bo'lib keladi: *Qaysi kitobni o'qidingiz? Yangi ochilgan do'kon qaysi? Musobaqada qaysingiz g'olib bo'ldingiz?*

7. Qancha olmoshi narsa yoki harakatning miqdoriga ko'ra belgisini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu olmosh quyidagi xususiyatlarga ega: 1) narsaning miqdorini aniqlash uchun qo'llanganda, o'zidan keyingi ot ko'pincha birlikda keladi: *Qancha kitob olding?*; 2) yakka holda yoki takrorlanib kelib, miqdorning ortiqqligini bildiradi: *Qancha-qancha kishilar bu yorug' kunlarni orzu qilgan edi*; 3) bu olmosh takrorlanib kelganda, birinchi olmosh chiqish kelishigi qo'shimchasini olishi mumkin: *Mustaqillikdan so'ng qanchadan-qancha yangi inshootlar foydalanishga topshirildi*. 6) gapda aniqlovchi, hol, kesim, otlashganda esa ega va to'ldiruvchi bo'lib keladi: *Darsga qancha talaba kelmadi? Qancha yurdik? Talablarning jami qancha?*

8. Qachon olmoshi harakatning bajarilish vaqtini aniqlash uchun ishlatiladi va gapda, asosan fe'lga bog'lanadi. Bu olmosh boshqa so'roq olmoshlaridan farqli ravishda otlashish xususiyatiga ega emas. Biroq, **-lar** affiksini olib: a) taxminiy vaqtga nisbatan so'roqni bildiradi: *qachonlar kelasiz?*; b) biror harakatning yuzaga kelganiga ko'p vaqt o'tganligini bildiradi: *Qachonlar kelgan edim*; d) Qachon so'zi o'rin-payt, chiqish kelishigida yoki yakka holda kelib gapda payt holi, kesim bo'lib keladi: *Safardan qachon qaytasiz? Sinovlar qachondan boshlanadi?* Qachonso'zi o'rnida ba'zan *qay+kuni, vaqt, mahal* kabi birikmalar ham ishlatiladi.

9. Qani olmoshi ko'pincha shaxs yoki narsa, voqea-hodisalar-ning mavjudlik o'rnini anilash uchun ishlatiladi va nutqda quyidagi xususiyatga ega bo'ladi: a) narsa-shaxsning joylashish o'rniga ko'ra so'rq ifodalaydi va gapda ko'pincha kesim bo'lib keladi: *So'mkan-giz qani?*; b) kirish so'z bo'lib keladi: *Qani, ichkariga marhamat*.

10. Qalay olmoshi voqea-hodisaning va harakatning bajarilish holatini aniqlash uchun xizmat qiladi va quyidagicha xususiyatlarga ega bo'ladi: 1) holatni so'rash uchun qo'llanib, gapda ko'pincha kesim bo'lib keladi: *Uqishlaring qalay?*; 2) harakatning bajarilish holatiga nisbatan so'roq sifatida qo'llanganda, gapda hol vazifasini bajarishi mumkin: *Singlimiz qalay o'qiyapti?* 3) Qalayso'zi ko'pincha qandayolmoshiga sinonim

bo'ladi, biroq u otlarning belgisini aniqlash uchun qo'llanmaydi; 4) ba'zan kirish so'z vazifasida keladi: *Qalay, fikrimiz sizga ma'qulmi?*

Ko'pchilik so'roq, olmoshlari qo'shma gap tarkibida nisbiy so'z vazifasida keladi. Ergash gap tarkibida kelgan bunday suroq olmoshlari so'roq, ma'nosidan chetlashgan bo'ladi: *Kim mehknat qilsa, u rohat ko'radi. Nimani buyursang, shuni keltiraman. So'z tarkibida unli tovushning soni qancha bulsa, bo'g'inlar soni ham shuncha bo'ladi.*

5-§. O'zlik olmoshi aniq yakkalikni ajratish, belgilash va ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Olmoshning bu turi o'zso'zidan iborat bo'ladi. O'z olmoshi har uchala shaxs, birlik va ko'plikdagi kishilik olmoshlari o'rnida ishlatilib, ko'pincha shaxsni, ba'zan narsani ko'rsatadi.

O'z olmoshining nutqda qo'llanishiga doir qo'yidagi holatlarni kuzatish mumkin: 1) o'z olmoshi bosh kelishik shaklida egalik bilan kelib, uchala shaxs birlik va ko'plikni ifodalashi mumkin. Bunday holda shu kabi ma'noga ega bo'lgan kishilik olmoshlariga sinonim bo'ladi: *O'zim-men, o'zing-sen, o'zi-u, o'zimiz-biz, o'zingiz-siz, o'zlari-ular (Ayb o'zingda!—Ayb senda!).* Biroq hamma vaqt ham o'z olmoshi o'rnida kishilik olmoshini qo'llab bo'lmaydi. Chunki ba'zan o'z olmoshi o'rnida kishilik olmoshi ishlatilsa yo uslubda ancha o'zgarish sodir bo'ladi, yoki ularni mutlaqo almashtirib bo'lmaydi; 2) otlar oldida qo'llangan o'z olmoshi ular anglatgan narsani aniqlab ko'rsatadi: *Bu kunlarda har kim o'z dard-alami, o'z g'am-hasrati bilan band edi. (A. Q.);* 3) o'z olmoshi II shaxs birlik, III shaxs ko'plik shaklida kelganda ba'zan undagi shaxs ma'nosi ko'chadi: *O'zing nima g'amdasan-ku, buning kulishini qara (men nima g'amdaman-ku...), Qani, o'zlaridan bo'lsin (sizdan bo'lsin)* 4) o'zso'zi yolg'iz so'ziga sinonim ma'noni bildiradi: *U uyda faqat o'zi o'tiribdi (...u yolg'iz o'tiribdi);* 5) o'z olmoshi takrorlanib qo'llanishi mumkin. Bunday vaqtda uning bir qismi biror kelishik qo'shimchasini olib keladi. Qismlarning bu xilda qo'llanishi shu so'zning ma'nosiga va grammatik holatiga ham quyidagicha ta'sir ko'rsadi: a) agar birinchi qism affiksiz, keyingisi affiksli qo'llansa, birgina o'z so'zning ma'nosi kuchaytirilib, ta'kidlab ko'rsatiladi va bu juftlik bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi: *...o'z-o'zicha g'udur-lay boshladi.* b) oldingi qism egalik va kelishik qo'shimchalarini olgan holda, keyingisi esa belgisiz qo'llanadi va ikki xil gap bo'lagi vazifasini bajaradi: *O'zini o'zi tergaydi.* d) takrorlangan o'z olmoshi tarkibida **-dan** affiksi qotib qolgan shaklga kelib, o'z olmoshi ravishga ko'chadi: *o'zidan-o'zi yig'lab yubordi;* 6) o'zso'zi ba'zan qo'shma so'z tarkibida ham keladi: *o'z+boshimcha, o'z+bilarmonlik, o'z+aro* kabi; 7) o'zlik olmoshiga kelishik qo'shimchalari faqat egalik affiksidan so'nggina qo'shiladi: *o'z+i+ni, o'z+i+ga;*

O'z olmoshi barcha gap bo'lagi vazifasida kela oladi: *Bu ishni o'zim bajardim. O'z uyim — o'lan to'shagim. Onajon, meni to'g'ri yo'lga boshlagan tarbiyachim o'zingsan.*

6-§. Belgilash olmoshlari narsa va shaxslarning to'dasini, jamini bildiradi yoki ularni ayirib, ta'kidlab ko'rsatadi. Shunga ko'ra ularni ikki kichik guruhga, ya'ni jamlash va belgilash olmoshlariga ajratish mumkin. Birinchi guruhga kiruvchi olmoshlar jamlikni ifodalasa, ikkinchi guruhga kiruvchi olmoshlar narsani qisman jamlash bilan birga ta'kidlab, belgilab, aniqlab ko'rsatadi.

1. Jamlash olmoshlariga *hamma, bari, jami, barcha, butun, yalpi* so'zlari kiradi. Bu olmoshlar narsa hamda shaxslar o'rnida qo'llanib, ot o'rnida, narsa belgisini ko'rsatib, sifat o'rnida keladi va quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: 1) ot vazifasida qo'llanganda egalik va ko'plik, kelishik qo'shimchalarini oladi: **Hammalari qotib-qotib kulishadi;** 2) **hamma, barcha, bariso'zi** shaxsga nisbatan ishlatilganda egalik affiksiz kelishik qo'shimchasini qabul qiladi. Narsaga nisbatan ishlatilganda esa, kelishik qo'shimchasi egalik affiksidan so'ng qo'shilib keladi: **Hammaga(barchaga) birdek;** 3) bu olmoshlar narsa belgisini, jamini ko'rsatib, sifat xarakterida bo'ladi: **Hamma daraxtlar ko'karibdi. Barcha mehmonlar biznikida;** 4) *hamma* olmoshi *yoq, vaqt* so'zlari bilan birga qo'llanib, o'rin va paytga munosabatni ko'rsatuvchi ravish yasaydi: **Hamma vaqt yurtdan**

o'zingizni chetga tortasiz-da, usta! (A.Q); 5)bariolmoshi ko'pincha ot xarakterida qo'llanib, narsa va shaxslarning yig'indisini ifodalaydi, gapda otga xos vazifalarda keladi. Bu olmosh aslan «bor» («mavjud») ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, keyingi **i** tovushi egalik affiksdir. *Bariso'zining* tarkibida III shaxs birlikni ifodalovchi egalik affiksi bo'lganligi uchun, ko'pincha qaratqich kelishigi shaklidagi so'z bilan birga ishlatiladi: *Bularningbaribizning qishloqdan ekan.* Bu olmoshda egalik affiksi ba'zan takrorlanib ham ishlatiladi: *Odamlarning bar+i+si;* 6) *jam+i* olmoshi tarkibidagi **i** tovushi asli III shaxs birlikdagi egalik affiksdir. Bu so'z ham ko'pincha qaratqich kelishigidagi so'z bilan birga qo'llanganda, egalik affiksi takrorlanib keladi : *Kelganlarning jami(si) 18 ta;* 7) **butun** olmoshi but+kul va butun+lay shakllarida qo'llan-ganda ravish o'rnida ishlatilib, harakatning miqdoriga ko'ra belgisini bil-diradi va gapda hol vazifasini bajaradi: *U shaharga butunlay ko'chib ketdi. Barcha tashvishlarni butkul esdan chiqarmoqchi edi.* 8)**yalpi** so'zi ham *butun* olmoshi kabi sifat xarakterida qo'llanib, narsa yoki shaxslarni jamlab ko'rsatadi: *Yalpi ishchilar majlislar zaliga to'planishdi. Yalpi* so'zi egalik affiksini olib, ot o'rnida keladi: *Qishloqdagi odamlarning yalpisi paxta terimi bilan band edi.*

2.Belgilash olmoshlariga *har* so'zi va shu so'zning ayrim so'roq olmoshlari, shuningdek, *bir, narsa* kabi so'zlar bilan qo'shilishidan hosil bo'lgan so'zlar kiradi: *har kim, har nima, har qanday, har narsa, har bir.* Demak, belgilash olmoshlari tuzilishiga ko'ra ikki xil: a) tub so'z holdagi **har** so'zi, asosan, ot oldidan kelib, uning belgisini sanash, ta'kidlash uchun xizmat qiladi: *Har toshlarki, odamning vahmi keladi.(S. A.);* b) qo'shma so'z holda: *har + so'roq* olmoshlari, *har+ bir, har+ narsa* shaklda qo'llanadi.

Harso'zi so'roq olmoshlari bilan birgalikda qo'shma olmosh shaklida ishlatilganda qo'yidagi ma'nolarga ega bo'ladi: 1) **harso'zi kim, nima, narsa**so'zlari bilan birga kelib, ot o'rnida qo'llanadi va egalik, kelishik affikslarini qabul qiladi: *Xulq har kimning qiyofasini ko'rsatadigan kuzgudir (Gyote);2) qanday (qanaqa), qaysiso'zi bilan birga sifat xarakterida qo'llanadi va narsa, shaxslarni umumlash-tirgan holda belgisini ko'rsatadi: *Har qanday xalqning urf-odatini bilay desang, avvalo, uning tilini bilishga urin (Pifagor);* 3) **har qaysi** olmoshi ko'pincha egalik affiksini olib, ot xarakterida ham qo'llanadi: *Har qaysimizning dilimizda andisha bor edi;* 4) **harso'zi** sifatlar bilan birga qo'llanishi ham mumkin: *Oldiga dasturxon yozib, har turli ovqatlardan olib kelib qo'ydi;* 5)**harso'zi qancha**olmoshi bilan birga qo'llanib miqdorning ortiqligini ko'rsatadi: *Kasalni har qancha yashirsang ham, baribir isitmasi oshkor qiladi;* 6) **harso'zi qachon**olmoshi hamda payt bildiruvchi so'zlar bilan birga keladi ravish xarakterida bo'ladi: *O'rtanur har dam Navoiy nola qilmog'i bila (Navoiy);* 7) o'ringa munosabat bildiruvchi ayrim otlar ham harso'zi bilan birga qo'llanishi mumkin: *Oh, tortib o'zimni har yerga urdim (Islom Shoir).**

Bulardan tashqari, *harso'zi har holda, har qalay, harna, har nechuk, har ehtimolga qarshi* kabi so'zlar tarkibida kelib, turli modal ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Belgilash olmoshlari gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol bo'lib keladi.

7-§.Bo'lishsizlik olmoshi. Bo'lishsizlik olmoshlari narsa yoki belgiga nisbatan inkor ma'nosini bildiradi. Bu olmoshlar ishtirok etgan gapning kesimi bo'lishsiz shaklda kelib, inkor mazmunli gap hisoblanadi. Bo'lishsizlik olmoshlari tuzilishiga ko'ra ikki turli do'ladi: a) tub shaklidagi bo'lishsizlik olmoshi; b) qo'shma so'z shaklidagi bo'lishsizlik olmoshi.

Tub so'z shaklida qo'llanadigan bo'lishsizlik olmoshiga **hech** so'zi kiradi. *Hech*olmoshi yakka holda qo'llanganda ko'pincha fe'llar oldida kelib, ravish vazifasini bajaradi va ish-harakatning, batamom inkorini bildiradi: *Onasi juda xursand bo'lsa ham, hech uxlay olmaydi.(As. M.)*

Qo'shma so'z shaklidagi bo'lishsizlik olmoshlari esa **hechso'ziga kim, nima, qachon** kabi so'roq olmoshlari yoki *bir, narsa* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'ladi va quyidagi ma'nolarga ega bo'ladi: 1) *hech kim, hech nima, hech narsa, hech kimsa*olmoshlari shaxs va narsaga nisbatan inkorni ifodalaydi va egalik, kelishik

qo‘shimchalarini olib, gapda otlar kabi vazifa bajarib keladi: *Uyda hech kimsa ko‘rinmas edi.* 2) hech qaysi, hech qanday, hech birolmoshlari narsaning belgisiga nisbatan inkor ifodalaydi: *Hech qaysi ish o‘z vaqtida bajarilgan ishdan barakali bo‘lmaydi.* Bu olmoshlar otlashib qo‘lla-nishi ham mumkin: *Bularning hech qaysisi hozirgi sharoitni tushun-maydi.* 3) hech qachon, hech vaqt, hech qayer olmoshi payt va o‘ringa nisbatan inkor ma’nosini bildiradi va gapda ravish xarakteri-da qo‘llanadi: *Qalandarov hech qachonbunaqa mehmonni kutgan emas edi. (A.Q.)*

Bulardan tashqari, bir narsa (bir nima) so‘zi ham gaplarnig kesimi bo‘lishsizlikni ifodalaganda, inkor olmoshi vazifasini bajaradi: *Turg‘unoy to Maston olib bermaguncha qo‘l uzatib bir narsaolmas edi. (A.Q)*

7-§. Gumon olmoshlari. Gumon olmoshlari narsa, belgi yoki hodisa haqidagi noaniq tasavvurni bildiradi. Bu olmoshlar asosan ot va sifat o‘rnida qo‘llanadi va quyidagicha hosil bo‘ladi:

1. **Alla-** elementi ba’zi so‘roq olmoshlari bilan birga gumon olmoshlarini shakllantiradi: a) allanima, allakimolmoshlari ko‘pincha ot o‘rnida ishlatilib, turli kelishik affikslari, egalik va ko‘plik qo‘shimchalarini oladi: *Bobom goho behushday allanima-larni shivirlab qo‘yadi. (O)* b) allaqanday, allaqancha (allaqanaqa, allaqaysi) olmoshlari narsaning sifatiy va miqdoriy belgisi haqidagi noaniqlikni ko‘rsatadi: *Shunday kunlarga allqanday mo‘jiza kuchi bilan darrov yetisha qolishni o‘ylardim. (S.Ahm.) Tog‘ yo‘li-dan allaqancha yurgandan so‘ng qishloqqa yetdik.* d) allaqayer, allanechuk, allaqachon, allavaqt, allamahalommoshlari o‘rin, sabab va paytgaga nisbatan noaniqlikni anglatadi: *O‘zi uncha chiroyli bo‘lmasa ham, allaqayeriodamga juda yoqardi. (S. Ahm.) Ayvonda xira osma chiroq, allanechukkir yog‘du to‘kib turibdi. (A.Q.)*

2. **-dir** yordamchisiniso‘roq olmoshlariga qo‘shish orqali ham gumon olmoshlari hosil qilinadi. Bunda noaniqlik qo‘shimcha-si **-dir** ko‘plik, egalik va kelishik qo‘shimchalaridan so‘ng qo‘shilib keladi: a) *kim, nima* olmoshlariga qo‘shilib, noaniq shaxs yoki narsani ko‘rsatadi: *Shu payt kimningdirdodlagan tovushi eshitildi;* b) **qanday**so‘ziga qo‘shilib, noaniq belgini ifodalaydi. Ko‘pincha bu xildagi gumon olmoshi belgini ifodalovchi so‘zlar oldida keladi: *Ko‘chamizda qanday-dir notanish ovozlar eshitildi;* d) **qayer, qayoq** so‘zlariga qo‘shilib, o‘ringa nisbatan noaniqlikni ko‘rsatadi. Bunda o‘rin-payt, jo‘nalish, chiqish kelishiklari affiksining birini albatta qabul qiladi: *U qo‘li bilan qayoqnidir ko‘rsatdi.* d) **qachon, nega**so‘zi **-dir** yordamchisini olib, payt va sababga nisbatan noaniqlikni bildiradi: *Shiypon qachondir bir bo‘yalgan ekan. (A. Q.)* Ba’zan **qachon**so‘zi va **-dir** yordamchisi orasida **-lar** affiksi ishlatilib, uzoq vaqt ma’nosini ifodalaydi: *Qachonlardir yaxshi kun kelishiga ishonar edim. (S. Ahm.)*

3. Gumon olmoshi ba’zi so‘roq olmoshlariga **hamyuklamasi** yoki **uchun** ko‘makchisining qo‘shilishidan hosil qilinadi. Bu yordamchi so‘z ham so‘z o‘zgartuvchi affikslar yoki kumakchilardan keyin qo‘shilib keladi: *Sizni kecha kim uchun ham eslayotgan edi-ya.*

4. Gumon olmoshlarini hosil qilishda ba’zan *bir* so‘zi ishtirok etishi mumkin. Bu so‘z *nima* so‘roq olmoshi bilan birga kelib, noaniq narsani ko‘rsatadi: *Ko‘zimga bir narsa ko‘rindi//ko‘zimga allanim ko‘rindi.*

5. **Birov** so‘zi **-ov** affiksini **birsoniga** qo‘shilishidan hosil qilingan son turkumiga xos so‘z hisoblansa ham, deyarli hamma vaqt noaniq shaxs-ni bildiradi. Shuning uchun bu so‘z gumon olmoshi sifatida ham qo‘llanadi. *Birov* so‘zi ko‘pincha «begona», «boshqa», «notanish», «kimdir» degan ma’noni ifodalaydi: *Birov eshikni taqillatdi //kimdir eshikni taqillatdi.*

6. Ko‘plik affiksini olgan **ba’zi**sifati gumon olmoshi vazifasida kela oladi va asosan noaniq belgiga ishora qiladi: *ba’zi odamlar, ba’zi o‘quvchilar* kabi. Bu so‘z **-lar** affiksini olish bilan otlashib, noaniq shaxs ma’nosini ifodalaydi: *Ba’zilar raisning ko‘nishiga shubha bilan qarar edilar. (A.Q.)* O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasini olib, noaniq payt ma’nosini bildiradi: *Ba’zida u shoshib qolardi.*

7. **Falonso‘zi** ham shaxs yoki belgi haqidagi noaniq tasavvurni ifodalaydi. Bu so‘z ot oldida kelib, belgi ma’nosini: *Men falon joyda yashayman;* -chi affiksini olib, shaxs ma’nosini: *Falonchini uchratdim.*

Gumon olmoshini hosil qiluvchi vositalar aralash holda ham ishlatiladi: *alla+nima+lar+dan+dir, alla+qanday+dir.*

8-§. Olmoshlar tuzilishiga ko‘ra: 1) sodda, 2) qo‘shma, 3) juft, 4) takroriy olmoshlarga bo‘linadi.

1. Sodda olmoshlar bir uzakdan tuzilib, tub yoki yasama bulishi mumkin. Tub olmoshlar bir asosiy morfemadan tashkil topadi: *men, sen, u, shu, kim, bu, nima* kabilar. Yasama olmoshlar: -cha, -day, -dek yasovchilarini olish bilan boshqa so‘z turkumiga ko‘chadi: *buncha, uncha, shuncha, bunday, unday, shunday, meningcha, menday, o‘zicha, uziday, sizcha, sizday, sizsira(moq)* kabilar. Gumon olmoshlarini yasovchi *alla-* va *-dir* morfemalari affiks emas, yordamchi unsur sifatida olmoshning bir turidan ikkinchi turini shakllantiradi: *allakim, kimdir* kabi.

2. Qo‘shma olmoshlar birdan ortiq o‘zaklarning birikishi asosida shakllanadi. Bunday olmoshlar tarkiban: a) biri olmosh, ikkinchisi esa boshqa turkumga oid so‘zlardan bo‘ladi: *mana bu, mana shu, qay vaqt, ana shu, allaqaysi;* b) har ikkisi ham olmoshlardan bo‘ladi: *har kim, har qanday, allakim, har nima, har qanday* kabi.

3. Juft olmoshlar turli xil olmoshlarning teng aloqa asosida bog‘lanishidan tuziladi. Nutqda, asosan, kishilik, ko‘rsatish olmosh-lari juft holda ishlatiladi: *siz-biz, u-bu, uni-buni.*

4. Takroriy olmoshlar bir xil o‘zakli olmoshlarning teng aloqa asosida takroridan tuziladi. Takroriy olmoshlar ma’noni kuchaytirish, ta’kidlash uchun qo‘llaniladi. Nutqda ko‘rsatish, so‘roq, o‘zlik, belgi-lash olmoshlari takrorlanib qo‘llanadi. Bunda ular a) hech qanday affikslarsiz bir asosiy morfema shaklida takrorlanadi: *shu-shu, o‘z-o‘z, kim-kim, qancha-qancha, necha-necha;* b) ularning biriga yasovchi yoki so‘z o‘zgartuvchi affikslar qo‘shilgan holda takrorlanadi: *o‘zidan-o‘zi, o‘z-uzicha, manmanlik (man-manlik)* kabi.

Olmoshlar juft va takror qo‘llanish natijasida quyidagi so‘z turkumlariga ko‘chishi mumkin a) ravishga: *o‘zidan-o‘zi, o‘sha-o‘sha, unda-bunda;* b) fe‘lga *sensenlamoq, sizsizlamoq;* d) otga *u-bu, manmanlik, uni-buni, siz-biz.*

9-§. Boshqa turkumlarga oid so‘zlarning olmoshga ko‘chishi (pronominalizatsiya). Nutqda ba’zi ot, sifat va sonlarning asl ma’nosi o‘zgarib olmoshga yaqinlashadi. Bu hodisaga pronominalizatsiya deyiladi (pronom - lotincha olmosh degan ma’noni bildiradi.) Masalan, *odam, kishi, inson, nafas* kabi otlar; *ba’zi, boshqa, ayrim, tubandagi, quyidagi* kabi sifatlar; *bir* soni olmoshga yaqinlashadi.

Boshqa turkumga mansub so‘zlarning olmoshga yaqinlashishi, asosan quyidagi holatlarda ko‘rinadi: 1) hech qanday affikslar olmay, asosiy morfema shaklida kelganda: *Odamning ketgisi kelmaydi* (mening ketgim kelmaydi). *Yutuqlarni ko‘rib, quvonasan kishi. (Men quvonaman yoki... hamma quvonadi);* 2) son turkumiga xos ayrim so‘zlar ko‘pincha III shaxs egalik affikslarining qo‘shilishi bilan olmoshga yaqinlashadi: *Biri kitob o‘qmoqda, biri shaxmat o‘ynamoqda, boshqalari turli o‘yinlar bilan band (kimdir kitob o‘qiydi, kimdir shaxmat o‘yini bilan band).*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Olmoshning o‘ziga xos belgilari nimalarda ko‘zga tashlanadi?
2. Olmoshlarning turkumlararo tavsifini tuzing.
3. Olmoshlarning ma’no turlari haqida ma’lumot bering.
4. Olmoshlarning so‘z yasaliishi va so‘z o‘zgarishi, shakl yasaliishiga munosabati nimalarda ko‘rinadi?
5. Olmosh vazifasida ishlatiladigan so‘zlar.
6. Olmoshlarda sinonimlik, omonimlik masalasi xususida nimalarni bilasiz?

ZARURIY ADABIYOTLAR

1. Ш. Шоабдуракмонов, М. Асљарова, А. Қожиев, И. Расулов, Х. Дониёров Қозирги Ўзбек адабий тили. 1-қисм. Т., «Ўзбекистон» 1980.
 2. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. Т., «Фан» 1975.
 3. У. Турсунов, Ж. Мухторов, Ш. Рақматуллаев Қозирги Ўзбек адабий тили. Т., «Ўзбекистон» 1992.
 4. М. Мирзаев, С. Усмонов, И. Расулов Ўзбек тили. Т., «Ўзбекистон» 1978.

13 MA'RUZA

13.1. Fe'l so'z turkumi

1-§. Harakat tushunchasini anglatuvchi so'zlar fe'l deyiladi. Harakat ma'nosi juda keng tushuncha bo'lib, *o'ylamoq, xayol surmoq fikrlamoq* singar tafakkur, *yugurmoq, sakramoq, ishlamoq* kabi jismoniy faoliyat, *so'zlam, demoq, aytmoq* kabi nutq, *uxlamoq, mudramoq, kutmoq, kulmoq* kabi holat, *qurmoq, chizmoq, yasamoq, yaratmoq* kabi natijali faoliyat bilan bog'liq ma'noviy guruhlariga mansub fe'llarni o'z ichiga oladi. Fe'llar bir umumiy so'roqqa-**nima qilmoq?** so'ro-g'iga javob bo'ladi. Fe'llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ham ikki guruhga bo'linadi: 1) mustaqil fe'llar; 2) yordamchi fe'llar.

1. Mustaqil fe'llar lug'aviy ma'noga ega bo'lib, nutqiy jarayonda biror gap bo'lagi vazifasida ishlatiladigan fe'llardir. Mustaqil fe'llar turli grammatik kategoriyalarga birlashadigan sof fe'l va vazifadosh shakllardan tashkil topadi. Masalan: *keldim* — aniq nisbat, bo'lishli, xabar mayli, o'tgan zamon, birinchi shaxs, birlik kabilar muayyan grammatik kategoriyalarni ifodalovchi sof fe'llar hisoblansa; *kelgan* - sifatdosh, *kelgach* - ravishdosh, *kelish* -harakat nomi shaklida ekanligi esa fe'lning vazifadosh shakllaridir.

2. Yordamchi fe'llar mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lmay, turli grammatik ma'no va vazifalarni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladigan fe'llardir. Yordamchi fe'llar o'z xususiyatiga ko'ra quyidagi turga bo'linadi: 1) qo'shma fe'l yasash uchun xizmat qiluvchi yordamchi fe'llar. Masalan: *xabar qilmoq, xursand bo'lmoq, tasdiq etmoq* kabi; 2) kesim tarkibida bog'lama vazifasini bajaruvchi yordamchi fe'llar. Bu vazifadagi yordamchi fe'llarga a) leksik ma'nosini mutlaqo yo'qotgan sof bog'lamalalar, ya'niedi, *ekan, emish* to'liqsiz fe'llari kiradi; b) leksik ma'nosini tamomila yo'qotmagan *bo'ladi, bo'lmaydi, deyiladi, hisoblanadi* kabi bog'lamalalar kiradi; 3) fe'llarga birikib, turli qo'shimcha ma'no ifodalovchi ko'makchi fe'llar: *chiqo'qib chiq, qol-uxlab qol* kabi.

Fe'llarning bosh shakli uning o'zak-negiziga *-moq* affiksini qo'shish orqali yasaladi: *o'qimoq, ishlamoq, yozmoq, o'tirmoq, o'qib chiqmoq, bilib olmoq*. Ular lug'atlarda ham shu shaklda beriladi.

2-§. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'llar undan anglashilgan ish-harakatning narsaga munosabatiga ko'ra o'timli yoki o'timsiz bo'ladi.

1. Harakatning tushum kelishidagi ot bilan ifodalangan narsaga o'tishini bildiruvchi fe'llar o'timli fe'l deyiladi. Masalan: *ol, o'qi, saqla, tozala* fe'llari o'timlidir.

2. Narsaga bevosita o'tmaydigan harakatni anglatadigan fe'llar o'timsiz fe'llardir. Masalan: *bor, kel, o'tir* kabi fe'llar o'timsizdir.

Fellardagi o'timli yoki o'timsizlik leksik-semantik va morfologik vositalar orqali ifodalanishi mumkin: a) o'timli yoki o'timsizlik fe'llarning leksik ma'nosidan anglashilib turadi. Ya'ni ular affikssiz qo'llanganda ham o'timli yoki o'timsizlikka daxldor bo'ladi. Masalan: *yech, qo'y, saqla, so'ra, ko'r* kabi fe'llar o'timli; *bor, o'tir, uxla, ko'kar, tur* kabi fe'llar esa o'timsizdir. Fe'l ko'p ma'noli bo'lganda o'z va ko'chma ma'nosi bilan o'timli yoki o'timsiz bo'lishi mumkin: *kitob o'qiydi* - o'timli, *kitobdan yoki maktada o'qiydi* - o'timsizdir; b) fe'lning o'timli yoki o'timsizligi unga qo'shib keladigan morfologik vositalar orqali belgilanadi. Bunda nisbat yasovchi affikslar muhim ahamiyatga ega bo'ladi: 1) orttirma nisbat affikslari o'timsiz fe'lni o'timliga aylantirishi mumkin: *oq-oqiz, yur-yurgiz, kel-keltir, ishla-ishlat*; 2) o'zlik va majhullik nisbat affikslari esa o'timli fe'lni

o'timsiz fe'lga aylantiradi: *och-ochil, ko'r-ko'rin, tara-taran, tort-tortin*. Ba'zan mustaqil fe'l tarkibida nisbat qo'shimchalari ketma-ket qo'shib kelishi mumkin. Bunday holda fe'lning o'timli yoki o'timsizligi oxirgi nisbat yasovchi qo'shimchaga qarab belgilanadi: *kel-o'timsiz, keltir-o'timli, keltiril-o'timsizdir*.

3-§. Fe'l shakllarining grammatik kategoriyaga munosabati. Fe'l shakllari fe'lning ma'lum bir grammatik kategoriyasiga xos shakllar tizimini hosil qilish xususiyatiga ega yoki ega emasligiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) kategorial; 2) nokategorial (vazifadosh) shakl.

Kategoriyal shakl, fe'lning ma'lum bir kategoriyasiga xos grammatik ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, daraja, mayl, zamon va shaxs-son kategoriyalariga xos shakllar ana shunday fe'llardir.

Fe'lning biron-bir grammatik kategoriyasiga xos bo'lmay, turli modal ma'nolar ifodalash yoki boshqa vazifalarni bajarish uchun qo'lla-nuvchi shakllari vazifadosh, ya'ni nokategorial shakllardir. Masalan, harakatning takroriyliigi, kuchsizligini bildiruvchi *turtkila, kulimsira* kabilar, shuningdek, sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi kabilar fe'lning vazifadosh shakllaridandir.

13.2. Fe'lning grammatik kategoriyalari.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'lga xos grammatik kategoriyalar qo'yidagilar: 1) nisbat kategoriyasi; 2) bo'lishli va bo'lishsizlik kategoriyasi; 3) mayl kategoriyasi; 4) zamon kategoriyasi; 5) shaxs-son kategoriyasi.

2-§. Nisbat kategoriyasi. Fe'ldan anglashilgan harakatning bajaruvchi va bajariladigan harakat o'rtasidagi munosabatining ifodalanishi fe'l nisbati deyiladi. Masalan: *Sobir akasidan kelgan xatni Alisherga o'qitdi* gapida *Sobir* ega, *Alisherga* to'ldiruvchidir. Ushbu gapda asosiy harakat bajaruvchi *Alisher*, ya'ni to'ldiruvchi bo'lib, *Sobir*, ya'ni ega harakat bajarilishida vosita bo'lgan shaxs xolos. Jumladagi ikki bajaruvchi orasidagi harakat bajarish bilan bog'liq ana shunday munosabat fe'lning nisbat shakli orqali ifodalanadi: *o'qi+tt+di*. Fe'l nisbati maxsus shakl yasovchi affikslar vositasida ifodalanadi. Bu affikslar fe'lning lug'aviy ma'nosini batamom yangilamay, unga qo'shimcha ma'no bo'yog'i qo'shadi. Qiyoslang: *yuv+(di)-yuv+in+(di) - yuv+il+(di) - yuv+ish+(di) - yuv+dir+(di)*. Ba'zi fe'llarga nisbat qo'shimchalari birdan ortiq qo'shib kelishi ham mumkin: *yoz+dir+il+di, beza+n+tir+ish+di*. Bunday holda fe'l nisbati oxirgi nisbat qo'shimchasiga qarab belgilanadi. Fe'l nisbatlarning quyidagicha beshta turi bor:

1. Aniq nisbat. Harakatning ega orqali ifodalangan shaxs yoki narsa tomonidan bajarilganini yoki bajarilmaganini ifodalaydi. To'ldiruvchi esa harakatning obyekt bo'ladi. Aniq nisbat maxsus affiksga ega emas: *o'qidi, yozdi, kutdi* kabi sof fe'llar ana shu nisbatdadir.

2. O'zlik nisbat. Harakatning bir shaxs yoki narsaning o'zida sodir bo'lishini anglatadi. Bu nisbat quyidagi affikslar orqali hosil bo'ladi: a) fe'l o'zak-negiziga unlikdan keyin **-n**, undoshdan keyin **-in** affiksini qo'shish orqali: *o'ra+n, yuv+in*; b) fe'l o'zak-negiziga unlikdan keyin **-l**, undoshdan keyin **-il** affiksini qo'shish orqali hosil bo'ladi: *cho'm+il, surka+l*; d) fe'l o'zak-negiziga unlikdan keyin **-sh**, undoshdan keyin **-ish** affiksini qo'shish orqali hosil bo'ladi: *joyla+sh, ker+ish*. Yetakchi ko'makchi fe'lli birikmalarga o'zlik nisbati qo'shimchasi, asosan, yetakchi fe'lga qo'shib keladi: *suya+n+ib turmoq, yuv+in+ib kelmoq, qo'zg'a+l+ib ketmoq kabi*.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, tilimizdagi *zavq+lan, achchiq+lan, foyda+lan, o'ng'aysiz+lan* kabilar o'zlik nisbatdagi fe'llarhisoblanmaydi. Chunki *zavqlanmoq, achchiqlanmoq* kabi fe'llar tarkibidagi **-n** nisbat yasovchi emas, balki **-la** va **-n** bir butun holda (**-lan**) affiksidir. Shu bois, *zavqlan, achchiqlan* fe'llari aniq nisbat shakli hisoblanadi. Xuddi shuningdek, ba'zi o'timli va o'timsiz fe'llardan ham o'zlik nisbati yasalmaydi: *bor, yugur, o'qi, hayda, ek, min, sug'or* kabilar, shular jumlasidandir.

3. Orttirma nisbat. Harakatning boshqa bir shaxs yoki narsa ta'sirida, tazyiqida bajarilishi, orttirilishini ifodalovchi fe'l shaklidir. Quyidagicha affikslar orqali hosil qilinadi: 1) - dir (tir): yozdir, kuldir; 2) - gaz (-giz, -g'az, -g'iz, -kaz, -kiz, -qaz, -qiz): ko'rgaz, ketkiz, o'tqaz; 3) -t: o'qit, qurit, ishlab; 4) - iz: oqiz, tomiz; 5) - ir: botir, tomir, oqir; 6) - ar: chiqar, qaytar; 7) - sat: ko'rsat.

Ayrim fe'llarning orttirma nisbatni yasashda ko'rsatilgan affikslardan faqat bittasini, boshqa fe'llarda esa bir nechtasini sinonim sifatida qo'llash mumkin: *ko'n+dir - to'la+to'l+dir - to'l+g'iz kabi*. Shuningdek, orttirma nisbat boshqa nisbatlardan farqli ravishda fe'lga birdan ortiq affikslar qo'shish bilan yasalishi mumkin: *jo'na+t+tir+di, yoz+dir+tir+di*.

Orttirma nisbat o'timli yoki o'timsiz fe'llardan ham yasaladi: *uxla -uxlat, o'qi -o'qit kabi*. Orttirma nisbat o'timsiz fe'llardan yasalganda, o'timli fe'l yuzaga keladi: *ko'kar-ko'kartir, uch -uchir kabi*.

Ayrim fe'llarda orttirma nisbat yasovchi affiks aniq ko'rinib tursa-da, lekin hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan ularni morfemalarga ajratib bo'lmaydi: *tuzatmoq, surishtirmoq, uzatmoq kabi*. Ayrim fe'llarda orttirma nisbat ko'rsatkichini boshqa nisbat ko'rsatkichi bilan almashtirish mumkin: *uyg'ot-uyg'on, yupat- yupan kabi*. Lekin bu fe'llar ham hozirgi til nuqtai nazaridan morfemalarga bo'linmaydi.

Yetakchi va ko'makchi fe'lli birikmalarga orttirma nisbat qo'shimchasi, asosan, yetakchi fe'lga qo'shiladi: *ye+dir+ib qo'ydi, aylan+tir+ib keldi*.

4. Majhul nisbat. Harakat to'ldiruvchi anglatgan narsa yoki shaxs tomonidan bajarilib, egaga o'tadi yoki haqiqiy bajaruvchisi noma'lum bo'ladi: *O'qish boshlandi (bajaruvchisi noma'lum), yer haydaldi (harakat bajaruvchisi traktorchilar)*. Bu nisbatan -in / -n va -l / in affikslari orqali hosil qilinadi: *tara+l, ulu+n, keltir+il, ol+in kabi*.

Fe'lning majhul va o'zlik nisbatlariga xos ko'rsatkichlar o'zaro grammatik omonim bo'lib, ba'zan ayni bir affiks ham o'zlik, ham majhullik nisbatni yasashi mumkin. Bunday holda, fe'lning qaysi nisbatdaligi gap mazmunidan anglashiladi: *Ot qoqildi- mix qoqildi*.

Majhullik va o'zlik nisbatlari bir xil affiks bilan yasalganda, ularni farqlashda orttirma nisbat affiksini qo'shib ko'rish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki majhullik nisbatdagi fe'l ayni paytda orttirma nisbatda ham qo'llanishi mumkin, biroq o'zlik nisbat bunday xususiyatga ega emas: *polga mix qoq+tir+il+di*.

O'zlik va majhullik nisbat affikslari ayni bir fe'lga qo'shib, ham o'zlik, ham majhullik shaklini hosil qilishi mumkin: *tara+n (o'zlik) - tara+l(majhullik), yuv+n (o'zlik) - yuv+il(majhullik) kabi*.

Yetakchi va ko'makchi felli birikmalarda majhul nisbat ko'rsatkichi, asosan, ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *so'rab ko'r+il+di, aytib qo'y+il+di*.

O'zlik nisbati kabi majhullik nisbat affikslari ham o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantiradi: *o'rinni bo'shatdi- o'rnidan bo'shatildi*.

4. Birgalik nisbat shakli -(i)sh affiksi yordamida yasaladi va harakatning birdan ortiq shaxs tomonidan bajarilishini bildiradi: *yozishdi, tozalashdi*. Birgalik nisbatdagi fe'llar mazmunan a) harakatni bajarishda birga ishtirok etish ma'nosi: *tozalashdim, yuvishdim*; b) o'zaro, galma-gal bajarilgan harakat ma'nosi: *urishdi, tortishishdi, talashishdi* kabilarni ifodalaydi.

Birgalik nisbat shaklidagi fe'l ko'plik ifodalovchi **-lar** affiksi bilan sinonim hisoblanadi: *keldilar-kelishdi, o'qidilar-o'qishdi*.

Yetakchi va ko'makchi felli birikmalarda birgalik nisbat ko'rsatkichi quyidagi tartibda qo'shiladi: a) yetakchi fe'lga: *kel+ish+ib qoldi, quv+ish+ib ketdi*; b) ko'makchi fe'lga: *quvib ket+ish+di, kelib qol+ish+di*; b) har ikkalasiga qo'shiladi. Bunda yetakchi fe'ldagisi birgalik ko'makchi fe'ldagisi esa ko'plik ifodalaydi: *kul+ish+ib qo'y+ish+di, ayt+ish+ib qol+ish+di*.

4-§. Bo'lishli va bo'lishsizlikkategoriyasi. Tildagi har qanday fe'l bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda bo'ladi. Bo'lishli shakl harakatning tasdig'ini, bo'lishsiz shakl esa uning inkorini ifodalaydi: *keldi-kelmadi*. Fe'lning bo'lishli shakli maxsus grammatik ko'rsatkichga ega bo'lmaydi. Chunki uning bosh shakli doimo bo'lishli bo'ladi. Bo'lishsizlik esa quyidagi kabi maxsus vositalar yordamida ifodalanadi:

-ma affiksi deyarli barcha fe'l shakllarida bo'lishsizlik ifodalash uchun xizmat qiladi: *kelmadi, kemagan, kelmabdi* kabi. Fe'lning ba'zi vazifadosh shakllarining

bo'lishsizligini hosil qilishda *-ma* affikisining quyidagi morfologik shakllardan foydalaniladi:

-maslik affiksi harakat nomining bo'lishsiz shaklini yasaydi: *aytish-aytmaslik, borish-bormaslik* kabi.

-may\ -mayin affiksi fe'lning *-b(-ib)* affiksi bilan yasaluvchi ravishdosh shaklining bo'lishsiz shaklini yasashda ishlatiladi : *bilib-bilmay, ko'rib-ko'rmay*.

-mas affiksi fe'lning *-r//-ar* qo'shimchasi asosida hosil bo'ladigan shaklining bo'lishsiz shaklini hosil qilishda ishlatiladi: *yurar- yurmas, borar-bormas*.

-ma affiksi yetakchi+ko'makchi fe'lli birikmalarga quyidagicha qo'shiladi:1) yetakchi fe'lga qo'shiladi: *bormay tur*; 2) ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *bora ko'rma*; 3)har ikkalasiga qo'shiladi: *bormay qo'yma..* Bunday birikuvda yetakchi yoki ko'makchi fe'l yoki ularning har ikkalasi birgalikda ifodalaydigan ma'no o'zaro farqlanadi: a)-*ma* affiksi yetakchi fe'lga qo'shilganda, ana shu fe'lga xos harakat inkor etiladi. Biroq ko'makchi felda bo'lishlilik ma'nosi saqlanadi: *yurmay qoldi, kelmay qo'ydi* kabi; b) bo'lishsizlik shakli ko'makchi fe'lga qo'shilsa, bu fe'l bildirgan ma'nodagi harakatning inkori ifodalanadi: *kelib qolmadi, aytib qo'ymadi*; d)bo'lishlilik shakli yetakchi va ko'makchi fe'lga qo'shilganda esa qat'iy bo'lishlilik ifodalanadi: *aytmay qo'ymadi, kelmay qo'ymadi*.

-emas to'liqsiz fe'li faqatgina **-gan** qo'shimchali sifatdosh va **-moqchi** affiksli maqsad maylidagi fe'llarning bo'lishsiz shaklini yasash uchun qo'llanadi: *ketgan emas, ketmoqchi emas* kabi. Shuningdek, emasyordamida qiyoslanayotgan ikki harakat-hodisadan sifatdosh, ravishdosh yoki harakat nomi hamda narsa, belgi, miqdor kabilarning inkorini ifodalashda ham foydalaniladi: *o'qib emas, yozib kelish kerak; qarashi emas, kulishi chiroyli; behi emas, olma; katta emas, kichik; o'nta emas, to'qqizta*.

yo'q so'zi faqatgina **-gan// -yotgan** qo'shimchali sifatdoshning bo'lishsiz shaklini yasash uchungina qo'llaniladi: *'yozgani yo'q., borayotgani yo'q*. Bu fe'llarning *yuq* so'zi yordamida yasaluvchi inkor shaklida shaxs-son ko'rsatkichlari fe'lning o'ziga qo'shiladi: *yozganim yo'q, borganing yo'q, kabi*.

na yordamchisi vositasida harakatning inkori alohida ta'kid bilan ifodalanadi. Bunda fe'llar bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda qo'llanishi mumkin. Fe'lning o'zi bo'lishsiz shaklda qo'llanganda, *na* yordamchisi bog'lovchi vazifasini bajaradi va ma'noni kuchaytirish-ga xizmat qiladi: *Na o'qidi, na yozdi*.

Bo'lishsizlik ma'nosining ifodalanishida ohangning ham alohida o'rni bor. Bunday hollarda inkor shakli bo'lsa, tasdiq ma'nosi, tasdiq shakli bo'lsa, inkor ma'nosi anglashiladi: *Bu bosh bevafo dunyoda nimalarni ko'rmadi deysiz.(tasdiq).Ketasiz-a, ketasiz,... sizni bu yerdan ketkizarmidik (inkor)*.

5-§. Mayl kategoriyasi. Ish harakatning voqelikka munosabatini ifodalovchi fe'l shakli mayl deyiladi. Fe'l mallari harakatning voqelikka munosabatini ifodalab, grammatik zamon, grammatik shaxs bilan uzviy bog'lanadi. Bu uch hodisa fe'lning gapda kesimlik vazifasidan kelib chiqadi. O'zbek tilida fe'l mayllarining to'rt turi bor: 1) xabar mayli, 2) buruq-istak mayli, 3) shart mayli, 4) maqsad mayli.

1. Xabar mayli. Ish-harakatning uch zamondan birida bajarilish va bajarilimaganligini ifodalaydi. Xabar maylining maxsus grammatik ko'rsatkichi *yo'q*. U fe'lga uchala zamon va shaxs-son affikslarini qo'shib tushish orqali shakllanadi. Masalan: *o'qidim, o'qiding, o'qidi, o'qiganman, o'qigansan, o'qigan, o'qimoqchiman, o'qimoqchisan, o'qimoqchi*. Xabar maylidagi fe'lning asosiy sintaktik vazifasi gapda kesim bo'lib kelishdir.

2. Buyruq-istak mayli. Ish-harakatni bajarish-bajarmaslik haqida buyurish, istash, so'rash,iltimos, maslahat,chaqiriq kabi ma'nolarni ifodalaydi. Buyruq-istak maylidagi fe'l xabar maylidan farqli ravishda maxsus mayl ko'rsatkichlariga ega bo'lib, bu mayl quyidagicha tuslanadi:

	Birlik	K o' p l i k
--	--------	--------------

1- shaxs	<i>yoʻz+ay, ishla+yin</i>	<i>yoʻz+aylik, ishla+ylik</i>
2 -haxs	<i>yoʻz (yoʻz+gin), ishla(ishla+gin)</i>	<i>yoʻz+ing, ishla+ng, ishla+ngizyoʻz+sin (lar), ishla+sin (lar)</i>
3- haxs	<i>yoʻz+sin, ishla+sin</i>	

Birinchi shaxs birligi *-(a)y* va *-(a)yin* affiksi yordamida yasaladi: *boray, soʻzlayin*. Bu shaxsda soʻzlovchining harakatni bajarish istagi, harakatga boʻlgan ragʻbati ifodalanadi: *Mana bu kitoblarni oʻquvchilarga yetkazay*.

Soʻzlovchining oʻziga oʻzi buyruq berishi mantiqqa toʻgʻri kelmay-di, shuning uchun birinchi shaxs sof buyruq maʼnosida ishlatilmaydi. Xususan, oʻzgaga boʻlgan murojaatda istak bilan birga iltimos ham ifodalanadi: *Siz bilan boray*. Xuddi shuningdek hollarda buyruq, doʻq ham ifodalanishi mumkin: *Bu qiligʻingni ikkinchi koʻrmay!*

Birinchi shaxs koʻplik faqat istakni emas, harakatga daʼvat, iltimos kabi maʼnolarni ham ifodalaydi. Chunki bu shakl soʻzlovchidan tashqari u bilan birga boʻlgan shaxslarni ham oʻz ichiga oladi: *Bir yoqadan bosh chiqaraylik. Keling, mana shu ona-yer oldida soʻz beraylik.* (P.Qodirov)

Qatʼiy buyruq maʼnosi ikkinchi shaxs vositasida ifodalanadi. Chunki bunda nutq qaratilgan shaxsning oʻzi qatnashadi: *Salim qoraga ayting, fermada hisob-kitobni toʻgʻrilab qoʻysin.* (H. F.)

Bu shaklda sof buyruq bilan birga doʻq qilish, iltimos, hatto yalinish kabi munosabatlar ham ifodalanishi mumkin: *Yoʻqol, dedim! Koʻzimga koʻrinma!(doʻq). Stol ustiga qoʻya qol (iltimos). Yo rabbiy, ilmimni ziyoda qilgʻil (oʻtinch).*

Ikkiinchi shaxsning *-gin\ -gil* affiksi bilan yasaluvchi shaklida esa buyruq maʼnosi kuchsizlanadi. Bu shakl koʻproq iltimos yoki oddiy undash, daʼvat uchun qoʻllanadi: *Boshingga qilich kelsa ham toʻgʻrisini gapirgin. Otangga boʻlimgilarzanda bandi, Bandidan chiqib boʻl hunar farzandi.* (A.Jomiy)

Uchinchi shaxsda harakatga undash, buyruq maʼnolari ikkinchi shaxs orqali boʻladi: *Odamlar bilan yaxshi tanishsin, keyin menga uchrasin.* (H. F.)

Uchinchi shaxsning sof buyruq uchun qoʻllanishi, asosan, majhul nisbatdagi feʼllarda uchraydi: *Tuyaning dumiga bogʻlab sazoyi qilinsin.* (As.M.) Shuningdek, 3-shaxs istak, iltimos kabi maʼnolarni ifodalash uchun ham qoʻllanadi: *Farzandlarimiz murod-maqsadlariga yetishsin, qoʻsha qarishsin.*

Buyruq-istak maylining birinchi va uchinchi shaxs soʻroq, taxmin, oʻylash kabi maʼnolarni ifodalovchi vositalar bilan qoʻllana oladi. Ikkinchi shaxs shakli esa bunday xususiyatga ega emas. Bunga bu shaxs shakllarining maʼno xususiyatlari sabab boʻladi. Masalan, *ertaga kelaymi, ertaga kelsinmi, ertaga kelaymikin, ertaga kelsinmikin* kabi qoʻllanish koʻp uchraydi.

Buyruq-istak maylining boʻlishsiz shakli harakatning bajarilish ehtimoli borligi, unga ogohlantirish kabi maʼnolarda ham qoʻllanadi: *Otlariga ishonib biror falokatga yoʻliqishmasin, tagʻin.*

Yordamchi feʼllardan faqat *edi* toʻliqsiz feʼli buyruq-istak mayli-dagi feʼllarning ikkinchi va uchinchi shaxs shakli bilan qoʻllana oladi: *borgin edi, borsin edi* kabi. Bunday qoʻllanish natijasida: 1) buyruq-istak mayli shakliga xos maʼno butunlay yoʻqoladi: *bor - borgin edi, aytma - aytmagin edi*; 2) buyruq - istak maylida harakatning bajarilishi mantiqan kelasi zamonga, *edi* toʻliqsiz feʼli bilan qoʻllanganda esa oʻtgan zamonga oid boʻladi: *kelsin -kelsin edi*; 3) buyruq-istak shakli *edi* toʻliqsiz feʼli bilan yoki usiz qoʻllanganda ham istak maʼnosi ifodalanadi.

Shart mayli biror ish-harakatning yuzaga chiqishi uchun undan oldin bajarilishi shart boʻlgan harakatni ifodalaydi. Shart mayli *-sa* affiksi va shaxs-son qoʻshimchalarining qoʻshilib tuslanishidan hosil boʻladi.

	Birlik	Ko'plik
1- shaxs	Bor+sa+m	bor+sa+k
2- shaxs	bor+sa+ng	bor+sa+ngiz
3- shaxs	bor+sa+0	bor+sa+(lar)

Fe'ning bu shakli quyidagi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi: 1. Shart mayli shaklidagi fe'l boshqa biror harakatning bajarilishi uchun shart bo'lgan harakatni bildiradi: *Mana bu kanal bitsa, yangi yer ochilsa, paxta ham ko'payadi (A.R)*. 2. Shart maylidagi fe'l payt ma'nosini bildiradi va payt ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi: *Ertalab derazadan qaragam, hammayoq oppoq qor ekan*. 3. Istak ma'nosini bildiradi. Bunday holda *edi* to'liqsiz fe'li ishtirok etib bu ma'noni kuchaytiradi: *Qani edi bir parcha soya-salqin joy topilsa... (H.G')*. 4. Agar *edi* to'liqsiz fe'li bilan qo'llangan shart maylidagi fe'l bo'lishsiz shaklda qo'llansa, gumon manosi hosil bo'ladi: *Biror qaltis gap aytib, sharmanda qilmasa edi*.

4. Maqsad mayli-moqchi affiksi yordamida yasaladi va harakatning bajarish maqsadini, niyatini, mo'ljalini bildiradi:

1- shaxs 2 - shaxs 3 - shaxs	bor+moqchi+man bor+moqchi+san bor+moqchi	bor+moqchi+miz, bor+moqchi+siz bor+moqchi+(lar)

Fe'ning bu shakli faqat maqsad, mo'ljal ma'nosini bildiradi. -moqchi affiksli fe'l *edi* to'liqsiz fe'li bilan qo'llanganda, o'tgan zamon ifodalanishi mumkin. Lekin bunda harakat o'tgan zamonga (o'tgan zamonda bajarilishi) emas, balki maqsad o'tgan zamonga oid bo'ladi: *bormoqchi edim, bormoqchi eding, yubormoqchi edi*.

-*moqchi* affiksi bilan yasalgan shakl *bo'l* fe'lining o'tgan va hozirgi zamon shakllari bilan qo'llanganda ham harakatning emas, balki maqsadning hozirgi zamon yoki o'tgan zamonga oidligi ifodalanadi: *bormoqchi bo'layapman, bormoqchi bo'laman, bormoqchi bo'ldim*.

Fe'l mayllari sinonimiyasi. Fe'l mayllarini hosil qiluvchi affikslar nutq talabiga ko'ra o'zaro **sinonim** sifatida ham ishlatiladi:

1. Xabar maylidagi fe'l buyruq-istak mayli manosini ifodalashda ishlatiladi: *Qani, yigitlar, ketdik! Kechagi qiliqlaring uchun bugun hech yoqqa chiqmaysan, tushundingmi!*

2. Xabar maylidagi fe'l shart mayli vazifasida qo'llanadi: *Va'da berdingmi-bajar. Boshga bir ish tushdimi, yagona yo'l-uni jasorat bilan yengishdir.*

3. Buyruq-istak maylidagi fe'l xabar mayli vazifasida ishlatiladi: *Bolani o'qitish o'rniga xizmatigizni qildiring, yana urdiring! Sizda insof bormi? (xizmatigizni qildiribsiz, urdiribsiz)*

4. Buyruq-istak maylidagi fe'l shart mayli vazifasida qo'llanadi: *Kimlardir mehnat qilsin-u, rohatini siz ko'rasizmi?! Avval qo'ng'iroq chalsin, keyin hammamiz birga tashqariga chiqamiz.*

5. Shart maylidagi fe'l xabar mayli ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi: *Kenjaboyning o'g'li yugurib kelsa-yu, to'ni bilan sumkasini qo'limga tutqazsa bo'ladimi? (O.) (qo'limga tutqazdi).*

6. Shart maylidagi fe'l buyruq-istak mayli vazifasida qo'llanadi: *Sabr qilsang, g'o'radan halvo pishar (sabr qil, g'o'radan halvo pishadi).*

6-§. Fe'llarning tuslanishi. Fe'l mayllari, odatda, grammatik shaxs, zamon ma'nolari bilan bog'liq holda ifodalanadi. Shuning uchun ham ularni yuzaga keltiruvchi grammatik shakllar shaxs-son affikslari deb yuritiladi. Fe'llarning shaxs-son affikslari bilan o'zgarish esa, tuslanish deyiladi. Demak, shaxs-son affikslarining jami tuslovchilardir. O'zbek tilida tuslovchilar quyidagicha uch guruhga birlashadi.

1. To'liqsiz tuslovchilar:

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	o'qidi+m	o'qidi+k
II shaxs	o'qidi+ng	o'qidi+ngiz
III shaxs	o'qidi+0	o'qidi+(lar)

2. To'liq tuslovchilar:

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	o'qib+man	o'qib+miz
II shaxs	o'qib+san	o'qib+siz
III shaxs	o'qib+di	o'qib+di (lar)

3. Buyruq-istak mayli bilan tuslanish:

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	o'qi+y// -yin	o'qi+ylik
II shaxs	o'qi // o'qi+gin	o'qi+ngiz
III shaxs	o'qi+sin	o'qi+sin(lar)

Bu tuslovchilardan birinchi guruhi (to'liqsiz tuslovchilar) mayl va zamon bilan aloqador bo'lsa, *-di* va *-sa* affiksli sof fe'llarga qo'shiladi. Ikkinchi guruhli (to'liq shakl) esa, ravishdosh, sifatdosh va kesim vazifasidagi boshqa so'zlarga qo'shiladi. Uchinchi guruh tuslovchilar faqat buyruq - istak mayli uchun xosdir.

Shaxs-son affikslari sinonimiyasi. Shaxs-son affikslari o'zaro sino-nimik munosabatda bo'lish xususiyatiga ega bo'lgan fe'l shakllaridan-dir. Xususan, ular o'rtasidagi ma'nodoshlik quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

1. Fe'lning 1-shaxs ko'plik shakli uning birligi o'rnida qo'llanilib, kamtarlik, manmanlik, o'zini katta olish kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Shu masalalarning mazkur ishda qanday hal etilganligi haqida fikrlar bayon etilishini juda istaymiz. (A.Hojiyev). Mehmenni ishga solar ekanmiz-da,-dedi Yo'Ichini birga olarkan Yormat.*

2. Fe'lning 1-shaxs birligi o'rnida 2- yoki 3-shaxs birligi va ko'plik shakli qo'llanadi. Bunday holda shaxsning nutqi o'ziga qaratilgan bo'ladi: *Mo'lla Tursun, mana oliy ma'lumot haqidagi diplomni ham olding // Mo'lla Tursun, mana oliy ma'lumot haqidagi diplomni ham oldilar.*

3. Fe'lning 2-shaxs ko'pligi 1-shaxs ko'plik o'rnida ishlatiladi. Bunda shaxs ma'nosi mayli ma'nosi bilan birga ko'chadi: - *Qani, yigitlar, ishni boshladik,- dedi boshliq ishchilarga.*

4. Gap tarkibida *kishi, odam* so'zlari ega vazifasida qo'llanganda 1-shaxs birlik o'rnida 2-shaxs ishlatiladi: *Bu gaplarni eshitib, hayron bo'lasan kishi.*

6-§. Fe'l zamonlari ish harakati nutq so'zlanib turgan paytdan avval, nutq so'zlanib turgan paytda yoki nutq so'zlanib turgan paytdan keyin bajarilgan, bajarilmaganligiga munosabatni ifodalovchi fe'l shaklidir. Shunga ko'ra, fe'l zamonlari, dastlab, uch guruhga bo'linadi: 1) o'tgan zamon, 2) hozirgi zamon, 3) kelasi zamon.

O'tgan zamon - nutq so'zlanib turgan paytdan avval bo'lib o'tgan yoki bo'lmagan harakatni anglatadi. O'tgan zamonning quyidagicha besh turi mavjud: 1) yaqin o'tgan zamon, 2) o'tgan zamon hikoya fe'li, 3) uzoq o'tgan zamon, 4) o'tgan zamon davom fe'li, 5) o'tgan zamon maqsad fe'li.

1. Yaqin o'tgan zamon nutq so'zlanib turgan paytdan oldin, so'zlovchining ko'z o'ngida yoki bevosita ishtirokida sodir bo'lgan harakatni ifodalaydi. U **-di** affiksini fe'llarga qo'shish va tushlash orqali hosil bo'ladi: *o'qi+di+m, o'qi+di+ng, o'qi+di*.

2. Uzoq o'tgan zamon ancha avval, qachondir bo'lib o'tgan yoki bo'lmagan harakatni ifodalaydi: Bu shakl **-gan** sifatdoshi + **edi, ekan, emish** singari to'liqsiz fe'llarni qo'shish va tushlash orqali hosil qilinadi: *o'qi+gan+man, o'qi+gan ekan+man, o'qi+gan emish+man, o'qi+gan edi+m kabi*.

3. O'tgan zamon hikoya fe'li nutq so'zlanib turgan paytdan ilgari kutilmaganda, qisqa vaqt oralig'ida bo'lib o'tgan hikoya qilish, tasvir-lash orqali hosil bo'ladi. Bu shakl **-b / ib** yoki **-b/-ib** + **edi** to'liqsiz fe'li orqali yasaladi: *ol+ib+man, ol+ib+san, ol+ib edi+m, o'qi+b edi+ng kabi*.

4. O'tgan zamon davom fe'li nutq so'zlanib turgan paytdan ilgari davomli bo'lgan, takrorlanib turgan harakatni ifodalaydi. Bu shakl **-r (-ar), -yotgan, -moqda** affikslari + **edi** to'liqsiz fe'li yordamida yasaladi: *bil+ar edi+m, bil+ar eding; ol+ayotgan edi+m, ol+ayotgan edi+ng; ol+moqda edi+m, ol+moqda edi+ng kabi*.

5. O'tgan zamon maqsad fe'linutq so'zlanib turgan paytdan avval maqsad qilingan harakatni ifodalaydi. Bu shakl **-moqchi, -digan** affikslari va to'liqsiz fe'li yordamida yasaladi: *ol+moqchi edi+m, ol+moqchi edi+ng; ol+adigan edi+m, ol+adigan edi+ng kabi*.

Hozirgi zamon ish - harakatning nutq so'zlanib turgan paytda bajaradigan, bajarilmaganini ifodalaydi. Hozirgi zamon fe'lining quyi-dagi ikki turi mavjud: 1) hozirgi-kelasi zamon, 2) hozirgi zamon davom fe'li.

1. Hozirgi - kelasi zamon nutq so'zlanayotgan payt va undan sung sodir bo'ladigan harakatni ifodalaydi: **-a / -y** ravishdosh affiksini olgan fe'lni tushlash orqali shakllanadi: *ol+a+man, ol+a+san; ishla+y+man, ishla+y+san*.

2. Hozirgi zamon davom fe'li nutq so'zlanayotgan paytda davom etib turgan harakatni ifodalaydi va fe'lning o'zak-negiziga **-yap, -moqda, -yotib, -yotir** affikslarini qo'shib tushlash orqali hosil bo'ladi: *ishla+yap+man, ish+la+yap-san; ishla+moqda+man; ishla+yotib+man; o'qi+yotir+man kabi*.

Kelasi zamon harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajaralish yoki bajarilmasligini ifodalaydi. Bu zamonning ikki turi mavjud: 1) kelasi zamon maqsad fe'li, 2) kelasi zamon gumon fe'li.

1. Kelasi zamon maqsad fe'li bajarilishi maqsad qilib qo'yilgan harakatni ifoda etadi va fe'lning o'zak negiziga **-moqchi, -digan-ajak** affikslarini qo'shib tushlash orqali hosil bo'ladi: *ishla+moqchi+man, ishla+moqchi+san; ishla+yajak*.

2. Kelasi zamon gumon fe'li harakatning bajarilishi mo'ljali, taxminini ifodalaydi va **-r, -ar** affiksini fe'lga qo'shib tushlash orqali yasaladi: *ol+ar+man, ol+ar+san, ol+ar, ol+ar+miz kabi*.

Fe'l zamonlari sinonimiyasi. Boshqa fe'l shakllarida bo'lganidek, zamon shakllari o'rtasida ham grammatik ma'nodoshlik munosabati mavjud:

1. O'tgan zamon fe'lini hosil qiluvchi **-di** affiksi, hozirgi zamon o'rnida qo'llanadi: *Hozir qorong'uda qayoqqa bordigu, nimayam qildik// qayoqqa boramizu, nimayam qilamiz*.

2. O'tgan zamon fe'lini hosil qiluvchi **-gan** affiksi hozirgi zamon ma'nosida ishlatiladi: *Birov kitob o'qigan, kimdir shaxmat atrofida*.

3. Hozirgi zamon shakli kelasi zamon ma'nosida qo'llaniladi. Bunday hol, asosan, *ket bor, yubor, boshla* kabi fe'llar doirasida uchraydi: *Ertaga Buxroga ketayapmiz*.

4. Kelasi zamon fe'li o'tgan zamon ma'nosida qo'llanadi: *Rais majlisni ochiq deb e'lon qiladi, hamma o'rnidan turadi, O'zbekiston gimni yangraydi*.

5. Kelasi zamon fe'li hozirgi zamon ma'nosini ifodalaydi: *Ha, bu yer-da hayot qaynaydi... Talabalar baxtiyor yoshlik gashtini surmoqdalar*.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Fe'lning morfologik va sintaktik xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
2. Fe'l nisbatlari va ularni ifoda shakllari xususida nimalarni bilasiz?
3. Bo'lishli va bo'lishsizlik, o'timli va o'timsizlik kategoriyalari haqida ma'lumot bering.

4. Shaxs-son kategoriyasi va uning ahamiyatni izohlang.
5. Fe'llarda zamon turlari va uni ifodalovchi vositalar xususida ma'lumot bering.
6. Fe'l mayllari va ularning qanday turlarini bilasiz?

ZARURIY ADABIYOTLAR

1. Ш. Шоабдурақмонов, М.Асљарова, А.Қожиев, И.Расулов, Х.Дониёров Қозирги Ўзбек адабий тили. 1-Ўисм.Т., «Њљитувчи» 1980.
2. Њзбек тили грамматикаси. 1-том. Т., «Фан» 1975.
3. У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Рақматуллаев Қозирги Ўзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1992.
4. М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.

МА'RUZA

14.1. Fe'lning vazifadosh shakllari.

Fe'lning biror gap bo'lagi vazifasini bajarishga xoslangan shakl-lari vazifadosh shakllar deyiladi. Fe'lning vazifadosh shakllari to'rt xil bo'lib, ular quyidagilardan iborat: 1) harakat nomi, 2) sifatdosh, 3) ravishdosh.

7-§. Harakat nomi. Harakat nomi ish - harakatning atamasi bo'lib, gapda otga xos vazifalar bajarishga xoslangan fe'l shaklidir. Harakat nomi *-(i)sh*, *-(u)v*, *-moq*. affikslari yordamida yasaladi: *kechmoq*, *kechish*, *kechuv*. Harakat nomi fe'lga xos tuslanish, zamon, mayl kabi ma'nolarni bildirmaydi, balki harakat-holatning atamasi bo'ladi. Shu sababli otlarga xos kelishik, egalik kabi grammatik shakllarni qabul qila oladi va gapda otlarga xos vazifalarni bajaradi.

Ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan uch xil harakat nomi qo'shimchalaridan *-moq* bilan yasalgan shakl fe'lga *-sh* (*-ish*) bilan yasalgan shakl esa otga yaqin turadi. Shuning uchun *-moq* orqali fe'lning noaniq (infinitiv) shakli hosil qilinadi. Harakat nomi shakllarining har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi.

-(i)sh affiksi bilan yasaluvchi harakat nomi quyidagi xususiyatlarga ega: 1) harakatning nomini bildiradi, uning atamasi hisoblanadi: *yurish*; *yozish*, *o'ylash*; 2) *-(i)sh* affiksi bilan yasaluvchi harakat nomi shakli ko'plik, egalik va Kelishik affikslari bilan qo'llanganda, bu affikslarning ma'nosida deyarli o'zgarish bo'lmaydi. Biroq, o'rin-payt kelishigi shaklida qo'llanganda, hozirgi zamon sifatdoshining o'rin-payt kelishigidagi shakli bilan ma'nodoshlikka ega bo'lishi mumkin: *tuzishda-tuzayotganda-tuzayotgan vaqtda*; 3) harakat nomining *-(i)sh* affiksli shakli ko'makchilar bilan ham qo'llanib maqsad, vaqt, birgalik kabi ma'nolarni ifodalaydi: *o'qish uchun*, *o'qishdan avval*, *o'qish bilan*.

-(u)v affiksi bilan yasaluvchi harakat nomidagi fe'l undosh bilan tugaganda, **u** unlisi orttiriladi: *bor-boruv*. So'z oxiri **i** bilan tugagan bo'lsa, **i** tovushi **u** tovushiga, **a** bilan tugagan balsa, **a** tovushi **o** tovushiga o'tadi: *o'qi-o'quv*, *ishla-ishlov*.

-(u)v affiksi bilan yasaluvchi shakl ko'proq ot ma'nosida qo'llanadi. Shu bois, *-(u)v* affiksi yordamida yasalgan harakat nomining ayrimlari butunlay otga ko'chgan bo'ladi: *saylov*, *chanqov*, *qistov*, *o'quv* kabi.

-moq affiksi bilan yasaluvchi harakat nomi *-(u)v* affiksi yordamida yasaluvchi shaklga nisbatan ham kam qo'llanadi. Harakat nomi shakllari har doim ham biri o'rnida ikkinchisini qo'llab bo'lmaydi. Masalan, *Talabalarning bilim olishini yaxshi tashkillashtirish uchun mustaqil talimga alohida e'tibor berish zarur*, gapida qo'llangan *-ish* qo'shimchasi bilan shakllangan barcha harakat nomini *-moq* yoki *-v/uv* qo'shimchali shakl bilan almashtirib bo'lmaydi.

Harakat nomining yuqoridagi uchala shakli ham bo'lishsizlik ko'rsatkichi *-ma* affiksini qabul qilmaydi. Ularning bo'lishsiz shakli *-maslik* affiksi yordamida yasaladi: *ketmaslik*, *aytmaslik* kabi. *-maslik* asosida hosil bo'lgan bo'lishsizlik harakat nomining boshqa

shakllariga nisbatan *-sh (-ish)* affiksiga mazmunan yaqinligi mavjud: *o'qish-o'qimaslik. borish-bormaslik.*

8-§. Sifatdosh sifat kabi narsaning belgisini bildirib, gapda aniqlovchi vazifasiga xoslangan fe'l shaklidir: *kelgan odam, ishlayotgan yigit* kabi.

Sifatdosh, barcha fe'llar kabi o'timli va o'timsizlik, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik hamda zamon kategoriyalariga xos ma'nolarda kela oladi. Ular zamon ma'nosiga ko'ra uch guruhga bo'linadi: 1) o'tgan zamon sifatdoshi, 2) hozirgi zamon sifatdoshi, 3) kelasi zamon sifatdoshi.

O'tgan zamon sifatdoshi-gan (k, g undoshlaridan so'ng -kan) affiksi bilan yasaladi: *o'qigan (kitob), yozgan (insho), tikkan(ko'ylak).* Eski o'zbek tilida *-mish, -dik* shaklida ham qo'llangan: *E yorim, sevdim obod ro'zg'orim. (E.J)* Sifatdoshning bu shakli 1) fe'lining o'tgan zamon ma'nosini bildiruvchi formasini yasaydi: *borganman, borgan edim;* 2) *yot, tur, yur, o'tir* kabi holat fe'llariga qo'shilganda, hozirgi zamon ma'nosi hamifodalanadi: *Faxriddin osilib turgan qalin pastki labini bir-ikki qimirlatib javob berdi. (A.Q.);* 3) ot oldidan kelib, narsaning doimiy belgisini bildiradi va sifatlovchi-anqiqlovchi vazifasini bajaradi. Bunda harakatning o'tgan zamonga oidligi ifodalanmaydi, balki narsaning hozirgi holatdagi belgisi asosiy o'rinda bo'ladi: *xonaning ko'chaga qaragan oynasi, hovuz boshiga to'plangan odamlar.* 4)-*gan* affiksli sifatdosh shaxs-son qo'shimchalarini olib, kesim vazifasida qo'llanadi. Bunda u xabar maylining o'tgan zamon shakli hisoblanadi, *-gan* affiksi esa zamon (3-shaxda esa zamon va shaxs) ko'rsatkichi sifatida qaraladi: *kelganman, kelgansan, kelgan; kelganmiz, kelgansiz, kelgan;* 5) egalik, ko'plik va kelishik qo'shimchalarini olib otlashadi: *Yurgan daryo, o'tirgan bo'ya.*

Hozirgi zamon sifatdoshi fe'lga **-yotgan, -vchi(-uvchi)** affikslarini qo'shish orqali yasaladi va quyidagi ma'no, vazifalarga ega bo'ladi:

1. **-yotgan** affiksogrammatikalizatsiyalashgan **yot** fe'li va o'tgan zamon sifatdoshi hosil qiluvchi **-gan** affiksini birikishi orqali yasaladi. Hozirgi zamon sifatdoshining bu shakli, asosan, ot oldidan kelib anqiqlovchi vazifada qo'llanadi: *ishlayotgan odam, esayotgan shamol* kabi. Bu shaklni shaxs-son affikslari bilan tuslash orqali hozirgi zamon fe'lini hosil qilib bo'lmaydi. Faqat quyidagi hollardagina mazkur sifatdosh hozirgi zamon fe'lining yasalishi uchun xizmat qilishi mumkin: a) *yo'q* so'zi bilan hozirgi zamon fe'lining inkor shaklini yasaydi: *ishlayotgani yo'q, kelayotgani yo'q;* b) *emish* tuliqsiz fe'li bilan birga qullanganda hozirgi zamon fe'lining eshitilganlik shakli yuzaga keladi: *ishlayotgan emish, kelayotgan emish;* d) hozirgi zamon gumon ma'nosini ifodalashda *-dir* affiksi bilan qo'llanadi: *ishlayotgandir, kelayotgandir.*

2. Hozirgi zamon sifatdoshining **-vchi(-uvchi)** affikslari bilan yasalgan shakli oxiri a tovushi bilan bitgan so'zlarga qo'shilganda, a tovushi o tovushiga aylanadi, i unli tovushi bilan bitgan fe'llarda esa i tovushi u tovushiga aylanadi. Undosh bilan bitgan fe'llarga qo'shilganda, u orttiriladi: *ishla - ishlovchi, o'qi - uquvchi, bor- boruvchi* kabi.

Hozirgi zamon sifatdoshi quyidagicha ma'no va vazifalarga ega bo'ladi: a) **-yotgan** sifatdoshidan farqli ravishda shaxs-son affikslari bilan tuslanadi va gapda kesim vazifasida qo'llanadi: *ishlovchiman, ishlovchisan, ishlovchi;* b) otga bog'lanib, sifatlovchi anqiqlovchi vazifasini bajaradi: *ishlovchi kishi, o'quvchi qiz* kabi; d) bu shaklda otlashishga moyillik kuchliroq bo'ladi: *o'quvchi, yozuvchi, to'quvchi* kabi.

Kelasi zamon sifatdoshi fe'lga **-r(-ar), -digan** affikslarini qo'shish bilan yasaladi va qo'yidagicha ma'nolarni ifodalaydi:

1. Sifatdosh yasovchi **-(a)r** (bo'lishsizi *-mas*) affiksi hozirgi o'zbek adabiy tilida juda kam uchraydi. Bu affiks bilan qo'llanuvchi ayrim so'zlar fe'ldan ko'ra sifatlariga yaqin turadi: *oqar suv, so'nmas hayot* kabi. Shuningdek, **-(a)r** affiksi yordamida yasaluvchi shakl tuslanganda kelasi zamon gumon fe'lini hosil qiladi: *yozarman, yozarsan, yozar kabi.*

2. Sifatdoshning **-digan** affiksi bilan yasaluvchi shakli ravishdoshning *-a (-y)* affiksi bilan yasalgan shaklidan so'ng qo'shiladi va quyidagicha ma'nolarga ega bo'ladi: a) fe'lining atributiv shaklini hosil qilishda faol ishlatiladi: *o'qiydigan kitob, bajaradigan yumush* kabi; b) shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanib, kelasi zamon maqsad ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi: *o'qiydiganman, o'qiydigansan, o'qiydigan* kabi.

Bundan tashqari, kelasi zamon sifatdoshining **-jak, -gusi, -asi** singari qadimiy shakllari ham mavjud bo'lib, ular hozirgi tilimizda *kelajak, kelgusi, kelasi* singari so'zlar doirasidagina uchraydi.

Sifatdoshlarning asosiy sintaktik vazifasi aniqlovchi bo'lib kelishdir. Ular otlashganda otlarga xos sintaktik vazifalarni bajaradi: *Aytilgan so'z-otilgan o'q.*

Shaxs-son affikslari bilan tuslanib, mayl, zamon ma'nolarini ifodalaganda esa kesim vazifasida keladi: *Men bu kitobni o'qiganman. Sen ertaga borarsan.*

9-§. Ravishdosh. Ravishdosh harakatning belgisini bildiradigan, uni biror tomondan xarakterlaydigan fe'l shaklidir. Hozirgi o'zbek tilida ravishdoshlar quyidagi xususiyatlariga ko'ra o'zaro farqlanadi:

1. Ma'nosiga ko'ra: a) holat ravishdoshlari *-b(-ib), -a (-y) -gudek* affislari vositasida hosil bo'ladi; b) payt ravishdoshlari *-gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha)* vositasida hosil bo'ladi; d) maqsad ravishdoshi *-gani (-kani, -qani)* affiksi vositasida hosil bo'ladi.

2. Tuslanish-tuslanmasligiga ko'ra: a) tuslanadigan ravishdoshlar: a) *-b(-ib), -a (-y)* affikslari bilan yasalgan ravishdoshlar; b) *-gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha) -gani (-kani, -qani)* affikslari bilan yasalgan ravishdoshlar kiradi.

3. Zamon ma'nosiga ko'ra: a) o'tgan zamon ravishdoshi: a) *-b(-ib), -gach (-kach, -qach)* affikslari bilan yasalgan ravishdosh; b) hozirgi zamon ravishdoshlari: *-a (-y)* affiksi bilan yasalgan ravishdosh; d) kelasi zamon ravishdoshlari: *-guncha (-kuncha, -quncha) -gani (-kani, -qani), -gudek* affikslari bilan yasaladigan ravishdoshlardan tashkil topadi.

Ravishdosh yasovchi affikslar quyidagi ma'no va grammatik vazifalarga egaligi bilan xarakterlanadi:

-(i)b affiksi: *so'rab, eslab, quvonib.* Bu shakl bajaradigan vazifasining xilma-xilligi bilan boshqa ravishdosh shakllaridan alohida ajralib turadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilar: 1) yetakchi fe'l bilan ko'makchi fe'lni bog'lashga xizmat qiladi: *so'rab ko'r, tashlab yubor, ishlab tur* kabi; 2) harakat belgisini bildirib, hol vazifasida keladi: *Shu payt chorbog'dan echki yetaklab Dildor kirib keldi. (S.Ahm.)* Harakat belgisini bildirgan ravishdosh, xuddi ravish kabi, *-roq, -gina* affikslari bilan ham qo'llanadi: *Qudrat tortinibgina so'radi.* 3) ravishdoshning bu turi shaxs-son affiksi bilan tuslanib, o'tgan zamon hikoya fe'lini hosil qiladi: *kelibman, kelibsan* kabi.

Bu ravishdoshning bo'lishsiz shakli *-ma* (o'qimabman), **-may, -masdan** (o'qimay, o'qimasdan) shaklida, She'riyatda **-mayin** (tinmayin) shaklida qo'llanishi ham uchraydi.

-a (-y) affiksi undosh bilan tugagan fe'llarga *-a*, unli bilan bitgan fe'llarga *-y* affiksining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bu turdagi ravishdosh quyidagi ma'no va vazifalarda qo'llanadi: 1) harakatning belgisini bildiradi, bu vazifada u yakka so'z holida (*kula, ushlay* kabi) kam qo'llanadi. Yakka so'z tarkibida qo'llanganda, harakatni tezlik bilan bajarganligini ifodalaydi: *Jo'xori tuyayotgan xotin kelisopni kelining ustiga qo'ya chopdi. (A.Q.)* 2) ravishdoshning *-a, -y* affiksi bilan yasaluvchi turi harakatning belgisini bildirish vazifasida, asosan, takror yoki juft so'z holida qo'llanadi. Bu shaklda qo'llangan *-a, -y* affiksi yordamida yasaluvchi ravishdosh gapda vaziyat holi vazifasida keladi: *Muyassar shosha-pisha unga kechagi o'ylarini gapira boshlagan edi. (O. Yo.)* 3) yetakchi fe'l bilan ko'makchi fe'lni bog'lash uchun xizmat qiladi: *yoza olmoq, o'qiy boshlamoq*; 4) shaxs-son bilan tuslanib, hozirgi-kelasi zamon fe'li yasash uchun xizmat qiladi. Uning bo'lishsiz

shakli –**ma** affiksi orqali yasaladi: *kelaman, kelmayman, kelasan, kelmaysan, keladi; ishlayman, ishlaysan, ishlaydi* kabi.

-gach (-kach, -qach) affiksi: *Kelgach, ekkach, chiqqach*. Ravishdoshning bu turi qo'yidagi vazifalarda qo'llanadi: 1) payt ma'nosini bildiradi va payt ergash gapning kesimi vazifasida kelib, bosh gapdagi harakatning o'zi bildirgan harakatdan keyin bajarilishini ifodalaydi: *U yechinib ko'rpaga kirgach, Ikromjonga nimadir demoqchi bo'lib boshini ko'tardi. (S.Ahm.)* 2) sabab ma'nosini bildiradi va sabab ergash gapning kesimi vazifasida keladi: *Ko'ksimda o'ynadi bir onda sevinch, mahallam oldiga kelgach tramvay.(O.)* 3) -gach affiksi yordamida yasalgan ravishdoshning bo'lishsiz shakli –**ma** orqali yasalib, asosan, sabab ma'nosini ifodalashda qo'llanadi: *Hadeganda eshik ochilavermagach, xavotir oldik*. Ushbu ma'no chiqish kelishigidagi sifatdoshning keyin so'zi bilan birikuvi vositasida ham ifodalanadi: *kelgach -kelgandan keyin, aytavermagach -aytavermagandan keyin*.

-guncha (-kuncha, -quncha) affiksi: *kelguncha, chekkuncha, chiqquncha*. Bu affiks yordamida yasaluvchi ravishdosh ham hozirgi o'zbek tilida juda keng qo'llanadi va quyidagi ma'nolarni bildiradi: 1) o'zi bog'lanib kelgan fe'l bildirgan harakatning bajarilish vaqtini aniqlaydi. Bunda: a) biror harakatning -guncha affiksli fe'l bildirgan harakatga qadar bajarilib bo'lishi ifodalanadi: *Yuringlar, mashina kampirni tashlab kelguncha, qirga chiqib tushamiz. (I. R.)* b) biror harakatning -guncha affiksli fe'l bildirgan harakat sodir bo'lguncha davom etishi ifodalanadi: *Hoy qizlar, shartim shuki, ketguncha ashula qilib ketasanlar. (S.3.)* 2) qo'shma gaplarda ergash gapning kesimi vazifasida kelib, chog'ishtirish ma'nosini bildiradi: *Muncha hayqir-guncha, telba to'lqinlar, Simlarga quvvat ber shalolalardan. (Mirtemir.)*

-gani (-kani, -qani) affiksi: *olgani, ekkani, yiqqani*. Bu affiks yordamida maqsad ma'nosini bildiruvchi ravishdosh yasaladi: *Yig'im-terimga qarashgani yoshu qari, erkak-ayol - butun shahar hasharga chiqdi*. Bundayma'no ifodalashda uchun ko'makchisi ham keng qo'llanadi: *Yig'im-terimga qarashish uchun yoshu qari, erkak-ayol- butun shahar hasharga chiqdi*.

Bu turdagi ravishdoshning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning bo'lishsiz shakliga ega emasligidir.

14.2. Fe'ning modal ma'no ifodalovchi shakllari

Yasalish usuliga ko'ra bunday fe'l shakllarning ikki turi mavjud: 1) sintetik shakllar; 2) analitik shakllar.

10-§. Sintetik shakllar harakatning turli modal ma'nolarini ifodalovchi affikslar asosida shakllanadi. Bular o'z xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi: a) harakatning takroriyligini, davomlilikini ifodalovchi affikslar fe'lga –la, -kila (-gila, -rila, -qila) affikslarini qo'shish orqali hosil qilinadi: *ishqa – ishqala, sava – savala, turt – turkila, cho'z – chuzg'ila, yugur – yugurgila, tort – tortqila, tep – tepkila* kabi; b) harakatning kuchsiz darajasini ko'rsatuvchi –(i)nqira, -(i)msira affikslari yordamida yasaladi: *oqar - oqarinqira, qo'rq - qo'rqinqira, kul -kulimsira* kabi.

11-§. Analitik shakllar fe'ning asosiy modal ma'no hosil qiluvchi shakllari bo'lib, ularning ko'pchilik qismini ko'makchi va to'liqsiz fe'llar vositasida yasaluvchi shakllar tashkil qiladi.

12-§. Ko'makchi fe'l yetakchi (mustaqil) fe'lga bog'lanib, harakatning turlicha xususiyatlarga ega bo'lgan modal ma'nolarini hosil qilish uchun xizmat qiladi. Biroq, o'zbek tilida butunlay ko'makchi fe'lga aylangan (mustaqil ma'nosini butunlay yo'qotib, faqat ko'makchi fe'l sifatida qo'llanadigan) fe'l yo'q. Ayrim mustaqil fe'llar ko'makchi fe'l vazifasida qo'llanib, quyidagicha modal ma'nolarni hosil qiladi:

- 2) harakatning davomiyligi: *ayta tur, ko'ra tur*;
- 3) harakatning boshlanishi: *ayta boshla, yoza boshla*;
- 4) harakatning takrori: *aytib yur, aytib tur*;
- 5) harakatni tugallanishi: *aytib bo'l, yozib qo'y*;
- 6) harakatning bajarilish imkoniyati: *yozi ko'r, aytib ko'r, ayta ol (moq)*;
- 7) harakatning shaxslararo yo'nalishi: *yozi ber, aytib ket, ola kel, olib bor* kabilar.

Mustaqil fe'llardagi bunday hodisa ikkita mustaqil fe'lning birikishidan hosil bo'ladigan qo'shma (olib chiq, tortib ol kabilarga) fe'llarga tashqi jihatdan o'xshash bo'lsa ham, ular o'rtasida quyidagicha farq mavjud: a) qo'shma fe'llarni hosil qiluvchi qismlarning har ikkalasi ham mustaqil fe'l bo'lib, ular birgalikda bitta yangi lug'aviy ma'no ifodalashga xoslanadi; b) yetakchi ko'makchi felli so'z qo'shilmalarida esa ko'makchi fe'l o'z mustaqil lug'aviy ma'nosini yo'qotib, modal ma'no ifodalovchi analitik unsurga aylanadi, ya'ni **grammatikalizatsiyalashadi**. Shu bois bunday so'z qo'shilmalaridagi birinchi fe'l **yetakchi fe'l** hisoblanib, u mazkur birikmadagi asosiy lug'aviy ma'noni tashuvchi komponent hisoblanadi. O'z mustaqil lug'aviy ma'nosini yo'qotib, modal ma'no ifodalovchi analitik unsurga aylangan fe'l esa **ko'makchi fe'l** deyiladi: *aytib berdi* (*aytib*— yetakchi, *berdi* — ko'makchi). Yetakchi fe'l vazifasida sodda fe'ldan tashqari qo'shma fe'l (qaror qilib qo'yimoq, olib chiqib ketmoq), takroriy fe'l (o'yib-o'yib olmoq, chimchib-chimchib olmoq) ishtirok etishi mumkin.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida quyidagi fe'llar ko'makchi fe'l vazifasida qo'llanadi: *boshla, yot, tur, yur, o'tir, bo'l, bit, ol, ber, qol, qo'y, chiq, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, o'l, o't, yet, ko'r, qara, boq, yoz* kabilar.

Ko'makchi fe'llar yetakchi fe'l bilan asosan $-(i)b$ yoki $-a$, $-y$ ravishdosh yasovchilari yordamida birikadi. Ba'zi ko'makchi fe'llargina yetakchi fe'l bilan grammatik shakl yordamisiz birikadi. Ko'makchi fe'l yetakchi fe'l bilan ravishdosh shakli orqali birikkanda, tuslovchi affikslar ko'makchi fe'lga qo'shiladi. Yetakchi fe'lga grammatik shakl yordamisiz birikkanda esa yetakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda, ya'ni tuslovchi affikslar har ikkala fe'l takibida bo'ladi: *yozib oldim, yozib olding, yozib oldi; yoza oldim, yoza olding, yoza oldi; yozdim-oldim, yozding-olding, yozdi-oldi* kabi.

Ba'zi ko'makchi fe'llar, keltirilgan misoldagi kabi, yetakchi fe'lga har uch shaklda birikadi, ba'zilari esa faqat ravishdosh shakli yordamida birikadi: *o'qib chiqdi, yoza boshladi*. Bularidagi *chiq, boshla* ko'makchi fe'llari yetakchi fe'l bilan *o'qidi-chiqdi, yozdi-boshladi* shaklida birikmaydi. Ayrim ko'makchi fe'llar yetakchi fe'l bilan $-(i)b$ va $-a$, $-y$ ravishdosh yasovchilari yordamida, ba'zilari esa faqat $-(i)b$ yoki $-a$, $-y$ affiksi yordamida birikadi. Masalan, *ber* ko'makchi fe'li ravishdoshning har ikki shakliga birika olgani holda, *qara* ko'makchi fe'li faqat $-(i)b$ affiksli ravishdosh shakliga, *yoza* ko'makchisi esa faqat $-a$ affiksli ravishdoshga birikadi: *yozib ber — yoza ber, o'qib qara, yiqila yozdi*. Shunga ko'ra ko'makchi fe'llarni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin: 1) ravishdoshning $-b$ ($-ib$) affiksli turiga birikadigan ko'makchi fe'llar: *yot, o'tir, kel, yur, bo'l, bit, chiq, yet, o't, yubor, tashla, tush, o'l, qara, boq, qo'y*; 2) faqat ravishdoshning $-a$ ($-y$) affiksli turiga birikadigan ko'makchi fe'llar: *boshla, bil, yoz*; 3) ravishdoshning ham $-b$ ($-ib$) ham $-a$ ($-y$) affiksli shakli bilan bog'lana oladigan ko'makchi fe'llar: *tur, bor, ol, ber, qol, ko'r, ket, sol* kabilar.

O'zbek adabiy tilida ko'makchi fe'llarning asosiy qismi yetakchi fe'l bilan $-(i)b$ ravishdosh yasovchisi orqali birikadi. Yetakchi fe'lga faqat $-a$, $-y$ ravishdosh yasovchisi yordamida birikuvchi ko'makchi fe'l, yuqorida ko'rib o'tilganidek, uchtagina: *boshla, bil, yoz* (*ayta boshladi, yoza bildi, to'kila yozdi*).

Yetakchi fe'l bilan ravishdoshiing har ikki turi yordamida birika oladigan ko'makchi fe'llar $-(i)b$ yoki $-a$, $-y$ affiksi yordamida birikkanda boshqa-boshqa ma'nolar ifodalaydi. Qiyoslang: *yozib oldi-yoza oldi, kelib qoldi-kela qoldi, aytib ko'r-ayta ko'rma*.

Yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topgan analitik shakllarda ko'makchi fe'l birdan ortiq bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ham har bir ko'makchi fe'l o'zidan oldingi fe'l bilan ravishdosh shakllari yordamida birikadi: *aytib berib tUa qol*. Ko'makchi fe'l yordamida yasaluvchi analitik shaklning bir yetakchi va bir ko'makchi fe'ldan hosil bo'lgan turi juda ko'p qo'llanadi. Ikki va undan ortiq ko'makchili shakl kam uchraydi. Birdan ortiq ko'makchi fe'l qatnashgan shaklda har bir ko'makchi fe'l o'z ma'nosi bilan qatnashadi. Analitik shakl tarkibidan biror ko'makchi fe'l tushirilsa, unga xos ma'no ham yo'qoladi: *aytib berib tura qol - aytib berib tur - aytib ber*. Birdan ortiq ko'makchi fe'li analitik shaklda ravishdoshning $-(i)b$ va $-a$, $-y$ affiksi yordamida birikuvchi ko'makchi fe'l ishtirok

etsa, yetakchi fe'lga avval *-(i)b* affiksi yordamida birikuvchi ko'makchi fe'l, keyin *-a, -y* affiksi yordamida birikuvchi ko'makchi fe'l qo'shiladi: *yozi bera qol, yozi ko'ra boshladi, ishlab tura ber* kabi.

Aynan bir ko'makchi bilan yasalgan analitik shakldagi fe'llar uyushiq bo'lak vazifasida kelganda, ko'makchi fe'l uyushiq bo'laklarning so'nggisi bilan qo'llanish hollari ham uchraydi: *Men uni bir necha yildan buyon yedirib, ichirib kelaman.*

13-§. TO'LIQSIZ FE'L.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'l va fe'l bo'lmagan so'zlar bilan qo'llanadigan edi, ekan, emish, emas, esa kabi to'liqsiz fe'llar mavjud. Bulardan esa to'liqsiz fe'li bog'lovchiga aylangan. To'liqsiz fe'lning edi, ekan, emish shakllari ham harakat ma'nosiga ega emas. Ular mustaqil fe'llarga qo'shilib turli ma'nolarni ifodalaydi va mustaqil fe'llarni har xil grammatik vazifalarga xoslaydi. To'liqsiz fe'llar ot, sifat, son, olmosh kabi mustaqil so'zlar bilan ham, mustaqil fe'llar bilan ham qo'llana oladi: *bog' edi, shular edi, besh edi, go'zal ekan, kelgan ekan* kabi.

To'liqsiz fe'l har bir shaklining o'ziga xos xususiyati bilan birga ularning uchulasi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar ham bor: 1) to'liqsiz fe'llar mustaqil lug'aviy ma'noga ega emas. Bu fe'llar tarixan mustaqil ma'noli bo'lsa-da, hozirgi paytda o'z ma'nosini yo'qotib, yordamchi fe'lga aylangan; 2) to'liqsiz fe'l o'zicha harakat bildirsa olmasligi sababli fe'llarga xos bo'lishsizlik, daraja, zamon kabi ma'nolarga va bu ma'noni ifodalovchi shakllarga ega bo'la olmaydi; 3) garchi shaxs-son qo'shimchalari to'liqsiz fe'lga qo'shilsa-da, ular bildirgan shaxs ma'nosi to'liqsiz fe'lga emas, balki mustaqil fe'lga tegishli bo'ladi: *xabardor ekan+man, xabardor ekan+san, bilgan edi+m, bilgan edi+ng; bilar emish+man, bilar emish+san.* Shu bois to'liqsiz fe'l yakka holda tuslanmaydi.

To'liqsiz fe'l shakllaridagi birinchi tovush (*e*) noturg'un, u ma'lum fonetik sharoitlarda, boshqa tovushning ta'siri bilan yoki boshqa tovushga o'tishi yoki tushib qolishi mumkin. Bu hodisa, ayniqsa, og'zaki nutqda ko'p uchraydi: *ishlar+di, ishlar+kan, ishlar+mish; ishlagan+akan, ishlasa+ydi.*

To'liqsiz fe'l shakllari uyushiq kesimlar uchun umumiy bo'lganda oxirgi kesim tarkibida qo'llanadi. Bu kesimlar turli shakldagi fe'llar, shuningdek, otlar bilan ifodalanishi mumkin: *U Akmalning iztirob chekib yurganini ham bilar, lekin Gulsum ona bunchalik fig'oni chiqib gapirishini birinchi ko'rishi edi. (O. Yo.)*

14-§. Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari. Fe'llar tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sodda fe'llar bir o'zak morfemadan iborat bo'lgan tub: *o'qi, kut, kel, ol* va yasama: *ishla, tozala, oqar, ko'rsat* so'zlardan tashkil topadi.

2. Qo'shma fe'llar ikki o'zak morfemaning birikishidan hosil bo'ladi va tarkiban quyidagicha tuzilishga ega bo'ladi: a) ot yoki boshqa turkumga oid so'zlar+fe'l: *qaror qilmoq, ahd etmoq, taq etmoq, dod demoq, bayon qilmoq*; b) fe'l+fe'l: *ishlab olmoq, olib chiqmoq, borib kelmoq, sotib olmoq.* Zamon va shaxs-son qo'shimchalari qo'shma fe'lning ikkinchi qismiga qo'shiladi: *borib keldim, olib chiqding* kabi. Bunday qo'shma fe'llar ikkita mustaqil ma'noli fe'lning bir umumiy ma'no doirasida birlashuvi va leksikalizatsiyasi asosida shakllanadi;

3. Murakkab fe'llar mustaqil va yordamchi (ko'makchi) fe'l-larning analitik shakli asosida shakllanadi. Bunda aslida mustaqil lug'aviy ma'noli bo'lgan ikkinchi fe'lning grammatikalizatsiyalashu-vi sodir bo'ladi: *yuvib bo'lmoq, ko'rib qolmoq, bilib olmoq* kabi.

4. Juft va takroriy fe'llar. Fe'llarning juft va takroriy shakllari ham mavjud. Ular quyidagicha xususiyatlarga ega bo'ladi:

1. Fe'lning turli ma'nolarga ega bo'lgan analitik shaklini hosil qiladi: a) bir xil grammatik shaklga ega bo'lib, fe'lning yetakchi ko'makchi shaklini hosil qilib turli modal

ma'nolar ifodalaydi: *aytdi-qo'ydi, yozdi-qo'ydi, o'tdi-ketdi, qirdi-tashladi*; b) qismlari turli grammatik shaklga ega bo'lgan mustaqil fe'llar takrorlanib, harakatni ta'kidlash, kuchaytirish uchun xizmat qiladi: *aytsam-aytay, borsang-bor, ketsang-ket, olsang-ol*.

2. Nutq jarayonida boshqa turkumga ko'chgan (konversiyaga uchragan) holda ishlatiladi: a) fe'llarning juft va takrorlanishi natijasida otga xos ma'no hosil qiladi: *qo'ydi-chiqdi, oldi-berdi, dedi-dedi, keldi-ketdi*; b) ravishga ko'chadi: *uzul-kesil, ag'dar-to'ntar, bilinar-bilinmas, bora-bora, turib-turib, ura-sura, qotib-qotib*.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Fe'ning vazifadosh shakllarini tavsiflang.
2. Ravishdosh va uning turlarini vujudga keltiruvchi shakllar haqida ma'lumot Bering.
3. Sifatdosh va uning zamonga munosabatini ko'rsatuvchi shakllar xususida nimalarni bilasiz?
4. Harakt nomi va uni vujudga Keltiruvchi shakllar haqida ma'lumot Bering.
5. Fe'ning modal ma'no ifodalovchi vositalari va ularning turlarini tavsiflang.
6. Ko'makchi va yetakchi fe'llar, ularni birtiruvchi shakllar xususida gapiring.
7. Fe'ning tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

ZARURIY ADABIYOTLAR

1. Ш.Шоабдуракмонов, М.Асъярова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.Дониев Козирги ызбекадабий тили. 1-лысм .Т., «Нълытувчи» 1980.
2. Њзбек тили грамматикаси. 1-том. Т., «Фан» 1975.
3. У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Раќматуллаев Козирги ызбек адабий тили. Т., «Нълытувчи» 1992.
4. М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Нълытувчи» 1978.

15-MARUZA

RAVISH

1-§. Ravish harakat-holat belgisini bildiruvchi so'z turkumidir. Shu xususiyatiga ko'ra, ravish turkumiga oid so'zlar, asosan, fe'lga bog'lanib keladi. Ravishlar fe'l bildirgan harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'rni, maqsadi va shu kabilarni bildiradi: *Ag'darilgan yerdan osmonga ko'tarilgan chang har tomonga yelib, asta-sekin bulutlar orasiga singib ketdi*.

Ravishlar belgi bildiruvchi so'z bo'lgani uchun, ularning ba'zilari sifat yoki otga bog'lanib kelishi mumkin: *U hozir beqiyos vatasavvur qilib bo'lmas baxtiyor edi. (Sh.Sa'dulla)*

Ravishlarning o'ziga xos morfologik belgilaridan biri, ularning o'zgarishidir. Ravishlar biror so'zga bog'langanda, shakli o'zgar-maydi. Ular tarkibida uchraydigan ko'plik, egalik va kelishik affikslari o'zining grammatik ma'nosiga ega bo'lmay, ravishning o'zak qismiga mansub bo'ladi: Masalan: *birdan, birga, kunda, chalqanchasiga, birdaniga, yonlamasiga, qatorasiga* kabi ravishlardagi kelishik va egalik affikslari o'z asl ma'no va vazifasini yo'qotgan. Bu so'zlar xuddi shu ko'rinishda ravishga aylangan.

2-§. Ravishlarning ma'no jihatdan turlari. Ravishlar ma'no jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi: holat ravishi, payt ravishi, maqsad ravishi, miqdor-daraja ravishi.

Holat ravishi harakat-holatning qaytarzda yuz berishi, qanday usul bilan bajarilishi kabi ma'nolarni bildiradi: *bexosdan, tez(da), qo'qisdan, sekin, astoydil, bekorga, piyoda, ketma-ket, arang, darhol, zimdan, bazur, qiyg'os, zo'rg'a, birdan, boshqacha* kabilar. Holat ravish-lari gapda asosan vaziyat holi vazifasida keladi: *Zulfiya tabiat, turmush sinoviga mardonavor bardosh berdi*. Shuningdek, holat ravishi otga boqlanib, aniqlovchi, kesim vazifasida kelishi ham mumkin: *Jamiyat uchun yangicha ilm kerak. Auditoriya jimjit, hamma unga qarar edi. (P.Q)*

Payt ravishi ish-harakatning bajarilish paytini (vaqtini) bildiradi: *bugun, erta(ga), kecha, endigina, kecha-kunduz, avval, hozir, doim, erta-indin, oldin, so'ng, hali, hamon,*

dastlab, kunduzi, qishin-yozin, kuni bilan kabilar. Payt ravishlari gapda asosan payt holi vazifasida keladi: *Dadasi va ayasi unga kechasi matal aytib berishar edi. (Sh. Sa'dulla.)*

O'rin ravishi harakat-holatning bajarilish, yo'nalish, chiqish o'rnini bildiradi: *oldinda, olisda, yaqinda, yuqoriga, pastga, olisdan, yaqindan, unda-bunda, allaqayerda, allaqayerga, quyida* kabilar. O'rin ravishlari gapda o'rin holi, ba'zan kesim vazifasida keladi: *Bunda bulbul kitob o'qiydi (H.O). Obodonchilik sohasidagi katta ishlar oldinda. (O.)*

Maqsad ravishi harakatning bajarilish maqsadini, nima uchun bajarilishini bildiradi: *atay, ataylab, atayin, qastdan, jo'rttaga, azza-bazza* kabilar. Maqsad ravishi gapda maqsad holi vazifasida keladi: *Nachora, buni jurttaga qiluvdik. (M.Ism.)*

Xarakatning bajarilish maqsadi *uchun, deb* yordamchi so'zlari va *-gani* affiksli ravishdosh yordamida aniq ifodalanadi (*o'qish uchun kelgan, yordamlashay deb keldim, o'qigani keldi*). Shu sababli o'zbek tilida maqsad ifodalovchi ravishlar kamdir.

Miqdor-daraja ravishi harakatining yoki belgining miqdorini, narsaning noaniq miqdorini ifodalash uchun xizmat qiladi. Miqdor-daraja ravishlari: *ko'p, oz, kam, bir oz, sal, picha, qittak, xiyol* kabi harakatning miqdoriy belgisini ifodalovchi hamda *juda, g'oyat, nihoyatda, har qancha, obdan, ozmuncha, aslo, sira, hech* kabi harakat belgisini darajalovchi ravishlardan tashkil topadi. Ular ma'no jihatdan quyidagicha ikki guruhni tashkil qiladi:

Harakat belgisini kuchaytiruvchi ravishlar: *eng, juda, nihoyat-da, g'oyatda, yanada, tag'in, tamomila, uncha-muncha, ozmuncha, o'ta, lang, qoq, zir* singari tasdiq bildiruvchi ravishlardan, *hech, sira, aslo, zinhor, hargiz, hadeganda* kabi inkor bildiruvchi ravishlardan iborat.

Harakat belgisini susaytiruvchi ravishlar: *arang, zo'rg'a, zo'rbazo'r, xiyol, sal, salpal, chor-nochor* kabilar.

Miqdor - daraja ravishlari gapda *ko'pincha* hol, ba'zan otga bog'lanib sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi: *Ko'p gap quloqqa yoqmas. O'rmonjon akamning bir gapi sira-sira esimdan chiqmaydi. (A.Q.)* Otlashganda esa to'ldiruvchi va qaratqich aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Ko'pdan quyon qochib qutulmas.* Ravishning bu turi kesim vazifasida kelishi ham mumkin: *Bahorda dehqon uchun vaqt oz, biroq ish ko'p.*

3-§. Ravish darajalari. Sifatlar singari ravishlar ham turli daraja-ga egabo'lishi yoki darajalanmasligi mumkin. Masalan, *tezroq chop-moq, juda sekin yurmoq* kabilarda harakatning tezlik darajasi har xil, lekin *hamisha, arang, zo'rg'a* kabilar bildirgan belgi darajalanmaydi.

Ravish bildirgan belgi darajasining ortiq-kamligi xuddi sifatlar-dagi kabi ifodalanadi. Masalan: belgining ortiq darajasi maxsus so'zlar yordamida ifodalanadi: *juda tez uchadi, nihoyatda sekin.*

Belgining ozaytirma darajasi-roq, -gina affikslari yordamida ifodalanadi: *sekinroq gapir, keyinroq keldi, hozirgina keldim, salgina kechikding, ozgina oldi* kabi.

Ravishlarda belgining ko'chli darajasi takroriy shakl vositasida ifodalanishi ham mumkin: a) so'zning to'liq takrori orqali: *juda-juda, tez-tez, zo'rg'a-zo'rg'a, zinhor-zinhor, hali-hali, sira-sira, endi-endi;* b) qisqa takror orqali: *kuppa-kunuzi, to'ppa-to'g'ri, babbaravar, chippa-chin.*

4-§. Ravishlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Ravishlar tuzilishiga ko'ra: sodda, qo'shma, juft, takroriy ravishlarga bo'linadi.

1. Sodda ravishlar bir o'zak morfemadan iborat bo'ladigan a) tub: *tez, sekin, kam;* b) yasama: *qahramonlarcha, ojizona, yangicha, ko'plab* singari so'zlardan iborat bo'ladi.

2. Qo'shma ravishlar mustaqil so'zlarning birikishi orqali hosil bo'ladi: *har vaqt, bir zum, hech qachon, allamahol.*

3. Juft ravishlar umumlashtirish, taxmin kabi ma'nolarga ega bo'ladi va quyidagicha tuziladi: 1) sinonim so'zlardan: *eson-omon, asta-sekin, ochiq-oydin, uzul-kesil;* 2) antonim so'zlardan: *erta-kech, tunu kun, yozin-qishin.*

4. Takroriy ravishlar ma'noni kuchaytiradi va quyidagicha tuziladi: 1) tub ravishlarning takroridan: *tez-tez, endi-endi, asta-asta, kam-kam, keyin-keyin*; 2) *-ma\ -ba* unsurlari yoki chiqish va jo'nalish kelishiklarini olgan so'zlar takrori asosida: *yuzma-yuz, ketma-ket, bekordan-bekor, kamdan-kam, zo'r-bazo'r, naridan-beri*.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ravishning boshqa mustaqil so'zlar bilan umumiy va farqli belgilari nimalarda ko'rinadi?
2. Ravishning ma'no jihatdan qanday turlarini bilasiz?
3. Ravish va sifatning o'xshash xususiyatlarini tavsiflang.
4. Ravish va ravishdoshlarni qiyosiy tahlil qiling.
5. Ravishning ma'no turlarini hosil qilishda boshqa turkumlarning ishtirokini izohlang.
6. Ravishning tuzilishiga ko'ra turlari xususida nimalarni bilasiz?

ZARURIY ADABIYOTLAR

1. Ш. Шоабдуракмонов, М. Асљарова, А. Қожиев, И. Расулов, Х. Дониёров Қозиргињзбекадабий тили. 1-љисм. Т., «Њљитувчи» 1980.
2. У. Турсунов, Ж. Мухторов, Ш. Раќматуллаев Қозиргињзбекадабий тили. Т., «Њљитувчи» 1992.
3. М. Мирзаев, С. Усмонов, И. Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978

16-MA'RUZA YORDAMCHI SO'ZLAR

16.1. Ko'makchilar

Ot, olmosh, harakatnomi va sifat doshdan keyin kelib, ularni boshqaso'zga (ko'pinchafe'lga) grammatik jihatdan belanish nita'minlay-diganso'zlar ko'makchideyiladi.

Ko'makchilarga pdao'zidan oldingimustaqilso'zlar bilan bir ikibular gavo'sita, maqsad, sabab, payt, makon kabima'nolarni qo'shadivashuso'zlar bilan bir gabittagapbo'lagi vazifasini bajaradi.

Ko'makchilar kelib chiqishiga ko'ra: sof ko'makchilar va vazifadosh ko'makchilardan iborat bo'ladi:

1) **sof ko'makchilar** lug'aviy ma'nosini batamom yo'qotgan: *bilan, uchun, kabi, singari, uzra, sayin, qadar* singari so'zlarni o'z ichiga oladi;

2) **ko'makchi vazifasida qo'llanadigan so'zlarga tomon, boshqa, sababli, orqali, tufayli, qarab, qaramay, so'ng, tashqari, beri, ko'ra, chog'li, uzra** singari so'zlar kiradi.

Ko'makchi vazifasida qo'llanadigan so'zlar guruhi tarkiban qo'yi-dagi mustaqil so'zlarning nutqda ko'makchi vazifasida ishlatilishi, ya'ni grammatikalizatsiyalashuvi natijasida yuzaga keladi: **a) ot ko'makchilar** nutqda ham mustaqil ma'noda, ham ko'makchi vazifasida ishlatiladigan ot, sifat yoki ravish turkumiga mansub bo'lgan quyidagi so'zlar-dan tashkil topadi: *tomon, tashqari, bo'yi, chamasi, holda, yo'sinda* kabi otlardan; *sababli, tufayli, orqali, qarshi, chog'li, doir, muvofiq, o'zga, boshqa* kabi sifatlardan; *burun, ilgari, keyin, beri, buyon, asosan, binoan, so'ng* singari ravishdan iborat bo'ladi; **b) fe'l ko'makchilar** sifat dosh yoki ravish dosh shakllaridagi fe'llardan birining nutqda ko'makchi vazifasida ishlatilishi natijasida yuzaga keladi. Ular: *ko'ra, yarasha, qarab, qaramasdan, qaramay, boshlab, tartib, qaraganda, qarata, degan, osha, deydigan* kabi so'zlardan iborat.

Ko'makchilar o'zgarmaydi, ya'ni turlanmaydi yoki boshqa turkumlardan yasalmaydi. Ayrim kelishikdagi so'zlarni boshqaradi. Shunga ko'ra, ko'makchilar quyidagi guruhlarini tashkil qiladi:

1. Bosh kelishikdagi so'z (ba'zan qaratqich kelishigidagi olmosh) bilan qo'llanadigan ko'makchilar: *bilan, uchun, kabi, singari, sari, orqali, sayin, bo'ylab, bo'yicha, uzra, yanglig', tufayli, chog'li, osha, bo'yicha* kabilar. Bu guruhga mansub ko'makchilar quyidagi munosabatlarini ifodalaydi:

Bilan ko'makchisi birgalik, hamkorlik, qurol, vosita, jarayon yoki harakatning sodir bo'lish holati kabi ma'nolarni va harakat nomlari bilan birga kelib, bir harakat ketidan ikkinchisining tez boshlanishi ma'nosini bildiradi. *Bilan* ko'makchisi badiiy adabiyotda *birlan, birla, -ila, -la* tarzda ham ishlatiladi. Bunday holda u o'zakdan chiziqcha bilan ajratilib yoziladi: *Sen-la ko'nglim har on bo'lur shod*.

Uchun ko‘makchisi maqsad, sabab, atalganlik, evaz kabi ma‘no-larni ifodalaydi va ot, olmosh, harakat nomidan keyin keladi: *insoniyat uchun qayg‘urmoq, o‘qimagani uchun tushunmaslik, kitoblarni sen uchun oldim. yashash uchun kurashmoq.*

Uchun ko‘makchisi she‘riyatda chun tarzda ham ishlatiladi. Bunday holda -chun o‘zkdan chiziqcha bilan ajratiladi. Shuningdek, uchun ko‘makchisi -gina, -dir affikslarini ham olishi mumkin: *Lekin nima uchundir uning bu yovuz maqsadi hech ijobat topmasdi.*

Kabi, singari, yanglig‘, misli (misol) ko‘makchilari o‘xshatish, solishtirish, qiyoslash ma‘nosini ifodalashiga ko‘ra ma‘nodoshdir: *xamirdan qil sug‘urgan (kabi) singari yengil.*

Sayin ko‘makchisivaqt bildiruvchi so‘zlar bilan birga kelib, ish-harakatning muayyan vaqt ichida yoki harakatning bir yo‘la sodir bo‘lishi, davomiylik kabi ma‘nolarni ifodalaydi: *Respublikamiz yil sayin gulga burkanmoqda. Do‘l borgan sayin kuchaymoqda edi.*

Sari ko‘makchisi ish-harakatning yo‘nalishini ifodalaydi. Bunda *sari* ko‘makchisi tomon ko‘makchisiga sinonim bo‘lishi mumkin: *kucha sari - kucha tomon, yorug‘lik sari - yorug‘lik tomon.*

Sababli, tufayli ko‘makchilari sodir bo‘layotgan ish-harakatning sababini bildiradi: *U shunday qadrli mehmon kelishini oldinroq bilmagani sababli tayyorgarlik ko‘ra olmaganidan xijolatda edi.*

Orqali ko‘makchisi ish-harakat sodir bo‘lishda vosita bo‘lgan narsani yoki ish-harakat sodir bo‘lishida vosita bo‘lgan o‘rin ma‘nosini ifodalaydi: *Salimjon uyiga paxtazor orqali qaytdi.*

Osha, bo‘ylab, uzra ko‘makchisi: 1. Ish-harakatning boshqarilgan so‘zdan anglashilgan vaqt davomida sodir bo‘lishini ifodalaydi: *Yillar osha gurkiraydi jonajon Vatan.* 2. Ish-harakatning boshqarilgan so‘zdan anglashilgan o‘rin bo‘ylab sodir bo‘lishini anglatadi: *Oltin vodiylar osha(uzra) yangrasin qo‘shiq. Jahon bo‘ylab(uzra) yangrar bir ovoz.*

Bo‘yicha//bo‘yinch ko‘makchisi: 1) moslik, mutanosiblik ma‘no-sini ifodalaydi: *Darslar o‘quv jadvalibo‘yicha olib boriladi.* 2) chegara-lash ma‘nosini bildiradi: *Rektorning xo‘jalik shilari bo‘yicha o‘rin-bosari.*

2. Jo‘nalish kelishigidagi so‘z bilan qo‘llanadigan ko‘makchi-lar: *qadar, dovur, ko‘ra, qarab, qaraganda, yarasha, tomon, qarshi, doir, binoan, qarata* kabilar. Bu ko‘makchilar yo‘nalish, chegara, o‘lchov, sabab, maqsad munosabatlarini ifodalaydi.

Tomon ko‘makchisi makon va payt munosabatini ifodalaydi va quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi: 1) yo‘nalish bildiradi: *U yo‘lakka tomon yurib keldi.* 2) payt bildiruvchi so‘zlar bilan birga kelib, taxminiy vaqtni bildiradi: *Kechga tomon talabalar tarqalishdi.*

Qadar ko‘makchisi ish-harakatning o‘rin va vaqt jihatidan chegarasini ifodalaydi: *kechga qadar, peshinga qadar, maktabga qadar.*

Ko‘ra ko‘makchisi sabab, ayirib, ta‘kidlab ko‘rsatish ma‘nosini ifodalaydi: *Uning mo‘ljaliga ko‘ra Siddiqjon yana qasam ichiish, yur deb qistashi kerak edi. (A. Q.)*

Bu ko‘makchi *chiqish* kelishigidagi so‘zlar bilan birga kelganda qiyoslash, solishtirish ma‘nosi anglashiladi: *O‘rtadan ko‘ra pastroq.*

Qarshi ko‘makchisi zidlik ma‘nosini bildiradi: *Baxtga qarshi bugun eng orqaga o‘tirdim.*

Qarab ko‘makchisi quyidagi ma‘nolarni anglatadi: 1) harakat yo‘nalgan tomon ma‘nosini: *Nega kimsasiz sohilga qarab ketayotganini o‘zi bilmas edi.* Bu ma‘noda *qarab* ko‘makchisiga *tomon* ko‘makchisi sinonim bo‘lishi mumkin: *qishloqqa qarab ketdi - qishloqqa tomon ketdi.* 2) asos, miqdor, o‘lchov ma‘nosini: *Ishlaganiga qarab haq oladi.* Bu ma‘noda *qarab* ko‘makchisi o‘rnida *yarasha* ko‘makchisi qo‘llanishi mumkin: *mehnatiga qarab-mehnatiga yarasha.*

Bulardan tashqari, **qaragandako‘makchisi** ayirib ko‘rsatish, ta‘kidlash, qiyos, solishtirish ma‘nosini; **qaramasdan, qaramay** ko‘makchisi to‘siqsizlik ma‘nosini; **yarasha** ko‘makchi teng, mos, loyiq, monand ma‘nolarini; **doir** ko‘makchisi aloqadorlik, bog‘liqlik ma‘no-sini, *asosan, binoan; muvofiq* ko‘makchisi biror ish-

harakatning sodir bo'lishida asos, tayanch, manba bo'lgan obyekt ma'nosini, *qarata* ko'makchisi ish-harakat yo'nalgan narsa, shaxs, joy, tomon ma'nosini bildiradi.

Chiqish kelishigidagi so'z bilan qo'llanadigan ko'makchilar: *ilgari, burun, avval, keyin, bari, buyon, boshqa, tashqari, boshlab, tortib, bo'lak, o'zga* kabilar.

So'ng ko'makchisi ish-harakatning tugallanishini bildiradi: *ishdan so'ng, darsdan so'ng* kabi. Bu ko'makchi chiqish kelishigidagi *u, bu, shu* olmoshlari bilan birga kelganda biror ish-harakatdan keyin ikkinchisi sodir bo'lganini anglatadi: *Shundan so'ng Gulnor har minut sayin kulaverdi. (O.)*

Keyin ko'makchisi *so'ng* ko'makchisining sinonimi hisoblanadi. Keyin ko'makchisi *so'ng* ko'makchisidan farqli ravishda sabab, ta'kid bildirishi ham mumkin. Masalan: *Yurtning og'zi kattasi bo'lgandan keyin har nima qilish qo'lidan keladi. (A.Q.)*

Boshqa, tashqari, bo'lak, o'zga ko'makchilari mustasnoqlik ma'nosini ifodalaydi: *Kampir anhorga tikildi, nishab oqayotgan suvda o'zining aksidan boshqa(tashqari, bo'lak) hech narsa ko'rinmadi. (I.R.) Sendan o'zga jonon ko'rinmas ko'zga. (Muqimiy.)*

Beri, buyon ko'makchilari ko'pincha harakatning boshlanish vaqti bilan bog'liq bo'lgan payt oralig'i ma'nosini ifodalaydi: *Undan bir oydan beri (buyon) darak yo'q.*

Shuningdek, *nari (nariga)* ko'makchisi ish-harakatning chegarasi yoki darajasini, *burun, ilgari* ko'makchilari ish-harakatning o'tgan zamonda sodir bo'lganligini, *boshlab, tortib* ko'makchilari esa ish-harakatning sodir bo'lishidagi boshlang'ich vaqt, o'rini, manbai ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ko'makchi otlar o'zining leksik ma'nolarini saqlagan mustaqil so'z bo'lishiga qaramay, ularning ma'nolari ko'pincha metaforik usulda ko'chgan holda yordamchi so'zlar kabi munosabatlarni bildirib keladi. Xususan, *ost, ust, old, orqa, yon, ich, ora, bosh, o'rta* so'zlari ko'makchi otlardir. Ko'makchi otlar, asosan, belgisiz qaratqich kelishigidagi so'zdan keyin kelib, mazkur so'zlarni o'zi o'rin-payt va chiqish kelishigi hamda egalik qo'shimchalarini qabul qilgan holda fe'lga bog'lash uchun xizmat qiladi: *yer ostidan qaramoq, bir hafta ichida uchrashmoq* kabi. Ko'makchi ot vazifasida keluvchi bu so'zlar belgili qaratqich kelishigi-dagi ot bilan birikkanda, o'z mustaqil lug'aviy ma'nosini saqlaydi. Masalan *uyning ichida, binoning yonida, poydevorning ostidan* kabi.

16.2. Bog'lovchilar.

1-§. Bog'lovchilar gapdagi uyushgan bo'laklarini va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'laydigan yordamchi so'zlardir. Masalan: *Haqiqat va to'g'rilikni sevuvchi odamlar doimo vijdon amriga bo'ysunadilar.*

Bog'lovchilar qo'llanishiga ko'ra ikki turli bo'ladi: 1) yakka bog'lovchilar uyushgan bo'laklar va ayrim gaplar orasida yakka holda qo'llanadi: *va, hamda, ammo, lekin, biroq, balki, holbuki, vaholanki, yoki, yoxud, yo, gar, agar, agarda, basharti, chunki, garchi, go'yo, go'yoki, -ki, -kim;* 2) takroriy bog'lovchilar bir gapda ikki yoki undan ortiq o'rinda gap bo'laklari bilan, shuningdek, qo'shma gaplarda ayrim sodda gaplar bilan birga aynan takrorlanadi: *dam..., dam, ba'zan..., ba'zan, ham..., ham, bir..., bir, yoki..., yoki, yo..., yo, goh..., goh, xoh..., xoh.*

Takroriy bog'lovchilar takrorlangan gap bo'lagi yoki ayrim gaplarning oldida qo'llanadi. Takroriy bog'lovchilarning bir qismi yakka holda ham qo'llanishi mumkin. Masalan, *yo, yoki* bog'lovchilari ana shunday bog'lovchilardandir: *Sen bu gaplardan xabaring yo'q, yoki bilib bilmaslikka olayapsan.*

Takroriy bog'lovchilarning ayrimlari faqat takrorlangandagina bog'lovchi hisoblanadi, yakka qo'llanganda esa o'zi mansub bo'lgan so'z turkumiga taalluqli bo'ladi. Masalan: *bir....bir* bog'lovchi, *bir* — son, *ham... ham* bog'lovchi, *ham* — yuklama, *ba'zan.... ba'zan* bog'lovchi, *ba'zan* — ravish kabi.

Bog'lovchilar grammatik jihatdan o'zgarmaydi va lug'aviy ma'noga ham ega emas. Ular o'zi bog'lagan ayrim so'zlar va sodda gaplarni o'zaro qanday munosabatda ekanliklarini, shuningdek, shu munosabatlarning xilini ko'rsatadi. Shunday vazifasiga ko'ra bog'lovchilar teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarga bo'linadi.

2-§.Teng bog'lovchilar gap bo'laklari va sodda gaplarni teng munosabatda bog'laydi. Ular quyidagicha turlarga bo'linadi: 1) biriktiruv; 2) zidlov; 3) ayiruv; 4) inkor bog'lovchilar.

1. Biriktiruv bog'lovchilarva, *hamda* so'zlaridan iborat bo'lib, ular gapning uyushiq bo'laklarini yoki sodda gaplarni o'zaro bog'laydi.

Va bog'lovchisi qo'shma gan tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'laganda: a) o'zi bog'lagan sodda gaplarda ifoda qilingan ish-harakat, voqea va hodisalarning bir vaqtda bo'lganini ko'rsatadi: *Soy g'o'villab oqar va uning suvi qirg'oqda o'sgan o'tlarni silkitar edi. (O.);* b) ish-harakatning ketma-ket bo'lganini ko'rsatadi: *Bahor keldi va daraxtlar gullay boshladi.*

Hamda bog'lovchisi sodda gaplar va uyushgan bo'laklarni o'zaro teng munosabatda bog'laydi. Uyushgan bo'laklarning oxirgisidan oldin kelganda, uyushgan bo'laklar orasidagi tenglikni ko'rsatish bilan birga, oxirgi uyushgan bo'lakni ajratib ham ko'rsatadi: *Anvar, Qodir, G'olib hamda Ruxsoralalar guruhimiz a'lochilaridir.*

Bulardan tashqari, *bilan* ko'makchisi, *-yu, -u, -da, ham* yuklamalari shunday vazifada qo'llanishi mumkin. Ushbu birliklar ana shu vazifasiga ko'ra biriktiruv bog'lovchilarga sinonim hisoblanadi: *ota va ona, ota bilan ona, ota - yu ona* kabi. *Ham* uyushgan bo'laklarning oldida yoki oxirida takrorlanib kelishi mumkin. U faqat uyushgan bo'laklarning oldida kelgandagina bog'lovchi sanaladi: *Ham qo'rqaman, ham bilgim keladi.*

2. Zidlov bog'lovchilar mazmunan bir-biriga zid bo'lgan gap va gap bo'laklarini o'zaro teng bog'laydi. Ularga *ammo, lekin, biroq* so'zlari kiradi. Bundan tashqari, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni va undagi uyushiq bo'laklarni zidlash asosida teng bog'lashda - u, (-yu) yuklamalari ham zidlov bog'lovchilarga sinonim sifatida qo'llaniladi: *O'qidi, biroq yozmadi - o'qidi - yu, yozmadi.*

O'zbek tilida *lekin, ammo, biroq, balki, holbuki* kabi zidlovchi bog'lovchilardankeng foydalaniladi: *Uy kichkina, lekin yorug' va toza edi. (O.) Tiniq osmonda yulduzlar miltirar, biroq oy ko'rinmasdi. (O.)*

Shuningdek, badiiy adabiyot tilida *a* zidlov bog'lovchi ham uchraydi. Bu bog'lovchi qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lab, ular orasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi: *Men-ku boraman, a siz-chi?*

Biriktiruv va zidlov bog'lovchilar bilan grammatik sinonim bo'ladigan **-u, -yu, -da, ham, bilan** yordamchilari **vazifadosh bog'lovchilar** deb yuritiladi.

3. Ayiruv bog'lovchilar uyushiq bo'laklarni yoki gap bo'laklarini bir - biridan ajratib, ta'kidlab bog'laydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'p qo'llanadigan ayiruvchi bog'lovchilar: *yo, yoki, yoxud, yoinki, yo..., yo..., goh..., goh; dam..., dam; bir..., bir; ba'zan..., ba'zan; xoh., xoh.*

Bulardan *yo, yoki, yoxud, yoinki* bog'lovchilari uyushgan bo'laklarning birini ikkinchisidan, biror voqea, hodisa yoki ish-harakatni boshqasidan ayirib ko'rsatish uchun ishlatiladi. *U ham ko'p o'tmay yo injener, yoki o'qituvchi bo'lib ishlashi mumkin. (O.)*

goh..., goh; dam..., dam; bir..., bir; ba'zan..., ba'zan bog'lovchilari esa, uyushgan bo'laklarning yoki qo'shma gan tarkibidagi sodda gaplarning oldida takrorlanib kelib, ularni ayiruv yo'li bilan bog'laydi: *Dam qor yog'adi, dam yomg'ir tomchilaydi.*

4. Inkor bog'lovchisina so'zidan iborat bo'lib, uyushiq bo'laklarni yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni inkor ma'nosi orqali bog'lab, takrorlangan holda qo'llanadi: *U hozir na odamlarni, na ularning gapini pisand qilardi. Unda na insof bor, na diyonat.*

2-§. Ergashtiruvchi bog'lovchilar ergashgan qo'shma gap tarkibidagi qismlarni ergashtirish, tobelash yo'li bilan bog'laydi. Ergashtiruvchi bog'lovchilar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Aniqlov bog'lovchilari (*ya'ni, -ki(-kim)*) ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun ishlatilib, bosh gapda ifodalangan fikrni aniqlab, izohlab ko'rsatadi: *Deydilarkim, oyda ham dog' bor (U).*

2. Sabab bog'lovchilari *chunki, shuning uchun* ergash gaplarni bosh gapga bog'lab, sabab, natija ma'nolarini ifodalaydi. Masalan: *Biz o'z vatanimizni sevamiz, shuning uchun uning tarixini yaxshi bilmog'imiz zarur.*

3. Shart bog'lovchilari *agar, gar, agarda, basharti, mabodo, garchi* shart va to'siqsiz ergash gaplarning bosh gapga bo'lgan munosabatidagi shartni, shu bilan birga, to'siqsizlik ma'nolarini anglatadi: *Gar shu eshitganim bo'lmasa ro'yo, Sen ona emassan, dorsan tabiat (A.O).*

4. Chog'ishtiruv bog'lovchilari *go'yo, go'yoki* bosh gapda ifodalangan fikrni ergash gapdagi fikr bilan qiyoslab ko'rsatadi: *Oppoqqina nozik yuzi quyoshda shunday tiniq ko'rindiki, go'yo u nurdan yaratilganday (O.)*

Bulardan tashqari, boshqa turkumga oid ba'zi so'zlar ham bog'lovchi vazifasida qo'llanadi. Masalan: *bordiyu* shart bog'lovchi vazifasida (**Bordiyu** hayotda uchratolmasam, uylab xayolimda yaratardim); *deb* maqsad bog'lovchisi vazifasida (*Hosilimiz mo'l bo'lsin deb, tinimsiz mehnat qildik*) ishlatiladi. Bunday bog'lovchilar ham **vazifadosh bog'lovchilar** deb yuritiladi.

16.3. Yuklama

Yuklamalar mustaqil so'zlarga yoki gapga qo'shimcha ma'no berish uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlardir. Yuklamalar so'z o'zgarish xususiyatiga ega bo'lmagan yordamchi so'zlardandir. Ular tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) so'z yuklamalari: *hatto, faqat, nahotki, axir, kabilar*; 2) affiks yuklamalar: *-gina, -mi, -chi, -a (-ya) -ku, -yu, -u* kabilar.

Yuklamalar ma'nolariga ko'ra quyidagi guruhlarni tashkil etadi:

1. So'roq va taajjub yuklamalari: *-mi, -chi, -a, -ya.* Bu yuklamalar so'zlarga yoki gaplarga taalluqli bo'lib, asosan gapni so'roq gapga aylantiradi. Shuningdek, so'zga yoki gapga quyidagicha qo'shimcha ma'no bo'yoqlar qo'shadi:

-mi yuklamasi: 1) taajjub, hayrat, e'tiroz bilan birga so'roq, ma'nosini anglatadi: *Yopiray, shunday sovuq kuni ham suvga tushib bo'ladimi?* 2) noaniqlik, gumon ma'nosini ifodalaydi: *Bu kitobni Olimdami, Abrordami ko'rgan edim, shekilli.*

-chi yuklamasi: 1) buyruq, do'q, iltimos bildiradi. Bunda *-chi* ko'pincha buyruq maylidagi fe'llar bilan birga keladi: *qani yonimga yaqinlashib ko'r-chi(do'q); qani, qalamingni berib tur-chi* (iltimos); *avval kitobni o'qib ko'ray-chi(xohish)*; 2) shart maylidagi fe'llar bilan birga kelganda ham qistash, istak, iltimos kabi ma'nolarni bildiradi: *Tez yursang-chi* (qistash), *dadam uyda bo'lsalar-chi* (shubha, gumon), *yaxshisi, sen biznikiga kelsang-chi* (taklif).

-a(-ya) yuklamasi: 1) so'roq va turli his-hayajon anglatadi: *Ertaga darsga boramiz-a?* (so'roq). *Oh, naqadar so'lim joylar-a! Qo'ziqorin bo'lsa ham, xuddi quyruqqa o'xshaydi-ya!*

2. Kuchaytiruv yuklamalari: *nahotki, nahot, axir, hattoki, hatto, -oq, -yoq, -ki, -kim.* Bu turdagi yuklamalar so'zlarga kuchaytirish, shuningdek, ta'kid ma'nosi qo'shish uchun ishlatiladi: *Nahot ishq qismati buncha berahm, Bunchalar buyuksan vafo shevasi. (A.O)*

3. Ta'kid yuklamalari: *ham, -ku, -da, -u (-yu).*

ham yuklamasi. 1) ko'pincha o'zi ta'kidlab ko'rsatadigan so'zlardan (ot, sifat, olmosh, fe'l, ravishdan) keyin keladi: *Uni ham o'qitaman, o'zim ham o'qiyman*; 2) ba'zan gapda ko'makchili birikmani ta'kidlab keladi: *Bugun uning ovqat bilan ham ishi bo'lmadi.* 3) to'siqsizlik ma'nosini bildiradi: *Havo bulut bo'lib turgan bo'lsa ham, yomg'irdan darak yo'q edi*; 3) *ham* yuklamasi *-yam* shaklida (unlidan so'ng) va h undoshi tushgan holda qo'llanishi mumkin. Bunday choqda u o'zi aloqador bo'lgan so'zga qo'shib yoziladi: *Bunday kitoblarga qiziqmayam qo'ydim.*

-da yuklamasi shart maylidagi fe'llardan so'ng kelib, to'siqsizlik ma'nosini anglatadi va *ham* yuklamasi bilan sinonim bo'ladi: *Yosh bo'lsa-da, bosh edi* (*yosh bo'lsa ham, bosh edi*).

-u(-yu) yuklamasi aniqlik maylidagi fe'llardan so'ng kelib, ish-harakatning bajarilishidagi tezlik va davomlilik ma'nosini bildiradi: *Keldi-yu, ketdi* (tezlik).

2. Ayiruv va chegaralov yuklamalari (-gina, -kina, -qina, faqat). Bunday yuklamalar turli soʻz turkumlari bilan kelib, ularni chegaralab koʻrsatish, ajratish uchun qoʻllanadi: *Faqat odamlar uchun qilingan mehnatgina baxt keltiradi.*

Faqat yuklamasi oʻrnida yolgʻiz soʻzi qoʻllanishi ham mumkin: Uning ermagi yolgʻiz kitoblar boʻldi.

3. Aniqlovyuklamasi: *xuddi, naq.* Bunday yuklamalar oʻzi birikkan soʻzning maʼnosini aniqlash, qiyoslab koʻrsatish uchun qoʻllanadi.

Xuddi yuklamasi: a) qiyoslash asosida aniqlab koʻrsatish uchun ishlatiladi: *Oʻgʻli otasining xuddi oʻzi edi;* b) oʻxshatish maʼnosini bildiradi va -dek, -day affiksi bilan yasalgan yoki *kabi, singari* koʻmakchilari bilan birga boshqarilgan otlar va olmoshlardan oldin keladi: *Tevarak-atrof xuddi suv quygandek jim-jit edi.*

naq yuklamasi ham *xuddi* yuklamasi bilan maʼnodoshlikka ega boʻladi: *Itlarning ulushi naq miyasida shangʻillab turadi (As. M.).*

4. Gumon yuklamasi: -dir. Barcha soʻz turkumlariga qoʻshilib kela oladi va u oʻzi aloqador soʻzga gumon, noaniqlik maʼnosini qoʻshadi: *Akam uydadir, Imtihon ertagadir* kabi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Soʻzlarni turkumlarga ajatishning lingvistik tamoyillari xususida nimalarni bilasiz?
2. Mustaqil va yordamchi soʻzlarni taqqoslab tushuntiring.
3. Yoramchi soʻzlarning oʻziga xos ichki qonuniyatlari asosida yuzaga keluvchi farqlar xususida nimalar bilasiz?
4. Koʻmakchilar va ularning grammatik maʼno va vazifalarini tavsiflang.
5. Bogʻlovchilar va ularning maʼno turlari oʻrtasidagi tafovutni tushuntiring.
6. Yuklamalar qanday maʼno turlarga ega?
7. Bogʻlovchi va yuklamalar oʻrtasidagi vazifadoshlik haqida maʼlumot bering.

ZARURIY ADABIYOTLAR

1. Ш. Шоабдуракмонов, М. Асљарова, А. Қожиев, И. Расулов, Х. Дониёров Қозиргињзбекадабий тили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.
2. У. Турсунов, Ж. Мухторов, Ш. Раќматуллаев Қозиргињзбекадабий тили. Т., «Њљитувчи» 1992.
3. М. Мирзаев, С. Усмонов, И. Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.
4. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva, A. Mirzaahmedov Ona tili. Umumtaʼlim maktablarining 7-sinfı uchun darslik. Т., «Maʼnaviyat» 2005.

17-MAʼRUZA

ALOHIDA YORDAMCHI SOʻZLAR GURUHI

17.1. Modal soʻzlar

Soʻzlovchining anglatayotgan fikrga munosabatini ifodalab, gapda kirish soʻz vazifasida qoʻllanadigan soʻzlar modal soʻzlar deyiladi.

Modal soʻzlar mustaqil soʻzlar kabi narsa, belgi, harakat va shu kabilarni atamaydi va gap boʻlagi boʻlib kela olmaydi. Shu bois ular gap boʻlaklari bilan sintaktik jihatdan bogʻlanmaydi: *Demak, ishalasa boʻladi. Ehtimol, ketmon bilan yer agʻdarishga ham toʻgʻri kelar.*

Modal soʻzlar quyidagicha maʼnoviy guruhlarni tashkil etadi:

1. Fikrning aniqligiga ishonch: *albatta, shubhasiz, haqiqatdan ham, haqiqatan, oʻz-oʻzidan, tabiiy, darhaqiqat, maʼlumki.*
2. Gumon, noaniqlik: *ehtimol, balki, hoynahoy, shekilli, aftidan.*
3. Maqsad, talab, shart: *kerak, lozim, zarur, darkor.*
4. Mavjudlik, tasdiq: *bor, mayli, xoʻp, (bazan toʻgʻri, yaxshi, tuzuk sifatleri ham vazifadoshlik asosida shu maʼnoda ishlatiladi).*
5. Mavjud emaslik, inkor maʼnosini: *yoʻq.*
6. Maʼqullash: *durust, boʻpti.*

7. Yakunlash, ta'kid: *demak, xullas, modomiki.*
8. Eslatish: *darvoqe, aytganday, aytmoqchi.*
9. Achinish, taassuf: *afsus, attang, essiz.*
10. Fikrning tartibi: *avvalo, oxiri, nihoyat* (ba'zan shu vazifada *birinchidan, ikkinchidan...* kabi tarib sonlardan ham foydalaniladi).

Modal soʻzlar, aslida, mustaqil soʻzlardan ajralib chiqqan boʻlib, ularning bir qismi, ham mustaqil soʻz, ham modal maʼno ifodalovchi soʻz sifatida, baʼzilari esa hozirgi tilda faqat modal maʼno ifodalashga xoslanib qolgani sababli, oʻziga xos ikki guruhni tashkil etadi: 1) sof modal soʻzlar: *darhaqiqat, haqiqatan, afsuski, attang, albatta, avvalo, xullas;* 2) vazifadosh modal soʻzlar: *chamasi, ehtimol, shubhasiz, aftidan.*

Modal soʻzlar quyidagi turkumga oid soʻzlardan ajralib chiqqan-ligi bilan ham oʻzaro farqlanadi: *aftidan, ehtimol, haqiqatan, darhaqiqat kabilar* otdan; *shubhasiz, bor, yoʻq, soʻzsiz, tabiiy* kabilar sifatdan; *albatta ravishdan; oʻz-oʻzidan* olmoshdan; *chiqar, boʻpti* feʼldan ajralib chiqqan.

Modal soʻzlarni u ajralib chiqqan mustaqil soʻzdan quyidagi belgilariga koʻra farqlash mumkin: a) modal soʻz mustaqil yasama soʻzdan ajralgan boʻlishi mumkin. Bunday modal soʻz yasovchi qismlarga ajratilmaydi. Aynan shu koʻrinishdagi mustaqil soʻz esa yasovchi qismlarga ajratiladi. Qiyoslang: *Uning har qanday topshirigʻi soʻzsiz bajariladi. (Soʻzsiz, bu kirdikorlarning boshida sen turibsan.* Birinchi misoldagi *soʻzsiz* mustaqil soʻz boʻlib, soʻz+siz qismlardan iborat, ikkinchi misoldagi *soʻzsiz* esa qismlarga ajratilmaydi, bir butun holda soʻzlovchining anglatilayotgan fikrni dallash munosabatini bildiradi; b) modal soʻz mustaqil soʻznig biror grammatik shaklidan kelib chiqqanda ham u morfemalarga ajralmaydi. Modal soʻz koʻrinishidagi mustaqil soʻz esa morfemalarga ajraladi: *Har bir ishning chamasi bor* (egallik shaklidagi ot: *chama+si*). *Ular, chamasi, bir yildan soʻng uchrashdilar* (modal soʻz).

Mustaqil soʻzning bu kabi oʻz maʼnosini yoʻqotgan holda yordamchi soʻzga aylanishi natijasida omonimlik yuzga keladi.

Modal soʻzlar gapda, asosan, kirish soʻz vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, ularning gapda quyidagi vazifalarda kelishini kuzatish mumkin: a) kesim yoki kesimning tarkibiy qismi vazifasida: *Bu yoqqa keling, sizga gap bor. Inson uchun suv va havo zarur;* b) soʻz gap vazifasini bajarishi ham mumkin: *-Ertaga dam olish kunimi? -Yoʻq* (yoki *-Albatta*).

17.2. Undov soʻzlar

His–hayajon, buyruq - xitob ifodalash uchun ishlatiladigan soʻzlar undov soʻz deb ataladi. Undov soʻzlar 1) his-hayajon: *eh, oh, uh, obbo, bas, marsh, hormang, rahmat, barakalla, xayr, salom* kabilaridan; 2) buyruq - xitob: *qurey - qurey, tu -tu, pish - pish, kisht* kabi soʻzlardan iborat boʻladi. Undovlar boshqa soʻz turkumlaridan lugʻaviy maʼnoga ega emasligi bilan farqlanadi.

1. **His – hayajon undovlar** quyidagi maʼnolarni ifodalaydi: 1) soʻroq: *Men ham boraman, a?* 2) ajablanish: *Buni qarang, a!* 3) kamsitish: *E, shu ham ish boʻldi-yu.* 4) qoʻrqinch: *I-i, yiqilib ketaman;* 5) taajjub, hayrat: *Iye, keldingizmi!?* 6) ishonchsizlik: *Be, qoʻysang-chi bu gapingni;* 7). achinish, norozilik: *Obbo, yana ish pachava, deng;* 8) norozilik: *E, qoʻying-ye;* 9) mamnunlik: *Ehe, ishlar joyida-ku!* kabilar shular jumlasidandir.

2. **Buyruq-xitob undovlari** biror ish-harakatni bajarishga undash yoki harakatdan toʻxtatish, tinchlantirish uchun qoʻllanadi. Bu tur undovlardan *pish-pish* (mushukni), *beh-beh, tu-tu-tu* (tovuqni), *bah-bah* (itni) kabi undovlar hayvon va qushlarni chaqirish uchun, *hayt* (hayvon-larni), *pisht* (mushukni), *kisht* (tovuqni), *chuh* (otni), *xix* (eshakni), *qurey-qurey* (qoʻyni) kabi undovlar hayvon va qushlarni haydash uchun ishlatilsa, *dirr, tak* (otni), *xush, xuush* (sigirni), *huk* (hukizni), *ishsh* (eshakni), *chix* (tuyani) kabi undovlar hayvonlarni harakatdan toʻxtatish, tinchitish yoki harakatga undash uchun ishlatiladi.

Yuqoridagilardan tashqari, koʻrsatishni ifodalovchi *huv, hu* kabi soʻzlar, urf-odat bilan bogʻliq: *assalomu alaykum, vaalaykum assalom, hormang, bor boʻling, rahmat, tashakkur, balli, barakalla, ofarin* kabi soʻzlar ham undovlardir.

Nutqda ba'zi mustaqil so'zlar o'z ma'nosini yo'qotgan holda undovga ko'chishi mumkin: **Kel, bir miriqib dam olaylik.**

Undovlarda morfologik usul bilan so'z yasash yo'q, biroq ulardan fe'l yasovchi qo'shimchalar bilan so'z yasash mumkin: *dod+la, voy-voy+la, salom+lash*. Undovlar tuzilishiga ko'ra juft va takror shakllarga ega bo'ladi: Beh-beh, oh-oh, e-voh, voy-bo'y kabi.

Undov so'zlar gapda quyidagi kabi vazifalar bajaradi: 1) undalma vazifasida: *Hoy, kim bor!?* 2) degan, deb so'zlari bilan birikib (qo'shma fel hosil qiladi), sifatlovchi aniqlovchi, hol vazifasida: *Olisdan ehe...he... degan ovoz eshitildi. Unga javoban u ham ehe...he... deb chaqirdi*; 3) so'z-gap vazifasida: - *Assalomu alaykum, ustoz! –Va alaykum assalom*; 4) ayrim undovlar egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini olib otlashadi va gapda bosh va ikkinchi darajali bo'qlak vazifalarini bajaradi. Masalan, a) **ega**: *Shu payt uning qulog'iga kimningdir ohi chalindi*; b) **kesim**: *Orqada qolganning holiga voy*; v) **qaratqich aniqlovchi**: *Ko'rinar daxshatlar to'la tush kabi, Mazlumlar ohining ko'kda tutuni.* (G'.G'.)

17.3. Taqlid so'zlar

Taqlid so'zlar sharpa, tovush, sho'la, harakatlarning obrazi bo'lgan so'zlardir. Taqlid so'zlar ikki guruhni tashkil qiladi: 1) tovushga taqlid so'zlar. Tovushga taqlid so'zlar tabat va jamiyatda uchraydigan xilma-xil tovushlarni nutqqa ko'chirilishi asosida yuzaga keladi: *inga-inga, pix-pix, vov, uv, qag'-qag', taq, gurs, gumbur* kabilar; 2) harakat va holatga taqlid so'zlar. Harakat va holatga taqlid so'zlar tabiatda uchraydigan turli narsa va hodisalarning harakat va holatlarni so'zlar vositasida ifodalanishi asosida vujudga keladi: *yalt, lip, lik - lik, yalp - yalp, bij - bij* kabilar.

Taqlid so'zlar yakka va takror holda ishlatiladi. Takroriy taqlid so'zlar asosida davomiylik, takrorlanish kabi ma'nolarni ifodalanaadi. Qiyoslang: *U piq etib kuldi. U piq-piq ko'ldi.* Tovushga taqlid so'zlarga, ba'zan -ir, -ur kabi unsurlar qo'shib takror shaklda ishlatilganda, ularning ma'nolari kuchaytiriladi: *taq+ir-tuq+ur, tas+ur-tus+ur, dup+ur-dup+ur.*

Taqlid so'zlar boshqa turkumlardan yasalmasa ham, biroq ular asosida ot va fe'l turkumiga doir so'zlarni yasash mumkin: *qars+ak, bizbiz+ak, sharshar+a, g'arg'ar+a, jizz+a* kabi otlar, *taq+illa, duk+illa, lapang+la, milt+illa, taq etmoq, lik etmoq* kabi fe'llar shular jumlasidandir.

Taqlid so'zlar gapda, asosan hol va sifatlovchi aniqlovchi vazifalarini bajaradi. Bunda ular etgan va etib kabi so'zlar bilan birikib kelishi ham mumkin. Masalan: *Sobir yaxna ko'k choyni qult-qult yutdi. O'rmon bo'ylab boltaning taq-taq etgan tovushi taralib sokinlikni buzardi. Simyog'ochga ilingan chiroq shamolda taq-taq etib ovoz chiqarardi.*

Taqlid so'zlar otlashganda ega, to'ldiruvchi, qaratqichli aniqlovchi kabi vazifalar bajaradi. Masalan, ega: *Bu yerdan to'plarning gumbur-gumburi eshilib turardi*; to'ldiruvch: *Senlar bu yerda vag'ir-vug'ur bilan ovvorasanlar*; qaratqich aniqlovchi: *Xolmurodning kirib kelishi quvnoq qiy-chuvning bosilishiga sabab bo'ldi.*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Alohida yordamchilar guruhiga mansub so'zlar boshqa yordamchi so'zlardan qanday farqlarga ega?
2. Modal so'z va yuklamalarning umumiy va farqli tomonlarini qiyosiy tavsiflab izohlang.
3. Undov so'zlar va ularning ma'no turlari haqida ma'lumot bering.
4. Taqlid so'zlarning o'ziga xos belgilari nimalardan iborat?
5. Undov va taqlid so'zlarning umumiy tomonlarini topib izohlang.

ZARURIY ADABIYOTLAR

- 1.Ш. Шоабдураќмонов, М.Асљарова, А.Ќожиев, И.Расулов, Х.ДониёровЌозирѓинъбекадабийтили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.
- 2.У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.РаќматуллаевЌозирѓинъбекадабийтили. Т., «Њљитувчи» 1992.
- 3.М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.
- 4.N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahmedov Ona tili. Umumta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik. Т., «Ma'naviyat» 2005.

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG`ICH TA`LIM
FAKULTETI
MAKTABGACHA TA`LIM KAFEDRASI

Ona tili va bolalar adabiyoti

fanining

m a ' r u z a l a r m a t n i

B U X O R O – 2018

**Fanning ma’ruza, amaliy mashg’ulot, seminar va mustaqil ta’lim mavzularining
soatlar bo’yicha taqsimoti
1-semestr (bolalar adabiyoti)**

T/r	Mavzu nomi	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta’lim
		Ma’ruza	Amaliy	Seminar	
1.	I. Kirish. 1.1. Adabiyot (bolalar adabiyoti) fanining maqsad va vazifalari. Bolalar kitobxonligi haqida.	2	2		2
2.	II. Bolalar folklori. 2.1. Bolalar adabiyoti va bolalar folklorining mumtoz adabiyot namunalari bilan bog’liqligi	2	2		6
	2.2. Qo’shiqlar. Maqollar. Topishmoqlar. Masallar va tez aytishlar.	2	2	2	6
	2.3. Ertaklar va ularning janriy tasnifi.	2	2		6
	2.4. Adabiy ertaklar	2	2		4
3.	III. Mumtoz bolalar kitobxonligi va uning ko`rinishlari. Alisher Navoiy va Gulxaniy ijodi 3.1. Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi dostonlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid g’oyalari.	2	4	2	4
	3.2. Alisher Navoiyning pand-nasihati mazmunidagi asarlarida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy qarashlar.	2	2		6
	3.3. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibiga kirgan masallarda ilgari surilgan g’oyalari.	2	2		4
4.	IV. O‘zbek bolalar adabiyoti (umumiy tahlil)	2	2	2	4
5.	V. Abdulla Avloniy va Hamza ijodi 5.1 O‘zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi. 5.2. A. Avloniyning pedagogik faoliyati. Yangi maktablar, o‘quv jarayonlari, dars uslubi tashkil etishdagi faoliyati. 5.3 H.H. Niyoziy ma’rifati. Uning ta’limda joriy etilgan o‘qish kitoblari mohiyati.	2	2		6
	5.4 “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati.	2	2		6

6.	VI. O'tgan asrning 30-40 –yillaridagi o'zbek bolalar adabiyoti G'afur G'ulom va Quddus Muhammadiy ijodi 6.1 G'afur G'ulomning bolalar uchun yozilgan she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar. 6.2 G'afur G'ulomning “Shum bola”, “Netay”, “Yodgor” qissalarida yetimlik motivi talqini.	2	4	2	6
	6.3 Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Q.Muhammadiy she'riyatida tabiatga munosabat; poetik obrazning o'рни hamda ahamiyati.	2	2		4
7.	VII. Zafar Diyor va Shukur Sa'dulla ijodi 7.1 Zafar Diyorning hayoti va ijodi. 7.2 Zafar Diyorning “Mashinist” dostonida ilgari surilgan g'oyalar. Zafar Diyorning she'riy asarlarida inson va tabiat	2	2	2	4
	7.3 Shukur Sa'dulla hayoti va ijodi. Sh.Sahdulla ijodida hayotiy voqealarning haqqoniy badiiy tasviri, janr rang-barangligi va badiiy xususiyatlari, obrazlar talqini, tarbiyaviyligi, hayotiyliigi.	2	2		4
	Jami:	30	34	10	72
2-semestr (bolalar adabiyoti)					
8.	VIII. Sulton Jo'ra va Hakim Nazir ijodi 8.1 Sulton Jo'raning hayoti va ijodi. 8.2 Shoirning ilmiy-ommabop mavzulardagi she'rlarida ifodalangan g'oyalar haqida. Sulton Jo'raning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlari tahlili. 8.5 Hakim Nazirning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan asarlariga xos xususiyatlar.	2	4		4
9.	IX. Po'lat Mo'min va Qudrat Hikmatijodi 9.1 Qudrat Hikmat va Po'lat Mo'minning hayoti va ijodi.	2	2		4
10.	X. Xudoyberdi To'xtaboev va Farhod Musajon ijodi 10.1 Xudoyberdi To'xtaboyev hayoti va ijodi. 10.2 “Sariq devni minib”, “Qasoskorning oltin boshi”, “Besh bolali yigitcha” asarlarining badiiy xususiyatlari.	2	2	2	6
	10.4 Farhod Musajonning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan hikoyalarida ilgari surilgan g'oyalar.	2	2		4

11.	XI. Miraziz A'zam va Tursunboy Adashboyev ijodi 11.1 Miraziz A'zamning hayoti va ijodiy faoliyati. 11.2 M.A'zam she'rlarida hayotga munosabat, ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy talqini.	2	2		4
	11.4 Tursunboy Adashboyev ijodida ona-tabiat va Vatan madhi. 11.5 T.Adashboyevning so'nggi yillardagi ijodiy faoliyati. 11.6 Shoirning ona-tabiat va Vatan mavzusidagi she'rlari badiiyati.	2			4
12.	XII. Qambar Ota va Muhammad Ali ijodi 12.1 Qambar Otaning hayoti va ijodiy faoliyati. 12.2.Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan she'rlarining mavzu doirasi.	2	2		4
	12.4 Muhammad Ali yaratgan tarixiy romanlardagi bolalar obrazlari. 12.5 Muhammad Alining ona-tabiat tasviri chizilgan asarlari.	2	2		2
13.	XIII. Anvar Obidjon va Abusaid Ko'chimov ijodi 13.1 Anvar Obidjon ijodi o'zbek bolalar adabiyotidagi yanigicha yo'nalish sifatida. 13.2Anvar Obidjonning "Sen eshitmagan qo'shiqlar" turkumi – o'quvchilarning eng sevimli to'plami.	2	2	2	4
	13.3Abusaid Ko'chimovning hayoti va ijodiy faoliyati. 13.4 Abusaid Ko'chimovning kichkintoylarga bag'ishlangan she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar. 13.5 Abusaid Ko'chimov ertak va dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari.	2	2		4
14.	XIV. Hamza Imonberdiyev va Abdurahmon Akbarning ijodi 14.1Hamza Imonberdiyevning hayoti va ijodiy faoliyati. 14.2Abdurahmon Akbar ijodidagi rang-baranglik. 14.3 Hamza Imonberdiyevning "Adolat kaliti" ertagida ilgari surilgan g'oyalar.	2	2		6
	14.4Abdurahmon Akbarning qofiyali nasr(saj') shaklidagi turkumidagi she'rlarning o'ziga xosligi. 14.5Abdurahmon Akbarning Vatan, tabiat va bolalar o'yinlari haqidagi she'rlari haqida. 14.6Abdurahmon Akbarningalifbo shehrlari haqida.	2	2		4

15.	<p style="text-align: center;">XV. Chet el bolalar adabiyoti</p> <p>15.1 Chet el bolalar adabiyotining umumiy tahlili. 15.2 Sharl Perroning bolalar zavq oladigan ertaklariga xos xususiyatlar haqida. 15.3 Aka-uka Grimmlar yaratgan ertaklarda ilgari surilgan g'oyalar. 15.4 Aka-uka Grimmlar yozgan ertaklarda ulug'langan yoki qoralangan fazilatlar va xislatlar haqida. 15.5 Xans Kristian Andersen ijodining ko'p qirrali va rang-barang ekanligi.</p>	2	2	4	8
16.	<p style="text-align: center;">XVI. Rus yozuvchilarining bolalarga atab yozgan asarlari</p> <p>16.1 Aleksandr Sergeyevich Pushkin yaratgan ertak-dostonlarda ilgari surilgan g'oyalar. 16.2 Nikolay Alekseyevich Nekrasov hayoti va ijodi.</p>	2	2	2	6
17.	<p style="text-align: center;">XVII. Rus yozuvchilarining bolalarga atab yozgan asarlari(davomi)</p> <p>17.1 Lev Nikolayevich Tolstoy tomonidan yaratilgan "Yangi alifbo" asari haqida. 17.2 Lev Nikolayevich Tolstoyning "Mo'ysafid olma ekdi" hikoyasida ilgari surilgan g'oyalar haqida. 17.3 Korney Ivanovich Chukovskiy ertak-dostonlarida ilgari surilgan g'oyalar. 17.4 Samuil Yakovlevich Marshak asarlarining janr jihatdan rang-barangligi.</p>	2	4		8
	Jami:	30	34	10	72

1-mavzu: Kirish. Adabiyot(bolalar adabiyoti) fanining maqsad va vazifalari

Reja:

1. O'zbek bolalar adabiyoti istilohi va uning paydo bo'lishi.
2. O'zbek bolalar adabiyotining fan sifatida shakllanish bosqichlari.
3. Fanning maqsad va vazifalari.
4. Bolalar kitobxonligi tushunchasi haqida ma'lumot

MAVZUGA DOIR TAYANCH TUSHUNCHALAR: istiloh, qo'llanma, xrestomatiya, omil, genezis, folklor, bolalar adabiyoti, bolalar kitobxonligi, adreslilik, olam, so'qma so'z, munaqqid, nasr, nosir, nashr, noshir, muharrir, musavvir, matbuot, kitobchilik, xarakter, tur, janr, dinamika, emotsionallik, komiks, animal kitob, lirik mayl, komik mayl, matbaa, realistik adabiyot, mushtaraklik, mazmun, shakl, obraz, voqelik, ilmiylik, psixologiya, pedagogika, nazariya, voqelik, tasvir, munosabat, idrok, mohiyat, hodisa, tasnif..

Bolalar adabiyoti istilohi haqida. XX asrning arafasi va boshlarida o'zbek bolalari uiuchun ixtisoslashgan maxsus badiiy adabiyot yaratish harakati yuzaga kelib, izchil tusga kira boshlagan esa-da, mazkur hodisani bolalar adabiyoti atamasi bilan ifodalash, asosan, 20-yillarning boshlarida sodir bo'ldi. O'zbek matbuotida bu istiloh ilk bor Sirojiyning 1921-yili «Maorif va o'qitg'uvchi» jurnalining 3-sonida bosilgan «Bolalar adabiyoti to'g'risida bir fikr» (30-31-b). «Zarafshon» gazetasining 1924-yil 21-iyundagi 157-sonida bosilgan «Qizil o'zbek matbuotida bolalar adabiyoti», Bashirning «Turkiston» gazetasining 1923-yil 27-aprelidagi sonida bosilgan «Bolalar adabiyoti kerak», G'ozim Olim Yunusovning 1925-yil «Maorif va o'qitg'uvchi» jurnalining 3-sonidagi «Bolalar adabiyoti haqida» va Shokir Sulaymonning 1926-yili «Qizil O'zbekiston» gazetasining 30-sentabrdagi 224-sonida bosilgan «Bolalar adabiyoti nashr qilish kerak» maqolasida uchraydi va qaror topa bordi. Shuni ta'kidlash joizki, bu istiloh ruscha «detskaya literatura» iborasining aynan tarjimai tarzida emas, balki o'zi voqelikka aylangan o'zbek bolalariga mo'ljallanib yaratila boshlangan ixtisoslangan adabiy hodisani ifodalagan holda dunyoga keldi. Asrimiz boshlarida jadid ma'rifatparvarligi bag'rida navqiron avlodda rus mustamlakachiligiga qarshi fikr uyg'otish va uni o'zligini anglash, o'z erki, Vatan ozodligi yo'lida istiqol jangchisi sifatida shakllanishi uchun ma'rifat asoslarini egallashga chorlovchi yangi adabiy hodisa tarzida paydo bo'lgan o'zbek bolalar adabiyoti endilikda o'zbek xalqining o'ziga xos milliy boyligiga aylandi. Garchi uning g'oyaviy-badiiy saviyasiga hamon ahyon-ahyonda shubha bilan qarovchilar topilsa-da, u allaqachon umumjahon bolalar adabiyoti o'zanidan munosib joy egallay oldi. Talay namunalari mamlakatimiz sarhadlaridan tashqarida sevilib o'qilayotir. Bir asrdiki, o'zbek bolalar adabiyoti yosh naslning ma'naviy sog'lom o'sishida muhim omillardan biriga aylanib xizmat qilayotir.

O'zbek bolalar adabiyoti haqidagi fan XX asr boshlarida ilg'or marifatparvarlar pedagoglar, adabiyotshunoslar yozgan maqolalardan yuzaga kela boshlagan esa-da, XX asrning o'rtalariga kelib dastlabki xrestomatiyalar va o'quv qo'llamalarni tuzish harakati tufayli shakllanish jarayoniga kira bordi. Pedagogika bilim yurtlari talabalariga mo'ljallanib 1953-yilda I.Ahmedov A.Suyumovlar tomonidan ilk bor tartib berilib, 1967-1978-yillarda qayta takomillashtirib nashr ettirilgan «Bolalar adabiyoti» xrestomatiyasi va 1957-yilda elon qilingan «Bolalar adabiyoti» o'quv materiallari qo'llanmasi shu harakatning dastlabki natijalar edi. Keyinchalik A.Suyumov tomonidan maxsus o'rta o'quv yurtlari uchun yozilib, 1973-yilda chop etilgan «Bolalar adabiyoti» qo'llanmasi o'zbek bolalar adabiyoti tarixini yaratish yo'lidagi dastlabki qadam bo'ldi. Bu qo'llanma M.Jumaboev bilan hamkorlikda qayta ishlanib, 1995-yilda yana nashr etildi.

Bu oraliqda pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallanib P.Shermuhamedov, J.Tursunov, O.Safarov va X.Egamovlar yaratgan «O'zbek bolalar adabiyoti» darslik-xrestomatiyasi (1976) yuzaga keldi. Unda bolalar adabiyotining nazariy asoslari, taraqqiyot bosqichlari, xususiyatlari va navqiron avlod adabiyoti namoyondalari ijodiy biografiyalariga oid materiallar bilan birga eng sara asarlaridan namunalar berilgan edi. Shu xususiyatga ko'ra o'zbek bolalar adabiyoti tarixini yaratishga ta'sir ko'rsatdi. Nihoyat O'zR FAsi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti huzuridagi «Bolalar adabiyoti» bo'limi (1969-1989-yil) xodimlari joylardagi bolalar adabiyoti tadqiqotchilari bilan hamkorlikda «O'zbek sovet bolalar adabiyoti tarixi ocherki» (1973), «Bolalar adabiyoti va zamonaviylik» (1981), «O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon» (1989) singari uch manografiyani yaratib, o'zbek bolalar adabiyotining ilmiy tarixini bunyod etish yo'lida dastlabki qadam qo'yildi. Shunga qaramay, o'zbek bolalar adabiyoti nazariy asoslari, taraqqiyot tamoyillari va bolalar kutobxonligining ijtimoiy mohiyatini o'zaro uyg'unlikda ifodalagan va estetik tahlil etgan ilmiy tarix hanuzgacha yaratilgani yo'q. Hukmingizga havola qilingan ushbu qo'llanma shu vazifani qisman ado etishga mo'ljallangan.

Bolalar adabiyotining umumadabiyotga aloqadorligi. Bolalar adabiyoti umumbadiiy adabiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida o'zaro qator mushtarakliklarga va farqli xususiyatlarga ega. Ular o'rtasidagi mushtarak xususiyatlar tubandagilardan iborat:

1. Bolalar adabiyoti ham, umuman badiiy adabiyot singari **so'z san'ati** hisoblanadi. So'z uning uchun ham asosiy material bo'lib, voqelikni obrazli ifodalash vositasidir. Binobarin, bolalar uchun g'oyaviy-badiiy barkamol asarlar yozadigan ijodkorlar ham so'z san'atkori sanaladilar. Ular ham umumadabiyotni yaratuvchi yozuvchilar bilan teng nufuzga egadirlar. Qolaversa, bolalar adabiyoti bilan kattalar adabiyoti o'zaro taqdirdosh ham.

2. Bolalar adabiyoti ham umumbadiiy adabiyot ish ko'radigan xalqchilik haqqoniylik va yuksak badiiylik umda (prinsip)lariga tayanadi.

Bolalar adabiyotining **xalqchilligi** shundaki, u avvalo, xalqning asrlar davomida yaratgan eng ilg'or qarashlari va hayotiy tajribalari ruhida farzandlarini tarbiyalashni ko'zlaydi. Xalq hamma zamonlarda mehnatkashlikni, halollikni, rostgo'ylikni, to'g'rilikni, Vatanni sevishni, kattani hurmat qilib kichikka shafqatli bo'lishni sharaflab kelgan, ishyoqmaslik, tekinxo'rlik, subutsizlik, yolg'onchilik, o'g'rilik, shafqatsizlik, toshbag'irlik, xoinlik, g'iybatkashlik kabi insoniylikni tahqirlovchi xislatlarni qoralagan. Bolalar adabiyoti xalqni o'z kelajagi bo'lgan yosh avlodga ana shu sohadagi dono aqidalar va ijodiy an'analarini singdirishda xizmat qilmog'i darkor.

Bu-olijanob maqsad. Uni amalga oshirish yuksak burch va mas'uliyatni talab qiladi. Binobarin, bolalar uchun yoziladigan asarlar ham **yuksak badiyatga** ega bo'lmog'i shart. Ularda hayot **haqqoniy**ko'rsatilmog'i, insoniylikni, mehnatni sharaflovchi, bolalarda kelajakda kim bo'lmoqlarini belgilab olishlarida ko'maklashuvchi g'oyaviy-badiiy barkamollik ufurib turmog'i zarur. Xom-xatala, hayotni bo'yab-bezab bayramdagiday tantanavor qilib ko'rsatuvchi bitiklar bolalar ma'naviy olamiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Realizm-bolalar adabiyotining ham asosiy ijodiy metodi sanaladi. Biroq bolalar uchun yoziladigan asarlarda voqelikning haqqoniy va aniq ifodasi goho romantika, goho fantastik bo'yoqqa sug'orilgan holda aks etishi mumki. Bu asarning qiziqarliligini, emcionaligini kuchaytiradi va o'qimishligini ta'minlaydi. Umuman, bolalar adabiyoti realizmida umuminsoniylikni qadrlash, ijtimoiy adolatni, ezgulikni sharaflash ruhi ustivor bo'ladi.

3. Bolalar adabiyoti ham umumbadiiy adabiyotda mavjud barcha **turlar**(proza, poeziya va dramaturgiya) va **janrlarda** ish ko'radi. Shuni ta'kidlash joizki, badiiy adabiyot janrlarga qanchalik boy bo'lmasin, bolalar adabiyotida ularning bolalar dunyoqarashi va estetik idealiga muvofiq keladiganlaridangina foydalaniladi. Bolalar nasrida roman, qissa, hikoya; poeziyasida she'r, masal, doston; dramaturgiyasida esa drama va komediya janrlari faol bo'lsa-da, mumtoz sheriyaatdagi muxammasot namunalari, ruboiy, fard, qit'a, shuningdek, dramaturgiyadagi tragediya janrlariga murojaat qilinmaganini qayd qilishga to'g'ri keladi.

Buning sababini bu janrlarda ifodalanadigan voqelik kattalar turmushi va dunyoqarashiga xos murakkabliklarga daxldorligi bilan izohlanadi. Aksincha xalq nasrining shakli bo'lgan ertak janri bolalar adabiyotiga ayrim qimmat kasb etgan. U bolalar nasrida adabiy ertak-novella, ertak-qissa, ertak-roman; poeziyasida she'riy adabiy ertak, naql-ertak, topishmoq-ertak va nihoyat dramaturgiyasida ertak-drama, ertak-kamediya, ertak-opera va ertak-film singari talay xilma-xil oraliq janrlarning yuzaga kelishi va qaror topishiga ta'sir ko'rsatgan. Bu hol bolalar adabiyoti genetik asoslarini belgilashda, folklor nechog'li rol o'ynaganini yaqqol ko'rsatib turibdi. Ammo bolalar adabiyotining umumbadiiy adabiyotdan ayri xususiyatlari ham borki, bular uning mustaqil hodisa-alohida adabiy saltanat sifatidagi mohiyatini belgilaydi.

Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Bolalar uchun ham, kattalarga bo'lgani singari, inson va jamiyatga, tabiatga daxldor barcha mavzularda ijod etish mumkin. Bolalar va kattalar adabiyotlari o'rtasidagi bunday mushtaraklik zahirida ular orasidagi farqni oydinlashtiruvchi xususiyat ham mavjud. Bu farqli xususiyat mohiyatini A.A.Makarenko bolalar uchun yozayotganda *nima haqda yozish emas, balki qanday qilib yozishning muhimligida* deb ko'rsatgan edi. Aytaylik, kattalar turmushining murakkab qirralarini ifodalovchi asarlarni bolalar o'qishi man' qilingani holda xuddi shunday mavzuda bolalarbop qilib yozilgan Q.Muhammadiyning «Qo'ng'izoy bilan Sichqonboy» she'riy adabiy ertagi tipidagi asarlarni bolalar o'qishiga tavsiya etiladi. Bunda muddao shundaki, bolalar adabiyoti ijtimoiy ong shakli sifatida bolalarning borliqqa qarashlarini, voqealarni baholashda esa, o'zlarigagina xosliklarini, demakki, navqiron avlodning borliqqa estetik munosabatlarini ifodalaydi.

Bolalar adabiyoti-ikki yo'nalishli adabiyotdir. U bolalarga muljallangan ekan, avvalo, shularning adabiyoti. Shu bilan birga kattalarning, demakki, ota-onalarning ham adabiyoti hisoblanadi. Chunki bolalar adabiyoti xalq axloqiy qarashlarini badiiy aks ettiruvchi pedagogik xrestomatiyadir. Bu jihatdan buyuk ertaknavis H.K.Andersenning tubandagi fikri diqqatga sazovor: «Men nafaqat bolalar uchun, balki kattalar uchun yozayotganimni ham doim esda tutaman». Bolalarni ertaklarning fabulasi hammadan ko'proq qiziqtirsa, kattalarni ularga singdirilgan g'oya qiziqtiradi». Chindan ham bolalar uchun asar syujeti muhim, shu syujet qancha qiziqarli bo'lsa, bolalar uni shunchalik zavqlanib o'qiydilar. Kichkintoylar asar g'oyasini ilg'ab olishga qiynaladilar. Chunki u yoki bu asar g'oyasini ilg'ab olmoq uchun o'sha asar qaysi zamonda yozilgani va unda ifodalangan tarixiy sharoit xarakterini bilish, demakki, asarni davr kontekstida o'qib-o'rganish zaruriyatga aylanadi, bu murakkab jarayon, kichkintoylarning imkoniyatlari esa uni hazm qila olmaydi. Chunonchi, Sharl Perroning mashhur «Qizil shapkacha» ertagi har qancha sodda va quvnoq syujet asosida qurilgan bo'lmasin, ham bolalarni, ham kattalarni qiziqtirgani holda unda ifodalangan «Qizil shapkacha» li go'zallarni (qizil shapkacha-go'zallik ramzi, unda francuz qizlarining umumlashma obrazlari ko'zda tutilgan) francuz burjuaziyasining shahvoniyatparastligidan (Bo'ri qiyofasida fahshga mukkasidan ketgan burjuylar ko'zda tutilgan) ogohlantirishdan iborat g'oyani faqat asar ijod etilgan tarixiy davr mantiqidan uqa olgan kattalargina ilg'ashlari mumkin. Shu ma'noda bolalarga mo'ljalangan badiiy asar, avvalo, hammabopdir. Bunda hammaboplik mohiyatini V.G.Belinskiy shunday ta'riflagan edi: «...bolalar uchun kitob yozish kerak va zarur, biroq bolalar uchun shunday yaxshi va foydali asarlar yozmoq zarurki, ular kattalarni faqat bolalarga atalganligi tufayligina emas, balki chinnakam badiiy asar sifatida hammaga mo'ljalanganligi bilan qiziqтира olsun».

Bolalar adabiyotida voqelik bolalarga badiiy tafakkur sintezining natijasi tarzida tasvirlanadi. Bunda tasvirning o'ziga xos jihatlari, asosan, quyidagilardan iborat:

a) **badiiy obrazning ham, voqelikning ham aniq-tiniqligi, ko'rimlilikligi.** Bu xususiyat bolalar tafakkurining predmetlilik, aniqligi va ko'rimlilikka asoslanishi natijasidir. K.Chukovskiyning «Ikkidan beshgacha» kitobida keltirilgan tubandagi misol, jumladan,

xarakterlidir: Dashtni ilk bor ko`rgan bola uning qanday atalishini so`rsa, otasi «pusto`nya» deb javob beribdi. «Hech vaqosiz, ship-shiydon maydon» ma`nosidagi bu tushunchani bola idrok qilolmabdi. Chunki bu mavhum tushuncha bo`lganligidan bola uni anglashga qodir emasdi. Har qanday mavhumlik bola idrokiga, tasavvuriga sig`maydigan hodisadir. Buning ustiga otasi dasht deb atagan maydon har xil o`simliklar bilan qoplangan, ularning butalari yo erga yopishgan, yo erdan tikkasiga ko`tarilgan. Bola ularni ko`rib turibdi, shu zahotiyoq o`z tushunchasiga moslashtirib, analogiya usulida o`zicha so`z yasab, ko`rib turgan maydonini «kusto`nya»-«butazor», deb atabdi. Bola fikrlashiga xos bunday aniqlik va predmetlilik badiiy obrazning ham aniqligini, predmetlilik asosida ko`rimli va ko`zda chalarli bo`lishini taqozo etadi. K. Chukovskiy e`tirof etganidek, bolalar uchun yozilgan har bir satr mazmuni asosida rasm chizish mumkin bo`lmog`i shart. G`afur G`ulomning «O`ylashni o`rganamiz» she`rida eng mavhum hodisa ham o`yin shaklida o`ziga xos ko`rimlilik kasb etgan, shu vajdan bu she`r har bir kichkintoyni zavqlantira oladi, eng muhimi, tushunarlidir. S.Jo`ra, Q.Muhammadiy, A.Muxtor, Sh.Sa`dulla, H.Nazir, X.To`xtaboev, T.Adashboev, S.Barnoev, M.A`zam, A.Obidjon va boshqalarning bolalarga atagan aksariyat asarlari ana shunday fazilatga ega.

b) hikoya qilishda lirik yoki komik maylning kuchliligi. V.G.Belinskiy bolalar adabiyotining asosiy xususiyati-uning emotsionalligi, deb ko`rsatib, bolalar kitobi «samimiy hislarga to`lib-toshmog`i» lozimligini qayta-qayta ta`kidlagan edi. Hissiyotning samimiyliги faqat lirika uchungina emas, balki yumorga ham xos fazilatdir. Zotan, «quvnoq yumor», «beozor yumor» iboralari zamirida yumorga xos samimiyat tuyg`usi zuhur topgandir. N.G.Chernishevskiy ana shularni hisobga olib, bolalarga mo`ljallangan badiiy asarda «O, qanday dahshat?!» yoki «Bay-bay, muncha yaxshi!» YOinki, «Ey, muncha kulgili!» kayfiyatlarini qo`zg`ovchilik alomatlarini bo`lmasa, yosh kitobxonlarni to`lqinlantira olmaydi, deb hisoblar edi. Ruhshunos olimlar o`tkazgan tajribalar ham bugungi kunda bolalar xotirasida lirik ko`tarinkilik yoki quvnoq yumorga sug`orilgan holda tasvirlangan voqealar mustahkam muhrlanishini, uzoqroq yashay olishini tasdiqladi. Zotan, hikoya qilishda lirizm qancha chuqur yoki yumor qancha yorqin va quvnoq bo`lsa, estetik ta`sirchanligi, hayajonbaxshligi ham shuncha chuqur va samimiy bo`ladi. G`. G`ulomning «Shum bola» asarini kulmay turib, o`qib bo`lmasligi siri shundadir. H.Nazirning «Yonar daryo», X.To`xtaboevning «Besh bolalik yigitcha» asarlarida lirik mayl ustun bo`lsa, «Sariq devni minib» va «Sariq devning o`limi» dilogiyasida, «Sehrgarlar jangi, yoxud, «shirin qovunlar mamlakati» romanida, shuningdek, Anvar Obidjonning quvnoq she`rlari, qissalari va pesalarida yumoristik ruhning ustuvorligi sezilarlidir.

v) **xarakter va hodisalar ifodasida dinamikaning yorqinligi.** Ruhshunoslar bolalar narsa va hodisalarning harakati, yoshi, nimaga mo`ljallanganligiga, keyinroq ularning paydo bulishi sabablariga qiziqishlarini uzoq tajribalar va kuzatishlar asosida tasdiqlashdi. Bu hikoya qilishda qiziqarlilik (zanimatelnost)ni taqozo etadi. Negaki, qiziqarlilik-shiddatli harakatchanlik zamirida vujudga keladi. Bunday harakatchanlik hikoya qilinayotgan voqelik uchun tanlangan konfliktning o`tkir bo`lishini, syujetning tez taraqqiy etishini, xarakterlarning yorqinligini va boshqa shunday ifodaviy usullarni taqozo etadi, shularda namoyon bo`ladi. Bu voqea yoki hodisalarni, qahramonlarni tashqi bir vaziyatda harakatlantiruvchi, rivojlanishda ko`rsatuvchi mohiyatga ega bo`lib, kichkintoylar tabiatiga mos keladi, uni sodda va aniq qilib, voqelikning zohiriy rivojlanishi deyish mumkin. Quddus Muhammadiyning «Temirlar o`yini» yoki «Harflar o`yini» she`rlarida barcha narsalar yoki harflarning shiddatli harakati ularninggina emas, balki voqeani ham ko`rimli, ham zavqovar qilgan:

Temirlar jarang-jurung,
O`ynashib diring-diring,
Deyishar: «Yuring-yuring!»
Tushdilar qiziq tansa,

-Biz qochon bo`lamiz «zil?»
Chir aylanar g`ildirak,
Ortidan eski chelak.
Cho`loq ketmon oqsoqlar,

Sayrashib assa-assa.
Siniq pero dikillab,
Buzuq ruchka likkillab,
Uzuq zanjir, kaltasim:

Oshpichoqni quchoqlar.
Dumalar pachoq banka,
Irg`ir puchuq voronka.

Har narsa o`ziga xos va o`ziga mos harakatda. Bu shunday harakatki, unda o`sha harakatlanayotgan narsaning sazosi ham jaranglab turibdi. Bu hol she`rning quvnoq ruhini va engil o`qilishini ta`minlagan. Kichkintoylar bu harakat va ovoq zamirida o`sha narsalarning o`zlarini ko`rib turganday sezadilar. «Sholg`om», «Bo`g`irsoq», «Qarg`avoy» singari xalq ertaklari syujetlari ham shiddatli harakat zamirida qurilganligidan g`oyat qiziqarlilik kasb etgan va necha asrlardirki, bolajonlar ularni qiziqib tinglashdan sira toliqmayotirlar. Sh.Sa`dullaning «Ayyor chumchuq» she`riy ertagi syujeti ham shu xildagi shiddatli dinamizm asosida voqe` bo`lganligidan g`oyat qiziqarlidir. Bola ana shu xildagi harakat zamirida sodir bo`luvchi voqelikni tez ilg`aydi, chunki bunda voqealar almashinuvi uning ko`z o`ngida sodir bo`ladi. Binobarin, syujetdagi harakat qahramonlar xarakteri rivojini ham belgilab turadi. Shunday bir vaziyatda syujet o`quvchi oson o`zlashtiradigan axborot materiali vazifasini o`taydi.

g) **Tilning aniqligi, ravonligi, tushunarligi va emocionalligi.** Bolalarga atalgan badiiy asarning tili umumbadiiy tilning normalariga va grammatik qurilishiga amal qilgani holda bolalarcha tafakkur qilishning o`ziga xos ifodaviy vositasi bo`lmog`i, shu bilan birga, bola nutq boyligini muttasil oshirib borishga xizmat qilmog`i shart. Bunda nuqul bolaga moslashib qolmay, balki uni ergashtirib borishga intilib, bolaga notanish so`z va iboralarni izohtalab qilib qo`ymay, kontekstdayoq anglashilarli etib ifodalashga e`tibor bermoq lozim. Eng muhimi, N.G.Chernishevskiy ta`kidlaganidek: «Bolalarga juda ko`p narsalarni osongina qilib tushuntirish mumkin, bunda avvalo o`sha tushuntiruvchining o`zi nimani gapirmoqchiligini o`zi anglab etkan va uni inson tilida ravshan ifodalay ololsin». Yozuvchi qaysi yoshdagi bolani mo`ljallab asar yozayotganini hisobga olib, o`sha yoshdagi kichkintoy lug`at boyligi imkoniyatlarini ko`zda tutgan holda ish tutmog`i lozim. Aks holda uning asari adresatini tayinlash mumkin bo`lmay qoladi. Chunonchi, Sh.Sa`dullaning «Yil fasllari» she`ridagi:

Milt etib chiqdi quyosh,
Dedi:-Do`stlar, qish odosh,-

satrlariga boqqan zahoti-ularning maktabgacha yoshdagi bolalarga mo`ljallanganini sezish qiyin emas. Chunki mazkur satrlardagi so`zlar maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiga xos lug`at aks etgan. Shoir bunday ekspressiv nutq zamirida bahor faslining shu yoshdagi kichkintoylar hali sezishga ulgurmagan ikki xususiyatini-bahor qishdan so`ng kelib, qishga xotima («qish odosh») yasashini hamda endilikda haroratli kunlar («quyosh chiqishi»)ni boshlanishini, aniqrog`i, bahor fasli tabiatining belgili xossalarini saviyaga muvofiqlashtirib ma`lum qilmoqda. Bolalar lug`at boyligi-ular saviyasining mezoni. Bolalar ulg`aygani sayin voqelikni o`zlashtirish imkoniyatlari ham kengaya boradi, binobarin, ular so`zni o`zlashtirish evaziga ularning saviyalari ham ko`tariladi, didlari o`sa va dunyoqarashlari shakllana va to`lisha boradi. So`zni tushunish va o`zlashtirish bolalarda tasavvurni chuqurlashtiradi, narsa va hodisalar haqida o`z fikrini tug`diradi. Bolalar uchun ijod etuvchilar ana shu holat bilan hisoblashmoqlari shart. Zotan, bolaga atalgan asarning tili qancha aniq, ifodalari teran, qisqa va obrazli bo`lsa voqea ham, ifodasi ham ixcham, yorqin va sodda bo`lsa asar shuncha ta`sirchan bo`ladi, unda ilgari surilgan g`oya xotiraga mustahkam o`rnashgan syujetni idrok qilish asosida yosh kitobxonning intellektual dunyosi mahsuliga aylanadi.

Bolalar murakkab qurilmali gaplardagi mazmunni ilg`ashga qiynaladilar, xususan, bunday gaplarda izohtalab arxaik so`zlar qalashib kelsa-taqatlari toq bo`ladi. Binobarin, gaplar ham sodda, mantiqdor, jonli, hayajanbaxsh va savodli qurilmog`i, g`ashga teguvchi qaytariqlar va mavhum iboralardan xoli bo`lmog`i lozim. Poetik obrazlar mavhum yoki

qalashib ketgan sifatlashlar (epitetlar) asosida qurilmasligi darkor, bolalar kitobida har bir ifoda tabiiy, yorqin ma'noli va zavqovar bo'lishi-uni tushunib o'qish va uqib olishning muhim sharti hisoblanadi.

Bolalar adabiyotining boshqa fanlar bilan hamkorligi yoxud adresliliği. Bolalar adabiyotining kamolotida uning barcha fanlar bilan aloqadorligi muhim ahamiyatga ega. BuM.Gorkiyning «Mavzular to'g'risida» maqolasida yorqin ifodalangan bo'lib, bolalar adabiyotining rang-barang mavzular hisobiga boyib, xilma-xil obrazlar hisobiga to'lishib borishini ta'minlashdan tashqari ma'lum darajada o'zligiga daxldor xossalarini ham oydinlashtiradi. Shu ma'noda, aytish mumkinki, bolalarga o'zlarini qurshagan olam va uning sirlaridan voqif bo'lishda, narsa va hodisalar mohiyatini idrok etishda, ularni anglash va bilib olishda, o'rganish va o'zlashtirishda bolalar adabiyoti o'ziga xos hayot darsligi vazifasini o'taydi.

Aytaylik, elektr nima? Quyosh-chi? Oy-chi?YUlduzlar nega faqat kechasi ko'rinadi?Momaqalldiroq nimadan paydo bo'ladi? Yashin-chi? Suv nima? Shamol nimadan hosil bo'ladi? Tuproq nima? Yomg'ir nima? Qor nima? O'simliklar, hasharotlar nega xilmma-xil? Xullas, bunday savollarning cheku-chegarasi yo'q. Lekin bolalar bularning barchasini bilishidan iborat ehtiyojlarini qondirmay qo'ymaydilar. Ularning ma'naviy ulg'ayishlari ana shu istakni qondirish evaziga amalga oshadi. Binobarin, bolalar adabiyoti ana shu savollarga javob berish maqsadida fizika, astronomiya, geologiya, geografiya, kimyo, matematika, botanika, biologiya, qo'ying-chi kishilik jamiyati yaratgan barcha bilimlar bilan ijodiy hamkorlik qiladi. Bunda u mazkur bilimga xos sovuq ilmiy muhokama va mantiqiylikni emas, balki har qanday ilmiy tushunchaning insonni sharaflavchi badiiy obrazli ifoda etilishi orqali erishadi. Bunday obrazli ifoda pirovard-oqibatda uning qiziqarliligini (zanimatelnost) va ma'rifiyligini (poznavatelnost) ta'minlaydi. «Qiziqarli botanika», «Qiziqarli fizika», «Qiziqarli biologiya», «Qiziqarli geologiya», «Qiziqarli kimyo» yoki «Yosh tilshunos», «Yosh adabiyotshunos», «Yosh fizik» qomuslari singari bolalarbop rang-barang kitoblar, shuningdek, turli-tuman kasb-korlar, aniqrog'i, shishapazlik, chinnisozlik, yog'och va ganch o'ymakorligi, misgarlik va mis o'ymakorligi, temirchilik, kulolchilik, bo'yrafoflik, gilamboflik, temirchilik, haykaltaroshlik, kashtachilik, zargarlik, zardo'zlik, rangpazlik, qog'oz tayyorlash va hokazolarning kelib chiqishi tarixiga oid zavqovar badia va hikoyalar yosh avlodning ular haqidagi bilimlarini chuqurlashtiribgina qo'ymaydi, balki ularda ajdodlar tajribalari va an'alarini o'zlashtira turib e'zozlashni, demakki, qadriyatlarini anglash jarayonida o'zliklarini anglashlariga, eng muhimi, kelajakda kim bo'lishdan iborat havaslarini uyg'otibgina qo'ymaydi, balki shu havasning qat'iyatga aylanishida yordam beradi.

Shu tariqa ilm va badiiyat sintezidan hosil bo'lgan ilmiy-ma'rifiy (poznavatelno'y) adabiyot shakllana boshladiki bu ma'rifatparvalik adabiyotidan tubdan farq qiluvchi hodisadir. Ma'rifatparvarlik adabiyotida ilg'or fan, texnika va an'alarini o'zlashtirishga da'vatkorlik ruhi ustivor bo'lsa, bolalar o'qishigagana mo'ljallangan ilmiy-ma'rifiy adabiyotda ilmiy dalillar, g'oyalar va farazlar badiiyat sintezidan o'tkazilib, obrazli tilda bayon etiladi. Bunda ilmiy ma'lumot shunday zavqovar qilib bayon etilmog'i lozimki, undagi istalgan dalil shunchaki oddiy so'z bo'lib qolmasligi, qolaversa, o'quvchi miyasini keraksiz fakt sifatida g'ovlattirib qo'ymasligi, aksincha, uning fikrini, xayolini harakatga solmog'i, pirovard oqibatda esa,unda ijodkorlik layoqatini shakllantirishga xizmat qilmog'i zarur.

Bolalar adabiyoti ruhshunoslik va pedagogika zimmasidagi vazifalarni birlashtirgan holda bolalar qalbini badiiy tadqiq qiladi, bolalikni badiiyat ko'zgisida butun bo'yi-basti bilan ko'rsatadi, aniqrog'i, bolalar ruhiy olamining takomillashuvini va ijtimoiy-axloqiy jihatdan shakllanishini badiiy tadqiq qilib ko'rsatadi, shu asosda fan va san'at o'zaro tutashgan va singishgan badiiyat hosilasiga aylanadi. Natijada bolalar adabiyoti pedagogika

va ruhshunoslikning o'ziga xos badiiy- axloqiy xrestomatiyasiga aylanadi. Bolalar adabiyotining ana shu xususiyati yozuvchi oldiga o'z o'quvchisining yosh xususiyatlarini, ruhiyatini, saviyasini va qiziqishlarini nazarda tutgan holda ijod etish vazifasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Bu esa, o'z navbatida, balalarga atab yoziladigan asarlarning qaysi yoshdagi bolaga mo'ljallanganligini – adresliligini aniq belgilab olishni taqozo etadi. Yozuvchi o'z asarini kimga qaratib yozayotganini oldindan bilishi kerak,-deb yozgan edi M.Gorkiy,- shunday qilinmagan taqdirda uning kitobi o'quvchisiz qoladi. Bolalar yozuvchilari o'quvchilarning yoshiga katta e'tibor berishlari lozim. Agarda shunday qilinmaganda, u kitob «adressiz» bo'lib, kattalarga ham, bolalarga ham keraksiz bo'lib qoladi.» Bu talabni bajarishda pedagogika va ruhshunoslik fanlari bolalar yozuvchilari uchun jiddiy dastur bo'la oladi, chunki bu fanlar bolalar va ularning ruhiy olami, tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Shu mantiqqa muvofiq bolalarni yosh xususiyatlariga ko'ra uch guruhga bo'lish an'anaga aylanganiki, bu ularga mo'ljallab badiiy asarlar yozishda ham mos keladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga oidkitoblarning xususiyatlari. Bola yetti yoshga to'lguniga qadar atrofdagiyangiliklarni tez ilg'aydigan bo'lib o'sa baradi. Bu jarayonni bolaning kelajakka tayyorlanishi tarzida tushunish kamlik qiladi, albatta. Negaki, inson shaxsiyatidagi barcha ijobiy va salbiy xususiyatlar xuddi shu davrda shakllana boshlaydi, xarakteriga singa baradi. «Axir men hozir nimalarda yashayotganimni o'shanda kashf qilmaganmidim?,-deya xotirlagandi Lev Tolstoy yetmish yillik umriga sarhisob qila turib.-Shuncha ko'p, shuncha tez kashf etgan narsalarimning yuzdan birini ham, qolgan butun umrim davomida kashf eta oldimmi? Aslo! Besh yashar boladan mengacha-faqat bir qadam, yangi tug'ilgan chaqaloqdan besh yashar bolagacha-dahshatli masofa!» Chindan-da, chaqaloq besh yoshga to'lguniga qadar til chiqaradi, ongi kurtak yoza boshlaydi, tuyg'ulari shakllanish jarayoniga kiradi, oyoq chiqarib mustaqil yura boshlaydi-keyingi butun umri davomida, asosan, shu jarayonlar takomillashadi. Shuning uchun bolalarni juda kichkinaliklaridanoq, so'z san'ati sehrida tarbiyalash beqiyos ijtimoiy-estetik qimmatga molik. Bu xalqning asriy tajribasida sinalgan haqiqatdir. Xalq ijodiyotidagi erkalash motivlariga limmo-lim aytim-olqishlar, allalar, erkalamalar, ovutmachoqlar, qiziqmachoqlar, qaytarmachoqlar, ermaklar asrlar davomida ana shunday vazifani ado etib kelayotgani barchaga ayon. Ularda xalqimizning bolalarparvarlik mehri tovlanib turadi, murg'akkina jonlarni so'z ohanglarida ardoqlash an'analari yorqin namoyon bo'lgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hali kitob o'qiy olmaydi, ular uchun olam noma'lumlik sirlarini bilishga, o'zlashtirishga intilish, qiziqish kuchli bo'ladi. Yozuvchining vazifasi uning xuddi shu intilishini hisobga olib, qiziqishini alangalatishga qaratilgan holda ish tutishdan iborat. Bunda u maktabgacha yoshdagi kichkintoy tabiatiga xos taqlidchilik xususiyatini ko'zda tutib, hayotdagi xarakterli voqea va hodisalarni uning tasavvuriga mos badiiy obrazlarda ifodalovchi asarlar yaratmog'i lozim.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi kichkintoylar tevarak-atrofidagi har bir narsaga taqlid qilishdan charchashmaydi. Ular taqlidchilik vositasida hayotni o'zlashtiradilar. Shu boisdan ularga atalgan asarlarning personajlari-hayvonlar, qushlar, hasharotlar, o'simliklar va boshqa narsalar bo'lishsa-da, odamlarga taqlidiy sifatlarga ega: Odamlarday gapirishadi, fikr yuritishadi. Shu taqlidda ularning har biri o'z xislatlari xususidagi oddiy ma'lumotlar bilan kichkintoylarning intellektual dunyosiga aylanadi, ularda hayotga qarashning o'ziga xos kurtaklari vazifasini o'tashga kirishadi.

Bunday intilish zamirida kichkintoy nutqida o'zgacha emotsionallashuv jarayoni sezila boshlanadi. Bolalardagi bunday insoniy sezgirlikdan hayratlangan L.Tolstoy ayrim noshud yozuvchilarning tildagi no'noqliklariga ta'na qilib: «Bola so'z yasash qonunlarini sizdan ko'ra yaxshiroq anglaydi, chunki hech kim uningchalik tezlik bilan yangi so'z yasay olmaydi,» –degan edi. Bolalar tilini uzoq kuzatgan K.Chukovskiy ham bu fikrni tasdiqlaydi: «Ikki yoshidan boshlab har qanday bola qisqa muddat ichida «daho tilchi» darajasiga

ko`tariladi,» - deya e`tirof etgan edi. Bolalar uchun asar yozganda ana shu fazilatlarini inobatga olib, ularga atroflarini o`rab olgan hayotni anglab olishlariga, hayotsevarlik tuyg`ularini shakllantirishga, narsalar haqida o`z tushunchalarining qaror topishiga, shularni imkoniyatlari ko`taradigan darajaga xizmat qiladigan so`z zaxiralarini muttasil boyitishga ko`maklashish maqsadi ko`zlanmog`i shart. Shundagina asarni o`z vazifasini muvaffaqiyatli bajargan deb hisoblash mumkin.

Kichik yoshdagi o`quvchilargamo`ljallangan asarlargaoid xususiyatlar. Bu yoshdagi bolalarning ichki olamiancha murakkab. Ular hali ko`p narsalarni bilmaydi, lekin bilishdan iborat ichki jarayonni kechishga kirishadi; bilish-ular uchun o`ziga xos ma`naviy ehtiyojga aylana boradi. Yanush Korchak ular tabiatiga xos ana shu xususiyatini ta`riflab yozgan edi: «Bolalarga o`zlari sezgan va o`ylaganlarini gapirib berish g`oyat qiyin, chunki ularni so`zda ifodalashga to`g`ri keladi. Bundan ham og`irrog`i esa-yozish. Lekin bolalar shoir va faylasufdirlar.» Chindan ham shunday. Bolalar tabiatidagi «shoirlik»-ularning hamma narsadan hayratlanishlari, har bir hodisadan hayajonlanishlari bo`lsa, «faylasuflik» - hayratni va hayajonni qo`zg`agan shu narsalar va hodisalarning asl mohiyatiga qiziqishlaridir. «Bu nima?», «Bu nega bunaqa?», «U nima deydi?», «U nega katta yoki nega kichik?», «U qanday o`sadi?», «Nega qattiq?», «Nega yumshoq?», «Suv nega qotadi?», «Quyosh qanday qizitadi?», xullas, shu xildagi sanoqsiz savollar bu yoshdagi bolalarning qiziqishlari hosilasi bo`lib, ana shu savollarga topgan va topolgan javoblari-olamni o`zlashtirish yo`llaridir. Olam ular uchun jumboqqa aylanarkan, ularning o`zlari ham «nimavoy»ga aylanishlari tabiiydir. Shu ma`noda N. Nosov yaratgan Pochemuchka (Nimavoy-o`zbek tilida Bilmasvoy tarzida tarjima qilingan)-bu yoshdagi bolalarning umumlashma obrazi darajasiga ko`tarilgan. Bunday umulashma obrazni Q.Muhammadiyning «Tabiat alifbesi» turkumiga kiruvchi lirik qahramon timsolida ham ko`rish mumkin. U ham butun vujudi bilan «Yong`oqni nega yong`oq deymiz?» yoki «Yong`oqning qobig`i nega qattiq?» «Olcha nega qip-qizil?», «O`rik nega sarg`ayib pishadi?», «Jiydaning shoxi nega egig?», «Shaftolining bargi nega achchiq?», «Sada nega meva qilmas?», « Dada, bog`bon nega tokni qirqib turadi?» yoki «Tok daraxti bir xilu uzumlari nega har xil?», «Mol nega kavsh qaytaradi?», «Chittak nega chittak?», singari son-sanoqsiz savollarga aylangan. Kingadir bular g`ayritabiiy tuyulishi mumkin, shu boisdan ularning g`ashlari qo`zg`ab «katta bo`lganingda bilasan»,-deya bolani hatto jerkishgacha borishlari mumkin. Bunday qilish bola qiziqishlariga to`g`on solishga teng bo`lib, unda hamma narsaga befarq qarash maylini kuchaytiradi. Befarqlik esa bora-bora bolani ijtimoiy lanjlikka giriftor qiladi.

Bola ma`naviy ehtiyoji hosilasi sifatida tug`ilgan mazkur savollariga ilmiy javobni ham u idrok qila olmaydi, aksincha, yana savoldan savol chiqaradi. Buning ijobiy tomoni shundaki, bolalardagi qiziqish so`nmaydi, bilaks yana rivojlanadi. Q.Muhammadiy bu savollarga poetik javob berish maqsadida «nima to`g`risida asar yaratmasin, nima haqda gapirmasin, doim o`sha narsadan inson hayotini ko`zda tutib, ma`no izlaydi. Shoir shu ma`noni topadi ham. Bu ma`no doim bolalarning hayotdan oladigan birinchi taassurotlarini izohlaydi, uning dunoqarashi shakllanishiga xizmat qiladi.»

Maktab yoshidagi kichkintoylar tabiatiga xos «shoirlik va faylasuflik» ular uchun yoziladigan asarlar mavzu doirasining keng, g`oyaviy-badiiy jihatdan sodda va tabiiy bo`lishini taqozo etadi, bu jarayon bola ulg`ayishi bilan oddiylikdan murakkablik tomon yo`g`rilib bormog`i darkor. Negaki, ruhshunoslarning ma`lumotlarga ko`ra, bu yoshdagi bolalar dastlabki bosqichda 3600 tacha so`zdan foydalanishadi. Yetti-to`qqiz yasharliklarida hayvonlar, qushlar, hasharotlar, nobotot va boshqa narsalarga oid ertaklarga qancha qiziqishsa, insonlar va ularning o`zaro munosabatlarini ifodalovchi asarlarga qiziqishlari ham shuncha orta boradi. Bolalar yozuvchilarning vazifasi shu ishtiyoqni alangalatsidan iborat.Bunda shu yoshdagi o`quvchilarning hayot tajribalarini umumlashtirish negizida

ijtimoiy voqelik mohiyatini ochib berish ular dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir qo'rsatuvchi vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu yoshdagi bolalar folklardan kengroq bahramand bo'la boshlaydilar: tez aytishlar mashqi bilan nutq tovushlari talaffuzini ravonlashtirsalar, chandish o'ynab so'zlar ohangdoshligini idrok qiladilar; guldur-guplar vositasida so'z va harakat uyg'unligini his etsalar, topishmoqlarni echish jarayonida zehnlarni charxlay boradilar. Hayvonlarga oid ertaklarga qiziqishlari sehrli-fantastik va hayotiy-maishiy ertaklarga omuxtalashib, ular hisobiga to'lisha boradi va xayollariga parvoz bag'ishlay boshlaydi. Hayotiy-maishiy ertaklarni o'qish jarayonida real hayot hodisalariga qiziqishlari uyg'ona boradi. Ertakka bu xildagi ma'naviy chanqoqlik turli xalqlar ertaklarini ham, shuningdek, yozma adabiy ertaklarni ham sevib o'qishga chog'laydi: Sharl Perro, aka-uka Grimmlar, H.K.Andersen, Petr Ershov asarlarini, ayniqsa, bolalarga moslashtirib tabdil qilingan «Ellada qahramonlari», E. Rapsening «Baron Myunxauzenning sarguzashtlari», shuningdek, A. Tolstoyning «Oltin kalit yoki Buratinoning boshidan kechirganlari», Leonid Solovevning «Nasridin afandi sarguzashtlari», Sh.Sa'dullaning «Yog'och qo'g'irchoq yoki Kachal polvon sarguzashtlari» ertak-qissalarini, Turg'unboy G'oyibovning adabiy-nasriy ertaklarini zavqu shavq bilan o'qiydilar. Multfilmlarga va qo'g'irchoq teatrlari spektakllariga o'chliklari zamirida ham aslida ertakka ehtirosli qiziqishlari yotadi. Bu yoshdagi kichkintoylarga, ayniqsa, harbiy vatanparvarlik va Vatan tarixi haqidagi badiiy asarlar behad zarurdir. Ularga xorijdagi tengqurlari hayoti haqidagi asarlar ham alohida qiziqish uyg'otadi. Bu jihatdan ham milliy adabiyotda yaratilgan «Qonli barmoqlar», «Zafar va Zahro» (Oybek), «Dunyo bolalari» (A.Muxtor), «Afg'on hikoyalari» (S.Barnoev) qatorida mashhur italyan bolalar adibi Janni Rodarining «Chipollinoning boshidan kechirganlari», «Jelsomino yolg'onchilar mamlakatida», «Muzqaymoqdan qurilgan shahar», shved bolalar adibasi Astrid Lindgrenning «Mittivoy va tomda yashovchi Karlson haqida ikki qissa», polyak Yanush Korchakning «Qirol Matiush birinchi», shuningdek, qardosh xalqlar bolalar adabiyotlarining eng sara namunalari alohida qimmat kasb etadi. Bu xildagi asarlar bolalarda baynalmilal hamkorlik va hamdardlik tuyg'ularini tarbiyalaydi, ularning olam va odamlar haqidagi bilimlarini boyitadi, lug'at boyliklarini oshiradi, dunyoqarashlarining shakllanishiga, insoniy fazilatlarining tarkib topishiga, xarakterlarining toblanishiga ta'sir ko'rsatadi, qisqasi, badiiy adabiyot ular uchun chinakamiga «hayot darsligi»ga aylana boradi.

O'smirlarga oid badiiy asarlarga qo'yilgan talablar. O'smirlik kattalar olamiga nomzodlik bosqichi bo'lib, bolalik bilan xayrlashish va kattalarga ergashishdan iborat oralig'dir. U birinchi muchalni to'ldirib, ikkinchisiga qadam qo'yish bilan boshlanadi va o'rta yasharlik-o'smirlik pallasiga kirishning ilk bosqichi hamda katta yasharlik-yoshlikka tayyorlanish tarzida namoyon bo'ladi. Binobarin, o'smirlik ham jismoniy, ham ma'naviy-axloqiy balog'atga etishuv bo'sag'asidir.

O'rta yosh boshlanishi bilan o'g'il va qiz bolalarda jinsiga daxldor xislatlar shiddat bilan rivojlana boshlaydi, avvalo, ovozlari farqlana boshlaydi: o'g'il bolalarda erkaklik va qizlarda ayolikka xos biologik unsurlar ko'zga tez tashlana boshlaydi. Bu jarayon ma'naviy rivojlanishdan o'zadi, natijada o'smirlar hatti-harakatida, yurish-turishida o'zgachaliklar, aniqrog'i, beqarorlik, oqibatini o'ylamay ish qilish, mulohazasizlik, o'ziga bino qo'yish holatlari uchray boshlaydi. Aslini olganda, bunday holat asosini bolalik olami bilan xayrlashish va kattalar olamiga da'vogarchilikdan iborat murakkabliklar tashkil etadi, o'smirlarda sodir bo'luvchi ma'naviy o'sishning jismoniy va biologik rivojlanishdan bir muddat orqada qolishi goho ularga pand beradi, ular bunday vaziyatda o'zlarini aql bilan boshqarolmay qoladilar, shu bois o'smirlar tarbiyasi og'ir kechadi. O'smirlarga mo'ljallangan badiiy adabiyotning vazifasi, avvalo, ana shu murakkab jarayonni chuqur va beran badiiy tadqiq etib, ularning ma'naviy kamoloti ehtiyojlarini qondirish, ularda chinakam insoniy fazilatlarining tarkib topishida faolroq ta'sir ko'rsata bilishdan iborat. Eng

muhimi, o`smirlarga mo`ljallanib yozilgan badiiy, ma`rifiy, fantastik va publicistik asarlar ularni milliy istiqloq ruhida tarbiyalashi, dunyoqarashlarini shakllantirishi, yuksak axloqiy fazilatlarini singdirishga xizmat qilmog`i shart. Necha asrlar davomida ajdodlarimiz yaratgan boy madaniyat, mehnatkash xalqning o`z erki, Vatan mustaqilligi uchun olib borgan kurashlari, mehnatning barcha farovonliklar omili ekanligi, halollik, do`stlik, rostgo`ylik, qo`rqmaslik, fidoiylik va boshqa insoniy fazilatlar o`smirlar adabiyotining asosiy mavzulari bo`lishi mumkin.

O`smirlik-o`ziga sig`a bilmaslik, jussaning to`lisha borayotgan kuchini racional boshqara olmaslik davri. Ha, go`yo qo`lini cho`zsa, narvonsiz ham yulduzga etguday his etadi, goho o`smirlar o`zini. Ularga ana shu jarayonni ongli ravishda anglay olishlarida sehrli-fantastik ertaklarga bo`lgan rag`batlarini ilmiy-badiiy fantastikaga yo`g`irish samarali natija beradi. Aytaylik, Jyul Vernning «Kapitan Grant bolalari», «Ostin-ustun», «Havo sharida besh hafta», «Sirli orol», «g`aroyib sarguzashtlar», A.Tolstoyning «Injener Garinning mo`jizasi», «Aelita», A.Belyaevning «Jahongir», «Professur Douelning boshi», A.Kazancevning «Yonuvchi orol», I.Efremovning «Odam-amfibiya», «Andromeda tumanligi», ilmiy-fantastik romanlari qatorida o`zbek fantastikasi namunalarini tavsiya etish mumkin.

O`zbek ilmiy-badiiy fantastikasi 20-yillarda Abdurauf Fitrat va Abdulla Qodiriylar ijodida kurtak yozgan bo`lsa-da, asosan, 60-yillardan e`tiboran chinakam jonlanish jarayoniga kirdi. Bugungi kunda o`zbek fantastikasining «Rene jumbog`i», «Ajdodlar xotirasi», «/aroyib ko`lanka», «Jodugarning eli», «Telba dunyo», «Ikki jahon ovorasi», «Tutash olamlar», (H.Shayxov), «Hikmat afandining o`limi», «Somon yo`li elchilari», «Falak», «Chorrahada qolgan odamlar» (T.Malik), «Men- men emas», «Mangu kuy izlab», «Teskari ko`zlilar sayyorasi», «Rayhondagi zarpechak», (M.Mahmudov), «Ming bir qiyofa», «Ko`zgu oldidagi odam» (O.Muxtor) singari e`tirofqa sazovor qissa va romanlardan iborat namunalarini paydo bo`ldi. Bu asarlar o`smirlar tafakkurini teranlashtiradi, dunyoqarashlarining shakllanishiga, xayol qila bilish salohiyatlarining takomillashuviga, taxayyullotlarining uchqurlashuviga kuchli ta`sir ko`rsatadi.

O`smirlar hayotga mustaqil nazar solishga intiladilar. Ular hayotdagi har bir voqea va hodisaning ijtimoiy-axloqiy mohiyatini anglashga, undan o`zlariga saboq chiqarishga harakat qiladilar. Shu jarayonda ularda fuqarolik tuyg`ulari teranlasha va takomillasha boradi, jamiyat va Vatan oldidagi burch va mas`uliyatlarini anglash istagi uyg`ona boshlaydi. Bunda ularga S.Ayniy, Oybek, A.Qahhor, N.Safarov, O.Muxtor, T.Malik va boshqalar yozgan biografik va avtobiografik asarlar, memuarlar ayri-ayri ta`sir ko`rsatadi. O`smirlik-qizlar va o`g`il bolalar o`rtasida bir-birlariga nisbatan o`rtoqlik, havas va muhabbat bilan talpina boshlash pallasi. Binobarin, ularda sevish-sevilish mavzuidagi asarlarni o`qishga alohida rag`bat bilan qarash kuchayadi. Shu rag`batni qondirishda H. Nazirning «Lochin qanotlari», «Kenjatoy», «Tohir-Zuhra qissasi», shuningdek, A.Aleksinning «Akam klarnet chaladi», «Kolya Olyaga yozadi, Olya Kolyaga yozadi» singari asarlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asarlar o`smirlikka xos tuyg`ularning yuksak axloqiy ideal darajasida kamol topishiga tahsir ko`rsatadi.

Modomiki, o`smirlar kattalar safini to`ldiruvchi avlod sifatida tarix sahnasiga chiqib borisharkan, kattalar olamiga xos ma`naviy fazilatlarini kasb etmoqlari zaruriyatga aylanadi. Shu ma`naviy zaruriyat tufayli ular o`qishi doirasiga kattalar adabiyoti namunalarini ham kira boradi va o`smirlar kitobxonligi doirasini kengaytiradi. Bunda nafaqat o`zbek adabiyoti vakillari, balki jahon adabiyotining barcha zabardast namoyandalarining kishilik ma`naviyati taraqqiyotida muhim qimmat kasb etgan asarlarini o`qish, ulardan saboq va zavq olish, shu asosda jahon xalqlari turmushi, orzu-intilishlari, kurashi va mag`lubiyatlaridan ogoh bo`lish – o`smirlar dunyoqarashi o`shishining asosiy omiliga aylanadi.

Bolalar adabiyotining yoshga nisbatan mo`ljallanganligi qotib qolgan hodisa ham emas, u zamon va insonlar o`zgarishi bilan didaktik mohiyat kasb eta boradi. Binobarin, bolalar kitobining adresliligi doimiy harakatda bo`ladi: aytaylik, ijtimoiy-estetik taraqqiyot chuqurlasha borishi bilan bolalarning yosh xususiyatlari ham o`zgaradi, davr o`zgarishi bilan avlodlar o`zgaradi, insoniyat mutassil to`lishib, yasharib borarkan, uning qiziqishlarida ham bu zuhur topadi. Natijada qachonlardir kattalar ma`naviy mulki sanalgan ertaklar va topishmoqlar endilikda, asosan, bolalar ma`naviy ehtiyojlari qondirgichiga aylangani kabi yozma adabiyotda ham aslida kattalarda mo`ljallanib yaratilgan Ubayd Zokoniyning «Mushuk ila sichqon qissasi», Sayido Nasafiyning «Kim zo`r» kabi asarlari, shuningdek, A.S.Pushkinning qotor she`riy adabiy ertaklari bolalar o`qishi doirasiga kirib borgani tabiiydir.

O`zbek bolalar adabiyoti-bolalar hayotining o`ziga xos qomusi, unda bolalarning oilada, bog`chada, maktabda va tengqurlar davralarida, shuningdek, o`yinda, o`qishda, mehnatda, tengqurlari yoki kattalar bilan munosabatdan iborat jo`shqin hayoti aks etgan. Binobarin, u xalq turmushining ham ko`zguisidir. Chunki bolalar taqdiri xalq va Vatan taqdiri bilan uzviy bog`langan. Bolalar adabiyoti shu aloqadorlikni butun go`zalligi va murakkabligi bilan ifodalaydi, bu esa uning mahrifiy qimmatini belgilaydi. Bolalar adabiyoti muayyan g`oyalarni mavhum tushunchalarda emas, balki bolalarning «predmetli» tafakkuriga va tasavvuriga mos badiiy obrazlarda ifodalab, ular ongiga his tuyg`ulariga va xayolotiga ta`sir ko`rsatadi, ularning kelajagi buyuk ozod va obod Vatanning, erkin va demokratik jamiyat qurayotgan xalqning bunyodkor va kurashchi farzandlari qilib tarbiyalashga xizmat qilaveradi.

2-mavzu: Bolalar folklori o`zbek bolalar adabiyotining sarchashmasi

Reja:

1. Xalq og`zaki badiiy ijodi haqida ma`lumot.
2. Bolalar folklori haqida tushuncha.
3. Bolalar folklori tabiati va janriy tarkibi.
4. O`zbek bolalar folklori namunalari to`plash, nashr etish va ilmiy-estetik qimmatini o`rganish

MAVZUGA OID TAYANCH TUSHUNCHALAR: folklor, og`zaki ijod qo`shiq, aytim-olqish, erkalama, alla, taqvim, maishiy, o`yin, topishmoq, maqol, etnopedagogik, ertak, sehrli-fantastik, adabiy, milliy ruh, sayqal, xalq zakovati, genezis, poetika, tizim, folklorshunos, ovutish, erkalatish, rasm-rusum, olqish, ovutmachiq, qiziqmashiq, qaytarmachiq, etnografik, beshik, suyish, deklomatsiya, monoton

Xalq og`zaki badiiy ijodiyoti xilma-xil adabiy tur va janrlarda namoyon bo`lgan hodisa sifatida kishilik jamiyati tarixida ko`p vazifali ijtimoiy-estetik mohiyatga ega so`z san`ati hisoblanadi. U hamma zamonlarda ham o`z ijodkori bo`lgan xalqning orzu-armonlarini ifodalab keldi, qolaversa, xalqning o`z-o`zinigina emas, balki bolalarning ham ma`naviy-axloqiy jihatdan shakllanishlarida muhim tarbiyaviy vosita vazifasini bajarmoqda. Bolalar xalq ijodiyotidan otobobolarining hayot tajribasini, mehnat va kurash ilmini o`rganib kelayotirlar. Ular xalq qo`shiqlaridan, dostonu ertaklaridan, afsonayu rivoyatlaridan sevish-sevilish, samimiyat, insoniylik, sabru qanoat, mehnatda fidoiylik, eng muhimi, otalari yashab obod etgan Vatan tuyg`ularini idrok etish asnosida yurt erki va ozodligi uchun kurashgan buyuk ajdodlari To`maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Torobiy va Amir Temurlarning jasoratlaridan saboq olmoqdalar, yashash va yaratish romantikasidan surur tuymoqdalar. Binobarin, xalq ijodiyoti qadim zamonlardan hozirgacha bolalar uchun ham

ezgulikni qadrlash va yovuzlikdan nafratlanish sabog'i bo'lib, avloddan avlodga o'tgani sayin muttasil to'lishib, mukammalashib, og'izdan-og'izga ko'chgani sayin tobora sayqallanib, xalq milliy ruhini teranroq aks ettirgan holda asrlar davomida avlodlar ma'naviy-axloqiy vorisligini ta'minlab keldi, jamoa ijodi namunasi sifatida xalq zakovatini, iste'dodini va til boyligini namoyish etdi, xalq uchun o'zligini anglash, o'z tarixini sevish vositasiga aylanib qoldi, eng muhimi, yozma adabiyotning bunyodga kelishida genetik asos vazifasini bajardi. Bu silsilada bolalarning o'z folklori ham muayyan rol o'ynadi.

Binobarin, **bolalar folklori - kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining o'zaro uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlar va musiqiy poetik janrlarning yaxlit bir tizimiga aylangan xalq og'zaki ijodiyotining o'ziga xos tarmog'idir.**

Shunga qaramay, o'zbek bolalar folklori namunalari to'plash, nashr etish va ilmiy-estetik qimmatini o'rganishga uzoq zamonlar e'tibor berilmay kelindi. XX asrning dastlabki choragi oxirlarida bu ishga kirishilgan esa-da, u uzluksiz jarayonga aylanmadi. Elbek to'plab, tartib berib 1937-yilda chop ettirgan «Bolalar qo'shig'i» to'plamidan O. Safarov tartib bergan «O'zbek xalq ijodi» seriyasida 1984-yilda bosilib chiqqan «Boychechak» to'plamigacha kechgan salkam yarim asrlik uzilish ana shu fikr dalili bo'la oladi. O'zbek bolalar folklorini o'rganish 60-yillardan e'tiboran izchillasha bordi. Z.Husainovning «O'zbek topishmoqlari» (1966), G'.Jahongirovning «O'zbek bolalar folklori» (1975), shuningdek, O.Safarovning «Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari» (1983), «O'zbek bolalar poetik folklori» (1985), «Alla-yo alla» (1999), «Chittigul» (2004), Sh.Galievning «O'zbek bolalar o'yin folklori» (1998) singari tadqiqotlar tufayli bu izlanishlarning samaralari ko'zga tashlanadigan bo'ldi. Shuni ham aytish kerakki, folklorshunoslar orasida mavsum va marosim qo'shiqlariga munosabatda ularning ijodkori har qachon kattalar bo'lganini e'tirof etish bilan bolalarning bu sohadagi qo'shiqchiligini yo cheklash, yo tamoman inkor etish hollari ham mavjud. To'g'ri, marosimlarni kattalar uyushtirganlar. Ularning o'tkazilish tartiblarini ham, rasm-rusumlari va qo'shiqlarini ham kattalar ijod etganlari rost. Lekin unutmazlik lozimki, shu marosimlarning birortasi ham bolalar ishtirokisiz o'tmagan; hech bo'lmaganda, bolalar tomoshabin sifatida unga qatnashganlar va kattalar bajargan ishlarni ko'rgach, o'sha marosimni keyinroq o'yinda muqallid qilib o'zlari bajarganlar, shu muqallidlariga yarasha qo'shiqlarni to'qiganlari ham ayni haqiqat. Binobarin, bolalarning ham o'z marosim va mavsum qo'shiqlari yuzaga kela boshlagan. Bu jarayon davr o'tishi, turmush sharoitining o'zgarishi, yangicha ijtimoiy munosabatlarning tug'ila borishi tufayli u yoki bu marosimning tamoman yo'qolishi, yo shunchaki kattalar o'rtasida nufuzini yo'qotishi natijasida o'sha marosim bolalar o'yini yoki ijrochiligida yashash shakliga o'tishi bilan yanada chuqurlasha borgan. Bunday holatni «Boychechak», «Chittigul», «Binafsha», «Oppoqijon» kabi mavsum qo'shiqlari misolida yaqqolroq ko'rish mumkin. O'zbek bolalar folklori namunalari tabiatidan kelib chiqib, genetik asoslariga ko'ra uni uch qismdan tarkib topgan hodisa sifatida kuzatish mumkin:

I. Kattalar hamisha o'z farzandlarini o'ylab yashaganlar – mehnat va ijod bilan shug'ullangan. Bu jarayon ularda bola va uning taqdiri to'g'risida qayg'urish majburiyatining tobora chuqurlashuvi tarzida kechib, talay qo'shiqlarning to'qilishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa, chaqaloqni parvarish etish mas'uliyati behad katta bo'lgan. Onalar ana shu murakkab mas'uliyatni zimmalariga olganlar: o'tkir zakovat, tadbirkorlik, beqiyos insoniy mehribonlik evaziga o'zlari goho tushunib, goho tushunmay, «bolalarni tarbiyalab o'stirish bilan mamlakatning kelajak tarixini, demakki, dunyo tarixini ham tarbiyalab etishtirganlar. Bu yo'lda qo'shiq ularga madadkor bo'lgan: bolalarini qo'shiq bilan uxlatganlar, yig'lasa-kuylab ovutganlar, erkalatganlar, hatto qo'shiq bilan chaqaloqqa daxldor marosim rasm-rusumlarni bajarganlar. Shu zaylda allalar, aytim-olqishlar, ovutmachochlar, erkalamalar, qiziqmachochlar va qaytarmachochlar yuzaga kelgan. Ularda erkalash leytmotiv bo'lgan. Shu sababli **xalq og'zaki poeziyasining ana shu namunalari erkalash poeziyasi tarzida umumlashtirish va xarakterlash asoslidir.**

Erkalash poeziyasi namunalari ijro maqsadi, o'rni va bola yoshiga munosabatiga ko'ra ikki guruhga ajraladi. Birinchi guruhga mansub qo'shiqlar bolaning beshikdaligi davri bilan

chambarchas bog`liq, shu vajdan ularni **beshik qo`shiq**lari deyishadi. Allalar va etnografik mazmundagi aytim-olqishlar ana shunday xarakterga ega.

Beshik qo`shiq lari chaqaloq uch yoshni to`ldirgunigacha aytilsa, ikkinchi guruhga mansub qo`shiq lar bola tug`ilganidan to 6-7 yoshga to`lgunigacha ijro etilsa-da, aslida ular beshik bilan bog`lanmagan onalik mehri tarovatidan bitilgan badihalardir. Bular **suyish qo`shiq**lari bo`lib, erkalamalar, ovutmachoqlar, qiziqmachoqlar va qaytarmachoqlardan tarkib topgan.

II. Kattalar bolalarning tabiatga munosabatini shakllantirishda ham faol ishtirok etadilar. Buning natijasida bolalar taqvim va uni ifoda etuvchi marosim qo`shiq lari yuzaga kelgan. Bahor, yoz, kuz, qish mavsumlari bilan bog`liq bunday qo`shiq larining bir qismi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot taqozosiga ko`ra kattalar repertuaridagi mavqeini yo`qota borib, yo tamoman so`nib ketgan, yo transformaciya uchra bolar repertuariga ko`chib o`tib saqlanib qolgan. «Boychechak», «Chittigul», yo ramazonlar va hayitliklar shular jumlasidan hisoblanadi. Qolaversa, ibtidoiy ajdodlarimizning animistik va totemistik e`tiqodlari asosida shakllanib, endilikda o`sha mohiyatini yo`qotgan **yalinchoq va hukmlagich** janrlari bolalar repertuarida hamon faol yashamoqda.

III. Bolalarning o`z ijodkorligi va ijrochiligi hosilalari bo`lgan qo`shiq lar va o`yinlar – o`zbek bolalar folklorining asosini tashkil etadi. So`z va harakatning nisbatiga ko`ra bularni ikki katta guruhga bo`lish mumkin:

1. *Bolalarning maishiy qo`shiq lari.*
2. *Bolalarning o`yin folklori*

ALLALAR. «Alla» istilohining kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud. Kimdir uni arabcha «alloh» so`zining fonetik o`zgarishga uchragan shakli desa, kimdir o`zbekcha «aldamoq» so`zidan kelib chiqqan, shunga ko`ra u bolani aldab-avrab uxlatish ma`nosiga ega deya izohlashga urinadi. Bu izohlarning soxtaligi va haqiqatni aks ettirmasligi o`z-o`zidan ayonlashib turibdi. L.Z. Budagov chig`atoychada «allala» boshning orqasi, ya`ni «ensa»ni anglatishini qayd etgan. Chindan ham chalqanchasiga yotganda boshning orqasi yosti qda bosilib, shu holda uxlanadi. Chaqaloq beshikka, belanchakka faqat bosh orqasi-allalasi bilan chalqanchasiga cho`zilib uxlaydi. Bolaga uyqu chaqirishda qo`llanishi shu vazifasidan kelib chiqqan. Bunda «allala» shakli «**alla, alla-yo, alla-yo alla**» tarzidagi ko`rinishlar bilan to`lishib, uyquga chorlovchilik mohiyatini kasb etgan. Chaqaloq yoshini to`ldira borishi jarayonida bu so`zdagi tovushlarni idrok etishi tufayli uyqusi kelganda o`zining ham «**alla**» so`zi lug`aviy jihatdan «bosh orqasi» va «uxlamoq» ma`nolarini anglat sa, istilohiy ma`nosiga ko`ra uyqu chaqirmoq, uxlatmoq asosiy vazifasiga aylangan silsilaviy qo`shiq turini anglatadi. Abu Ali ibn Sino allaning shu xususiyatini ming yil ilgari yoq payqab, shunday e`tirof etgan: «... bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo`llamoq kerak: Biri, bolani sekin-asta tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun aytish odat bo`lib qolgan muzika va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan muzikaga bo`lgan iste`dodi hosil qilinadi». Bu mulohazadan to`rt narsa ayonlashadi: **birinchisi**, allaning bundan ming yil ilgari – ibn Sino zamonida ham mavjudligi bo`lib, janrning genetik asosiga nazar solish imkonini beradi. **Ikkinchisi**, allaning ijrosi – sekin-asta tebratishga omuxta holda kechishi, **uchinchisi** esa, bolani uxlatishgagina xizmat qilishi va nihoyat **to`rtinchisi**, bolaning ham jismoniy, ham ma`naviy chiniqishida muhim ahamiyat kasb etishi to`g`ri ilg`angan.

Allalar, odatda, bolalarning emizikli davrida – ular to 3 yoshini to`ldirgunlarigacha aytiladi. Ularning bolalarning shu yoshi bilan bog`lanishi qat`iy bo`lib, beshik qo`shig`i sifatida tavsiflanishiga yo`l ochgan. Allalarni ona suti bilan bog`lab «sutda qorilgan va mehrga yo`g`rilgan qo`shiq» tarzida muqaddaslashtirilishi sababi shunda

Allalar faqat kuylanadi. Ularni shunchaki aytish yo deklomatsiya qilish mumkin emas. Monoton ohang o`zbek allalari uchun mushtarak xususiyatdir. Odatda, allalar kuyi bilangina bolaga orom bag`ishlaydi, uni elitadi. Bola uchun uning so`zi emas, balki kuyi muhim. Chunki u hali so`zni anglamaydi. Alladagi so`zlar ona uchun muhim: ular ona

qalbining nidolari. Allalarning bir maromdagi tebranishga mos mayin ohangi bola ma'naviy ehtiyojining dastlabki qondirgichi sifatida xizmat eta boshlaydi. Zero, tadqiqot va kuzatishlarning tasdiqlashicha, chaqaloq tug'ilgach, uchinchi kundan e'tiboran kuy va ovozni idrok eta boshlaydi. Birinchi oydaligidayoq musiqiy idrokini – ritm va ohangni idrok eta olishini namoyon eta boradi, lekin unga u qadar murakkab bo'lmagan tovushlarning o'zaro almashishi ohangi va ritmikasigina o'ngg'ay hisoblanadi.

Binobarin, **so'z ohang va harakat birligi, aniqrog'i, shu uzvlarning o'zaro mantiqiy aloqadorligi tufayli allalarning kompozicion butunligi yuzaga keladi.**

Allalarda to'rtlik band tuzilishi yetakchi bo'lsa-da, uchlik, beshlik, oltilik, ettilik va sakkizlik tarzida bir butun tugallangan allalar ham, shuningdek, shu xildagi band asosida to'qilgan namunalar ham ancha.Jumladan, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalaridagi allalarning aksariyati, asosan, to'rtliklar, beshliklar va sakkizliklar shaklida bo'lsa, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent va Farg'ona vodiysida hajman bir necha to'rtlik yo beshlikdan iborat voqeaband yo lirik allalar salmog'i baland. Bunday strofik xilma-xillik onalarning alla kuylayotgan vaziyatdagi kayfiyatining natijasi bo'lib, allada kuylanishi kutilgan g'oyaviy niyatning salmog'iga, ko'tarinkiligiga, yo'nalishiga bog'liq. O'zbek allalarida shunday bir ichki mantiq borki, u qaysidir bir ishorada harakat, ohang va mazmun birligini ta'minlab turadi.

Onalar o'zlari xush yoki noxushliklaridan qat'iy nazar farzandlariga hamisha mehribonlik bilan kuylaydilar: farzandlarini erkalata turib uyqu chaqirganlarida eng nafis ranglarni tanlashga, shu ranglarni g'oyat nazokat bilan ishlatishga e'tibor beradilar. Bolalari tabiatini toblantirishda doimo tiniqlik va quvnoqlikka aloqador tuyg'ularni teran ifodalashga xizmat qiluvchi poetik obrazlarga, sifatlash va o'xshatishlarga murojaat qiladilar, shu maqsadda **qo'zichoq, qo'chqor, olqor, toychoq, saman, toyloq, bo'taloq, kiyik(ohu), quralay, serka, bulbul, to'ti, lochin, tog', shahm, chirog', qizil gulobrazlarida** farzandlari qiyofasi va taqdiriga xos fazilatlarini umumlashtirib e'zozlaydilar:

Bulbul qushning bolasi,
Alla, qo'zim-o, alla.
Daraxtda bo'lar uyasi,
Alla, bolam-o, alla.
Daraxt boshini sel olsa,
Alla, qo'zim-o, alla.
Shaydolar bo'lar onasi,
Alla, bolam-o, alla.

3-mavzu: Qo'shiq va uning turlari. Maqollar va ularning etnopedagogik ahamiyati

Reja:

1. Qo'shiq janri haqida ma'lumot
2. Bolalarni erkalovchi qo'shiqlar
3. Bolalarning taqvim qo'shiqlari
4. Bolalarning maishiy qo'shiqlari
5. Maqol janrining tabiati va badiiy xususiyatlari
6. Maqollar xalq donishmandligining nodir namunalari sifatida
7. Maqollarda ajdodlarning axloqiy qarashlari, narsa-hodisalarga munosabatlari.
8. Paremiologiya va paremiografiya

Bolalar qo'shiqlari. Ota-onalar o'z bolalarning tabiatga munosabatlarini shakllantirishda ham faol ishtirok etadilar. Buning natijasida bolalarning taqvimi va unga aloqador mavsum-marosim qo'shiqlari yuzaga kelgan. Yil fasllari–bahor, yoz, kuz, qish mavsumlari bilan bog'liq bunday qo'shiqlarning bir qismi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot taqozosiga ko'ra kattalar repertuaridagi mavqeyini yo'qotgan, yo tamoman so'nib ketgan, yo

transformatsiyaga uchrab bolalar repertuaridagina saqlanib qolgan. “Qo`shiq” keng ma`noda qo`shiqshunoslikka, tor ma`noda folklorga oid atamadir. Qo`shiq– xalq og`zaki ijodida shakllangan lirik janr sifatida mashhur. Uning muhim belgisi – ijro uchun mo`ljallanganlik. Xalq qo`shiqlari biror musiqa jo`rligida (lapar, yor-yor), muayyan ish-harakat ritmi (qo`sh qo`shiqlari, charxchi qo`shiqlari) yoki ma`lum bir ruhiy holat mohiyatiga (yo`qlovlar) mos tarzda ijro qilingan.¹ Bu jihatlar bolalar qo`shiqlarida ham namoyon bo`ladi. U turli fasl, holat va vaziyatlarda, yoxud har xil o`yinlar jarayonida kuylanib, bolalarning aqliy va jismoniy kamolotga yetishuvida muhim omil sanaladi. Bolalar qo`shiqlari orasida bahor va yoz mavsumlariga bag`ishlangan namunalari ancha faol. Ayniqsa, bahor fasli katta-yu kichik qalbini quvonchga to`ldirgan.

“**Boychechak**”– bolalar kuylaydigan mavsumiy va marosim qo`shig`i. Boychechak qadimda Navro`z elchisi sifatida bolalar quvonchiga sabab bo`lgan. Undan guldastalar yasashgan bolakaylar hovlima-hovli yurib, qo`shiq kuylab, boychechak ulashib, bahor xabarini berib, suyunchi olishgan. Uning xush kayfiyatda kuylanishi, "Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak, Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak" naqaratining mazmun mohiyati katta-yu kichikka birdek tushunarli. Biroq qo`shiqni yod olgan, zavqqa to`lib kuylagan kichiktoylar uning mazmunini teran anglaganlaridagina xalq madaniy tarixi, milliy qadriyatlarimizdan voqif bo`ladilar. Qo`shiqning birinchi bandi shunday boshlanadi:

Boychechagim boylandi,
Qozon to`la ayrondir.
Ayroningdan bermasang,
Qozon-tovog`ing vayrondir.

Qo`shiqda qadimgi ajdodlarimizning ilk bahor kunlaridagi “qozon to`ldi” marosimi va bahor kelganiga ishora qilinayotir. Negaki, boychechak bahor elchisi ekan, endi yaylovda o`to`lanlar ko`karadi, sigir-echkilar suti ko`payadi, issiq boshlanishi bilan hamma ayronxo`rlikka o`tadi. Kishilarning qozon to`ldirib ayron tayyorlashi va bir-birlariga ulashishi xayrli udumlardan sanalib, xalqda uni bir-biridan qizg`anganda ro`zg`orga putur yetishi mumkinligi inonchini paydo qilgan.

Boychechak haqidagi qo`shiqlarning genezisi juda qadimiy davrlar bilan bog`liqligi qo`shiqning keyingi bandida ko`rinadi:

Boychechakni tutdilar,
Tut yog`ochga osdilar,
Qilich bilan chopdilar,
Baxmal bilan yopdilar.

Bu tarixan hosildorlik kulti bilan bog`liqligini zamondosh o`quvchiga tushuntirish lozim. Folklorshunos olimlar e`tiroficha, o`simliklar kultining paydo bo`lishi ibtidoiy madaniyat davri bilan bog`liq bo`lib, qadim inonchlardan biridir. “Arxaik dunyoqarashda, - deb yozadi A.Musaqulov, –butun tabiat kabi o`simliklar ham jonli va ongli, deb tushunilgan va ko`pgina xalqlar o`zlarining ilk ajdodlarini o`simliklar totemi bilan bog`lashgan.”²

Boychechak – badavlat, muqaddas, ilohiy gul degan ma`nolarga ham ega. Olimlar ta`kidicha, qo`shiqlarda boychechak to`ng`ich go`zal qizga o`xshatiladi. Yuqoridagi misralar ham shu ma`noda juda qadim davrlarda ko`klamgi marosimlarda qizlarni qurbonlik qilish marosimidan nishona ekani e`tirof etilgan.

Qo`shiqdagi: Boychechakni tutdilar,
Tut yog`ochga osdilar.
Qilich bilan chopdilar,
Baxmal bilan yopdilar.

¹ Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug`ati. Toshkent, “Akademnashr”, 2010.–B.384

² Musaqulov A. O`zbek xalq lirikasi. T., «Fan”, 2010. –B.207.

misralari shundaytalqinga asos bo'lgan. Zotan unda ta'riflangan boychechak–erta bahorda ochilgan gul ekanligi bilan birga tarixiy hodisalarning umumlashma obrazi hamdir. Qo'shiq tugagach, boychechakxonlarga sovg'a-salomlar berishgan. Bolalar bularni o'zaro bo'lishib olgan, hammalari birgalikda mehmonnavozlik qilishib, xalqimizning mehmondorchilik an'analarini o'zlashtirishgan. Shu ma'noda: Boychechagim boylandi,

Ko'chama-ko'cha aylandi.

Boychechagim ko'k somsa,

Cho'ntaklarga joylandi,-

misralari orqali bolalarning ilk boychechakni olib, hovlima-hovli suyunchi so'rashi, keksalar uni yuzlariga sutib, "omonlik-omonlik",–deya yeguliklar, pullar berishlari, ko'k somsalar pishirishlari poetik ifodalangan.

Bolalarning qo'shiqqa bo'lgan kuchli moyilligi ular faoliyatining asosini tashkil etuvchi o'yinlarda ham namoyon bo'ladi. Ular bir-birlarini o'yinga qo'shiq aytib chaqirish asosida *chorlamalar*, o'yinda ishtirok etadigan bolalar tarkibini aniqlashda *cheklashmahoqlar*, navbat aniqlashda *sanamalar*, shuningdek, o'yin nihoyasida *tarqalmahoqlar* kuylashgan. Bularning har biri bolalar folklorining mustaqil poetik janrlari hisoblanadi.

Albatta, davrlar, avlodlar yangilanishi bilan bunday o'yin- qo'shiqlar ham o'zgarib, yangicha mazmun - mohiyat kasb etishi tayin. Xususan, turli sport o'yinlari, anjomlari va mashg'ulotlari keng miqyosda ommalashib bormoqda. Shunday bo'lsa-da, xalq ijodining ko'pgina namunalari bolalar ma'naviy olamini boyitishda hamon hissa qo'shib kelmoqda. Bolalar repertuarida ibtidoiy ajdodlarimizning qadimgi animistik va totemistik aqidalari asosida shakllanib, endilikda o'sha mohiyatini yo'qotgan *yalinchoqlar* va *hukmlagichlar* hamon yashamoqda.

Maqol, masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, foyda, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, donolar yoki donishmandlar so'zi, oqinlar so'zi va otalar so'zi atamallari bilan el orasida yurgan bu janr namunalari g'oyat ommaviy bo'lib, umumfolklor hodisasi hisoblanadi. Ilmiy taomilda esa maqol atamasi iste'moldadir. Maqol arabcha "qavolla" so'zidan olingan va "aytmoq, so'zlamok" ma'nolarini anglatadi. Xalq orasida "qavlida sobit" yoki "qavlida tutruqsiz" iboralari bor: birinchisida "so'zida qat'iyatli, bir so'zli" ma'nolari anglashilsa, ikkinchisida "so'zida turmaydigan, o'z so'zi ustidan chiqqa olmaydigan, so'zi bilan ishi bir bo'lmagan" ma'nolari ifodalangan. Binobarin, "maqol" so'zi o'zbek tilida ikki mahmada, avvalo, o'z lug'aviy mahmasida "so'z, nutq"ni anglatgansa, ikkinchidan, istilohiy ma'noda folklorlarda keng tarqalgan janrni ifoda etadi.

Maqol, masal va naql janrlarining yuzaga kelishiga tahsir ko'rsatgan, masal va naqlning xulosasi, qissadan chiqarilgan hissasi ga aylanganligi tufayli ba'zan masal va ba'zan naql istilohlari bilan ayqashib ketgan. Aslida esa "masal" so'zi ham arabcha bo'lib, "o'xshamoq" ma'nosini anglatgansa-da, o'zbek tilida maqol va biror maqsadni izohlashga qaratilgan majoziy hikoya singari ikki ma'noda qo'llanadi. Biroq XX asrga kelib uni maqol ma'nosida istifoda etish cheklana borildi. Faqat tojik folklorshunosligida maqolni masal istilohi bilan atash qaror topdi.

"Naql" so'zi ham maqol ma'nosida qo'llansa-da, arabcha so'z bo'lib, "ko'chirmok" ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida esa "bayon qilmoq, hikoya qilmoq, rivoyat qilmoq" singari ikkinchi bir ma'noga ega va xalq og'zaki nasrining mustaqil aforistik janrini ifodalovchi ilmiy istiloh sifatida qo'llanadi. "Yaxshi naql-tomiri aql" maqolida "naql"-maqol ma'nosidadir.

Maqollar xalq donishmandligining nodir namunalari sifatida og'zaki badiiy ijodning keng tarqalgan mustaqil janridir. Shartli ravishda ularni xalqona axloq-odob qoidalari deb atash mumkin. Zero, maqollar xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, axloqiy-falsafaviy qarashlarining g'oyat ixcham, lo'nda, siqiq va obrazli ifodasidan tug'ilgan hodisadir. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma'lum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug'iladigan

xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo‘lib yuzaga keladi. Har bir xalq maqolida o‘sha xalqning qalbi, milliy sajiyasiga xos qarashlari ifodalansa-da, ulardagi g‘oya umumxalqqa tegishlidir. Shu xususiyatlariga ko‘ra, maqollar ham milliy, ham umuminsoniy mohiyat kasb etganlar.

Maqollar insonlarning turli sohalardagi faoliyatlari jarayonida uzoq muddatli sinovlardan o‘tgan turmush tajribalarining hosilasi–barqaror va o‘zgarmas, to‘g‘ri va haqqoniy xulosasi tarzida yuzaga kelgan.

Maqollar ham she‘riy, ham nasriy shakllarda bo‘lib, na lirik, na epik turga mansub. Shu sababli ular ham, topishmoqlar, irimlar va obrazli iboralar kabi paremik turga kiritilib, yozib olinishi va to‘planib kitobat qilinishi *paremiografiyaga* daxldor bo‘lsa, paydo bo‘lishi, taraqqiyot tamoyillari va qonuniyatlari, badiiyati *paremiologiyada* o‘rganiladi.

Maqollar shaklan ixcham bo‘lsalar-da, badiiyatiga ko‘ra yuksak obrazlilikka egadirlar. Ularda fikr sodda, tabiiy, ravon, silliq va tushunarli bo‘lib, ta’sirchan ifodalanishi ehtiyoji turli narsalar, hayvonlar, o‘simliklar va hodisalar obrazlaridan g‘oyaviy-badiiy niyatni ifodalashda foydalanishni taqozo etgan. Natijada, timsoliy obrazlar vositasida hayotdagi ijobiy yo salbiy voqealarga, insoniy munosabatlarga axloqiy baho berilib, hukmlar chiqarilgan.

Maqollar tuzilishiga ko‘ra, bir va bir necha sintaktik butunliklar asosida tashkil topgandir. Bir sintaktik butunlikdan iborat maqollar, odatda bir qismli maqollar sanalib, ko‘pincha darak gap yo‘sinida bo‘ladi: “Ayol tilini ayol biladi”, “Arg‘imchiga qil-quvvat”, “Vatanni sotgan er bo‘lmas”, “Gavhar yerda yotmas”, “Yomon it egasini qopar”, “Ishni ishchandan o‘rgan” kabi. Ko‘p sintaktik butunlikdan iborat maqollar esa ko‘p qismli, yoki murakkab maqollar deb yuritiladi. Bunday maqollar bir-biriga o‘xshash, yoki zid fikrlar bayonidan iborat bo‘ladi. Aksariyat maqollar ikki qismdan tashkil topgan; bir qismi tasviriy mohiyatga ega bo‘lsa, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir: ”Aytmas yerda tilingni tiy, mehmonga borsang nafsingni tiy”, “Bulbulning sayrashi guldir, mehr xazinasi tildir”, “Bug‘doy noning bo‘lmasin, bug‘doy so‘zing bo‘lsin”, “Yolqitsa hamyog‘ yaxshi, yondirsa ham yoz yaxshi”, “Ishonish bilan kasal bo‘lsang –umid qilsang, tuzalasan” kabi yuzlab maqollarda ikkinchi qism zarbli va asosiy o‘g‘itni ifodalaydi.

Maqollar jonli so‘zlashuv tilida yaratilgan va shu taxlitda so‘zlanadi. Aksariyati to‘g‘ri ma‘nolarda qo‘llansa, ma‘lum qismi ko‘chma (ramziy va majoziy) ma‘no tashiydi: “Avval o‘yla, keyin so‘yla”, “Yosh kelsa-ishga, qari kelsa-oshga”, “Mehnat, mehnatning tagi rohat”, “Vatani borning–baxti bor, mehnati borning–taxti”, “Vataning tinch–sen tinch” maqollarida to‘g‘ri ma‘no ustuvor; “Dunyoni suv olsa–o‘rdakka ne g‘am?”, “Bo‘rini yo‘qlasang, qulog‘i ko‘rinadi” singari maqollar ko‘chma ma‘nolardagina hikmatlilik kasb etgan.

Maqollarda sajlilar faol bo‘lib, o‘ziga xos ichki qofiyadoshlikni yuzaga keltirgan va ularning ohangdoshligini ta‘minlaydi.

Maqollarni tasnif qilishning xilma-xil ko‘rinishlari mavjud. Jumladan, alifbe tartibida, mavzulari, sinonimik yoki antonimik mohiyatiga ko‘ra, to‘g‘ri yoki ko‘chma ma‘no tashishiga hamda qaysi ijtimoiy davrda yaratilganligiga-xronologiyasiga ko‘ra guruhlash, yo tasnif qilish paremiologiyada an‘anaga aylangan. Ammo hozircha o‘zbek maqolshunosligida alifbe tartibi va mavzusiga ko‘ra tasnif qilish an‘anasiga ikki jildlik “O‘zbek xalq maqollari” (1987) va ko‘p jildlik “O‘zbek xalq ijodi” ruknida “O‘zbek xalq maqollari” (1989) to‘plamini tuzishda amal qilingan. Shunday bo‘lsa-da, o‘zbek xalq maqollarini yozib olish tarixi ancha qadimiy bo‘lib, ikki yo‘nalishda davom etganini kuzatish mumkin:

Birinchi yo‘nalish–*maqollarni jonli so‘zlashuvda qanday aytilsa, shu holatida xalqdan yozib olish va kitobat qilish.* O‘zbek xalq maqollarini ilk bor yozib olish va kitobat qilish XI asrning buyuk filologi Mahmud Qoshg‘ariy nomi bilan bog‘liq. U juda ko‘p turkiy qabila va xalqlar orasida bo‘lib, xalq ijodiyotining boshqa janrlariga mansub namunalari qatorida anchagina maqollarni ham yozib olib, “Devonu lug‘otit turk” asarida darj etdi. Shu asosda maqollarni kitobat qilish an‘anasini ham boshlab berdi. Tubandagi maqollar shular

jumlasidan bo‘lib, ularni hozirgi nusxalari bilan yondosh berish asosida har biriga oid transformatsiya jarayoni hamda ma’no tovlanishlarini kuzatish mumkin: M. Qoshg‘ariyda:

Kishi olasi ichtin,
Yilqi olasi tosh tin.
Hozirgi nusxasi:
Mol olasi-toshida,
Odam olasi –ichida.

Maqol mazmunida hech qanaqa o‘zgarish bo‘lmasa-da, undagi sintaktik bo‘laklar o‘rin almashgan. Qadimiy o‘zbekcha “kishi” so‘zi arabcha “odam” va turkiy xalqlarning otga sig‘inishi asosida qo‘llangan “yilqi” so‘zi umumlashtiruvchi ma’noga ega arabcha “mol” so‘zi bilan almashgan. Bu eski o‘zbek tili so‘z boyligiga arablashtirish nechog‘li kuchli ta’sir ko‘rsatganini ayonlashtiradi. Shuningdek, o‘rin-payt kelishigini ifodalovchi–“tin” qo‘shimchasi “-da” bilan almashinib, tilning grammatik qurilishiga xos o‘zgarishni namoyon etadi. Bunday holatni devondagi: “Tog‘ toqqa qovushmas, odam odam bilan qovushur”, “Er so‘zi-bir” maqollarini hozirgi “Tog‘ tog‘ bilan uchrashmas, odam odam bilan uchrashar” va “Yigitning so‘zi bir bo‘lar” nusxalari bilan qiyoslaganda ham kuzatish mumkin.

O‘zbek halq maqollarini yozib olish an’anasi XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan shoirlar Muhammadsharif Gulxaniy va Sulaymonqul Rojiylar tomonidan davom ettirildi. Gulxaniy 400 dan ko‘proq, Rojiy esa 450 tacha xalq maqolini to‘plab, o‘zlarining “Zarbulmasal”larida jamlab berganlar. Albatta, ular ilmiy maqsadlarni ko‘zlab maqol yig‘maganlar. Bunda, asosan, asarlarida xalqona jozibani kuchaytirish, personajlar tilini individuallashtirish va tabiiy, sodda ifodaviylikka erishishni nazarda tutganlar. Shunga qaramay, ularning bu xizmati o‘zbek paremiografiyasi tarixiy tadrijini ko‘rsatishda ayricha ahamiyatga ega.

XIX asrning 2- yarmidan e’tiboran o‘zbek xalq maqollarini ilmiy asosda yozib olish va nashr etish harakati izchil tus ola bordi. Venger olimi H.Vamberi 1867-yilda Leypsigda chop ettirgan “Chig‘atoy tili darsligi”ga 112 ta o‘zbek maqolini kiritdi. U bu maqollarni o‘zbek tilida arab alifbosida va lotincha transkripsiyada, so‘ngra, o‘zi amalga oshirgan nemis tilidagi tarjimalari bilan e’lon qildi va ilk bor o‘zbek xalq maqollarini Yevropa jamoatchiligi e’tiboriga havola etdi. Vamberi e’lon qilgan maqollar orasida “Ot oriqlikda–yigit g‘ariblikda”, “Aqlli kishi ikki marta bir toshga qoqilmas”, “Ichda bo‘lgan og‘riqni kesib bo‘lmas”, “Qo‘ling moyli bo‘lsa, boshingga surt”, “Tilidan kelgani qo‘lidan kelsa, hamma odam gadoy bo‘lmay xon bo‘lur”, “Oshiqqan oshga shayton qo‘shilur”, “Hayit otliniki, to‘y to‘nliniki” singari nodir namunalar borki, hanuzgacha biror to‘plamda uchramaydi. Keyingi maqol esa hozir “To‘y kimniki–tegishliniki, hayit kimniki–barchaniki” shaklini olgan holda o‘zgargan. “Ichda bo‘lgan og‘riqni kesib bo‘lmas” maqoli o‘z ma’nosida tushunilsa, ya’ni zamonaviy tibbiyot taraqqiyoti ichdagi har qanday og‘riqli a’zoni kesib, yamab va yangilab davolay olishi inobatga olinsa, eskirganligi ayonlashadi, biroq ko‘chma ma’noda qo‘llansa, unda inson ichki olamiga xos murakkab tuyg‘ular anglanadi va maqol hamon o‘z mohiyatini yo‘qotmagan holda xizmat qilaverishi ravshanlashadi. Missioner K. P. Ostroumov ham 1888- va 1890-yillarda chop etilgan “Sirdaryo viloyati” statistikasi uchun materiallar to‘plami”ning birinchi jildida–492 ta va ikkinchi jildida – 628 ta, jami– 1120 maqolni o‘zbek va o‘z tarjimasida rus tillarida e’lon qilgan. U bu maqollarni bevosita o‘zi yozib olgan emas, balki rus-tuzem maktabi talabalari yordamida to‘plashga muvaffaq bo‘lgan.

O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va ommaga yetkazishda 70-80-yillarda jiddiyroq kirishildi. Bu sohadagi dastlabki ish E.Siddiqov tuzgan “Dengizdan qatralar” (1976) to‘plami bo‘ldi. Unda ikki mingdan ziyodroq o‘zbek maqollari alifbe tartibida jamlangan edi. Bu davrda T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, M.Madrahimova singari folklorshunoslar g‘ayrati bilan 4 ming maqoldan tartib berilgan “O‘zbek xalq maqollari (1978, 1981 va 1984) to‘plami yuzaga keldi. 13 ming maqolni o‘z ichiga olgan ikki jildlik

“O‘zbek xalq maqollari” va «O‘zbek xalq ijodi” ruknidagi ko‘p tomlik tarkibidagi “O‘zbek xalq maqollari” tomliги nainki o‘zbek paremiologiyasi, balki folklorshunosligi tarixida ham muhim voqea bo‘ldi. Nihoyat, 1980-yilda Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlar ilk bor o‘zbek maqollariningizohli lug‘atidan iborat “Hikmatnoma” asarini e‘lon qildilar. Bu asarlar o‘zbek xalq aforistik tafakkurining naqadar boyligini namoyish etdi.

Topishmoqlar xalqning turmush tarzi va qadimiy e‘tiqodlari ifodasi sifatida yuzaga kelgan. Ular shartli nutq natijasida qadimiy ajdodlarimizning ibtidoiy animistik va totemistik qarashlari shakllana boshlagan davrlarda–“insoniy shuur endigina uchqunlana boshlagan zamonlarda” (F.I.Buslayev) paydo bo‘la boshlagan. Qadimgi ajdodlarimiz tabiat stixiyasi oldidagi oqizliklari tufayli narsalarni, odamlarni, hayvonlarni, qushlarni o‘z nomlari bilan aytmay, ularni g‘ayritabiiy kuchlar zararidan, insu jinslar va balo-qazolardan omon saqlashni ko‘zlab, boshqa so‘zlar bilan pardali qilib ayta boshlashlaritufayli ilk topishmoqlar yuzaga kelgan, buning izlarini hozirgi o‘zbek topishmoqlarida ham kuzatish mumkin, aytaylik, otani–nor, momoni–tuya, echkini–Abdukarim, quyonni–uzunquloq, itni–shalpangquloq, ko‘zni–darcha, bug‘doyni–qizil deb atalashida o‘sha sirlilik nishonalari mavjud.

Predmetli topishmoqlarda yashiringan aniq narsaning individual xususiyatlari lo‘nda, siqiq, sodda va tushunarli tarzda badiiy so‘z vositasidachizib beriladi. Ularda borliqdagi narsalarningo‘zaro o‘xshashligi va yaqinligi to‘g‘risida ma‘lumotlar beriladi. Shu ma‘lumotlar yordamida inson tevarak-atrofidagi narsa-hodisalarning serqirraligini his qiladi.

Predmetli topishmoqlarda yashiringan narsaning miqdori muhim rol o‘ynaydi. Shu xususiyatiga ko‘ratopishmoqlar ikki turkumga ajratiladi:

1. Bir predmetli topishmoqlar. Bu xildagi topishmoqlarda birgina narsa jumboqlanadi: jumboq ham bitta, javob ham bittadir: “Bossang, vaqillaydi”, “Jar boshida jarti supra” topishmoqlari birgina satrdan iborat holda jumboqlangan va “baqa” hamda “quloq” singari birgina javobga ega. Bunday topishmoqlar ikki, uch, to‘rt satrli ham bo‘lishi mumkin. “Oy”ni yashirgan “Bir parcha patir–olamga tatir” ikki satrli; “baliq”ni yashirgan “Suv ichar ko‘ldan, ko‘zlari nurdan, terisi puldan” uch satrli va “toshbaqa”ni yashirgan “Beli, beli belang ot, Beli qalin yo‘g‘on ot, Tog‘u toshdan yumalab, Tura kelar to‘rig‘ ot” to‘rt satrli bo‘lsa-da, bir predmetlitopishmoqlardir. Chunki ulardagi har bir satrda yashiringan narsaning bir belgi-xususiyati ta‘rif, yo tavsif qilingan. Biroq aslida birgina narsani jumboqlagan, bir necha mustaqil topishmoqlar o‘zaro birlashib, bir butunlik hosilqilishgan bo‘lsa-da,biribir, birgina javobga ega bo‘lib, bir predmetli topishmoqligicha qolavergan:

Chopsa–chopilmas,
Bo‘lsa–bo‘linmas,
Kessa–kesilmas,
Ko‘msa–ko‘milmas,
Yo‘nsa–yo‘nilmas.

Besh satrning har biri mustaqil topishmoq sifatida “soya” hodisasini yashirganidek, bir butun holatida ham shu yagona javobga ega. Bu xildagi topishmoqlar sodda topishmoqlar, deb ham yuritiladi.

2.Ko‘p predmetli yoki murakkab topishmoqlar. Yuqorida ko‘rilganidek, hamma birlashgan topishmoqlar ham bir predmetli bo‘lavermaydi. Aytaylik:

Tog‘da talaymonni ko‘rdim,
Suvda sulaymonni ko‘rdim.
Tuzsiz pishgan oshni ko‘rdim,
Yumalab yotgan toshni ko‘rdim,-

topishmog‘ining har bir satri mustaqil bir jumboq bo‘lib, ko‘p predmetlilik xususiyatini kasb etgan. Bu murakkab topishmoqda bir yo‘la to‘rt narsa–bo‘ri, baliq, sumalak va toshbaqa jumboqlangan. Har bir bayti alohida topishmoq shaklida ham aytilishi mumkin, faqat saj‘lanish asosidagi ohangdoshlik baytlarda bir butunlikni yuzaga keltirib, kompozitsion yaxlitlikni ta‘minlagan.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, aslida topishmoqlar har gal bir predmetli shaklda jumboqlanib yuzaga kelgan esa-da, og'zaki ijro jarayonida vaqt o'tishi bilan yangi-yangi jumboqlanishlar evaziga murakkablasha borib, ko'p predmetlilik xususiyatini kasb etishgan: "Chaqaloq" qachonlardir "Og'zida bor ozig'i" tarzida bir predmetli topishmoq holda jumboqlangan, keyinchalik beshikpaydo bo'lib, sumakdan foydalanish odatga kirgach, ikkinchi predmet hamyondosh holda jumboqlana boshlangan, natijada topishmoq yana to'lisha borgan:

Og'zida bor ozig'i,
Tagida bor qozig'i.

Davr o'tishi bilan "beshik", "ko'krak" va "tuvak" ham jumboqlanib, topishmoqning yanada murakkabroq namunasiga aylangan. Bunda jumboqlangan predmetlarning mantiqan o'zaro aloqadorligigae'tibor berilgan:

Taqir-taqir taqirmon, uni toping, dilbarim.
Ichida bor mehribon, unitoping, dilbarim.
Og'zida bor ozig'i, uni toping, dilbarim.
Tagida bor qozig'i, uni toping, dilbarim.
Qoziq osti xurmacha, uni toping, dilbarim.

Ko'p predmetli topishmoqlar goho birgina savoldan iborat bo'lgani holda bir necha javobni talab qiladi: Dunyoda to'rt narsa yo'q.

Javobi:—Osmonning ustuni yo'q,
Hovuzning qopqog'i yo'q.
Ko'rpaning yengi yo'q,
Oshpichoqning qini yo'q.

Ko'ppredmetlilik topishmoqlarning eng murakkab turi chaldirmoqni yuzaga keltirgan. Chaldirmoqlar ham she'riy, ham nasriy shakllarda uchraydi. Nasriy chaldirmoqlar esa ertak, yoki masala shaklidir: "Bir to'da g'oz uchib borar ekan. Bir g'oz kelib: "Ey yuz g'oz, salomat bormisiz?"—debdi. Unda to'dadagi g'ozlardan biri aytibdi: "Biz yuz g'oz emasmiz, yana biz miqdori g'oz bo'lsa, yana bizning yarmimiz miqdoriva yarmimizning yarmi bo'lsa, o'shanda sen hamqo'shilsang— yuz g'oz bo'lamiz". Havodagi g'ozlar qancha ekan? Masala tipidagi bu chaldirmoqning javobi: $36 + 36 + 18 + 9 + 1 = 100$.

Topishmoqlarda xalq turmushining barcha qirralari ifodalangan: ularda ijtimoiy davr va vaqt tushunchasi mavjud. Shu xususiyatiga ko'ra ularning qachon yaratilganini belgilash va o'sha davr voqeligiga baho berish mumkin: "Bit"ni yashirgan "Abdullaxon—beustuxon" topishmog'ida xalqqa og'irjafolar ko'rgazgan XVI asrdagi Buxoroamiri zolim Abdullaxon I obrazi yaratilgan. Ijtimoiy tengsizlikka nafrat ifodasini Andijonda yashagan mashhur isqirt boy Samatjonga munosabat asosida yaratilgan "sichqon" haqidagi tubandagi topishmoqda ham ko'rish mumkin:

Tokchama-tokcha,
Samatjon boyvacha.

O'zgalarni ezish hisobida dunyo orttirgan tekinxo'r Samatjon boyvachchanning sichqondan nima farqi bor? Topishmoqdagi ijtimoiy motiv mohiyatini ana shu istehzo tashkil etadi.

Yaratilish davri va mazmuniga ko'ra topishmoqlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

An'anaviy topishmoqlar—xalqning uzoq o'tmishiga daxldor topishmoqlar silsilasi. Ularda ajdodlarimizning butun moziy davomidagi turmush tarzi, ijtimoiy-estetik qarashlarini ifodalovchi narsa vahodisalar jumboqlangan. Aytaylik, qachonlardir topishmoqlar kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy munosabatlarni aniqlashda vositachilik vazifasini bajargan. O'shanda topishmoqlar hozirgidek ma'naviy o'yin xarakterida bo'lmagan, balki aqlni, kuch-g'ayratni sinovdan o'tkazish shartisifatida xizmat qilgan. Topishmoqlar yordamida el-u yurtga boshliq (podshoh) tanlangan, jang-u jadallarda urushuvchi tomonlar lashkarboshlarining topishmoqqa bergan javobining to'g'ri yo noto'g'riligiga qarab, g'olib belgilangan va ortiqcha qon to'kishlar oldi olingan. O'shanda

topishmoq javobini topolmagan tomon “shahar berdim” deb yengilganini tan olgan va g‘olib istagan shahar, yo qishloqni o‘z mamlakatiga qo‘shib olgan. Hozirgacha topishmoq shartini topolmay yutqizganda “shahar berdim” deyişlari shundan qolgan. Hatto yigit-qizlarning bir-birlariga munosib umr yo‘ldoshi tanlashlarida ham topishmoqlar bo‘lajak kuyov uchun aql sinovi shartiga aylangan. Bu mulohazalarni xalq og‘zaki ijodidagi ayrim afsona va ertaklar ham tasdiqlaydi. Chunonchi, yunonlarning Sfinks haqidagi afsonasida aytishilicha, dono Edip maxluq bergan topishmoqqa to‘g‘ri javob topgani tufayli nafaqat omon qoladi, balki boy va g‘oyat go‘zal Fiva shahriga hukmdor etib tayinlanadi. Yoxud, o‘zbek xalqining “Dono qiz” ertagida podsho o‘zi uylanmoqchi bo‘lgan qizning aqlu zakovatini topishmoq orqali sinagach, so‘ngra, unga uylanishga azm etganligi ifodalansa, qator sehrli ertaklarda bosh qahramon yovuz devlarni, jodugar kampirlarni topishmoq orqali mag‘lub etib, o‘z niyatiga erishganligi aks etgan. Xullas, an‘anaviy topishmoqlar qadimiy qadriyatlarimizning betakror badiiy namunalari hisoblanadi, ulardan o‘tmishdagi ajdodlarimizning ijtimoiy hayotdan orttirgan asriy tajribalari, tevarak-atrof va borliqqa doir fikr-mulohazalari, mushohadalarini bilib olish mumkin.

Yangi topishmoqlar. Bular bevosita an‘navay topishmoqlar ta‘sirida yaratilgan bo‘lib, ularga xos an‘anaviy shakl, badiiy usullar va jumboqlanish uslubini, asosan, saqlab qolgan. Ularda hamisha zamonaviy mavzuga murojaat yetakchilik qiladi. Bu esa topishmoq janri qismatida davomiylikni ta‘minlagan omil hisoblanadi.

Ularni aytishga xalq muayyan tartib-qoidaga, taqvimga rioya qilgan, chunki topishmoqlarni magik so‘z hosilasi deb tushungan. Chunonchi, ruslar xristianlik e‘tiqodiga ko‘ra, Iso tug‘ilgan kunga bag‘ishlab 25 dekabrda 5-6 yanvargacha o‘tkazadigan ikki haftalik “svyatki” bayrami davomida topishmoq aytishsa, o‘zbeklar va tojiklarda dehqonlar kuzgi yig‘im-terimni tugatgach, qishning uzun kechalarida aytishgan. Kunduzgi ishga xalal bermaslik uchun topishmoqni kunduz kuni aytish ta‘qiqlangan. Ajdodlarimiz bug‘doy ko‘karib unib-o‘sayotganda, daraxtlar gullab, meva tugayotganda, hayvonlar qishki uyqudan uyg‘onganda ular haqida topishmoq aytilsa, topishmoqlarda ta‘riflansa, ularga yovuz kuchlar hasad qiladi va zarar yetkazadi, deb irim qilishgan. Qishda esa yovuz kuchlar ham tirik tabiatni o‘lgan gumon qilib, uyquga ketgan, deb hisoblashgan. Shunday tasavvur va qarashlar topishmoq aytish taqvimini yuzaga keltirgan.

Topishmoqlar yozma badiiy adabiyotga ham samarali ta‘sir ko‘rsatib, mumtoz she‘riyatda *lug‘z*, *chiston*, *muammo*, *ta‘rix* va *muvasshah* singari janrlarning yuzaga kelishiga ta‘sta‘sir ko‘rsatgan bo‘lsa, XX asrda o‘zbek bolalar she‘riyatida adabiy topishmoqlar yozishning an‘anaviy tus olishini ta‘minladi. Bu sohada Jahon otin Uvaysiy, Gafur Gulom singari zabardast shoirlar boshlagan an‘anani Shukur Sa‘dulla, Ilyos Muslim, Adham Rahmat, Po‘lat Mo‘min, Safar Barnoyev, Tursunboy Adashboyev, Rauf Tolib va S.G‘afurov singari bolalar adabiyotining turli avlodiga mansub ijodkorlar davom ettirmoqdalar. Ayniqsa, ulkan bolalar shoiri Quddus Muhammadiyning she‘riy-adabiy topishmoq janridagi ijodiy izlanishlari g‘oyat samaradorligi bilan e‘tiborga loyiq. Shoir “Toping-chi?”, “Viz-viz”, “O‘ylab top”, “Buni toping bolalar, aytib bermang onalar” singari she‘riy adabiy topishmoqlarida xalq topishmoqlariga xos an‘anaviy unsurlarni istifoda etish bilan cheklangan bo‘lsa, “Militsioner amakim” asarida xalq posbonlariga xos xususiyatlarni jumboq holida ta‘riflash asosida kasbni sir tutadi va sharaflovchi ma‘no beradi. Natijada, she‘rning har bandi–bir jumboq tusini oladi. Olti band–olti jumboq shaklida jamlanib, yagona umumlashma poetik g‘oyani aks ettiradi. Har bir bandda el soqchilarining ma‘lum bir fazilati ta‘riflanib, shu ta‘riflarning kimga taalluqliligi sir tutiladi. Bunday jumboqning javobi har bir bandagi so‘nggi misrada ochiladi:

Qomatiga kelishgan forma, pagoni,
Yonboshida charm, qinda nagani,
Yigitlar arsloni, man-man degani,
Bolalarim bilasizmi? Ayting kim?
-Kamar taqqan militsioner amakim!

Shu zaylda u topishmoq janri kompozitsion tuzilishidan ijodiy foydalanib, she'riy adabiy topishmoqning yangi ichki namunalarini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Binobarin, xalq topishmoqlari qatorida bu xildagi adabiy topishmoqlardan ham yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda, didaktik va axloqiy maqsadlarda keng vasamarali foydalanilmoqda. Topishmoq endilikda tom ma'noda, bolalar ma'naviy mulkiga aylandi va ularni hozirjavoblikka, topqirlikka, narsa va hodisalar mohiyatini teran anglashga, sezgirlik va sinchkovlik bilan kuzatishga o'rgatish uchun xizmat qilmoqda.

3-mavzu: Ertaklar va ularning janriy tasnifi.

Reja:

1. Ertak istilohi haqida tushuncha
2. Ertaklarni ijro etish tartibi
3. Ertaklarning janriy tabiati
4. Ertaklar tasnifi va turlari

MAVZUGA OID TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Folklor, og'zaki ijod qo'shiq, aytim-olqish, erkalama, alla, taqvim, maishiy, o'yin, topishmoq, maqol, etnopedagogik, ertak, sehrli-fantastik, adabiy, milliy ruh, sayqal, xalq zakovati, genezis, poetika, tizim, folklorshunos, ovutish, erkalatish, rasm-rusum, olqish, ovutmachiq, qiziqmashiq, qaytarmachiq, etnografik, beshik, suyish, deklamatsiya, monoton

Ertak umumfolklor hodisasi sifatida eng qadimiy epik janrlardan bo'lib, M.Qoshg'ariy o'z "Devonu lug'otit turk" asarida turkiy xalqlarda uning "etuk" atamasi bilan yuritilganini qayd etadi. Unga ko'ra, etuk "biror voqeani og'zaki hikoya qilish"ni anglatadi. Biroq jonli so'zlashuvda O'zbekistonning turli joylarida, chunonchi, Namangan viloyatining Janubiy qismida "ertangi" deb yuritiladigan bu hodisa - ertangi bo'lib o'tgan, qadimgi zamonlardan qilinajak hikoya ma'nosini anglatasa, Samarqand, Farg'ona va Surxondaryoda bu hodisa – matal, Xorazmda –varsoqi, Buxoroda – ushuk, Toshkentda–cho'pchak, yana boshqa bir qator maskanlarda – hikoya, hikoyat, og'zaki hikoya, o'trik yoki o'tirik, afsona deb yuritilsa-da, folklorshunoslikda ertak ilmiy istilohi qabul qilingan va muhim muomalada bo'lib, ruslardagi "skazka" istilohiga teng ekvivalentga aylangan. Zero, "Alisher Navoiy asarlarining qadimgi lug'ati, sanaluvchi "Abushqa"da ham "ertak" istilohi uchraydi.

"Ertak" so'zi "er", aslida "ir" yo "yir, jir" hamda "tak" so'zlaridan tarkib topgan. "Ir" yo "yir" Alisher Navoiy zamonida og'zaki hikoya yo doston ma'nolarini anglatganki, bu xususda u shunday ma'lumotni yozib qoldirgan:
Ey yirov, sen ham ishingni ko'rguz,

Yotug'on birla ulug'irni tuz

Navoiy tilga olayotgan "ulug'ir" aslida doston bo'lib, uni yotug'on (hozir do'mbira) jo'rligida yirov ijro etgan. Yirov yoki jirov hozir ham xalq an'anaviy dostonlari ijrochisini anglatadi. Navoiy zamonasida "ir" dostonni anglatgani bois u ertak ma'nosida "cho'rchak" istilohini qo'llaydi va og'zaki eposga xos bu ikki hodisani bir-biridan farqlaydi:

Habibim husni vasfin uyla muhlik anglakim, bo'lg'ay,

Qoshingda qissai Yusuf bir uyqu keltirur cho'rchak.

Shuni ta'kidlash joizki, Navoiy qo'llagan "cho'rchak" istilohi hozir Toshkent muzofotida "cho'pchak" va uyg'urlarda "cho'chek" shakllarida fonetik o'zgarishga uchragan holda iste'moldadir. Ertak xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, kattayu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo'lgan janridir. Ular juda uzoq o'tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlarini, marosimlari asosida paydo

bo'lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng olijanob insoniy fazilatlarini haqidagi orzu-o'ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

Ertaklar janr sifatida uzoq muddatli shakllanish jarayonini kechgan. Ular ibtidoiy odamlarning turmushdagi biror voqeani oddiygina hikoya qilishlari asosida yuzaga kelgan. Davrlar o'tishi bilan hikoya qilish ham takomillashib borgan, so'zga sig'inish, ilohiy kuchlarga sig'inish, animistik, totemistik, fetishistik e'tiqodlar, gallyutsinatsiya va tush ta'sirida fantastik (taxayyuliy) vositalarga to'lisha borsa, hayvonlarni ovlash, xonikalashtirish, ular inonchlariga ishonish, hayvon mahsulotlaridagina emas, balki kuchidan ham foydalanish jarayonlarida hayvonlar haqidagi ertaklar paydo bo'la boshladi, Asta-sekin shu xildagi ertaklarda turmush tajribasini omuxtalashtira borish u yoxud bu xildagi qusur va kamchiliklardan kulish ertakdagi obrazlarga majoziylik (allegorik) xususiyatni baxsh etdi. Natijada hayvonlarga oid ertaklar tarkibida majoziy namunalar yuzaga kela boshladi.

Feodal munosabatlar tarkib topib, unda ijtimoiy jarayon takomillasha borgach, ertaklarda ham shu ijtimoiy munosabatlarni ifodalash tamoyili chuqurlasha bordi, natijada hayotiy uydirmalar asosidagi maishiy ertaklar paydo bo'la boshladi. Shu zaylda ertaklar ijtimoiy - estetik hodisa sifatida xalq epik ijodiyotida mustahkam qaror topdi.

Ertaklarning paydo bo'lishi. Ertak xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, kattayu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo'lgan janridir. Ular juda uzoq o'tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlarini, marosimlari asosida paydo bo'lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng olijanob insoniy fazilatlarini haqidagi orzu-o'ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

Ertaklarni ijro etish tartibi. Ertaklar professional ijrochilikka asoslangan. O'tmishda ertaklar yilning ma'lum davrida belgilangan paytda ijrochilik salohiyatiga ega bo'lgan yoshi ulug', dono, hurmatli va e'tiborli kishilar tomonidan aytilgan. Odatda bunday professional ijrochilar ertakchi deb yuritiladi.

Ertaklar ijrosi uch xil usulda tashkil etilishi mumkin:

- a) teatrlashtirilgan shaklda;
- b) deklamatsion shaklda;
- v) ohangga solingan shaklda.

O'zbek ertaklarining uch ichki turini farqlab o'rganmoq ma'qul.

1. Sehrli -fantastik ertaklar
2. Hayvonlar haqidagi ertaklar.
3. Maishiy-hayotiy ertaklar.

Ertaklarning janriy tabiati. Ertaklar xalq og'zaki badiiy ijodiyotining epik turiga mansub bo'lib, o'ziga xos g'oyaviy - mavzuviy yo'nalishga, axloqiy - ta'limiy va ijtimoiy - estetik vazifalarga ega. Ertaklar ham og'zaki tarzda jamoa ijodi mahsuli sifatida anonim ko'rinishda yaratiladi. Garchi uning to'qilish ibtidosi individual ijodkorga borib taqalsa-da, og'izdan - og'izga, urug'dan-urug'ga, avloddan-avlodga o'tish jarayonida dastlabki ijrochisiga xos belgilarini, obrazlarini, motivlari va badiiy vositalarini deyarli saqlab qoladi. Shu bilan birga versiya va variantlilik hosil qilishi mumkin.

Ertaklar, asosan, professional ijrochilikka asoslanadi, Kishilarda cheksiz badiiy zavq uyg'ota olish imkoniyatiga egaligi boisidan ko'p hollarda ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarda aytiladi.

Ularning syujeti qiziqarliligi, uydirmalarga boyligi, sarguzashtga to'laligi bilan diqqatni tez jalb qiladi. Va albatta, o'z nihoyasida ezgulikning yovuzlik, oydinlikning qorong'ulik, haqiqatning nohaqlik, hayotning o'lim, aqllilikning nodonlik, adolatning jaholat va to'g'rilikning egrilik ustidan g'alaba qozonishini tarannum etadi.

Ertaklar o'z janriy tabiatiga xos badiiy- kompozitsion qurilishga ega. Ular bir xil badiiy shakliy qoliplar doirasida yaratiladi va ijro etiladi. ***Kirish, boshlama, tugun, epik sarguzasht va tugallama*** ertak kompozitsion qurilmasining asosini tashkil etadi.

Ertaklarning an'anaviy kirish bilan boshlanishi jahondagi barcha xalqlar ertakchiligi uchun mushtarak xususiyat hisoblanadi. Goho shunchaki kirish, goho *an'anaviy zachin* deb yuritiluvchi bu hodisani rus folklorshunosi V.Dal "dokuchno`e skazki" istilohi bilan atab, bolalar folklorining mustaqil janri tarzida tavsiflaydi. Chindan ham so`zma-so`z tarjimada "ezma ertak" tarzida ifodalash mumkin bo`lgan bu hodisa o`zbek bolalar folklorida ham ermaklar silsilasini tashkil etadi. Qolaversa, ular qat`iy bir ertak bilan uzviy mantiqiy bog`liq holda yashamaydi, balki istalgan ertakni boshlashdan avval aytilishiga ko`ra nisbatan mustaqil bo`lib, sayyor holda ijro etilaveriladi. Ularga xos bu xususiyatni o`zbek ertakshunosi K.Imomov ham "kirish qismi ba`zan sodda, primitiv syujet shaklini oladi",- deya qisman tan olsa-da, har qalay uni ertak kompozitsiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarashni afzal biladi.

Hayvonlar hakidagi ertaklar.

Ertaklar xalq og'zaki ijodining qadimiy va keng tarqalgan janridan biridir.

Qadimgi kishilarning tasavvurlari natijasida paydo bo`lgan afsonalarning zaminida dastlabki ertaklar paydo bo`lgan. Dastlabki ertaklarda mifologik obrazlar ko`p uchragan bo`lishlari kerak.

Bu tipga mansub ertaklarning yaratilishida ibtidoiy insonlarning qadimgi totemistik qarashlari asos bo`lgan. Ularda hayvonlar yetakchi personajlar bo`lib, insonlar qiyofasida tasavvur etilgan va badiiy jonlantirilgan. Shunga ko`ra ularning syujetida inson obrazi keyingi o`rinda turadi, ko`p hollarda voqelikka inson aralashmaydi. Binobarin, ular yaratilish maqsadi, mazmun-mohiyati jihatidan bir necha ichki turga ega:

1.Etiologik ertaklar. Bularda u yoki bu hayvon shakli, belgi xususiyatlari haqida ma`lumot berish etakchi motivdir.

2.Sof hayvonlar haqidagi ertaklar. Bularda insonlarga naf keltiruvchi hayvonlar madhi etakchi motivga aylangan.

3.Majoziy (allegorik) ertaklar. Bularda insonlarga xos qusur va kamchiliklarni hayvonlar fe`li va xatti - harakati timsolida tanqid qilish, fosh etish yoki kulish etakchi motiv darajasidadir.

Hayvonlar haqidagi ertaklar dramatik ijroga asoslangan; professional ijrochilar tomonidan hayajonli qilib aytib beriladi. Aytish jarayonida ijrochi ertakdagi hayvon - personajlarning turfa harakatlari va ovozlari taqlid qiladi, ertak tarkibida she`riy-parchalar bo`lsa, ularni kuyga solib ijro qiladi.

Maishiy - hayotiy ertaklarning mazmuni bevosita real hayotga bog`liqdir. Ularda real ijtimoiy voqelik hayotiy uydirma asosida tasvirlanadi, hayotiy real kishilar bosh qahramon bo`lib keladi. Maishiy-hayotiy ertaklar taxayyulotdan deyarli xoli bo`lib, ayrim hollardagina fantastik detallar uchrashi mumkin.

Hajviy -maishiy ertaklar asosida o`tkir satira yoki zavqbxsh kulgi (yumor) yotadi. Bunday ertaklar hajman ixcham, mazmunan lo`nda bo`ladi.

"Ertaklar hech vaqt bekorchi, ermak narsalar emas,- deb yozgandi ulug` adib Muxtor Avezov,- ular hamma vaqt zo`r ijtimoiy va tarixiy ahamiyatga egadirlar. Bahaybat maxluqlar haqida hikoya qiluvchi ertak va afsonalar hamda bu boy janrning boshqa turli ko`rinishlarida u yoki bu davrning ijtimoiy, hayotiy kurashlari, xalq manfaatlarini badiiy ifodasini topgandir". Ularda ajdodlarimizning yashash va kurash sabog`i ifodalanga.

Ertaklar xalqning necha-necha ming yilliklar davomidagi hayotiy tajribalarini umumlashtirgan holda uning ijtimoiy ongida, estetik didida, axloqiy qarashlarida, e`tiqodida kechgan o`shish-o`zgarishlarning badiiy tarixi sifatida ayricha ahamiyat kasb etgan. Shu bois hozir ham miriqib tinglanadi, sevilib o`qiladi, eng muhimi, navqiron avlodning ma`naviy-axloqiy kamol topishida beqiyos ta`sir ko`rsatib kelmoqda.

Sehrli-fantastik ertaklar ming yillar davomida insoniyatning turli yozuv kuchlariga qarshi olib borgan kurashlari davomidagi xulosalari, ulardan kelib chiqadigan ehtiyojlarning o`ziga

xos yechishi sifatida maydonga kelgan. Inson doimo hayoliy orzu-istaklar bilan yashaydi. Bunday hayoli orzu-istaklarni ro'yobini she'rli-fantastik ertaklarda ko'rish mumkin. Bu ertaklarda uchadigan otlar, va gilamlar, so'ylaydigan jonzodlar, sehrGAR kampirlar, uchadigan devlar, suv ostida, osmonda, yer ostda yashaydigan odamlar va boshqalar ishtirok etadilar.

“Ur to'qmoq”, “Zumrad va Qimmat”, “Yoriltosh” kabi ertaklar shular jumlasidandir.

4-mavzu: Adabiy ertaklar.

Reja:

1. Adabiy ertaklarga xos xususiyatlar
2. O'zbek adabiy she'riy va nasriy ertaknavislik an'analari.
3. Jahon bolalar adabiy ertaklari haqida ma'lumot

O'zbek bolalar adabiyotining shakllanish jarayoni XX asrning 20-30 yillarida, ayniqsa, jiddiy tus oldi, tezlashdi va qamrov kasb eta bordi. Asosan, she'riyat va hali hikoyachilik doirasida qolib kelayotgan bolalar adabiyoti bu davrga kelib xalq ijodiyotiga keng va chuqur murojaat qilishga kirishib, o'z janriy imkoniyatlarini adabiy ertakning shehriy ertak, nasriy ertak, ertak qissa, dramatik ertak singari xilma-xil oraliq shakllari bilan boyitish va to'ldirishga muvaffaq bo'la boshladi. Aslida XIX asrning so'nggi choragi va XX asrning 10-yillarida fors-tojik shoiri Ubayd Zokoniyning "Mushuk la sichqon" qissasi(Xislat tarjimasini), rus adabiyoti namoyondalari I.A.Krilov, A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiy masallari, ertaklari va hikoyalarining o'zbek tiliga o'girila boshlanganligi, shuningdek, Said Rasul Aziziy va Abdulla Avloniylarning voqeaband she'rlari, masallari hamda Hamzaning xalq rivoyati asosida yozilgan "Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi" she'riy ertagi, qolaversa, 20-yillarda xalq ertagi ruhida yozilgan. Abdulla Qodiriyning "Jinlar bazmi" va Abdurauf Fitratning "Qiyomat" nasriy adabiy ertaklaridan o'z sarchashmasini olgan folklor syujetlari negizida bolalarbop asarlar yozish va shu asosda realistlik o'zbek bolalar adabiyotini shakllantirish va rivojlantirish harakati 30-yillar arafasi va davomida chinakkam yangi bosqichga ko'tarildi. Buning bir qancha sabablari va omillari bor edi:

Birinchi, xuddi shu yillarda o'zbek folklorshunosligi ancha jonlangan edi, xalq qo'shiqlari va dostonlari qatorida ertaklarni yozib olish va nashr etishda samarali natijalarga erishila boshlandi. Bu ishda Elbek, /ulom Zafariy va Shukur Sa'dulla singari bolalar adiblari ancha faollik ko'rsatdilar. Ayniqsa, Elbek bolalar folklorini to'plash yo'lida qizg'in izlandi, 1937 yilda o'zi to'plagan asarlar asosida tartib bergan "Bolalar qo'shig'i" to'plamini nashr ettirdi.

Ikkinchi, 30-yillarning boshlarida "Bolalarga ertak kerakmi? Sehrli-fantastik ertaklar ular tarbiyasiga zararli emasmi?,- degan mavzularda boshlangan qizg'in bahs xalq ertaklariga munosabatni yanada chuqurlashtirishga xizmat qildi. Natijada xalq ertaklari syujetlarini turli shakllarda ijodiy interpretatsiya qilish va shu asosda bolalarni xalq fantaziyasi olamiga olib kirish bir muncha jonlandi. Bu hol bolalar epik poeziyasining yuksalishi va dramaturgiyasining oyoqqa turishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Sirasini aytganda, bolalarga atalgan badiiy adabiyot yaratish an'anasining dastlab adabiy ertak shaklida Daniel Defo, Jonatan Svift, Jan de Lafonten, Sharl Perro, Erix Rapse, aka-uka Yakov va Vilgelm Grimmlar, Vilgelm Gauf, Hans Kristian Andersen, Karlo Kollodi, V.Jukovski, P.Yershov va boshqalar ijodiyotida keng miqyosda namoyon bo'lganligi va o'zbek bolalar adabiyoti vakillarining ular tajribalarini ijodiy o'zlashtira boshlashlari jarayon qiyofasini belgilay berdi. Natijada folklor va yozma bolalar adabiyoti munosabatlari ikki tomonlama chuqurlashtirishga kirishdi:

1) Bolalar uchun ijod etish an`anasi hali yozuv bo`lmagan qadimgi zamonlardayoq onalar allalari, erkalamalari, ovutmachoslari, shuningdek, xalq ertaklari, topishmoqlari, taqvim va maishiy qo`shiqlari, butun bir tizim tarzida namoyon bo`luvchi o`yinlari shakllarida folklor bag`rida yuzaga kelgan edi. Binobarin, bolalar uchun ijod etish xalq pedagogikasi va etnografiyasi aqidalariga to`yintirilgan qadimiy an`ana bo`lib, uning ijodiy andazasi bolalarga mo`ljallangan ixtisoslashgan badiiy yozma adabiyotning vujudga kelishini ta`minlagan omil bo`ldi. Bu folklor va yozma adabiyot orasidagi genetik (bevosita) aloqa natijasi edi.

2) Folklor va yozma adabiyot orasidagi bilvosita aloqa esa bolalar adabiyotida folklorizmlarning xilma-xil ko`rinishlarini yuzaga keltirdi va bolalar adabiyotining xalqchillashuvini, g`oyaviy-badiiy barkamollashuvini, qiziqarliligi va tabiiy soddaligini ta`minladi. Shu tariqa o`zbek bolalar adabiyoti ham folklorga tayangan holda shakllana va rivojlana bordi.

Shuni ta`kidlash joizki, o`zbek bolalar adiblari xalq ijodiyoti namunalarini to`plash, nashr etish va bolalarga moslashtirish, folkloridagi janriy rang-baranglik va ifodaviy vositalardan ijodiy foydalanishda, asosan, tubandagi ikki yo`nalishda amal qildilar:

Birinchi yo`nalish-folklor namunalari (ertaklar, masallar, rivoyatlar, latifalar va hokazolarni) bolalar yoshi, saviyasi va ruhiga moslashtirib qayta ishlash yoki tadbil (interpretatsiya) qilish. Bu ijodiy jarayonning bosh sharti-asarning xalqchil ruhiga putur etkazmagan holda g`oyaviy-badiiy barkamolligini ta`minlash va shu asosda axloqiy-tarbiyaviy qimmatini oshirish hisoblanadi. Jumladan, xalq ertaklarini bolalarga moslashtirib qayta aytish an`anasi jahon xalqlari, xususan, rus bolalar adabiyotida anchagina tajribaga ega. Shukur Sa`dulla ana shu ilg`or tajribani o`rganish asosida nafaqat o`zbek, balki boshqa xalqlar ertaklarini ham bolalarga moslashtirib tabdil qilishda ma`lum natijalarga erishdi. Bu jihatdan, ayniqsa, uning 30-50-yillardagi izlanishlari samarali bo`ldi. Bu davrda u elliklan ortiq xalq ertagini bolalarga moslashtirib qayta ishladi va kichkintoylarga tortiq etdi. Bular "Ikki sandiq" (1945,1948), "Yoriltosh", "Uch tulki" (1947), "Qarg`aboy" (1948), "Tulki bilan turna" (1951), "Maqtanchoq quyon" (1953), "Ayyor tulki" (1955), "Ohanrabo" (1959) singari rasmiy kitobchalar tarzida nashrdan chiqdi. Shu nashrlar "O`zbek xalq ertaklari" (1948, 1955), "Chalpak yoqqan kun", "Bo`ri bilan tulki"(1969) kabi bolalarbop yirikroq majmualarning, shuningdek, "Xitraya lisa", "Uzbekskie narodno`e skazki" (1955), "Dva sunduka" (1963), "Den padayuhix s neba blinov" (1968), "Volk i lisa" (1970) singari rus tilidagi o`girma nashrlarning yuzaga kelishiga asos bo`ldi.

Sh.Sa`dulla xalq ertaklarini kompozitsion soddaligiga, xalqchilligiga, g`oyaviy yo`nalishiga putur etkazmay, zamon talablari doirasida axloqiy-tarbiyaviy qimmatga molik bo`lishiga diqqat qildi. Natijada ertaklar turli yoshdagi kichkintoylar uchun "hayot darsligi" vazifasini o`tay boshladi. Bu jihatdan adibning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun hayvonlar haqidagi ertaklarni qayta ishlashdagi xizmatlari e`tiborga arzigulikdir. Zero, u bu yoshdagi bolalarning diqqati beqarorroq bo`lishi, uzoq muddat davomida tinglash ularni tez charchatishini hisobga olib, hajmi katta ertaklarning ba`zilarini birmuncha qisqartirdi, ba`zilarini esa bir necha mustaqil ertakchalarga bo`lgan holda kichkintoylarga taqdim etdi.

"Bo`ri bilan tulki" ertagi, jumladan, xarakterlidir. Xalqimizda mashhur bu qadimiy ertak hajm jihatidan anchagina katta. Unda bo`rining yovuzligi va go`lligi, tulkining ayyorligi va olg`irligi zamirida o`tmishda zo`ravonlarning zolimligi fosh qilinsa, qo`zichoq, xo`roz, ot va qo`shchi chol obrazlari misolida mehnatkash xalqning ma`naviy go`zalligi va pokligi, aqlliligi va tadbirkorligi, samimiyligi va qasoskorligi realistik tarzda ifodalanadi. Ertak xotimasida Bo`rining o`lishi - zolimlik dunyosining chirishi, qulashiga timsol bo`lib, xalq optimizmining hayotbaxsh qudratini yorqin ko`rsatadi.

Sh.Sa`dulla bog`cha yoshidagi bolalarning katta hajmli bunday ertaklarni idrok qila olmasliklarni payqab, uning negizidabir-biridan mustaqil bo`lgan ikkita ertak yaratadi.

Ertakchalarning birinchisi " Och bo`ri" deb nomlangan.

U bo`rining qo`zichoq, cho`pon va qirchang`i bilan munosabatlari epizodlarini o`z ichiga oladi. Ertak go`lligi tufayli otdan qattiq tepki egan bo`rining o`limi bilan xotimalanadi. Bunday yakun ertakning kompozitsion yaxlitligini ta`minlagan. Qizig`i shundaki, Sh. Sa`dulla keyinchalik xuddi shu ertak asosida, aynan shu epizodlarni o`z ichiga olgan "Och bo`ri, sho`x qo`zi va qirchang`i" she`riy ertagini ham yaratdi.

"Chol bilan bo`ri" - ertaklarning ikkinchisidir. Bu asarga endi soddadillikda xalq ertagidagi qo`shchidan qolishmaydigan qop ko`targan chol va bo`ri munosabatlari epizodi asos qilib olingan. Chol o`z rahmdilligi va soddaligi tufayli bo`rining "qopqoniga" tushadi. Ertakni tinglayotgan kichkintoy cholga achinadi, unga rahmi keladi. Bu esa unda insonga muhabbat tuyg`usini tarbiyalaydi. Ammo ayyor tulkining tadbirkorligi bilan bo`ri tajovuzidan qutulgan cholni ko`rib -quvonadi kichkintoy. Bu ertak ham bo`rining o`limi bilan tugallanib, xalq optimizmining barhayot qudratini kichkintoylar qalbiga ko`chiruvchi, kompozitsiyasiga ko`ra mustaqil asardir. Adib xuddi shu ertak asosida keyinchalik kichkintoylar uchun "Chol bilan bo`ri" nomli kichik she`riy pesa ham yozgan.

"Sholg`om", "Bo`g`irsoq", "Bo`ri va echki bolalari" kabi qaytariqlar negizida qurilgan "Qarg`a va qo`zi" ertagi ham Sh. Sa`dulla qalami ostida uch marta sayqal topdi. "Qarg`avoy" nomida maxsus suratli kitobcha holida nashr etilgan varianti bilan "Ayyor tulki" kitobchasidagi variantining syujeti, tasviridagi ba`zi so`z o`zgartirishlarni istisno qilganda, deyarli bir xildir. Ammo "O`zbek xalq ertaklari" to`plamidagi variantining xotimasi yuqorida qayd qilingan ikki variantidan ancha farq qiladi.

Avvalgi ikki variantda qarg`a suvga cho`ksa, keyingisida bo`ynini olmos o`roqning qirqishiga fahmi etmaganligidan o`z ajaliga o`zi zomin bo`ladi. Umuman, qarg`aning qazosi - tajovuzkor zolim hamisha o`limga mustahiq degan xalqona aqidaning majoziy isboti. Bu ma`no ijobiy qimmatga ega bo`lib, "Qarg`avoy" va boshqa "har bir bola ertagida faqat kattalargina tushuna oladigan ikkinchi bir ma`no!" mavjudligini, binobarin, har bir afsona zamirida real haqiqat yotganligini oydin ko`rsatuvchi ertaklarga xos fazilat ham.

Ammo unutmazlik kerakki, bu ijtimoiy ma`noni bog`cha va kichik yoshdagi kichkintoylar hali anglab bilmaydilar. Chunki ularning tushunchasida yaxshi va yomon, issiq va sovuq, yumshoq va qattiq singarilarnigina ajrata borish endigina ma`lum jarayonga aylanayotgan bo`ladi. Shunga qaramay, kichkintoy antipatiyasini qo`zg`agan bo`ri, qarg`a va boshqa yovuzlik timsolidagi kuchlarning o`limi kichkintoylarni achintirmaydi, yomonlik ustidan yaxshilik kuchlarining tantanasi tinglovchi-kichkintoylar qalbiga ma`qul tushadi va ularning muhabbatini qozonadi.

Hayvonlar to`g`risidagi ertaklarning bog`cha va kichik yoshdagi bolalarga muvofiq keladigan yana bir muhim fazilati-ularga syujetning tartibli va to`xtovsiz harakat negizida voqe bo`lishi, dialoglarning muntazamiyligi va ko`pligi, sodda va aniq ifodalarning mavjudligi hamda bular barchasining o`zaro munosibligidir. Bu esa ertaklarning o`qimishlilikini ta`minlagan sirlari sanaladi.

Shukur Sa`dulla ham, ta`bir joiz bo`lsa, ertaklarni qayta ijod etish jarayonida har bir hayvonning, qushning o`z ovozi, xarakteriga xos harakatlarini ishonarli va tabiiy holda ifodalashga e`tibor berdi. Bu jihatdan "Qarg`avoy" ertagidagi tubandagi dialog e`tiborga loyiq:

"Qarg`a uchi borib, qo`zichoqning qoq beliga qo`nibdi.

-Kish!- debdi qo`zichoq.

-Q-o-o-r, q-o-r-r-debdi qarg`avoy.-Qo`zichoq, qo`zichoq, men seni eyman.

Qo`zichoq qo`rqib ketibdi.

-Rahm qil,- debdi u ingichka ovozi bilan ma`rab. Ma-an ha-li yoshman. Rahm qil.

Me-ni ema!" .

Ko`rinayotirki, "q" tovushining allireratsiyasi qarg`a ovozig-a-nutqiga dag`dag`ali ohang baxsh etgan. Bu ohangda qarg`aning yovuz niyati va ochko`zligi oshkora bo`rtib turibdi. Axir qarg`a qag` etadi-da!.. Ana shu ovoz tinglovchi-o`quvchini qarg`aning barcha harakatlariga ishontira boradi.

Qo'zichoqqa esa- ma'rash xos. Shu sababli uning iltijolari "m" tovushining alliteratsiyasi jarayonida yanada ishonchli chiqqan. Hayotda qarg'a emas balki quzg'un qo'zi eydi. Ammo kichkintoyning murg'ak ko'zi bu haqiqatni ilg'ay olmaydi. Qo'zi qarg'aga avval yuvinib, so'ngra esa-roziligin ma'lum qiladi. Kichkintoyga xuddi shu ovqatlanishdan oldin yuvinish-shaxsiy gigienik qoidalarga rioya qilish to'g'risidagi o'git ta'sir etadi. Xuddi shu ta'sirchanlik tufayli kichkintoy qarg'aning barcha harakatlarini-suvga, undan kulolga, kuloldan tuproqqa, shu tariqa kiyikka, temirchiga, sigirga, o'tga va hokazolarga galma-gal borib murojaat etishiga tabiiy deb qaraydi. Natijada qarg'a va qo'zichoqning, qolaversa, barcha hayvonlar to'g'risidagi ertaklar qahramonlarining odamlar singari gapirishlari kichkintoyni shubhalantirmaydi. Shaxsiy kuzatishlari va ijobiy tajribasiga suyangan ukrain ertaknavis adibi Ivan Franko bu haqda to'xtalib, shunday yozgan edi: "Bolalar insonlar (aniqrog'i, o'zlari) bilan hayvonlarni o'zlaridan ko'ra aqlliyoq, mug'ombirroq hisoblashadi. Bolalar o'z o'yinlariga oid hikoya ayta boshlashsa, it, mushuk yoki boshqa hayvonlar to'g'risida gapirayotganini butkul unutishib, go'yo o'z o'rtoqlari haqida gaplashayotganday: "Biz tulki bilan qayoqqadir ketdik", "Dada, bu g'oz mendan nima istaydi o'zi- menga g'ag'illagani- g'ag'illagan!" "Bu mushukchaga aytasangiz-chi, tinch qo'ysin!" va hokazo deya so'zlashadi" l Sh. Sa'dulla tabdilida ham qarg'aning har bir hatti-harakati nutqida shu xilda aniq ifodasini topgan.

Umuman, xalq ertaklari ustidagi bunday qizg'in ijodiy faoliyat jarayonida Sh. Sa'dulla ko'p narsa o'rgandi: xalq ijodiy laboratoriyasi sirlaridan ogoh bo'ldi, xalqona so'zlash ohangini teranroq his eta boshladi, xalq tiliga xos soddalik, tabiiylik, donolik, burrolik, samimiyluk, qochirimdorlik kabi xususiyatlarni o'zlashtira bordi. O'z asarlarida folklorga xos tasviriy vosita va usullardan unumli va o'rinli foydalanishga intilib, ma'lum natijalarga erishdi.

Ikkinchi yo'nalish-folklor syujetlari asosida she'riy, nasriy va dramatik asarlar ijod etish yoki stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar. Bu yo'nalish barcha xalqlar bolalar adabiyotlari ravnaqida etakchi omillardan hisoblanadi.

Folklorshunos B.Sarimsoqov fikricha, "stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar o'z xakteri jihatidan ikkiga bo'linadilar:

a) "ijobiy xakterdagi stilizatsiya asosida yuzaga kelgan folklorizmlar. Bu tipdagi folklorizmlar, asosan, folklor materiallarining ham g'oyaviy, ham mazmuniy jihatlariga tayangan holda ularni yangi shaklda qaytadan ishlov berish tufayli yuzaga keladi. Folklor asarlaridagi o'lmas g'oyalarni xalq ommasiga yanada kengroq yoyish, ular orqali xalqning axloqiy, estetik talablarini to'laroq qondirish ehtiyoji, ijodkorning shaxsiy mayli va uslubi talablari asosida ijobiy xakterdagi stilizatsiya folklorizmlari yaratiladi". Bu sohada jahon bolalar adabiyotining ilg'or namoyandalari ijodiy tajribalaridan o'rganish ham o'zbek bolalar yozuvchilari uchun o'ziga xos maktab vazifasini bajardi.

O'zbek so'z san'atkorlari faqat o'z xalqining boy folklori materiallaridan ijodiy foydalanish bilangina cheklanmadilar, balki jahon, ayniqsa, qardosh xalqlar og'zaki ijodini ham qunt bilan ijodiy o'rgandilar va undan ilhomlandilar. Ayniqsa, bunda ertak janri imkoniyatlarining kengligi yana qo'l keldi. Natijada o'zbek bolalar poeziyasida, prozasida va dramaturgiyasida bevosita va bilvosita folklor materiallari va ularning ijobiy ta'siri negizida bir qancha asarlar maydonga keldi.

Folklor syujetlaridan ijodiy foydalanib she'riy ertaklar yozish, ayniqsa, an'anaviy tus oldi. O'zbek bolalar poeziyasidagi bunday she'riy ertaklarni material manbalariga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Nuqul o'zbek xalq ertaklari syujetlarini ijodiy o'zlashtirish asosida yozilgan she'riy ertaklar. Bu asarlar ham o'z janriy xususiyatlariga ko'ra doston-ertak, naql-ertak, masal-ertak, maqol-ertak, topishmoq-ertak singari oraliq shakllarga ega. Jumladan, Hamid Olimjonning "Oygul balan Baxtiyor", "Semurg' yoki Parizod va Bunyod", Mirtemirning "Ajdar", Q. Muhammadiyning "Bir o'zboshimcha chumchuq haqida", "Mushuk nega pixillaydi", Sh.Sa'dullaning "Laqma it", "Och bo'ri, sho'x qo'zi va qirg'anchi", "No'xat

polvon", A.Rahmatning "Qaldirg'och, ilon va beshiktartar haqida ertak", P. Mo'minning "O'qigan qushlar va beqaror chittak", Q.Hikmatning "Ko'milgan oltin, vaysaqi xotin va tadbirkor ovchi qissasi", "Ilonshoh va uning amaldori ari haqida ertak", S.Qo'qonboevning "Shoxsiz shoxdor", "Kuch emas, aql bilan", "Birlashgan o'zar", Y.Shomansurning "Qari bilganni, pari bilmas", M.A'zamning "Erk qushi", S.Barnoevning "Baxt qushi", O.Hojievaning "Oq kaptar va Qorashoh", E.Rahimning "Echki boy, serkavoy, qoplon va och bo'ri haqida ertak", "Baqa va ilon haqida ertak" kabi asarlari shu guruhga mansubdir.

2. Jahon ertaklari syujetlaridan ijodiy foydalanish natijasida yozilgan bolalarbop she'riy ertaklar. Bu silsilaga Sulton Jo'raning tojik xalq ertagi asosida yozgan "Zangori gilam", Z.Diyorning boshqird xalq ertagi negizida yaratgan "Burgut", Q.Hikmatning qozoq ertagidan ijodiy foydalanib yozgan "Chovkar", P.Mo'minning koreys ertagini ijodiy o'zlashtirish asosida yaratgan "Dono bola", E.Rahimning turk xalq ertagidan foydalanib ijod qilgan "Eng katta boylik", shuningdek, A.Rahmatning hind eposi "Kalila va Dimna" ta'sirida yozgan "Tulkining hiylasi" singari o'nlab asarlarni kiritish mumkin.

Alohida e'tirof etish zarurki, o'zbek bolalar she'riyati janr stilizatsiyasi asosida folklorning masal, latifa va boshqa janrlarida yaratilgan qator poetik shakllar hisobiga ham tobora boyimoqda. Bu jihatdan Uyg'un va Sh.Sa'dullaning adabiy latifalari, Ya.Qurbon, O.Qo'chqorbekov, M.Xudoyqulov masallarini ta'kidlab ko'rsatish kifoya.

O'zbek bolalar prozasining rivojlanishida ham folklorning ta'siri samarali bo'ldi. G'.G'ulomning "Shum bola", Sh.Sa'dullaning "Kachal polvon", P.Qodirovning "Najot" kabi salmoqli asarlarining paydo bo'lishida xalq latifalari, qo'g'irchoq teatri repertuariga daxldor xalq dramasi va "Uch og'ayni botirlar" ertagi syujetidan ijodiy foydalanish muhim rol o'ynadi. Bunda ham janr, ham syujet, ham motiv, ham obraz stilizatsiyasi o'zaro sintezlashgan holda namoyon bo'lgan.

Folklor syujetlarining ijodiy qayta ishlanishi natijasida bolalarga atalgan qator sahna asarlari bunyodga keltirildi.

30-yillarda bu sohadagi ilk yutuqlar sifatida Sh. Sa'dullaning "Yoril tosh", D.Oppoqovanning tatar xalq ertagi asosida yozilgan "Xamir botir", Y.Arbatning "Nasriddin Afandi" pesalarini ko'rsatish mumkin bo'lsa, o'zbek bolalar dramaturgiyasining keyingi taraqqiyotida M.Sheverdinning "Egri va to'g'ri" (1954), I.Ahmedov va O.Tolibovlarning hamkorlikda yozgan "Sirli sandiq" (1956), A.Bobojonovning "Oygul bilan Baxtiyor" (1957), Zulfiya va S.Somovalar hamkorlikda yaratgan "Simurg" shuningdek, Sh.Sa'dullaning "Chol bilan bo'ri", "Afsona yaratgan qiz", P.Mo'minning "Ona bolam deydi, bola onam deydi", Anvar Obidjonning "Pahlavonning o'g'irlanishi" va "Qo'ng'iroqli aldoqchi" singari sahna asarlarining roli kattadir. Bunday holatlarda ijodkor, asosan, ijodiy o'zlashtiruvchi rolinigina o'taydi. Zero, bu xildagi "O'zlashtirish hamma vaqt ham buzish degan emas, gohi paytda u yaxshi narsaga bebaho narsa qo'shadi. Uzoq o'tmishdagi ertaklarni har bir irq, millat, har bir sinfning turmush xususiyatlariga ko'ra o'zlashtira olish va kamchiligini to'ldirish jarayoni aqliy madaniyat va xalq ijodiyotini o'stirishda katta rol o'ynashiga shubha qilmasa ham bo'ladi". Bu jihatdan Hamid Olimjonning xalq ertaklari syujetiga ijodiy munosabat asosida yaratgan ertak-dostonlari e'tiborga loyiq.

"b) salbiy xarakterdagi stilizatsiya asosida yuzaga kelgan folklorizmlar. Bu tip folklorizmlar asosida yaratilgan asarlarda, asosan, zamonaviy mavzular qalamga olinsa-da, biroq ular an'anaviy folklorga xos tasvir vositalari, xullaski, shakliy komponentlar vositasida tasvirlanadi".

Folklor janrlarining kompozitsion qulayliklari -ommaviyligi bolalarga atab yoziladigan asarlar uchun g'oyat muvofiqdir. Bolalar adiblari bu haqiqatni chuqurroq anglay borganlari sari ko'proq ijodiy kamolotga erishayotirlar. Ular xalq syujetlariga monand syujetlar o'ylab topa boshladilar. Bunday to'qima adabiy syujetlar ko'pincha hayot voqeligini doim kuzatish va undan oziqlanishning, shuningdek, biror maqol va matalning mazmunini voqeaband tafsilot vositasida kichkintoylarga etkazish niyatining natijasi bo'lib

tug'ildi. Bu esa ularning xalq syujetlari negizida yozilgan asarlardan farq qiluvchi xoslik belgisi sanaladi. Shu sababli bunday asarlarni janr e'tiborlariga ko'ra adabiy ertaklar, doston-ertaklar, adabiy masallar, adabiy latifalar deb atash to'g'riroqdir. Unutmaslik kerakki, bunday adabiy asarlarda ham xalq ertaklariga xos tasviriy vosita va usullar: allegoriya fantaziya, giperbola, antroporfizm, shuningdek, tildagi qator an'anaviy belgilar san'atkorning iqtidor va malakalari darajasida saqlanadi. Bu jihatdan, ayniqsa, adabiy ertaklarning bolalar poeziyasini taraqqiy ettirishdagi roli katta bo'ldi. Kichkintoylarni voqeligimiz ruhiga olib kirishda, ularga hayotdan saboq olishni va odam tanishni o'rgatishda S.Jo'raning- "Qaldirg'och", Z.Diyorning "Yuksak tog', keng o'tloq va mard o'rtoq haqida qissa", Q.Muhammadiyning "Qo'ng'izoy va sichqonboy", "Sandal va pechka", "Chivin urishqoq va shamol polvon haqida", "Dono bobo va uning 101 nevara-chevaralari", Sh. Sa'dullaning "Bir tuxum tarixi", "Bir yallachi va bir o'yinchi", "Yalqov ayiq", "Revoch haqida ballada", "Qurumsoq", Po'lat Mo'minning "Kecha, bugun va erta haqida ertak", "Tish cho'tka, paroshok va atirsovun ertagi", "Gaz polvon ertagi", "Cho'lining cho'lga xati", Safar Barnoevning "Oltin shahar haqida afsona", "Vijdon", "Qo'g'irchoqlar podshosi", Tunsunboy Adashboevning "Nur daryo", "Uch bo'taloq va sirli qovoq", Miraziz A'zamning "Chumolloy bilan arioyning sayohati", "Erk qushi", Anvar Obidjonning "Odil Burgutshoh" va "Zamburug' laqabli josus haqida ertak", Tohir Qahhorning "Ko'zga ko'rinmas maxluq", Hamza Imomberdievning "Ajdaho komida", Muhammadjon Rahmonning "Momoqaymoq", Nurali Qobulning "Odam, oyoqortog' va daydi shamol haqida ertak" kabi ko'pgina adabiy she'riy ertaklarning axloqiy-estetik qimmatini kattadir. Bu asarlar o'zbek bolalar epik poeziyasining xalqchil zamonaviy namunalari hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, XX asrning 60-80-yillarida bolalar adabiyoti vakillarining folklorga ijodiy munosabati yanada chuqurlasha bordi. Bu davrda ular folklorning qator janrlariga xos shakl va ifoda usullarini ijodiy o'zlashtirishga alohida rag'bat ko'rsata boshladilar, natijada bolalar epik poeziyasida she'riy adabiy ertakning qator ichki ko'rinishlari bilan birga adabiy topishmoq, adabiy tez aytish, adabiy latifa, prozada esa adabiy nasriy ertak, ertak-qissa singari oraliq shakllar yuzaga keldi. Nasriy adabiy ertak janrida T.G'oyibov, P.Muhammadyorova, A.Abdurazzoq, M.Murodov, A.Irisov, Y.Shukurov, Y.Sa'dullaeva, S.G'afurov, R.Farhodiy va R.Tolibovlar izlangan bo'lsalar, Obidjon "Dahshatli Meshpolvon" (1989) ertak-qissasini yaratib, janrning yangi voqelik asosidagi jilosini ta'minladi. Bugina emas, u "Pahlavonning o'g'irlanishi", "Qo'ng'iroqli aldoqchi", "Qorinbotir" singari ertak-pesalari bilan folklor syujetlari tipidagi zamonaviy bolalar dramaturgiyasini boyitishga hissa qo'shdi. Bu jihatdan u Po'lat Mo'minning "Qovoqvoy bilan Chanoqboy", "So'qatoy va Konfetboy", "Ona bolam deydi, bola onam deydi", G'ani Jahongirovning "Ajoyib urug'", O.Tolibov va I.Ahmedovlarning "G'ayrat va g'aflat", Ergash Raimovning "Qorboboning yangi yil sarguzashtlari" va Rahim Farhodiyning "O'tkir shoxli buqacha" singari ertak-pesalarida ko'ringan salbiy xarakterdagi stilizatsiyalash usulini yanada chuqurlashtirdi va bu an'ananing hayotiyiligini ta'minladi. Bu ertak-pesalarda nafaqat syujet qurilishida, balki obrazlar xatti-harakatlarida, nutqida, xilma-xil ifodaviy vositalarda ertaklarga xos fantastik unsurlar, tasviriy vositalar etakchi taomilga aylangan.

Shunisi muhimki, bu davrda maktabgacha yoshdagi kichkintoylar va kichik yoshdagi maktab o'quvchilari uchun nasriy adabiy ertak janrida bir qadar faolroq munosabatda bo'lindi. Garchi bu janrda turli mavzularda xilma-xil maqsadlarni ko'zlab asarlar yozilgan esa-da, ularning badiiy saviyasi har xil darajada qolib ketdi. Shunga qaramay, "Makkajo'xori", "Tovus va Hakka", "Hovliqqan ilon", "Marsdan kelgan odam" (T. G'oyibov), "Olazarak", "Ayyorning jazosi", "O'rmondagi jang" (A.Abdurazzoq) "To'rt ko'prik", "Kim eng kuchli" (M.Murodov), "Tomchi haqida ertak" (O'.Hoshimov), "To'ng'ich o'g'il" (P.Muhammadyorova), "G'oz-hunuring oz" (S.G'ofurov), "Sehri daraxt" (R. Farhodiy) singari xilma-xil mavzulardagi quvnoq va mushohadali ertaklar dunyoga keldi. Mualliflar bu asarlarida ertakka xos fabula va shakl qurilishigagina emas, balki til va

ichki ifoda usullariga amal qilib, zamon dardlari bilan kichkintoylarni oshno qilishga harakat qilganlar. Chunonchi "Ko`prik" ertagining personajlari Qunduz, Ayiq, Fil, Sher, G`oz, O`rdak, Laylak, Bulbul va Qizilishton kabi hayvonlar va qushlar bo`lib, ular o`zaro ahillikda ikki qirg`oqni bir-biriga tutashtiruvchi ko`prik quradilar. Ko`prik qurish niyati ularni o`zaro hamkor bo`lishga undaydi, biroq Tulki ularga pand berib "tayyorga ayyor" bo`lishga intiladi, ertakda u oxirda "izza bo`lib" qoladi. Ertak bolalarda ahillik kuchini his qilish tuyg`usini tarbiyalaydi. "Olazarak" ertagining asosiy personaji- Zag`izg`on. U baland daraxtda mustahkam in qurib, uni "qushning jonidan boshqa hamma narsa"ga to`ldiradi va "ziynatlaydi". Ammo hatto uyimni boshqa qushlar bilib qolishsa, o`g`rilikka tushadi, degan xavotirda yashaydi. Uning olazarakligi shundan. Nopok yo`llar bilan to`plagan boylik uni muttasil tashvishda yashashga mahkum etgan. Adib kichkintoyga ana shunday axloqiy saboq beradi.

5-mavzu:Alisher Navoiy ijodi bolalar kitobxonligida

Reja:

1. Alisher Navoiyning "Xamsa" turkumiga kiruvchi dostonlarida ilgari surilgan ta`lim-tarbiyaga oid g`oyalar.
2. Alisher Navoiyning pand-nasihat mazmunidagi asarlarida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta`limiy qarashlar.

MAVZUGA DOIR TAYANCHTUSHUNCHALAR: *mumtoz, kitobxonlik, navoiyxonlik, didaktik, axloqiy, maqolat, tanbih, o`git, imon, islom, salotin, axloqiy-ta`limiy, xulq-odob, mehnatsevarlik, saxovatpeshalik, mehribonlik, adolatpeshaliki, karam, saxiylik, baxillik, navogo`, doya, dostonasaro, odil podsholar, beklar, nomunosib noyiblar (o`rinbosarlar), diyonatsiz sadrlar (mansabdorlar), maqtanchoqlar, yasovullar, lashkarlar, shayxul-islom, qozilar, qonunshunos muftilar, mudarrislar, tabiblar, mutasavvufklar (bularni nazm gulistonining xushovoz qushlari deb ataydi muallif), kotiblar, maktab ahli, mutrib va mug`anniylar, ashulachilar, qissago`ylar, va`zxonlar, munajjimlar, savdogarlar, kosiblar, xalq amaliy san`ati ustalari, mirshablar, zindoniylar, qorovullar, dehqonlar, bezorilar, g`arib va bechoralar, gadoylar, qushchilar va ovchilar, uylanish va xotinlar, riyokor shayxlar, xarobot ahli-rindlar haqida batafsil ma`lumotlar berarkan, feodal jamiyat, abitsedariy, mufradot, murakkabot, muqattaot, chiston, lug`z, hiyo, abjad, bayt, alifbe-manzuma...*

To`rt asrdan ziyodroq davr mobaynida Alisher Navoiy asarlarini xalqimiz qo`lyozma kitoblar (devonlar, bayozlar va tazkiralardan) o`qib o`rgandi, shoir g`azallari negizida yaratilgan qo`shiqlar ham navoiyxonlikda ayricha ahamiyat kasb etdi. Maktablarda ham, madrasalarda, davra va suhbatlarda ham shoir asarlariga rag`bat tobora kuchaya bordi.

Xususan, XIX asrning so`nggi choragidan e`tiboran shoir asarlarini ko`p sonli adablarda toshbosma (litografiya) va tipografiyalarda chop etish yo`lga quyilgach, bu jarayon yanada chuqurlasha va kengaya bordi. XX asrda Navoiy asarlarini o`qib-o`rganish o`rta va oliy maktab dasturlaridan keng o`rin oldi, asrning oxirlariga borib esa, bog`chalar ta`limi doirasiga ham kiritila boshlandi. Shu zaylda turli yoshdagi kitobxonning o`z Navoiysi qad rostlaydigan bo`ldi. Shu ehtiyoj "Xamsa" dostonlarining, shuningdek, "Lison ut-tayr" va "Mahbub ul-qulub" asarlarining hozirgi adabiy tilda qayta aytilgan nasriy bayonlari va tabdillarini yaratishga, qolaversa, kichik yoshdagi bolalarga mo`ljallangani "Qiziq hikoyalar"(1991) nashrini amalga oshirishgacha olib keldi.

Buyuk gumanist bolalarga kelajak sohiblari sifatida qaradi, shunga ko`ra ularning tarbiyasiga alohida e`tibor berish zarurligini uqtirarkan, bu sohadagi axloqiy qarashlarini "Xamsa" dostonlarida, xususan, dastlabki uch dostoni-"Hayratul-abror" ("Yaxshilarning hayrati"), "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun"da, shuningdek, "Lison-ut-tayr" ("Kush

tili"), "Mahbub ul-qulub" ("Qalb sevgilisi") hamda "Arbain hadis" ("Qirq hadis") kabi asarlarida olg'a surdi. Bu asarlar bolalar navoiyxonligida ayricha mavqe hosil qilib keldi.

Alisher Navoiy komil insonning shakllanishi bolalikdan boshlanajagini nazarda tutib, Farhod va Majnunlarning bola sifatida ulg'ayish jarayonlarini ko'rsatishga alohida e'tibor berdi. Farhod tirnoqqa zor Chin mulkingning shohi xonadonida tug'iladi, bu orziqib kutilgan xurramligu ushalgan armonning nishonasi edi. Shu sababli shoir murg'akkina chaqaloqni tubandagicha tanishtiradi:

Ko`zida ashk selidan asarlar,
Damida oh dudidin xabarlar.
Muhabbat nuri olinda huvaydo,
Jamolida vafo tug`rosi paydo.
Falak deb dard elining shohi oni,
Malak deb dard o`ti ogohi oni.

Bu chizgilarda chaqaloqning kelajagiga daxldor bashorat tajassum topgan, ya'ni, yig'lab dunyoga kelgan bu chaqaloqning nafasida ne-ne mashaqqatlarni kechajagidan xabar berguvchi ohlar tutuni o'rlab turgan ekan. Manglayida esa muhabbat nuri porlayotganidan chehrasidan vafo tug'ro(tamga)sining barqi mavjud. Osmon uni barcha dardlilarning shohi timsolidagi farishta qilib yaratgan go'yo, u barchaning dardidan "ogoh"-xabardor o'g'lon bo'lib dunyoga kelgan. Shu bois uning nomi ham o'ziga mos bo'lmog'i, hadisda aytilganiday, o'z ota-onasidan oladigan birinchi mukofoti munosib ism bo'lmog'ini asoslarkan, shoir dastlab bunday o'g'ilga ota bo'lish nasib etgan shohning ruhiy holatini shunday ifodalaydi:

Ato ul durga chun nazzora qildi,
Sadafdek og`zi kulmakdin yoyildi.

Shundan so'ng shoir chaqaloqqa ism qo'yish tafsilotiga o'tadi. Unga tanlangan ism qismatiga daxldor besh so'zning bosh harflaridan tuzilgan: "firok"dan-"f", "rashk"dan-"r", "hajr"dan-"h", "oh"dan-"o" va nihoyat, "dard"dan-"d" harflarining bir-biriga "murakkab" qilinishi asosida yuzaga keltirilgan, uni bunyodga keltirgan "ustodi ishq"ning irodasi shunday:

Anga farzona Farhod ism qo`ydi,
Hurufi maxzanin besh qism qo`ydi.
Firoqu rashku hajru oh ila dard,
Biror harf ibtidodin aylabon fard.
Borin ustodi ishq etgach murakkab,

Tarakubdin bu ism o`ldi murattab.

Ko'rinayotirki, chaqaloqning tug'ilishi-jismoniy hodisa bo'lsa, unga ism qo'yish-ma'naviy hodisa. Navoiy chaqaloqning jismoniy ulg'ayishini ma'naviy ulg'ayishga omuxtalashtirgan holda tasvirlashga ayricha e'tibor berarkan, bunda dastlab, allaning nechog'li katta ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi:

Arusi charx tun-kun doya kirdor,
Bo`lib har tavrai holidin xabar dor.
Beshik davrida chiniyu xitoyi,
Bo`lib yuz no`sh lab dostonsaroyi.
Ko`zining nozi eldin eltib uyqu.
Anga uyqu keturmakka navogo` (2).

Doya tun-kun uni parvarish qilib, "dostonsaro"lik, ko'zlariga noz uyquni chorlash uchun "navogu"lik qilib allalar aytib, quvnab-yashnab ulg'ayishiga ma'naviy asos solganliklaridan u bir yoshni to'ldirganidayoq, oyoqda turadi: beshikni tark etib mustaqil yura boshlaydi. Shu zaylda u hammaning suyumlisi bo'lib ardog'lanadi.

Bu yanglig` chun bir o`ldi yoshi oning,
Sharaf durriga yetti boshi oning.
Qadam urdiyu tarki mahd qildi,

Kuyub emgak, yururga jahd qildi (3).

Falakning aylanishi tufayli u ana-mana deguncha uch yoshga to`lib, so`zlarni durday terib, ishq afsonalarini so`zlaguvchi bo`ldi. Shoir tasvirida uch yashar Farhod o`n yashar boladay fikr yuritishi bilan barchani taajjublantira boradi:

Chu uch yoshiga chekti davri aflok,
Takallum qildi andoqkim duri pok.
So`z bori bo`lib afsonai ishq,
Malomu maskani koshonai ishq,
Ajabdur uch yoshida o`zga atfol,
Nechukkim o`n yoshida o`zga atfol (4).

Navoiy bola ma`naviy kamolotida ustoz-tarbiyachining rolini shu xilda baholaydi. Farhodning uch yasharligidayoq, bu qadar ham jismoniy, ham axloqiy- ma`naviy kamol topishida, albatta, unga murabbiylik qilgan doya va allalagan "navogo" hamda "dostonsaro"lar xizmati katta edi. Shu sababli endi unga saboq berish uchun "hakimi nuqtadon" kerakligini ota o`z vaqtidayoq tushundi:

Ato bu nav` ko`rgach ish hisobin,
Munosib angladi ilm iqtisobin.
Keturdilar hakimi nuqtadone,
Bilik birla jahon ichra jahone (1).

Farhod shu xilda nuqtadon ustoddan "falak mushkilotlari" va ularni yechish yo`llarini o`rganishga kirishdi, "quyosh yanglig` yorug`" fikri bilan "uchinchi oy ravon bo`ldi savodi". "Qur`on"ni yod oldi. Uning zehni shu qadar tez ediki:

Agar bir qatla ko`rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo`q erdi ul varaqni.
Ne so`znikim o`qib ko`ngliga yozib,
Dema ko`ngliki, jon lavhiga qozib.
O`qub o`tmak, uqib o`tmak shiori.
Qolib yodida safha-safha bori.

Alisher Navoiy ta`limni "o`qish va uqish" prinsipi asosida tashkil etishni bundan besh yarim asr muqaddam Farhodni tarbiyalash vositasi sifatida ko`rsatib o`tgan edi. Majnun tarbiyasida ham Navoiy shu yo`lning maqbulligini yana ta`kidlaydi. Majnunni ham 4-5 yoshlar oralig`ida bir "hunarvor ustod"ga berilganini, u ham bunda o`z qobiliyatini namoyish etganini shunday ifodalaydi:

Kun bor edikim besh-un sabaqni
Anglab evurar edi varaqni.

Navoiy bolalarni tarbiyalashda Farhod va Majnun timsollarida ideal namunalarni kursatdi.

Navoiy bolalar tarbiyasida axloqiy qarashlarning muhimligiga ham alohida ahamiyat berdi. Bu jihatdan "Xamsa"ning kirish dostoni sanaluvchi "Hayrat ul-abror" hamda eng so`nggi asari "Mahbul-qulub" favqulodda qimmatga ega.

"Hayratul-abror" ("Yaxshilarning hayrati") dostoni 1488 yilda yozilgan bo`lib, 64 bobdan tarkib topgan. Jami 3988 bayt (7976 satr)dan iborat. Dostonning 21 bobi-muqaddima, 40 bobi-asosiy qismi bo`lib, 20 maqolot, 20 hikoya va masaldan tashkil topgan. So`nggi 3 bobi-xotimasidir.

Dostonning asosini 20 maqolot tashkil etadi, hikoya va masallar ularga ilovalar sanaladi. Dastlabki to`rt maqolot imon, islom, salotin va "riyoyi xirqapo`shlar suluki" haqida bo`lib, keyingi maqolotlarda axloqiy tushunchalar xususida bahs etadi. Shoir olg`a surgan axloqiy-ta`limiy qarashlar silsilasida xulq-odobni, mehnatsevarlikni, saxovatpeshalikni, mehribonlik va adolatpeshalikni, umuman, insonni sharaflovchi ezgu fazilatlarini targ`ib etish va insonni tubanlashtiruvchi yaramas odat va xislatlarni shafqatsiz tanqid qilish yetakchi tamoyildir. Jumladan, beshinchi maqolatda karam xususida mulohaza yuritiladi. Unda saxiylik bilan baxillik bir-biriga qarshilantirilib, axloqiy mohiyatiga baho beriladi.

Shoir talqinicha, saxovat-olijanob insoniy fazilat, lekin uning o`ziga xos shartlari bor. Bular tubandagilar; a) saxovat ehtiyojga nisbatan beminnat bo`lganidagina joizdir; b) saxiylik deb to`kib sochish -isrofdir; v) kimdandir tama`girlik bilan saxovat kutish-haromdir. Binobarin :

Oni saxiy anglagil, ey xushmand,
Kim ani davlat qilibon sarbaland.
Holi agar yaxshi durur, gar taboh,
Kimsadin etmas tama`i molu joh,.
Har neki haq, bersa qanoat qilur,
Ham neki amr etsa itoat qilur.

("Ey hushyor odam, sen shunday odamni saxiy deb bilki, baxt-davlat uning boshini yuqori ko`tarib, ahvoli yaxshi bo`lsa ham, yomon bo`lsa ham birovdan molu amal tama` qilmasa. Bunday odam xudo nima bersa-qanoat etadi, nimani buyursa-bo`ysunadi". ("Hayratul-abror", Nasriy bayon qiluvchi A. Hayitmetov. T., G`ASN, 1974, 49-6.) Navoiy saxovatni shu xilda tushuntirarkan, kishilarning saxovatiga ko`z tikishdan ko`ra o`z qo`l kuchi bilan kun ko`rish naqadar olijanob insoniy fazilatligini ko`rsatish maqsadida "Hotami Toyi hikoyati"ni keltiradi.

To`qqizinchi maqolotda ishqni vasf etsa, o`ninchi maqolotda rostgo`ylik va to`g`rilikdan bahs yuritadi. Bunda shoir xilma-xil o`xshatishlar vositasida rostgo`ylik va to`g`rilikni yolg`onchilik va egrilikdan afzallik xususiyatlarini ochib beradi. Nihoyat yolg`on so`zlashi tufayli ovchi tuzog`iga ilingan durroj (tustovuq) holatini bayon etuvchi "Sher bilan durroj" masalini keltiradi. Masalda keltirilishicha, bir beshada sher yashar, har gal bolalasa, chumolilar (mur) uning bolasini nobud qilaverganidan yurak oldirib kuygandi. Shu sababli:

Tishlabon ul moyai payvandini
Og`zida asrar edi farzandini.1

Biroq shu "beshada" bir durroj ham yashar, hamisha sher vahmidan cho`chivyerganidan qo`qqisdan: "fir eta" uchar, bundan shervachcha seskanib ketardi. Bu holdan sher g`am chekardi, Nihoyat sherning
Ko`ngli bu ishdin bo`lib ozorlik,
Boshladi durroj bila yorlik.

Va unga boshiga har qanaqa tashvish tushsa, ko`maklashmoqqa so`z berib, qo`qqisdan uchaverib, uning bolasini qo`qitmasligini shart qilib qo`ydi. Endi durroj uning yonida cho`chimay emin-erkin yashay boshlaydi. Hatto shu eminligiga ishonch hosil qilish uchun sherni sinamoqchi bo`lib, bir gal ovchi domiga tushdim deya faryod ko`tardi. Sher uni qutqarmoqqa borsa, faryod yolg`on bo`lib chiqadi. Durroj bu harakatini bir necha bor takrorladi. Shu sababli sher unga ishonmay qo`ydi, Boshqa bir mahalda durroj chindan ham sayyod domiga tushadi. Bu gal u:

Qichqiribon dom aro ul muftalo,
Necha dedi, tot meni tuttilo.
Sher kulogiga etib ul makol,
Savtini doyimgidek etti xayol.
Ko`p eshitib erdi bu yolg`onini,
O`yla gumon etti chin afg`onini.
Har necha kim rost fig`on ayladi,
Sidqini ham qkizb gumon ayladi.

Shu tarika, durroj o`z yolg`onining qurboni bo`ldi. Masaldan kelib chiqqan xulosa shu!

Alisher Navoiy ana shu axloqiy-ta`limiy qarashlarini butun hayoti va ijodiy faoliyatining sintezi bo`lgan "Mahbub ul-qulub" ("Qalb sevgilisi", 1500) asarida yanada chuqurlashtiradi. Bu asar ustozlari Shayx Sa`diyning "Guliston", "Buston" va Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" singari didaktik bitiklari an`analaridan ijodiy ilhomlanib yozilgan bo`lib, tarkibiy jihatdan uch qismdan iborat:

Birinchi qismi "Xaloyiq ahvoli va atf oli kayfiyatida" ("Kishilarning ahvoli, fe'l-atvori va gap-so'zlarining ahamiyati haqida") bo'lib, 40 fasldan tashkil topgan. Ularda jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalar hamda ularning ijtimoiy mavqeini tavsiflash etakchilik qiladi. Odil podsholar, beklar, nomunosib noyiblar (o'rinbosarlar), zolim podsholar, diyonatsiz sadrlar (mansabdorlar), maqtanchoqlar, yasovullar, lashkarlar, shayxul-islom, qozilar, qonunshunos muftilar, mudarrislar, tabiblar, mutasavvuflar (bularni nazm gulistonining xushovoz qushlari deb ataydi muallif), kotiblar, maktab ahli, mutrib va mug'anniylar, ashulachilar, qissaguylar, va'xonlar, munajjimlar, savdogarlar, kosiblar, xalq amaliy san'ati ustalari, mirshablar, zindoniylar, qoravullar, dehqonlar, bezorilar, g'arib va bechoralar, gadoylar, qushchilar va ovchilar, uylanish va xotinlar, riyokor shayxlar, xarobot ahli-rindlar haqida batafsil ma'lumotlar berarkan, feodal jamiyatga xos ijtimoiy tabaqalanish xususiyatlarini ochadi. Bunday vaziyatda Navoiy o'z zamonasining ulkan jamiyatshunosi sifatida gavdalanadiki, u bergan ma'lumot XV asrdagi ijtimoiy munosabatlar tarixini o'rganishda hamon qimmatli manba sifatida xizmat qiladi.

Navoiy iqtidorli o'quvchilarni, olimlarni, kotiblarni, shoirlarni san'atkorlarni hurmat qilishga chorlaydi. Uningcha o'qish ham, o'qitish ham g'oyat mas'uliyatli ish, chunki beqiyos qunt, havas va g'ayratni talab etadi. Bolalarni savodli, bilimli qilish yo'lida o'qituvchi chekadigan zahmat ozmuncha emas. Binobarin, shogirdning burchi, garchi ustoz unga bir harf o'rgatgan esa-da, o'sha ustoz hurmatini joyiga qo'ymoqdan iborat. Shogird ustozni umr bo'yi izzat qilmog'i, unutmashligi lozim:

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Asarning ikkinchi qismi "Hamida af'ol va zamima hisol xosiyatida" ("Yaxshi fe'llar va xislatlar to'g'risida") tarzida nomlangan va u o'n bobdan iborat bo'lib, axloqiy masalalarga bag'ishlangan. Unda inson axloqi yaxshi fe'llar va yomon xislatlarga bo'lingan holda talqin qilinadi. Yaxshi fe'llar silsilasida tavba, qanoat, sabr, tavoze' va odob, ishq tavsiflanadi, ularning mohiyatini ochish niyatida kichik-kichik tamsiliy voqealar keltirilib, inson kamolotidagi ahamiyati ko'rsatiladi.

Asarning uchinchi qismi "Mutafarriqa favoyid va amsol surati" ("Turli foydali maslahatlar va maqollar") tarzida nomlangan bo'lib, 118 tanbihdan tashkil topgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "tanbih," arabcha so'z bo'lib, "nojo'ya xatti-harakat uchun beriladigan ta'zir, koyish, ogohlantirish yoki jazo" (II t.,116-6.) tarzida izohlansa-da, Navoiyda u hikmat ma'nosida qo'llangan. Zero, ularda Navoiy umr bo'yi kuzatgan hayotiy tajribalarini lo'nda, qisqa va obrazli qilib, aforistik darajada ifoda etgan. S.G'anieva to'g'ri qayd etganidek, bu tanbihlarda "odam va odamiylik haqida, chin insoniy fazilatlar to'g'risida asrlar mobaynida xalq tajribasi va bilimining qaymog'i sifatida yig'ilgan fikrlar, shuningdek, Navoiyning uzoq hamda murakkab hayot tajribalarining natijalari, xulosalari keltirilgandir. Navoiyning o'zi qayta-qayta takrorlagan "oz so'z-soz so'z" hikmatiga to'la rioya qiladi va hech qanday mubolag'asiz aytish mumkinki, deyarli xar bir jumla ta'kid va tanbih aforistik xarakterga ega bo'lgan hikmat va donolik namunalarini yaratadi."

"Navoiy aforizmlari" nomi ostida ular alohida terilib, 1947-yilda Hodi Zarif va 1961-yilda Y.Eshonqulovlar tomonidan kitobchalar shaklida nashr etilishi bejiz emas.

"O'ziga bino qo'ygan odam-aqlsizdir; o'ziga zeb bergan-beor, satangdir." "Eshitmoq-kishini boyitadi; ko'p gapirmoq-sayozlatadi, ko'p gapirgan-ko'p yanglishadi. Ko'p yegan-ko'p yiqiladi. Tan kasalining asosi-ko'p yemakdir, qalb kasalining-sababi ko'p demakdir. Ko'p demak-so'zga mag'rurlik, ko'p yemak-nafsga bandalikdir". "Takabburlik-shayton ishi va manmanlik-nodon ishi."

"Xudparastlikdan butparastlik yaxshiroqdir." "Insoniyat bog'ining eng go'zal daraxti-ehsondir va odamiylik xazinasining eng bebaho gavhari xam ehsondir."

"Saxovatsiz odam-yog'insiz bahor bulutiga va hidi yo'q mushk-anbarga o'xshaydi." "Himmat ahlining ixtisosi-saxovatdir." Himmatsiz kishi-er sonida emas," Oliyhimmat odam-balandparvoz lochindir; behimmat-sichqon ovlovchi kalxatdir." "Himmat egasi-qashshoq bo'lsa ham tubanlik qilmas; Himmatsiz odam-

xazina topsa ham buyuklarga teng bo`lmas." "Yaxshiliklarni topmoq-edirmoqdir; ayblarni yashirmoq-kiydirmoqdir." "Aytur so`zni ayt, aytmas so`zdan qayt."

Bular shoirning avlodlarga qaratilgan o`gitlarigina emas, balki barhayot da`vatlari bo`lib, zamonlar osha navqiron naslni komillik sari undab kelmoqda.

Buyuk mutafakkir ana shunday o`lmas g`oyalar bilan kishilikning yangi-yangi avlodlari qalbiga yo`l topib, mangulik kasb etib kelmoqda.

Gulxaniy ijodi bolalar kiyobxonligida. O`zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi

Reja:

1. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari tarkibiga kirgan masallarda ilgari surilgan g`oyalar.
2. Uvaysiy chistonlarida ma`rifatparvarlik g`oyalari.
3. Sh.Munis va A.Otin ijodida abidsedariylar o`rni.

MAVZUGA DOIR TAYANCHTUSHUNCHALAR: *mumtoz, kitobxonlik, navoiyxonlik, didaktik, axloqiy, maqolat, tanbih, o`git, imon, islom, salotin, axloqiy-ta`limiy, xulq-odob, mehnatsevarlik, saxovatpeshalik, mehribonlik, adolatpeshaliki, karam, saxiylik, baxillik, navogo`, doya, doston-saro, odil podsholar, beklar, nomunosib noyiblar (o`rinbosarlar), diyonatsiz sadrlar (mansabdorlar), maqtanchoqlar, yasovullar, lashkarlar, shayxul-islom, qozilar, qonunshunos muftilar, mudarrislar, tabiblar, mutasavvufklar (bularni nazm gulistonining xushovoz qushlari deb ataydi muallif), kotiblar, maktab ahli, mutrib va mug`anniylar, ashulachilar, qissago`ylar, va`zxonlar, munajjimlar, savdogarlar, kosiblar, xalq amaliy san`ati ustalari, mirshablar, zindoniylar, qorovullar, dehqonlar, bezorilar, g`arib va bechoralar, gadoylar, qushchilar va ovchilar, uylanish va xotinlar, riyokor shayxlar, xarobot ahli-rindlar haqida batafsil ma`lumotlar berarkan, feodal jamiyat, abitsedariy, mufradot, murakkabot, muqattaot, chiston, lug`z, hijo, abjad, bayt, alifbe-manzuma...*

Muhammad Sharif Gulxaniy XIX asrning birinchi yarmi Qo`qon adabiy muhitida masal-tamsil janrida xalqchil asar yaratishga muvaffaq bo`lgan shoirdir. Uning hayoti va ijodiga oid tadqiqotlardan ma`lum bo`lishicha, Gulxaniy tabiatan yumor va hajvgga usta, xalq urf-odatlarini va til boyliklarini, maqol, matal, naql va rivoyatlarni chuqur biladigan ijodkordir. U fors-tojikcha g`azallarida Jur`at taxallusini qo`llagan bo`lsa, o`zbek kitobxonlariga Gulxaniy taxallusi bilan mashhur. Gulxaniy – olovqalb, majnunsifat ma`nolarini bildiradi. Gulxaniyning eng muhim ijodiy fazilati shundaki, u XIX asr folkloristi sifatida o`zbek xalqining donishmandligini ifoda etgan masallar, maqollarni to`plab, o`zining mashhur "Zarbulmasal" asarini yaratgan. Shoir uni yaratishda xalq og`zaki ijodi bilan birga, buyuk hind masali "Kalila va Dimna"dan, Firdavsiy, Jomiy, Hofiz Sheroziy, Shayx Sa`diy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar asarlari an`analaridan keng foydalangan. Chindan ham jahon adabiyoti xazinasining noyob durdonasi sanalmish "Kalila va Dimna" qadimgi hind folklori zaminida vujudga kelgan. Uni hind podshohi Dobshalim uchun faylasuf *Beydabo* yozganligi naql qilinadi. Jumladan, kitob muqaddimasigi ayrim fikrlar e`tirofqa loyiq: "Har bir xalqning olim va faylasuflari qanday vositalar bilan bo`lmasin, o`z orzu va istaklarini amalga oshirmoq, mavjud tartibni intizomga solmoq uchun hamisha fikr yuritganlar, har xil tadbirlar ila ish ko`rmoqchi bo`lganlar, bu haqda har xil asarlar yozmoqqa intilganlar. Shulardan biri qushlarning va yovvoyi, yirtqich hayvonlarning tilidan yozilgan, g`oyat chuqur ma`noli, nafis ramz va muammolarga to`la ushbu kitobdir...Olimlar bu yo`lni tanlab zo`r imtiyozga ega bo`lganlar: avvalo, bu bilan ular xohlagan so`zlarini aytib, har bir bobni orzu qilganlari darajada bezash imkoniyatiga ega bo`ldilar. Buning

ustiga, ular shu yo‘l bilan nasihat, hikmat, latifa va hazil-mutoyiba javohirlarini bir-biriga qo‘shganlar, toki dono odamlar bu kitobni mutolaa qilib, foydalansinlar, nodon odamlar esa, uni afsona deb o‘qisinlar.

Yosh shogirdlar esa, savodli bo‘lmoq, ilm orttirmoq, naql aytmoq maqsadida bu kitobda yozilganlarni osonlik bilan yodlarida saqlab qolgusidirlar. Katta bo‘lib, aql va tajriba egasi bo‘lganlarida, yodlab olgan va esda saqlab qolgan naqlar ustida fikr yuritib, ularni tushunganlarida dillari naqadar foydali hikmatlar bilan to‘lganligini ko‘radilar va o‘zlari kutmagan ulkan boylikka, bitmas-tuganmas xazinaga ega bo‘lganlarini biladilar. Yoshlarning xursandligi katta bo‘lganda otasidan meros bo‘lib qolgan xazinani topgan va shu tufayli umrining oxiriga qadar qiyinchilik ko‘rmasdan yashay olishini bilgan odamning sevinchiga o‘xshaydi.”³

Ta’kidlangan jummalarni Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari haqida ham aytish mumkin. Bu esa asarning yosh kitobxonlar uchun g‘oyat muhimligini asoslaydi. Gulxaniy ham Yapaloqqush va Ko‘rqush suhbatida ayrim hikoyatlar bayonini “Kalila va Dimna” nadan topmoq joizligini ta’kidlaydi.⁴ “Zarbulmasal” Umarxonning amri, istagi bilan yozilganligi, u xalq orasida keng tarqalgan zarbulmasallarni – xalq maqollarini yig‘ib, kitob holiga keltirish lozimligini aytgani hamda Gulxaniy shu nozik xizmatga loyiq, deb topilgani nazarda tutilsa, mazkur asarlarning maqsad-mohiyati juda yaqinligi oydinlashadi.

“Zarbulmasal” so‘zi “zarb” va “masal” so‘zlarining qo‘shilmasidan iborat bo‘lib, adabiy atama sifatida masal, maqol, matal keltirib so‘zlamolikni anglatadi. Zero, undagi pandnamo hikoyatlar, xususan, majoziylik, qushlar, hayvonlar tilidan so‘zlash, “Tuya bilan bo‘taloq”, “Maymun bilan najjor”, “Toshbaqa va chayon”, “Bozanda va Navozanda” kabi bir qancha masallar hamda xalq maqollarining keltirilishi bilan ham yuqorida zikr qilingan asardan ijodiy ilhomlanib yozilganligini tasdiqlaydi. Ammo, aytish joizki, “Kalila va Dimna” turli mavzudagi hikoyatlar zahirida qurilgan pand-u hikmatlardan iborat, voqealar bayoni, hikmat va maqollar ifodasi ham mumtoz adabiyotga xos yashirin, majozlar tilida so‘zlashdan iborat. Undagi masallar garchi turli parrandalar, qushlar va yirtqich hayvonlar o‘rtasidagi munozaralar, munosabatlar orqali hikoya qilinsa-da, yuksak andisha, falsafiy va purlhikmat o‘g‘itlar ustuvorlik qiladi. Gulxaniy esa feodal jamiyatining kishisi sifatida o‘tkir satiraga keng o‘rin bergan. Binobarin, “Zarbulmasal” majoz asosiga qurilgan qissa bo‘lib, unda turmush voqea-hodisalari, turli ijtimoiy toifaga mansub kishilarning fe‘l-atvorlari, bir-biriga munosabatlari qushlar, hayvonlar tilida bayon qilinadi. Muhimi, asarda xalq maqollari va naqlari (400 dan ortiq) keng o‘ringa ega. Undagi asosiy voqea-hodisalar qushlar–hayvonlar timsollari orqali ifodalanganligi, bosh qoliplovchi hikoya boyo‘g‘li va Yapaloqqush hikoyasi bilan bog‘lanib ketuvchi katta-kichik masal-hikoyalar ham keltirilganligi uchun adib uni “Zarbulmasal” deb nomlagan. Qushlar obrazlari asarning asosiy mazmunini belgilaydi, hayvon-hasharot va kishi obrazlari qushlarning o‘zaro suhbatlarida, ular tomonidan keltirilgan naql-u rivoyatlarda namoyon bo‘ladi.

Asar sujetidagi voqealar xalq ertaklariga monand yozilgan: Yapaloqqush o‘g‘li Kulonkir sultonni uylantirish maqsadida o‘z yaqini Ko‘rqushni Boyqush huzuriga sovchilikka yuboradi. Boyo‘g‘lining nihoyatda go‘zal, quyosh yanglig‘ Gunashbonu ismli qizi bor edi. Yapaloqqushning har qancha qalin bo‘lsa topilur deya o‘z tarafidan sovchilikka borishga unaganida, Ko‘rqush quyidagi maqollar orqali unga gap uqtirmoqchi bo‘ladi: “Bor maqtansa topilur, yo‘q maqtansa chopilur”, “Yolg‘on masal turmas”, “Uyat o‘limdan qattiq”, “Ermon yog‘ochining egilgani–singani, er yigitning uyalgani – o‘lgani”, “Oyoq yugurigi oshqa, og‘iz yugurigi boshqa...” Sen kim, Boyo‘g‘lining eshigiga kishi yubormoq kim? Hech bilmasmusenki, “Teng tengi birla, tezak qopi birla”. Yapaloqqush: “Andin bizning nima kamligimiz bor?”–deganda esa Ko‘rqush: “Maqtangan qiz to‘yda uyalur”, “O‘zini maqtatg‘on o‘lumning qarovuli”. Sening ahvoning olamg‘a ma‘lumdir. “Oyni etak

³ Kalila va Dimna. S.G`aniyeva tarj. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1992. –B.38.

⁴ Bu haqda qarang: Gulxaniy. Zarbulmasal. Toshkent, “Ma‘naviyat”, 2009. –B.8

birla yashirsa bo‘lurmi?“, “Chumchuq semursa, botmon bo‘lurmi?“, “Olako‘zanak ola bo‘lsa ham, arslon bo‘lmas, olato‘g‘anoq olg‘ur bo‘lsa ham, ahvoli ma‘lum” kabi.

Ana shunday maqolli aytishuvlar, “sovchi”ning yo‘ldagi hamsuhbatlari orasidagi masallar hikoyasi, bir-ikki bordi-keldidan so‘ng ming xaroba– chaldevor(chordevor) qalin badaliga Boyo‘g‘li rozilik beradi. Yapaloqqush shonu shavkat bilan to‘y anjomlarini keltiradi, o‘sha davrdagi quda-andachilikka xos hamma rasm-rusumlar, milliy odatlar bajo keltirilib, to‘y marosimlari o‘tkaziladi. Bu marosimlarda ikki tomondan juda ko‘p qushlar– Ko‘rqush, Hudhud, Turumtoy, Kordon, Bozanda, Navozanda, Anqo, Humo, Ukob, Lochin, Oqqush, Turna, G‘oz, O‘rdak, Suqsur, Kaklik, Bedana, Olato‘g‘anoq, Zarqaldoq kabilar qatnashadi va har biri o‘ziga yarasha xizmatni ado etadilar. Farg‘ona iqlimida xarobalar kam bo‘lganligi uchun Mavorounnahr iqlimidan (Buxoro amirligi) 1000 chordevor topishib, kelin Gunashbonu mahriga to‘laydilar.

Ko‘rinadiki, Gulxaniy asarda aniq makon (Ho‘qand, Buxoro) va zamon (XIX asr), hayotiy voqelik (feodal jamiyatidagi notenglik)ni hamda xalq an‘analarining yaxshi-yomon qirralarini majoz va kinoya, so‘z o‘yinlari, kesatiqlar orqali bayon etadi. Garchi unda o‘z yurti (Qo‘qon) va uning xoni (Umarxon)ga sodiqlik, u boshqarayotgan yurtning boshqa hududlardan ko‘ra obodroq ekanligiga ishora etilsa-da, Xolboqi misgar, Yodgor po‘stindo‘z, Muhammad Amin mufti, Otaboy amin, Sayid Azimxon, eshon kalla haqidagi hajviy-rivoyaviy epizodlarni ochiq-oydin keltiradi.

Muallif o‘z masallaridan majoziy obrazlar orqali hukmron sinf vakillarini fosh qiladi, mamlakatga xarobalik, xalqqa qashshoqlik keltirgan o‘zaro feodal urushlarga qarshi ommaning noroziligini ifodalaydi. Shuning uchun Yapaloqqush va Boyo‘g‘lining bir-biriga quda bo‘lishi voqeasini keltiradi. Bu ikki quda to‘y bahonasi bilan mamlakatni xonavayron qiladi. Yozuvchi Ko‘rqush, Hudhud, Kulonkirsulton, Sho‘ranul, Malik Shohim va Kordonlarning bir-birlariga aytgan masallari, hikoyalari orqali asarning g‘oyaviy mazmunini ravshanlashtiradi.

Gulxaniy “Maymun bilan najjor” masalida hunar va hunar ahlini ulug‘laydi, qo‘lingdan kelmaydigan ishga aslo urinib kulgi bo‘lma, ko‘r-ko‘rona birovga taqlid qilib falokatga yo‘liqma, degan fikrni maymun qismati orqali ko‘rsatadi. Bu masal axloqiy tarbiyaviy mavzuda bo‘lib, ishning mohiyatini bilmay, pala-partish kirishuvchi va oxirida o‘zi sharmanda bo‘lib qoluvchi kishilarga o‘git-nasihat tarzida keltirilgan.

Mehnatkash xalqning og‘ir hayoti va mehnati, huquqsizligi va nochorligi, ayanchli qismati esa “Tuya bilan bo‘taloq”da badiiy tasvirlangan. Gulxaniy bu masalda Sarbon, Tuya va Bo‘taloq orqali xususan, o‘zi yashayotgan jamiyatdagi tengsizlikni, uning og‘ir mashaqqatlarini bayon qiladi. Chunki, xalq uchun “tirikchilik toshdan qattiq”, Sarbon o‘z g‘amida, tuya og‘ir yuk ostida, Bo‘taloq esa ona sutidan mahrum.

Gulxaniyning “Toshbaqa bilan chayon” masalida esa bir-biriga zid va qarama- qarshi ikki obraz berilgan: toshbaqa–aqlli, farosatli, safarlarda ko‘p yurib, ancha tajriba orttirgan, insofli, sodiq va qadrdon do‘st timsoli, chayon esa uning ziddi. U boshqalarga yomonlik qilishdan huzur qiladi, yaxshilikni bilmaydigan kimsalarning ramziy obrazidir.

Gulxaniy qissadan hissa chiqarib, kishilarni hushyorlikka odamoxunlikka undab: “Aslning xatosi bo‘lmas, nojinsning oshnosi bo‘lmas”, “Bo‘ynida illati borning oyog‘i qaltiraydi”,–degan maqollarni keltiradi.

“Zarbulmasal” majoz va masallar, xalqning jonli iboralari asosiga qurilgan asar. Undagi she‘riy va nasriy matnlar turli badiiy san‘atlar vositasida ta‘sirchan ifoda etilgan.

“Zarbulmasal” ham “so‘z matosi qadim o‘tmishda to‘qilgani, ranginkamon rishtalari butun yer yuzini, go‘zal so‘z gilamlari bilan burkab chiqqan” yodgorliklarga monandligi jihatidan, nafaqat kattalar, balki bolalar ham zo‘r qiziqish bilan o‘qib kelayotganligi uning bolalar kitobxonligidagi muhim o‘rnini belgilaydi. Umuman, asarda zarb, zarblash usulidan foydalanilgani uchun nomi “Zarbulmasal” hisoblangan. Unda 400 dan ortiq maqol va iboralar singdirilgan. Asar tarkibida quyidagi masallar bor: “Toshbaqa bilan chayon”, “Tuya

bilan bo'taloq", "Maymun bilan Najjor", "Kabutar bilan zog", "Yodgor po'stindo'z", "Dumsiz eshak", "Yolg'onchi tuya". Asardagi masallarning jami 15 dan ortiq.

"Zarbulmasal" xalq orasida "Yapaloqqush hikoyasi" ham deyiladi.

Alifbe manzumalar (abidsedariy) ta'lim-tarbiya asosi. O'tmishda eski maktablarda o'qish va yozishni o'rgatish bir necha bosqichli jarayonni tashkil etgan. Maktablar bo'lganki, faqat o'qishni o'rgatgan, maktablar bo'lganki, faqat yozishni o'rgatishga ixtisoslashgan.

Eski maktablarda yozuvni o'rganishda "hijo" yoki "tahajji" usulidagi uch bosqichga amal qilingan: Birinchi bosqichda arab alifbosidagi har bir harfni alohida-alohida yozish mashq qilingan. Bu bosqich **MUFRA DOT** davri deyilgan. Aytaylik, arab alifbosida mavjud 28 harfning har biri alohida holda, so'z boshida, so'z o'rtasida va nihoyat so'z oxirida to'rt shaklga ega; bu 112 harfiy belgi degani. Agar bularni arab yozuvining "xatti ma'qoliy" va "xatti ko'fiy" turlari asosida yuzaga kelgan muhaqqaq, suls, nasx, tavqi', rayhoniy, riqo, ta'liq, nasta'liq singari yuzdan ziyod ko'rinishlari hisobga olinsa, arab harflarini ifodalovchi belgilar miqdori qanchaga yetishini tassavur qilish qiyin, albatta. Shu vajdan mufradot davri birmuncha cho'zilgan. Bunda harflarni ifodalovchi har bir belgini chiroyli va yorqin qilib, qiyomiga yetkazib yozishga, demakki, husnixat (kalligrafiya)ga alohida e'tibor qilingan.

Ikkinchi bosqich—**MURAKKABOT** deyilgan. Bunda harfni harfga old tomondan qo'shib yozish mashq qilingan. Harfni harfga murakkab qilish—qo'shib yozishda qo'shilayotgan harflarni ifodalovchi belgilarning aniq va tiniq yozilishiga, ostki va ustki belgilarning to'g'ri ifodalanishiga alohida e'tibor qilingan. Shu zaylda harfni harfga qo'shganda hosil bo'luvchi hijolarni idrok qilish mashqi qiyomiga yetkazilgan.

Uchinchi bosqichda so'zni yozishga o'tilgan, bu **MUQATTAOT** davri deyilgan. Bu bosqichda o'quvchilar ikkiliklar, ruboiylar, qit'alar, tuyuqlar va g'azallarni ko'chirib yozishni mashq qilganlar.

Eski maktablarda uzoq asrlar davomida yozuv ana shu taxlitda o'rgatib kelindi. Bu esa, o'z navbatida, yozishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi, natijada shu yo'nalishdagi tajribalarni umumlashtiruvchi alifbo manzumalar yuzaga kela boshladiki, bular hozirgi adabiyotshunosligimizda abitsedariy she'rlar deb yuritiladi.

Alifbo manzumalari faqat xattotlik asrori bayonidan iborat va faqat xattotlik san'atini o'rganuvchilarga mo'ljallangan tadiriy maqomdagi asarlarga emas, ular hammabopligi, umuman, yozuvni o'rganishni niyat qilgan katta-yu kichikka mo'ljallanganligi bilan o'tmishdagi bolalar kitobxonligida ayri-ayri o'rin tutadi. Aytaylik, ularda qog'ozning "abreshimiy", "nimkatoni", "abri bahor", "hafrang" turlari va ularda yozish xususiyatlari, yozuv vositalari—siyoh, qora qamish, qalam, pargor (tsirkul), mistar (transparent), qalamtarosh, qalamqat, xato ko'chirishganda uni yuvuvchi abr(shtrix) kabilarni qanday asrash va ishlatish, nihoyat, arab yozuvidagi har bir harfni qanday esda tutish, buning uchun o'sha belgi tabiatda nimaga o'xshashligini eslash hamda o'sha harfiy belgi hajmi qanday bo'lishiga oid ma'lumotlar berilgan. Ammo turkiyzabon xalqlar bolalarining yozuvni o'rganishi uchun o'z tillarida yaratilgan metodik qo'llanmalar mavjud emas edi. Shermuhammad Munisning "Savodi ta'lim" alifbo-manzumasi ana shu ehtiyojni qondirish yo'lida yaratilgan asar bo'ldi.

Bu asar o'zbek tilida bitilgan ilk alifbo-manzuma sifatida alohida e'tiborga loyiq. U bolalar va yoshlarning xat-savod chiqarishlarini, ilm o'rganishlarini yengillashtirish maqsadida yozilgan. Munis an'anaga sodiq qolib, dastlab o'ziga yozuv qoidalarini o'rgatgan ustoz Ibn Hojibga minnatdorchilik bildiradi-da, so'ngra, asar yozishdan ko'zlangan maqsadini bayon qiladi:

Ko'p muddat erdi guruhi mushtoq,
Ta'lim sumanbarig'a ushshoq.
Mashq, etmak ishida xat bitarga,
Ta'lim vuqufig'a yetarga.

Aylar edi xizmatim aro po‘y,
Dilresh o‘lib o‘ylakim qalam mo‘y...

Munis “ko‘p muddat”dirki o‘zbek maktablari uchun savod chiqarishga qulay tadrisiy qo‘llanmalar yo‘qligidan “xat bitish ta‘limini vuqufiga yetkazish” qiyinligini, binobarin, shu holga xotima berish maqsadida bel bog‘laganini shunday uqtiradi:

Bilgancha surib qalamni har yon,
Ta‘lim ishin aylar erdim oson.

Shundan so‘ng shoir qalam va xat vasfiga o‘tadi. Uningcha, qalam o‘quv quroligina emas, balki yozuv vositasi bo‘lganligi uchun ahamiyatli. Shu boisdan:

Zebo qamishini nayshakar bil,
No‘gida aning shakar samar bil.
Harfidan oqib sharobi ma‘ni,
El andin erur xarobi ma‘ni.

Qalam ilm ahli nasibasini butun qiladi, saltanatlar yumushini raqam qiladi. Xullas:

Olam ishi intizomi andin,
Olam elining nizomi andin.
Ul bo‘lmasa- bo‘lmagay kitobat,
Bul bo‘lmasa-qolmagay hikoyat...

Xat esa, aslida qalam “no‘gidan” oquvchi “sharobi ma‘ni”. Xat vositasidagina kishilik jamiyati yaratgan ilmu hikmat avloddan avlodga meros bo‘lib, yetib keladi:

Xatdur asbobi taroshi xoma,
Ziynat baxshi uzori noma.
So‘z maxzanining nishonasi ham,
Ma‘no durining xazonasi ham.
Har so‘zki, ko‘nguldan o‘ldi mavjud
Xat bo‘lmasa-bo‘lgay erdi nobud...

Munis o‘quvchilarni chiroyli yozishni o‘rganishga da‘vat etar ekan, buning uchun, avvalo, xat yozish vositalari-qalamu qalamtarosh, qalamdonu qalamqat singari yozuv qurollarini ozoda, “taxt va shaxt” tutish zarurligini uqdiradi. Shundagina “xatti xub”- husni xatga erishish mumkin, deb hisoblaydi muallif:

Ey kim xati xub erur taloshing,
Bo‘lsin bu sifat qalamtaroshing.
Kim asru itik nechukki poku.
Nayni qalam etsun o‘ylakim mo‘...
Vagar yaxshi yo‘nilmasa qalamlar,
Shak yo‘qki, yomon tushar raqamlar.

352 satr (176 bayt)dan iborat manzumaning birinchi qismida ana shu masalalar xususida bahs yuritilgan. Masnaviy shaklida bitilgan asarning ikkinchi qismi arab yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosidagi 28 harfning shakli, nimalarga o‘xshashligi va imlo xususiyatlarini birma-bir ta‘riflaydi. Bunda u harflar hajmini nuqtalar bilan belgilash an‘anasidan voz kechmaydi; “Nuqta bilan o‘lchamak shior et”,-deydi shoir va “Ul qavmki xatga erdi voqe’. Bu nuqta alardan o‘ldi voqe’”, deya alohida ta‘kidlaydi. Uningcha, bunday qilish harflar hajmi va shaklini qat‘iylashtiradi, demakki, belgining har xilligiga chek qo‘yadi. So‘ngra, “alif”dan to‘shin”gacha arabcha har bir harfni poetik ta‘riflashga o‘tadi: “alif”ning hajman uch nuqtaga; “Tuli alif uch nuqtadir, ammo”, “ro”-ikki nuqtaga, “zo” esa uch nuqtaga tengligini ta‘kidlaydi:

“Ro” qomati ikki nuqta, ammo.
Boshi biyik ermas, o‘ylakim “zo”
“Zo” uch nuqtau lek sarkash,
Qilsa bo‘lur oni qushga o‘xshash.

Shoir har bir harfni o‘quvchilarga shu xilda tanishtirar ekan, savod o‘rgatishda badiiy-tasviriy vositalardan, suvrat solish vositalaridan foydalanishni uqdirishni ham unutmaydi.

Chunonchi, yuqoridagi misolda “z” (zo)harfi shaklan qushgao‘xshashligi bilan o‘quvchi zehnda tez o‘zlashuvini ta‘minlagan. “Nun” esa bamisoli “umqi binosi”-chuqurcha:

“Nun” olti nuqtadur, ey qarindosh,
Ikki oyoq, ikki tan, ikki bosh.
Uch nuqtadur ikki lab arosi,
Ul nav’ki umqining binosi.

Buning ustiga “nun” shunaqa bir harfiy belgiki, boshqa bir qator harflarning shakliy ifodasida ishtirok etadi:

“Qof” avvali “fo” boshiga monand,
“Nun” halkasig‘a va lek payvand.
Yoki:
Gar “lom”ni istasang murattab,
“Nun” birla alifni qil murakkab.

Shoir barcha harflarni ta‘riflab bo‘lgach, ko‘nglidagi ulug‘ niyati amalgaoshganidan tasalli topib, asarining nomi va yozilish tarixini shunday izohlaydi:

Bu nomaki bo‘yla topti tanzim,
Yozildi oti “Savodi ta‘lim”.
Ta‘rixini aning bu nav’ adodur,
Hijrat chog‘idinki, g‘am fizodur.
Ming ikki yuz o‘n to‘qqiz edi yil,
Dog‘i ramazon uchinchisi, bil.
Go‘yoki chahorshanba erdi,
Itmomi qalamga dast berdi.

Hijriy 1219-yil ramazon oyi uchinchisi chorshanbasi melodiylar hisobga aylantirilsa, 1804-yilning 4-dekabri kelib chiqadiki, bu asarning yozib tugallanganligi sanasidir. Asarda bolalarni qiziqtiruvchi nuqtalar anchagina. Eng muhimi, Shermuhammad Munis shu asari orqali imlo masalalariga daxl qilib, harfiy belgining shakli, hajmi, yozilish tartibini qoidalashtirdi va o‘quvchilarda yozish malakalarini shakllantirishga, shu yo‘l bilan bu sohada har xillikka barham berishga urindi.

Maktab ta‘limi jarayonida abjad hisobini o‘rgatish birmuncha qiyinchiliklar tug‘dirgan, binobarin, shu qiyinchiliklarni yengish yo‘lida abjad hisobida yechiladigan chistonlar yozish an‘anaga aylana boshlagan. Bu sohada, ayniqsa, XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan zabardast shoira va novator muallima Jahon otin Uvaysiy alohida namuna ko‘rsatgan.

Jahon otin Uvaysiy (1789-1850) zamonasining peshqadam ziyolilari mulla Siddiq va Chinni otinlar xonadonida tug‘ilib tarbiya ko‘rganidan yoshligidayoq she‘riyatga va maktabdorlikka havas qo‘ydi. Otasi mulla Siddiq madrasani xatm qilgan. Fors-tojik va o‘zbek tillarida she‘rlar yozgan. Qur‘oni karimni qiyomiga yetkazib qiroat qilganligidan eli uni Hofiz bobo deb e‘zozlagan. Onasi Chinni otin ham xat-savodli bo‘lib, maktabdorlik qilgan, qiziga ham yozish va o‘qitishni yoshligidayoq o‘rgatgan. Hatto ba‘zi hollarda o‘zi yumush bilan band bo‘lgan kezlarda qiziga xalifalik xizmatini buyurgan. Jahon ana shunday vaziyatda otinlik tajribasini to‘plagan va maktabdorlik hadisini o‘zlashtirib borgan. Xuddi shu faoliyati tufayli elga tanilgan, maktabdorligiga shoiraligi qo‘shilib, Qo‘qon xonligimuzofotida shuhrat qozongan, hatto dovruq‘i Umarxon saroyigacha yetib borgan. Bu hol uni ulkan shoira Nodira bilan yaqinlashuviga yo‘l ochgan.

Uvaysiy eri vafotidan so‘ng Nodira taklifi bilan Qo‘qonga kelgan.

A. Valixonovning shahodaticha, “dastlabki paytlarda shoira haramda yashadi. U haramda “ikki qo‘lini qovushtirib” o‘tirmaydi, balki Nodiraga yaqin kishi bo‘lishidan tashqari, haramdagi qizlar-kanizaklar orasida xat-savod o‘rgatish bilan, ham ilmi musiqiyning amaliy jihatlaridan ta‘lim berish bilan shug‘ullandi. Shoira asira shogirdlari qismatiga achinarkan, ularni loqal jamiyatdagi ana shu mavqelari mohiyatini mulohaza qilib ko‘rishga undabshu asosda ijtimoiy ongilarini uyg‘otishni ko‘zlab bir qator chistonlar

yozadi. U shogirdlarini mustaqil o‘ylay bilishga, narsa va hodisalarni belgilariga qarab ajrata olish malakalarining shakllanishiga, sezgir va topqir bo‘lishlariga erishmoq yo‘lida izlanarkan, rang-barang mavzularda chistonlar bitib, ta‘lim mazmundorligini chuqurlashtiradi, samaradorligini oshiradiki, bu uning maktabdorlik faoliyatida izlanganligini, qolaversa, eski maktablarda o‘z zamonasidagi ta‘lim tizimini takomillashtirish yo‘lida ayrim islohotlarni amalga oshira olganligini ko‘rsatadi. Buni uning chistonlarni yechish jarayonida o‘z shogirdlarida ijtimoiy mushohada va mulohaza yuritish iqtidorini shakllantirishdan iborat niyatida ko‘rish mumkin. Chunonchi, uning anorga bag‘ishlangan chistoni bu jihatdan alohida ahamiyatga ega. Shoira bu chistonni yaratishda Alisher Navoiyning shu nomdagi lug‘zidan ijobiy ilhomlangan, deyish mumkin. “Badoye’ ul bidoya” devoniga kiritilgan bu lug‘z shoirning yoshligi davrida bitilgan:

Ne mijmardur, to‘la axgar, vale ul mijmar andomi.
Erur sun’ ilgidin gohe musaddas, gah musamman ham.
Chiqar ravzandin axgari dudiya bu turfakim, oning
O‘tiga dud yo‘qtur, mujmarig‘a balki ravzan ham.
Otu mijmar dema, bor ul sadafkim, durlarin oning
Evurdi qonga davroni mus‘habid, charxi purfan ham.
Agar bu nav’ emas, bas ne uchun barmoq kuchi birla
Bo‘shar jismi, oqar qoni, anga majruh o‘lib tan ham.
Nechakim tab‘i noridur va lekin me‘da norig‘a
Berur taskin, muning naf‘in topibman voqian man ham.

E‘tibor qilinsa, lug‘zda dastlab anorning tashqi va ichki ko‘rinishi tasvirlangan. Ya‘ni, anor bamisoli “mijmar”-manqalday bo‘lib, ichi “to‘la axgar”-cho‘g‘. Shakli goho “musaddas”-olti qirrali, goho “musamman”-sakkiz qirrali. Manqallar ham odatda olti yo sakkiz qirrali shaklga ega holatda yasalgan. Biroq bu shunday bir manqalki, laxcha cho‘g‘ining tutuni va shu tutun chiqadigan "ravzan"i-tuynugi yo‘q.

Uvaysiy ustozidan farqli o‘laroq, anorni yashirarkan, unga to‘rt satrda tavsif beradi: u anorni gumbazga o‘xshatadi. Biroq bu shunday bir gumbazki, uning "eshigi, tuynugi" yo‘q, lekin ichida”gulgunpo‘sh qizlar”-anor donalari makon tutgan:

Ul na gumbazdir, eshigi, tuynugidan yo‘q nishon,
Necha gulgun, po‘sh qizlar manzil aylabdur, makon.
Sindurib gumbazni qizlar holidan olsam xabar,
Yuzlarida parda tortig‘liq, turarlar bag‘ri qon.

Shoira talqinicha, gumbaz-zulm haddan kuchaygan Qo‘qon xonligi mulki. Gulgunpo‘sh qizlar anor donalari yanglig‘ bag‘ri qonga aylangan va o‘sha mulkda hukmron feodal munosabatlar asoratidan ezilgan xotin-qizlarning umumlashma obrazi. Ularning “yuzlariga parda tortilgan”-anor donalari ustidagi parda shunga ishora. Shoir ana shu “gumbazni sindirib”, ular holidan xabar olmoq zarurligini uqdirayotir. Bu shoiraning ulug‘ jasorati ifodasi.

Bu chiston yechimini adabiyotshunoslar turlicha sharhlashgan. Chunonchi, E.Ibrohimova yozadi: “To‘rt misraga sig‘dirilgan katta mazmunga anor ta‘rifinigina emas, balki to‘rt devor orasida ovoz chiqara olmasdan faryod qilayotgan, qavat-qavat niqob orasida yorug‘ olamni ko‘rish imkoniyatidan mahrum etilgan millionlab mahzuma, munglig‘ ayollarning hayoti, taqdiri mujassamlashtirilgan. Bu yuzlariga parda tutgan bag‘ri qonlar nidosi, noroziligi ifodasidir. Bunda shoiraning tutqunlikka qaratilgan, g‘azabli isyoni mazmuni ham bor. Chunki xotin-qizlar ozodligi, erki haqida so‘z bo‘lishi mumkin bo‘lmagan zamon ayoli–Uvaysiy mustahkam istehkomga (gumbaz) qamalgan qizlarning qora parda ortidagi qora taqdirini qoralaydi. Asar majoziy tasvirning yorqin namunasi ham bo‘la oladi.

I.Haqqul esa, uning ijtimoiy-estetik mohiyatini yanada teranroq izohlab: “Eshik tuynugi, nishonasiz gumbaz–bu dahr, toza havolari surib olingan jamiyat. Inson farzandini qullikka mahkum etgan, mute yashashga majburan ko‘niktiruvchi feodal tuzum qafaslari.

Shoirani shular ichidagi “gulgunpo‘sh qizlar”-ayol huquqsizligi azobga soladi. She‘rdagi “sindirib” so‘zi-belgili so‘z. Uvaysiy nega aynan shu so‘zni qo‘llagan? Har jihatdan buning sabablarini izohlash qiyin. Lekin bir narsa aniq; u “sindirib”da qay zaylda bo‘lmasin, parchalanishga mahkum jamiyat tartib va qoidalariga o‘zining keskin munosabatini singdirgan. “Yuzlariga parda tortig‘liq, turarlar bagri qon”-o‘tmishdagi xotin-qizlarning ham tashqi, ham ichki holatini bundan aniq, bundan chuqur ifoda etgan satr o‘zbek she‘riyati tarixida kamdan-kam topilsa kerak”, – degan edi. Bu fikrlarning to‘g‘riligini abjad hisobi asosida yechiladigan va “g‘am haddin oshti” iborasini yashirgan tubandagi chistoni ham tasdiqlaydi:

Yolg‘izimda uchradi: ul dev edi yoki pari,
Ming boshi **qirq** ergashi bor, yona **sakkiz** navkari.
Holga kelmas, butni taqmas, barchasi jallodvash,
To‘rti chorlab, **o‘nu ellik**, menga yuzlandi bari.
Birining qo‘lida **uch yuz** xanjaru **to‘rt yuz** pichoq,
O‘ning og‘zida buldur: “Pora kil!-“ deb gaplari .

“Abjad” harflar yig‘masi hosilasi, arab alifbosida an’anaga ko‘ra har bir harf bir raqam (son) qiymatiga ega. Yuqoridagi chistonning yechimi: “g‘am haddinoshti!” iborasini beradi. Shoira bu iborani chistonda aks ettirib, o‘zi yashagan ijtimoiy muhitdan noroziligini yorqin ifoda etgan, ayni choqda, o‘zshogirdlariga ijtimoiy tengsizlikdan saboq berib, ular ongini uyg‘otishni, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashlarini shakllantirishni ko‘zlagan.

Shoirningqalam, qog‘oz, kamar, o‘qloq, dutor, sham, ko‘ylak, qaychisingari predmetlar, uyqu, yong‘oq, makkajo‘xori, daraxt, qizil gul, bog‘, xok (tuproq), choy, chakas, kaklik, ko‘z, to‘y, jon, suv, muhabbat, tun va kunga oidchistonlari ham abjad hisobi asosida yechiladi:

Bog‘ oralab bir gule ko‘rdim, ajoyib nogahon,
Yuz tani bor, **yetti** shoxi, **o‘n** butoq bo‘lmish ayon.
Yoproq‘i **o‘ttiz, yigirma** bandi, **o‘ttiz** ildizi,
Ey Falotun, tab‘ olim, aylagaysen imtihon.

Yechimi abjad hisobi bo‘yicha “qizil gul” iborasini ifodalaydi.

Shoira bolalarda o‘quv qurollariga havas uyg‘otmoq va ularni sarishta-saranjom hamda ozoda tutmoqlarini ko‘zlab, “qalam” va “qog‘oz” haqida shunday chistonlar yaratgan:

Ul na qushdur: boshi **yuzdir**, qo‘lga olsang xosiyat,
Oning **o‘ttizdir** qanoti, yurmagidur ofiyat,
Poyi **qirq**, abjad hisobi anda ermish bandi bog‘.
Banddin aylang xalos ul qushni, qilmang qabziyat.
Yoki:
Ul na shahredur, **yigirma** bob, **bir** bozori bor,
Bulbuli mingdur, ajoyib **yetti** gulzori bor?
Yona vasfi shahri Rumdur, xindular tutmish vatan,
Tashna sursa, bog‘i abjaddin chiqqan anhuri bor.
Harflar jamlanganda “qog‘oz” so‘zi kelib chiqadi.

Uvaysiy ellikka yaqin chiston yaratgan, shulardan o‘n sakkiztasi shoiraning turli to‘plamlari va ayrim tadqiqotlarda e‘lon qilingan. Chistonlar xilma-xil mavzularda bo‘lib, xalq ijodiyotiga xos topishmoq hodisasidan ijodiy ta’sirlanish samarasi sifatida ijod qilingan. Shoira bu xizmati bilan XIX asr o‘zbek mumtoz adabiyotining janriy arsenalini boyitdi.

Anbar otinning (1870-1915) “Yakka bayt”lari ham alifbe-manzumaning o‘ziga xos namunasidir.

Bu asar muallifi avlodlarga o‘zini shunday tanishtiradi: “Zamonani norasoligi va xalq ko‘rgan zulmu taaddilarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, mushohada etib, el va yurt holig‘a yig‘lagan va quvvati yetganicha nafis til ila munojot qilg‘on kamina zaifai munglig‘ Anbaroy binni Farmonqul Marg‘iloniydurman”.

U arab harflari ifodalagan tovushlarni idrok etishni qulaylashtirishni ko'zlovchi to'rtlik, oltilik, sakkizlik va o'nlik shaklidagi poetik tizmalar bo'lib, qofiyalanuvchi so'zlarning oxirgi hijosida muntazam takrorlanib kelishi ritmik bir butunlikni ta'minlab kelgan, bunga g'oyaviy-axloqiy ruhi qo'shib, asarning kompozitsion yaxlitligiga erishilgan.

Odam ersang ma'ni bil dona-dona,
Vatan erur senga ikkinchi ona
So'zlamasdan oldin so'zingni sina
Har bir so'zdir umring ichinda sina .

Shoira birato'la odamiylikning to'rt fazilatini ta'kidlayotir: birinchisi-odamiylikning bosh fazilati bama'niligida, farosatligida. Aksincha, bema'nilik va farosatsizlik-odamiylikka zid xislatlar. Ikkinchisi-Vatanni ikkinchi ona o'rnida idrok etish, uni chin dildan sevish muhofazasiga fidoyi bo'lishga shaylik ham odamiylikning ziynati. Uchinchi-so'zni amaliyotda isbotlash va to'rtinchi-so'zda sobitlik, bular bari bir-birini to'ldiruvchi axloqiy mezonlar bo'lib, odamiylik tushunchasini mohiyatan ochishga xizmat qilgan. Harfdan- harfga o'tgan sayin, shoira odamiylikning yangidan-yangi axloqiy jilolarini namoyish eta boradi.

“B” tovushi jilosidan odam adabiga zeb beruvchi axloqiy qarashini shunday tovlantiradi:

Ulg'ayursan sanda bor o'lsa adab,
Ulg'ayursan sanda yor o'lsa adab.
Odam ersang, tashqi surat berma zeb,
Ona yurtingni hamisha ayla zeb.

Shoira tashqi ko'rka oro berish odamiylikka kirmasligini, ichki go'zallikning afzalligini, Vatanni obod qilish chinakam insoniy burchligini shu yo'sinda ta'kidlayotir. “B” tovushi bahonasida shu g'oyani umumjahoniy darajaga ko'taradi. Dunyoda yaxshi nom qoldirish uchun yaxshi ishlar qilish zarurligini uqtiradi:

Shu tariqa, g'oyaviy-badiiy barkamol alifbe-manzuma namunasini yaratib, el farzandlarining tezroq xat-savod egallashlariga munosib hissa qo'shgan. Binobarin, bunday alifbe-manzumalar XX asrda bolalar she'riyatida yuzaga kelgan alifbe she'rlar-abitsedariylar uchun an'anaviy zamin vazifasini o'taganligi bilan ham qimmatlidir.

7-mavzu: O'zbek bolalar adabiyotining yuzaga kelish omillari va taraqqiyot xususiyatlari. Abdulla Avloniy –ilk bolalar shoiri va islohotchi pedagogi

Reja:

1. Milliy uyg'onish harakati va uning o'zbek bolalar adabiyotini yuzaga keltirishdagi roli.
2. O'zbek bolalar adabiyotining yuzaga kelishi va taraqqiyot tamoyillari.
3. Abdulla Avloniy–ilk bolalar shoiri.
4. Shoir she'rlarining o'ziga xos xususiyatlari.

Milliy uyg'onish, millatning o'zligini anglash jarayoni mazkur davr adabiyotining ruhi va mazmunini tashkil qiladi. Millatning o'zligini anglash asos qilib olingan bu uyg'onish davri bolalar adabiyoti va matbuoti uchun ham poydevor bo'ladi.

O'zbek bolalar adabiyoti tarixi haqida fikr yuritilar ekan, uning ilk qadamlari XX asr boshlarida yaratilgan alifbolar, adabiyot va o'qish kitoblaridan boshlanganini alohida qayd etish lozim. Bolalar adabiyoti tom ma'noda ma'rifatparvarlikning farzandidir. Chunki jadidchilikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktabi bo'lgan. “Jadidchilik”ning asosida “jadid” so'zi yotadi. “Jadid”ning ma'nosi “yangi”-“yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etgan. Istilohning kirib kelishi Ismoilbek Gasprali (Gasprinskiy) ochgan yangi maktab nomi bilan bog'liq. U 1884 yilda

Boqchasaroyda bir maktab ochib, “usuli jadid” nomi bilan ataydi. Istilohning mazmuni maktab doirasida qolmagan, albatta. Aslida jamiyatning barcha qatlamlarini jalb etib, Uygʻonish mafkurasi boʻlib xizmat qilgan; milliy mustaqillik uchun kurash olib borgan; maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi. Ismoilbekning Turkistonga kelib, Toshkent, Samarqand, Buxoroda boʻlishi uning tashabbusi bilan bu shaharlarda, soʻngroq Fargʻona vodiysida “usuli jadid” maktablari tashkil topishi butun Turkistonda jadidchilik harakati ommaviylashuviga turtki boʻldi. Tezkorlik bilan uning uchun darsliklar tuzila boshlaydi. Ushbu maktablar uchun yozilgan ilk darsliklar esa oʻz navbatida, bolalar adabiyotiga yoʻl ochdi. Jumladan, 1907-17-yillarda Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi soniy” darsliklari, Abdulla Avloniyning “Adabiyot, yoxud milliy sheʼrlar” majmuasi, “Birinchi muallim”, “Maktab gulistoni”, “Turkiy guliston yoxud, axloq” Ayniyning “Tahzib us-sibyon”, Fitratning “Oʻqu”, Sh.Rahimiyning “Sovgʻa”, “Kattalarga oʻqish”, Hamzaning “Yengil adabiyot”, “Qiroat kitobi” kabilar chop etilib, maktablarda oʻqitilgan. Bu kitoblar, xususan, alifbodan soʻng oʻqitiladigan majmualar “bolalarning tabiatlariga milliy hasrat va nadomatlardan ibrat oʻlan nasihatlarini oʻrnashdurmak orzusinda” (Avloniy) yaratilgan edi. Demak, aytish mumkinki, ana shu darsliklar birinchi marta bola dunyoqarashi, qiziqishlari, tafakkur olami hamda yosh xususiyatlariga muvofiq yozilgan; ulardagi badiiy ijod namunalari ham kichkintoylar tasavvuriga yaqin boʻlgan. Jadid adiblari va muallimlari taʼsirida ochilgan yangi usuldagi maktablar bolalarni shunchaki xat tanishga oʻrgatishga emas, ijtimoiy-siyosiy savodini chiqarishda ham muhim rol oʻynagan. 1917 yil fevral voqealari arafasida Turkistonda 92 ta usuli jadid maktabi borligi qayd etilgan. Binobarin, XX asr boshlarida “usuli savtiya” maktablari paydo boʻlishi bilan bu maktablar oʻquvchilariga moʻljallangan koʻplab alifbo va oʻqish kitoblari (majmualar) ham maydonga kelib, ularga tom maʼnodagi oʻzbek bolalar adabiyotining tugʻilishi deb qarash (R.Barakayev) toʻgʻri eʼtirofdir. Chindan-da, maktab adabiyot darsliklari bolalar uchun yaratilgan ilk maxsus kitoblar sanaladi. Uning sahifalarida badiiy adabiyot namunalari darj etilishi bu fikrni asoslay oladi. **Jahon xalqlari bolalar adabiyotlari, jumladan rus va qardosh xalqlar bolalar adabiyotlarining** ilgʻor tajribalarini oʻrganish va ijodiy oʻzlashtirish ham oʻzbek bolalar adabiyotini yuzaga keltirish va rivojlantirishda samarali omil boʻldi. Bu jarayon XIX asrning soʻnggi choragida maktab-maorifsohasida sodirboʻla boshlagan siyosiy-ijtimoiyva maʼnaviy-madaniy oʻzgarishlar taʼsirida namoyon boʻla bordi, XX asr boshlarida esa hayotiy mazmun kasb etdi. Bunda milliy uygʻonish davrining ilgʻor ziyolilari Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Saidrasul Aziziy (1866-1936) Abdulla Avloniy, ayniqsa, salmoqli natijalarga erishdilar. M. Behbudiyning «Risolai asbobi savod»(1914), «Risolai joʻgʻrofiyai umroniy» (1905), Risolai joʻgʻrofiyai Rusiy» (1905), Kitobat-ul atfol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909), Munavvarqorining «Adibi avval», «Adibi soniy», «Tavji-al qurʻon», «Yer yuzi» singari alifbo xrestomatiya va oʻquv qoʻllanmalari dunyoga keldi. Ayniqsa, S.M.Graminskiyning (1859-1919) qoʻllab-quvatlashi va uning tomonidan tuzilgan «Birinchi oʻqish kitobi», «Ikkinchi oʻqish kitobi»(1898), «Uchinchi oʻqish kitobi»(1898) darsliklari taʼsirida bitilgan Saidrasul Aziziyning «Ustodi avval» (1902) otligʻ birinchi oʻzbek alifbosi, Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» (1908) va «Ikkinchi muallim» (1912), shuningdek, toʻrt juzdan iborat «Adabiyot yoxud milliy sheʼrlar» singari darslik va qoʻllanmalari katta eʼtibor qozondilar, ularda keltirilgan sheʼr va nasriy lavhalar bolalarbopligi bilan ajralib turishidan tashqari, aksariyati I.A. Krilov, A.S.Pushkin, L.N. Tolstoy va K.D. Ushinskiylarning bolalarga atalgan masallari, sheʼriy ertaklari va hikoyalari tarjimasidan iborat edi. Zotan, XX asr boshlaridagi oʻzbek maʼrifatparvarlik harakatining yetakchi namoyandasi, Toshkentdagi yangi usul – “usuli savtiya” maktablarining asoschilaridan biri Abdulla Avloniy oʻzbek bolalar adabiyoti taraqqiyotiga ham samarali hissa qoʻshgan shoirdir.

Addulla Avloniy (1878-1934) arab va fors tillarini yoshlikdagi mustaqil mutolaa vaqtida egallagan. U matbuot ishlarida faol ishtirok etish bilan birga “Adabiyot yoxud milliy

she'rlar" nomli to'rt qismdan iborat to'planning birinchi kitobini "Birinchi muallim" va "Ikkinchi muallim" deb nomlaydi. Bu asarlardagi o'nlab she'rlar, she'riy hikoya va masallar o'zbek bolalar she'riyatining ilk sahifalarini tashkil qiladi. Jumladan, shoirning "Ikkinchi muallim"dagi "Maktabga da'vat" she'rida muallif bevosita yosh kitobxonga murojaat qilib yozadi:

Boqdi Gunash panjaradan bizlara,
Yotma deyr barcha o'g'il qizlara.
Nolayi faryod qilib barcha qush:
Maktabingiz vaqti,-deyr sizlara.
Boshladi har kim o'z ishin ishlara,
Siz-da turing, maktabingiz izlara.
Siz-da kitoblarni(ng) oling shavq ila,
Tez yuguring ilm yo'lin gezlara.

Shoir ta'kidida tong otishi, uyqudan ko'z ochish vaqti yetganligi o'z va ramziy ma'no kasb etgan. Avvalo, saharda chiqqan quyosh panjaradan mo'ralab, uxlab yotgan bolakayni o'z nurlari bilan erkalab uyg'otishi, shuningdek, tong qushlaru chug'urchuqlar, bolariyu buzoqlarni erta uyg'otib, kundalik "mashg'ulot"iga undagani kabi kichkintoy o'g'il-qizlarga ham kitob-daftarni qo'lga olib, ilm yo'lini izlashga da'vat etayotgani anglashiladi. Bundan tashqari, she'r mazmunida jaholat va g'aflat uyqusidan uyg'onish, o'zligini anglash tuyg'usi ham mavjud. Shoirning "Ikkinchi muallim"dagi "Maktab" she'rida ham yosh kitobxonlar-maktab o'quvchilariga murojaati seziladi:

Maktab uyi-dorul-omon,
Maktab hayoti jovidon,
Maktab safoyi qalbi jon,
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!

She'rdagi maktab tinchlik, omonlik uyi, hayot manbai, qalblarga yaxshilik, ravshanlik keltiruvchi joy sifatida tasvirlanishi bilan birga, u axloq-odob uyi, Allohning ehsoni va bir ajib gulshan sifatida talqin etiladi. Muallifning "Maktab gulistoni" kitobidagi "Maktab" she'rida ham ushbu fikrlar mantiqan davom etadi:

Firdavsi jinon maktab, nodonlarga jon maktab,
Bilgan kishiga qadrin, bir dorulomon maktab.
Johillara g'am maktab, yalqovlarga kam maktab,
Husnixat kishilarga chin ruhi ravon maktab.
Jonim, o'qingiz maktab, boru yo'qingiz maktab,
Sizlar uchun, avlodim, bog'u guliston maktab.

Shunga o'xshash, "Maktab" nomli she'r A.Avloniyning "Adabiyot yoxud milliy she'rlardan 2-juzv" kitobida ham uchrashi bejiz emas. Unda maktab ta'rifining yanada yangi qirralari bo'rtib turadi:

Maktabdur oftobi jahon, saodating,
Maktabdur osmoni zamon, sabovating...
Maktab nasimi subh kabi fikra jon verar,
Maktab hayoti ziynatidur odamiyating...

Ko'rinadiki, she'rlar mavzu jihatdan bir, ammo ularning talqini, badiiy ifodasi murakkablasha borgan. Birinchi she'rdagi shoir yosh kitobxonni o'qishga, ilm-ma'rifatga targ'ib qilsa, ikkinchi she'rdagi maktabning kimlarga foyda-yu qanday kishilarga zarar ekani qiyoslanadi; uchinchi she'rdagi esa maktabning alohida manfaatlari xususida emas, umummillat va yurtga keltiradigan foydalari tilga olinadi.

A.Avloniy bolalarga samimiy fikrlarini o'ynoqi satrlarda tasvirlash bilan birga, Vatan va uning qismati bilan bog'liq jiddiy mulohazalarni-da bayon etadi. Jumladan, "Vatan" nomli she'rida ona-yurtning noz-ne'matlari, boyliklari ta'rif-tavsif etiladi. Shu bilan birga, onadagi aziz, mushfiq go'sha haqidagi qayg'uli nola yangraydi:

Onamizsan! Bizning mushfiq onamizsan!

Javlon urib yashaydurgon xonamizsan!
Seni sotmoq mumkinmidur, o`zing o`yla,
Tiling bo`lsa, hasratlaring tuzuk so`yla!..
Sotib-sotib qoladurmiz g`amga botib,
Boyqush kabi vayronada yotib-yotib.

Shoir o`tmishda ma`rifat gulshani bo`lgan yurtimizning jaholat botqog`iga botganidan afsuslar chekib, vatanimiz tobora vayronaga aylanayotgani, ilm-ma`rifatga oshno bo`lishgina kishilarni bu g`amdan qutqazishini ta`kidlaydi. Shu ma`noda shoirning "Ilma targ`ib", "Jaholat", "Istiqboldan orzularim", "Millatga salom" she`rlari millat farzandlariga xitob tarzida bitilgan. Umuman, A.Avloniy "Birinch muallim" va "Ikkinchi muallim" kitoblarida yosh kitobxonlar tafakkuriga mos ilm xosiyati va ilmsizlik oqibati to`g`risida pandnoma tarzidagi satrlarni bitgan bo`lsa, "Maktab gulistoni"dagi she`r, hikoya va masallarda ijtimoiy dolzarb muammolarni ham qamrab olishi oydinlashadi. Zero, bunday she`rlarda orqali yosh avlodni ma`rifatga da`vat etish bilan birga, ularni vatanparvar, o`z millatiga, yurtiga sadoqatli qilib tarbiyalash maqsadi ham ko`zlangan.

A. Avloniyning "Muxtasar tarixi adabiyoti va tarixi Islom" asari ham mavjud. Ushbu asar boshlang`ich maktab o`quvchilariga mo`ljallangan. Bu asar birinchi marta 1910 yilda Munavvarqori tomonidan Toshkentda bosilgan. Mustaqillik yillarida esa Zokirjon Afzalov Shokirjon o`g`li tomonidan 1994 yilda "Fan" nashriyotida chop etilgan. Risolada Odam alayhisalomdan Muhammad alayhisalomgacha o`tgan payg`ambarlardan qissalar va zuhiri islom zikr etilgan.

Abdulla Avloniy XIX asr rus mumtoz adabiyoti vakillari I. A. Krillov va L. N. Tolstoyning asarlarini o`zbek tiliga tarjima qilgan, jumladan, I. A. Krillovning 21 ta masali, "Maymun ila ko`zoynak", "G`ayri jinsiy ittifoq", "It ila yo`lovchi", "Qarg`a ila Zag`iisg`on", "Tulki ila qarg`a" kabi asarlari o`zbek tiliga tarjima qilinib "Maktab gulistoni" kitobida bosilib chiqqan. Abdulla Avloniyning 1913 yilda "Turkiy guliston yoxud axloq" asari bosilib chiqdi. U 1917 yilga kelib ikkinchi marta nashr qilindi, asarda insonlarning "yaxshilikka chiqarg`uvchi, yomonlikdan qaytarg`uvchi bir ilm" - axloq haqida fikr yuritiladi. A. Avloniy asarlar yozish bilan bir qatorda maktablar ochish, xalqni savodxon qilishni, o`zbek xotin - qizlarini o`qitishni, o`qituvchilar va ziyoli kadrlar tayyorlash bilan shug`ullanadi. U 1923 - 1924 yillarda eski shahardagi xotin - qizlar va erkaklar maorif bilim yurtlari mudiri 1924 - 1929 yillarda Toshkent harbiy maktabida o`qituvchi, 1925 - 1934 yillarda O`rta Osiyo universiteti, O`rta Osiyo qishloq xo`jaligi maktabida, O`rta Osiyo davlat universitetida dars beradi. Pedagogika fakultetining til va adabiyot kafedrasini professori va mudiri bo`lib ishlaydi. U 1933 yilda o`zbek maktablari 7-sinfi uchun "Adabiyot xristomatiyasi" nashr ettirdi. A.Avloniy "Hijron", "Nabil", "Indamas", "Shuxrat", "Tangriquli", "Surayyo", "Shapaloq", "Chol", "Chiqaboy", "Abdulhaq" taxalluslari bilan tanqidiy va ilmiy maqola, 4000 misradan ortiq she'r ijod qilgan.

Avloniy 1927 yilda "Mehnat qahramoni" unvoni bilan taqdirlandi. 1930 yilda unga "O`zbekiston xalq maorifi zarbdori" faxriy unvoni berildi. Hozirgi mustaqil O`zbekistonda Abdulla Avloniy nomida bir qator maktablar bor. O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi bolalar adabiyoti bo`yicha uning nomida mukofot ta`sis etgan. Respublika o`qituvchilar malakasini oshirish markazida

A. Avloniy muzeyi tashkil qilingan. A. Avloniy 1934 yilda 25 avgustda vafot etdi.

Tayanch tushunchalar: milliy uyg`onish, jadid, ma`rifatparvarlik, mohiyat, islohot, pedagog, risola, mundarija, shoir, ma`rifatparvar, milliy ashula, yengil adabiyot, zullisonayn.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Milliy uygʻonish harakati nima va uning oʻzbek bolalar adabiyotini yuzaga keltirishdagi roli.
2. Milliy matbuotda bolalar adabiyoti haqidagi bahslar qachon boshlangan?
3. Abdulla Avloniy nega ilk bolalar shoiri va islohotchi pedagogi sifatida eʼtirof etiladi?
4. Hamza-maʼrifatparvarlik adabiyotining taniqli namoyandasi ekanligini asoslang?
5. "Turkiy guliston yoxud axloq"-qanday va kimning asari?

Hamza Hakimzoda Niyoziy – maʼrifatparvar bolalar shoiri va pedagogik risolalar muallifi, S.Ayniy bolalarning zullisonayn adibi

1. H.H.Niyoziyning ijodiy faoliyati.
2. Hamza – bolalar shoiri.
3. Sadridin Ayniy – bolalar shoiri va adibi.

Oʻzbek maʼrifatparvarlik adabiyotining taniqli namoyandasi **Hamza Hakimzoda Niyoziy**(1889-1929) oʻzbek bolalar adabiyotining maydonga kelishiga katta hissa qoʻshgan. Uning oʻzi tashkil qilgan yangi usul maktablari talabalari uchun yaratgan "Yengil adabiyot", "Oʻqish kitobi", "Qiroat kitobi" nomli oʻqish kitoblariga kiritgan koʻplab sheʼr, hikoya va masallari, ilm-maʼrifatga chorlovchi, taʼlimiy-maʼrifiy ahamiyatga ega asarlari hali-hanuz oʻz qimmatini yoʻqotgan emas. Ayniqsa, shoirning oʻquv qurollari madhiga bagʻishlangan sheʼrlari, "Bolaning yomon boʻlmogʻiga sabab boʻlgan onaning jazosi" hikoyasi, "Toshbaqa bilan chayon" masali bolalar yosh xususiyatlariga muvofiqligi bilan diqqatga sazavor. Niyoziyning "Yengil adabiyot"ida ilm va joholat muqoyasasiga oid talaygina sheʼrlar oʻz ifodasini topgan.

Ilm-jannat eshigi,
Xazinaning teshigi,
Insonni olim qilgan,
Maktab erur beshigi.

Jahl-doʻzax eshigi,
Jahannamning teshigi,
Bogʻlab solan koʻzingni,
Gʻafolat erur beshigi .

Angshiladiki, shoir dastlab ilmni jannatning eshigini ochuvchi, xazinaning yoʻlini koʻrsatuvchi porloq nur sifatida, maktabni esa insonning ilm-maʼrifat nuridan bahramand boʻlib, olim boʻlishidagi dastlabki bosqich-beshik sifatida tasvirlaydi. Keyingi satrlarda esa bu ifoda jaholat bilan muvoziy qoʻllanilib, jannat va doʻzax, xazina va jahannam, olimlik va soʻqirlik, maktab va gʻafolat singari zid maʼnoli tushunchalar orqali realistik mohiyat kasb etadi. Soʻngra, olimlik xosiyati va johillik kasofati aniqroq koʻrsatib beriladi:

Olim boʻlsak dunyoda,
Kelur har ish bunyoda,
Biz ham suv ostin kezub,
Ham ucharmiz havoda.

Johil qolsak dunyoda,
Xoʻrlik kelur ziyoda,
Hayvon kibi yuk tashub,
Choʻl kezarmiz piyoda.

Demak, shoir yosh avlodlarining bir kuni olimlar qatoridan oʻrin olishiga, hatto suv osti va osmonda kezadigan bilimdon boʻlishiga daʼvat etadi va bunga qatʼiy umid bogʻlaydi.

Kelajakka ishonch ruhi adibni bolalar uchun ko'plab darsliklar, ijtimoiy-siyosiy mavzuda, dunyoviy ilm, kasb-hunarni o'rganishga undovchi she'rlar bitishiga turtki bo'ladi.

Shoirning "Qalam" g'azali yengil vazn, o'ynoqi satrdan iborat bo'lmasa-da, mazmunan dolzarb. She'r qalam haqidagi qasida tarzida yozilgan. Lirik qahramon maktabga kelib, qalamga oshno bo'lgani va shu tufayli aqli raso, ilm-u adab egasi bo'lgani hamda barcha orzu umidlari ro'yobga chiqqanini ta'rif-tavsif etadi:

O'qudim, chiqdi savodim ham xatim yaxshi bo'lub,
G'ayratimga yarasha ishlar mango qildi qalam.

Harna kim yozmish qalam so'zidin also chiqmadim,
Ul mani ham aytganim axir bajo qildi, qalam.

Shoir bolalarni maktabga qiziqtirish, o'quv qurollariga havas uyg'otish, qolaversa, ilmning xosiyatini teran idrok etadi. Yosh qahramon tilidan "Bor edi ko'nglumda bo'lmoq podsholik orzu, O'tmadi fursat bu hojatim ravo qildi qalam. Bir gadoni o'g'li erdim podsho qildi qalam",—deya ma'rifatni ulug'laydi. Natijada, shoir she'ri va talqinidan insonning jamiyatdagi mavqei, qanday inson sifatida bo'y ko'rsatishi ana shu ilm sharofatidan ekanligi anglashiladi.

Hamzaning bolalar uchun yozgan yana bir she'ri "Bir kishining bor edi to'rt bolasi" deb nomlanadi. Aslida bu mavzu o'tgan asr boshlaridagi o'zbek bolalar adabiyotida alohida yo'nalish sifatida ko'zga tashlanadi. O'sha davr o'qish kitoblaridagi axloq-odob mavzusi insoniylikning turli yaxshi va yomon jihatlarini qamrab olgan. Saxiylilik va baxillik, to'g'riso'zlik va yolg'onchilik, mehnatsevarlik va dangasalik, sabr va sabrsizlik, qanoat va ta'magirlik, sadoqat va bevafoqlik, adolat va jabr-zulm singari insoniylikning qarama-qarshi qutblarida turgan o'nlab fazilat va illatlarning yaxshi va yomon jihatlarini xususida fikr yuritilib, yaxshisidan o'rnak olishga, yomonidan hazar qilishga undovchi she'r va hikoyalarga keng o'rin ajratilgan. Hamzaning yuqoridagi she'ri shu mazmunni o'zida ifoda eta oladi. Unda hikoya qilinishicha, bir oilaning to'rt farzandi bo'lib, uylariga kelgan mehmonning puli yo'qoladi. U pulni hech biri oldim demaydi, ko'rganim yo'q deydi. Shunda ota bolalarni tergash befovdaligini anglab, hiyla ishlatishga majbur bo'ladi: tort bolasini ham bir uyga qamab, oldiga qora kuya qo'yadi va deydi:

"Kimki rost esa gar so'zi,
Qora bo'lur o'zicha ikki yuzi;
Kimni agar yolg'on erursa so'zi,
Bor-yo'g'i qora bo'lur o'ng yuzi".

Bolalarning kattasi pulni olganligi uchun bu hiylani tushunmay, o'ng yuzim o'zicha qora bo'lsa, chap yuzimni o'zim qora qilay, deb kuyani surkaydi. Ota bolalarni tashqariga chiqqanida kattasining chap yuzi qoraligini ko'radi, qolganlarining yuzi esa oq bo'ladi. Shunda kimning o'g'ri ekanligi bilinib, xolaning puli qaytib beriladi. Shu tufayli bu fe'lini tashlagan bolani shoir yosh kitobxonlarga ibrat qilib ko'rsatar ekan, qissadan hissa tariqasida:

Kimi bo'yla xiyonat qilur,
Bir kuni o'zini shuyla xijolat qilur, deb ta'kidlaydi.

H.H.Niyoziyning "Mevalar mojarosi" turkumidagi she'rlari ham bolalarbopligi bilan diqqatni tortadi. Unda bolalarga xos xarakter xususiyatlar, chunonchi, maqtanchoqlik, baxillik, manmanlik, chaqmachaqqarlik, mushtumzo'rlik odatlari mevalar mojarosi misolida ko'rsatib berilgan.

Hamza she'riyatining ohangi va shakli xalq qo'shiqlarinikiga juda yaqin. U xalq qo'shiqlari musiqiylikidan foydalanib, o'z davri ijtimoiy-siyosiy voqealarini umumlashtirgan holda zulm va jaholatni qoralovchi, adolat va yuksak insoniy fazilatlarini, insoniy qadriyatlarini tarannum etuvchi zamonaviy ruhdagi yangi qo'shiqlar yaratdi. Shoir xalqning o'z hasratlarini ifoda etuvchi mungli, biroq shirin tuyg'ular uyg'otuvchi, tez va oson yodda qoluvchi, ohangdor va musiqiy qo'shiq hamda laparlaridan foydalanib, o'zi tanlagan mavzu

va g'oyani o'quvchiga tez va qulay yetkazishga urindi. Hamza xalq orasidan turli mazmundagi qo'shiq va ashulalarni yig'ib, ularning ayrimlari uchun o'z davri hayot voqealarini aks ettiruvchi matnlar yozgan. Hatto u yozgan qo'shiqlarning ayrimlari hajviy holatni ifodalaydi. Shoirning bunday she'rlari uning "Oq gul", "Qizil gul", "Yashil gul", "Pushti gul", "Sariq gul", "Safsar gul" kabi ramziy nomlar bilan nashr ettirilgan "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi" kitobidan o'rin olgan. Hamza folkloriga xos nozik poetik uslub elementlarini chuqur o'zlashtirib, ulardagi ilg'or gumanistik g'oyalarni rivojlantirdi. Ayniqsa, uning xalq ijodida keng tarqalgan "Kelin salom qo'shiqlariga xos tasvir va ifoda yo'llaridan ijodiy foydalanib yaratgan hajviy, yumoristik asarlari bu jihatdan ibratlidir:

Olti pullik taqadek,
Ko'zi irg'ib baqadek,
Och muxlisning qo'lida
O'tmay qolgan chaqadek
Shayx hazratlariga salom!

Hamza "Muhtarama onalarimizga xitob" she'rida onalarning farzand tarbiyasidagi unutilmas xizmatlarini yod etar ekan, ularni:

Siz edingiz millati chin rahbari,
Turmushu insonni butun sarvari,
Koni hidoyat biza siz edingiz,
Tarbiya dunyosini payg'ambari -

singari satrlarda ulug'lash bilan birga dilidagi bunday gina- kudurati va iltimosini ham bayon etadi:

Muncha uyqu bosdi sizi, onalar,
Fikr etingiz o'ylab u peshonalar,
Ilm-maorif bila begonalar,
Bo'ldingiz siz olamga afsonalar.
Mazlumalar, jonlarga jononalar,
Qizlaringizni o'qiting, onalar!

U 1914-yilda yaratgan "Yengil adabiyot" nomli 1-sinf o'quvchilariga atab chiqargan darsligidayoq:

Maktab – millatni guli,
Millat aning bulbuli,
Maktabsiz qolgan millat
Boshqa chamanning quli, – deb yozgan edi.

Hamza darsliklarni yozar ekan, ta'lim-tarbiya maqsadini ko'zlab, xalq og'zaki ijodi namunalaridan mohirona foydalangan. "O'qish kitobi"da ibratli she'riy masallarni keltirgan. Hamzaning bolalar uchun yozgan she'rlari ajoyib xususiyatlarga ega bo'lib, ularo g'ayrat-shijoat to'lib-toshgan,

zavq va ilik tuyg'ular bilan sug'orilgan, oddiy, erkin, engil tilda yozilgan, o'zining ravonligi bilan yashnab turgan asarlar edi. Mazkur she'rlar xalq tilining talaffuzi va ohangini saqlab qolgan jonli va sho'x til bilan yozilib, ulardagi satrlar qisqa-qisqa, har bir bayt aniq, ravshan ifodalangan, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun tanlangan eng muhim so'zlar bir-biriga qofiyadoshdir.

Xullas, Hamza ilm-ma'rifatning kuchiga juda katta ahamiyat berdi. Uning fikricha, bilimlarni xalq ommasi orasiga yoyish, ommaning ongini uyg'otishga yordam berishi mumkin. Agar yaxshi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo'lsa, noto'g'ri tarbiya uning uchun chinakam baxtsizlikka, hatto, halokatga aylanishini uqtirgan. Shuning uchun maktab tarbiyasi bilan bir qatorda, oila tarbiyasiga ham juda katta ahamiyat bergan. Bolalar ijobiy va salbiy ta'sirga, ayniqsa, go'daklik chog'larida juda beriluvchan bo'ladilar. Buni yaxshi bilgan Hamza ularga yoshlikdan to'g'ri tarbiya berib borish lozim, oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya maktab uchun katta madaddir va aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari

olib borilmasa, bu hol maktabning ta'lim-tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo'yadi, deb yozgan. Ayrim ota-onalar o'z bolalarining farovon yashashini ta'minlash to'g'risida jon kuydirsa ham, ularni tarbiyalash bilan mutlaqo qiziqmasligini qoralab, tarbiya bo'lmasa, moddiy jihatdan ta'minlanganlik yaxshi oqibatga olib bormasligini, moddiy jihatdan ta'minlangan, lekin tarbiya ko'rmagan bolalar yaxshi odam bo'lib yetishmasligini uqtirgan. Hamzaning pedagogik faoliyati, umuman, o'quvchilarda to'g'rilik, rostgo'ylik, halollik kabi yuksak fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Sadriddin Ayniy(1878-1954) bolalar uchun ijod etgan ma'rifatparvar adiblardan. Bu bejiz emas, albatta. Ma'rifatparvar S.Ayniy 1903 yili Samarqandga borib, M.Behbudiy tashabbusi bilan tashkil etilgan usuli jadid maktablarini ko'radi, o'qish va o'qitish ishlari bilan tanishadi. Buxoroga qaytgach, o'zi ham dastlab, tatar maktabida tojik tiliga tarjimon, so'ngra, 1908 yilda shunday maktab ochishga muvaffaq bo'ladi. Ayniy bolalar uchun ijod qilishni o'z maktabi talabalari uchun darslik yozishdan boshlab, "Alifbo" darsligini tartib beradi. 1910 yilda esa "Tahzib us-sibyon" darsligini nashr ettiradi. Ushbu darslik ko'p jihatlari bilan o'sha davr pedagogik risolalariga hamohang bo'lgan. Xususan, "Tarbiyali bola", "Odobli bola", "Ota-ona", "Maktab", "Ustoz muallim", "Marhamatli Ahmadjon", "To'g'rig'o'y va o'g'ri bola" singari didaktik matnlar va she'rlarning berilishi an'anaviydir. Biroq, bu didaktik matnlar ifodasida, mavzuni talqin etishda ustod Ayniy darsligining o'ziga xosligi ko'rinadi. Ayniy yerli xalq shevasida, ko'proq tojik tilida ijod qilgan, binobarin, darsliklarida fors tilidagi "Chor kitob"ga xos an'analarni rivojlantiradi. Ayniqsa, maktabning ilm maskani sifatidagi ta'rif-tavsifi ustoz-shogird savol-javobiga monand keltirilishi diqqatga sazovor. Bunday matnlardan dunyoning eng yaxshi joyi-maktab, eng yaxshi bolalar- maktabda o'qiydiganlar, undan ham yaxshilari- hech qachon maktabdan qolmaydiganlari, bulardan-da yaxshisi- saboqni puxta o'zlashtiradiganlari, tag'in o'rtoqlariga samimiy munosabatda bo'lib yordamini ayamaydiganlari ekani o'quvchiga tushuntirilib boriladi. Ustod Ayniy darsligiga kirgan didaktik matnlar bola tarbiyasida maktab, oila va muhit munosabatlari ta'siriga e'tibor berilgani bilan ajralib turadi. Ya'ni, bunda bolaning to'g'ri tarbiya topishida birgina maktab emas, oila, ota-ona va atrofdagi odamlar ham muhim rol o'ynashi ijtimoiy-hayotiy hikoyatlar orqali asoslab berilgan. S.Ayniy maktablar uchun ko'pgina alifbe va o'qish kitoblarini tartib berganligining o'ziyoq, uning bolalikka bo'lgan yuksak e'tiboridan dalolat beradi. Adibning 1920-yillarda nashr etgan o'nga yaqin tojik va o'zbek tilidagi alifbe hamda o'qish kitoblari orasida "Qiz bola yoki Xolida" darsligi qizlar maktabiga mo'ljallangani bilan ajralib turadi. U o'ttiz darsga mo'ljallangan. Asarning bosh qahramoni Xolida ismli qiz bo'lib, uning xulqi, xarakteri, atrofdagilarga munosabati, so'ngra, o'qishi va tarbiyasi xususida lavhalar berib borilgan. Jumladan, Xolida oilada, maktabda va tabiat qo'nyidagi faoliyat jarayonida ko'rsatiladi. Shuningdek, Ayniy Xolida misolida umuman qiz bolaning jamiyatda tutgan mavqei, sha'ni va orzu-havaslarini haqida fikr yuritadi: "Qiz bola ota-onasining eng sevuqli bir mevasidur. Qiz bola ota-onaning qayg'ulik chog'larida eng mehribon bir sirdoshidir. Qiz bola qavmu qarindoshlarining obro'yi va nomuslaridir. Qiz bola uyning ziynati va xonadonning davlatidir. Qiz bola yurtning bog'i va butun elu ulusning chirog'idir". Ana shundan so'nggina, qiz bola timsolida Xolida gavdalanadi. Dastlab, uning olti yasharlik paytidagi arzanda va tantiqligi, kichkina bo'lishiga qaramay, yasan-tusanga o'chligi va o'rtoqlariga ham shunga qarab munosabat qilishi hikoya qilinib, keyinchalik bu qizaloq odmigina Fotima bilan do'stlashgach, xulq atvorida, dunyoqarashida o'zgarish yasalgani oydinlashadi. Xolidada o'qish va ilm olishga havas uyg'ongani, mehnatsevarlik fazilatlarining shakllana borishi "Xolida xat va savoddan bo'lak narsani istamaydur", "Xolida maktabga boradi", "Xolida shohi va baxmal kiyimlarini sug'urib tashlaydir", "Xolida qo'l ishlari o'rganadur", "Xolida tikish tikadur" sarlavhali hikoyalarda o'z ifodasini topa borgan. Xullas, asar so'nggida kitobxon Xolidani aqlli va dono qiz sifatida ko'radiki, bu bilan adib bola tarbiyasi, inson shaxsining shakllanishida mehnat va oilaviy muhit muhim rol o'ynashini ko'rsata olgan. Ayniy bu qissa orqali o'zbek bolalar nasrining

shakllanishiga ham katta hissa qo`shdi, deya olamiz. Bundan tashqari, maktab va tarbiya mavzui unga umr bo`yi hamdam bo`ldi; adibning “Eski maktab”, “Yetim” qissasi va “Esdaliklar” memuari shunday xulosaga kelishga asos bo`ladi. Shu ma`noda S.Ayniy o`zbek bolalari uchun nasriy asarlar yozgan, bolalar realistik prozasi rivojida o`ziga xos hissa qo`shgan zullisonayn adib sifatida alohida e`tirofga sazovor.

Tayanch tushunchalar: milliy uyg`onish, jadid, ma`rifatparvarlik, mohiyat . islohot, pedagog, risola, mundarija, shoir, ma`rifatparvar, milliy ashula, yengil adabiyot, zullisonayn.

O`zbek bolalar adabiyoti shakllanish va taraqqiyot yo`lida (1920-30-yillar)

Elbek-bolalar shoiri, nosiri va islohotchi muallimi

Reja:

1. Elbekning hayot yo`li.
2. Elbek – bolalar shoiri.
3. Elbek – masalnavis.

20-yillarda chinakam shakllanish jarayoniga kirgan o`zbek bolalar adabiyotini **Elbek** ijodisiz tasavvur qilish qiyin.

Muallimlik uni ham badiiy ijod, ham ilmiy ijod sari etakladi. Badiiy ijodga havas unda, o`z e`tiroficha hali Xoniy maktabida o`qib yurgan kezlarida – taxminan 14 yoki 15 yoshdaligida uyg`ongan esa-da, «1917 yildan boshlab yozuvga» chinakamiga berildi. Uning asl ismi Mashriq, otasiniki Yunus bo`lsa-da, elga dardkashlikni ko`zlab, Elbek taxallusini qo`llab, «she`rlar va ba`zan hikoyachalar yoza boshladi». Shu zaylda birin-ketin uning «Armug`on» (1921) masallar, «Ko`zgu» (1925), «Yolqinlar» (1927), «Sezgilar» (1927), «Bahor» (1929), «Mehnat kuylari» (1930), «She`rlar» (1934), «Chirchiq bo`ylarida» (1935), «G`unchalar» (1935) she`rlar to`plamlari, «Qo`shchi Turg`un» (1925), «Dadamat» (1936) hikoyalar majmualari, «Tozagul» (1934), «Bog`bon», «Etik», «Mergan» (1935) poemalar alohida kitoblar tarzida arab va lotin alifbolarida bosilib chiqdi. Uning she`rlari «Chig`atoy gurungi» uyushmasi chop etgan «O`zbek yosh ijodkorlari» (1922) to`plamidan joy oldi. Yangi-yangi she`r, hikoya va maqolalari o`sha davr matbuotida tez-tez bosilib turdi, o`zi ham o`zbek matbuotining faol namoyandasiga aylanib «Inqilob», «Maorif va o`qitg`uvchi», «O`zbekiston Sovet adabiyoti», «Bilim o`chog`i», «Yangi yo`l», «Alanga», «Uchqun» (Buxoro Xalq Respublikasi Maorif nazorati organi) singari qator jurnallarni tahrir hay`ati ishida qizg`in qatnashdi, shu zaylda Respublika matbuotining yuzaga kelishi va shakllanishida, o`zbek jurnalistikasining qaror topishi va rivojlanishida munosib hissa qo`shdi.

Elbek o`zbek tilining xalqimiz milliy qiyofasini ifoda etish uchun astoydil kurashdi, bu tilni kamsituvchilarga qarata 1922 yilda shunday satrlarni bitgandi:

Mungli qushim, sayrab-sayrab kel, anglat:

Kimlar erur turk tilini sotuvchi!

Bulbul kabi sayrab turg`on bu tilni

Uyalmayin bu o`lkadan otuvchi.

Boldan totli, jondan tunuk turkchani

Tushunmaydi xo`rlab-xo`rlab yotg`uchi

Ochunlarda boyligini ko`rasdan

Kimdir bunga: «Yordi, yormas degan!»

Mungli qushim, ularni qo`y, sen sayra,

Turk tilining dong`in chiqar ko`klarga...

«Til» she`ridan keltirilgan parchadan anglashtirayotirki, unda ifodalangan g`oya istiqloq g`alaba qozonib, milliy tilimiz davlat tili maqomini olgan ayni zamonda ham o`z dolzarbligini yo`qotganicha yo`q. Til va imlo masalalarini yorituvchi «Til», «Imlo masalasi», «Imlo va til quriltoyi chaqirilishi oldidan» (1920), «O`zbek imlo qurultoyi va uning qoldirgan ta`siri», «Alifbe masalasi» (1921), «Turk tillarining qonunlari to`g`risida»

(1922), «Til darsligi», «Otilmagan sopqon» (tilga oid darslik haqida, 1923), «Tilimizdagi yangiliklar» (1924), «Yana til – imlo masalasi» (1925), «Imlomiz ustida bir necha soʻz» (1927), «Til imlomiz ustida» (1929), shuningdek, oʻzbek folklori va etnografiyasi yuzasidan toʻplagan materiallari asosida «Oʻzbek folklori lugʻati» (1922), «Oʻzbek xalqining izohli lugʻatiga oid materiallar» singari oʻnlab maqolalarni yozdi. Elbek til taraqqiyotini jamiyat taraqqiyotidan ayri tasavvur qilmadi.

Elbek oʻzbek halqining boy ogʻzaki ijodiyotini toʻplash va oʻrganish ishiga ham tilshunos-muallim sifatida Turkiston Maorif Xalq Komissarligi qoshidagi Oʻzbek bilim hayʼatida ishlagan kezlaridayoq kirishgan edi. U Boʻstonliq atroflaridan turli qoʻshiqlar, laparlar, ogʻzaki drama, maqol va matallar, topishmoqlarni maroq bilan toʻpladi. Shu kuzatishlari jarayonida xalq adabiyoti juda boy boʻlishi bilan birga oʻz davri va oʻsha zamon kishilarining turmushlarini oʻz ichiga olgan qimmatli adabiy vasiqalardir, degan xulosaga keldi. Binobarin, ularni toʻplash, nashr etish va oʻrganishga jadal kirishishi zarurligini uqdirib, yoshlar ongini faollashtiruvchi oʻzi toʻplagan xalq topishmoqlari, maqollari va qoʻshiqlarini jamlab «Topishmoqlar, maqollar va ashula toʻplamim» nomi ostida 1923 yilda bostirib chiqardi. Bu kitob gʻoyat qizgʻin kutib olindi, unga Oʻzbekistonning boshqa joylaridagi folklor namunalarini qoʻshish istagini ifodalovchi takliflar ham boʻldi. Bu taklifni inobatga olib, Elbek Sirdaryo, Buxoro, Fargʻona, Xorazm va Samarqand shahar va qishloqlarini kezdi, folklor asarlarini yozib gʻoyat yangidan toʻplagan materiallarni qoʻshgan holda 1928 yilda Gʻulom Zafariy bilan hamkorlikda «Ashulalar» toʻplamini nashrdan chiqardi, 1936 yilda yana yangi materiallarni qoʻshib, shu toʻplamni uchinchi nashrini amalga oshirdi.

Elbek xalq ertaklarini toʻplar va oʻrganar ekan, ularga oʻzi oʻzbekchaga oʻgʻirgan A.S.Pushkinning «Baliqchi va baliq haqidagi ertak», «Oltin xoʻroz», «Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak» tajribasi asosida yondashib, ertak syujetini nazmda bayon etish anʼanasini oʻzbek bolalar dostonchiligini yuzaga keltirishga tatbiq etdi. Bu jihatdan uning 1935 yilda nashrdan chiqqan «Ertaklar» toʻplamini tashkil etgan «Kambagʻal yigit va par dasturxon», «Erksiz folchi», «Omonat» sheʼriy ertaklari alohida ahamiyatga molik.

Garchi «Kambagʻal yigit va par dasturxon» shu nomdagi oʻzbek ertagi asosida yaratilgan esa-da, unda A.S.Pushkinning «Baliqchi va baliq haqidagi ertak» asari bilan qator mushtarakliklar bor. Pushkin ertagi markazida kambagʻal cholu kampir va oltin baliq obrazlariga daxldor epik sarguzasht tursa, Elbek asarida kambagʻal kampiru oʻgʻli va turna orasidagi munosabatdan tarkib topgan syujet harakatdadir. Hatto tuzoqqa ilingan turnaning tilga kirib ovchi oʻgʻlonga qilgan murojaati bilan oltin baliqning baliqchi cholga qilgan iltijosida mazmun oʻxshashligi bor:

Turna: - Hoy yigit, meni soʻyima,
Boʻshatib qoʻyib yubor.
Buning uchun sen mendan
Ne soʻrasang shuni ol!:

Oltin baliq: - Qoʻyib yubor dengizga, bobo,
Katta toʻlov toʻlayman senga,
Koʻngling ne tilasa bergayman.

Syujetdagi tafovut shundaki, Pushkin talqinida bebiliska boylik qashshoq kampirni quturtiradi, Elbek talqinida xalq boyligini zoʻravonlik bilan tortib olgan ochkoʻz podshodan qasos olishga undalgan. Ochkoʻz podsho ovchi oʻgʻlondan turna bergan par dasturxonni tortib olgach, turna ichidan askar chiqadigan qovoqni sovgʻa qiladi. Shu askarlar zoʻravon, ochkoʻz podsho taʼzirini berib, kambagʻal yigitga par dasturxonni qaytarishadi. Ertakda hak-huquq uchun kurash motivi ifodasini topgan.

«Erksiz folchi» sheʼriy ertagida ham ijtimoiy motiv ustuvor. Xalqning «soxta folbin» ertagi syujetini nazmda bayon etish asosida bitilgan bu sheʼriy ertakda nochorlikdan soxta fol ochish evaziga tirikchilik qilishga uringan, ammo kutilmagan omadi bilan podshoning yoʻqolgan xachiri va qaroqchilar xazinadan oʻmargan bir qop oltinni topib nazarga tushgan,

nihoyat yolg'oni chinga aylanib saroy folbini sifatida izzat-ikrom qozonsa-da, erkidan ayrilib tahlikada yashashga mahkum bo'lgan folbin qismati ko'rsatilgan. Folbin o'zining yolg'ondakam folchi ekanini har qancha takrorlamasin, na podshoh, na saroy ahli unga ishonishmaydi, uning yolg'on gapini esa rost o'rnida qabul qilishadi. Elbek bu bilan saroyning yolg'on va ig'volar maskaniga aylanganini, unda yolg'on rost o'rnini tamoman egallaganini fosh etadi.

Elbekning bu she'riy ertaklari badiiy saviyasiga ko'ra H.Olimjon, Mirtemir, S.Jo'ra, Q.Muhammadiy, Sh.Sa'dulla va Z.Diyorlarning 30-yillarda yaratgan she'riy-adabiy ertaklari darajasida turmasa-da, o'zbek bolalar dostonchiligini rivojlantirish yo'lidagi izlanish sifatida e'tirofga sazovor.

Elbek o'zbek bolalari xalq qo'shiqlarini to'plash va nashr etishning ham tashabbuskorlaridan bo'ldi. U o'zi to'plagan material asosida 1937 yilda chop ettirgan «Bolalar qo'shig'i» to'plami o'zbek folklorshunosligi tarixidagi dastlabki urinish samarasi sifatida ahamiyatlidir. To'plamda 18 ta bolalar qo'shig'i jamlangan.

Elbekning boshlang'ich maktab bolalari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari tuzish tajribasi bolalar yoshi xususiyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda badiiy asarlar yozish iqtidorini, demakki, bolalar shoiri va bolalar yozuvchisi sifatidagi iste'dodini shakllantirishda muhim omil bo'ldi. Bu jihatdan «Bilim» darsligining ikkinchi kitobida keltirilgan «Odamlarning kuchi nimada?» hikoyasi e'tiborga loyiq:

Odam miltiq, tuzoq, qarmoq, ketmon yasadi. Yirtqish hayvonlarni topib otdi. Tuzoq quyib, qushlarni ilintirdi. Qarmog'iga tiqish uchun ketmon bilan er kovlab, qurtni topdi va baliqni suvdan ilintirib oldi: odamning kuchi yasagan qurollarida.»

Adibning mahorati shundaki, hayotiy saboq bolalarga xos mushohadakorlik zaminida ifodalangan. Yoki 1922-1925-1927 yillarda 25 ming nusxada bosilgan «O'zbekcha o'qish kitobi»ning birinchisiga kirgan «Yo'ldoshning tegirmoni», «Totli sho'rvo» va «Jo'jalar» hikoyalari ham shu xildagi fazilatlariga ega. Chunki «Yo'ldoshning tegirmoni»da bolalar ijodkorligi o'yin jarayonida ochib beriladi:

«Qo'g'irchoq» to'rtligi esa parallelizm negizida bitilgan bo'lib, ahloqiy-didaktik mazmunga ega. Butun to'rtlikda «qanot» so'zi rang-barang ma'noda tovlanadi:

G'oz qanoti oq bo'lur,
Er qanoti ot bo'lur.
Bolalarning qanoti –
Maktabda o'quv bo'lur.

She'rning voqeaband mazmunga ega bo'lishi – unda epiklik alomatini ta'minlabgina qoldirmaydi, balki uning bolalarbopligini, aniqrog'i, undagi mazmun va obrazlarning «ko'rimliligini» – bola idrokiga mosligini belgilaydi. Elbekning o'zi ham bu hodisani chuqur anglaganini «Armug'on» to'plami so'zboshisida shunday e'tirof etgan: «Zamon kishilari hozirgi turmushga hamda o'zlarining ko'ngillariga to'g'rilab yozilgan kitoblarni axtarmoqqa boshladilar. Mana, men ham shuning kabi elimizning istagan narsalariga, oz bo'lsa-da, ko'mak etmoq umidi bilan ushbu kitobchani el bolalarining qarashlariga otmoqqa botirlik qildim...»

«... el bolalarining qarashlariga» mo'ljallangan bu kitobcha faqat masallardan tartib berilgan shoirning ilk to'plami bo'lib, qisqa muddatda ikki marta (1921 va 1923 yillarda) nashr etildi. Shuni ta'kidlash joizki, Elbek butun faoliyati davomida 30 dan ziyod masallar yozdi, ularni «Armug'on»dan boshqa «Ko'zgu» (1925), «Yolqinlar» (1925) va «G'unchalar» (1935) kabi to'plamlarida ham e'lon qildi va shu asosda o'zbek masalchiligini rivojlanishining yangi bosqichiga olib chiqdi. Elbek bu masallarni yaratishda xalq og'zaki ijodi, o'zbek mumtoz adabiyoti va I.A.Krillov masalchiligiga xos an'analardan ijodiy foydalandi. Chunonchi, «Sichqon xotinning qiz uzatishi», «Qora qushlar ila toshbaqalar» masallari uchun «Kalila va Dimna»da mavjud bo'lgan sichqon xotinning qiz uzatishi, qarg'a va toshbaqa syujetlaridan foydalangan. «Olaqarg'a va Qurbaqa» masalini esa I.A.Krillovning «Qarg'a va Tulki» masalidan ijodiy ta'sirlanib yozgan. Zotan, u

I.A.Krillovning «Fil va Laycha», «Ko`zgu va Maymun», «Tulki va uzum», «Eshak bilan bulbul», «Bo`ri bilan Turna» masallarini o`zbek tiliga o`girish jarayonida mahorat sirlarini o`zlashtirgan, lekin o`ziga xos ijod yo`lidan borgan.

«Olaqarg`a va Qurbaqa» masalida maqtovdan taltayib ketib, o`ljasidan ajralib qolgan Olaqarg`aning gumrohligidan kulinadi. Olaqarg`a Qurbaqani tutib olib, daraxt shoxiga qo`narkan, Qurbaqa undan qutilishni ko`zlab, Olaqarg`ani maqtay boshlaydi:

Dedi: – Ey barcha qushning sen go`zali!
Dunyoda ko`r madim men senday qushni...
Senga teng yo`q yerda emas, ko`k ustida,
Qani biroz sayrab bergil, men eshitay.

(«Armug`on», 1923, 22-bet)

Olaqarg`a bunday maqtovdan erib ketib, sayramoqqa kirisharkan, og`zidan Qurbaqa tushib ketadi va suvga sho`ng`ib undan qutuladi.

Shoir maqtancholik fojeasini boshqa bir asari – «Sholi va Kurmak» masalida ham ochib beradi. Masal Sholi va Kurmak orasidagi munozara asosida qurilganligidan mumtoz adabiyotimizdagi munozara janriga hamohang. Lekin undan keltirib chiqarilgan bosh g`oya – sholikorni qadrlash, shu asosda sholikorlik mehnatiga muhabbat uyg`otish motivi masalga xos mantiqiy yakun tarzida namoyon bo`ladi.

Elbek bolajonlar uchun talay quvnoq she`rlar yozib, «Ko`zgu», «Yolqinlar», «Bahor», «G`unchalar» singari to`plamlarida e`lon qildi. Bu she`rlarida kichkintoylarni tabiat bilan tanishtirishga, ularda hasharotlarga, o`simliklarga, qushlarga mehr-muhabbat tuyg`ularini uyg`otish evaziga Vatanni sevish sabog`ini berishga intildi. Chunochi, «Lolazorda» she`rining lirik qahramoni Lola dengiz yuzida sizib olgan taassurotini shunday ifodalaydi:

Chiqqan edim dalaga,
Ko`zim tushdi bolaga.
Bordim-da, uzdim-oldim,
Oy, qiziq holga qoldim!

Sulton Jo`ra - o`smirlar kuychisi, Oybek – bolalar adibi

Reja:

1. Sulton Jo`raning hayot yo`li.
2. Sulton Jo`ra – bolalar shoiri.
3. Oybekning hayot yo`li.
4. Oybek – bolalar shoiri.
5. Adibning bolalarga bag`ishlangan nasriy asarlari haqida.

Sulton Jo`rani o`smirlar kuychisi sifatida yaxshi taniymiz. Shoir she`rlarining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari rang-barang. Uning “Oy nechta”, “Lola”, “Sog`inchli salom” kabi she`rlarida bolalar olamining ifodasi ufurib turadi. S.Jo`raning pedagog shoir sifatida yozgan “Tinish belgilarining majlisi”, “Kimning xati chiroyli” she`rlari ta`lim-tarbiyaviy jihatdan dolzarb. Shuningdek, shoirning “Yolg`onchi” dostoni, “Zangori gilam” ertaklarining syujeti va kompozitsiyasi o`ziga xos qimmatga ega.

She`riyatda havas Sulton Jo`ra qalbida juda erta uyg`ondi. U bilim yurtida o`qib yurgan kezarlarida klassik va sovet shoirlarining asarlarini mutolaa qilib, o`zi ham ularga taqlidan she`rlar mashq qila boshladi. Keyinchalik shoir tarjimai xolida bu yillarni xotirlab “Birinch marta 1927 yilning oxirida “Mehnat qo`ynida” degan she`r yozdim, u “Yangi yo`l” jurnalida bosildi”-deb aytgan edi.

Sulton Jo'raning dastlabki she'rlari 1933-yilda Buxoro yosh shoirlarning "She'rlar" to'plamida nashr etildi. Uning 1939-yilda "Fidokor", 1941-yilda "Moskva" she'riy to'plamlari, 1942-yilda "Iroda" nomli pyesasi nashr etildi. Shoir vafotidan so'ng 1951-yilda rus va o'zbek tillarida "Tanlangan asarlar", tinch qurilish yillari davrida iste'dodli shoirning "Havorang gilam", "Zangori gilam", "Bruno", "Parvoz", "Qaldirg'och" kabi kitoblari bosilib chiqdi.

Ayni choqda, u "yaxshi" va "a'lo" baholarga o'qish uchun kurashish, rostgo'y va intizomli bo'lish, madaniy va pokiza kiyinish, savodxon va chiroyli yozuv malakasini egallash kabi ta'lim- tarbiyaviy masalalarni ham badiiy vositalarda talqin etdi. Bunday g'oyalar shoirning "Yozgi yomg'irdan so'ng" (1936), "Qizlar", "A'lo" va "Yaxshining maqtovi", "Zangori gilam", (1939), "Lola", "Oy nechta?", "Tinish belgilarining majlisi", "Cho'ntak", "Sirkda" (1940), "Qarzdor", "Qaldirg'och", "Yolg'onchi", "Dengiz tagida", (1941), "Sog'inib" (1942), "Sog'inchli salom", "Salom xat" (1943) kabi asarlarida o'z ifodasini topdi.

Sulton Jo'ra o'z vatanining ozodligi, xalqining erki uchujngina emas, balki ularning porloq kelajagi bo'lgan kichkintoy do'stlarining baxti uchun ham kurashdi. Qirg'in maydonlarida bosqinchilar bilan olisha turib, navqiron avlodga o'z alangali salomini yo'llay oldi.

She'riyat sirlarini qunt bilan o'rganish, jiddiy va muttasil mashq Sulton Jo'raning adabiyot dargohiga o'z ovozi bilan kirib kelishiga imkon berdi. U poeziya olamiga katta umid bilan kirib kelgan yillar o'zbek adabiyotining yanada ko'tarilish davriga to'g'ri keldi. Bu paytlar yangi hayot davrini tarannum etuvchi. 30-yillar o'zbek poeziyasining eng yaxshi namunalari yaratgan Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom va Uyg'unlarning qator asarlari nashr etilgandi. Bular butun vujudi bilan poeziyaga berilgan Sulton Jo'raga ta'sir etmay, uni to'lqinlantirmay qolmadi. Shuning uchun ham shoir "Bu yillarda adabiyotga qiziqib Uyg'un, Hamid Olimjonlarning she'rlarini ko'p o'qirdim... yohud Shayxzoda, G'afur G'ulomlarning barcha asarlarini qiziqib o'rganib chiqdim,"-deb takror-takror yozadi. "Mening o'sishimga o'rtoq G'afur G'ulomning tashabbusi bilan 1939-yilning dekabrda Toshkentda adabiy kecha o'tkazildi".

1940 yilgacha, shoirning o'zi «birinchi she'riy to'plamim» deb e'tirof etgan «Fidokor» majmuasi bosilgunigacha, u, asosan, davriy matbuotda bosilgan she'riy va publitsistik asarlari bilan shunday e'tibor qozona olgan edi. Rost, bu asarlarning kattagina qismi katta yoshdagilarga mo'ljallangan esa-da, u bolalar va o'smirlarni qam unutmadi, ular uchun g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlar yozib, bolalar va o'smirlar kuychisi sifatida tanildi. U turli yoshdagi bolalar ruhiy olamini nafis his qila olganligi sababli ular xarakteridagi tabiiy soddalikni, tinib-tinchimaslikni, ayrim hollarda yolg'onchiligu dangasalikni yorqin ifoda eta oladigan «Lola», «Oy nechta», «Cho'ntak», «Mamatning kechirimi», «Yolg'onchi», «Qarzdor», «Kimning xati chiroyli», «Yaxshi» va «A'lo»ning maqtovi», «Harflar paradi», «Tinish belgilarining majlisi»

kabi XX asrning 30-yillaridagi o'zbek bolalar she'riyatining betakror namunalari yaratdi.

Sulton Jo'ra adabiyot maydoniga kirib kelgan davrda rus va jahon ilg'or adabiyotining eng yirik namunalari bilan tanishish, mutolaa qilish imkoniga ega edi. Yana bir dalilni alohida ta'kidlash kerak. Ma'lumki, ana shu yillarda o'zbek adabiyotshunosligida ham muhim muhim asarlar maydonga kelgan edi. Bu davrda e'lon qilingan "Lirika uchun", "So'nggi yillarda o'zbek poeziyasi" (Oybek), "O'qish va o'rganish qiyinchiliklari to'g'risida" (Hamid Olimjon), "Realizmni egallash yo'lida" (Hamid Olimjon, Uyg'un), "O'zbek sho'ro adabiyotida dunyoqarashni egallash haqida chet ta'sirlar bilan kurashish masalasi" (O.Hoshim), "Bir reaksion nazariya to'g'risida" (O.Sharafiddinov) kabi asarlar va adabiyotimizning qisqa, lekin mazmunli tarixiy yo'lini xarakterlovchi boshqa maqolalar Sulton Jo'ra ijodining g'oyaviy takomilida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yillari adabiyot maydoniga kirib kelgan Zulfiya, Usmon Nosir, A. Umariy, Hasan Po'lat, Z.Diyor,

Parda Tursun kabi iste'dodlar o'rtasida avj olgan qizg'in ijodiy musobaqa esa Sulton Jo'rani ham ijodiy kamolot sari rag'batlantiradi

O'zining roman va qissalari, ilmiy-nazariy, siyosiy, badiiy publitsistik asarlari, tarjimalari, ajoyib she'rlari, dostonlari, hikoyalari bilan o'zbek adabiyoti xazinasini boyitgan atoqli so'z san'atkorlaridan biri **Oybek** bolalar adabiyoti taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shgan adibidir. U yaratgan she'r va hikoyalar, qissa va dostonlar bolalar ma'naviyatiga samarali ta'sir etib, yosh avlod estetik didining shakllanishida katta rol o'ynamoqda. «Gunafsha» (1926), «Bolalikni eslab» (1926), «Shaharcha bolalariga» (1934), «Shoirning bolaligi» (1937), «Eski va yangi bolalik» (1937), «Odobli Tursun», «Ahmadjon bog'bon» (1971) kabi she'riy kitoblari, «Zafar va Zahro» (1953), «Haqgo'ylar» (1976), «Bobom» (1957) kabi dostonlari, «Alisherning yoshligi» (1967) qissasi, «Globus» (1981) hikoyalar to'plami, «Bolalik» kabi asarlari ayniqsa xarakterlidir.

Yozuvchi Oybekning bolaligi ham barcha mehnatkash xalq bolalari kabi kechadi. U yoshlikdan uy-ro'zg'orga qarashish, guzardan narsa olib kelish, suv tashish, o'tin yorish, qor kurash kabi yumushlarni bajaradi. Barcha bolalar kabi bahor vaqtlarida tomma- tom oshib, varrak uchirar, dovuchcha qoqar, qish bo'lsa oshiq o'ynar, xo'roz, tuxum va it urishtirishlarda qatnashar, yoz kunlari onasining pinjida qarindosh-urug'larining uylariga «mehmon»ga borar, hayit, sayil va boshqa milliy bayram kezlarida esa o'zida yo'q sevinib, dor o'yini, xalq qiziqchiliklarini, ko'ngil ochar tomoshalarni ko'rishga muyassar bo'lar edi. Keyinchalik «Shaharcha bolalariga», «Shoirning bolaligi» she'rlarida shu manzaralar o'z aksini topadi.

Oybekning bolalar va o'smirlarga bag'ishlangan she'riy asarlarida bugungi qaynoq hayot, ilm, hunar va mehnatga bo'lgan muhabbat, vatanparvarlik, jamoatchilik, ijtimoiy burchni anglash kabi xususiyatlar aks etgan. Bu fazilatlar o'sha davrda Oybek asarlarining yetakchi mavzuiga aylanadi. Shoir g'oyaviy-badiiy kuchli she'rlar bilan birga, bolalar va o'smirlar hayotini tasvirlovchi hikoyalar ham yozdi. 1981 yilda adibning «Globus» nomli to'plami bosilib chiqdi. Bunda Oybekning shu vaqtgacha e'lon qilinmagan «Gulnor opa» (1930 yil), «Fanorchi ota» (1930 yil), «Singan umid» (1930 yil), «Tillatopar» (1930 yil) hikoyalari ham chop etilgan.

Oybek kichik yoshdagi maktab bolalari uchun Pokiston bolalari hayotidan «Qonli barmoqlar» (1962 yil) hikoyasini yozdi. Hikoyada Pokistonda tinchlik uchun kurashuvchilardan qanday qasos olinayotganligi, ularning bolalari ko'chalarga chiqarib tashlanayotganligi, tilanchilikka va malaylikka mahkum etilayotganligi hikoya qilinadi. Yozuvchi buni asar qahramoni to'qqiz yoshli Alining sarguzashtiari orqali tasvirlaydi.

Oybek hikoyada Alilarning yashash sharoitini va qanday kun kechirishini quyidagicha tasvirlaydi: «Gorishov Lohurning baridagi bir daha. Lohur — qo'shiqlar, gullar diyori. Gorishov esa dahshat! Ali bu xaroba - vayronalar ichida yuguradi. Ko'cha, yo'lka deydigan narsa yo'q, tutash xaroba kulbalar. Shunday xaroba kulbalarining birisida Ali bilan onasi, otasi qamalgandan so'ng haydalib, ko'chaga tashlangan edi».

Pokiston shaharlarining ko'cha-ko'ylarida to'da-to'da tilanchi bolalar yuradi. Gadoylar odatda «baxshish» deyilsa, o'zlarini tomdan tashlab yuborishga tayyor ekanligi hikoyada bo'rtib turadi.

Ali bir parcha non qidirib, besh-olti kundan buyon rastalarni kezib yurganda gulobchi do'kondor uni chaqirib «jahl aralash dedi: "Mana bu yashiklarni bo'shat!"» Buning evaziga esa haq to'lashga va'da qiladi. Ali: «rostdanmi?»,- deb so'radi va do'kondorning «ha» degan tovushini eshitgach, bola uzun xo'rsindi, jilmaydi. Kir, kalta ko'ylagining yenglarini shimarib, ishga tushdi». Ali yashiklardagi siniq gulob shishalarini tashiydi: «Siniq, cheti uchgan shishalar va berahm quyoshning issig'i xunob qilar, kichik barmoqlari tilingan, qo'llari qon. Ammo och, tentirab yurishdan charchagan bola bu xizmatdan vaqti xush edi. Isqirt, juldur, cho'pday oriq bolalar bolaning qonagan qo'llariga tikildilar. Bolalar Aliga ko'mak bermoqchi bo'lganlarida u «rahmat», deb javob berdi. Ali och-nahor, barmoqlarini shisha siniqlari kesib achitishiga, bir parcha non topishning nihoyatda azob-uqubatlari va mashaqqatlariga qaramay, do'kondor

gulobchining og'ir ishini bajardi. Do'kondor bir qutini ochib, yupqa «chapati» nonni uloqtirdi. Ali ilib oldi, quvonib dedi:

– Darrov borib, ayamga beraman, u kasal!

– Aya, men keldim, non topib keldim. Turing, non yeng, non...

Kampir onaning yuzini ochdi:

– O'tdi olamdan!

Dard bilan, yo'qchilik bilan, ochlik bilan, g'am bilan hamisha kurashgan bu g'arib ayolning yuzida baxtsiz hayotning eng so'nggi nafasida o'lim bilan kurash dahshati ko'rinar edi».

Bu hayotiy parcha faqat pokistonlik Aining hayoti uchun xos hodisa bo'libgina qolmay, balki kambag'al mehnatkash bolalarining hayoti uchun ham tipik hol edi.

Kitobxon Alining sarguzashtlari bilan tanishar ekan, unda oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum etilgan bolaning ayanchli taqdiri orqali yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'ulari shakllanadi.

Muhimi shundaki, hayotda doimo yovuzlik bilan ezgulik orasida tinimsiz kurash borishini, bu kurash insonlarni ulug' ishlarga otlantirishi mumkinligini his qiladilar.

Oybek buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiyning bolalik yillari haqida hikoya qiluvchi «Alisheming yoshligi» qissasini (1967) yozdi. Ulug' Navoiy Oybekning sevimli siymolaridan biri edi. Bu haqda adib maqolalaridan birida shunday hikoya qiladi: «Navoiy she'riyati va Navoiy obrazi hamisha kuchli bir quyosh kabi ko'nglimni tortar edi. O'z asarlarimda Navoiy obrazini yaratishga zo'r mayl va istagim bor edi. Yoshligimdan bepi Navoiyning o'lmas, adabiy she'rlarini sevib o'qir edim, uning jozibali g'azallari borgan sari ko'nglimga singib bordi, shakl va mazmunlari yuragimni maftun etdi... U mening ko'nglimda, yodimda edi, butun borlig'imni band etgandi. Yursam-tursam hamisha Navoiyni o'ylar edim. Uning ma'nodor, aqlli ko'zlari hamisha xushfe'l, rahmdil, olijanob qiyofasi, asl pok, ulug' qalbini his etardim, ko'z o'ngimda ko'rardim...»

Oybek 1928 yildan boshlab Alisher Navoiy ijodini chuqur o'rganishga kirishdi. U dastlab, Navoiy ijodiga doir ko'pgina ilmiy maqolalarni o'qib o'rganadi. Keyinroq «Navoiy», «Guli va Navoiy» dostonlarini nashr ettiradi. Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan «Navoiy» romanida ulug' shoir va mutafakkir hayotining kamolot davri tasvirlanadi.

«Alisherning yoshligi» qissasida Hirotdagi (taxminan 1447-1452 yillar) tarixiy voqealar, shahzodalarning Shohruh vafotidan keyingi o'zaro taxt uchun kurashlari va shu davrda o'tgan Alisheming bolalik (to'rt yoshdan boshlab) yillari haqida hikoya qilinadi. Qissada Alisher obrazining takomili o'sha vaqtdagi tashqi muhit voqealari va ziddiyatlari bilan uzviy aloqada tasvirlanadi. Hukmron doira orasida mavqei ancha baland bo'lgan G'iyosiddin va Gulbegim bekaning oiladagi samimiyliklari, o'zlarini sipo ham oqilona tutishlari, farzandi Alisheming ham jismoniy, ham aqliy tomondan kamolotida muhim rol o'ynaganligi haqqoniy tasvirlanadi.

Yosh Alisher xarakteridagi o'ziga xos xislatlar uning bolalik chog'idanoq namoyon bo'lgan edi. Alisher siymosiga xos bo'lgan aqllilik, kattalarga bo'lgan samimiy hurmat, she'riyatni nozik his etish, g'azallarni g'oyat maromiga yetkazib, ifodali o'qish, ayniqsa, «ot choptirishdan fikr yuritish yaxshiroqdir chamamda», deya fikr yuritishi kitobxonda katta taassurot qoldiradi.

Alisheming keyinchalik buyuk davlat arbobi, ulkan shoir darajasiga yetishishida bu kabi fazilatlarining o'zigina yetarli asos bo'lib xizmat etmadi, albatta.

Oybek Alisher xarakterining shakllanish jarayonini har bir epizod, suhbat, yordamchi obraz va qahramonlar munosabati orqali ham badiiy asoslay olgan.

Alisheming o'qishga – maktabga bo'lgan havasini adib uning tilidan: «Ov qilmoq merganlik–ermak narsa, lekin eng zo'r zarariyat maktabdir. Turmushning ko'p sirlarini maktab o'rgatadi», deb uning ilmga bo'lgan qiziqishini tasvirlaydi. Shu bilan birga uning ota-onasi, qavm-qarindoshi va boshqalarning suhbatlari, shoirlarning g'azallari Alisherga katta ta'sir etganini qayd etadi.

Adibning «Bolalik» qissasi avtobiografik xarakterga ega bo`lib, uning markazida yosh Musaning sarguzashtlari yotadi. Musa obrazining hayotdagi asosi adib Oybekning o`zidir. Asarda Musavoyning yetti yoshgacha bo`lgan davrdagi xakteri sho`xlik, tegajoqlik, tinib-tinchimaslik va o`yinqaroqlikdan tashqari, ochiq ko`ngil, dangalchi o`tkir zehniligi Oybekona tasvirga ega.

«Bolalik» qissasida Turg`un, A`zam, Ahmad, Qodir, Hoji, Sobir kabi Musavoyning tengqurlari va o`rtoqlarining obrazlari ham berilgan. Ularning har biri o`z shaxsiy qiyofalariga ega.

Oybek o`sha davr tashvishlari bolalar hayoti va taqdirida ham ma`lum darajada aks etganligini mahorat bilan tasvirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Oybek yuqoridagi kabi asarlari bilan o`zbek bolalar adabiyotining shakllanishi va yuksalishiga katta hissa qo`shdi. U o`zining bunday asarlari bilan bolalar adabiyotining sevimli kuychisiga aylanib qoldi.

Tayanch tushunchalar: she`r, hikoya, nosir, kuychi, obraz, mavzu, g`oya, motiv, munosabat, qomus, zabardast, folklor, mahorat.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Sulton Jo`raning hayoti va ijodi to`g`risida malumot bering?
2. “Uchqur poyezdlar” biografik qissasi qaysi ijodkor haqida yozillgan va uning muallifi kim?
3. Oybekning bolalar adabiyotidagi o`rni?
4. “Qonli barmoqlar”da qaysi xorij bolalari hayoti aks etgan?
5. Biografik va avtobiografik asarlar haqida ma`lumot bering.

O`zbek bolalar adabiyoti yuksalish yo`lida (1940-80 yillar).Quddus Muhammadiy- bolalarning tabiatshunos shoiri

Reja:

1. Quddus Muhammadiyning hayot yo`li.
2. Quddus Muhammadiy – bolalar shoiri.
3. Shoir she`rlarinig mazmun-mundariyasi.

Quddus Muhammadiy XX asr o`zbek bolalar she'riyatini mavzu mundarija hamda janriy xilma-xillik bilan boyitgan zabardast shoir. Uning ijodi o`tgan asrning 30-yillaridan, to yangi asr bo`sa`g`asiga qadar keng qamrovli shakl va tamoyil kasb etdi. Shu davr mobaynida shoir she'rlarini bog`cha bolasidan tortib, maktabni tamomlayotgan o`spirinlargacha birdek sevib o`qidi, qo`shiq qilib kuyladi. Q.Muhammadiyning alohida chop etilgan she'riy to`plamlari, ertak-dostonlaridan tashqari, birgina maktab darsliklariga kiritilgan asarlarining o`ziyoq, uning ommabop va hammabop she'rlar yozganidan dalolat beradi. Muhimi, ana shu ehtiros hali-hanuz syngani yo`q. Shoir she'rlari mustaqillik bolalari tomonidan ham birdek, sevib o`qilmoqda. Shunga yarasha ijodkor badiiy olamining talqini o`zining yangi qirralari bilan to`lishib bormoqda.

Quddus Muhammadiy butun umrini, ijodini kichkintoylarning katta adabiyotiga bag`ishladi.

*She`r yo`lin o`rgatgan quyoshim, oyim,
Kunduzim, yulduzim, ilhomim, so`zim,
Shu Vatan, shu xalqim, shu o`g`il-qizim,
She`rimning asosiy mavzui sizlar.*

*Asarim ovozi - parvozi sizlar,
O`zingiz ilhomim oltin o`zagi,
O`zingiz she`rimning husn-bezagi,*

Haqiqatdan ham shoir she`rlarining mavzui bepoyon Vatan, uning mehnatsevar xalqi, shirin «o`g`il-qizlari»dir. Asarlarining ovozi ham, «parvozi» ham, «ilhomi»ning «oltin o`zagi», she`rining «husn-bezagi» ham shulardir. Shoir o`z asarlarida bolalarning yurak tuyg`ularini, orzu va intilishlarini, o`qishdagi yutuqlarini aks ettirish bilan birga, ulardagi kamchiliklarni qoralaydi, uni yo`qotish yo`llarini izlaydi, topadi, o`z o`quvchisiga talabchan o`rtoq, qattiqqo`l ustoz sifatida yo`l ko`rsatadi.

Shoirni bolalarning hamma tomoni qiziqtiradi. U bolalarga nima xunigu nima chiroylik, nima yaxshi-yu nima yomon, juda go`zal nima-yu juda qiziq nima ekanligi haqida yozadi. U o`z she`rlari bilan bolalarda estetik didni o`stirishga, go`zallik haqida tassavur hosil qilishga harakat qiladi.

To`qson yillik umrini bolalarga she`r, qo`shiq, doston, doston-ertak yaratishga qaratgan Quddus Muhammadiy 1907 yilda Toshkent shahrida mehnatkash dehqon oilasida dunyoga keldi. Bo`lajak shoirning otasi Muhammad Alibek Abdurahmonbekov ancha savodli kishi edi. Shu sababii u dastlabki ma`lumotni otasidan oldi.

1925 yilda otasi vafot etgach, Quddus Muhammadiy awal amakisirikida, so`ngra esa maktab-internatda tarbiya oladi. Internatda Q.Muhammadiyning birinchi she`ri «Chualachi» maydonga keladi va bu yerda chiqadigan «Quyosh» nomli devoriy gazetada bosilib chiqadi. Shu ilk mashqlaridayoq bo`lajak shoirning nafasat olamini kuzatish va badiiy idrok etish talanti hamda umumlashtirish mahorati yaqqol ko`rinadi. U yetti yillik maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, Toshkent qishloq xo`jalik texnikumiga o`qishga kiradi. Bu yerda u bolalar uchun she`rlar yoza boshlaydi. Uning «Tong o`yini», «Paranji», «Ahmad va asalari», «Seleksiya stansiyasi» nomli she`rlari vaqtli matbuotda bosilib chiqadi.

1931 yildan Q. Muhammadiy maktabda botanika o`qituvchisi bo`lib ishlaydi, shu bilan birga O`rta Osiyo davlat univesitetining biologiya fakultetida o`qiy boshladi.

Bolalar uyidagi va universitetdagi hayot, mehribon murabbiy va muallimlarning g`amxo`rliliklari Q.Muhammadiy qalbida bir umr o`chmas iz qoldiradi. Bu yerdagi o`zaro do`sflik bo`lajak shoir qalbini tordek ko`tarib yuboradi.

Quddus Muhammadiy Oybek, H.Olimjon, G`.G`ulomlarni o`zi uchun ustoz deb bilgan, ulardan o`rgangan, ular bilan doimo ijodiy muloqotda bo`lgan. Ilk she`rlaridan biri «Tong o`yini» orqali ulkan adib Oybek bilan tanishadi. Oybek bu iste`dodli bolalar shoirini hamisha qo`llab-quvvatlab, ijodiga g`amxo`rlik qulib kelgan.

Bir kuni Yozuvchilar uyushmasida mushoira bo`ladi. Mushoiraga raislik qilayotgan Hamid Olimjon she`r o`qish navbatini Q.Muhammadiyga beradi.

Q.Muhammadiy zavq bilan «Sa`va sayrarkan» she`rini o`qiydi. Q.Muhammadiyning ijodiy qobiliyatini payqagan H.Olimjon she`r tugashi bilan uni yoniga chaqirtiradi. Qachondan beri she`r yozishini, qayerda ishlashini surishtirib, she`r ma`qul tushganini aytadi. So`ng, bolalar uchun she`rlarning kamligi haqida to`xtalib, mana shunday ajoyib she`rlarni ko`proq yozishni ta`kidlaydi.

Q.Muhammadiy ijodiga xos bo`lgan muhim xususiyatlardan biri hozirjavoblikdir. Shoir asarlarida ona-Vatanga muhabbat, a`lo o`qish, xulq-odobda boshqalarga namuna bo`lishga da`vat etish, fan va texnikani o`rganish muammolari asosiy mavzulardan hisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Quddus Muhammadiy Islom shoiriga adabiy kotiblik qiladi. Bu yerda u xalq og`zaki ijodi namunalari bilan yaqindan tanishadi. Islom shoirdan ko`p narsalarni o`rganadi.

Shoirning birinchi she`rlar to`plami 1946 yilda «O`quvchiga esdalik» nomi bilan bosilib chiqadi. Shundan keyin uning 60 dan ziyodroq turli nom va tillardagi kitoblari bosilib chiqdi.

Quddus Muhammadiy doimo zarur mavzularda asarlar yaratib keldi. Har bir she'rni kundalik hayotimizdan olib yozdi. Yozganda ham qiziq yozdi, qizg'in yozdi, soz yozdi. Bolalarni o'qishga, hunar o'rganishga, odobli bo'lishga, mehnatga chaqirdi, qiziqitirdi, yordam berdi. Buni shoirning «O'quvchiga esdalik» she'rida ko'rish mumkin. Asarda maktab o'quvchisining ma'naviy qiyofasi va vazifalariga mufassal to'xtalib, o'qish, bilim o'rganish zarurligini ta'kidlaydi:

*Bo'lay desang bog'bon,
Yo Vatanga posbon,
Yo osmonda uchuvchi,
Yo dengizda suzuvchi,
Nimaki qilsang tilak,
Bariga o'qish kerak.*

San'atkorning qaysi turkumda yaratgan asarini olmang, barchasida hayotbaxsh ruh, da'vatkorlik, bolani nimagadir chorlash, yaxshilik, a'lo o'qish, axloq-odobli bo'lishda boshqalarga ko'mak ko'rsatish, qushlar va jonivorlarga mehribon bo'lishdek ibratomuz ma'no va mazmun yotadi.

Quddus Muliammadiy sofdil, a'lochi o'quvchi bolalarni samimiy sevadi, o'z she'rlarida bunday bolalarni maqtaydi. «A'lochi Sodiq», «Sinov», «Mening orzum», «Bizning uyda», «Yasha, Omon!», «Besh», «Solijonning darsxonasi» va boshqa she'rlari a'lochi o'quvchilar haqida yaratilganligi bilan muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shoir bu she'rlari orqali a'lo o'qish, tinmay mehnat qilish bilangina ilm-fan sirlarini egallash mumkinligini bolalar qulog'iga quyadi. S.Marshakning «Kitobimizni qanday nashr qiladilar?» she'ridan ilhomlanib yozilgan «Kitob» she'rida ham uning bunyodga keltirilishidan iborat mehnat jarayoni butun tafsiloti bilan bir-bir bayon etilgan. Ha, kitobning kitob bo'lmog'i uchun qog'oz kerak. Qog'oz esa paxtadan tayyorlanadi. Paxtani paxtakor mehnatisiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, undan qog'ozni tayyorlash ham o'z -o'zidan bo'lmaydi. Paxta qog'ozga aylangunicha, «ming chig'iriqdan o'tadi». Lekin hali qog'ozning o'zi kitob degani emas, uni kitobga aylantirish uchun «qancha olim, shoirlar» «uyqusini tark etib» ijod qilishi, so'ngra uni nashriyotga eltishi, shundan keyin uni

Bosmaga berish kerak.
Bosmaxonada harfni
Bittalab terish kerak.
Mashinalar g'izillab,
Sahifalar beradi.
Bir yoqdan korrektorlar
Solishtirib ko'radi.
So'ng o'tar redaktordan,
Yana qayta bosilar

Lekin shunda ham kitob tayyor bo'la qolmaydi. Endi uni «Elimlab, qirqishi bor», «Muqova ham kerak bop». Ana shunday ikir-chikirlardan so'ng, aniqrog'i, ko'pchilikning ishi natijasi o'laroq kitob paydo bo'ladi. Lirik qahramon kitob tayyorlanishiga daxldor shu jarayonlarni obdon bilgani bois:

O'ylab tursam hamma ish
Bog'lanar bir-biriga
Bir kitobning ichida
Minglarning xizmati bor.
Shuning uchun kitobga
Samimiy hurmatim bor,-

der ekan, kitobni bunyodga keltirgan turli kasbu kor egalarining xizmatini qadrlash tuyg'usi bilan yashaydi. Biroq L. Bat bu she'rda qator qusurlarni ko'radi. Uningcha: «oddiy so'zlar yig'indisidan iborat bo'lib qolgan.

Masalan: Men hali yosh bolaman,
Ko'p joyni ko'rganim yo'q.
Lekin kitob orqali
Bildim talay yo'l-yo'riq.

Kitobdan olingan boshqa taassurotlar ham shunday bayonchilik bilan beriladi.» (Qarang: O'zbek bolalar adabiyoti. Maqollar. T., «Yosh gvardiya», 1969, 51-b.) Aslida she'r uchun ekspozitsiya vazifasini bajargan bu satrlar o'quvchining kitobdan olgan taassurotlari bayoni esa-da, bunday umumiy taassurotni har qanday o'quvchi ham ayta olishiga shubha bilan qarash asossizdir. Holbuki, Q. Muhammadiy «Etik» she'rida ham shu xilda she'riy ekspozitsiya yasab, so'ngra etikning bunyodga keltirilishi jarayonining poetik tavsifiga o'tgan edi. Demak, bunday ekspozitsiyalar bilan voqea tafsilotiga ko'chish shoir uslubiga xos hodisadir. Shu holatni anglamaganidan L.

Bat ikkinchi bir asossiz da'voni o'rtaga tashlaydi. «Keyin, -deb yozadi u, - aslida mustaqil ikkinchi she'r bayon qilinadi: Q. Muhammadiy o'zining yosh qahramoni tili bilan kitob yaratilishini yozuvchi, redaktor ishidan boshlab to bosmaxonadan chiqishiga qadar aytib beradi.

Undan olov - dud chiqib,
Abgor bo'пти bu safar.
Qosh, pari kuyib ketti,
Tashqari g'iz-g'iz sovuq.
Chumchuqcha qip yalang'och,
Egnida par to'ni yo'q.
Kuygan a'zo-badani,
Achishardi jizzilab.

Shundagina u o'z nojo'ya hatti-harakti haqida o'ylashga majbur bo'libdi:

Ko'pchilikning qadri ko'p,
Chumchuqchaga bilindi.
Yolqizlik yomon ekan,
Boshiga tushib bildi.
Xatosin tushunibdi.

Dildirab, o'lay deb turganida Musicha xola yana joniga oro kiribdi. Ota-ona urug'i bundan xabar topib, Musicha xolaga uni asrab olgani uchun minnatdorchilik bildirib, "gap uqmas o'jar bola"sini o'z inlariga olib ketishibdi: Chumchuqcha esa:

- Ayrilmayman sizlardan,

Ta'zirimni xo'p edim, - deya tavba qilib, ko'pchilikdan uzr so'rabdi.

O'shandan beri u jamoasidan ayrilmay, birga yurib, birga ishlarkan...

"Qo'ng'izvoy bilan Sichqonvoy" Q. Muhammadiy ijodiyotidagi shoh asar bo'lib, 1940 yilda yozilgan va dastlab "Mushtum" jurnalida "Qo'ng'iz bikach bilan Sichqonvoy" nomi ostida o'sha yili bosilib chiqqan. Shoir uni yana qayta ishlov berib, takomillashtirib 1955 yilda hozirgi nomi bilan e'lon qildi. Shundan beri bu asar shoirning 1957 yil bosilgan "Tanlangan asarlar" va 1977 yilda "Tabiat alifbesi" ning uchinchi kitobi bo'lmish "Taniqli do'stlar" da qayta-qayta nashr etildi. Binobarin, bu asar o'zbek bolalar epik poeziyasi taraqqiyotida ayricha salmoqqa ega bo'lib, X. Olimjon, Mirtemir va S. Jo'ralar o'tgan asrning 30 - yillarida qaror toptirgan she'riy ertaknavislik an'anasi hosilasi sifatida yuzaga keldi.

Bor ekanda, yo'q ekan,
Och ekanda, to'q ekan.

Yaqin o'tgan zamonda,
Qo'rg'ontepa tomonda.
Qo'ng'izoy qiz bor ekan,
Husnda barno ekan,

Oy kabi tanho ekan.
Sodda fe'lli, quvnoq qiz,
Ko`ngli ochiq, o`ynoq qiz.
Sochlari sunbul ekan,
Qo`shiqqa bulbul ekan.
Serg`ayrat mehnatsevar,
Odobli, epchil, chevar.
Sevarkan uni hamma,
Elu yurt, hola, amma.
Hatto mitti kapalak,
Qo`ng`iz desa piri-pirak.

Ertak oxirida Sichqonboy o`g`rilikka kirib, mushuk qo`liga tushgani xabar qilinarkan, qissadan hissa tarzida “Har kim ekkani o`rar” degan xulosa o`rtaga tashlanadi. Q.Muhammadiy to`qson ikki yillik hayotining etmish bir yilini bolajonlar uchun ijod qilishga bag`ishladi. Bu davrda u XX asrda bunyodga keltirilgan tom ma`nodagi yangi realistik o`zbek adabiyotining asoschilari Oybek, G`afur G`ulom va H.Olimjonlar nazariga tushib, ularning e`tiboriga sazovor bo`libgina qolmadi, balki o`zi ham o`zbek ma`naviyati va adabiyoti tarixida tamomila yangi adabiy hodisa bo`lgan o`zbek bolalar adabiyotining bunyodkori va asoschilardan biriga aylanib qoldi.

Tayanch tushunchalar: yumor, satira, hajv, adabiy ertak, adabiy topishmoq, tez aytish, stilizatsiya, ertak-doston, tabiat alifbesi, qomusiy shoir, tabiatshunos, folklor negizida, mavzu, motiv, g`oya.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1.Q.Muhammadiyning ijodiy faoliyati qancha davom etgan?
2. Shoir asarlarining mavzusi va g`oyasi haqida ma`lumot bering.
- 3.“Tabiat alifbesi”ning tarkibiga kiruvchi she`rlar to`plami qanday nomlanadi?

Shukur Sa`dulla—bolalik kuychisi. Po`lat Mo`min bolalarning qo`shiqnavis shoiri

Reja:

1. Shukur Sa`dullaning hayot yo`li.
2. Shukur Sa`dulla– kichkintoylar shoiri.
3. Shoir she`rlarining mazmun-mundariyasi.
- 4.Po`lat Mo`minning ijodiy yo`li.
- 5.Bolalarga bag`ishlangan she`rlarning o`ziga xos xususiyatlari.
- 6.Po`lat Mo`min dostonchi-shoir

Sh.Sa`dulla 1912- yilning 15- yanvarida Jizzax shahrida xizmatchi oilasida tug`ilgan. U dastlabki savodini eski maktabda chiqargach, 1924 –yilda Samarqand shahriga kelib, Pedagogika bilim yurtiga o`qiydi. 1932 yilda shoirning “Hayqiriq” nomli 1-she`rlar to`plami chop etiladi.

Sh.Sa`dulla 1931-yilda O`zbekiston Davlat nashriyotining bolalar va yoshlar adabiyoti bo`limiga muharrirlikka ishga taklif etiladi. 1950-yilda Sh.Sa`dulla I.Muslim bilan hamkorlikda bolalar shoiri S.Marshakning “She`r va ertaklar” asarini o`zbek kitobxonlariga tortiq etishdi.

Daniyalik mashhur ertakchi G.X.Andersen, rus yozuvchisi N.A.Nekrasovning asarlarini, L.Tolstoy va B.Jitkovning hikoyalarini, bolalar shoirlari M.Kvitko, A.Barto,

M.Mirshakar, O.Berdiyev, M.Fayzulina she'rlarini, V. Lebedev -Kumachning yoshlik taronalarini, B.Gorbatovning "Bo'ysunmaganlar" (1953), V.Osayevaning "Vosyok Trubachev va uning o'rtoqlari" (1954) povestlarini, Korney Chukovskiyning "Doktor Voyjonim" (1966) asarini ona tilimizga tarjima qilgan.

Sh.Sa'dulla bolalar uchun turli janrlarda ijod etdi: she'r ham, poema ham, hikoya ham, qissa ham, opera ham, she'riy ertak ham yozdi. Hatto xalq ijodiyotiga mansub ayrim an'anaviy janrlarni yozma adabiyotga omuxtalashtirdi. Xalq latifalari asosida "Ikki donishmand", "Afandining ko'ylagi", "Afandi tegirmonchi va ko'sa" kabi she'riy latifalardan topishmoq janri talablarini saqlagan holda topishmoq – she'r namunalarini yaratdi.

Bolaligida ertakka o'ch bo'lgan shoir ulg'ayganida ham shu odatini tark etmay, "Ayyor chumchuq", "No'xat polvon", "Laqma it" kabi she'riy ertaklarini "Yoriltosh", "Afsona yaratgan qiz" singari ertak- pesalarini, "Kachal Polvon yoki yog'och qo'g'irchoqning sarguzashtlari" ertak- qissasini yaratdi.

Uning maktabgacha tarbiya va kichik maktab yoshidagi bolajonlarga bag'ishlab yozgan ko'plab she'rlari hamon kichkintoylar tilidan tushmay keladi. Ayniqsa, "Shohista", "Yomg'ir-yog'aloq", "Yaxshi ism", "Dildor va koptok" she'rlari baayni jajji bolakaylar fe'l atvorini to'la aks ettirgani bilan ajralib turadi. Shuningdek, Sh.Sa'dullaning yil fasllari haqidagi she'rlari maktab darsliklaridan o'rin olganligi e'tiborli. Muallifning "Yoriltosh", "Kachal polvon yoxud yog'och qo'g'irchoqning sarguzashtlari" ertak dramalari, "No'xatpolvon", "Laqma it", "Ayyor chumchuq" adabiy ertaklarining syujeti va badiiy-kompozitsion xususiyatlari diqqatga sazovor. Shukur Sa'dullaning o'zbek bolalar nasri taraqqiyotiga qo'shgan hissasi "Komandirning boshidan kechirganlari", "Aziz qishlog'im" qissalari orqali xarakterlidir.

Shukur Sa'dulla "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" faxriy unvoniga sazovor bo'lgan adib edi. U 1972 yilda vafot etgan.

She'riy imzo - o'zbek bolalar poeziyasi uchun mutlaqo yangi janr. U, asosan, dialog yoki monolog shaklida bo'ladi. Ba'zan topishmoqdek jumboqdan iborat bo'lsa, ba'zan epigramma xususiyatiga ega. Bunday paytda piching, istehzo uning asosiy fazilatiga aylanadi. Binobarin, she'riy imzo kuchli emotsional ta'sirchanlikka ega miniatyur badiiy asar hisoblanadi. She'riy imzoda hayvonlar, qushlar, hasharotlar hamda boshqa narsa-hodisalarning she'riy tavsifi ixchamgina: ba'zan oddiygina, ba'zan yumoristik tarzda ifodalanadi. Uning har bir satri yoki bandining mazmuni asosida aniq narsa yoki voqeani aks ettiruvchi jozibali rasm chizish mumkin. Demak, she'riy imzo shoir va rassomning hamkorlikdagi fantaziyasi mahsuli hisoblanadi.

Uning hayvonlar, qushlar, hasharotlar va bolalar o'yinchoqlari to'g'risidagi qator asarlari ma'rifiy-badiiy qimmatga ega she'riy imzolar sirasini tashkil etadi. "Chittak" - qushcha rasmi ostiga "chekilgan" ana shunday she'riy imzolardan. Shoir unda topishmoqdagidek yashiringan narsa-jumboqning belgilarini sanab ko'rsatib, shu usul bilan kichkintoylarga chittakning tashqi ko'rinishiga oid oddiygina ma'lumotlar beradi. Ular tasavvurini aniq tushunchalar hisobiga to'ldiradi va boyitadi:

Men qushchaman kichkina,
Tillarim chuchukkina.
Ola-chipor qanotim,
Bilsangiz - chittak otim.

Chittak o'zini shunday tanitadi. Uning so'zlash uslubi xuddi bolalarnikiday. Antropomorfizmdan foydalanish she'riy imzoning ma'rifiy ahamiyatini ta'minlashdan tashqari tez yodlanishini ham qulaylashtiradi. Demakki, kichkintoylar lug'at boyligini "ola-chipor", "chuchukkina", "chittak" kabi yangi tushunchalar hisobiga boyitish imkonini tug'dirgan.

Shoir poetik ijodida hajviy she'rlar barmoq bilan sanarli: "Olim uyaldi", "Bizning oyna", "Ivirsiq", "Anqov", "Shalabbo", "Injiq qizcha", "Jumboq" kabilar shu silsilani tashkil etadi Shukur Sa'dulla 60-yillarga kelib o'z qalamini nasrda ham sinay boshlaydi, bunda ham u maktabgacha yoshdagi

kichkintoylarning o'ylari, orzulari, ishlari, taqdirleri, xarakterlarini badiiy tahlil qilishni maqsad qilib olgandi. Binobarin, uning bunday hikoyalarini ma'lum darajada kichkintoylar olamining o'ziga xos badiiy tadqiqotlari desa bo'ladi. Bu hikoyalarning aksariyati ichki qarama-qarshilik

negizidagi kompozitsion asosda qurilgan: "Tush", "Ismi qo'yilmagan xat", "Yutqiziq", "Yaxshilik" hikoyalari ana shunday fazilatga ega. Hikoyalarning aksariyatida ifodalanayotgan fikr-muddao

muallif tanlagan sarlavhalaridayoq ravshan anglashilib turadi: "Anqov", "Yalqov", "Qo'rqqoq", "Qaysar", "Ochko'z", "Chaqimchi", "O'jar", "Dilozor", "Izza", "Gap uqmas" va hokazo. Bu hajviy hikoyachalarda adibning o'zi tasvirlanayotgan voqealarga aralashmaydi.

"Komandirning boshidan kechirganlari" (1961) qissasi yozuvchining sarguzasht janridagi dastlabki mashqidir. Bu qissa o'zbek bolalar prozasida maktabgacha yoshdagi kichkintoylar hayotini, orzu va tashvishlarini realistik va romantik bo'yoqlarda ifodalagan birinchi yirik asar hisoblanadi. "Komandirning boshidan kechirganlari" asarida serquyosh respublikamizning azim poytaxti, Sharqning mash'ali - go'zal Toshkent shahri besh yashar Hayotning tasodifiy sayohatlari fonida epik tarzda tasvirlanadi. Unda Hayot markaziy figura, u hali maktab ko'rmagan, kuzatuvchanlik qobiliyati past maktabgacha yoshdagi kichkintoylarning vakili sifatida harakat qiladi.

Asarda Hayotning harakati tasodiflar negizida sodir bo'lsa-da, yozuvchi talqinida ko'zlagan ma'lum estetik-tarbiyaviy maqsadni aks ettiradi. Chindan ham qahramon sayohatlari kechgan Toshkentning e'tiborli joylarining tasviri kichkintoyni qanchalik zavqlantira olsa, uning qalbida Vatanga muhabbat tuyg'usini ham shu qadar to'liqlantira oladi va mazkur

tuyg'uning mustahkamlanishiga, e'tiqodga aylanishiga madadkorlik qiladi. Yozuvchi asar qahramoni besh yashar Hayotni ana shunday harakatlar qildirish evaziga voqelikni - turmush haqiqatini kichkintoylar saviyasiga munosib aks ettira olgan.

Adibning zamonaviy mavzuda yaratgan ikkinchi asari "Aziz qishlog'im" qissasidir. Bu asar 1967 yilda yozilgan bo'lib, 1969 yilda nashr etildi. Sh.Sa'dulla bu asarida xalqimiz hayotining yangi bir manzarasini - qishloqdagi qaynoq turmushni shaharlik bola Habibullaning qishloqqa qilgan sayohati jarayonida ko'rsatadi.

"Aziz qishlog'im"da mavjud obrazlarning barchasida ijobiy insoniy fazilatlar mujassam, shunga qaramay, yozuvchi qissa konfliktini inson va tabiiy ofat o'rtasidagi kurash negizida qurib, "Inson degan so'zning mag'rur jaranglashi"ni (M.Gorkiy) real ifodalay olgan.

1966 yilda Toshkent zilzilasi faqat toshkentliklarnigina emas, balki butun mamlakatni, hatto million-million bolalarni ham bezovta qilgani tarixiy haqiqatdir. Sh.Sa'dulla qissada xuddi shu mavzuga qo'l urib, shu bahonada qishloq ahlining zilzila jafokashlariga xayrixohlik tuyg'ularini

ifodalashga intiladi. Bu hol, ayniqsa, qishloqliklarning toshkentlik bola Habibullaga munosabatlari fonida yorqin gavdalanirilgan.

Shukur Sa'dulla "Kachal Polvon yoxud yog'och qo'g'irchoqning sarguzashti" ertak-qissani yaratishda o'zbek qo'g'irchoq teatrining chodir xayol va chodir jamol tipidagi ikki turida o'ynaladigan Kachal Polvon sarguzashtlariga doir xalq komudiyalariga asoslanadi. Xalq komediyalari mazmunini

ijodiy qayta ishlab, g'oyaviy-badiiy niyatiga muvofiq qisqartirdi, to'ldirdi va yangi detallar, epizodlar ijod qilib boyitdi. Xalq komediyalarining qo'g'irchoq qahramonlarini esa asarning qahramonlariga - badiiy obrazlariga aylantirdi. Shu asosda ertak-qissada fantaziya va realizm o'zaro uyg'unlashib,

asarning yaxlit syujetini vujudga keltirdi. Bunda Sh.Sa'dullaning italiyalik adib Kollodining "Pinokkioning sarguzashtlari" hamda rus adibi A.Tolstoyning "Oltin kalit yoki Buratinoning boshdan kechirganlari" (1936) asarlaridan ijodiy ta'sirlanganligi ham muhim rol o'ynagan.

Asardagi obrazlarning qariyb hammasi qo'g'irchoq komediyalarining qahramonlaridan iborat. Adib tayyor obrazlarni o'z holicha ishlatavermaydi. Ularga o'z g'oyaviy-estetik kontsepsiyasiga muvofiq ijodiy yondoshadi. Fantastik

ertak-qissada Sh.Sa'dulla tomonidan ijod qilingan salbiy va ijobiy xarakterdagi to'qima obrazlar ham yo'q emas. Adib har bir xarakterning o'z qiyofasiga, xarakter belgilariga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida turli badiiy vositalarga murojaat qiladi. Ertak-qissada ellikka yaqin obraz mavjud.

Mazkur obrazlarni g'oyaviy-badiiy estetik xususiyatlari hamda ijtimoiy-tarbiyaviy vazifalariga ko'ra uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Xalq tiplari. Bu guruhga Kachal Polvon, Shomamat ota, Orif jarchi, Boybuva ko'sa, Beknazar karnaychi, Ernazar maymunchi, Jo'ra qiziq, Mullajon, Bichaxon, To'tixon, etim qiz Mohira, kayvoni, askiyachilar, Qo'zi cho'tir, Ro'zi gov, Dehqon

ota, Jalol polvon, rohatijonfurush, egizak aka-ukalar Alijon va Valijon, mehtarbozlar boshlig'i Mirsalim, Qurbonali otalar mansubdirlar. Bular orasida markaziy o'rinda Kachal Polvon obrazi turadi. Kachal Polvon individual belgilarga ega umumlashma tip. U sho'x, quvnoq, xushchaqchaq, sodda va dilkash. Vaziyatni

mudom to'g'ri baholay oladi. Bu xususiyatlar uning do'stlari bilan olib borgan siyosiy kurashida qozongan g'alabasini mantiqiy asoslashda o'zini ko'rsatgan.

To'g'ri, Kachal Polvon inqilobchi obrazi emas, shunga qaramay Kachal Polvon Abdurahmonbek saltanatiga qarshi eldoshlari - faqir mahallaliklarning ozodligi, haq-huquqlari uchun astoydil kurashgan xalq qahramoni timsoliday kichkintoylar qalbiga yo'l topib, ularga xalqparvarlik saboq

beradi. Ertak-qissada Kachal Polvon yakka harakat qilmaydi. Hamma faqir mahallaliklar bilan kengashib, ular bilan

belgilangan maqsad sari olg'a intiladi. Natijada doimo g'alaba qozonadi. Yozuvchi shu taxlitda jamoatchilik qudratini va engilmasligini hayot haqiqatiga muvofiq talqin qiladi. Xalq tiplariga mansub boshqa barcha ijobiy obrazlar epizodik xarakterdadir. Adib bu personajlarning ma'lum

g'oyaviy-badiiy qimmatiga va har birining o'ziga xos individual belgilariga ega bo'lishini esda tutishga intiladi.

2. Satirik obrazlar. Bu guruhga hokim Abdurahmonbek, Iso avliyo, Nosir bo'ri, Qora Mirshab, To'racha - chinoq, maktabdor domla, xalfa, Eshonqul, Sarsinboy chavandozlar mansub. Bu salbiy personajlar ijobiy personajlarga nisbatan birmuncha mukammalroq ishlangan. Bularan tashqari satirik obrazlar qatoriga savdogar

Abdurahim, Mirzasalim oqsoqol, jarchi Mullagarang, ayg'oqchi talabalar - Umar echki, Salim tajang, Ashirbek kabi nomda boru aslida qiyofasini ko'rsatmaydigan personajlar ham bor.

Abdurahmonbek - bosh salbiy personaj. Aslida "Sarkardalar" deb ataluvchi chodirxayol qo'g'irchoq teatrida o'ynaluvchi xalq komediyasida Farg'ona viloyatining zolim hokimi qiyofasida ko'rinadigan bu personaj Sh.Sa'dulla talqinida afsonaviy qo'g'irchoqlar mamlakati Shirinsoyning

sohib saltanati. U - feodal ierarxiyasining cho'qqisida turgan hamda adolatsiz tizimni butunicha o'zida tajassum etgan zolim va telba hukmdorning timsoli. Unda feodal hukmdorga xos barcha xususiyatlar mavjud. Yozuvchi Abdurahmonbek personajini xarakterlashda rang-barang bo'yoqlarga murojaat etadi. Bunda fosh etuvchi sotsial yumor, ayniqsa, katta rol o'ynagan.

Natijada, Abdurahmonbek zolimlikda tengsiz shaxs va feodal davlat arbobining umumlashgan tipi darajasiga ko'tarilgan.

Boshqa salbiy personajlarni ishlashda ham Sh.Sa'dulla Gorkiyning dushmani hamisha xunuk va nafratangiz etib ko'rsatish to'g'risidagi maslahatlariga amal qilib, ular dunyosini ma'naviy qashshoqlar va badkirdorlar dunyosi tarzida kichkintoylar ko'z o'ngida gavdalantirgan. Shu yo'l bilan kichkintoylarda yomonlik va xunuklikni ezgulik va go'zallikdan tez ajrata bilish malakasini shakllantirishni ko'zlagan.

3. Afsonaviy maxluqlar, hayvonlar, hasharotlar va qushlar obrazlari jumlasiga ajdar, kavsar dev, oq chavkar ot, quyonlar, chumolilar, ko'rshapalak, kaptarlar, kakliklar, bedanalar va qirg'ovullarni kiritish mumkin. Bularning barchasi ham asar qahramonlari hayotida, xususan, Kachal Polvon faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Ajdar, kavsar dev kabi afsonaviy maxluqlar hamda ilon yovuzlik timsoli hisoblansalar-da, Kachal Polvonning ijobiy fazilatlarini bo'rttirishda xizmat qiladilar.

Kichkina kitobxon oppoq qanotlarini kitob o'rnida Kachal Polvonga taqdim etgan kapalaklarni ham, boylar zo'ravonlik bilan o'ziniki qilib olgan kambag'allar bug'doyini qaytarishda jonbozlik ko'rsatgan va Kachal

Polvonning ozodlikka chiqishiga katta madad bergan zahmatkash chumolilarni ham, Kachal Polvonni jazodan ogohlantirgan ninachini ham, oldingi oyoqlarini ko'tarib, bir-biriga urib qarsak chalgan quyonlarni ham, xushxonu raqqos bedanalar, kakliklar, qirg'ovullarni ham sira unutilmaydi.

Sh.Sa'dulla ertak-qissaning badiiy jihatdan qiziqarli bo'lishi, unda xalq komediyalariga xos milliy ruhning barq urib turishi uchun o'zbek xalq ijodiyoti, hatto bolalar folklori namunalari keng murojaat qildi, xushchaqchaq askiyalardan, yumorni va o'ychanlikni kuchaytiradigan topishmoqlardan, tez aytishlar, sanamalar, dono maqollari va matallaridan unumli va o'rinli foydalandi. Sh.Sa'dulla folklor materiallaridan ijodiy foydalanib, bir necha dramatik asarlar ham yozdi. Uning "Yoriltosh" muzikali ertak-dramasi (1937) va opera librettosi (1967), "Chol bilan bo'ri" kichik she'riy pesasi (1967), "Zubayda" (1969) ertak-dramasi o'zbek bolalar dramaturgiyasining yuksalishida ma'lum rol o'ynayotir. Bu

asarlarda yaxshilik bilan yomonlik, tadbirkorlik bilan takabburlik, mehr bilan g'azab, sabr bilan toqatsizlik o'rtalaridagi shafqatsiz kurash ifodalaniib, pirovard-natijada yaxshi-likning, tadbirkorlikning, mehrning va sabrning tantanasi ko'rsatiladi. Bolalarga shu tushunchalarning mohiyati

singdiriladi. Binobarin, bu asarlar bolalarda yuksak insoniy fazilatlarini tarbiyalashda va ularning zavqini, qiziqishlarini oshirishda ahamiyatlidir.

Bolalarning suyuqli shoiri Po'lat Mo'min yoshligidanoq adabiyotga havas qo'ydi. U Toshkent pedagogika bilim yurtida o'qib yurgan vaqtida adabiyot to'garagiga faol qatnashadi. Adabiyotni qunt bilan o'qidi, o'rgandi. O'rta ma'lumot oigach, hozirgi Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirib, uni muvaffaqiyatli tamomlagach, aspiranturada o'qidi, maktablarda o'qituvchilik qildi. So'ngra O'zbekiston davlat nashriyotida ishladi. P. Mo'min qayerda ishlamasin, doimo adabiyotga muhabbat bilan qaradi, uni qunt bilan mutolaa qildi, o'rgandi. Kichik-kichik she'rlar yoza boshladi. 1944 yilda «Bahorga sayohat» nomli birinchi she'ri bosilib chiqdi. Birinchi she'rlar to'plami esa 1949 yilda «Sayrang, qushlar» nomi bilan nashr etildi. Kitob adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. To'plamdan munosib o'rin olgan «Haykal», «Alia va Jalla» (ertak) singari asarlari mazmundorligi, qiziqarliligi bilan kitobxonlarning e'tiborini o'ziga jalb etdi.

Bolalarga atab ijod etish, bu sohada muvaffaqiyat qozonishi uchun esa qobiliyat va istakning o'ziga yetmaydi. Belinskiy ta'rifi bilan aytganda, bolalar yozuvchisi bo'lib tug'ilish kerak. Bu bolalar yozuvchisi mohir pedagoglarday bola qalbining bilimdoni bo'lsin, nozik *did* egasi, go'dak tabiati va psixologiyasining bilimdoni, mehribon va bolajon, kamtarin va samimiy,

bolalarcha soddadil ham dono bo'lsin, degan mazmuni taqozo etadi, albatta. Biz Po'lat Mo'min ijodida ana shunday olijanob xususiyatlar mujassamligim his etamiz.

Shoirning tinimsiz ijodiy mehnati tufayli «Hunardan unar», «To'g'ri o'sgan gul bo'lar», «Aql qaerda bo'lar», «O'rinbosarlar», «Oltin nay», «Bir yarim Karim», «Endi adashmaydi», «Barcha bola do'st bo'lsa», «Rahmatga rahmat», «Gazpolvon ertak aytar», «Chang yutar both», «Do'sting qancha ko'p bo'lsa», «Oftob va odob», «Yaxshilarga o'xshasam», «Bu juda soz», «Eson va Omon», «Oltmish olti oltin qo'l», «Ustozlar izidan», «Bolalarning baxti kulgan», «Bir yuz bir oltin qo'l» she'riy to'plamlari; «Chanoqvoy bilan Qovoqvoy», «Bahodirning botirligi», «Oq fd yo'qoldi», «Suqatoy-konfetvoy», «Ona bolam deydi» kabi ertaklari, pesalari yuzaga keldi. Bu kitoblarga kirgan eng yaxshi she'r va qo'shiqari, doston va ertaklari bolalar adabiyoti xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shildi, uni boyitdi. Bu asarlardan bir qanchasi jahon xalqlari tillariga tarjima qilinganki, bu faqat shoirning emas, balki o'zbek bolalar adabiyotining ham yutug'i, obro'si hisoblanadi.

Kimda-kim a'lo va yaxshi baholarga o'qish uchun astoydil intilsa, harakat qilsa, zahmat cheksa, shubhasiz, u maqsadiga erishadi, samarali biiim oladi. Agar bu intilish jismoniy mehnat bilan qo'shib olib boriisa, yanada muvaffaqiyatli bo'ladi. Po'lat Mo'min ta'iim va jismoniy mehnatga bag'ishlangan she'rlarida mehnat va mehnatsevar bolalar haqida fikr yuritadi. Ba'zan ishyoqmas, dangasa, yalqov o'quvchilarni tanqid qiladi. Masalan, «Besh oldim, besh!» degan she'rini olaylik. Asar qahraraoni uzoq vaqt past bahoga o'qib yurardi, fanlarni ko'ngildagidek o'zlashtira olmaganidan do'stlari, otanasini va o'qituvchilar oldida gunohkordek his qilardi o'zini. O'quvchi bunday qiyin ahvoldan faqat ko'proq dars tayyorlashi, kitob o'qishi bilan qutulib ketishi mumkinligiga ham ishonrtgdi. Nima boiadi-yu bir kuni u uyga berilgan topshiriqni qayta-qayta o'qiydi, dars va kitobdan boshqa hech narsani o'ylamaslikka harakat qiladi. Natijada ertasi kuni «besh» baho oladi. Shu-shu bola kitobni sevib qoladi. Qunt qilish, berilgan topshiriq ustida ko'p mehnat qilish lozimligini tushunib yetadi. O'zidagi bunday ijobiy o'zgarishdan xursand bo'ladi. Boladagi bu quvonch va hayajonni shoir yosh kitobxon ruhiyatiga mos ravishda chizib beradi:

Shunday *qilib* do'silarim,
Aytsam yurak so'zlarim,
Yurishib qoldi ishim
Ko'payib ketdi «besh»im.

Bolalar shoirming «Tuganmas kon», «O'qituvchi baho qo'yganda», «Ko'chalarni to'ldirib», «Sizga nima bo'ldi, o'g'ii bolaiar?», «Yuqumli «2»lar», «Bilsa bo'lar ekanku!», «Sentyabrdan Mm sevinar?» kabi she'rlarida ham a'lo va yaxshi o'qish uchun mtilyotgan, harakat qilayotgan bolalar to'g'risida yozilgandir.

Ba'zan o'quvchi-yoshlar orasida mug'ambir, pismiq bolalar ham topilib qoladi. Shoirning «Qo'l ko'tarib qo'Iga tushdi» degan asari ana shunday bolalarga bag'ishlangan. Asar qahramoni aslida dangasa, ishyoqmas, qoloq o'quvchi. U buni o'qituvchisiga sezdirmaslik ucimn har kuni dars paytida «Men aytaman, deb ko'taradi qo'i». O'qituvchi esa boianing bunday mug'ombirligini sezmaydi, u darsni yaxshi o'zlashtiribdi, deb undan so'ramaydi. Oxiri bir kuni «Mayli, ayta qol» deydi. Shunda haligi bola savolga javob bera olmay, o'qituvchi va o'quvchi do'stlari oldida izza bo'ladi:

*Darvozasiga Urilganday gol Qo'Iga
tushgandi Uko'tarib qo'l.*

Shoir she'rlarida kichkintoylarning jismoniy ishga intilishlari ham yaxshi ochib beriladi. Uning «Oftob chiqdi olamga», «Er chopildi —javob topildi»

she'rlari fikrimizning dalilidir. «Oftob chiqdi olamga» asarida u xalq og'zaki ijodidan unumli foydalangan. She'rda bolalarning harakati, urinishi, kattalar ishiga ko'maklashishi nihoyatda ta'sirli va shirali ifodalangan.

Po'lat Mo'min haqiqatan ham oftob — bu olam-olam quvonch, shodlik, mehnat, yashash, yasharish ramzi ekanligini kichkintoy do'stlari qulog'iga quyishga, buni bola obrazi orqali yanada yorqinroq, ta'sirliroq aks ettirishga harakat qiladi:

*Oftob chiqdi olamga, Chopib bordim dadamga.
Dadam ko'chat ekardi, Salom berdim dadamga.*

P. Mo'minning «Yer chopildi — javob topildi» asarida mehnatdan zavqlanish tuyg'usi yorqin ifodalangan. Asar qahramoni dastlab uyga berilgan topshiriq — misollarni ishlay olmaydi. Shunda u jismoniy mehnat qilishga kirishadi — yer chopadi. Terlab-pishadi. Natijada ko'ngli yorishadi, fikri oydmlashadi. Uyga berilgan misollarni ham yechadi, yerni ham chopadi. Barcha savolga javob topildi. Shu bahonada yer ham chopildi.

Po'lat Mo'minning «5» baho qo'shig'i», «Xursandmisiz?, Xursandmiz», «Sentyabrim», «Uch baho — puch baho» singari qo'shiqlari o'qish, ilmi bo'lish mavzuiga bag'ishlangan. O'z ustida ko'p ishlash, kitob o'qish, dars qoldirmaslik «a'lo» o'qishning mustahkam garovi ekanligini shoir «Uch baho — puch baho» qo'shig'ida ancha tanqid qilib o'tadi. Onalarni, keksalarni hurmat qilish, e'zozlash («Achom-achom buvijon», «Mehribonim, oyijon!»); o'zaro hurmat, do'stlikni joyiga qo'yish («Bir jahon boialarimiz»); har bir shodiyona, bayramlarni zo'r tayyorgarlik bilan kutib olish, chevarlik kasbini bolalikdan bilib borish («Ko'yagim») mavzulariga bag'ishlab shoir o'nlab qo'shiqlar yaratganki, bunday qo'shiqlar bolalarning jon-dili hisoblanadi.

Po'lat Mo'min axloq va odob kuychisi hisoblanadi. Bu masala ko'proq uning «Birovlar», «Bir odamning afsusi», «So'zi shunaqa — o'zi shunaqa», «Behzodni bilasizmi?», «Ulg'aydimi aqlingiz?», «Qo'ying oltin — yo'ling oltin», «Birinchi bo'l, birinchi» kabi she'r va qo'shiqlarida ochib beriladi.

Po'lat Mo'min «Alia bilan Jalla», «Ziyrak fil va ziqna boqqol», «Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga», «Unutgan o'g'il», «Oltin nay», «Dono bola», «Bilganni qari — bilmaydi pari» singari ertak-dostonlarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalangani ko'rinib turadi.

Po'lat Mo'min dostonchi-shoir sifatida ham juda qadrlidir. Uning «Oltin noklibor», «Ko'cha — ko'pchilik uchun», «Eh, rosa shirin ekan», «Xolning jiyron velosipedi», «Ko'ngil istar yaxshilik» degan poemalari allaqachon kichkintoylarning sevimli asarlariga aylanib ketgan. Shoirning dostoniaridabolalar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik, o'qituvchi va jonajon maktabga muhabbat, birlik, baynalmilallik kabi masalalar ilgari surilgan. Bolalar hayotida sodir bo'ladigan yutuq va kamchiliklar badiiy bo'yoqiarda, qiziqarli epizodlarda chizib berilgan. Bir so'z bilan aytganda, maktab o'quvchilarining hayoti zavq-shavq bilan tasvirlangan.

Po'lat Mo'min o'zining ertak-pesalari bilan ham yosh kitobxonlar o'rtasida shuhrat qozondi. Uning «Qovoqvoy bilan Chanoqvoy», «Suqatoy-konfetvoy», «Ona bolam deydi, bola onam deydi» nomli fantastik ertak-pesalari uzoq vaqtlardan beri bolalarning quvonchiga quvonch qo'shib kelayotir.

Qovoqvoyning dangasaligi, lapashangligi, erkali, tantiqligini o'tkir kulgi ostiga oluvchi va Chanoqvoyning bilimdonligi, donoligi va mehribon do'stligini ulug'lovchi «Qovoqvoy bilan Chanoqvoy» bolalami yaxshilikka da'vat etadi.

Bu asardagi yaxshi fazilatlar dramaturgning boshqa bir ertak-pesasi «Suqatoy-konfetvoy»da ham ko'ringan. Tematikasi va g'oyaviy yo'nalishi, uslubi jihatidan bu ikki asar bir-biriga yaqin. Unda ham ilm, odob, halo'lik va mehnatsevarlik ulug'lanadi. Voqea Bilim xola, Janjal xola, Qurt o'rtasidagi kurash asosida rivojlanadi.

Po'lat Mo'minning butun e'tibori, ijodining mohiyati bolalarga hayot yo'lini ko'rsatib berishga intilishdan iborat. Shu pesadagi Aqljon bilan Odobjon aytganidek:

Bugina enias, bolalar Po`lat Mo`minning o`nlab topishmoqlarini ham sevib o`qib, o`rganadilar va zehnlarmi charhlaydilar.

Muallifning «Qovoqvoy bilan chanoqvoy» asarining ta`lim-tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Undagi ertaklarga xos shartli, allegorik obrazlar tomomila aniq va hayotiy zaminga asoslanlgan.

Pesaning bosh qahramonlaridan biri Qovoqvoydir. Uning timsolida тиаЖdangasalik va beg`amlilik oqibatida darslarni o`zlashtira olmay, sinfda qoluvchi lapashang va po`k bolaning tadrijiy takomilini mujassamlashtirgan. Do`stlari ta`sirida Qovoqvoyning asta-sekin tuzala borishi, ilg`orlar qatoriga kirib, mehnatsevarlik va epchiffik darajasiga ko`tarffishi bilan bog`liq voqealar, bu yo`ldagi kishilar o`rtasidagi munosabat, tortishuv va kurashlar pesaning asosini tashkil etadi.

P. Mo`min ertak syujetini harakatga keltirishda bosh va yordamchi konfliktlardan foydalanadi. Qishloq xo`jalik ekinlarining ashaddiy dushmanlari chigirtka va kapalaklar o`z urug`larini paxtakorlarga tarqatmoqchi bo`ladilar-u, Tarvuz, Qovun, Chanoqvoy, Paxtaoy, G`ujumoy, Lavlagi hamda Sholg`om kabi kuchlar ta`qibidan qo`rqadilar. Qovoqvoyning befahm, landavur, beg`am hamda qo`rqoqligi zararkunandalarga ish beradi. Ular paxtazorlarga sochishni buyurib, tuxumlari solingan xaltachani Qovoqvoyga zo`rlab tutqazadilar. Hashorotlar undan o`z maqsadlari yo`lida foydalanish uchun harakat qilsa, ijobiy qahramonlar Qovoqvoyni tarbiyalamoqchi. Mana shu o`rtadagi kurash asar konfliktimng boshqa yetakchi tomonini tashkil etadi.

Mehnatga bo`yni yor bermay, darslarni o`zlashtira olmaganidan tashqari, Qovoqvoy tanbal, yalqov, fahm-farosati kam, bo`shang, ayni vaqtda u, haddan ziyoda chiranchiq. Uning xarakteridagi bu sifatlar asardagi ijobiy kuchlar bilan bo`lgan ziddiyat va to`qnashuvlarda ochib tashlanadi, Qovoqvoy asta-sekin tuzalish tomon yo`naltiriladi. Bir-birini o`rtoqlarcha samimiy tanqid qilishga asoslangan ijobiy kuchlar o`rtasidagi shu ziddiyatlar dramatik konfliktning yordamchi chizig`ini yuzaga keltiradi.

Konfliktning yordamchi liniyasi esa yaxshi ishlangan va qahramonlar xarakterini chizib berishda, asarning muvaffaqiyatini ta`minlashda katta xizmat qilgan. Po`lat Mo`min Qovoqvoyning maqtanchoqligini fosh etib, uni izza qilishda to`g`ridan-to`g`ri zalga — tomoshabinlarning o`ziga murojaat etish БДан o`ziga xos yutuqqa erishgan Qovoqvoyning «Mendan karra jadvalni so`rang, suv qilib ichib yubordim» degan mazmunda kerilib savol-javob o`ynashi zalni faollashtiradi, maqtanchoqning miyasi g`ovlab, o`sal bo`lishi qalblarga samimiy kulgi shavqini soladi.

Chiranchiq Qovoqvoyning jismoniy zaif va po`kligi kamtarin Tarvuz bilan yuz bergan tortishuv va to`qnashuvlarda, boks musobaqalarida bilinib, sharmanda bo`ladi. Qovoqvoy Tarvuzdan yengilib zil ketsa, ikkinchi tomondan qadam-baqadam g`ayratga kira boradi, badan tarbiya mashqlari foydasini, mehnatsevarlik manfaat keltirishini anglyadi.

Qovoqvoyning qayta tarbiyalanishida ayniqsa Chanoqvoy hal qiluvchi rol o`ynaydi. Boshda Chanoqvoyning odilona, samimiy, do`stona maslahatlariga mensimay qarab, quloq solmagan Qovoqvoy «Sehrgar» gaplarini jon dili bilan tinglaydi, uning ko`rsatmalariga amal qilib, karrani o`rgana boradi, g`ayratga kiradi, faollashadi, zararkunanda hashoratlarga qarshi kurashish, ularni tutishda faollik ko`rsatish darajasiga ko`tariladi. Biroq uning xarakteridagi zaif tomonlari tezda uzil-kesil yo`qolmaydi. U endi do`stlariga «Sehrgar»ni uchratganligi bilan maqtanadi. Muhimi shundaki, do`stlar uni qayta tarbiyalashga, o`z saflariga qaytarishga muvoffaq bo`ladilar.

Asarda Chanoqvoy xarakteriga mos va yetarli material berilgan. Xususan, muallif uning tilini individuallashtirishga alohida e`tibor bergan. Pesaning she`riy kuchi, yumoristik va satirik fazilatlarini ham Chanoqvoy, Qovoqvoy, Tarvuzvuy nutqida, ularning dialog va monologlarida yaxshi ko`rinadi.

G'afur G'ulom - bolalar shoiri va nosiri

REJA:

1. G'afur G'ulomning hayot va ijod yo'li.
2. G'afur G'ulom – bolalar shoiri.
3. Adib qissalarining g'oyaviy-badiiy mundarijasi.

4. Xulosa

Tayanch tushunchalar: qissa, ctilizatsiya, interpretatsiya, tarixiy haqiqat, badiiy haqiqat, milliy istiqlol, tamoyil, tanqidchilik, dramaturgiya, publitsistika.

G'.G'ulomning o'zbek bolalar adabiyotini rivojlantirish sohasidagi xizmatlarini alohida umumlashtirish yo'nalishidagi ilk urinishlar XX asrning o'rtalaridayoq yuzaga kelgan edi. O'shanda pedagogika bilim yurtlarida o'qishga mo'ljallangan bolalar adabiyoti faniga oid o'quv qo'llanmalari va xrestomatiyalarida G'.G'ulom alohida ijodkor sifatida taqdim etilib, uning haqida portret-maqola va asarlaridan namunalar berila boshlangan edi. G'afur G'ulomning bolalar shoiri va nosiri qiyofasiga otalik va murabbiylik tuyg'ulari chuqur singishib ketgan. Bunda etimlikda kechgan bolalik hotiralari ta'siri ayricha rol o'ynaganini alohida ta'kidlash joiz. Shu holat uni qo'liga qalam olib ilk she'rini yozishga undagan edi. «Bir kuni, - deb yozgan edi u o'zining «Kechmish va kechirmishlarimdan» xotiranomasida, - bolalar bog'chasidagi yetim bolalardan 15 tasini bizning internatga o'tkazdilar. Men bu go'daklar bilan birga tunab qoldim. Kechasi uxlamay, kuzatuvchilik qilib chiqdim. Shu kecha o'z yetimligim, boshimdan kechirganlarim va shu yetim bolalar ahvoli... to'g'risida she'r yozdim. Shu she'rimni birinchi she'rim desam bo'ladi». O'sha ilk she'ridayoq u bolalarning ham hazrati Odam farzandi ekanligini, binobarin, ular ham insonday yashash va ulg'ayish huquqiga ega ekanliklarini ularning o'z tillaridan favqulodda bir ko'tarinkilik bilan ifoda etgan edi.

Biz Odam bolasimiz,

Odamning donasimiz.

Biz o'sib ulg'ayamiz,

Olim bo'lish g'oyamiz.

G'afur G'ulom yetimlikda ulg'ayganini umr bo'yi unuta olmadi. Yetimlik uni o'ksik qalb sohibiga aylantirgan va mudom ta'qib etganligi tufayli bolalarga atab qaysi mavzuda she'r yozmasin, o'sha zahoti xotirasi qatlaridagi yetimlik armonlari uyg'onishi tabiiy edi. Kattalar uchun yozilgan va XX asrdagi o'zbek she'riyatida voqeaga aylangan «Sen yetim emassan»da ham, bolalarga atab bitilgan «Bayram maktubi» va boshqa qator she'rlarida ham bu holni kuzatish mumkin. Inchunin, shoirning roppa-rosa ellik ikki yasharligida yaratgan «Bayram maktubi» she'rida o'qiyamiz:

O'ttiz sakkiz yil burun
Bugungi siz bilan teng
O'n to'rt yoshlarda edim.
Tongsiz, uzun kechqurun
qora qo'ynin ochar keng
Ko'z o'ngida uchurum.

Maktab qayoqda deysiz?
Nonning hatto o'zi yo'q,
Bo'z yaktak, yirtiq ishton,

Eshiksiz, o'tsiz, nursiz,
Vayronalar qup-quruq,
Halq tentirar parishon
Oq podshoning urushi
Yurtni yergacha toptab,
Tekkan edi tinkaga.
Och qo'shinning yurishi
Er yuzini gur o'rtab,
O'xshardi alangaga.

Rus mustamlakachiligi siyosatining butun fojeasini bolalik xotirasi vositasida shu xilda fosh etarkan, qonxo'r fashistlar ming-minglab bolalarni ota-onalaridan ayru etib, yetim qoldirayotganidan jirkanganida yana o'sha «o'ninchi yillar sargardonligi»ni eslamay, o'tolmaydi:

G'.Gulomning o'smirlar kitobxonligining asosini tashkil etgan «Netay», «Yodgor» va «Shum bola» kissalarida shu muammo tahlil qilindi. Adib asarlarida etimlikni keltirib chiqargan sabab va oqibatlarga badiiy nazar solish yo'lidan boradi. Uning talqinicha, yetimlik-mohiyat e'tibori bilan o'gaylik ham. Chindan-da, o'z otasi yo onasi (ba'zan har ikkovi)dan bevaqt ajralib, o'gay ota yoki o'gay onadan shafqat emas, shafqatsizlik ko'rgan bolakayning achchiq va alamli qismati-shunday foje' qismatdir. Bunday holatda yetimning o'gayligi birmuncha shaxsiy fojea sanalishi mumkin. Ammo G'afur G'ulom masalani shu holda echish yo'lidan bormagan, aksincha u o'tmishdagi nobop tuzum va bemehr jamiyatning shafqatsizligi ham o'lganni tepkilab, etim-esirlarga o'gaylik qilishi fojeasini ochishga harakat qildi va aytish mumkinki, bunga muvaffaq ham bo'ldi. Bu jihatdan Netay va SHum bola-qoravoyning etimlik qismati talqini e'tiborni tortadi.

«Yodgor» qissasida yetimlik syujetni harakatga solgan motiv. Unda yetim go'dak Yodgorning qismatiga munosabat hal qiluvchi rol o'ynaydi. S.Mamajonov to'g'ri ta'kidlaganidek: «Yodgor» poetik ma'lum jihatidan ramzli nom. Go'dak Yodgor asarda tasvir ob'ekti bo'lmasa ham yozuvchi uchun yangi insoniy munosabatlarni ko'rsatib berish uchun ola bir vosita rolini o'ynaydi, xolos. Bu go'dak Mehri va Jo'ralar, ularning ota-onalarining qalb dunyosini ochib beruvchi bir kalitdir, ohu go'dak asar voqeasini yaratadi, konfliktga keskin tus beradi, syujetni o'stiradi va uni ikkiga bo'lib tashlab, keyin yana bir-biriga qo'ohadi, Shu go'dak xarakterlarni rivojlantiradi, ochadi. U asardagi voqealar va odamlarni bir-biri bilan munosabatga kirituvchi, asarning hamma bo'lagini yozuvchining ko'rish markaziga bog'lab, tortib turuvchi magnitdir: Mehrining o'z sevganiga shu go'dak halaqit beradi. Jo'raning «aybsiz aybdor» bo'lib onasi, aka va ammalari oldida ta'naga qolishida shu go'dak sababchi bo'ladi, xuddi sxuningdek, Jo'raning insoniyligini ochib beruvchi, Saodat sevgisini sinovdan o'tkazuvchi va Mehriga hayot haqiqatini tushuntirgan ham shu go'dak – «Yodgordir».

Hakim Nazir – o'zbek bolalar realistik nasrining sohibkori, Qudrat Hikmat - bolalar shoiri

Reja:

1. Hakim Nazirning hayot va ijod yo'li.
2. Hakim Nazir – bolalar nosiri.
3. Adib hikoyalarining g'oyaviy-badiiy mundarilasi.
4. Yozuvchining bolalar qissachiligidagi izlanishlari.
5. «Lochin qanotlari» romani haqida.

Hayotda har bir kishining, katta-kichikning o'ziga yarashiq burch va vazifalari, yumush va tashvishlari, umid va intilishlari bo'ladi. Tarovatli qishloqlarimizdan birida

yashovchi Karimning yagona ishi («Bir tup g`o`za») sigir boqishdan iborat edi. Lekin inson bolasi boshiga nima kelishini, qanday voqea ro`y berishini oldindan bilmaydi. Tasodif oyoq ostidan chiqadi. Karimning sigiri arqonini uzib ketib, bir necha g`o`za nihollarini payhon qffib tashlaydi. Bunga Karimning beparvoligi sabab bo`ladi.

Bo`lib o`tgan voqeaga Karim oldiniga parvo qilmaydi. Chunki bepayon zumrad dalalarda g`o`zaning son-sanog`i yo`q. Karimning sigiri payhon qilgan nihollar esa buning oldida dengizdan bir qatra-ku. Awaliga Karim ham shunday deb o`y laydi. Biroq, unga o`zidan kattaroq bolalar bir tup g`o`zadan qancha tola, yog`, qanchadan-qancha moddalar borligini tushuntiradilar. Karim shundan keyingina sigirning qancha zarar keltirganligim payqab, achinadi, uyaladi. Chunki Karim bu ishda sigiri emas, o`zi aybdorligini juda yaxshi bilardi.

Hakim Nazirning asadaridan olib hikoya qilingan bu parchada qatrada quyosh aks etishi ko`rinib turibdi. Yozuvchining shunga o`xshash o`nlab hikoyalarida, biz o`zimizga qadrdon olovli quyoshni, musaffo havoni, muqaddas ona yerni, bir so`z bilan aytganda, bugungi go`zal O`zbekistonni, osmono`par «oq oltin» tog`lari bunyod etayotgan fidokor paxtakorlarni, ularning quvnoq, baxtiyor bolalarini ko`ramiz. Ular Hakim Nazir asarlarining qahramonlaridir.

Bu hikoyaning ijobiy qahramonlari o`rta va katta yoshdagi maktab bolalaridir. Bu yoshda bolalarni dunyodagi hamma narsa qiziqtiradi, bu yoshda ularning ona-Vatanga bo`lgan mehr-muhabbat, sadoqat, burch kabi olijanob tuyg`ulari shakllanadi, go`zal his-tuyg`ulari, oliy insoniy munosabatlari uyg`onadi. Bu qahramonlar shunday yoshdagi, ularning o`zaro munosabatida soddalik, shu bilan bir qatorda jiddiylik va qat`iyat bor.

Shuning uchun yozuvchining «Boshog`» hikoyasining qahramonlari Azimjon va Toshilla boshog`da ishtirok etmasak, kattalar oldida uyatga qolamiz, mehnat intizomini buzgan bo`lamiz, degan fikrga keladilar. Bu bolalar ma" naviy dunyosi boyligidandir. Hakim Nazir bu tuyg`ular olamida mehnat romantikasiga katta e`tibor berib, uning o`ziga xos nafosatini ko`rsatadi. Adib o`zining bu tasvirlarida haq. Bu xususan uning o`zbek rnilliy koloritini to`g`ri va yorqin tasvirlashida, qishloq turmushidan olingan jonli va hayotiy voqea detallarni to`g`ri topishida yaqqol ko`rinadi. Adib asarlarida bolalarning xalq mulkini ko`z qorachig`idek asrash xususidagi olijanob tuyg`ulari, jamoaning mehnatini qadrlash, e`zozlashlari, mehnatning shon-sharaf ishi ekanligi haqidagi tushunchalari o`zining jonli ifodasini topgan.

Hakim Nazir 1915 yilda Toshkent shahrida mahsido`z-kosib oilasida dunyoga keldi. Onasi Malika otinning maktabida boshlag`ich ma`lumot olgandan keyin, royabzal fabrikasiga kirib kasb egallash bilan birga kechki ishchiir dorilfununi (industiral texnikum)da o`qishni davom ettirdi.

Hakim Nazir bolaligidan kitobxonlikka juda berilgan, gazeta va jumallarda bosilgan materiallarni chanqoqlik bilan o`qib chiqardi. Undagi o`qish-yozishga bo`lgan qiziqish uni hoziigi «Tong yulduzi» gazeta-tahririyatida ishlashga olib keldi. 1934-1935 yillarda dastlabki hikoya, ocherklari gazetada, «Yosh kuch» jumalida bosilib chiqdi. Bular havaskorlik mashqlari edi. Adib jiddiyroq asar yozish uchun hayot taassurotlaridan tashqari chuqur nazariy ma`lumot ham zarur ekanligini angladi. Kunduzi redaksiyalarda ishlagan holda kechki Toshkent davlat pedagogika institutida o`qib, til-adabiyot fakultetini muvafaqqiyatli bitirib chiqdi. Bir oz vaqt o`qituvchilik qildi. Adabiy ishga astoydil berildi. 1942 yildan boshlab o`n bir yil davomida O`zbekiston radio qo`mitasida bo`lim boshlig`i, bosh muharrir bo`lib ishladi. So`ng Badiiy adabiyot nashriyotida bosh muharrir, O`zbekiston Yozuvcrmlar uyushmasida kotib, adabiy maslahatchi vazifalarini bajardi. Mazkur vazifalarni yozuvchi ijodiy ish bilan qo`shib olib bordi.

Qunt, chidam bilan o`z ustida ishlashi, tinimsiz ijodiy izlanishi tufayli Hakim Nazir bolalar yozuvchisi sifatida kitobxonlarga tanildi. 1940 yilda «Kenja» (yangi nomi «Quyosh qachon tutiladi?»), 1946 yilda «Salim ota» nomli hikoyalari respublika tanlovlarida sovrindor bo`ldi. 1951 yilda esa Moskvada rus tilida chiqqan «Malchiki iz kishlaka» hikoyalar to`plami sobiq ittifoq tanlovida mukofot oldi.

Sevimli yozuvchimizning ijod yo'liga sinchiklab nazar tashlasak, uning dastlabki ijodiy izlanishlari hikoyachilikdan boshlanganini ko'ramiz. Uning birinchi kitobi «Qishloqdagi jiyanlarim» ham hikoyalardan jamlangandir. Hikoya jami yozuvchi Man yosh kitobxonlar olamini birlashtirishda bamisoli bir ko'prik bo'ldi. Bu ko'prik orqali Hakim Nazir bolalarning boy, go'zal, quvnoq, ajoyibotlarga to'la dunyosiga kirib bordi. Bir-biridan ta'sirli, bir-biridan o'qimisfi, bolalarcha jonli hikoyalari dunyo yuzini ko'rdi. Bularda kichkintoylarning quvonchlarga to'la turmushi, his-tuyg'ulari, o'qishi, xulq-odobi, kattalarga hurmati, mehnatga munosabati, milliy qadriyatlar o'z badiiy ifodasini topdi. Hikoyalarda yozuvchining kichkintoylar yoshi, saviyasi va ruhiyatini ko'rsatishga alohida e'tibor berganiko'rinish turadi. «Qishloqdagi jiyanlarim» (1948), «Besh baho» (1955), «Cho'l havosi» (1958), «Yaxshiism» (1962), «Meni taniysizmi?» (1963), «Bolajonlarim» (1964) nomli hikoyalar to'plamlari birin-ketin e'lon etilib, bolalar va o'smirlarning ma'naviy mulkiga aylandi.

Hakim Nazirning ko'pgina hikoyalari bog'cha yoshdagi yoki endigina birinchi sinfga qadam qo'ygan bolalar hayotini aks ettirishga bag'ishlangan. Buni adibning «Bir og'iz so'z», «Rasmi kitobcha», «Davronning qushchasi», «Qaysargina ukam», «Yaxshi ism», «Ikki o'rtoq», «Bulbul», «Qanddon», «Igna», «Bir tup g'o'za» kabi hikoyalari misolida aytish mumkin. Bunday hikoyalarda bolalar o'rtaqidagi o'zaro do'stlik, axloq-odob, a'lo o'qish, jamoat ishlarida faollik ko'rsatish, kattalarning yumushlariga ko'maklashish, qushlar va jonivorlarga g'amxo'r bo'lish, orzu-umidlar qanotida yashash va boshqa masalalar aks etganini ko'ramiz.

Bolalarda orzu-umid, yaxshilik sari intilish kattalarga nisbatan kuchliroq bo'ladi. «Yaxshi ism» hikoyachasida adib xuddi shu to'g'rida so'z yuritadi. Shoir endigina birinchi sinfga qadam qo'ygan. U hali maktab qonun-qoidasini yaxshi bilmaydi. Shuning uchun qizcha maktab o'qituvchisi Zuhra yulduziga raketa uchirilganligi to'g'risidagi axborotni ro'znomadan o'qib berganida butun sinfni boshiga ko'tarib:

— Topdim! Topdim! Topdim!! — deya ovozining boricha baqirib yuboradi Shoir.

Ayon bo'lishicha, kecha Shoiraning onasi unga singilcha tug'ib bergan bo'lib, chaqaloqqa nima deb ism qo'yish janjal bo'lib turgan ekan. Shoirada havas yaxshi, niyat kuchli. Unga raketa va ayniqsa, Zuhra yulduzi yoqib qoladi. Shu onda singuchasiga Zuhra deb ism berish fikri tug'u'adi. Bu haqda u butun sinfga so'zlab beradi.

«Yaxshi ism»ning ahamiyati shundaki, bolaning Shoiraga, tanlagan ismga, qudratli texnikaga, shirinsuxan muallimaga va otaga bir umr havasi keladi.

Bolalarga har taraflama to'g'ri ta'lim-tarbiya berish, tushuntirish, o'rgatish, ularda ko'nikmalar hosil qilish kattalarga bog'liq. Kichkintoylarning otaxon adibi «Bulbul» hikoyasida bu masalaga katta e'tibor beradi. Ona tabiatga, qushlarga mehribonlik qilish g'oyasi bu asarning asosini tashkil etadi.

Qobiljon qushlarni ehtiyot qilish, e'zozlash kerak ekanligini, ularni urish, ozor berish yomonligini tushunib yetmaydi. Shu sababli qo'shni hovliga kelib sayragan bulbulni urmoqchi bo'ladi.

Olim aka ishdan qaytganda Qobiljon qo'shnilarnikiga bulbul kelganidan xabar beradi.

- Dada, dada! - dedi u ko'zini katta-katta ochib, - nega bizning boqqa bulbul kelmaydiya?

- Qo'rqadi, - dedi dadasi.

- Nimadan qo'rqadi? - dedi u ajablanib.

- Sendan! - dedi dadasi.

- Iya, nega endi mendan qo'rqadi?

- Axir kesak otsang, mayib bo'ladi-da! Bu ishing yaramaydi deb aytib edim-ku. Qobiljon indamay, o'ylanib qoldi: endi nima bo'ladi? Rostdan ham bulbuljon uning bog'iga hech kelmasmikan-a?

- Kesak otmasam keladimi, dada? - dedi oxiri Qobiljon.

- Albatta, keladi, - deb ishontirdi dadasi.

- Bo`pti! - dedi Qobiljon va shu paytdan boshlab qushlarga kesak otmaydigan bo`ldi.

Adibning maktab yoshidagi bolalarga bag`ishlab yozgan juda ko`p hikoyalari kitobxonni ona yurtni sevishga, mehnatkash bo`lishga, mehnat ahlini, ota-onani e`zozlashga, kasb-hunar egasi bo`lishga chorlaydi.

«Bir tup g`o`za» hikoyasida yosh qahramonlarning xalq boyligiga bo`lgan munosabatlari g`oyat hayotiy detallar, jonli, qiziqarli voqealar asosida ifoda etiladi. Bolalarning o`yinqaroqligi tufayli yoshlarning xalq mulkiga bo`lgan munosabatlari o`zgaradi.

Muallif hikoyada qahramonlar xarakterini individuallashtirishiga alohida e`tibor beradi. Abdusamad - cho`rtkesar bola. Goho ba`zi gapiarni shartta aytib yuboradi (sigirni qidirib yurganda Qoraboy akaga qilgan muomalasini esga oling). Karim soddadil, to`g`ri so`z bola. Shu bilan birga, serharakatligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bu holni biz Karimning xatti-harakatlari, qiliq, odatlari, so`zlari, o`rtoqlari bilan munosabatlarida ko`ramiz.

Muallif «Qishloqdagi jiyanlarim» to`plamidagi «Valijonning dadasi» hikoyasida bolalarning jangcliilaiga hurmat va muhabbatini tasvirlaydi. Buni ikkinchi jahon umshidan qahramon bo`lib qaytgan Valijonning dadasini butun qishloq ahli zo`r hurmat va katta tantana bilan kutib olganini ko`rsatish orqali ochadi. «Jiyanimning toychasi» hikoyasida kitobxonni qishloq bolalarining xarakterlari va hayoti bilan tanishtiradi. Mahmudjon bilan Omonning otasi paxtadan mo`l hosil olish uchun kim o`zarga kirishadi. Bolaiar o`z otalarining g`olib chiqishi uchun kuyib-pishib harakat qiladilar. Mahmudjon jonidan aziz ko`rgan toychasini aravaga qo`shib paxta tashishga kirishadi. Bu bilan yozuvchi qishloq bolalarining o`ziga xos xarakterini yaratadi. Kichik bir parcha orqali katta bir voqeani - bolalarning ulug` ishlarga qo`l urganligini haqqoniy ko`rsatadi. Hakim Nazirning aksariyat asarlari, yuqorida ko`rganimizday, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga bag`ishlangan.

Muallifning birinchi qissasi «Ko`korol chiroqlari» urushdan keyingi qishloq hayotida yuz bergan qiyinchiliklarni yengishda ota-onalariga ko`mak ko`rsatgan bolaiar haqida, ulaming mehnatda xarakterlarining chiniqishi, do`stliklarining tobianishi aks ettiriladi. Bu qissani muallif kitobxonlar talabi asosida keyinroq qayta ishlab, «So`nmas chaqmoqlar» nomi bilan bostirdi. Hakim Nazirning «Yonar daryo» qissasi o`zbek bolaiar adabiyotining keyingi yillardagi katta yutug`idir. «Gaz-qaynar» manzarasini yorqin bo`yoqlarda gavdalanitirgan bu asarda o`sha davrda Qizilqum sahrosi kishilarining jasorati, romantik hayoti, qahramonligi hamda bir-biriga chin rnehribonligi tasvirlanadi, shunmgdek, oiladagi bola tarbiyasi, bunda ota-onaning tutgan roli ko`rsatiladi. Asarda voqea o`n ikki yoshli o`quvchi Damir tilidan hikoya qilinadi. Bundan ikki yil awal otasi vafot etib, singlisi Popuk ikkovi onasining qaramog`ida qolishgan. Ko`p vaqti ishda o`tadigan ona bolaiar tarbiyasiga kam e`tibor bergan. Damir esa keksa buvisining o`ta niehribonligi, yumshoqligi orqasida o`yinqaroq, o`qishga kam xafsala, o`jar bo`lib qolgan. Natijada, u onasiga bo`yin egmasiikka xarakat qiladi.

Damirlarning uzoq qarindoshlari Sulton amaki ularning uylariga tez-tez kelib turadi, shuning uchun bolaiar unga o`rganib qolishgan. Keyinchaiik ota sifatida shu oilaga kirgan Sulton amaki Damir xarakterining shakllanishida muhim roi o`ynaydi. Damir xarakterida iz qoldirgan ikkinchi muhim voqea uning Qizilqumga safari bo`ladi. Bu uning ko`z o`ngida yangi oiam ochadi, uni mehnat quchog`ida chiniqtiradi.

Gazchilarning «G`ildirab yuradigan posyolkasi», «Cho`pon boboning boshchiligida» ochilgan «Mo`jiza quduq», bemorligiga qaramay Sulton amaki ko`rsatgan fidokorlik, umuman, gazchilarning afsonaviy qahramonligi Damir ruhida keskin burilish yasaydi.

Yozuvchining «Kenjatoy» qissasida hunar maktabi hayoti qiziqarli va jozibador aks ettirilgan bo`lib, o`smirlarda ishchi kasbidan faxrlanish tuyg`usini tarbiyalashga xizmat etadi.

«Tohir-Zuhra qissasi»ni olsak, unda bosh muomma hayotga qadam qo'yayotgan balog'at pallasidagi o'spirin bilan qizaloqning yosh qalblarida tug'ilmish ilk sevgi kechinmalariga qaratilgan, ularning yoniq iztkoblari tasviriga keng o'rin berilgan.

«Dadamni topib beringlar» qissasida bir dehqon oilasi boshiga tushgan nohaqlik fojeasi kichiklar nazari orqali o'tkazilib, ularning ongi va rahiyatiga yetkazilgan salbiy ta'siri badiiy tahlil etilganini ko'ramiz va yosh qahramonlar bilan birga iztirobga tushamiz.

Hakim Nazir so'nggi kitobini «Oq fotiha» deb atadi. Bu xotira-qissa bo'lib, bolalik sarguzashtlariga bag'ishlangan. Muallif bezovtalik, g'ulg'ula-hayajonlarga to'la bolalik chog'lari ko'rgan-kechirganlarini jonli lavhalarda hikoya qiladi, kichiklikda ota-onasidan olgan ilk insoniy saboqlari uchun chuqur va samimiy mirmatdorchiligini izhor etadi.

Hakim Nazir 1973 yilda «Lochin qanotlari» romanini yaratdi. Bunda furushga ketgan ota-onalarning o'rnini bosgan O'ktam, Umri va boshqa yosh vatanparvarlar obrazlari gavdalantrildi. Romanni jamoatchilik iliq qabui etdi. Tadqiqotchilar: «Lochin qanotlari» romani o'zbek bolalar adabiyotida deyarli qo'l urilmagan mavzuni - urush yillari kichkintoylarning buyuk g'alabaga qo'shgan hissasini ko'rsatishga bag'ishlangan yirik asar sifatida qimmatlidir» deb yozdilar.

Yozuvchining «Chiranma g'oz - hunaring oz» nomli pesasi ko'p yil davomida yosh tomoshabinlar teatri sahnasida qo'yildi.

Muallifning 24 ta kitobi ras tilida, 12 ta kitobi qozoq, qirg'iz, turkman, gruzin, arman, ukrain, belorus, latish, litva, estonva boshqa tillardatarjima bo'lib chiqqan. Qator hikoyalari nemis, fransuz, ispan, bulg'or, chex, mo'g'ul kabi tillarda e'lon etilgan.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi respublika Davlat mukofoti va X.K.Andersen nomli Xalqaro faxriy diplom sovrindori Hakim Nazir o'z ijodiy faoliyatini davom ettirmoqda.

Qudrat Hikmatning bolalar shoiri sifatidagi qirralari rang-barang. Uning badiiy olami nihoyatda boy. Shoirning so'z va topilmalari, o'z fikrini badiiy tamsillar yordamida obrazli ifodalash orqali betakror badiiy nutq yarata olish mahorati o'ziga xos uslubini belgilaydi.

Qudrat Hikmatning bolalar uchun yozgan ko'pgina she'rlarida obrazlilik yetakchi. Xususan, shoirning badiiy san'atlar va tasviriy ifodalar vositasida manzara yaratish mahorati diqqatga sazovor. Aytaylik, 3-sinf o'qish kitobida shoirning "Ayamajiz" she'ri keltirilgan.⁵ O'qituvchi o'z kasbiy mahorati va adabiy-nazariy bilimi hamda tajribasiga ko'ra she'rni turli usul, yoxud o'yinlar vositasida maroqli o'tishi mumkin. Ammo, Q.Hikmat she'rlariga xos badiiy bo'yoqdorlik o'quvchidan dastlab, so'z san'ati mo'jizalarini ilg'ay bilishni taqozo etadi. E'tibor berilsa, she'rning har bir misrasida obrazli detal va tasviriy ifoda uchraydi:

Biyday cho'lu dalalar,

Bo'ralar qor kapalak.

Bog'lar sokin, mizg'ishar

Misoli oq kapalak

Ta'kidlangan so'zlar ham lugaviy ma'nosi, ham obrazli ifodasiga ko'ra muhim. "Biyday" so'zining lug'aviy ma'nosini 3-sinf o'quvchisi anglab yetishi gumon. Shu sababli bu she'rda "ochiq", "yalang", "keng" ma'nosida qo'llanayotgani, yana, o'z va ko'chma ma'no ifodalayotgani oydinlashtirilishi lozim. Haqiqatan, qishda dala-dasht hosildan bo'shab, ancha keng bo'ladi, ochilib qoladi. Ammo shoir shiddat bilan qor yoqqandagi (*bo'ralar*) holatga ko'proq urg'u berayotir. Oppoq qor hamma yoqni qoplaganda bir tekisdagi yalanglik ko'zga tashlanadi. Badiiy so'zning jarangi shunda aks etgan. Shoir

⁵ M.Umarova, Sh.Hakimova. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. T., 2010. -B.84.

qorning kapalaksimon yog`ishiga muvoziy oqqa burkangan bog`lar tasvirini chizib, uning “mizg`ishi”ni-da, (ozgina uxlagan, ko`z ilintirgan) kapalakka qiyoslaydi. Shoirning topilmasi shundaki, bog`larning qor yoqqan vaqtdagina sokinlashuvi, yilga nisbat olganda “mizg`ish”dir. Kapalak uyqusini-da, hech kim ko`rmagan. O`quvchi bu kabi ramziy detallar mohiyatini teran anglasagina, she`rning badiiy tas`sirchanligi, estetik zavqi oshadi. Binobarin, she`rdagi “muz oyna”, “sumalak shodalari”, ayamajiz–qishning eng sovuq kunlarini yalmog`izga o`xshatilishi kabilar nafaqat badiiy topilma, balki xalqona ifodasiga ko`ra ham e`tiborni tortadi.

4-sinf O`qish kitobida Q.Hikmatning “Qish tozg`itar momiq par” nomli yana bir she`ri berilgan.⁶ Bunda har bir so`z ustida ishlash muhim. Ya`ni so`z va iboralar o`z yoki ko`chma ma`noda qo`llanayotganini o`quvchilar anglab yetishi zarur. Masalan, she`rning birinchi to`rtligi shunday boshlanadi:

*Savab bulut to`shagin
Qish to`zg`itar momiq par.
Yerga serbar oq namat
Yozilganday yaltirar.*

Ta`kidlangan so`zlar ko`chma ma`noda obrazlilik kasb etgan. Shuningdek, bunda she`riy san`at namunalarini kuzatish mumkin. Tashxis – jonlashtirish bolalar she`riyatida eng ko`p uchraydigan san`at. Q.Hikmat o`xshatishlari esa mantiqiy asosga ega bo`lishidan tashqari, sodda va betakroridir. To`shakni yumshoq qilish uchun momiq paxta savab solish, ostiga namat tashash (yungdan bosib ishlangan palos, kigiz) insoniy xislatlarga xos. Tabiat hodisasi insondagi ana shu holatlarga o`xshatilmog`da. Bunda momiq parni to`zg`itib savash– qishda qorning mayin, ezg`ilab yog`ishi (o`xshatilayotgan narsa)ga ko`chirib o`tkazilgan.

Ushbu she`rda lirik qahramonning qishdan zavqlanish kechinmasi, ayni paytda qor ko`p yog`ib, sovuq izg`irinning ziyoda bo`lishi tufayli bolalarga xos arazi ko`zga tashlanadi. Hamchunun yosh lirik qahramon qorga:

– Namuncha
Zeriktirding uchqunlab?
Yog`masding-ku ilgari
Surunkasi uch kunlab...
Yetar shuncha yog`ganing
Uzoq dala qirga bor! –deya murojaat qiladi.

Bu jihat apostrofa –ya`ni narsa yoki hodisaga xuddi jonli mavjudotga kabi murojaat etish asosida yuzaga kelgan. Shunga o`xshash, Q.Hikmatning “Bahor” she`ri obrazli ifodalarga boy.

*Uchib yurar mayin shamollar
Yelpib- yelpib anhor yuzini
Qirg`oqlarda soyabon tollar
Oyna suvda ko`rar o`zini*

She`rni o`qigan yosh kitobxon uning estetik zavqi va jozibadorligini darrov ilg`aydi. Bolalar she`riyati uchun badiiy yuksak tasvir va obrazlilik kamyob hodisa. Shoir chizgan bahor manzarasi umumadabiyotga, nozik tuyg`ularga boy chinakam she`r namunasi bo`la oladi:

“ Ko`kni quchgan teraklar tinmas, Oro berar kulrang po`stiga” misralari jonlashtirishning hamda noyob badiiy topilma namunasi. Bu bolalarning yosh xususiyatlariga juda mos.

⁶ S,Matchonov va boshq. O`qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. T., 20011. –B.82.

Ammo bilamiz-ki, mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi keng qo'llangan. Biri tashxis (shaxsga bog'liq)- jonsiz narsalarni jonlantirish; ikkinchisi intoq (nutq bilan bog'liq) - nutqsiz narsalarni nutq egasi sifatida tasvirlash. Qudrat Hikmat she'rlarida intoq ham ko'p ishlatiladi. (masalan "Temirjon bilan telefon" she'rida telfonning insondek shikoyat qilishi, "Eshak nega hangraydi" she'ridagi sher, fil, tulki, kiyik, eshak va cho'chiqalarning majlisida she'rva eshakning savol javobi kabi...), ammo yuqoridagi "Bahor" she'rida shoir tashxis usulidan mohirona foydalanib, ko'klam obrazini san'atkorona tasvirlaydi. Shu sababli, bu she'rda Bahor o'ziga oro, zeb berib, husnidan sarxush, go'zal qiz sifatida gavdalanadi; tonggi shabboda, tol, maysa, o't, chinor va teraklar xuddi odamdek bir- birlarini kuzatadilar, ilhomlanadilar, yoki o'zlarini yelpiydilar va h.k. Binobarin, shoir bahordagi dov-daraxtlarni, shamolni insoniylashtiradi.

Umuman, Qudrat Hikmat she'riyatning badiiy xususiyatlari serjilo, shoir fikrlarni rassom singari chizayotganga o'xshaydi. She'r xoh bolalar o'yinlari, xoh boshqa mavzularda yozilgan bo'lmasin, ular eng avvalo bollarni tevarak atrofdagi voqealar va hodisalar bilan tanishtiradi.

Zotan, Qudrat Hikmat she'rlaridagi voqeabandlik obrazlilik qofiyalarning ixchamliligi, hatto sodda tuzilishi, til xususiyatlari barcha-barchasi shoir she'rlarining g'oyaviy- badiiy ematsionalligini oshirishga xizmat qiladi.

V.G.Belenskiyning bolalar bilan obrazlar vositasida gapirish lozimligi haqidagi fikrlari baayni Q.Hikmat ijodiga xosligini uqish mumkin. Zero, Qudrat Hikmat she'rlarni o'qib ulg'aygan o'quvchi o'z ona tilimiz boyliglaridan voqif bo'lib, badiiy so'z qudratini teran his etadi, Vatan va yurt iftixori bilan yashaydi.

Mirkarim Osim-bolalarning tarixnavis adibi

Reja:

1. Mirkarim Osimning ijodiy yo'li.
2. Mirkarim Osim-bolalarning tarixnavis adibi
3. Adibning tarixiy ba tarixiy-biografik qissalari haqida.

Adabiyotda xalqimizning tarixiy o'tmishi mavzuini badiiy aks ettirish to'g'risida mulohaza yuritilsa, taniqli adib Mirkarim Osimning bu sohada qilgan xizmatlarini eslamaslik mumkin emas. Yozuvchi tarixiy o'tmishga hamisha va astoydil qiziqib kelgan. Xalq o'tmishiga qiziqish uning ijodida tarixiy mavzuni bosh yo'nalishga aylantirdi.

O'zbek sho'ro adabiyotining to'ng'ich avlodiga mansub Mirkarim Osim 1907 yilda Toshkentda, ziyoli oilasida dunyoga kelgan. 1918 yildan «Shamsul urfon» nomli boshlang'ich maktabda o'qidi. 1921 yildan Alisher Navoiy nomidagi respublika bilim yurtida tahsil ko'rdi. Do'stlari Oybek va H. Yoqubovlar bilan bu texnikumda adabiyot-san'at turlarini o'rgandi. 1926 yilda esa Moskva Davlat pedagogika institutining tarix-iqtisod fakultetida o'dib, uni 1930 yilda tugalladi. Samarqandda o'qituvchilar tayyorlash kursida, 1932 yilda O'zbekiston Maorif Xalq komissarligi, Pedagogika ilmiy-tadqiqot ilmgohida ishladi. Tarix fanidan qo'llanma, tavsiya, darsliklar yaratdi. Mirkarim Osim badiiy ijodni she'rlar yozish bilan boshlagan. So'ngra hikoya va qissa janrlarida ham qalam tebrata boshlagan. 1940 yilda Ulug' Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida «Astrobod», «Alisher Navoiy a Darvishali», «Badarg'a», «Navoiyning xislatlari», «Ulug'bek va Navoiy» singari hikoya va tarixiy qissalar yoza boshladi. Adib bir umr tarixiy qissalar yozish bilan mashg'ul bo'lib, yangi-yangi avlodlarni o'tmish va uning ilg'or shaxslariga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyaladi. Vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini ulug'ladi.

Mirkarim Osim 50-yillar Stalin qatag'onining begunoh ma'naviy qurbonlaridan biridir. Uning vatanparvarlik, millatparvarlik, o'tmish tarixga muhabbat ruhidagi asarlari o'z muallifiga qaro kunlar olib keldi. Adib ko'p yillar sho'ro rejimining azoblarini chekdi. 40-yillarning oxirida qatag'onga uchradi, 50-yillarda ozodikka chiqdi. Tarixiy mavzularda

hikoyalar, qissalar yozdi. Barcha asarlarida xalq tarixi, nurli siymolar xarakteri yorqin tasvirlanadi.

60- yillarda vatanga qaytgan san'atkor tarixiy asarlar yozishda, tarjimai hol ishi bilan shug'ullanishda davom etadi. Adabiy nashriyotlarda kichik adabiy xodim vazifalarida ishladi. Mirkarim Osim tarixchi adiblar orasida asl manbani buzmay, qayta badiiy jonlantirishi bilan ajralib turadi. Uning asarlari 70-80-90-yillar tarixiy adiblari uchun asosiy manba vazifasini o'tadi.

Adabiyotshunos M. Sattorov tarixchi adibning asarlarini davriy jihatdan shartli ravishda uch guruhga ajratadi.

1. Tariximizning qadimgi davrlari haqida hikoyalar (Makedoniyalik Iskandar, so'ngra, arab xalifaligining, keyinroq eroniy shohlarning O'rta Osiyoga yurishlari haqidagi bitilgan hikoya, qissa va turli obrazlar talqiniga oid asarlar).

2. O'rta asrlar tarixidan hikoya qiluvchi asarlar (Mo'g'ullar istilosi va buyuk fan, madaniyat arboblari haqida biografik qissa va hikoyalari).

3. XVIII asrdan to Oktyabr to'ntarishiga qadar bo'lgan davr tarixiy hayotini badiiy aks ettirgan asarlar turkumi.

Chindan ham muallif asarlari davriy jihatdan kengqamrovli. Ayniqsa, adibning O'rta asrlar tarixidan hikoya qiluvchi tarixiy-biografik qissalari alohida e'tirofga sazovor. Ayni paytda Mirkarim Osim asarlarini uch katta mavzu yo'nalishi bo'yicha tahlil qilish, baholash mumkin:

1. Tarixiy qahramonlik mavzuidagi asarlar.
2. Tarixiy-maishiy mavzu.
3. Tarixiy biografik asarlar.

Adib yarim asrlik ijodiy faoliyatida ana shu uch davr va uch mavzuviy yo'nalish bo'yicha samarali ijod qilib, o'zbek nasrini, o'zbek qissachiligini boyitdi. Xususan, u tarixiy qissachilikda katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Bu yo'nalishda u qadim ajdodlarimizning, Vatanimiz tuprog'iga bostirib kirgan chet ellik bosqinchilarga (eron, arab, mo'g'ul, rus) qarshi olib brogan qahramonona kurashlari, o'tmish ilm-fan madaniyatimiz yulduzlarining jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan beqiyos hissalarini, opbek xalqining ikki tomonlama zulm-istibdoddan tinkasi qurib, adolatsizlikka qarshi isyonga o'tlanib, milliy ozodlik uchun kurashgani haqida bir qator asarlar yaratdi. Jumladan, muallifning «O'tror», qissasi fikrimizni dalillay oladi. Negaki, «O'tror» tarixiy-maishiy mavzudagi asardir. Chunki unda o'zbek xalqining 1216-1220- yillardagi siyosiy-ijtimoiy va madaniy hayoti badiiy aks ettiriladi. Qissada tarixiy voqealar talqini barobarida xalqning maishiy turmush sharoiti, kasb-kori, mashg'ulotlari tasviriga ham keng o'rin ajratilgan. Shuning uchun uni tarixiy-maishiy yo'nalishdagi asar deb qarash lozim.

Mirkarim Osim ijodida tarixiy-biografik mavzu ham katta oqimni tashkil etadi. Uning «Zulmat ichra nur» (Navoiy), «Jayhun ustida bulutlar» (Beruniy), «Ibn Sino qissasi», «Aljabrning tug'ilishi» (Al-Xorazmiy), «Singan setor» (Mashrab) kabi qissalarini ko'rsatish mumkin. Adibning «Jayhun ustida bulutlar» qissasi ulug' qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning, «Ibn Sino qissasi» esa nomi jahonga mashhur buyuk hakim va olim Abu Ali ibn Sinoning, «Aljabrning tug'ilishi» hikoyasi mashhur matematik al-Xorazmiyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan.

Adib o'z tarixiy-biografik asarlarini odatda, bu ulug' insonlarning tavallud ayyomining tantanali nishonlanishi munosabati bilan sovg'a sifatida yaratgan. Jumladan, «Jayhun ustida bulutlar» qissasi Abu Rayhon Beruniyning 1000 yilligiga, uch-to'rt biografik hikoyalardan tashkil topgan «Ibn Sino qissasi» Abu Ali ibn Sinoning 1000 yilligiga, «Aljabrning tug'ilishi» hikoyasi al-Xorazmiyning 1200 yilligiga sovg'a tariqasida yozilgan. Shuningdek adibning XY asr hayotiga bag'ishlangan «Zulmat ichra nur» qissasi atoqli shoir Alisher Navoiyning 525 yillikyubileyiga tortiq qilingan edi. O'smirlar va bolalarga bag'ishlangan bu asarda bobokalon shoirimiz hayoti va ijodiy faoliyatining barcha davri hissiy nozikliklari bilan yaxlit qamrab olingan. Yoxud adibning «Nur va zulmat» qissasi ham

Jahonotin Uvaysiyning qalb iztiroblarini tarannum etadi. Shunga ko'ra bu kabi asarlar tarixiy-biografik asarlarning eng ajoyib namunalaridan hisoblanadi. Bundan tashqari, qahramonlik mavzuiga ijodkorning «To'maris», «Temur Malik», «Aleksandr va Spitamen» kabi asarlarini kiritish mumkin bo'lsa, maishiy mavzudagilarga «Mohlar oyim va Xonposhsha», «Karvon qo'ng'irog'i», «Elchilar» kabi asarlari, shuningdek, «Elchilar», «Karvon yo'llarida», «Do'stlik qaldirg'ochlari», «Tilsiz guvoh», «Zulmat va muhabbat nuri» kabi tarixiy qissalari hayotimizning, aniqrog'I, xalqimi tarixining ilmiy va badiiy jihatdan nisbatan kam tadqiq qilingan davrlari—XYU-XY111-X1X asrlar hayotiga, o'sha davr xalqlarimiz turmushining tarixiy taraqqiyotiga bag'ishlanadi

Tarixiy mavzularda asar yaratish olijanob vazifa va ayni paytda benihoya mas'uliyatlidir. Tarixni baholash vaqtning zimmasida, albatta. M.Osim tariximizning ochilmagan sahifalarini birma-bir varaqlab, unga murojaat etdi. «U kishi nafaqat yozuvchi,-deb yozgan edi O.Yoqubov,-balki har qanday tarixshunos olim bilan (albatta, tarixiy voqealar haqida gap ketganda) bellasha oladigan, tarixni besh qo'ldek biladigan zukko edi. Shu boisdan, oddiy kitobxonlar qatori tarixshunos olimlarimiz ham uning asarlarini o'qib o'rganadilar.»⁷

Tarixiy qissalar ilmiy-nazariy ma'lumotlarga qaraganda ta'sirchan va tarbiyaviy-estetik ahamiyat ustivor ekanligini S.Anorboyev mulohazalaridan ham anglash mumkin. Uning e'tiroficha, 1940-yillarda hali adabiyot darsliklari va xrestomatiyalarda A.Navoiy haqida qisqacha biografik ma'lumotlar bo'lmagan bir paytda, olimlarning davriy matbuotda e'lon qilingan Navoiy hayot yo'li, ijodining keng tahlili o'quvchilar ommasiga boy ma'lumot bera olgan. «Mirkarim Osimning «Alisher Navoiy va Darvishali», «Astrobod», «Alisherning yoshligi», «Badarg'a» hikoyalarini o'qiganimda esa,-deb yozadi muallif alohida qoniqish bilan,- Alisher mening ko'zimga goh uyqusirab otdan yiqilib, Yazd cho'lida qolib ketgan ziyakkina bola, goh navqiron yigit, goh...johil ruhoniylardan tap tortmay hajv qiluvchi tili o'tkir zabardast shoir, goh adolat tig'ini baland ko'targan davlat arbobi qiyofasida namoyon bo'ladi.»⁸

Bunday e'tiroflarni adibning deyarli har bir asari to'g'risida aytish mumkin.Chunki M.Osim asarlarida xalqimiz tarixining zarvaraqlarida nomlari o'chmas qilib yozib qo'yilgan siymolarning tabarruk obrazlari tasvirlangan. Adib bu obrazlarning yangi qirralarini, ularning hayotdagi yangi sahifalarini topa olgani muhim ahamiyat kasb etgan.

«Mirkarim Osim o'zbek tilining zabardast bilgichlaridan,-deb yozgan edi O.Sharafiddinov. Shuningdek, u tariximizning ham bilimdoni edi. O'tmishdagi jami allomalar, mutafakkirlar va yorqijn shaxslarni yaxshi bilar, bir necha asrlar oldin ham, yaqin o'tmishda ham o'zbeklar ichidan ko'plab buyuk siymolar yetishib chiqqanidan faxrlanardi.»⁹

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Mirkarim Osimdagi bu milliy g'urur xalqimizda mustaqillikdan so'nggina uyg'ondi.

Bugungi kunning mashhur va tanilib kelayotgan tarixchi adiblari Mirkarim Osimni o'zlarining ustozlari deb biladilar.Tarixchi adib 70 yilligi munosabati bilan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi unvoni berilgan.

Mirkarim Osim bolalarning tarixnavis adibisifatidamoziysaboqlarini yosh avlodga yetkazib kelayotir. U 1907-yili Toshkentda ziyoli oilada tug'ildi. 1918-yili «Shamsulirfon» nomli maktabda, 1921-yili Alisher Navoiy nomidagi respublika bilim yurtida Oybek va Homil Yoqubovlar bilan birga o'qidi. 1926-1930 yillar Moskva davlat pedagogika institutining tarix-iqtisod fakultetida, keyinchalik Samarqand o'qituvchilar tayyorlash kursida tahsil ko'radi, xalq ta'limi jabhasida faoliyat ko'rsatadi.

⁷ Yoqubov O. Vatanni tanitgan adib. –“Sharq yulduzi”, 2002, 2-son, 134-b.

⁸ Anorboyev S. Tarixdan saboqlar. –“Guliston”, 1977 yil, 12-son, 15-bet.

⁹ Sharafiddinov O. Vatanni tanitib. – “Sharq yulduzi”,-2002, 2-son, 136-bet.

Tarix bilan tillashgan adib “Astrobod”, “Alisher Navoiy va Darveshali”, “Badarg`a”, “Navoiyning xislatlari”, “Ulug`bek va Navoiy”, “O`tror”, “To`maris”, “Temur Malik”, Aleksandr va Spitamen, “Mohlaroyim va Xonposhsha”, “Karvon qo`ng`irog`i”, “Elchilar”, “Zulmat ichra nur”, “Jayhun ustida bulutlar”, “Ibn Sino qissasi”, “Aljabrning tug`ilishi”, “Singan setor ” kabi o`nlab qissa va hikoyalarida o`tmish ajdodlarimizning nurli siymolarini, milliy-ma`naviy qadriyatlarimiz ildizining teranligini badiiy gavdalandirishga muvaffaq bo`lgan.

Tarixnavis adib To`maris, Shiroq, Spitamen, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug`bek, Navoiy, Mashrab kabi ulug` ajdodlarimiz siymosini tarixiy manbalar asosida yoritdi. Shonli o`tmishimiz bilimdoni Mirkarim Osim tug`ilgan kunining 70 yilligida “O`zbekiston Respublikasida xizmat ko`rsatgan madaniyat xodimi” unvoniga sazovor bo`lgan. Taniqli adib 1984-yili vafot etdi.

Mirkarim Osimning o`zbek bolalar tarixiy nasri taraqqiyotiga qo`shgan hissasi shu jihatdan beqiyos. Adibning tarixiy-biografik xarakterdagi “Jayhun ustida bulutlar”, “Zulmat ichra nur”, “Yulduzlar sayri” qissalari alohida turkumni tashkil etadi. Ularning aksariyati O`rta asrlardagi buyuk mutafakkirlar, olim va ijodkorlar hayot yo`liga bag`ishlangan. Bunday asarlar zamondosh kitobxonni tarixiy shaxslar qismati, boy adabiy-ilmiiy merosi, faoliyatlari bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Natijada, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mashrab singari buyuk siymolar obrazi badiiy inkishof etilganligi tahsinga sazovor. Adib qissalarining g`oyaviy-badiiy mundariyasi shu jihatdan kengqamrovli. Yozuvchining “Shiroq”, “To`maris” singari tarixiy hikoyalarida esa ajdodlarimiz qahramonliklari yorqin aks etadi.

Mirkarim Osim Vatanimizning uzoq o`tmishiga bag`ishlangan asarlari bilan adabiyotimiz tarixida yorqin iz qoldira oldi. O`zbek adabiyotida tarixiy mavzu shakllanishida Oybek, Odil Yoqubov, Primqul Qodirov xizmati katta bo`lsa, shular qatorida M.Osimning ham “To`maris”, “Shiroq”, “Jayhun ustida bulutlar”, “Ibn Sino qissasi”, “Temur Malik”, “Zulmat ichra nur”, “Singan setor” kabi qissalari tarixiy mavzudagi nasr durdonalaridir. Zotan, atoqli adibimiz o`z ijodiy faoliyati davomida xalqimiz o`tmishini sinchiklab o`rganib, avlodlar qalbida g`urur va iftixor tuyg`ularini alangalatadigan asarlar yarata oldi.

Istiqlol sharofati bilan tarixiy haqiqat va milliy qadriyatlar tiklanayotgan bir paytda Mirkarim Osim ijodiga murojaat etish dolzarb ahamiya kasb etayotir. Chunki adib murakkab bir davrda yashab, ijod qildi. Lekin shunga qaramay o`z xalqi tarixini yozishdan cho`chimadi. Yaqin o`tmishda tarixiy shaxslarni o`rganish, jaholatni qo`msash deb noto`g`ri baholab kelindi. Shu bois, tarixiy mavzuda qalam tebratgan yozuvchilar ijodi kamsitilardi. Istiqlol tufayli biz tarixiy o`zlikka qayta boshladik. Qadim dunyodagi ulug` siymolar ijodini o`rganishga keng imkoniyatlar ochildi. Bu haqda dastlab mamlakatimiz prezideni I.A.Karimov shunday degan edi: “Asrlar davomida aqlu zakovati ila bunyod etgan boy ma`naviyati tufayli xalqimiz mag`rur yashadi, mehnat qildi, doimo hurriyat va erk sari intildi.

Ana shu milliy ong, ana shu milliy g`urur bugungi istiqlolikmizning oltin poydevoridir. Bu poydevorga Shiroq va To`maris, Beruniy va Farobiy, Abu Ali ibn Sino va Al-Xorazmiy, Amir Temur va Bobur, Navoiy va Ulug`bek kabi yuzlab zotlar asos solganlar”.¹⁰

Darhaqiqat, ona tariximizni badiiy qayta jonlantirish vositasida yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, to`g`rirog` yuqorida nomlari keltirilgan buyuk mutafakkirlar haqida tarixiy-biografik qissalar yozish orqali xayrli ishga qo`l urgan Mirkarim Osim shijoati yurtboshimiz g`oyalariga hamohangdir. Olimlar haqli e`tirof etishganidek, yozuvchilarimizdan hech kim tarixiy materialni bu adibchalik sinchkovlik bilan o`rganib,

¹⁰ I.A.Karimov. Buyuk bobolarning ruhi poklariga tayanib . –Kitobda: Istiqlol va ma`naviyat. T.:O`zbekiston, 1994, 118-119-bet.

o'ziniki qilib olib, ishlatmagan. Adib nafaqat xalq qahramonlari haqida, balki, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mashrab, Uvaysiy singari ulug' mutafakkir va shoiru shoirlar haqida ham qissalar yaratib, ma'naviyatimiz ildizlari teran ekanligini isbot eta oldi. Jumladan, M.Osim buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi bilan talabalik yillaridayoq qiziq boshlagan. 1930-yillarda ulug' mutafakkirning 500 yillik yubileyiga qizg'in tayyorgarlik ketayotgan bir davrda ko'pchilik adib va ziyolilarimiz alisher Navoiy yashagan davr va uning ijodiy merosini chuqurroq o'rganishga kirishgan edilar. Mirkarim Osim ham albatta bu harakatdan chetda qololmasdi. Shoir yashagan davr to'g'risidagi adabiy va tarixiy manbalardan xabardorligi yosh yozuvchiga qo'l keladi. Uning birinchi tarixiy qissasi "Astrobod" "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" jurnalining 1940 yil 4 sonida, ikkinchi qissasi "Alisher Navoiy va Darveshali" o'sha jurnalning 1941 yil 3-sonida bosilgan. Shu yili "Alisherning yoshligi", "Badarg'a" hikoyalari "Qizil O'zbekiston" gazetasida e'lon qilinadi. qissasini monografik tizimda o'rganish har jihatdan dolzarblik kasb etadi. "Navoiyning xislatlari" ("Yosh leninchi" gazetasi, 1940, 18 noyabr), "Shoirning yoshligi" ("Qizil O'zbekiston" gazetasi, 1941 yil 16 yanvar), "Ulug'bek va Navoiy" ("Yosh leninchi" gazetasi, 1941 yil, 21 aprel) kabi tarixiy hikoya va ocherklari yozuvchining ulug' shoirga bo'lgan cheksiz ehtiromning ifodasi edi.

Adibning bu asarlarida Alisher Navoiyning badiiy obrazi o'zbek adabiyotida ilk marta o'z ifodasini topayotgan edi. Alisher Navoiyning yoshligi haqidagi hikoyalar o'sha davrda maktab darsliklariga ham kiritilgan edi. E'tirof etilishicha, 40-yillarning o'quvchilari Mirkarim Osimning o'sha hikoyalari orqaligina Alisher Navoiy haqida ilk ma'lumot olganlar.

Rost, bugun ulug' alloma haqidagi badiiy va ilmiy adabiyotlar juda serob. Xususan, mustaqillik yillari bu dahoga qayta haykal qo'yildi. So'z mulkining sultoni shaxshan muhataram Prezidentimiz e'tiborida bo'lishi tahsinga sazovor. Alisher Navoiy bobomizni yurtboshimiz o'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan zot sifatida e'tirof etadilar. "Biz,- deya ta'kidlaydilar u kishi,- uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliqi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz."¹¹

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Shu sababli : "Olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki,- deya ta'kidlaydi I.Karimov,- u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir."¹²

Darhaqiqat, inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib kiradi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarini kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy quuroлга ega bo'lamiz. Binobarin, M.Osimning "Zulmat ichra nur" qissasidagi Alisher Navoiy obrazini monografik tizimda o'rganish ana shu maqsadlarga ko'ra dolzarblik kasb etadi.

M.Osimning tarixiy qissalarining dolzarb ahamiyati 1980 yillardan e'tiboran anglashila bordi. Masalan, Mahkam Andijoniy M.Osim ijodiyotining adabiyotshunoslikdagi o'rni haqida shunday ma'lumotlarni keltiradi. "Mirkarim asarlarini o'qib, chiqargan amaliy xulosam,-deya ta'kidlaydi u,- Vatan tarixini bilish va bu haqda yozish uchun tarixiy

¹¹ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat", 2008, 47-b.

¹² O'sha joy.

manbalarni kop o'rganish kerak. Domla (Mirkarim Osim) adabiy davralardan o'zini chetga olib yurgani uchun munaqqidlar ham u kishining ijodiga unchalik e'tibor bermas ekan. Menga bu adolatsizlik bo'lib ko'rindi.”¹³ Muallif e'tiroficha, shu tariqa yosh tadqiqotchi Mahmud Sattorovga “Mirkarim Osim” adabiy siymosini yoritish topshiriladi va olim shu mavzuda disertatsiya yoqlaydi.¹⁴ Chindan ham filologiya fanlari nomzodi M.Sattorov keyinchalik M.Osimning tarixiy qissalaridan iborat saylanmasini chop ettirib, unga so'zboshi yozadi.¹⁵ Bundan tashqari, boshqa adabiyotshunos olimlar ham tarixiy qissalar haqidagi monografik tadqiqot va risolalarida bevosita M.Osim asarlariga murojaat qilib kelmoqdalar.¹⁶ Xususan, istiqlol sharofati bilan M.Osim adabiy merosining boy va rang-barangligi asosli ta'kidlangan. Betakror adibimizning tengsiz xizmatlari istiqoldan keyin o'z qadr-qimmatini topdi. Mustaqilligimizning o'n yilligi arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan o'zbek milliy madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan M.Osim “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi. Shu munosabat bilan A.Xolmurodov¹⁷, O.Yoqubov¹⁸, O.Sharafiddinov¹⁹, M.Andijoniy, N.Rahimjonov, Q.Ko'bayev²⁰ kabi olim va adiblar e'tirofi muhim ahamiyatga ega.

Xudoyberdi To`xtaboyev-bolalarning sargyzasht va romannavis adibi

Reja:

1. Xudoyberdi To`xtaboyevning hayot yo`li.
2. Adib qissalarining g`oyaviy-badiiy mundarijasi.
3. Xudoyberdi To`xtaboyev – bolalar romannavisi.

Novcha niholcha hamon ajal bilan olishib yotibdi, jang bobokalonlar aytishganidek, beomon, shafqatsiz edi. Birin-ketin yashil bargchalari qoyjirab taslim bo`lishdi, shoxchalaridagi hayot so`ndi. «Tanam tirik hali, — entikib dedi novcha niholcha, — men yashashim kerak, albatta yashayman...» U kimdandir yordam kutgandek jovdirab atrofga qaray boshladi. Meni bu yerga ekib, ketmonini asfaltda darangSatib sudrab ketgan bolalar kelib qolmasmlkan, deb yana bir bora ko`cha boshiga ko`z tashladi, yomg`ir tomchilaridan umidvor bo`lib, buiut bo`lmasa ham ko`kka tikilib, uzoq qotib turdi... Keyin to`satdan sersuv adirlarda birga o`sgan ukalarining o`ligiga ko`zi tushib qoldi.. Qiziq, hammalari tik turgancha jon berishibdi... O`tgan yili xuddi shu kecha-kunduzlarda hammalari tirik, yayrab-yashnab batq urib o`shishayotgan edi... Endi bo`lsa... «yo`q, men yashashim kerak...». - Suv! Suv! Suv!

Qaddi-qomati kelishgan novcha niholcha asta-sekin o`zidan ketib, allaqanday sehrli xayolot nash`asi bilan mast bo`la boshladi, keyin o`sha kun — haddan tashqari qizdirib yuborgan 19 iyun kuni kunduz soat oltalarda jon berdi. Tik turgancha qotib qoldi u...

Bu atoqli adib Xudoyberdi To`xtaboyevning shoh asarlaridan biri - «Nihollar nolasi»dan parcha. Bu asarni bolalar behad sevib o`qiydilar, o`zlariga xulosalar chiqaradilar. Haqiqatan ham nihol — daraxtning xuddi inson kabi joni borligi, ozuqa suvga ehtiyoji; parvarish qilinmasa yosh kitobxon qalbini achitib, tug`yonga solib halok bo`lishi asarning asosini tashkil etadi.

¹³ M.Andijoniy. Vatanni tanitgan adib. —“Sharq yulduzi”, 2002 yil, 2-son, 137-bet.

¹⁴ O`sha joy.

¹⁵ Sattorov M. Moziy saboqlari. —Kitobda: Mirkarim Osim. Karvon yo`llarida. Saylanma. T.:G`ASN, 1987.

¹⁶ Qarang: Shermuhamedov P. Tarix va zamon. Kitobda: Istiqbolni o`ylab. T.:Adabiyot va san`at nashriyoti, 1987, 3-80-b

¹⁷ Xolmurodov A. Eskirmas saboqlar. —«Sharq yulduzi”, 2002 yil, 2-son, 134-b.

¹⁸ Yoqubov O. Vatanni tanitgan adib. —“Sharq yulduzi”, 2002 yil, 2-son, 135-bet.

¹⁹ Sharafiddinov O. Vatanni tanitgan adib. —“Sharq yulduzi”, 2002 yil, 2-son, 136-bet.

²⁰N.Rahimjonov, Q.Ko`bayev. Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi. T.:Adolat, 2005

Xudoyberdi To`xtaboyev katta-yu kichik bolalarning sevimli adibi. U hozirgi zamon o`zbek bolalar adabiyotida sarguzasht va fantastika janrlarining rivojlanishiga katta hissa qo`shib kelayotgan talantli adib sifatida kitobxonga ma`lum va mashhurdir.

Xudoyberdi To`xtaboyev 1932 yilning 17 dekabrda Farg`ona viloyatining O`zbekiston tumaniga qarashli Kattatagob qishlog`ida dehqon oilasida dunyoga keldi. Boshqa bolalar qatori Xudoyberdi ham poda boqdi, yer chopdi, paxta terdi, xullas, qishloqda bo`ladigan hamma mehnatlarda hol-qudrat ishtirok etdi, hayot nimadan iborat ekanligini yoshligidanoq bila boshladi. Bo`lajak adib ikkinchi jahon urushi yillarida o`qishni yig`ishtirib, dalada ketmon chopdi, hisobchilik qildi, mashaqqatli mehnat bilan suyagi qotdi. Qo`qon pedagogika bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlagan X.To`xtaboyev ona qishlog`ida muallimlik qilar ekan, unda iimga cheksiz ishtiyoq uyg`onadi. Shuning uchun ham u o`qituvchilikni tashlab, Toshkent davlat dorilfununiga o`qishga kirdi. Bu yerda Alisher Navoiy, Bobur, G`.G`ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor asarlarini sevib o`qidi, o`rgandi.

Universitetni tugatib, Bog`dod tumanida o`qituvchilik qildi. Ilmiy bo`lim mudiri, direktorlik lavozimlarida ishlab, yoshlarni ilm-fan nuriaridan bahramand etish ishlarida faoliyat ko`rsatdi. She`riy mashqlari vaqtli matbuot sahifalarida e`lon qilina boshladi. Bu esa bo`lajak adibni markazga - Toshkentga ijodiy ish bilan jiddiy shug`ullanishga chorlar edi. Shunday ham bo`ldi. U 1958 yilda Toshkentga ko`chib keldi. «Toshkent haqiqati» gazetasiga ishga kirdi. X.To`xtaboyev bolalikdan to`g`ri so`z, halol, pok va mehnatsevar bo`lib o`tdi. Gazetada ishlar ekan, ba`zi nopok odamlarni ko`rib, ularning qilmishlarmi hazm qila olmadi. Bunday kishilarning sir-asrorlarini fosh etishga, el-yurt o`rtasida munofiqning yaramas tomonlarini ochib tashlashga qaror qildi. Bu borada unga feleton janri qo`l keldi. 1962 yilda respublikamizning otaxon gazetasi - «O`zbekiston ovozi» ga feletonchi bo`lib ishga o`tdi. Bu yerda 300 dan ziyod feleton yozdi.

«Hadik», «Tilxat», «Ona», «Xarakteristika», «Barvaqt aytilgan azon», «Domlaning uyiga o`t ketdi», «Maxsus topshiriq», «Jonginam, shartingni ayt» kabi kattalar uchun qissa va hikoyalar yozgan X. To`xtaboyev bolalar uchun ham hikoyalar yarata boshladi. Uning «Birinci daraxtim», «Qochoqlar», «Qizg`anchiq», «Dadajon, yozmang», «Kelvordim, dada», «Vali bilan Salim», «Shoshqaloq», «Yaxshi-yaxshi» singari o`nlab hikoyalari yosh kitobxonlarda katta qiziqish uyg`otdi.

«Kichkina rais» hikoyasining qahramoni kichkintoy o`quvchi bola. Lekin Foziljonning xatti-harakati, intilishi, paxta dalalarini sergaklik bilan kuzatishi, fikr yuritishi raislarga xos.

Foziljonning ona zaminga, odamlarga nisbatan qiziqishi ta`sirli chizilgan. Kimsasiz, g`irt yetim bola o`z qishlog`i, atrofidagi odamlar bilan sevinib, quvonib yashaydi. O`zini ularning bag`rida erkin his etadi.

Xudoyberdi To`xtaboyevda yozuvchilikka ishtiyoq uyg`otgan, qobiliyatning shakllanishida muhim rol o`ynagan, asarlariga qaytarilmas rang va jilo bergan narsa hayot, vaqtli matbuot, redaksiyalardagi qaynoq ijodiy muhit va qunt, chidam bilan o`qish, o`rganish, o`z ustida ishlash bo`ldi.

Hayotda turli xarakterdagi odamlar ko`p bo`ladi. Birov yaxshilik qilaman deb yomonlik qilib qo`yganini o`zi ham sezmay qoladi. Birov o`zini jamoat uchun g`oyat foydali odamman deb o`ylaydi, aslida esa zararkunanda bo`lib chiqadi. Yana birov bilar-bilmas har narsaga aralashaveradi, o`rtagatushadi, so`z beradi, lekin baribir men haqman, shunday qilishim kerak deb biladi. Ana shunday kishilargabag`ishlangan «Jonginam, shartingni ayt» qissasi Xudoyberdi To`xtaboevni hajvchi adib sifatida keng kitobxonlar ommasiga tanishtirdi.

Xudoyberdi To`xtaboyev uzoq yillar feletonchi bo`lib ishlab, kishilarning yurak dardini, hasratini qunt bilan o`rgandi. Bunday shikoyatlarga sabab bo`layotgan shaxslarning xatti-harakatlarini mufassal bilib olishga intildi. Davrdan orqada qolgan, sarqit deb atalgan illatlar botqog`igabotgan, molu dunyoga hirs qo`ygan shaxslar haqida birtalay feletonlar yozdi. «Sariq devni minib», «Sariq devning o`limi» nomli asarlari ana shu faktlarni umumlashtirish asosida yuzaga keldi, desak to`g`ri bo`ladi.

Ma'lumki, hajviy qissalarimiz barmoq bilan sanarli edi. «Kalvak maxsum», «Toshpo'lat tajang», «Tirilgan murda», «Shum bola»dan keyin ancha vaqt bu janrda aytarli asar yaratilmadi. Keyingi yfflarda Abdulla Qodiriy va G'afur G'ulomning an'analarini Xudoyberdi To'xtaboyev davom ettirib, bu «bo'shliq»ni to'ldirishga harakat qildi.

O'n to'rt yoshli o'smirlarga aytadigan gapingizdan albatta, farq qililii kerak», deb ta⁴ Mdlaydi u. Yozuvchining bolalar va o'smirlarga atab yozgan asarlarining qiziqarli, o'qimishli, jozibali bo'lishining asosiy sabablaridan biri ham shu. Shuning uchun ham Xudoyberdi To'xtaboyevning birinchi yumoristik-sarguzasht qissasi, bolalar hayotidan olingan «Sehrlil qalpoqcha» tez orada bolalar hurmatiga sazovor bo'ldi va uni jamoatchilik juda yaxshi kutib oldi.

Yozuvchining yumorga moyilligi, oddiy vaziyatlardan ham kulgi chiqara olish iste'dodi ilgarigi asarlariga nisbatan bu asarida yana ham chuqurroq sezildi. «Sariq devni minib» asarini qiziqarli syujet asosiga quradi, asarning hikoyachisi — bayonchisi qilib undagi barcha voqealarning ishtirokchisi, guvohi bo'lmish Hoshimjonni qo'yadi, tilga olinadigan voqealar uning tilidan hikoya qilinadi. Yozuvchi Hoshimjonning hikoyasi orqali uning hayot yo'li sarguzashtlarini, o'ziga xos xarakteri va psixologiyasini atroflicha ochib beradi. Shuningdek, Hoshimjon xarakterida Xo'ja Nasriddinning va xalq ertaklaridagi «tegirmonga tushsa butun chiqadigan» zukko bolalarning fazilatlarini yaqqol mujassamlashganligini ko'ramiz.

«Sariq devni minib» da o'qish, ilm cho'qqilarini egallash uchun va insonning o'z orzusi, ezgu niyatiga erishish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bergan zamonamizda yashashga qaramay, dangasalik, yalqovlik qilgan, hayotda yengil-elpi yashashga yo'l axtargan va adashgan bolalar — hoshimjonlar kulgi ostiga olinadi:

Hoshimjon dehqon oilasidan chiqqan, sho'xligi olamni buzadigan bir bola. U hayotdagi ko'p narsaga mehnatsiz, qiyinchiliklarsiz oson yo'l bilan erishgisi keladi. Mehnatsiz va ilmsiz ham kishi istagan narsaga erisha olishi, katta obro' orttirishi mumkin, deb o'ylaydi. O'z fikrida qat'iy turgan Hoshimjon muddaosini amalga oshirish uchun buvisi aytib bergan ertakdagi sehrlil qalpoqchani izlashga tushadi, uzoq izlanishlardan keyin istagan ishini hech qanday mashaqqatsiz bajarishga yordam beradigan sehrlil qalpoqchani tashlandiq molxonadan topib oladi. Endi u o'zini orzulariga batamom erishadiganday his etadi, «Ortiqcha» fanlami dars jadvalidan chiqarishni rad etgan direktor, har xil vazifalar berib «miyasini qotiradigan» o'qituvchilariga o'qimasdan ham har qanday kasb egasi, mashhur odam bo'la olish, ko'krak to'la nishonlar bilan shon-shuhratlar, katta obro'ga ega bo'iish mumkinligini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ladi va shu maqsadda sehrlil qalpoqcha bilan safarga chiqadi

Shunday qiiib uning sarguzashtlari boshlanadi.

Ming afsuski, sehrlil qalpoqcha bu borada Hoshimjonga ko'mak berolmaydi. Sehrlil qalpoqcha muhayyo etgan imkoniyatlar har safar kutilmagan ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelaveradi. Hoshimjonning baxti endi kulay deb turganda ishning pachavasi chiqib qolaveradi. U davlat xo'jaligida agronom bo'lib ham, «shoirlik qilib» ham, qurilishda muhandislik qilib ham, qo'g'irchoq teartida artistlik qilib ham ko'radi, mashhur sayohatchi sifatida butun dunyoni kezmoqchi ham bo'ladi. Lekin hamma yerda ilmining, tajribasining yo'qligi ishning pachavasini chiqaraveradi. Hoshimjon qaerga bormasin, qanday ish qilmasin pirovardida sharmanda-yu sharmisor bo'ladi. Uning agronomlik va muhandislik «faoliyati» jinoyatga olib keladi, qamalishiga sal qoladi, shoir bo'laman deb rasvo bo'ladi, «ulug' artist» teatrdan quviladi.

Qissada Hoshimjon o'z sayohati davomida qanchadan-qancha ajoyibotlarning guvohi bo'lib, qiziq, kulgili sarguzashtlarni boshidan kechiradi. U o'qimay, mehnat qihnay, o'z ustida ishlamay juda ko'p narsalarga erishmoqchi bo'ladi, lekin u hech narsaga erisha olmaydi. Chunk! unga ilmsizligi pand beradi.

Yozuvchi Hoshimjon obrazini butun qirralari bilan ochishga uringan. Boialarga xos o'yinqaroqlik ham, soddaligu beg'uborlik ham, g'ururlilik, to'g'ri so'zlik, shumlik bir oz maqtanchoqlik, hatto o'rnida yolg'onni ham do'ndirib yuboradigan, o'zini boshqalardan ajratib ko'rsatishga intilish odatlari, boialarga taqlidchilik, dovyurak, epchil va rahiy tetiklik, xafachilik va mhiy tushkurdikdan yiroqlik ham Hoshimjon xarakteriga xos xususiyatdir.

Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devning o'limi» sarguzasht romani uch qism («O'rtoq polkovnik», «Sariq devni quvib», «Sariq devning o'limi yoki olam guliston bo'lgani»)dan iborat. Bu roman asosida ham Hoshimjon sarguzashtlari yotadi. Kitobni o'qib uning yangi sarguzashtlaridan xabardor bo'lasiz, sehrli qalpoqcha yana madadga keladi, ajoyib-g'aroyib karomatlar ko'rsatadi. U Hoshimjonga jiddiy masalalarda — o'g'ri, muttaham, tekinxo'rlarni fosh etishda yordam beradi.

Endilikda Hoshimjon aynan avvalgi o'yingaroq Hoshimjon emas, balki to'qqiz yillik maktabni bitirib, ulg'ayib, birmuncha quyulib, esi kirib, oq-qorani tanib qolgan yigitcha. Endi u o'z hayoti, taqdiri, jamiyatga foyda yetkazadigan odam bo'lib yetishi haqida jiddiy o'ylaydi, biror kasb egallash haqida bosh qotiradi. Boshida sartarosh bo'ladi. «Bilasizku, bir ishga ahd qilsam, uni oxiriga yetkazmaguncha qo'ymaydigan odatim bor. Jonirnini qiynab bo'lsa ham maqsadimga erishaman», deb shu kasb orqali odamlarga xizmat qilishga bel bog'laydi. Keyin milisiya maktabiga kirib o'qib, uni bitirgandan so'ng milisionerlikka ishga o'tadi. Kitobdagi barcha voqea-hodisalar, sarguzashtlar Hosliimjonning ana shu milisionerlik nuqtasidan boshlanadi, hamma gap-so'zlar qahramonning shu kasb-kori bilan bog'liq holda davom etadi.

Romanda yaxshilik, ezgulik ramzi sifatida milisiya polkovnigi Salimion, uning madadkori Hoshimjon, yomonlik, eskilik ramzi tarzida Odil battolgavdalanadi.

Ular o'rtasida tinimsiz shiddatli kurash ketadi. Odil nihoyatda makkor, u Salimjon boshiga juda ko'p og'ir savdolar solgan, uyiga o't qo'ygan, uning yakka-yu yolg'iz farzandining qo'liga to'pponcha tutqazgan, jinoyaiga yetaklagan. Asar pirovardida butun umri davomida xalqqa, yaxshi odamlarga zarar yetkazish bilan shug'ullangan Odil battol va uning hamtovoqlari qonuniy mag'lubiyatga uchraydi, haqiqat, adolat, ezgulik g'olib chiqadi.

Xudoyberdi To'xtaboyev o'z romanida yulg'ichlarga, qalloblarga qarshi kurashda butun xalq bir kishiday bo'lib birlashsa, bu ishni butunlay o'z qo'liga olsa, Odil battollarga qiron keladi, ulardan nom-nishon ham qolmaydi, degan fikrni o'rtaga tashlaydi.

«Sariq devni minib» qissasi, «Sariq devning o'limi» romanining eng yaxshi fazilatlaridan bin tffining shiradorligi va o'ynoqiligidadir. Muallif bosh qahramon Hoshimjonning tilini alohida e'tibor bilan ishlagan. Bu til nozik qochirimlarga boyligi va jonliligi, shu bilan birga bolalar tiliga mos holda soddaligi bilan ajralib turadi. Qahramonning xarakteri uning so'zlaridan shundoqqina bilinib turadi.

Fantastik-sarguzasht janri bolalar adabiyotining eng qiziqarli janrlaridan biridir. Bunday asarlar bolalarning ongi va psixologiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularni o'qishga, o'rganishga, izlanishga o'rgatadi, jamiyatimizning faol quruvchilarini tarbiyalashga yordam beradi.

«Qasoskorning oltinboshi» romani markazida bosh qahramon — tarixiy shaxs, xalq qasoskori Namoz taqdiri yotadi. «Qasoskorning oltin boshi» tarixiy-biografik roman emas, shuning uchun ham muallif Namozning hayotini batafsil yoritib berishni maqsad qilib olgan emas. Lekin adib o'rni-o'mi bilan uning hayotiga doir ma'lumotlar berib borgan. Bu ma'lumotlar uning xarakterini tushunib olishda kitobxonga yordam beradi.

Namoz faqatjismonan emas, aqlan ham yetuk. U haqiqat uchun qasoskoi, qo'rqmas, tadbirkor, ochiq ko'ngil qahramon sifatida gavdalanirilgan. U **atroflga** o'zi kabi dovyurak yigitlarni to'plab, zulmkorlarga qarshi kurashga undaydi.

Halolligi, mardligi, adolatliligi, yetimparvarligi uchun xalq **Namozni** yaxshi ko'radi va uni Go'ro'g'liga qiyos qiladi. «Go'ro'g'libek Namozboy qiyofasida paydo bo'lgan emish. Afsun o'qisa ko'zdan g'oyib bo'lib qolarmish, Undan o'q o'tmas emish, qilich chopmas emish...»

Namozning mardligi, jasorati xalq qalbida mangu yashab kelayotganligi«Qasoskorning oltin boshi» da yaxshi chizib berilgan.

Talantli bolalar adibi Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sir ochildi», «Akñuka Omonboy bilan Davronboyning qishloqqa gaz olib kelganlari haqida jn qissa», «Besh bolali yigitcha», «Shirin qovunlar mamlakatida yoki sehrgarili jangi», «Mungli ko'zlar», «Jarmati odamlar» kabi yirik

asarlarining yuzij I kelishi o'zbek bolalar adabiyotining yutug'i hisoblanadi. U bolalar iieliu yanada o'qimishli asarlar yaratish maqsadida tinimsiz izlanmoqda.

Safar Barnoyev bolalar shoiri va nosiri,

Miraziz A`zam she`riyatining falsafiy-badiiy o`ziga xoslighi. Safar Barnoyev bolalar shoiri va nosiri

Reja:

1. Miraziz A`zamning bolalar adabiyotiga qo`shgan hissasi.
2. M. A`zam she`rlarining janriy tarkibi
3. Safar Barnoyev o`zbek bolalar adabiyotining yorqin namoyandasi.
4. Bolalarga bag`ishlangan she`rlarning o`ziga xos xususiyatlari.
5. Safar Barnoyev hikoyalarining g`oyaviy-badiiy mundarijasi.

Miraziz A`zam o`zbek bolalar adabiyotining taraqqiyotiga barakali hissa qo`shgan shoirlardan biridir. U ham bolalar, ham kattalar shoiri, ayni chog`da publitsist, etuk tarjimon hamdir. Shoir 1936 yili Toshkent shahrida tavallud topgan. Maktabda o`qib yurgan kezlaridayoq she`riyatga qiziqqan. She`riy mashqlarini taniqli bolalar shoiri Quddus Muhammadiy va keyinchalik Quadrat Hikmat boshchilik qilgan adabiy to`garakda sinovdan o`tkazar, ijodiy izlanish, o`qish va o`rganishni qizg`in davom ettirar edi. Adabiyot va she`riyatga bo`lgan chanqoqlik uni ToshDUga etakladi. Adabiy mashklari bolalar va o`quvchilar gazetalarida, "Gulxan", "G`uncha" jurnallarida bosila boshladi.

Toshkent Davlat universitetini muvaffaqiyatli tugatgach, Toshkent telestudiyasida, «G`uncha» bolalar jurnalida, so`ngra «Yosh gvardiya», G`afur G`ulom nashriyotlarida muharrir bo`lib ishlagan. Ko`p yillar O`zbekiston Yozuvchilari uyushmasida maslahatchi, boshqaruv kotibi vazifasini bajargan.

Miraziz A`zam ijodi talabalik yillarida yanada kuchaydi. Uning birinchi she`ri 1960 yilda «G`alati tush» nomi bilan chop bo`lgan. Keyinchalik u 1972 yilda alohida kitob holida bolalarga sovg`a qilingan. Uning birinchi she`riy to`plami «Metallurg» (1964) nomi bilan chop bo`lgan. Shundan so`ng shoirning bolalar uchun «Aqlli bolalar» (1969, doston), «Senga nima bo`ldi» (1970), «Er aylanadi» (1973), «Erga dovruc solamiz» (1970), «Bir cho`ntak yong`oq» (1990, saylanma) kabi bir qator ajoyib she`riy to`plamlari bosilib chiqdi. Ularda shoir bolalarning qalbi va tuyg`ulari tasviri orqali olamni, odamni bilishga, yaxshilik bilan yomonlikni farqlashga, halol va pokiza mehnatni ulug`lashga intiladi.

Miraziz A`zam kattalar uchun ham bir qator salmoqli she`riy guldastalar yaratgan. Jumladan, «Sevaman» (1977), «Tuyg`ular» (1980), «Sabot» (1983) kabi to`plamlaridagi ko`pchilik she`rlar o`zining hayotiyiligi va jozibaliligi bilan o`quvchi qalbini zabt etgan. Shoir ana shu she`riy to`plamlaridagi eng yaxshi she`rlarini va yangi yozilgan asarlari sarasini o`zining «Haqiqatning ko`zlari» (1988) saylanmasiga jamlab, talabchan o`quvchisiga havola qilgan.

Miraziz A`zam haroratli, shijoatli publitsist hamdir. Uning madaniy-adabiy merosni ko`z qorachig`idek asrashga da`vat etuvchi bir qator tarixiy-adabiy maqolalari mavjud.

Miraziz A`zam mohir tarjimon, adabiyot va madaniyatning hormas targ`ibotchisi ham. Uning turk, rus, nemis adiblaridan qilgan, ayniqsa, islom madaniyatigaoid tarjimalari ko`pchilik mutaxassis vaoddiy o`quvchilar ixlosini orttirdi. Ayniqsa, Miraziz A`zam dunyo bolalar adabiyoti vakillaridan yuzga yaqin muallif asarlari, chunonchi, Korney Chukovskiy, Edvard, Lir, Uolter De la Mer, Janni Rodari, Jak Prever, Jeyms Kryus, Yulian Tuvim, Iskandar al-Huriy, Tavfiq Fikrat, Ali Oqbosh, Mustafu Ruhiy Shirin, Mustafu Rahmondo`st, Dzyun Takami va boshqalarning asarlarini tarjima qilgan. Kattalar adabiyoti vakillaridan

Pushkin, Mayakovskiy, Esenin, Axmatova, Jak Prever, Kvazimodo, Mehmet Okif Erso'y, Najib Fozil, Shahriyor, O'rxon Pomuq kabi oltmishga yaqin mualliflarning nasriy va she'riy asarlarini ham o'zbekchaga o'g'irgan. Shuningdek, u o'ttizdan ortiq turk adiblarining hikoya, she'r, roman, doston va risolalarini tarjima qilib, Turkiya adabiy jamoatchiligining alohida e'tirofiga sazovor bo'lgan. 1993 yil dekabrda Turkiya yozuvchilari Birligi uni O'zbekistondagi o'zining tamsilchisi etib tayinladi. M.A'zamning o'z she'riy asarlari rus, ukrain, turkman, mo'g'ul, koreys, turk va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Ma'lumki, o'tgan asrning 80-yillarida adabiyotshunoslikda "eksperimentall she'riyat" atamasi paydo bo'lgandi. Bu yo'nalishda ijod qilgan shoirlar o'y-fikrlari, shaxsiyati bilan boshqa shoirlardan keskin farqlanib turishardi. Rauf Parfi, Miraziz A'zam, Tilak Jo'ra kabi shoirlar aynan shunday yo'nalishda ijod qilishlari bilan e'tibor qozongan edilar.

Ma'lumki, XX asr nihoyasida "eksperimentall she'riyat" atamasi o'rnida "modern she'riyat" atamasi paydo bo'ldi. Adabiy tanqidchilar bu atamaga jiddiy nigoh tashlab qolishdi. Kimlardir uni maqtasa, kimlardir erga urdi. Kimlardir hatto unga munosabat bildirishni ham xohlamadi. Ammo hech kim bunda yuqorida nomi tilgaolingan "eksperimentchilar"ni o'z maqolalarida eslamadi ham. Holbuki, hozirgi o'zbek modern she'riyati aslidaana shu "eksperimentchilar"ning ijodidan oziqlanib voyagaetgandi.

Miraziz A'zamning o'zi modern she'riyat haqida shunday yozadi: "Hozir modernchilar bor, ular she'riyatda o'zlarini namoyon etayotirlar. Men birontaoqim, bironta yo'nalishga qarshi emasman. Modern yo postmodernchilar dunyoning hamma iqlimlarida katta ishlar qilib, jamiyat hayotida chuqur izlar qoldirayotir. Bundan ko'z yumish mumkin emas. Faqat hamma gap shundaki, ularning qalbini yondirayotgan narsa nima, chindan yondirayotirmi – shunisi aniq bo'lishi kerak. O'tgan asr rus adabiyotidagi oqimlar, futurizm Mayakovskiy, imajinizm Esenin, akmeizm Axmatovani jahon she'r xazinasiga berganini unutib bo'ladimi? Syurrealizm, kubizm, dadaizm, naturalizm buyuk shaxslarini bermadimi? Men o'zim realizm va romantizmni yaxshi ko'raman. Ammo modernistlar realistlarning o'n varaqlik tasvirini bitta ta'sirchan jumlada yo bitta metaforada beraolishlari mening zavqlarimga juda yaqin. Faqat menga har qanday shoir xalq dardi bilan og'rishi kerakday ko'rinadi. To'g'ri, madh shoirlari ham bor, ular hayotdagi yangi o'zgarishlardan zavqlanadilar va madhiya va qasidalar bitadilar. Aslida bu ham kerak, lekin madh va qasida samimiy bo'lmog'i kerak".

Shoir shu fikrlarni bayon etganidan keyin XIII asrda yashagan Qatron ismli qasidalar ustasi bo'lgan shoir xususida to'xtaladi. O'sha davr podshohi uning qasidalari uchun juda katta maosh belgilagan ekan, ammo Qatron shu qaror e'lon qilingan kuni ertasiyoq yo'qolib qolibdi. Amaldorlar uni ko'p axtaribdilar, faqat oradan bir necha yil o'tgandan keyingina topibdilar. Undan ketib qolish sabablarini so'raganlarida:

– Podshohim meni manfaat uchun buni yozgan, deb o'yladilar, men yurtimizdagi katta o'zgarishlarni she'r uchun, o'zim uchun madh etganman. Mengaalohida ehtirom ko'rsatish boshqa shoirlar ichida meni uyaltiradi, – degan ekan.

Shu rivoyat mazmunidan kelib chiqib, Miraziz A'zam yozadi: "Yaltoqlik, munofiqlik, mushriklikni adabiyot yo'lidagi to'siqlar deb bilaman. Yaltoqlik, laganbardorlikning zararlari ko'pchilikkaayon. Munofiqlik esa so'zda turmaslik, omonatgaxiyonat illatlaridir. Bizda bu faqat shaxsiy kamchilik emas, bizda, nazarimda, munofiqlik illati ko'p...".

Miraziz A'zam yana bir taniqli ijodkor Qutlibeka Rahimboevaning umr yo'ldoshidir. Shoir o'z oilasi haqida shunday deydi: "...Mening oilamga kelsak, xotinim Qutlibeka Rahimboeva shoira, qaerdaki she'riy turkumi bosilgan bo'lsa, o'sha gazeta va jurnalning yillik mukofotiga sazovor bo'lgan, hatto ruscha tarjimasi chiqqanda, "Molodost" jurnali ham shunday mukofot bergan, "SHuhrat" medali sovrindori, O'zbekistondaxizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi. Hozir dramaturgiya va nasrda ham faol ijod qilib kelmoqda. To'rt

o`g`lim va bir qizim bor. Biri bevaqt vafot etdi. Ikkinchisi Mirvosil kichikligidan yaxshi hikoyalar yozib keladi, hikoyalari “Gulxan”, “Yosh kuch”, “Guliston” jurnallarida, ayrimlari bayozlarda, “Ma`rifat” va boshqa bolalar gazetalarida bosilgan. Amerika yozuvchisi Reks Stautning bir romanini tarjima qildi va u “Jahon adabiyoti” jurnalida e`lon qilindi. Uchinchi o`g`lim Mirahmad va kenja o`g`lim Najot tijorat yo`lidan ketishdi. Qizimiz Orzu – Kamoliddin Behzod nomidagi Tasviriy san`at va dizayn institutini bitirib “Jannat-makon” jurnalida muharrir bo`lib ishlamoqda.

Shoir hozir hayot bo`lib, qaynoq ijod bilan mashg`uldir. Shoir ijodi gullagan, sermahsul, serfayz bo`lishiga ishonsa bo`ladi. Chunki 1996 yildan buyon mehnat nafaqasida bo`lgan Miraziz A`zam hali ham qizg`in ijod bilan band. Yaqin yillarda u dastlab sochilib yotgan yozishmalarini jamlab nashrga tayyorladi. “Kuzgi yaproqlar” nomli devonini e`lon qildi. Farididdin Attor, Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumi va Abdurahmon Jomiydan qilgan tarjimalarini bir kitob holida G`afur G`ulom nomidagi Nashriyot-matbaa Ijodiy Uyi tomonidan bosmadan chiqardi.

Shoir umri davomida Rossiya, Ozarbayjon, Moldova, Tatariston, Qibris, Turkiya, Makedoniya va Afg`oniston singari juda ko`p mamlakatlarda bo`ldi vaana shu safarlari haqida “Yo`llar va esdaliklar” nomli safarnomasini yozdi. Zamondosh ustozlari, o`qituvchilari, safdoshlari haqidagi (G`afur G`ulom, Oybek, Shayxzoda, Mirkarim Osim, Ozod Sharafiddinov, Ma`ruf Jalil, Rauf Parfi) xotiralarini ham bir kitob holiga solishni rejalashtirgan. Undan tashqari “Dunyo bolalar adabiyoti” degan antologiya ham tuzgan.

Miraziz A`zam 1998 yili “Eng aziz, eng ulug`” tanlovining g`olibi bo`lgan. 2007 yilning noyabr oyida u Makedoniyaning Uskup (Skople) shahrida “Turkchaning uluslarorasi she`r sho`lani” (Xalqaro turkiy she`r festivali)da Jaloliddin Rumi nomidagi Katta mukofot bilan taqdirlandi.

Miraziz A`zam ijodida bolalar uchun yozgan asarlari salmoqli o`rin tutadi. Jumladan, uning “Aqli bolalar” (1969), “Senga nima bo`ldi” (1970), “G`alati tush” (1972), “Er aylanadi” (1973), “Erga dovuq solamiz” (1976), “Bir cho`ntak yong`oq” (1990), “Qirq bolaga qirq savol” (2000) kabi qator she`riy to`plamlari, 2003 yilda “Eng yorug` yulduzlar” nomli maktab sahnasiga mo`ljallangan pesalar, tarixiy hikoyachalar, maqolalar to`plami nashr etildi. 2005 yilda uning bolalarga yozgan asarlari “Saylanma” holida nashr etildi.

2007 yilda Miraziz A`zamning kattalarga atalgan asarlari jamlangan “Saylanma”si chop etildi.

2004 yili “Imon” nomli olti qismli kinoqissasi “O`zbektelefilm” studiyasida suratga olindi.

Xullas, hozirgi zamon o`zbek bolalar she`riyatida shoir Miraziz A`zamning o`z o`rni bor. Bu, albatta, uning izlanishi, mehnatkashligi, bolalarni va ularning adabiyotini qattiq sevishidan. Milliy she`riyatimizda keskin o`zgarishlar yasagan modern she`riyatning ilk boshlovchilaridan biri bo`lgan Miraziz A`zam mehnati o`z bahosini topmog`i lozim.

Miraziz A`zam yaratgan asarlar: she`rlar, dostonlar, hikoyalar va publitsistik maqolalar bolalar adabiyoti xazinasini boyitdi. Shoir bolalar uchun turli janrlarda ijod qildi. Ayniqsa, uning ijodida doston (poema), ertak kabi yirik hajmli asarlar ham alohida o`rin tutadi. Chunki shoir bolalarning ertak janriga katta qiziqish bilan qarashini yaxshi bilgani uchun ularga atab juda ko`p adabiy ertaklar yozdi.

Ma`lumki, buyuk so`z ustalaridan tortib, adabiyotga tetapoya kirib kelayotgan yosh adibgacha o`z asarlarining mavzusi va g`oyasi, syujeti va obrazlari, kompozitsion tuzilishi va badiiy tilini ishlashda xalq og`zaki ijodi, jumladan, xalq ertaklaridan ijodiy oziqlanishgan. Xuddi boshqa bolalar shoir va yozuvchilari qatori Miraziz Ahzam ham xalq ertaklarining syujeti va kompozitsiyasi, obrazlar tizimi, ijodiy uslubi va badiiy vositalaridan bahramand bo`lib, bir necha she`riy ko`rinishdagi adabiy ertaklar yaratgan. Shu yo`l bilan u

o`zi tasvirlamoqchi bo`lgan voqealarni ertaklardagi kabi romantik uslubda bayon qilish, obrazlarni esa mubolag`ali tasvirlashga erishgan. Shoir xalqning ertakchilik tajribalariga murojaat etar ekan, avvalo, o`z asarlarining g`oyaviy-badiiy va mavzuiy jihatdan barkamol, qiziqarli bo`lishiga ham erishishni ko`zda tutgan.

Aytish mumkinki, o`zbek adabiyoti va uning ajralmas bir qismi bo`lgan o`zbek bolalar adabiyoti unga ta`sir ko`rsatgan boshqa omillar bilan bir qatorda xalq og`zaki poetik ijodining samarali ta`siri tufayli shakllandi. U o`zining rivoji jarayonida ijobiy obraz yaratish sohasida ham, badiiy shakl yaratish jihatdan ham folklor asarlarining faol ta`sirida bo`ldi. Shakllanish jarayonida qo`llanilgan usullar yangi mazmun, syujet, motivlar, obrazlar asosiga keyingi davrlarda davr ruhiga mos ravishda yanada boyidi, mustaxkamlandi, rivoj topdi.

Yozuvchi yoki shoirlar o`z asarlarida folklor asarlari (jumladan, xalq ertaklari) syujetini poetik tarzda, ya`ni qanday bo`lsa shunday qayta bayon qilish yo`li bilan yaratmadilar, balki bir necha folklor asari syujetidan, an`anasidan ijodiy foydalanib, yangi shakl va mazmundagi asarlar yaratdilar. Bu asarlarda folklor an`analarining ruhi sezilib tursa-da, uni qayta yaratgan yozuvchi yoki shoirning individual uslubi, o`ziga xos mahorati bilinib turishi bilan e`tiborni tortadi. Mazkur ijodkorlarning asarlarida folklorning faol ta`sirini ham shakl jihatdan, ham mazmunda anglash mumkin.

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, bu hol Miraziz A`zam ijodida ham yaqqol ko`zga tashlanib turadi. Ertak Miraziz A`zamning eng sevimli janrlaridan biri edi. U o`zi yaratgan asarlarning xalqchil bo`lishi uchun ertaklardan mahorat bilan foydalandi. Shoirning barcha ertaklarida yaxshilik yomonlikka, soddalik ayyorlikka, olijanoblik yovuzlikka, go`zallik xunuklikka qarshi qo`yiladi. Insonga mehru muhabbat ulug`lanadi.

Miraziz A`zam yaratgan she`riy adabiy ertaklar o`nga yaqin. Shoirning qaysi ertagiga nazar tashlamang, barchasida bolalar zavq oladigan qirralar bor. Xususan, uning "Erk qushi" ertak-dostonini o`qimagan bola topilmasa kerak. U shunday boshlanadi²¹:

Bu eski gap, do`stlarim,
hayajonli bir ertak.
Aytib berganda oyim
bo`yginam edi qittak.
Oyim jajji qiz ekan
eshitganda bobodan.
Bobo esa eshitgan
bolalikda momodan.

Qachonlardir ilgari
bo`lgan ekan bir diyor,
diyorki, odamlari
yashar ekan baxtiyor.
Hamma misli sutu yog`,
inoq ishlab erinmay,
ilmu fan hamda savdo
o`sib borarkan tinmay.

Bu mamlakatning dong`i uzoq ellargacha taralgani sabab unga dunyoning turli tomonlaridan juda ko`p mehmonlar, savdo karvonlari yog`ilib kelib turar ekan. Tashrif buyurgan mehmonlar esa uning ko`rkiga hayrat bilan boqarkan. Ayniqsa, mamlakatning osmono`par minoralari, muhtasham arklari sirli jilva taratib, kelganlarni lolu hayron qoldirar ekan. Shahar tevaragidagi qir-adirlardan ajoyib atir hidi ufurib turarkan.

²¹ Miraziz A`zam. Erk qushi. Doston // Haqiqatning ko`zlari. She`rlar va dostonlar. –T.: G`G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1988. – B.286-386.

zarbidan yov lashkari parday to'zg'ib ketadi. Bundan vahimaga tushib qolgan dushman lashkari esa zudlik bilan o'z hoqoniga chopar yuborib, pahlavon Nahang shijoatidan uni ogohlantiradi. Shunda dushman hoqoni quda bo'lish bahonasida elni hiyla bilan bo'ysundirmoqchi bo'ladi. Bu haqda ertakda shunday deyiladi:

Bo'ysunmagan ellarni
oladi quda bo'lib,
"Qizlar olgan bu erni!" –
der so'ng ko'krakka urib.

Hoqon keksa vaziri bilan maslahatlashib olar ekan, uning o'gitiga binoan tul yigit Nahangni kuyov qilish hiylasini ishlab chiqadi. U Nahangga yoshgina qizini bermoqchi bo'ladi. Bu gapni Nahangga etkazganlarida, dastlab u qovoq uyadi. Ammo hoqon tomonga borib, uning qizini ko'rgach, uylanishga rozi bo'ladi. Uni hoqonning qizil yuzli, oq badan, do'ndiq, bodomqovoq, xiromon va tovus qadam qizi bir qarashda maftun etadi. SHundan so'ng Nahang:

- Uylanaman qiziga!
To'y o'tgan kun ertasi
lashkar qaytsin iziga! –

deya qat'iy xulosaga keladi. Keyin to'y va sulh sharafiga katta ziyofat bo'lib o'tadi. Barcha ziyofat bilan bo'ladi. Hech kim dushman hiylasini sezmaydi. Dushman lashkari esa tun bo'yi ishlab, xalqni zanjirband qilish uchun kishan tayyorlab chiqadi. Odamlar sahar turib qarasa, shahar darvozasiga g'alaba nishoni sifatida dushman tug'i osilgan. Nahang esa bundan bexabar, mast uyquda yotibdi.

Shunday qilib, yillar o'tibdi. O'gay ona O'lmas va Olmos qachon bo'lsa-da bizdan o'ch oladi deya, ularni turtkilar, kamsitar ekan. Ammo bolalar bunga parvo qilmay, mag'ur bo'lib o'saveribdilar. Ayniqsa, Olmos juda haqgo'y ekan. U o'gay onaga qarata shunday ta'nali she'rlar aytarkan:

- Oftob chiqdi olamga,
yugurib bordim onamga.
Ona, ona, kulcha ber,
onam dedi, o'tin ter.
O'tin terdim bir quchoq,
kulcha yopdi bir o'choq.
Edi o'zi suyugin.
Menga berdi kuyugin.

Olmosning bu gaplari o'gay onaning jon-jonidan o'tib ketarkan. U bu gaplarga dosh berolmay, alamdan to'lg'anib, yuragi yonarkan. Jonidan bitta qolmay ilonday to'lg'onarkan.

Xususan, o'gay ona O'lmasdan juda hadiksirar va qo'rqarkan. Negaki:

Qo'rqinchli ekan rosa
Olmosidan O'lmasi,
bir xo'mrayib qarasa
qisilarkan nafasi:
"Shuning ko'zini o'ysam...
indamay qo'yib qo'ysam
yigit bo'lar burgutdek", - derkan.

O'gay ona shu alam tufayli bir kuni Nahang uyga kelishi bilan yig'lab turib, unga tush ko'rganini, tushida bir chol ko'rinib, homilador bo'lganini bildirganini, ammo O'lmas tirik ekan, sen yasholmaysan deganini aytadi. Nahang go'llik qilib, xotining bu gapiga ishonadi. U yo o'g'lini, yo xotini deyishi kerak bo'ladi. Nahangga xotini aziz tuyuladi. U bir kuni yarim tunda hamma uxlaganidan foydalanib, o'g'lini dast ko'targancha oq tulporga ortadi-yu qirga jo'naydi. U erda o'z qo'li bilan o'g'lini o'ldiradi.

O'lmasning opasi – Olmos bo'zlagancha ukasining jasadini izlab qirlarni kezadi. Qirdan uning suyakchalarini topib, etagiga yig'ib oladi. so'ngra ularni uygancha, ko'k lattaga solib, gul tagiga ko'madi. Qiz ukasiga bag'ishlab shunday yig'i qo'shig'i kuylaydi:

“Ona mehrin ko'rmagan,
ozod Vatan istagan,
o'z uyiga sig'magan
voy ukam, voy ukam.
Otam seni so'ydimi,
o'gay onam to'ydimi,
qismating shu bo'ldimi,
voy ukam, voy ukam.
Rozimasman, ishqilib,
tirilmasang qush bo'lib,
uchib yurgin o'ch olib,
voy ukam, voy ukam”.

Navro'z kelgan vaqtda O'lmasning ruhi bir qush bo'lib shu qizil gulning tagidan uchib chiqibdi va chappar urib havoda ucha boshlabdi. U juda go'zal va biyron qush ekan. U yurt osmonida mag'rur-mag'rur qanot qoqib parvoz qilaveribdi. Ammo qushning ko'ksida bir oh borligi sezilib turarkan. Shuning uchun uning sayrashi odamlar ko'nglini ezibdi. Bir kun qush bozorga uchib kelibdi va bir atorning boshida charx urib uchib, qo'shiq ayta boshlabdi. Uning qo'shig'i shunday ekan:

“O'z otam so'ydi,
o'gay onam to'ydi,
omon bo'lgur egachim
ko'k lattaga tugdi,
gulning tagiga qo'ydi,
kuk-ku,
kuk-ku!”

Attor bu gapiradigan qushni ko'rib, hayron bo'lib qolibdi. “Nima deding, yana ayt?” – desa, qush evaziga o'nta juvoldiz so'rabdi. Qush juvoldizlarni olib, otasining boshiga uchib boribdi. Otasi ham bu gapiradigan qushni ko'rib lol qolibdi va she'rini takrorlashni so'rabdi. Ammo qush otasiga ko'zingizni yumib, og'zingizni ochib tursangiz aytaman, deya shart qo'yibdi. Otasi shunday qilgan ekan, qush juvoldizlarni uning og'ziga tashlabdi. Otasi juvoldizlarni yutib, halok bo'libdi. Qush esa qah-qahlab uchib ketibdi.

U o'gay onasini ham shu tariqa o'ldiribdi. Hoqon qalbiga vahima solib, xalqni erk va ozodlik kurashiga chorlabdi. Qushchani birgina opasi tanibdi.

Qushchanning chaqirig'i bilan katta jang boshlanibdi. Bu jangda opasi Olmos ham Barchinoyday kurashib, g'alabaga bosh bo'libdi. Xalq Olmosni o'ziga podsho qilib belgilabdi. Olmos yurtni adolat bilan boshqarib, xalqning ko'nglini so'rabdi. Mamlakatni tiklab, avvalgiday gulga burkabdi.

Ertak yaratishda Miraziz A'zam xalq badiiy an'analariga sodiq qoladi. Ertak qahramoni fahm-farosat, aql bilan ish ko'rib, o'z murod-maqsadiga etadi, baxtiyor bo'ladi. Miraziz A'zamning barcha personajlari pishiq-puxtaligi bilan ajralib turadilar.

Nomi xalqqa taniqli adabiy ertakchi Miraziz A'zam she'riy adabiy ertaklarning go'zal va betakror namunalari yaratdi. Shoirning xalq og'zaki ijodi asosida yaratgan ertaklari dillardan-dillarga o'tib yuribdi. O'z adabiy ertaklari bilan adib bolalar adabiyoti xazinasini boyitdi.

Mohir so'z ustasi bolalar uchun ixcham, ammo ma'no va mazmun jihatidan etuk asarlar yaratib berdi. Uning bolalarga bag'ishlangan ajoyib-g'aroyib ertaklari o'zbek bolalarining sevimli asarlariga aylangan. Miraziz A'zam, xususan, bolalarga bag'ishlab yaratgan ertaklari bilan she'riy adabiy ertak janrining taraqqiyotiga barakali hissa qo'shdi.

Zamon muammolarini ertak libosida ifodalashda Miraziz A`zam alohida rag`bat va g`ayrat ko`rsatdi. U ijodiy imkoniyatlarini shu janrda sinab ko`rar ekan, butun mahoratini ishga sola olgani uchun bolalarning sevimli ertakchi shoirlaridan biri sifatida tanildi.

Ertak janrining kompozitsion qulayliklari – ommaviyligi bolalarga atab yoziladigan asarlar uchun g`oyat muvofiqdir. Bolalar adiblari bu haqiqatni chuqurroq anglay borganlari sari ko`proq ijodiy kamolotga erishayotirlar. Ular xalq syujetlariga monand syujetlar o`ylab topa boshladilar. Bunday to`qima adabiy syujetlar ko`pincha hayot voqeligini doimiy kuzatish va undan oziqlanishning, shuningdek, biror maqol va matalning mazmunini voqeaband tafsilot vositasida kichkintoylarga etkazish niyatining natijasi bo`lib tug`iladi.

Miraziz A`zam ertaklari aksaran maishiy mazmunda bo`lib, xilma-xil mavzularni ifoda etadi. Uning ertaklari syujeti qiziqarliligi, uydirmalarga boyligi, sarguzashtlarga to`laligi bilan diqqatni tez jalb qiladi. Va albatta, o`z nihoyasida ezgulikning yovuzlik, oydinlikning qorong`ulik, haqiqatning nohaqlik, hayotning o`lim, aqllilikning nodonlik, adolatning jaholat va to`g`rilikning egrilik ustidan g`alaba qozonishini tarannum etadi.

She`riy adabiy ertak janrida samarali izlangan taniqli o`zbek bolalar shoiri Miraziz A`zam, uning yangidan-yangi badiiy qirralarini kashf etishga muyassar bo`ldi. Shoir adabiy ertaklarining nafaqat syujet qurilishida, balki obrazlar xatti-harakatlarida, nutqida, xilma-xil ifodaviy vositalarda ertaklarga xos fantastik unsurlar, tasviriy vositalar etakchi tamoyilga aylangan.

Miraziz A`zam bolalar uchun xilma-xil mavzulardagi mushohadali ertaklar yaratar ekan, ularda ertakka xos shaklgagina emas, balki til va ichki ifoda usullariga amal qilib, zamon dardlari bilan kichkintoylarni oshno qilishga harakat qildi. Shoir ertaklari bolalarga ezgulikni yovuzlikdan, bag`rikenglikni xudbinlikdan, mehnatsevarlikni yolqovlikdan, muloyimlikni qo`pollikdan, donolikni jaholatdan va nihoyat, bugunni o`tmishdan farq qila bilish sabog`ini bera oladi. Ularda Vatan va xalqqa, bilim va kasbu korga muhabbat tuyg`usi o`z badiiy ifodasini topgan.

Shoir ertaklari badiiy qurilishining ixchamligi, soddaligi va yaxlitligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ulardagi har bir tafsilot, badiiy detal va obraz, voqea, motiv, ifoda vositalari, poetik usul ijodkor estetik qarashlarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

1958 yilning bahori... Sobiq Buxoro davlat pedagogika institutining o`zbek filologiyasi fakulteti binosida taniqli adib Mirzakalon Ismoilov bilan uchrashuv bo`lib, unda shahar va viloyatda q`alam tebratayotgan talay havaskor q`alamkashlar q`atnashgandi. Boshda adib o`z ijodi va joriy adabiy jarayon haq`ida gapirgach, u bilan mahalliy ijodkorlar o`rtasida q`izg`in savol-javoblar bulib o`tdi. Nihoyat, topgan bir dasta gul, topmagan bir bosh piyoz deganlaridek, mahalliy ijodkorlar birin-ketin o`z ijodlaridan namunalar o`q`ib, o`tirganlar muhokamasidan o`tkaza boshladi. Navbat biroz novcharoq` va ozg`ingina q`oramag`iz bir yigitchaga keldi. Uni Safar Barnoev deb tanishtirgach, u o`rnidan turib minbarga chiq`di. O`shanda “Surat” degan she`rini ehtiros bilan o`q`ib berib, olq`ishlar olgani hamon esimda. She`r bir muhabbat fojiasi oyoq` ostida parchalanganini shamol g`ujgon o`ynayotgan bir surat vositasida ifodalangan edi. She`r tinglovchilarda shu boisdan ham o`zgacha ta`sir o`tkazgan edi. She`r muallifi esa o`shanda ayni muhabbat yoshidagi, yigirma yashar yigitcha edi. U sevib-sevilishga loyiq` edi, shundan dastlabki she`rlari o`smirlik tuyg`ulari ifodachisi sifatida bitila boshlangandi.

Sirasini aytganda, o`smirlik hali bolalikdan tamoman uzilib ketmagan bir palla bo`lib, kattalar olamiga nomzodlik davri sanaladi, unda hali bolalik romantikasi baravj bo`ladi. Shu bois Safar Barnoyevga butun ijodkorlik iste`dodini bag`ishlash bir q`adar oson kechdi. U armiyadagi xizmatini o`tab, Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi O`zbekiston Milliy Universiteti) ning jurnalistika fakultetida o`q`iy boshlagan kezlarda ana shu haq`iq`atni anglab etdi, bolalar uchun yozmaslik “dadajoni janggohga olib kelgan bolaligi”ga xiyonat deb tushundi. U yana shuni ham anglab etdiki, bunday xiyonatning alomati behad og`ir. Shundanmikan, butun ijodida ikkinchi jahon urushi davridagi bolalikni ketidan q`ayta tiklash va undan axloq`iy-estetik saboq chiq`arishni yetakchi tamoyil q`ilib

oldi. Shu ma'noda uni urushni xotirasi vositasida kuylovchi bastakor deyish mumkin. Uning tengq'urlaridan farq q'iluvchi bosh ijodiy xususiyati ham xuddi shunda namoyon bo'ladi.

Safar Barnoev o'zbek bolalar adabiyotining Zafar Diyor, Sulton Jo'ra, Q'uddus Muhammadiy, Shukur Sa'dulla, Hakim Nazir, Mirkarim Osim, Q'udrat Hikmat va Po'lat Mo'min singari namoyandalari, shuningdek, jahon xalqlari bolalar adabiyotlarining zabardast vakillari ijodlarini q'unt bilan o'rgandi, xususan, xalq ijodiyotiga, bolalar folkloriga hayratlanib nazar soldi. Biroq Buxoroyi sharifning saodatmand farzandi bo'lib bolalar shoiri sifatida teranroq mahobat kasb etdi. U huddi shu nuq'tada iste'dodini ikki ulkan vatandoshi, o'zbek va tojik bolalar adabiyotlarining betakror namoyandalari Sulton Jo'ra va Gulchehra Sulaymonovalarning q'onuniy vorisi sifatida shakllantirganday tuyuladi.

Gap shundaki, Sulton Jo'ra ikkinchi jahon urushida bevosita q'atnashib, uning bolalar q'ismatiga ko'rsatgan fojeali ta'sirini ifodalab, o'zbek bolalar she'riyatida shu mavzuni yuksak sa'natkorlik bilan ifodalagan "Sog'inib", "Sog'inchli salom" singari go'zal epistolyar she'rlar yaratib q'oldirgan sa'natkor edi. U jangchi sifatida vakillikka ishtirok etgan edi, shu sababli urush dahshatini o'z tanasida sinab ifodalagan edi. Safar Barnoyev bola sifatida urushning barcha kulfatlarini ko'rdi, otasini yulib olib uni yetim q'ildi urush, o'zga xonadonlarga q'ora xatlar kelganida ko'kka o'rlagan faryodlarni eshitib o'shandagi iztirobli yig'ilardan q'albi ozurda bo'lib,

Iztirobli yig'idan
Uyg'ondi tor ko'chamiz
Q'ora hatday q'orayib
Ketdi bizning kechamiz,-

deya o'sha ma'shum kunlarga nazar sola olgandi u.

Shundan kelib chiq'ib ayta mumkinki, urush mavzusida Sulton Jo'ra tugagan joyda urush haq'idagi bolalik xotirasi bilan Safar Barnoyev bo'y ko'rsata boshladi. Urush uning q'albida bitmas- tunganmas alam va jarohat q'oldirgan. She'rlarida shu alam laxta-laxta dardga aylangan, nasrida urush majruh q'ilgan bolalikning umid to'la jovdiroq ko'zlardagi hasrat tosh q'otib kelgan. Mashhur "Non" hikoyasini olasizmi, "Nur yog'ilgan kun" yoki, "Oq' laylaklar" q'issalarini olasizmi, qolaversa, afg'on bolalari turmushiga bag'ishlangan hikoyalarini olasizmi, bari-barida urush xotiroti asosida bolalik q'ismatiga nazar solinadi. Hatto bir q'ator publitsistik maq'olalarida ham shu ruhni payq'ash q'iyin emas.

Safar Barnoev va Gulchehra Sulaymonovalar she'riyatidagi hamohanglik Buxoroyi sharif farzandi ekanliklarida. Bu hol ularning poetik tafakkuri va ifoda uslubida buxorocha fikrlashga o'xshagan yaq'inlikda sezilib turadi. Aytaylik Tursunboy Adashboevning q'aysi she'rini o'q'imang, q'irg'iz dalasining epkini esib turganday, undagi giyohlarning muattar hididan, Arslonbobning shifobaxsh havosidan mast bo'lganingizni sezmay q'olasiz. Miraziz A'zam she'riyati lirik q'ahramonida q'andaydir bilag'onlik mayli payq'alsa, Anvar Obidjon asarlarida chust do'ppini boshida yakshoxa q'o'ndirib olgan oltiariq'liklar q'ahq'ahasidan ko'nglingiz yayrab ketadi.

Safar Barnoev asarlarida esa nainki moziy bilan bo'y o'lchashgan Buxoroyi sharifning bolalarga xos tasavvuridagi suvratini ko'rasiz, balki jahon ahlini lol q'oldirayotgan shu osori-atiq'alarni bunyod etganlarning zakovatidan hayratlanasiz, otabobolariga izdoshlik q'ilayotgan buhorolik bolakaylarning beg'ubor entikishlari-yu, o'rni kelganda o'zlarini sodda mug'ombirlikka solib mushfiq'iyona loflaridan yayrab-toshib kulasiz:

Bilasizmi, dadam meni erkatoym dedilar,
Yozda bayram bo'lganida toychoq' olib berdilar.
Bilasizmi, oyim meni yurardilar o'ynatib,
Tili shirin o'g'lim deya, yurardilar so'ylatib.
Bilasizmi, bilasizmi, bilmaysiz-da, endi siz,
Agar aytsam gaplarimga kulasiz-da, endi siz.
Oyim mitti chaq'aloq'ni kecha olib keldilar,

O`rab-chirmab “Buni senga olib keldim”-dedilar,
Chaq`aloq`q`a yaq`inlashsam, ehtiyot bo`l,- dedilar.
Ehtiyot bo`l, ehtiyot bo`l, tekkizma q`o`l, dedilar
Mittigina chaq`alog`u yig`lashini q`o`ymaydi,
Oyim bo`lsa, doim deydi;- Q`orni sira to`ymaydi.
Nega q`orni to`ymas ekan, mittigina bo`lsa u,
Nega keldi shu yig`loq`i, dadamda ham yo`q` uyq`u.
Qo`ldan-qo`lga olib uni ko`tarishib yurishar.
Meni emas, chaq`aloq`ni endi yaxshi ko`rishar.

Sezmayapsizmi, bolakay q`adr tuyg`usini q`ay darajada tuymoqla? O`z o`rnini egallayotgan ukajonidan kuyayotganini yopish uchun “yig`lashni qo`ymayotganidan, dadasi uxlayolmayotganligi”ni vaj ko`rsatib, o`z xaq`iq`atini himoya q`ilayotir. Fe`lida yilt etgan shu q`arama-q`arshi mayllar asosida zuvalasi bichilayotir. Bolaning shakllanishidan iborat murakkab jarayon bor bo`yicha shunday ko`rinib turibdi.

Safar Barnoev buni bola nutq`idagi takrorlar bilan yanada jonliroq q`ilib aks ettirgan. Q`olaversa, 15 hijoli satr negizidagi poetik nutq vositasida maktabgacha yoshdagi kichkintoylarga xos hayajon tovlanishlarini g`oyat jozibali ohanglarda ifoda eta olgan. Holbuki, bu yoshdagi kichkintoylar uchun 3-7 va 8-9 hijoli tizimdan iborat she`rlar yozish an`anaga aylangan. Safar Barnoyev esa aksar hollarda bu yoshdagilar uchun 13-15 hijoli tizimga asoslangan she`rlar yozsa-da, ularda bolalar nutq`iga hos ohang tovlanishlarini asos q`ilib, behad samimiy va ravon she`rlar yoza olgan. Bu banddagi ikki misol fikrimizning dalili bo`lishi mumkin:

Mehmon kelsa uyimizga, menga bayram bo`ladi,
Shokolad-u konfetlarga cho`ntaklarim to`ladi.
Boshqa paytlar konfet desam, oyim berar urishib,
“Konfet esang, labi-lunjing ketar deya burishib”.

15 hijoli bu satrlar kichkintoyning poetik nutq`i. 14 hijoli tizimga asoslangan “Feruzani” she`ri aslida kattalar erkalamasi. Unda Feruzaxonni kuta-kuta intiq bo`lgan, nihoyat uning kelganidan q`albi q`uvonchga to`lgan lirik q`ahramonning farashbaxsh q`iyofasi tiniq` chizilgan. Bunda anafora sa`nati ohang samimiyatini ta`minlagan:

Feruzani q`uyosh bilan tongda turar jilmayib,
Feruzani q`uyosh bilan tongda kular jilmayib.
Feruzani kulsa agar, olam yayrab ketadi,
Feruzani kulsa agar, qushlar sayrab ketadi,
Feruzani kulgidan har uyga kelar sevinch,
Feruzani kulsa agar, demak olam bular tinch.

Shoir Feruzani shu qadar ulug` va beg`ubor mehr bilan suyganki, uning har bir hatti harakatida olamcha ma`no tuyadi. Bu shunchakimas, balki jonbaxsh ma`no bo`lganidan Feruzani e`zozlovchi kuyga aylangan. Bola xatti-harakatini ardoq`lash vositasida mehrni po`rtanaga aylantirishda Safar Barnoyev she`riyatini ham yurti, dongdor bolalar shoirasi Gulchehra Sulaymonova she`riyatiga tortib ketadi. Zero, shoira ham “Nigor” she`ridek q`izaloq`ning yurishi sharpasidanoq unga beq`iyos sog`inch tuyg`usi borligini: “Ship-shipi poyi Nigor, tarona hoyi Nigor” satrlarida nafis ifoda eta olgan. Aslida bu holat har ikkala buxorolik ijodkorning voq`elikka bir hil yondashuvi ifodasi bo`lmay, balki barcha buxorolik otaxonlaru-onaxonlarning kichkintoy nevaralarini kutib olishlariga xos intiq`q`an sog`inchning har ikki yurtdosh shoir she`riyatiga ko`chib o`tgan aks sadosidir.

Safar Barnoyev “Mening tarjimai holim” she`rida q`uyidagi satrlarni bitgan:
Q`aysi kun,
Qaysi yilda tug`ilganimni,
Taxminan
Bitib bergan sho`ro kotibi,
Necha bor daraxtdan yiq`ilganimni

Hamon aytib yurar qo`shnimiz xotini.

Tut pishig`ida tug`ilgansan deb,
Onam aytganlar,
Pishiq`chilikda...

O`shandan beri hozirgacha etmish tut pishig`i bo`lib o`tdi. Safar Barnoev esa o`shal hayot daraxtiga chirmashib, uning har tarafga tarvaq`aylab ketgan shoxalaridan sarxil tutlarni termoqqa intilib o`sdi. Bu orada o`sha tutlarning g`o`rasini ham, pishig`ini ham tatib ko`rishga ulgurdi. Biroq har qanaqa vaziyatda ham tamshana-tamshana hayot sururini tuymoqdan lazzat topdi. Shu zaylda do`stiga aylangan qalam dilidagi borini qog`ozda muhrlab bordi, natijada “Tog`lardaman”(1970), “Yoshlik sururi” (1972), “Dadamning qo`llari” (1971), “Sog`inch” (1975), “Yulduzxon va Bahorjon” (1977), “Dadam haqida qo`shiq`” (1989), “Sayroq`i bedanalar” (2007), “Nilufarning olmalari”(1986), shuningdek, “Birinchi tabassum” (1972), “Oq` laylaklar” (1982), “Chehralar” (1983), “Egizaklar” (1985), “Tinchlikni ulug`laymiz”(1985), “Mukofot” (1985), “Karimjon-Karlson” (1988), “Kichkina xo`ja Nasriddin”(1998) singari yigirmaga yaq`in she`riy va nasriy kitoblarini bitib, o`zbek bolalar she`riyati va nasrini goho hazin, goho quvnoq` ruhiyatga sug`orilgan she`rlaru, hayajonbaxsh adabiy ertaklar, xilma-xil mavzulardagi hikoyalari, q`issalari bilan boyitdi. U istiqlol tufayli mamlakatimizda bolalikka munosabatning tubdan qayta qurilayotganiga teranroq razm sola boshladi. Bu hol uning ijodida bolalik muammolaridan bahs etuvchi publitsistikaning faollashuviga yo`l ochdi. Natijada uning davr ruhiyatiga sug`orilgan qator dolzarb publitsistik maq`ola va ocherklari yuzaga keldiki, bular XX asrning so`nggi choragidagi o`zbek bolalar publitsistikasi qiyofasini belgilashda ahamiyat kasb etadi.

**Anvar Obidjon-bolalar shoiri,
adibi va dramaturgi. Tursunboy Adashboyev she`riyatida bolalik va tabiat
munosabati ifodasi. O`zbek bolalar adabiyoti
milliy istiqlol yillarida**

Reja:

1. Anvar Obidjonning hayot va ijod yo`li.
2. Anvar Obidjon– bolalar shoiri.
3. Adib qissalarining g`oyaviy-badiiy mundariyasi.
4. Tursunboy Adashboyevning hayot yo`li.
5. Bolalar she`riyati yolidagi izlanishlar.
6. Shoir she`rlarining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari.

O`zbekiston xalq shoiri **Anvar Obidjon** 1947-yilning 8 –yanvarida Farg`ona viloyatining Oltiariq tumanida tug`ilgan. U o`zbek bolalar adabiyotini o`zining qisqa va mazmunli she`rlari, qiziqarli hikoya, qissa, pesalari bilan boyitib kelayotgan adib va dramaturgdir. A.Obidjon hozirgi O`zbekiston milliy universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. U bir qator gazeta va jurnallarda xodim, bo`lim mudiri bo`lib ishlagan.

A.Obidjon sermahsul ijodkor. Uning “Ona Yer” (1974, she`rlar), “Bahromning hikoyalari” (1980, she`rlar), “Ey, yorug` dunyo” (1983, qissa), “Olovjon va uning do`stlari” (1983, qissa va hikoyalar), “Bezgakshamol” (1985, hajviy she`rlar), “Masxaraboz bola” (1986, she`rlar), “Akang qarag`ay Gulmat” (1987, qissa va hajviyalar), “Juda qiziq voqea” (1987, she`rlar), “Oltin yurakli Avtobola” (1988, qissa va hikoyalar), “Dahshatli Meshpolvon” (1989, qissa va pyesalar), “Yerliklar”(1990, hajviyalar), “Alamazon va Gulmat hangomasi” (1992, qissa, pyesa, she`r), “Ajoyibxona” (1993, she`riy taqvim), “Meshpolvonning janglari” (1994, qissa va doston), “Alisher ila Husayn yoki uch dono va o`g`ri” (1996, doston va she`rlar), “Alamazon va Gulmat” (1998, qissa va she`rlar), “Oltiariq hangomalari”, (1999, hajviyalar), “Bulbulning cho`pchaklari” (2001, she`r va hikoyalar),

“Odobli bo`lish osonmi?” (2001, hikoya), “Meshpolvon” (2003, qissa), “Bezgakshamol-2” (2003, hajviy she`rlar) kabi to`plamlari nashr etilgan.

Respublika yosh tomoshabinlar teatri hamda Farg`ona, Qarshi, Qo`qon, Guliston teatrlarida Anvar Obidjonning “Qo`ng`iroqli yolg`onchi”, “Pahlavonning o`g`irlanishi”, “Topsang, hay-hay”, “To`tiqul”, “Qorinbotir”, “Navro`z va Boychechak” pyesalari sahnalashtirilgan. Uning asarlari asosida “O`zbekfilm” kinostudiyasi tomonidan “Tilsimoy-g`aroyib qizaloq”, “Dahshatli Meshpolvon” komediyalari kino tasmasiga tushirilgan. Anvar Obidjon she`rlariga bastalangan qo`shiqlarning asosiy qismi bolalarga bag`ishlanganidir.

Uning «Kulchalar» va «Botirvoyning kundaligi» turkumlaridagi qahramonlarning deyarli hammasi turli yoshdagi bolalardir. Bu she`rlarda bolalik tuyg`ularining sofliqi, orzu-umidlarining beg`uborligi, tabiatan bir oz shumligi, quvnoqligi kata iste`dod bilan ochib beriladi, o`quvchini goh yayrab-yayrab kulishga, goh jimgina o`ylashga, fikrlashga, xulosalar chiqarishga undaydi. Adibning mahorati shundaki, u bola dunyoqarashidagi o`ziga xosliklarning tub-tubini ko`ra oladi. Ichki olamini, o`y-xayollarini, kichik qalbida kechayotgan ruhiy jarayonlarni nozik did bilan kuzatadi. Bir qaraganda, juda oddiy ko`rinadigan kichik-kichik she`rlarda inson tabiati shakllanishining dastlabki bosqich jarayonlari keng ko`lamda tahlil etib beriladi. Samimiy yumor, yengil hajv elementlari yorqin ko`zga tashlanadi. Shoirning «hali o`zim bolaman-ku!», «Sinchkov bola», «Shu ham fil-mi?» kabi o`nlab she`rlari shu jihatdan nihoyatda xarakterlidir.

Dadajonim,	Axir kimga
Dadajon,	«Ota»man?
Otim nega	Shuni o`yla-a-ab
Otajon?	Yotaman.

She`rni o`qiganda endigina so`zlar ma`nosini anglay boshlayotgan bolakayning holati koz o`ngimizga keladi. Uning kutilmagan «muammo»li masala oldidagi o`ychanligi o`quvchining labiga nurli tabassum paydo qiladi, qalbida kichkintoyga nisbatan issiq bir tuyg`uni uyg`otadi.

Anvar Obidjonning «0099 - raqamli yolg`onchi», «Ey, yorug` dunyo», «Alomazon va uning piyodalari» kabi qissalarida hamda, «Botinkaning tufliga xati» tipidagi turkum she`rlari ham o`quvchini befarq qoldirmaydi. O`zbekiston xalq shoiri, ko`p qirrali adib, shoir va dramaturg Anvar Obidjon faqat tabiatni tasvirlovchi, turfa xil ramziy, majoziy obrazlar yaratuvchigina emas, balki ijodining kata qismida bolalar dunyosi, ruhiyatini ham tasvir etgan.

She`r haqida so`zlab berish, aslida nochorlikning ishi. Yaxshi she`rni o`qiganga, undagi voqea yoki mantiqni shoir qalbiga yaqinlashib his qilganga nima yetsin! Aslida, she`r shuning uchun yoziladi. Bu bizning - shoirlikka ixlosmand odamning nuqtai nazarimiz.

Bolalar ham xuddi shunday. She`r haqidagi chuqur ilmiy mulohazalar, bahslar, jimjimador fikrlar-u, balandparvoz ovozalar ular uchun mutlaqo ahamiyatsiz. Dunyoni tanib kelayotgan yosh qalb atrofidagi hamma narsa, hodisa, munosabatlarga qalb ko`zlarini katta-katta ochib qaragani, talpingani kabi, hayotning jonli parchalariga aylangan she`rga ham do`st tutinadi. Bolalar she`riyatining mas`uliyati, o`ziga xosligi hambolalaming mana shu xislatlardan kelib chiqadi. Qisqasi, bolalarga sodda, samimiy, qiziq, tabiiy, chiroyli, zavqli she`rlar kerak. Xuddi mana bu she`r kabi: tabiat, ko`ngli daryo odamlarga mehru muhabbatimiz rishtalarini bog`lagan o`tgan kunlarimizni sog`inamiz. Shu sog`inchning ildizlari qalbimizda qanchalar chuqur bo`lsa, demak, taqdir bizni siylabdi. Tursunboy Adashboyev she`rlarida hammadan oldin Vatanning muqaddas ostonasi bo`lgan ona qishloqqa juda yoshligidan o`ychan termulgan, undagi har bir mavjudlikni ixlos bilan ardoqlagan; sodda-yu to`pori, qismati mehnat va yana mehnat bo`lgan, odamlarni yoshiga nisbatan ulug`roq nigoh bilan kuzatgan qalb manzaralari ko`zga tashlanadi.¹ Bo`lim shoira. Muhtarama Ulug` bilan hamkorlikda yozilgan.

To`rg`ay yotar tuxum bosib,
Shuvoq bilan sirlashib.
Qora qo`ng`iz soqqa yasab,
Do`ngga tortar tirmashib.
Yumronqoziq serhadik
Ish bitirar yugurib.

Tursunboy Adashboyev o`zi tug`ilib o`sgan qardosh Qirg`iziston Respublikasi O`sh viloyati tabiatini shu qadar mehr, samimiyat bilan tasvirlaydiki, ko`z oldingizda

beriladilarki, uning o`yinligini ham unutadilar. Yosh qalbda hali rostu yolg`on, soxta-yu haqiqiy degan tushunchalar o`rtasida aniq chiziqalar tortilmagan. Ular hamma narsaga ishonadilar, tabiiy deb qabul qiladilar. Hattoki, o`zlari o`yin uchun yaratgan narsalarni ham tirik mavjudlik kabi yaxshi ko`rib qoladilar:

Taraqqiyot sari intilish — zamonlar uchun qonuniyat. Lekin taraqqiyot munis o`t-o`lanlar o`sgan jaydari yerlarni bosib-yanchib o`tmasligi, bir-biriga oqibatli mehnatkash chumolilarning uyini buzmasligi kerak. Fan-texnika nechog`li taraqqiyot etmasin, inson bolasi, o`zini eng awalo ona tabiat bag`rida to`laqonli his etadi. Katta zamonaviy shaharlarda tug`ilib o`sgan bolalar qishloqqa borib qolsa, mitti qo`ng`izcha bilan kun-tun o`ynab zerikmasligida hikmat ko`p. Tursunboy Adashboyev she`rlarini o`qirgan, yaxshi shoir bo`lmoq uchun, albatta, tabiatga yoshlikdan sirdosh, do`st bo`lish kerakligi takror-takror dilingdan o`tadi. Misralardan bola qalbining quvonchi, hayratlari, beg`uborliklari ufuurib turadi:

Chaqmoq ko`kda yong`oq chaqdi,
Qizg`aldoqlar selda oqdi,
Quyosh yana kulib boqdi.

Tursunboy Adashboyev she`rlarining qahramonlari «Loyni bir oz tindirib suv zahrini sindirib» g`isht quyayotgan, «Sapchib oqqan suv bilan kim o`zarga yugurgan», xolasiga yordam uchun «... nonni botirib, qotirib qaymoq yegan», «Tog`dan ko`tarilgan quyoshni onasi yopgan patirga» o`xshatgan, buvisining ajinlariga qarab «Dazmol bosib olsangiz, tekis bo`lib ketardi», deb maslahat beradigan, kun bo`yi bog`dagi sirpanchiqda «vagon» bo`lib uchishgach, «Oqshomuyga... Shimning orti suzilib» qaytadigan quvnoq, topqir, xayolkash, mehnatkash, zavqi-yu ishtahasi tobida bo`lgan bolalar.

Ayrim she`rlardagi voqelik, tuyg`ular kechinmasidan shoir bu she`rni o`z boshidan kechirganlari ta`siridanmi yoki kuzatganlari asosida yozganmi — bilinib turadi. Lekin Tursunboy Adashboyev she`rlarida bunday chegara yo`q — oddiy chizgilardan salmoqli voqealargacha lirik qahramonning yuragidan o`tgan.

Bu she`rlardagi kitobxonga eng yoqadigan xislat — samimiyat, xolislik. Shoir bolalar, kattalar tabiatining, o`zligining yarq etgan bir qirrasini ko`rsatib qo`yadigan manzara, voqea, bahsning suratini so`zlarda chizadi, lekin hech qachon qissadan hissa chiqarmaydi; she`r qahramonlarini toifalarga ajratib, o`quvchini ham hakamlilik chizig`ining u yoki bu yog`iga da`vat qilmaydi. Xuddi shu usul bilan muxlislarini bag`ri kenglikka, mustaqil mushohada yuritishga, hayotning o`ziday murakkab inson tabiatiga bir zarb bilan oq yoki qora chiziq tortmaslikka o`rgatsa, ajabmas:

Bolalar arzimagan bir xasdan ham kashfiyot qilishlari, uni iangarcho`p deb miriqib o`ynashlari mumkin. Ba`zan farzandlarimiz ertak qahramonlariga aylanadilar: gullar bilan suhbatlashadilar, xazonlarni qayiq qilib sayohatga chiqadilar, nima uchun qushlar ularning qo`liga qo`nmayotganidan ajablanadilar... Dunyo bolalar adabiyotida kichkintoylarning shu xislatiga asoslangan ajoyib ertaklar bor.

Tursunboy Adashboyev ijodida ixcham, manzara she`rlar borki, bolalar uchun filmlar yaratuvchi mohir rejissyor ular asosida ajoyib asarlarni suratga olishi mumkin. Mana bu to`rt qator she`r go`yo multffilmday.

Boychechaklar nish urib To turguncha o`rnidan Bahor qishni
 tarnovga Osib qo`ydi burnidan. Yoki
 Tolning bargi suvga tushib
 Qayiq bo`ldi.
 Bu ayniqsa qumursqaga
 Loyiq bo`ldi.
 Qo`sh qirg`oqni to`lqin yalab
 Ko`kkasapchir,
 Eshkakni-chi, o`zi yakka
 Eshar abjir.
 Teng-tushlari qoldi gap-so`z
 Tayinlashmay.
 Qumursqa ham jo`nab ketdi
 Xayrlashmay...

Tursunboy Adashboyevning turli davrlarni, ya`ni o`zining bolalik yillarini eslatuvclii she`rlarini, farzandlarining bolaligini tasvirlovchi she`rlarini — barchasini ichki bir yaxlit tuyg`u — mehr, mehribonlik birlashtirib turadi:

Tursunboy Adashboevni kattalar qatoriga adashtirib olib kirdi, xolos. Lekin qalbi bolalik beg`uboriiklari, samimiyati, soddaligi, yorqin hayratu quvnoq topqirliklari olamida sobit turibdi. Ana shu sadoqat Tursunboy Adashboevga o`zbek bolalar adabiyotini yangi-yangi betakror asarlar bilan boyitish baxtini nasib etaversin,

Hodisa bu davrda yangicha tafakkur in`ikosi sifatida ko`zga tashlandi. Milliy bolalar adabiyotining mazmun va mohiyatidagi tub burilish yaqqol ko`zga tashlandi. Zamonaviy bolalar adabiyotida yosh qahramonlar xarakteri tahlili masalasiga alohida e`tibor qaratildi. Bolalar adabiyoti shakl va mazmun jihatdan-da yangi tamoyillar kasb eta bordi. Adabiy tanqidchilikda bolalar adabiyotiga munosabat kuchaydi. Milliy bolalar matbuoti mavzu material, g`oyaviy-badiiy jihatdan o`sdi, bolalar ijodkorligi namunalari ko`proq ommalashtirildi va rag`batlantirib kelinmoqda.

Zero, istiqlolga erishgan ilk kunlardan boshlaboq, yoshlarimizni avvalo ma`naviy sog`lom, barkamol qilib kamol toptirish masalasiga jiddiy e`tibor qaratilgani ular adabiyotida ham o`z aksini topa bordi. Badiiy adabiyot, jumladan, uning alohida tarkibiy qismi bo`lgan bolalar adabiyoti, ushbu g`oyat murakkab vazifani ado etishdagi eng muhim vositalardan biridir. Bu ishga badiiy so`z qudrati bilan hissa qo`shib kelayotgan iste`dodli yozuvchilar soni orta borgani quvonarli holder. Istiqlol davrida jamiyat taraqqiyoti bilan bog`liq g`oyalar S.Barnoyevning publistik maqola va hikoyalarida, A.Obidjon, T.Adashboyev, M.A`zam, T.Malik, H.Imonberdiyev, K.Turdieva, A.Akbar, D.Rajab kabi shoirlarning she`riy asarlarida o`z ifodasini topdi. Ularning aksariyatida ijtimoiy jamiyatdagi yangilanishlar, bozor munosabatlarining ta`lim-tarbiyadagi o`rnini aks ettirishga qaratilishi alohida e`tiborga loyiqdir. Shuningdek, «Gulxan», «Tong yulduzi», «G`uncha», «Yosh kuch» kabi bolalar matbuot nashrlarida ham istiqlol g`oyalarini, badiiy adabiyot namunalari o`z ifodasini topib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda bolalar adabiyotining bola tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishdagi muhim o`rni bu sohadagi yangi izlanishlar orqali asoslandi. O`zbek bolalar adabiyotiga uzoq yillardagi bir yoqlamalik va uning salbiy oqibatlari ham inkor etilmagani holda, milliy bolalar savodxonligi darajasini oshirish borasidagi sa`y- harakatlar badiiy so`z vositasida qayta jonlanayotir. Qolaversa, o`zbek bolalar adabiyotini chet el, rus va boshqa hamdo`stlik mamllakat bolalar adabiyotiga muqoyasalab o`rganish samarali natija berayotir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Safar Barnoyev she`riyatidagi urush bolalari taqdiri ifodasini izohlang?
2. Miraziz A`zamshe`rlarining obrazlar olami qaysi jihatlari bilan o`ziga xos.
3. 1940-80 yillar o`zbek bolalar nasridagi tamoyillar haqida nima deya olasiz?
4. Tohir Malikdetektiv qissalaridagi jamiyat va shaxs fojealari tasvirini asoslab bering?
5. Anvar Obidjonning meva va sabzavotlar to`g`risidagi she`rlar turkumiga munosabat bildiring?
6. Mirkarim Osim asarlarida tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylanishi haqida fikr yuriting?
7. Milliy istiqlol yillaridagi bolalar nasri tamoyillari haqida ma`lumot bering?
8. Safar Barnoyevning zamonaviy mavzudagi qanday asarlarini bilasiz? Tarixiy mavzudagichi?
9. Tursunboy Adashboyevshe`riyatining mavzular olami haqida mulohaza yuriting?
10. Tohir Malik- detektiv nasr ustasi, deyilgan e`tirofni asoslang?
11. Milliy istiqlol yillarida bolalar publitsistikasi qanday tamoyillarga boy bo`ldi?
12. M.A`zamning til to`g`risidagi she`rining g`oyaviy dolzarbligi nimada?

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

6. Alohida yordamchilar guruhiga mansub soʻzlar boshqa yordamchi soʻzlardan qanday farqlarga ega?
7. Modal soʻz va yuklamalarning umumiy va farqli tomonlarini qiyosiy tavsiflab izohlang.
8. Undov soʻzlar va ularning maʼno turlari haqida maʼlumot bering.
9. Taqlid soʻzlarning oʻziga xos belgilari nimalardan iborat?
10. Undov va taqlid soʻzlarning umumiy tomonlarini topib izohlang.

ZARURIY ADABIYOTLAR

5. Ш. Шоабдураќмонов, М. Асљарова, А. Қожиев, И. Расулов, Х. Дониёров Қозирѓињзбекадабийтили. 1-љисм. Т., «Њљитувчи» 1980.
6. У. Турсунов, Ж. Мухторов, Ш. Раќматуллаев Қозирѓињзбекадабийтили. Т., «Њљитувчи» 1992.
7. М. Мирзаев, С. Усмонов, И. Расулов Њзбек тили. Т., «Њљитувчи» 1978.
8. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. NABIYEVA, A. Mirzaahmedov Ona tili. Umumtaʼlim maktablarining 7-sinf uchun darslik. Т., «Maʼnaviyat» 2005.

3.2. AMALIY MASHGʻULOT

1 - MAVZU	Tilshunoslikhaqidaumumiymaʼlumot.
Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 ta
Mashgʻulot shakli	Amaliy mashgʻulot
Amaliy masgʻuloti rejasi	1. Tashkiliy qism. 2. Savol-javob asosida talabalar bilimni aniqlash va mustahkamlash 3. Mazuga oid mashqlar orqali talabalar bilimni tekshirish va mustahkamlash. 4. Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimni aniqlash va baholash. 1. Mazuni yakunlash.
Oʻquv mashgʻulotning maqsadi	Talabalar Tilshunoslik fani, uning vazifalari. Tilning ijtimoiy mohiyati, tuzilishi. Tilning paydo boʻlishi, taraqqiyoti. Milliy til va adabiy til mavzusi haqida tushuncha berish.
Oʻqituvchining vazifasi: 1. Tillarning tasnifi haqidagi nazariy bilimlarini aniqlash. 2. Til oilalari haqida mashqlar bajartiradi. 3. Tilshunoslik boʻlimlari haqida tushuncha beradi	Oʻquv faoliyatining natijasi 1. Tillarning tasnifi haqidagi bilimlari yuzasidan javob beradi. 2. Til oilalari haqida mashqlar bajaradi. 3. Tilshunoslik boʻlimlari haqida tushunchaga ega boʻladi.
Taʼlim metodi va texnikasi	Suhbat, Muammoli izlanish, mashqlar bajarish
Taʼlim vositasi	Proyektor, Maʼruza matni, mashqlar toʻplami
Taʼlim shakli	Yakka tartibdagi savol-javob, guruhlarda ishlash
Taʼlim sharti	Auditoriya, TSOdan foydalanish

Amaliy mashgʻulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqti	Oʻqituvchi	Talaba
	1. Maʼruzamashgʻulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu (Tilshunoslik fani,	1. Tilshunoslik fani,

1-bosqich Kirish (5 daqiqa)	uning vazifalari. Tilning ijtimoiy mohiyati, tuzilishi. Tilning paydobo'lishi, taraqqiyoti. Milliy tilva adabiytil), maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	uning vazifalari. Tilning ijtimoiy mohiyati, tuzilishi. Tilning paydobo'lishi, taraqqiyoti. Milliy tilva adabiytil mavzusini yozadi.
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganilgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (1-ilova) 2. Mustaqil ish bajariladi (2-ilova) 3. Matn tahlili (3-ilova)	1. Eshitadi, yozadi, 2. Savollarga javob beradi. 3. Yozadi va tahlil qiladi
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1. Talabalarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyga vazifa berish, mashg'ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro'yhatini beradi	1. Eshitadi, uyga vazifani yozib oladi, 2. Eshitadi yozib oladi.

1-ilova

1. Tilshunoslik fani nimalarni o'rganadi?
2. Tilshunoslik fanining qanday turlari bor va ular o'zaro qanday farqlanadi?
3. Nima uchun til ijtimoiy hodisa sanaladi?
4. "Jamiyatsiz til, tilsiz jamiyat bo'lishi mumkin emas", degan fikrni qanday izohlaysiz?
5. Tilning tarkibiy qismlari deganda nimalar nazarda tutiladi?
6. Tilda yuz beradigan o'zgarishlar birinchi navbatda uning qaysi bo'limida (sathida) yuz beradi va nima uchun?
7. Keyingi paytlarda o'zbek tili sathlarida (leksika, fonetika, grammatikasida) qanday o'zgarishlar yuz berdi?
8. Milliy til nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?
9. Shevalar adabiy tildan qaysi jihatlariga ko'ra farqlanadi?
10. O'zbek tilida qanday lahjalar mavjud va ular qanday belgilarga ega?

2-ilova

Mustaqil ish. Talabalar o'tirgan joylariga qarab 6 qatorga bo'linadilar va har bir qatorga alohida quyidagi tartibda o'tilayotgan mavzu asosida mustaqil ishi topshiriladi: (Bajarilgan ishning sifati gapning mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati hamda talabaning o'z misolini to'g'ri va tushunarli ifodalay olishi bilan belgilanadi.)

- 1-qator Dunyo tillari haqida ma'lumot bering
- 2-qator- Tirik va o'lik tillar haqida ma'lumot bering.
- 3-qator- Til va nutq tushunchalariga izoh bering.
- 4-qator- Milliy til va adabiy til haqida gapiring..
- 5-qator- Shevalar haqida nimalarni bilasiz?

3- ilova

Matn beriladi. Matndan milliy va adabiy til tarkibiga kiruvchi so'zlar aniqlanadi. Shevaga hos so'zlar, qaysi shevaga tegishliligi aniqlanadi.

MAVZU	O'zbek adabiy tilining unli va undosh fonemalari	
Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 ta	
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot	
Amaliy masg'uloti rejasi	<p>1 Tashkiliy qism.</p> <p>2 Savol-javob asosida talabalar bilimni aniqlash va mustahkamlash</p> <p>3 Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimni tekshirish va mustahkamlash.</p> <p>4 Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimni aniqlash va baholash.</p> <p>5 Test texnologiyasi orqali talabalar bilimni nazorat qilish va baholash</p> <p>6 Mavzuni yakunlash.</p>	
O'quv mashg'ulotning maqsadi	Talabalar Unli tovushlar, ularning tasnifi. mavzusi haqida tushuncha berish. "Undosh tovushlar, ularning tasnifi" mavzusidan ma'ruza mashg'ulotida olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikma va malakalarini tekshirish va mustahkamlash.	
O'qituvchining vazifasi: 1. Unli tovushlar, ularning tasnifi haqidagi nazariy bilimlarini aniqlash. 2. Unli tovushlar yuzasidan mashqlar bajartiradi. 3. Unlilar tasnifi haqida tushuncha beradi	<p>O'quv faoliyatining natijasi</p> <p>1. Unli tovushlar, ularning tasnifi haqidagi bilimlari yuzasidan javob beradi.</p> <p>2 Unlilar haqida mashqlar bajaradi .</p> <p>3. Unlilarni tasnif qiladi</p> <p>2 talabalar « Undosh tovushlar, ularning tasnifi » mavzusi yuzasidan 1-ilovada berilgan savollarga javob beradilar, munozarada ishtirok etadilar;</p> <p>3 talabalar « Undosh tovushlar, ularning tasnifi » mavzusi yuzasidan 2-ilovada berilgan mashqlarni bajaradilar, bir-birlarining javoblarini to'ldiradilar;</p> <p>4 talabalar « Undosh tovushlar, ularning tasnifi » mavzusi yuzasidan 3-ilovada berilgan namuna asosida o'z mustaqil ishlarini himoya qiladilar, munosarada ishtirok etadilar;</p> <p>5 talabalar «Undosh tovushlar, ularning tasnifi» mavzusi yuzasidan 6-ilovada berilgan test savollariga javob beradilar</p>	
Ta'lim metodi va texnikasi	Suhbat, Muammoli izlanish, mashqlar to'plami	
Ta'lim vositasi	Proyektor, Ma'ruza matni,	
Ta'lim shakli	Yakka tartibdagi savol-javob, guruhlarda ishlash	
Ta'lim sharti	Auditoriya, TSO dan foydalanish	

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqti	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1. Ma'ruza mashg'ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu (Unli tovushlar, ularning tasnifi.), maqsadi, rejasini lonqiladi.	1. Eshitadi, yozadi, javob beradi.
2-bosqich	1. Mavzuyuzasidan savol-	1. Eshitadi, javob

Asosiybosqich (70 daqiqa)	javobo`tkaziladi. (1-ilova) 2. Mavzuyuzasidan mashqlar bajartiradi. (2-ilova) 3. Test bajartiradi (3-ilova)	beradi 2. Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Test yechadi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1. Talabalarni rag`batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyga vazifa berish, mashg`ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro`yhatini beradi	1. Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

1-ilova

1. Kirill alifbosida nechta unli harf, nechta unli tovush mavjud? Lotin alifbosida-chi?
2. Unli va undosh tovushlarning farqli jihatlarini ayting.
3. Unli tovushlar tasnifini yod oling.

2-ilova

7-машқ. Нуқталар ўрнига унли ёки ундош фонемалардан қўйиб кўринг, ҳосил бўлган сўзларни ёзинг.

1. Б...з, с...з, т...з, к...з; т...н, ж...н, к...н, т...т, б...т, с...т; ш...м, ш...р, ш...х; х...н, х...л, х...м, х...с, х...т, х...ш; з...л, з...р, к...р. 2. О...а, а...а, э...а, у...а, ў...а, а...и. 3. О..., у..., э..., и..., ў...

8-машқ. Биргина фонема билан фарқ қиладиган сўзларни топинг ва уларни ёнма-ён ёзинг.

Розиқ, шўра, толмоқ, тонг, **тин**, пона, ботмоқ, **кўз**, сўра, Бер, қин, байт, қозик, **бонг**, хона, кўра, бўз, дин, қайт, солмоқ, жўра, донг, сўз, фин, ҳозик, олмоқ, чин, **пайт**, шона, сотмоқ, қин, кўра, қона, тотмоқ, хўра, тўз, тер, қотмоқ, чўз, ғўра, **шер**, син.
Ажратиб кўрсатилган сўзлар таркибидаги унлиларнинг тилнинг горизонтал ҳаракатига турини айтинг.

9-машқ. Ўқинг. Нар бир сўз таркибидаги унли ва ундош фонемаларни кўрсатинг.

Кўзларим тиндирилмас На **довруғу**, на давлат.

Измига индирилмас Намансабу, на савлат. (З.О.)

Ажратиб кўрсатилган сўзлар таркибидаги унлиларнинг тилнинг вертикал ҳаракатига ва лабларнинг иштирокига кўра турини айтинг.

10-машқ. Ўқинг. Унли фонемаларни тилнинг горизонтал, вертикал ҳаракатига ва лабларнинг иштирокига кўра гуруҳлаб, қуйидаги чизмага жойланг.

Тилим бормас асло кўр қиз демакка,
Сиз ҳам бир эшитинг «Дугоһ», «Баёт»ни.

Чамамда, кўз нури кўчган юракка,

Шунинг-чуң у қуйлар қайноқ ҳаётни. (О. Холдор.)

11-машқ. Ўқинг. Унлиларга тўлиқ тавсиф беринг.

Н а м у н а: у – тилнинг горизонтал ҳаракатига кўра тил орқа, вертикал ҳаракатига кўра тор, лабларнинг иштирокига кўра лабланган унли.

1. Айтишларича, у китоблар Бағдод, Дамашқ., Кашмир ва Нишопур каби шаҳарлардан келтирилган экан. (К.Мусеева.) 2. Энг баланд минора ҳам ердан кўтарилигай. («Амир Темур ўғитлари»дан)

3- ilova

Ўқинг қўшма қўшилган қуйидаги сўзларнинг қайси бири то'ғари yozilgan?

А) қишлоқи, мishiқи V) қишлоқи, мishiқи S) бarchasi imlo qoidasiga ko'ra to'ғари yozilgan D) қишлоқи, мishiқи

E) qishloq, mishiqlik

2) X undoshini 2 undoshi bilan almashtirganda soʻzlar maʼnosi oʻzgaradigan qatorni toping.

A) xiyobon, xattot, xolis V) kutubxona, tuxum, taxlit S) axloq, shaxdam, shaxsan D) xiyla, uxlamogʻ, shoʻ Ye) taxallus, taxmin, xushxabar.

3) Bir unli yo bir undosh bilan farq qiladigan soʻzlar qatorini toping.

A) bilim, baliq V) kamon, zamin S) bolq, bolta D) boshliq, toshloq Ye) bormoq, qarmoq.

4) Oʻrta Osiyoda XXV asrda arab yozuvi bilan bir qatorda yana qanday yozuv ishlatilgan?

A) turkiy yozuv V) rim yozuvi S) uyqur yozuvi D) lotin yozuvi Ye) soʻzd yozuvi

5) Drama, prokuror, trolleybus soʻzlari yozilishi qaysi qoidaga asoslangan?

A) soʻz oʻzagi va qoʻshimchalarini aynan yozish V) fonetik yozuv S) morfologik yozuv D) eshitganimiz asosidagi yozuv Ye) shakliy yozuv.

6) Turkiy xalqlar qaysi asrlarda Oʻrxun-Enasoy yozuvidan keng foydalanganlar?

A) II-III asrlarda V) V-VIII asrlarda S) V-IX asrlarda D) VII-XI asrlarda Ye) VII-IX asrlarda.

7) Oʻzaki nutqning qonun va qoidalarini tilshunoslikning qaysi boʻlimi oʻrganadi?

A) fonetika V) orfografiya

S) orfoepiya D) morfologiya

E) uslubshunoslik

8) Fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan soʻzni belgilang.

A) ketdi V) maktabga S) fikr

D) buloqqa Ye) tuzildi.

9) Y harfi tushirib qoldirilganda ham maʼno anglata oladigan soʻzlar qatorini aniqlang.

A) kiyma, piyma, choynak V) siyla, ziyrak, biyron S) mayda, qayda, soyda D) qiyma, qayirma, sayla Ye) moyla, sayra, qaysi.

10) Qaysi qatordagi soʻzlarda harf toʻrtta, tovush beshta?

A) yashil, buyuk V) tongi, taʼna

S) daʼvo, qalʼa D) soʻng, bong

E) olim, havo.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H.Jamolxonov. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti

2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. Gʻulomova, SH.Yoʻldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.

3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. Oʻzbek tili. 2004, OʻAJBNT» markazi.

4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. Gʻulomova. Hozirgi oʻzbek adabiy tilidan maʼruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.

5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti

6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar toʻplami Toshkent, 2009-yil

1-Ilova.Savol-javob;Talabalarning mavzu yuzasidan egallagan nazariy bilimlarini aniqlash va baholash maqsadida quyidagi savollar asosida savol-javob amalga oshiriladi: (Bunda oʻqituvchi asosiy eʼtiborni talaba nutqining ravonligiga, shevalardan xoli boʻlishishiga, javoblarning ilmiyligi va mantiqan toʻgʻriligiga hamda har bir ifodalanayotgan fikrning aniq misollar yordamida izohlanishiga qaratiladi)

1. Undosh tovushlar va ularning tasnifi haqida maʼlumot bering.

2.Hosil boʻlish oʻrniga koʻra undosh tovushlar haqida gapiring

3. Hosil boʻlish usuliga koʻra undosh tovushlar haqida maʼlumot bering

4.Ovoz va shovqinningishtirokiga koʻra undoshlar haqida gapiring.

Savol-javob jarayonida mavzu materiallarining izchilligi va uzviyligiga amal qilinadi, talabaning javobini ikkinchi bir talaba tomonidan toʻldirilishi uchun imkoniyat yaratib beriladi. Talabalar faolligini taʼminlash maqsadida har bir talabaning javobi oʻz vaqtida belgilangan ballar asosida baholanib boriladi.

2-ilova.Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to'liq va mukammal bo'lishi o'qituvchi va talabalar tomonidan qat'iy nazoratga olinadi.)

13-маишқ. Сўзларни ўқинг. Қайси гуруҳдаги сўзлар таркибида фақат тил ундошларигина қатнашганлигини аниқланг.

1. Агар(да), агент, ададсиз, адолат, айғоқчи, акашак, аланг-жаланг, анархист, антиқа, асилзода, аттанг, аччиқтош, аждод.
2. Асалари, аслаҳа, арғувон, асранди, аттор, ашаддий, ақидапараст, аҳоли, абжир, адмирал, айсберг, ака-сингил, акциядор.
3. Гавһар, гажим, галстук, гиёһ, гирдоб, гугурт, гултувак, гулқайчи, гўсхўр, гулхайри, гулкарам, гулхан, газанда.
4. Гажак, газетхон, гараж, гардиш, генерал, гилос, гулдаста, гултожихўроз, гулқанд, гўнгқарға, гулшан, газак.

14-маишқ. Берилган гапларни ўқинг. Ундош фонемаларни ҳосил бўлиш усулига кўра гуруҳлаб, кўйидаги чизмага жойланг.

1. Умид жасоратли одамларда бўлади.
2. Машаққатсиз келган роҳат тузсиз ошга ўхшайди.
3. Одамнинг энг ширин, лаззатли ва ҳалол таоми ўз меҳнати, қўл кучи билан топган ризқидир.

3-ilova.Mustaqil ishlarni tekshirish; Talabalarining uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to'g'riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o'rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

Namuna: . — Umridan shuncha uzoq bo'lgandan keyin... umri uzoq bo'ladi-da, — deb so'z o'yini qildi. (A. Q.) Umri-qiz bolaning ismi, umri- hayoti ma'nolarida, leksik omonimlar, ot turkumi doirasida yuzaga kelgan.

4-ilova. Mustaqil va ijodiy ish. Talabalar o'tirgan joylariga qarab 3 qatorga bo'linadilar va har bir qatorga alohida quyidagi tartibda o'tilayotgan mavzu asosida mustaqil ishi topshiriladi:(Bajarilgan ishning sifati gapning mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati hamda talabaning o'z misolini to'g'ri va tushunarli ifodalay olishi bilan belgilanadi.)

2.Gaplar tuzinghosil bo'lish o'rniga ko'ra undosh tovushlarni tagiga chizing

3. Gaplar tuzinghosil bo'lish usuliga ko'ra undosh tovushlarni tagiga chizing

4.Gaplar tuzing ovoz va shovqinningishtirokiga ko'ra undosh tovushlarni tagiga chizing

MAVZU	Nutq tovushlarining o'zgarishlari.
Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 ta
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot
Amaliy masg'uloti rejasi	1 Tashkiliy qism. 2 Savol-javob asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash 3 Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash. 4 Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimini aniqlash va baholash. 5 Test texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash 6 Mavzuni yakunlash.
O'quv mashg'ulotning maqsadi	Talabalar Nutq tovushlarining fonetik o'zgarishlari. mavzusi haqida tushuncha berish.
O'qituvchining vazifasi: 1 Nutq tovushlarining fonetik o'zgarishlari.haqidagi	O'quv faoliyatining natijasi 1.Nutq tovushlarining fonetik o'zgarishlari.haqidagi bilimlari yuzasidan javob beradi. 2 Nutq tovushlarining fonetik o'zgarishlari .haqida mashqlar

nazariy bilimlarini aniqlash. 2. Nutq tovushlarining fonetik o'zgarishlari yuzasidan mashqlar bajartiradi . 3. Test bajartiradi	bajaradi . 3. Test yechadi
Ta'lim metodi va texnikasi	Suhbat, Muammoli izlanish, mashqlar to'plami
Ta'lim vositasi	Proyektor, Ma'ruza matni,
Ta'lim shakli	Yakka tartibdagi savol-javob, guruhlarda ishlash
Ta'lim sharti	Auditoriya, TSOdan foydalanish

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqti	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma`ruzamashg'ulotningtashkiliyqismini amalga oshiradi, mavzu (Nutq tovushlarining fonetik o'zgarishlari), maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi.
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzuyuzasidan savol-javob o'tkaziladi. (1-ilova) 2. Mavzuyuzasidan mashqlar bajartiradi. (2-ilova)	1. Eshitadi, javob beradi 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Test yechadi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyga vazifa berish, mashg'ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro'yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

1-ilova

.Nutqdagi tovush o'zgarishlari nima? Nima uchun nutqda tovush o'zgarishi ro'y beradi?

2.Tovush o'zgarishlarining qanday turlarini bilasiz?

3.Kombinator o'zgarish nima? Uning qanday turlari bor?

4. Assimilyatsiya nima va uning qanday ko'rinishlarini bilasiz?
5. Dissimilyatsiya nima?
6. Metateza haqida nimalarni bilasiz?
7. Pozitsion o'zgarishlar deganda nimani tushunasiz?

2- ilova

27-mashq. O'qing. Assimilyatsiyaga uchragan so'zlarni topib, turini ayting.

1. Bular yozib bergan bir enli xatni odamlar suvga ezib ichganini ko'rgan. (*P.T.*) 2. U... kambag'al-qashshoqlar bilan bittanga-yarim tanga ustida g'ijillashib o'tirishni istamas edi. (*P.T.*) 3. Uning badani jimillashib ketdi. (*N.Biryukov.*) 4. Ha, ko'hlik tolihimdan o'rgulay deb mundoq qulochchi keravering. (*H.N.*) 5. Endi Go'ro'g'libekdan eshitmoq kerak gappi. (*Po'lkan.*) 6. Handalak – shakar palak, shirinini tallab oling. (*N.S.*) 7. Aytmoqchi, kechka yaqin yana kirib o'tarsiz... (*J.Abd.*) 8. U boyning otini Oqchishboy der edi. (*Usmon baxshi.*) 9. U juda qarigan, qo'lda tokqaychi. (*Mirm.*) 10. Ukaginang orderlarini jaranglatib keldi. (*S.Ahm.*) 11. Gulsunbibi qizi Gulnormi ro'parasiga o'tqizdi, mahsini yeshtirdi. (*O.*)

28-mashq. O'qing, fonetik o'zgarishga uchragan so'zlarni aniqlang. Dissimilyatsiya hodisasiga uchragan so'zlarni ajratib, qay tarzda o'zgarganini izohlang.

1. "Bo, zaril keptimi! – Lobar labini burdi. – Ishim boshimdan oshib yotibdi". (*H.G'.*) 2. Ko'rmay turib tusmonlab o'xshatardi kimgadir. (*Mirm.*) 3. Menga qara, Hojiakbarri o'g'lisan-a, ertaga bir do'ppi o'rik beraman, mana shu xatti o'qib ber. (*S.Ahm.*) 4. Boy buvang to'y qilib, beripti xatti, Ulug'im deb xon otangni yo'qlapti, Borolmasman bugun, bolam, bu to'yga, O'zi uchun otang sizni jo'natti! (*Usmon baxshi.*) 5. Boshiga lo'mba degan narsa o'lgur tushdimi, zambarakmi, nayzagami duch keldi... (*O.*) 6. Saida kasal kishiday bitta-bitta qadam bosib, hujrasiga tomon yo'naldi. (*A. Q.*) 7. "Sayr qilsa arziydigan tun, - dedi Ketrin. – Bevosh kecha, nimasini aytasiz". (*E. Xeminguey.*)

29-mashq. O'qing, assimilyatsiya, dissimilyatsiya va metatezaga uchragan so'zlarni aniqlang. Metatezaga uchragan so'z ishtirok etgan gaplarni ko'chirib, shu so'zning tagiga chizing va izohlang.

1. Boshim aynaldi. U yog'ini eslolmayman. (*H. G'.*) 2. Sizzi ko'rishga ko'pdan beri mushtoq edi. (*S.An.*) 3. – Unda ekchi go'shti ishlatamiz, - dedi Bashirjon kaftlarini yoyib, quv ko'zlarini o'ynatarkan... (*N.A.*) 4. Elmurod... turli nozu ne'matlardan yeyayotgan sallalilarga telmurdi. (*P.T.*) 5. Toshtemir aka tambur, Alijon esa dutor, Dadavoy aka nay chalar edi. (*H.G'.*) 6. Tomlar tut tolqonlari bilan qoplangan. Quritib, yag'richoqda tortib yoki o'g'irchada tuyib, bir tirikchilikka sarflashadi. (*O.Xalil.*)

30-mashq. O'qing. Pozitsion o'zgarishga uchragan so'zlarni topib, ularning turini aniqlab ayting.

I. Avlot, balog'at, ajabtovir, dahshat, amalparas, daslap, bazim, ataylap, blaknot, biyron, garchan, blanka, dasgoh, gazit, zabarjat, zanggori, ijod, zovir, ituzim, kannay, kosip, barometir, mavrit, minora, bakal, mikrop, dakalat, barikada, gladiyolis, diplom, zabastovka, infark.

II. 1. – Said! Said! Tur, ukajon! Eshikda shubhali odamlar! (*Mirm.*) 2. E'tibor yugurib oyisiga peshvoz chiqadi. – Opa, keldizmi, opa? (*M. Boboev.*) 3. Ollo bizga shafqat qildimi, men sening yana yuzingni ko'rdim. SHuning o'zi kata baxt. (*Mirm.*) 4. Dilfuza... bor dardini ichiga yutib jilmayib muomila qilar, har zamon-har zamonda butun nafratini nigohiga joylab Ahmadbekka qarab qo'yardi. (*M. Boboev.*) 5. Kelayotgan odamning yarmi shu yerda tushib, chiqadiganning yarmi shu yerdan chiqadi. Biroq hozir – choshgoh palla, qatnov mo'tadil, yo'lovchi odatdagidan siyrakroq. (*E.A'zamov*)

3- ilova

1] Noto'4ri yozilgan so'zlarni toping.

A) mudofaa, tabiiy, juz'iy V) tajjub, taaluq, faniy S) Lutfiy, mo'jiza, avf D) muzaffar, mutolaa, matbaa Ye) mudarris, muddao, muassasa.

2] Qo'sh undoshlarning biri tushirilganda o'zga ma'no ifodalovchi so'zlar qatorini aniqlang.

A) karra, arra, kalla V) avval, alla, baliq S) tilla, qattiq, ushshoq

D) naqqosh, taassurot, izzat Ye) qissa, murakkab, manba.

3) To'¼ari yozilgan so'zlarni toping.

A) temiryo'l, jigar rang, tim qora

V) janubiy Far¼ona kanali, Buloq boshi qishlo¼i, oltiariq

S) kunbotar, kuyganyor, qayinota

D) Yangiobod, anashu, bodomqovoq

E) poyabzal, o'rinbosar, Oltinko'l

4) Noto'¼ari yozilgan so'zlarni toping.

A) O'zbekiston Oliy Kengashi, «Cen yetim emassan» she'ri V) «Mustaqillik» ordeni, «Do'stlik» ordeni S)«Orol» gazetasi, «Jiguli» mashinasi D) «£alaba» jamoa xo'jaligi Ye) markaziy Far¼ona kanali, katta Andijon kanali.

5) Harflar tartibidan foydalanib, «Bilim baxt keltirar» maqoli to'¼ari chiqarilgan javobni aniqlang.

A) 2, 10, 13, 10, 14, 2, 1, 23, 20, 12, 6, 13, 20, 10, 18, 1, 17. V) 2, 10, 13, 10, 14, 2, 1, 23, 20, 12, 6, 13, 20, 10, 18, 1, 18. S) 2, 10, 13, 10, 14, 2, 1, 23, 20, 12, 6, 13, 21, 10, 18, 1, 18. D) 2, 10, 3, 4, 2, 1, 20, 23, 12, 6, 13, 20, 10, 18, 1, 18. Ye) 1, 23, 2, 20, 3, 3, 2, 5, 3 3, 9, 6, 14, 25, 35, 8, 6, 4.

6) Lotin yozuvi asosidagi harflar tartibidan foydalanib, hunar so'zi keltirib chiqarilgan qatorni toping.

A) 7,20,13,1,17 V) 6,21,12,3,9

S) 7,20,12,1,17 D) 5,22,14,2,17

E) 7,20,13,1,18.

MavzuNutqning asosiy fonetik bo`linishi, fraza (jumla), takt, fonetikso`z, bo`g`in, tovush. Urg`u va uning turlari.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqti	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma`ruzamashg'ulotningtashkiliyqisminiamalgaoshiradi, mavzu (Nutqning asosiy fonetik bo`linishi, fraza (jumla), takt, fonetikso`z, bo`g`in, tovush. Urg`u va uning turlari), maqsadi, rejasinie'lonqiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi.
2-bosqich Asosiybosqich (70 daqiqa)	1. Mavzuyuzasidansavol-javobo`tkaziladi. (1-ilova) 2. Mavzuyuzasidanmashqlarbjartiradi. (2-ilova) 3.Test bajartiradi (3-ilova)	1. Eshitadi, javob beradi 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Test yechadi.
	1.Talabalarni rag`batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyga vazifa berish, mashg'ulotga yakun yasash.	1.Eshitadi, yozadi,

4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	2. Adabiyotlar ro'yhatini beradi	bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.
---	----------------------------------	--

1-ilova

1. Nutqning fonetik bo'linishi haqida gapiring.

2. Jumla nima.

3. Fraza haqida gapiring.

4. Bo'g'in va uning turlari haqida ma'lumot bering.

1. Urg'u nima? Uning qanday turlari bor?

2. Leksik urg'u nima? Uning qanday turlari bor? Ular o'zaro qanday farq qiladi?

3. Leksik urg'uning qanday amaliy ahamiyati bor?

4. Mantiqiy urg'u nima? U leksik urg'udan qanday farq qiladi?

2- ilova

22-mashq. O'qing, so'zlardagi urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarni aniqlang. Ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi urg'uning ko'chish sababini tushuntiring.

1. Bilim, **bilimdon**, **bilimdonlik**; dukkak, **dukkaklik**; ishonch, **ishonchli**; mehmon, **mehmondo'st**, **mehmondorchilik**; paxta, **paxtakor**, **paxtakorlar**, **paxtakorlarga**; hosil, **serhosil**, **hosildor**.

2. Akrobat, **akrobatika**, **akrobatik**, arifmetika, **arifmetik**, biologiya, **biologik**, vegetatsiya, **vegetatsion**, industriya, **industrial**, telefon, **telefonist**, yumor, **yumoristik**.

23-mashq. O'qing. Urg'u qaysi bo'g'inga tushganini aniqlang.

Azimut, aysberg, benzin, birja, boda, botanik, botanika, vanilin, vena, viktorina, galstuk, demagog, demagogiya, dollar, duet, jeton, jodu, jodi, zebra, zona, kazarma, kaktus, kafedra, kashalot, leksika, lektor, maket, makler, nihoya, opera, opium, paluba, parik, sambo, selitra, seminar, tango, telepatiya, tormoz, tranzit, tranzistor, ul'timatium, uran, faza, xronika, filarmoniya, ekran, ekspert, elektron, elektronika, yunker, yupiter.

Urg'uning qaysi (nechanchi) bo'g'inga tushishini hisobga olgan holda so'zlarni guruhlab ko'chiring, urg'u belgisini qo'ying.

24-mashq. Gaplarni o'qib, ajratib ko'rsatilgan so'zlarning urg'usini belgilang, ma'no farqlarini tushuntiring.

1. Zargarov Qutbiddinovni o'larday kalaka qilib **toza** alamini oldi. (A.Q.) 2. Zaynabning ham **toza**, osuda, Dog' ko'rmagan ma'sum qalbida Sevgi yaproq yozib qolibdi. (H.O.) 3. – Bu uzoqmi? – Yo'q. Xuddi amerikaliklar zonasidagi bizning **uycha** keladi. (D. Kbyusak.) 4. Kiyikchamga katta **uycha** yasadim. (SH.S.)

25-mashq. So'zlarni urg'usiga rioya qilgan holda o'qing va ma'nosini ayting. Urg'uni oxirgi bo'g'inga ko'chirgan holda so'zlarni qayta o'qib, shu so'zlar ma'nosining o'zgarishiga e'tibor bering.

Akademik, grafik, didaktik, dinamik, dogmatik, yig'ma, klassik, praktik, radiotexnik, taktik, terma, fizik, qoplama, ximik, estetik, energetik, to'qima, qiyma, hozir.

26-mashq. Gaplarni o'qing va logik urg'u olgan so'zlarni aniqlang.

1. Saida qattiq xijolat bo'ldi. (A. Q.) 2. Qalandarov toza yalinibdi: "Jon uka, nachal'nikka ro'para qilib, erkak qaddimni bukma..." (A. Q.) 3. Sizing ishingiz bo'lmasin! Bu yerda men boshliqman, siz emas. (L. SH.) 4. Ko'chaga chiqsa, hammaning ko'zi o'shanda. (A. Q.) 5. SHu kuni ertalab Botirov Salimovning kelib qolishi mumkinligidan darak berib

ketgan edi. (J. Abd.) 6. Gazetaga Said haqida yozish kerak edi. Bu adolatsizlik-ku, u qildi hamma ishni. (As. M.) 7. Men or qilaman unga o'xshashdan. Nima sababdan adashtirishadi bizni, tavba! (As. M.) 8. Mening qizim gul keltirib beribdi? – Ha, shunaqa deyishyapti... (F. Niyoziy)

3- ilova

11) Qaéñè qàòíðääè ñççèäðää «*ia*» áèð òíáóóíè èòíääèàìqää?

A) tanga, jang, menga V) zang,
ko'ndalang, ingramoq S) durang, onangiz, nonga D) kongress, menga, singil Ye) tonggi, ko'ngil, tebrangan

2) Baland boloxonali uy. Ushbu birlikda qanday holatda uyning balandligi anglashiladi?

A) baland so'zidan so'ng pauza bo'lsa V) boloxonali so'zidan keyin pauza bo'lsa S) uchala so'z orasida pauza mavjud bo'lmasa D) har qanday holatda ham uyning balandligi anglashiladi Ye) ushbu gapda ohang emas, balki so'z tartibi asosiy roli o'ynaydi.

3) Morfologik yozuv asosida yozilgan so'zlar qatorini toping.

A) fikr, chiroq, yumshoq, yaxshilik
V) yasha, sanoq, Camarqand, avlod
S) ikkov, uchunchi, qutulmoq, ko'm-ko'k
D) buloqqa, ketdi, tuzsiz, singlim
E) Toshkent, go'sht, do'st, yuvindi.

4) Juftliklarning qaysi biridagi so'z xato yozilgan?

A) ta'na – tana V) juz'iy – juziy S) nash'anasha D) sur'atsurat Ye) qal'a – qala.

5) Qaysi so'zlar to'1/4ri yozilgan?

A) xushtam, hayxot, shu1/4illanmoq
V) shuvullamoq, mushkilot, muhir
S) muhum, mushkil, maddoh
D) kauchuk, ilhombaxsh, uvushmoq
E) udaburon, turkugo'y, su1/4irta,

MAVZU	Orfografiya, uning asosiy tamoyillari.
Vaqt: 6 soat	Talabalar soni: 30 ta
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot
Amaliy masg'uloti rejasi	1 Tashkiliy qism. 2 Savol-javob asosida talabalar bilimni aniqlash va mustahkamlash 3 Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimni tekshirish va mustahkamlash. 4 Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimni aniqlash va baholash. 5 Test texnologiyasi orqali talabalar bilimni nazorat qilish va baholash 6 Mavzuni yakunlash.
O'quv mashg'ulotning maqsadi	Talabalar Orfografiya, uning asosiy tamoyillari.. mavzusi haqida tushuncha berish.
O'qituvchining vazifasi: 1. Orfografiya, uning asosiy tamoyillari.i.haqidagi nazariy bilimlarini aniqlash. 2. Orfografiya, uning asosiy tamoyillari.yuzasidan mashqlar bajartiradi . 3. Test bajartiradi	O'quv faoliyatining natijasi 1. Orfografiya, uning asosiy tamoyillari..haqidagi bilimlari yuzasidan javob beradi. 2 Orfografiya, uning asosiy tamoyillari. .haqida mashqlar bajaradi . 3. Test yechadi
Ta'lim metodi va texnikasi	Suhbat, Muammoli izlanish,mashqlar to`plami
Ta'lim vositasi	Proyektor, Ma`ruza matni,
Ta'lim shakli	Yakka tartibdagi savol-javob, guruhlarda ishlash

Ta'lim sharti	Auditoriya, TSOdan foydalanish
---------------	--------------------------------

MavzuOrfografiya, uning asosiy tamoyillari..

Amaliy mashg`ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqti	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Ma`ruzamashg`ulotningtashkiliyqismini amalga oshiradi, mavzu (Orfografiya, uning asosiy tamoyillari.i.), maqsadi, rejasinie`lonqiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi..
2-bosqich Asosiybosqich (70 daqiqa)	1. Mavzuyuzasidan savol-javobo`tkaziladi. (1-ilova) 2. Mavzuyuzasidan mashqlar bajar tiradi. (2-ilova) 3. Test bajar tiradi (3-ilova)	1. Eshitadi, javob beradi 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Test yechadi.
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag`batlantirish, baholarni e`lon qilish, uyga vazifa berish, mashg`ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro`yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

1-ilova

1. Orfografiya nima? Orfografiyaning asosiy imlo qoidalarini ayting.
2. Imlo qoidalari qanday tamoyillar asosida ishlab chiqiladi?
3. Harf va belgining farqini ayting. O`zbek alifbosida nechta harf va nechta belgi bor?
4. Alfavit nima? Uning ahamiyatini ayting. O`zbek yozuvining o`ziga xos xususiyatlarini ayting.
5. Fonetik tamoyil asosida ishlab chiqilgan asosiy imlo qoidalarini va ularni imlo qoidalarining qaysi turiga kirishini ayting.
6. Morfologik tamoyilga asoslanadigan imlo qoidalarini ayting.
7. Shakliy an`anaviy (tarixiy an`anaviy) tamoyilga asoslanadigan imlo qoidalarini ayting.
8. Grafik tamoyil nimani belgilab beradi?

2- ilova

35-mashq. O`qing, ajratib ko`rsatilgan so`zlar orfografiyaning qaysi printsiplari (tamoyili) asosida yozilganini tushuntiring.

Qosh qorayib qolgan. **Pastqam** tepaliklar qurshagan Jarqoq, ya`ni o`z nomi bilan o`zini ifodalovchi qaqragan jarlik dengizdagi charog`on kemaday uzoq-uzoqlardan **ko`rinib turibdi**. Ba`zan uchar yulduzlarday cho`g` parchalari **ko`kka** ko`tarilib, Yer yo`ldoshi trassasimon **ufqda** iz qoldirib yana so`nadi, ba`zan pastdan o`tkir chaqmoq chaqnab, ko`z qorachiqlarini teshib o`tadi. "Elektr payvandchilar ishlashyapti", - **ko`nglidan o`tkazdi** Dadashev. Mashina **Jarqoqqa** yaqinlashgan sari, **motorlarning** ovozi tank **batalyonlarining** jangga kirish paytlarini eslatib, tobora avjga mindi.

Dadashev "gazik"ning darchasidan boshini chiqarib, bo`lajak trassani **kuzatdi**. Trassa yo`lning o`ng tomonidan o`tadi. Keng dala, **atrofi** osmon... Osmonning yarim gumbazida yakka-yakka yulduzlar **tevarakka** igna sanchib turibdi. Gumbaz pastlagan sari, yulduzlar **siyraklashib**, yer zimistonida **yo`qolib** ketmoqda. (I.R.)

36-mashq. To`g`ri talaffuziga e`tibor bergan holda so`zlarni o`qing; kirillchada "e" harfining "e" va "y+e" tovushlarini ifodalash uchun qo`llangan o`rinlarini aniqlab, ularni alohida-alohida yozing.

Jez, gigiena, mavze, peshin, agregat, bearmon, yelvizak, ob`ekt, rezavor, anketa, bellashmoq, ieroglif, spidometr, beega, vergul, yepiskop, kekirdak, poezd, chechan, devor,

dorpech, kofe, svetofor, zebra, infektsiya, pьesa, tesha, karuselь, kechmish, raz'ezd, tavoze, feьeton, makler, mezon, reьef, tole, traektoriya, mutelik, nevara, parket, foye, hezlamoq.

37-mashq. Tushirib qoldirilgan unli harflarni o'z o'rniga qo'yib, so'zlarni ko'chiring; aytilishi va yozilishini tushuntiring. Yozgan so'zlaringizni imlo lug'atidan tekshiring.

1. N..tarius, ...bligatsiya, ...rganizm, ...rol, p...rtret, pr...spekt, pr...tokol, r...mantik, t...lqon, t...mat, f...ntan, sh...fer, b...rona, v...jatiy, v...ronka, g...rizont, d...klad, d...mino, d...tsent, kisl...rod, kisl...ta, k...llevktiv, k...lorit, k...manda, k...mbayn, k...meta, k...mitet, k...mpot, k...nspekt, k...nfet, k...ntsert, lab...rant, m...zaika, m...n...lit, m...ntaj, m...totsikl, n...vator, n...rmal.

2. Uch...n, but...n, ul...sh, turg'...n, tuz...m, turm...sh, tug...n, turk...m, uyq..., tuyg'..., ud...m, uz...m, uz...nlik, uz...nchoq, uyq...chan, ung...r, un...tuvchan, ust...n, uch...q, uchq...r.

3. D...lar, d...mna, d...nor, zav...d, z...na, z...nt, kal...riya, kart...n, k...lba, k...mik, nas...s, n...rma, ...braz, ...blastь, ...krug, ...rgan, ...rden, s...da.

4. B...ho, b...hona, b...hor, v...bo, v...gon, g...vda, g...vjum, g...vhar, d...vlat, d...vomat, d...vron, z...l, zo'r...von, m...vj, m...bodo, n...vbat, n...vqiron, n...moyon, naq...rot, n...hor, t...mom, x...votir, x...vf, h...vaskor, h...vza, h...vo, sarl...vha, hash...rot.

5. ...stiq, ...lkan, ...tuk, ...lpiz, ...lchimoq, ...mish, ...pun, ...lmog'iz, ...lg'iz, ...mush, ...ridik, ...ntoq, ...mg'ir, ...ngil, ...qumli, ...sanmoq, ...noq, ...tarli, ...daki, ...shirin, ...rlaqamoq, ...lduzsimon, ...qinlashmoq, ...g'log'i, ...g'och, ...g'du, ...vosh.

38-mashq. O'qing, ayrim so'zlardagi unllarning yozilishida yo'l qo'yilgan xatolarni topib, qaysi imlo qoidasi asosida yozilishi lozimligini izohlang.

1. CHol salomimga alik olish o'rniga, boshi aylangandek ko'zlarini yumub, ingradida, gandraklab ketdi. (*S.Nazar.*) 2. Ruxsat bergin mushkil damda olib ketay boshimni. (*SH.Rustaveli.*) 3. To'lun oyday yorug' sochar, shu payt uning jamoli. (*SH. Rustaveli.*) 4. Ahmadjon aka, hali sizga katta mukofatlar chiqar. (*A.Q.*) 5. Tutqin qizning qayg'usini chekar faqat bu Asmat. (*SH. Rustaveli.*) 6. Kamarbasta xizmatkorlar g'oyat xushmuomila. (*SH. Rustaveli.*) 7. Qizdur, juvondur, ayol zotida hayo, iffat nomus bo'lishi shart. (*SH.*) 8. Matluba yaqinlashganida, u nima deyishini bilmay qizarib, kulimsirab qarab turaverdi. (*A. Eshonov.*) 9. Ikkinchi soatning so'nggi minutlari o'tayotganda, Saidiyning ko'zi charchab, turtuna boshladi. (*A. Q.*)

39 -mashq. So'zlarni avval chapdan o'ngga, so'ngra o'ngdan chapga qarab o'qing; ularning tovush tizimi va ma'nosidagi o'zgarishlarini so'zlang.

Ko'p, qiz, shod, arava, bez, kirib, dush, ibo, qo'l, tosh, mosh, nok, top, madad, jig', narsa, sal, tilak, tuf, sur, fan, biri, mato, kit, nos, tirik, sur, ilon, loy, kech, adad, ado, toza, allo, mol, nam, amal, amin, omma, qora, aslo, matoh, lab, bit, tub, dada, kod, g'ijim.

3- ilova

1) **x** va **h** harflarining imlosi qaysi qatorda noto'g'ri berilgan?

A) hushyor, xiyobon, hoshiya V) xalqum, maxsi, sahovat S) xushbo'y, vahshiy, dahliz D) homiy, xushfe'l, xushnud

E) xohlamoq, hujayra, hijron

2) Yozuvda bir yo'lga sig'may qolgan so'zni keyingi satrga ko'chirganda, xatoga yo'l qo'yilgan qatorni aniqlang.

A) dan-gasa, tan-ga, jur-'at V) ish-chan, so'ng-ra, mat-baa S) me-shchan, sing-il, voqe-a D) oi-la, ko'-pik, un-gur Ye) cha-ngitmoq, elt-moq, hi-koya

3) Qaysi qatordagi so'zlarda ayirish belgisi (') noto'g'ri ishlatilgan?

A) ta'sir, qit'a, me'mor V) ta'na, shu'la, fe'l S) a'lo, she'r, da'vo D) af'yun, voqe', had'ya Ye) ma'no, ta'lim, mas'ul.

4) Bosh harflar imlosi haqidagi qaysi fikr noto'g'ri?

A) Har bir gap bosh harf bilan boshlanadi. V) SHe'ning har bir misrasi bosh harf bilan boshlanadi. S) Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi. D) Planeta va yulduzlarning nomlari

bosh harf bilan yoziladi. Ye) Atoqli otlardan hosil bo'lgan turdosh otlar bosh harf bilan yoziladi.

5) So'zlar tarkibida **q** tovushi **x** tarzida talaffuz etiladigan qatorni toping.

A) yutuq, chiziq, qoziq V) chumchuq, qisqa, to'qmoq S) maqbara, to'liq, tutqun

D) maqtanmoq, taqsimot, taqsir

E) chiroq, qaymoq, qirg'oq

6) Berilgan so'zlarning qaysi birida **n** va **g** ikki alohida tovush hisoblanadi? 1) langar; 2) tenglik;

3) reyting; 4) alanga; 5) mangu;

6) ingliz.

A) 3,6 V) 1,4,5,6 S) 2,3,4,6,

D) 1,3,6 Ye) 6

7) To'g'ri yozilgan so'zni toping.

A) noma'qbul V) seysmalogiya

S)toshmehir D) hamd-sano Ye) masum

4-ilova

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti

2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, SH.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.

3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O'zbek tili. 2004, O'AJBNT» markazi.

4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.

5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006, "Universitet" nashriyoti

6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to'plami Toshkent, 2009-yil

4-ilova

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti

2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, SH.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.

3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O'zbek tili. 2004, O'AJBNT» markazi.

MAVZU: Leksikologiya, uning obyekti, vazifalari. So'zning leksik va grammatik ma'nolari.

Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. So'z ma'nosining o'zgarishi. Ma'no ko'chishi, kengayishi, torayishi.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi)(5minut)	1.Tashkiliy qism.	1.Auditoriyaning sanitariya holati, davomat, mavzu, uyga berilgan topshiriqlar aniqlanadi, guruh jurnali rasmiylashtiriladi;
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (70 minut)	1.Savol-javob asosida talabalar bilimni aniqlash va mustahkamlash. 2.Mavzuga oid mashqlar talabalar bilimni tekshirish va	1talabalar « Leksikologiya, uning obyekti, vazifalari. So'zning leksik va grammatik ma'nolari. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. So'z ma'nosining o'zgarishi. Ma'no ko'chishi, kengayishi, torayishi » mavzusi yuzasidan 1-ilovada berilgan savollarga javob beradilar, munozarada ishtirok etadilar; 2talabalar « Leksikologiya, uning obyekti, vazifalari. So'zning leksik va grammatik ma'nolari. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. So'z ma'nosining o'zgarishi. Ma'no ko'chishi, kengayishi, torayishi» mavzusi yuzasidan 2-ilovada berilgan mashqlarni bajaradilar, bir-birlarining javoblarini to'ldiradilar;

	<p>mustahkamlash.</p> <p>3.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimini aniqlash va baholash.</p> <p>4.Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimini baholash va mustahkamlash</p> <p>5.Mustaqil ish asosida talabalar bilimini tekshirish va baholash.</p> <p>6. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash</p>	<p>1) talabalar « Leksikologiya, uning obyekti, vazifalari. Soʻzning leksik va grammatik maʼnolari. Bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlar. Soʻz maʼnosining oʻzgarishi. Maʼno koʻchishi, kengayishi, torayishi» mavzusi yuzasidan 3-ilovada berilgan namuna asosida oʻz mustaqil ishlarini himoya qiladilar, munosarada ishtirok etadilar;</p> <p>2) talabalar « Leksikologiya, uning obyekti, vazifalari. Soʻzning leksik va grammatik maʼnolari. Bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlar. Soʻz maʼnosining oʻzgarishi. Maʼno koʻchishi, kengayishi, torayishi » mavzusi yuzasidan 4-ilovada berilgan blits savollariga javob beradilar;</p> <p>3) talabalar « Leksikologiya, uning obyekti, vazifalari. Soʻzning leksik va grammatik maʼnolari. Bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlar. Soʻz maʼnosining oʻzgarishi. Maʼno koʻchishi, kengayishi, torayishi» mavzusi yuzasidan 5- ilovada berilgan mustaqil ishni amalga oshiradilar;</p> <p>4) talabalar « Leksikologiya, uning obyekti, vazifalari. Soʻzning leksik va grammatik maʼnolari. Bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlar. Soʻz maʼnosining oʻzgarishi. Maʼno koʻchishi, kengayishi, torayishi» mavzusi yuzasidan 6-ilovada berilgan test savollariga javob beradilar</p>
3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (5 minut)	8.Mashgʻulotni yakunlash.	Mashgʻulot 7-ilovaga asosan yakunlanadi..

Darsning borishi

Tashkiliy qism: Auditoriyaning sanitariya holati, davomat, mavzu, uyga berilgan topshiriqlar aniqlanadi, guruh jurnali rasmiylashtiriladi. Mashgʻulot mazmuni, maqsadi va oʻtkazilish tartibi tushuntiriladi.

Asosiy anglash bosqichi.

1-ilova .Talabalar bilimi quyidagi savollar asosida aniqlanib va mustahkamlanib baholanadi:

1. Leksikologiya boʻlimining obʼjektiga nimalar kiradi?
2. Soʻzning leksik maʼnosi nima?
3. Soʻzning grammatik maʼnosini izohlang.
4. Bir va koʻp maʼnoli soʻzlarni tushuntirib bering.
5. Soʻzning oʻz va koʻchma maʼnosini tushuntirib bering.
6. Soʻz maʼnolarining oʻzgarishini misollar asosida tushuntirib bering.
7. Maʼno koʻchishi hodisalarini misollar orqali tushuntirib bering.
8. Maʼno kengayishi va maʼno torayishi hodisalarini izohlang.

Savol-javob jarayonida mavzu materiallarining izchilligi va uzviyligiga amal qilinadi, talabaning javobini ikkinchi bir talaba tomonidan toʻldirilishi uchun imkoniyat yaratib beriladi. Talabalar faolligini taʼminlash maqsadida har bir talabaning javobi oʻz vaqtida belgilangan ballar asosida baholanib boriladi.

2-ilova.Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash

65-mashq. Soʻzlarni oʻqing. Har bir soʻzning leksik maʼnosini, nominativ(nomlash) xususiyatini izohlang.

Ajriq, ayvon, amaki, ari, asov, oʻnta, barvasta, men, bastakor, avval, baxil, bahs, bedana, bezatmoq, bildirgi, allakim, burro, boʻron, vergul, gerb, goʻzal, dardchil, diyor, mana shu,

dimlamoq, doim, dono, dum, dubulg'a, yetmak, yetmish, yechintirmoq, yoyiq, yong'oq, yoppasiga, jadval, jiyan, jiddiy, jilg'a, jussa, ziyofat, ziroat, ziqna, zubr, ikkinchi, iljaymoq, injiq, in'om, irkit, istiqloq, itoatkorona, yo'g'on, kalit, kaltafahm, kashta, keyin, kimyogar, ko'p, hech kim.

66-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning leksik va grammatik ma'nolarini izohlang.

1. Farzand umr bog'ida Hayotdek aziz, shirin. (*T.Saydaliev*) 2. Tuhmatning oyog'i qisqa, uzoqqa bormaydi. Haqiqat to'q danak, ko'msa ham ko'karib chiqadi. (*SHuhrat*) 3. Mehnat bilan topilgan non beminnat bo'ladi. 4. Qahramon ota, jasur o'g'il, jafokash ona, hijronzada qalliq, hurmatli yodgorlik oldida uzoq bosh egib turdim. (*S.Ahm.*) 5. Yaramas, fosiq odamlar bilan suhbatdosh bo'lish ilonni asrashga o'xshaydi. Ilon har qancha asrala ham, zahari va ziyoni kamaymaydi, balki ko'payadi. ("*Oz-oz o'rganib dono bo'lur*")

67- mashq. Matnlarni o'qing, monosemantik so'zlarni aniqlang va qaysi sohaga oidligini ayting.

I. Bakteriya hujayralari massasining asosiy qismn oqsil va nuklein kislotalaridan hosil bo'lgan tsitoplazma va yadrodan iboratdir. Oqsillar juda murakkab organik moddalar bo'lib, ularning molekulari yuz va minglab atomlardan tuzilgandir. Oqsillar tarkibiga uglerod, vodorod va kislorodlardan tashqari azot, oltingugurt va ba'zan fosfor ham kiradi. (*K. Ye. SHarikov.*)

II. Mahmud Koshg'ariy yirik fonetist sifatida har bir tovushni alohida o'rganib, uni fiziologik va akustik tomondan tasvirladi. Tovush va harf orasidagi munosabatga to'xtalib, arab yozuv sistemasidagi harflarning turkiy tillardagi mavjud tovushlarni ifodalash uchun yetarli emasligini ko'rsatdi...

Mahmud Koshg'ariy so'zlarni uch turkumga ajratadi. Bular: ot, fe'l, yordamchi so'zlar. Mahmud Koshg'ariy ko'pgina affikslarning ma'no va funktsiyalarini ko'rsatib bergan edi. Uning semasiologiya sohasidagi fikrlari ham juda qimmatli. (*S. Usmonov.*)

III. Alisher Navoiy katta badiiy va ilmiy asarlari qatorida maxsus lingvistik asar yozganligi barchaga ma'lum.

Navoiy eski o'zbek tilining morfologiyasini yaxshi analiz qildi. Masalan, u fe'lning o'zlik, orttirma va birgalik nisbatlarini, ravishdosh shaklini, ko'makchi fe'l yordamida tuzilgan murakkab fe'llarni, sifatning orttirma darajasini va kuchaytirma shakllarini, ayrim so'z yasovchi affikslarning ma'nolarini ko'rsatib, ularni misollar bilan izohlab beradi.

Navoiy eski o'zbek adabiy tilining fonemalariga, ayniqsa, unllariga ham ahamiyat berdi. (*S. Usmonov.*)

68-mashq. Gaplarni o'qing, o'z va ko'chma ma'noli so'zlarni aniqlang. Ko'chma ma'noli so'z ishtirok etgan gaplarni ko'chirib, ma'nosi ko'chgan so'zlarning tagiga chizing.

I. 1. Agar derlar ko'ngil yosh bo'lsa, Oq soch o'zi bir husn erur. (*SH.*) 2. Oqsoch har baloni eplaydi, xumpar, nayrangdan shaytonga dars beradi. (*O.*) 3. Avval o'z bolalaringni va jigarlaringni oq podshoh qo'shiniga yuborib ko'ringlar-chi. (*S. Kalmikov.*) 4. Yuzim chaydim chiroyingga, oyingga... (*Qo'shiqdan.*) 5. Ishonmasdan qarardi Do'ndiq, go'zal yuzlarga. (*Mirm.*) 6. Kechqurun u maktabga kelganda, kechaniq tantanali qismi tugab, o'yin-kulgi avjiga chiqqan edi. (*O'. U.*) 7. Karim yo'lda borar ekan, qulog'iga Bibining ovozi eshitildi. (*N. Biryukov.*) 8. Bu suvning qulog'iga yaqin, tekis yer edi. (*H. Nu'mon, A. SHorahmedov.*) 9. Bir samovar bilan bir necha choynak meniki bo'ldi. (*S. A.*) 10. Otlarni saroyga bog'lab, o'zlari samovarga kirishdi. (*H. Nu'mon, A. SHorahmedov.*)

II. 1. U yil oxirida xizmati uchun boydan ma'lum miqdorda tuyoq oladi. Bu yilgi oladigan tuyog'i ham noma'lum. (*H. Nu'mon, A. SHorahmedov.*) 2. Otlarning tuyoqlari... qattiq yerdan... toshlarni taraqlatib ketar edi. (*S. B.*) 3. Mana menam suv to'la ariq labida quruq labman. (*H. Nu'mon, A. SHorahmedov.*) 4. Barmog'imning tirnog'i etidan ajrab ketdi. (*N. S.*) 5. Xushro'y bitta-yu bitta qizi. Befarzand o'tdim deganda ko'rgan tirnog'i. (*H. Nu'mon, A. SHorahmedov.*) 6. — Sizlar menga ishonaveringlar, — dedi Nosir mamash ohu ko'z yigitga choy uzatib... — Siz Haydarbek emassiz! — dedi

burgut ko'z yigit. — Bu yog'i endi o'z'laringizga bog'liq. To'g'ri yurib, bechorachilikni bo'yinlaringizga olsalaring, oshlaringni yeysizlar. — Bo'lmasam-chi?! — dedi Nosir mamash so'zini kesib burgut ko'z. (N. S.)

69-mashq. O'qing. Metafora yo'li bilan ma'nosi ko'chgan so'zlarni aniqlang. Gaplarni ko'chirib, ma'nosi ko'chgan so'zlarning tagiga chizing va ma'no ko'chish xususiyatini izohlang.

1. Yo'ldoshboy soy yoqasidan pastga tomon qiyalab yurdi. (H. Nu'mon, A. SHorahmedov.) 2. ... Ikki ko'zi har nav mollar bilan to'la xurjunni.elkaga tashlab, ...inqillab kirdi. (O.) 3. CHarchamagan bo'lsangiz «Nautilus»ning quyruq tomoniga yuring. (J. Vern.) 4. Darhaqiqat, suv osti kemasining tumshuq qismini ko'rib bo'lgan edim. Kemaning o'rtasidan tumshug'igacha joylashgan xonalar o'z tartibi bilan quyidagicha edi... (J. Vern.) 5. Bulbullarning dudog'idan uchgan navoni Qo'shiqlarim qanotida olib keltirdim. (E. V.) 6. Tog'larning etagidan uchib maysaga yetar. (Mirm.) 7. Quyosh botib ketdi. Bir tutam nuri Varrak dumlariga ilashib qoldi. (SHukrullo.)

70-mashq. Metonimiya yo'li bilan ma'nosi ko'chgan so'zlarni topib, izohlang.

1. Butun vujudi bilan Berildi u o'qishga. Har kun olib papkasin, Qatnar u "Navoiy"ga. (Mirm.) 2. Ko'zimning oldidan o'tadur g'amgin Navoiy tobutin ko'targan Hirot. (A.Eshonov) 3. Siz ham uzoq yashaysiz, yuzga kirasiz. (SHuhrat) 4. Butun qishloq bizni so'zlaydi, To'yimizni doim ko'zlaydi. (H. G'.) 5. Dod deyman! Mahallani boshimga ko'taraman. (H. G'.) 6. Bir «Opa-doktor» degan Yoqib qolgandi xalqqa; Yarim Toshkent tanirdi. (Mirm.) 6. Qosh qoraygach, barcha yig'iladi: Maktab, ferma, hamma xonadon... (Mirm.) 7. Zal gurillab kulib yubordi. (A. Q.) 8. London xushchaqchaq bir kuyni eshittirardi. (Yu. Semyonov.) 9. Beshinchidagi Anorgulni aytsang-chi, har kuni yuz yetmish besh kilogrammdan teryapti-ya. (A. Muhiddin.) 10. — Sizning kelishingizni eshitib, butun Marg'ilon ko'chib chiqdi. (H. Nu'mon, A.SHorahmedov.) 11. Qishlog'imiz asosan bog'dorchiligu chorvachilik bilan shug'ullanar edi. (E.A'zamov)

71-mashq. Ko'chiring. Metonimiya yo'li bilan ma'nosi ko'chgan so'zlarni topib, tagiga chizing, uning metaforadan farqini tushuntiring.

1. «CHo'l kezding»,—debsiz,—muncha? Ne der eshitgan quloq? (Mirm.) 2. Sakkizda eding, o'n oltiga qadam qo'yding. (H. G'.) 3. Ulug' qabrning ustida Hirot yig'ladi. (O.) 4. Zalning butun nigohi, butun e'tibori boshqa tomonga ko'chganini sezganda ham, ...to'xtamay gapiraverdi. (A. CHakovskiy.) 5. Til bilan dil boshqa-boshqa bo'lmasin, Egri qo'llar bizni aldab yurmasin. (H. G'.) 6. Menga lazzat berar shashmaqom, yalla, To'ychi hofiz kuyi, CHaykovskiy, Bax. (U.) 7. Gospital' shu tarafga yordamchi xo'jalik qilmoqchi. (S. Ahm.) 8. Sport maydoninig etagida esa katta hovuz bo'ladi. (H.G'.) 9. Qishloq uyg'onmoqda, har joy-har joyda mo'rilaridan tutun chiqmoqda. (L. SH.) 10. Olijanoblikni qutlar yer yuzi, Qurbonsiz bo'lmadi va lekin yarash... (Mirm.)

72-mashq. Gaplarni o'qib, ko'chma ma'noli so'zlarni aniqlang. Sinekdoxa yo'li bilan ma'nosi ko'chgan so'zli gaplarni ko'chiring; ma'nosi ko'chgan so'zning tagiga chizib, uning metonimiyadan farqini tushuntiring.

1. Quvnoq tongning oltin bo'sag'asida Tongni kutar quvnoq ming-ming ko'z. (Mirm.) 2. — Qanaqa tashvishni aytyapsiz, oqsoqol? (H. N.) 3. Egizakni ko'p tug'ar qo'ylar, Ko'payadi suruvda tuyoq. (Mirm.) 4. Hoshim zo'r, Ergash polvon va boshqa qing'ir oyoqlarning ishlari Haydarbekka ayon. (N. S.) 5. — ... Qulingizdan qoladigan yolg'iz tirnoq bu. Ishqilib mendan keyin yetimligi bilinmasin! (Y. Sulaymon.) 6. Qiyig'ing uchida sen ko'tarib kelgan to'rtta olma yeyman deb turgan sakkiz og'izga nima bo'ladi. (H.G'.) 7. Eshitgan quloq nima deydi? (H. G'.) 8. Uqubatli kunlarni Endi ko'rmasin boshlar. (Mirm.) 9. Allo, hozir Toshkent bilan gaplashasiz, — dedi telefonistka. (Yo. SH.) 10. Yo'li menga besh qo'ldek ravshan bo'ldi. (Yo.SH.)

73-mashq. O'qing. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni toping. So'z ma'nosi qaysi yo'l bilan ko'chganligini izohlang.

1. Surxonboy zal etagida tik turib bolalarini uzundan-uzoq duo qildi. (*I. R.*) 2. Oyoqda og'ir etik Asfaltda taraqlardi, Soldatlar etigidek Tumshug'i yaraqlardi. (*Mirm.*) 3. Bir oshnam «she'r» o'qib, chapak chalmasa, zalga o'shqiribdi — «talant» emish u... (*Mirm.*) 4. Sen o'zing go'zalsan, ey O'zbekiston, Bog'imiz husniga jahon boqmoqda. (*Mirm.*) 5. SHinelni yechmasdan frontdan to'g'ri Zavod quchog'iga otilding tetik. (*SH.*) 6. Igna zahrin mendan so'ramang, Tob berganman ne zahmatlarga. O'ttizga kirsam ham cho'chib turaman, Ko'zim tushsa oq xalatlarga. (*E. V.*) 7. «Akamdan bitta-yu bitta shu tirnoq qoldi», — dedi u. (*Y. Sulaymon.*) 8. Modomiki maslahatni mendan emas, mahalla qora ko'zlaridan so'ramoqchi ekansiz, so'rang, qani bular nima der ekanlar. (*N. S.*) 9. Oyga uchayotgan kosmonavt agar so'rasa ne kitob olishni, u dam — Navoiy-yu Pushkin, G'afuru Tagor Va olib uch derdim Tixonovni ham. (*Mirm.*) 10. Qizning mehrini, iltijosini sezgan saman ot buloq boshida bo'yin egib turib berdi. (*H.G'.*)

3-ilova.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimini aniqlanadi va baholanadi.

Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to'g'riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o'rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

Namuna: Siz ham uzoq yashaysiz, yuzga kirasiz. (SHuhrat. "SHinelli yillar") Yuzga(metonimiya) kirasiz(metafora) so'zlarida ma'no ko'chishining metonimiya va metofara usullari mavjud.

4-ilova.Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimini baholash va mustahkamlash

№	Blits savollari	Talaba javobi	To'g'ri javob	Savollarga javoblar
1	So'zning gapdan tashqarida ifodalaydigan ma'nosi qanday ma'no hisoblanadi?			Gazeta, ravish
2	Faqat bir ma'noli so'zlar berilgan qatorni aniqlang.			Ma'no torayishi
3	Ko'p ma'noli so'zlar berilgan qatorni toping.			Bir ma'nolilik
4	Atoqli ot turdosh otga ko'chsa qanday ma'no o'zgarishi hosil bo'ladi?			Ma'no kengayishi
5	Turdosh ot atoqli otga ko'chsa qanday ma'no o'zgarishi sodir bo'ladi?			Metafora
6	Butunni ifodalash orqali qism, qismni ifodalash asosida butunni anglash asosida ma'no ko'chishi nima deb yuritiladi?			Metonimiya
7	Predmet, belgi,harakatning o'xshashligiga asoslangan ma'no ko'chishi turi nima deb yuritiladi?			Ko'z, bosh, quloq
8	Men 11da keldim gapida ma'no ko'chishining qaysi turi qo'llangan?			Kinoya
9	Uyda har kuni "dushman" tomondan bir vakil bo'ladi. Gapida ma'no ko'chishining qaysi shakli qo'llangan?			Sinekdoxa
10	Monosemiya hodisasi qanday ma'noni anglatadi?			So'zning asl o'z ma'nosi

Talabalar savollarga javoblarni belgilaganlaridan so'ng javoblar mavjud ikkinchi shakl namoyish etiladi va talabalar o'z xato va kamchiliklarini bilib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Blits savollari ifodalangan varaqlar talabalarga tarqatilishi yaxshi samara beradi.

Tekshirish uchun namuna

№	Blits savollari	Talaba javobi	To'g'ri javob	Savollarga javoblar
1	So'zning gapdan tashqarida ifodalaydigan ma'nosi qanday ma'no hisoblanadi?		2	Gazeta, ravish
2	Faqat bir ma'noli so'zlar berilgan qatorni aniqlang.		4	Ma'no torayishi
3	Ko'p ma'noli so'zlar berilgan qatorni toping.		10	Bir ma'nolilik
4	Atoqli ot turdosh otga ko'chsa qanday ma'no o'zgarishi hosil bo'ladi?		5	Ma'no kengayishi
5	Turdosh ot atoqli otga ko'chsa qanday ma'no o'zgarishi sodir bo'ladi?		7	Metafora
6	Butunni ifodalash orqali qism, qismni ifodalash asosida butunni anglash asosida ma'no ko'chishi nima deb yuritiladi?		8	Metonimiya
7	Predmet, belgi, harakatning o'xshashligiga asoslangan ma'no ko'chishi turi nima deb yuritiladi?		3	Ko'z, bosh, quloq
8	Men 11da keldim gapida ma'no ko'chishining qaysi turi qo'llangan?		9	Kinoya
9	Uyda har kuni "dushman" tomondan bir vakil bo'ladi. Gapida ma'no ko'chishining qaysi shakli qo'llangan?		6	Sinekdoxa
10	Monosemiya hodisasi qanday ma'noni anglatadi?		1	So'zning asl o'z ma'nosi

5. **Mustaqil ish.** Talabalar o'tirgan joylariga qarab 6 qatorga bo'linadilar va har bir qatorga alohida quyidagi tartibda o'tilayotgan mavzu asosida mustaqil ishi topshiriladi: (Bajarilgan ishning sifati gapning mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati hamda talabaning o'z misolini to'g'ri va tushunarli ifodalay olishi bilan belgilanadi.)

1-qator-Ko'p ma'noli so'zlar asosida ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.

2-qator- Bir ma'noli g'o'zlar asosida ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.

3-qator-Metafora asosida ma'no ko'chishiga ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.

4-qator-Metanimiya asosida ma'no ko'chishiga ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.

5-qator-Sinekdoxa usuli asosida ma'no ko'chishiga ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.

6-qator-Kinoya usuli asosida ma'no ko'chishiga ikkita mazmunli gap tuzib izohlaydi.

6. Testtekshiruv. Bunda har bir talabaga alohida variant asosidagi test beriladi va uning mustaqil tarzda bajarilishi nazorat qilinadi. (Test kalitlari yig'ishtirib olinib natijalari keyingi mashg'ulotgacha e'lon qilinadi.)

Namuna

1. Quyida berilgan so'z qo'shilmalaridagi suzmoq so'zi qanday so'z? Oshni suzdi, suvda suzdi, sigir suzdi.

A) omonim B) paronim C) sinonim D) ko'p ma'noli so'z

2. Ko'p ma'noli so'z har bir ma'nosi bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lishi mumkinmi?

A) Ko'p ma'noli so'z faqat bir ma'nosi bilan boshqa bir so'zga antonim bo'lishi mumkin B) bir ma'noli so'zlarga antonim bo'lishi mumkin C) har bir ma'nosi bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lgan so'zlar ko'p ma'noli so'z hisoblanmaydi D) ko'p ma'noli so'z har bir ma'nosi bilan ayrimayrim so'zlarga antonim bo'lishi mumkin

3. Qurilishda men boshliqman, Bo‘riyev. Mablag‘ ham, odamlar ham, jumladan, siz ham mening ixtiyorimdasiz. Ushbu gapdagi ixtiyor so‘zi o‘rnida quyidagi so‘zlarning qaysi birini sinonim sifatida qo‘llash mumkin?

A) mayl B) izn C) izm D) mayl, izn

4. Omonimiya quyida berilgan qaysi birliklar orasida voqe bo‘lmaydi?

A) ikki so‘z orasida B) ikki ibora va ikki tasviriy ifoda orasida C) ikki qo‘shimcha orasida D) sanalgan barcha birliklar orasida omonimiya vujudga kelishi mumkin

5. Qaysi qatorda berilgan so‘zlar tarkibidagi qo‘shimchalar o‘zaro omonim hisoblanadi?

A) kiyinmoq-ekinlar B) o‘qildi-yozildi C) gulzorlarda-paxtazorga D) uchrashmoq-o‘rganish

6. Qaysi qatordagi juftliklar o‘zaro sinonim bo‘la olmaydi?

A) adil-odil B) adolatli-odil C) adil-tik D) odil-adl

7. O‘chib borayotir qanchalar kalom,

Ne-ne bitiklar ham yo‘qdir, vassalom,

Dunyoda faqat bir sobit suxan bor:

U o‘z farzandingga o‘zing qo‘ygan nom (A.O.) Banddagi sobit so‘zining sinonimi...

A) yoqimli B) ishonchli C) qat‘iy D) doimiy

8. Quyidagi hodisalarning qaysi biri uchun shakliy bir xillik xos?

A) ko‘p ma‘noli so‘zlar uchun xos B) omonimlarga xos C) paronimlarga xos D) A va B

9. Qaysi so‘zlar o‘zaro paronim emas?

A) yuvindi – yuvundi B) yoriq – yorug‘ C) charlamoq – chorlamoq D) archish – artish

10. Quyidagi hodisalarning qaysilari mustaqil so‘z turkumlarining barchasi uchun xos? 1) ko‘p ma‘nolilik;

2) sinonimiya; 3) omonimiya; 4) antonimiya.

A) 1 B) 1, 2 C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 3, 4

7. Mashg‘ulotni yakunlash. O‘qituvchi mashg‘ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma‘lum qiladi, ularni rag‘batlantiradi va to‘plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg‘ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar) xususida o‘z mulohazalarini bayon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H. Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti

2. M. Hamroyev, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH. Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.

3. Z. Otamirzayeva, M. Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.

4. R. Ikromova, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma‘ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.

5. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti

6. R. Ikromova, D. Muhamedova, M. Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil.

Mavzu: Sinonimiya va antonimiya

Mashg‘ulotga ajratilgan vaqt – 2 s	Talabalar soni – 30ta
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Amaliy mashg‘ulot
O‘quv mashg‘ulotining tuzilishi	1. Tashkiliy qism. 2. Savol-javob asosida talabalar bilimni aniqlash va mustahkamlash

	<p>3.Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash.</p> <p>4.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimini aniqlash va baholash.</p> <p>5.Texnologiyasi orqali talabalar bilimini baholash va mustahkamlash</p> <p>6.Mustaqil ish asosida talabalar bilimini tekshirish va baholash.</p> <p>7.Test texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash</p> <p>8.Mavzuni yakunlash.</p>
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Talabalarning « Sinonimlar va ularning turlari. Antonimlar va ularning turlari. Paronimlar va ularning turlari» mavzusidan ma'ruza mashg'ulotida olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikma va malakalarini tekshirish va mustahkamlash.
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <p>1.Tashkiliy qism.</p> <p>2.Savol-javob asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash</p> <p>3.Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash.</p> <p>4.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimini aniqlash va baholash.</p> <p>5.Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimini baholash va mustahkamlash</p> <p>6.Mustaqil ish asosida talabalar bilimini tekshirish va baholash.</p> <p>7. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash</p> <p>8.Mavzuni yakunlash.</p>	<p>O'quv faoliyati natijalari:</p> <p>1.auditoriyaning sanitariya holati, davomat, mavzu, uyga berilgan topshiriqlar aniqlanadi, guruh jurnali rasmiylashtiriladi;</p> <p>2.talabalar « Sinonimlar va ularning turlari. Antonimlar va ularning turlari. Paronimlar va ularning turlari» mavzusi yuzasidan 1-ilovada berilgan savollarga javob beradilar, munozarada ishtirok etadilar;</p> <p>3.talabalar «Sinonimlar va ularning turlari. Antonimlar va ularning turlari. Paronimlar va ularning turlari» mavzusi yuzasidan 2-ilovada berilgan mashqlarni bajaradilar, bir-birlarining javoblarini to'ldiradilar;</p> <p>4.talabalar «Sinonimlar va ularning turlari. Antonimlar va ularning turlari. Paronimlar va ularning turlari» mavzusi yuzasidan 3-ilovada berilgan namuna asosida o'z mustaqil ishlarini himoya qiladilar, munosarada ishtirok etadilar;</p> <p>5.talabalar «Sinonimlar va ularning turlari. Antonimlar va ularning turlari. Paronimlar va ularning turlari» mavzusi yuzasidan 4-ilovada berilgan blits savollariga javob beradilar;</p> <p>6.talabalar «Sinonimlar va ularning turlari. Antonimlar va ularning turlari. Paronimlar va ularning turlari» avzusi yuzasidan 5-ilovada berilgan mustaqil ishni amalga oshiradilar;</p> <p>7.talabalar «Sinonimlar va ularning turlari. Antonimlar va ularning turlari. Paronimlar va ularning turlari» mavzusi yuzasidan 6-ilovada berilgan test savollariga javob beradilar</p> <p>8mavzu 7-ilovaga asosan yakunlanadi.</p>
Ta'lim metodi	Aqliy hujum, darslik bilan ishlash, suhbat, "Blits" , test texnologiyalari
Ta'limni tashkil etish shakli	Amaliy, ommaviy, individual.
Didaktik vositalar	Darslik, ukuv kullanma, tarqatma materiallar, slayd-prezentatsiya

Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Nazorat	Test O'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (5 minut)	1. Tashkiliy qism.	1. Auditoriyaning sanitariya holati, davomat, mavzu, uyga berilgan topshiriqlar aniqlanadi, guruh jurnali rasmiylashtiriladi;
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (70 minut)	<p>1. Savol-javob asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash</p> <p>2. Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash.</p> <p>3. Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimini aniqlash va baholash.</p> <p>4. Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimini baholash va mustahkamlash</p> <p>5. Mustaqil ish asosida talabalar bilimini tekshirish va baholash.</p> <p>6. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash</p> <p>7. Mavzuni yakunlash. 1. Tashkiliy qism.</p> <p>2. Savol-javob asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash</p> <p>3. Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash.</p> <p>4. Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimini aniqlash va baholash.</p> <p>5. Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimini baholash va mustahkamlash</p> <p>6. Mustaqil ish asosida talabalar bilimini tekshirish va baholash.</p> <p>7. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash</p>	<p>5) talabalar « Sinonimlar va ularning turlari. Antonimlar va ularning turlari. Paronimlar va ularning turlari » mavzusi yuzasidan 1-ilovada berilgan savollarga javob beradilar, munozarada ishtirok etadilar;</p> <p>6) talabalar « Sinonimlar va ularning turlari. Antonimlar va ularning turlari. Paronimlar va ularning turlari» mavzusi yuzasidan 2-ilovada berilgan mashqlarni bajaradilar, bir-birlarining javoblarini to'ldiradilar;</p> <p>7) talabalar « Sinonimlar va ularning turlari. Antonimlar va ularning turlari. Paronimlar va ularning turlari» mavzusi yuzasidan 3-ilovada berilgan namuna asosida o'z mustaqil ishlarini himoya qiladilar, munosarada ishtirok etadilar;</p> <p>8) talabalar « Sinonimlar va ularning turlari. Antonimlar va ularning turlari. Paronimlar va ularning turlari» mavzusi yuzasidan 4-ilovada berilgan blits savollariga javob beradilar;</p> <p>9) talabalar « Sinonimlar va ularning turlari. Antonimlar va ularning turlari. Paronimlar va ularning turlari» mavzusi yuzasidan 5-ilovada berilgan mustaqil ishni amalga oshiradilar; talabalar « Sinonimlar va ularning turlari. Antonimlar va ularning turlari. Paronimlar va ularning</p>

		turlari» mavzusi yuzasidan 6- ilovada berilgan test savollariga javob beradilar
3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (5 minut)	8.Mashg'ulotni yakunlash.	Mashg'ulot 7-ilovaga asosan yakunlanadi..

Darsningborishi

Tashkiliy qism: Auditoriyaning sanitariya holati, davomat, mavzu, uyga berilgan topshiriqlar aniqlanadi, guruh jurnali rasmiylashtiriladi. Mashg'ulot mazmuni, maqsadi va o'tkazilish tartibi tushuntiriladi.

Asosiy anglash bosqichi.

1-ilova .Talabalar bilimi quyidagi savollar asosida aniqlanib va mustahkamlanib baholanadi:

1. So'zning leksik ma'nosini tushuntirib bering.
2. So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari deganda nimani tushunasiz?
3. Cinonim so'zlar deganda qanday so'zlarni tushunasiz?
4. Sinonimik qator nima?
5. Cinonimlik xususiyati necha so'z turkumi doirasida amalga oshishi mumkin?
6. Leksik va frazeologik sinonimlarni misollar asosida tushuntirib bering.
7. Antonim so'zlar deganda nimani tushunasiz?
8. Morfologik antonimlarni tushuntirib bering
9. Paronimlar to'g'risida ma'lumot bering.
10. Paronimlarning turlarini tushuntirib bering.

Savol-javob jarayonida mavzu materiallarining izchilligi va uzviyligiga amal qilinadi, talabaning javobini ikkinchi bir talaba tomonidan to'ldirilishi uchun imkoniyat yaratib beriladi. Talabalar faolligini ta'minlash maqsadida har bir talabaning javobi o'z vaqtida belgilangan ballar asosida baholanib boriladi.

2-ilova.Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimni tekshirish va mustahkamlash.

81-mashq. O'qing. Sinonimlarni aniqlang, omonimlardan farqini ayting.

1. ...Keyin maskayog' surtib, likobchaga qo'ydi. (*R. Zahir.*) 2. U likobchadagi ustiga sariyog' surtilgan... ikki bo'lak nonni olib, yeya boshladi. (*R. Zahir.*) 3. Yoshlik — fundament. ...Poydevorni qiyshiq qo'ysang, imorat qulaydi. (*Mirm.*) 4. Borib onangni va ro'zg'orlaringni bu yerga oldirib kel. (*J. Zaydon.*) 5. Bo'lmasa farmoningizni validamga yetkazish uchun uyga borishga ijozat bersangiz. (*J. Zaydon.*) 6. Qo'shin orqada qolib ketgani uchun, Temur ilgari yurmay to'xtadi. (*S. B.*) 7. Bosqinchilarning askari tor tog' cho'lga kirib kelgan mahalda, yerli aholi bu joyni toshlar bilan himoya qilgan. (*S. B.*) 8. Bir sohib ikkala qo'li bilan yo'g'on asosiga tayanib o'tiribdi. (*R. Zahir.*) 9. O'ng qo'lida hassasini yerga tiq-tiq urgancha chiqib keldi. (*J. Zaydon.*) 10. Jamila dastgohiga kombinat gudok chalib turgan paytda yetib keldi. (*Mirm.*) 11. Stanok ustiga qo'ngan changni cho'tka bilan artidi. (*Mirm.*) 12. Begona yurtda, bolasi diydoridan uzoqda armon bilan ko'z yumdi. (*S.Ahm.*) 4. Tolibjon ko'p mashaqqatlarni birga kechirgan xotinini yot el tuprog'ida qoldirdi. (*S.Ahm.*) 14. Intiqom ol! — der edi. Har gunohsiz oqqan qon. O'ch ol! — derdi Maratga Har tong chiqqan zar quyosh. (*SH.*) 15. Bu qo'shiq bilmaydi nedir to'siq-g'ov. (*SH.*) 16. Olam yaralmishki, bandisan, osmon, Sukunat domiga o'tmishing asir. (*G. J.*) 17. Ana bedazor. ...Dilni yashnatgan yo'ng'ichqazor ham o'rib olinib, o'rni shudgor qilib qo'yilgan edi. (*S. Z.*)

82-mashq. Sinonim so'zlarni aniqlab, ma'no jilvasidagi farqni tushuntiring.

1. Saharlab turaman, qutlayman tongni, Bo'yningma osilar subh shamoli. (*Mirm.*) 2. Yel keltirar mayin bir ohang. Yana olib ketar nariga. (*Mirm.*) 3. Dalamizda salqin shabboda yeldi, Uxla, jonim bolam, allayo-alla. (*Mirm.*) 4. Martabador shaxslarni fuqaroga tez-tez

siyosat qilib, avom jilovini mahkam ushlab turishga undardi. (*Mirm.*) 5. Eldan qo'rqan qozi keyinchalik uni bo'shatib yubordi. (*Mirm.*) 6. Ulug' Gimnning yangroq ohangini Olib ketdi tungi sho'x sabo. (*Mirm.*) 7. Qovjiragan palaklarning u yer-bu yerida qolib ketgan sapchalardan uzib, chaylaga olib bordi. (*H. N.*) 8. Qani, bu hamaklarni chanqovbosdi qilib turaylik. (*H. N.*) 9. Sendan hech sirimni yashirmayman. (*A.Q.*) 10. ...Ammam boyaqishning o'g'lini dadam musofirlar, mardikorlar orasiga qo'shib qo'ydi. Dadamda sira insof yo'q. (*O.*) 11. Ba'zan uni o'qiyman oshkor, Ba'zan xufiya — g'oyatda pinhon. (*Mirm.*) 12. Siddiqjon bunga mutlaqo ishonmasa ham, Ro'zimatning ko'ngli uchun yoqasini ushladi. (*A. Q.*) 13. Endi u butunlay qo'rqmay ham qoldi. (*P. T.*) 14. Siz asti xavotir bo'lmang. (*Ya.*) 15. CHoy qog'ozga yozilib, to'rt buklangan xatni boy ochdi. (*O.*) 16. Maktubning bosh tomonini o'qiganda Homidning yuzida ko'rilgan shodlik o'zgarishlari... o'rini chuqur bir mulohaza olgandek bo'ldi. (*A. Qod.*) 11. Bu noma ertasi kun xonga yuboriladigan bo'lib, bunga maxsus kishi belgilandi. (*A. Qod.*)

83-mashq. Berilgan gaplardagi sinonim so'zlarni toping, ularni sinonimik qatorlarga guruhlab ko'chiring.

1. Tushida u brigada traktoriga minib, qabriston chekkasidan ariq o'tkazish niyatida go'ristonga yo'l olgan emish. (*O.Yo.*) **2. Uning chekiga Asaka ko'chasidagi dorixona tushdi.** (*S. An.*) **3. Hilol ko'ksin yer o'g'liga Yostiq etmish par.** (*E.V.*) **4. Munavvar... Asaka ko'chasidagi aptekaga qadam bosmay qo'ydi.** (*S. An.*) **Oy sukut aro, CHeksiz fazo og'ushida yer o'g'li uxlar.** (*E.V.*) **So'rar ekan fursat sarhisob, benaf o'tgan hayoting uchun vaqt oldida berursan javob.** (*E.V.*) **7. Biz ochgan xazina Vatanimizga arzirli tortiq bo'ladi, deb umid qilaman.** (*H.G'.*) **8. - SHaxmatni ham olib kelay-a? - dedi SHarifjon.** (*S. Kalm.*) **9. Dadam sizga ozgina sovg'a berib yubordilar.** (*H.G'.*) **10. Yemakni ko'proq g'amlam.** (*K. Moiseeva.*) **11. Juda yaxshi bo'ladi-da. Oshdan keyin achchiq-achchiq choy ichib, satranj suramiz.** (*S.Kalm.*) **12. Tirikchiligimiz avval qanday bo'lsa, hozir ham shunday.** (*O.*) **13. Aytmay siz ham, qo'shni.** (*H. G'.*) **14. Aytib ber-chi, qaysi qiz burun sevib bo'lgan umid bilan yor.** (*H.O.*) **15. Itni olib kelishga aqlimiz yetibdi-yu, xo'ragi to'g'risida o'ylamabmiz.** (*N.S.*) **16. Yelkangizni tuting bizga, hamsoya.** (*H.G'.*) **17. O'zimiz tolqon, turshak bilan zo'rg'a kun o'tkazib turgan kezimizda itga beradigan yemishimiz yo'q edi.** (*N.S.*)

84-mashq. Quyidagi so'zlarni asos(dominanta) qilib olib, sinonimik qatorlar tuzing va ularni A.Hojievning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"dan tekshirib ko'ring.

Aloqadar, anqov, baxt, vatan, dangasa, jirkanch, inoq, maosh, nom, uzoq, ozod, osmon, rohat, sassiq, soya, tabrik.

85-mashq. Quyidagi so'zlardan sinonimiya qatorlari tuzib yozing.

Egoist, bahs, sovg'a, tanqis, yashirin, g'alaba, hadya, o'g'rincha, tirriq, munozara, pinhon, tortiq, kamchil, tortishuv, armug'on, tahchil, xudbin, xufiya, zafar, g'irrom, tuhfa, maxfiy, betashvish, tanbal, naridan-beri, yesir, ma'ruza, yakka, ko'mak, yov, jussa, beg'am, apil-tapil, dangasa, zulm, yordam, dushman, guvoh, doklad, g'amsiz, beva, gavda, yalqov, yolg'iz, madad, g'anim, shohid, istibdod, qayg'usiz, shosha-pisha, ishyoqmas, tanho, ag'yor.

86-mashq. Ajrati ko'rsatilgan so'zlarning sinonimlarini toping.

1. Aspirantura yillari qishloqqa kelishning **sira** iloji bo'lmadi. (*S.Ahm.*) 2. Qorli cho'qqilardan olib keladigan bebosh toshqin suv to'lqinlarining **qaypallada** vujudga kelishidan juda kamdan-kam odam xabardor. (*K. Moiseeva.*) 3. Nodirov **likopchasini** qush go'shtlariga to'ldirib oldi. (*I. R.*) 4. **Tush** bo'lay deganda horib-charchab yetib keldik. (*M. Bobojev*) 5. To'piqqa urgan ko'm-ko'k **yo'ng'ichqa** o'rtasidan... yo'l tushgan. (*S. Z.*) 6. Ammo jiddiy manglay Ferdinand **Intiqomni** o'ylardi yomon. (*Mirm.*) 7. Bunda yo'lbarslar poylar, Kelar chanqoq **ohular.** (*Mirm.*)

87-mashq. Sinonim affikslarni aniqlang.

Ko'makchi — ko'makdosh; somsachi — somsapaz; adabiyotchi — adabiyotshunos; chorvachi — chorvador; suratchi — suratkash; xizmatchi — xizmatkor; sutli — sersut; serharakat — harakatchan; beg'ubor — g'uborsiz; sezgir — sezuvchan; bilag'on —

bilarmon; notinch — betinch; mardona — mardlarcha; tiriklay — tirikligicha, aybsiz — beayb.

88-mashq. Badiiy asarlardan sinonim soʻzlar qatnashgan 10 ta gap topib yozing.

89-mashq. Gaplar tarkibidan antonimlarni topib, ularning antonimlik xususiyatlarini tushuntiring.

1. ...U oʻziga kerakli odamlarni omon saqlab qoldi, keraksizlarni, aksincha, lagerga joʻnataverdi. (*Yu. Semyonov.*) 2. Qani, aytinglar-chi, oʻt bilan suv sherik boʻla oladimi? (*I. R.*) 3. Hazratov bundan tashida xursand boʻlsa ham, ichida xafa. (*I. R.*) 4. Tojixon dalada ham yigit, ham qiz boʻlib ishladi. (*Mirm.*) 5. Va lekin koʻzlarim oldida birdan, Ochdi poyoni yoʻq yaqin-yiroqni. (*Z.*) 6. Men qancha mahorat bilan yolgʻonni chin qilishga urinmay, Munira buni sezdi... (*U. N.*) 7. Erksiz oʻtgan bir yildan Ozod on yaxshi! (*SH.*) 8. Ikki tomon oʻrtasida beomon jang bormoqda, u yomonlik ila yaxshilikdir. (*Mirm.*) 9. “Obod shaharni xarob qilaylikmi yoki xarob shaharni obod qilaylikmi?” — debdi. (“*Gulpari*”). 10. Endi siz menga ogʻa, men esa sizga singil boʻlib qolibman. (“*Gulpari*”). 11. Zorimiz bor, zoʻrimiz yoʻq, joʻnashingiz mumkin. (*Mirm.*) 12. Istibdod oʻligu, Isteʼdod tirik. SHoh ijod tirigu SHahanshoh oʻlik. (*Z. O.*)

90-mashq. Antonimlarni aniqlang. Avval toʻla antonimlarni, soʻngra yarim antonimlarni koʻchiring.

1. Meva-chevaning hoʻlidan qurugʻi, qurugʻidan hoʻli koʻp. (*I. R.*) 2. U yosh-yalang, qari-qartang odamlarga koʻnikkan... (*SH. Toshmatov.*) 3. Suyunganimdan emas. kuyunganimdan aytyapman. (*S. Kalmikov.*) 4. Sevgan koʻngil shoh boʻlurmi va yoki gado, Bila olmadim. (*E. V.*) 5. U bilan Saodatxon necha yil birga yashadi, shodlikni ham, qaygʻuni ham birga totdi. (*S. Z.*) 6. SHu kuni kechqurun aka-uka ona oldida bu haqda yana gaplashishdi. (*Mirm.*) 7. SHoir, sizga ijozat yoʻq, kulolga bor! (*Mirm.*) 8. Koʻproq emas, kamroq yermiz. Hozir kulollik ham yomon emas. (*Mirm.*) 9. Nima, gʻunan boʻlib sakrab yursam sogʻu, mundoq yotsam kasalmi? (*Mirm.*) 10. Hoʻl tarashani qalab Pishirdi yogʻliq-yovgʻon. (*Mirm.*) 11. — Kecha yoz edi, bugun — qippa-qish! (*U. N.*) 12. Goh juda uzun, goh juda kalta kiyim kiyardi. (*R. Zahir.*) 13. Yeru koʻkni tutib ketgan xitoblar. Maguaning ovozi bosib yubordi. (*F. Kuper.*)

91-mashq. Oʻqing. Antonimlarni aniqlang; avval oʻzakdosh, soʻngra turli oʻzakli antonimlarni koʻchiring.

1. Aql turganda nechuk qurol-la gaplashmoqlik?! Nodonlar yoqalashar, donolar til topishar. (*Mirm.*) 2. Bunda yondosh shodlik va qaygʻu, Bunda yondosh visol va firoq. (*E. V.*) 3. Dadasheva haqli, Dadashev nohaq, — dedi Hazratov. (*I. R.*) 4. Kishi qahri toshni yorganday, mehri temirni eritadi. (*SHuhrat*) 5. Odamlarga pok koʻz bilan qarasang pok, nopok koʻz bilan qarasang nopok koʻrinadi. (*S. Z.*) 6. Laylakning ketishini emas, kelishini kutishadi. (*N. S.*) 7. Borar ikki yoʻlovchi — Biri — tong, Biri — oqshom. (*Mirm.*) 8. Rahbarxonning onasi... xursand-noxursandligi nomaʼlum vaziyatda oʻtirar edi. (*H. Nuʼmon, A. SHorahmedov.*) 9. “Salom, oʻgʻlim, kel”, — dedi. “Dushman emas, el”, — dedi. (*H. O.*) 10. Bor mening koʻzlarga koʻrinmas yoʻrgʻam, Kiftida goh shodman, gohida purgʻam. Bilolmam manzilim yaqinmi yiroq, yoʻrtadi uyqimu uygʻogʻimda ham. (*Z.O.*) 11. Uning gaplaridan bamaʼni va bemaʼni jihatlarini aql tarozisida sinchiklab tortdi. (*K. Moiseeva.*) 12. Daryo yuzi tinch oqar, Notinch boʻladi tubi. (*Mirm.*) 13. Oʻgʻil-qizlari davlatida birini yechib, birini kiyib yurgan kampirlarning ham uyda oʻtirishga yuzi chidamay qoldi. (*S. Z.*) 14. Ularning xotirasi turli-tuman ishlar bilan band boʻlib, darrov nozaruridan zarurini, keraksizidan kerakligini ajrata olmay qoldilar. (*S. B.*)

92-mashq. Quyidagi soʻzlarning antonimlarini toping.

Yogʻliq, sogʻlom, ogʻa, botirlik, mehnatkash, yosh-yalang, qaygʻu, ixtiyoriy, koʻpchilik, yiroq, samo, istiqbol, aziz, progressiv, issiq, qoʻy, yumshoq, dono, zahar, aqlli, koʻp, kirmoq, arzon, yashirin, toʻgʻri, past, quyi, ibtido.

93-mashq. Antonimlarni aniqlang. Ular ichidan juft soʻz hosil qilish mumkin boʻlganlarini ajratib yozing.

N a m u n a: oq-qora.

1. Toshkentdan komissiya kelarmish Oqni oqqa, qorani qoraga chiqaradigan komissiya. (*I. R.*) 2. Mushketyorlarning g'alabasi yoki mag'lubiyati ularga cheksiz quvonch baxsh etar yoki chinakam qayg'uga solardi. (*A. Dyuma.*) 3. Rais bo'lsa tun ham, kun ham o'yladi. (*S. Z.*) 4. Traktorchi bo'lsang to'g'ri ko'chani qo'yib, egrisiga burilganing nimasi? (*A. Muhiddin.*) 5. Endi kunduzlarigina emas, kechalari ham ne vaqtgacha dars tayyorlardim. (*N. S.*) 6. Pok dilni nopok qilmasin! (*A. Muhiddin.*) 7. Yovning tashida bo'lguncha ichida bo'l, degan gap bor. (*H. Nu'mon, A. SHorahmedov.*) 8. Ko'hna dunyo shu qadar qadimiyki, uning ibtidosiga ham, intihosiga ham yetib bo'lmaydi. (*H. Nu'mon, A. SHorahmedov.*) 9. Siz ko'ngil qo'ygan ayol dono yo befahm, sohibjamol yo xunuk, badavlat yo kambag'al bo'lsa ham, uning sizga baxsh eta oladigan yoki bundan sizni mahrum qila oladigan bitta narsasi bor: bu — uning yuragi. (*T. Drayzer.*) 10. CHarx tepayotgan akasi yoniga kelib... turdi. Ukasi ruhining pastligi Mirsaidga ham o'tdi. (*Mirm.*) 11. Gazlar... zo'r bosim kuchi bilan suyuq va quyuq holatda snaryadlarga joylanardi. (*N. T.*)

94- mashq. O'qing. Quyidagi bosh qismi berilgan maqollarning qolgan qismini topib to'ldiring, unda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning antonimi qatnashgan bo'lsin.

1. Erta ekan xirmon qilur, ... 2. Yaxshi do'st jon ozig'i, ... 3. Donoga ish shonu shuhrat, ... 4. Mard o'zar, ... 5. Aqlli o'zini ayblar, ... 6. Kishi yurtida shoh bo'lguncha, ... 7. Ko'z qo'rqqoq, ... 8. Ilmsiz bir yashar, ... 9. Kengga keng dunyo, ... 10. Egri ozadi, ...

95-mashq. Bosh qismi tushirib qoldirilgan maqollarni o'qing va mazmuniga qarab ularni to'ldiring. Berilgan qismdagi ajratib tagiga chizilgan so'zlarning antonimi to'ldirilgan qismda qatnashgan bo'lishiga e'tibor bering.

1. ... — qish xazinasini. 2. ..., arzon beillat bo'lmas. 3. ..., yo'q maqtansa chopilar. 4. ..., ishni ko'p ko'zla. 5. ... mehr bilgan yot yaxshi. 6. ..., ona ko'rgan to'n bichar. 7. ..., keyin so'yla. 8. ..., aql — do'st. 9. ..., nomard to'zar. 10. ... — sichqonning tirigi.

96- mashq. O'qing. Omonim so'zlar ishtirok etgan gaplarni ko'chirib, omonimlar tagiga chizing. Sinonim so'zlar ishtirok etgan gaplarni topib, shu so'zlardan sinonimiya qatorini tuzib yozing. Antonimlarning turini ayting.

1. Hech kimdan sado chiqmadi. Haligi ovoz chiqqan tomonda birpas ivir-shivir bo'ldi-da, tindi. (*H. Nu'mon, A. SHorahmedov*) 2. Sakkiz bo'lgach, kechqurun: «Mashqni yoz!» — deb urar zang. (*Q. H.*) 3. Ish — yoshlarga, osh — keksalarga! (*I. R.*) 4. Har qanday temir yoki po'latni zang chiritadi. (*N. S.*) 5. Surtib kiyikning qonin, Yugur der misli ohu. (*Z. O.*) 6. Mahmud... tok zanglarini taray boshlaydi. (*H. G'.*) 7. — Siz bu yerda sekretar bo'lib ishlaysizmi?—Ha, kotibimiz. (*S. Z.*) 8. Klara biri g'amgin va ikkinchisi quvnoq ikkita birmacha qo'shiqni besoz ijro etdi. (*N. T.*) 9. Ovni otsang bilib ot, Dol nishonga ilib ot! (*Mirm.*) 10. Ot halloslar, otning burnidan CHiqar edi bir samovar bug'. (*Mirm.*) 11. SHunisi qiziq ediki, ilgari bir-birlari bilan hech uchrashmagan bu kishilardan birining oti Hasan, boshqasining oti Husayn edi. (*S. B.*) 12. Ajoyib savollar, g'aroyib javoblar. (*SH. Toshmatov.*) 13. Bu kabi yolg'on-rost gaplar davom etardi. (*SH. Toshmatov.*) 14. Yov emasman, begona bo'ldim senga, Sen ham menga endi tamom bo'lding yot. (*H. O.*) 5. SHuning uchun o'ch olib, Bu ishini buzaman. (*H. O.*) 16. Qullarning qasosini Olurman deb ahd qilgan. (*H. O.*)

3-ilova.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimni aniqlanadi va baholanadi.

Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to'g'riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o'rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

Namuna: . Kishi qahri toshni yorganday, mehri temirni eritadi. (*SHuhrat*) Gapda qohri va mehri so'zlari o'zaro antonim so'zlar, ot antonimlar, gapda ega vazifasida kelyapti.

4-ilova.Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimni baholash va mustahkamlash

1	<i>Ma'nolari bir-biriga zid bo'lgan</i>			Sinonim,	antonim,
---	---	--	--	----------	----------

	<i>so'zlarga.....deyiladi.</i>			paronim, uyadosh so'zlar
2	<i>Qaysi qatorda sinonim so'zlar mavjud.</i>			Osmon
3	<i>So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari berilgan qatorni belgilang.</i>			Juftlik
4	<i>Leksik birliklar berilgan qatorni toping.</i>			Qoshiq, sanchqi,kosa
5	<i>Frazeologik sinonimlar berilgan qatorni toping</i>			Antonim so'zlar
6	<i>Osmon, samo, fazo, ko'k so'zlarining dominantasini toping.</i>			Bir turkum doirasida
7	<i>Paronim so'zining lug'aviy manosi nima?</i>			SHe'r-she'r, asr-asir
8	<i>Sinonim so'zlar o'zaro necha xil turkum doirasida mavjud bo'ladi</i>			Og'zi qulog'ida, do'ppisini osmonga otdi
9	<i>Uyadosh so'zlar qatorini toping</i>			So'z, ibora, tasviriy ifoda...
10	<i>Paronim so'zlar qatorini toping</i>			CHiroyli, go'zal, barno

Talabalar savollarga javoblarni belgilaganlaridan so'ng javoblar mavjud ikkinchi shakl namoyish etiladi va talabalar o'z xato va kamchiliklarini bilib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Blits savollari ifodalangan varaqlar talabalarga tarqatilishi yaxshi samara beradi.

Tekshirish uchun namuna

1	<i>Ma'nolari bir-biriga zid bo'lgan so'zlarga.....deyiladi.</i>		3	Sinonim, antonim, paronim, uyadosh so'zlar
2	<i>Qaysi qatorda sinonim so'zlar mavjud.</i>		6	Osmon
3	<i>So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari berilgan qatorni belgilang.</i>		7	Juftlik
4	<i>Leksik birliklar berilgan qatorni toping.</i>		9	Qoshiq, sanchqi,kosa
5	<i>Frazeologik sinonimlar berilgan qatorni toping</i>		1	Antonim so'zlar
6	<i>Osmon, samo, fazo, ko'k so'zlarining dominantasini toping.</i>		8	Bir turkum doirasida
7	<i>Paronim so'zining lug'aviy manosi nima?</i>		10	SHe'r-she'r, asr-asir
8	<i>Sinonim so'zlar o'zaro necha xil turkum doirasida mavjud bo'ladi</i>		5	Og'zi qulog'ida, do'ppisini osmonga otdi
9	<i>Uyadosh so'zlar qatorini toping</i>		4	So'z, ibora, tasviriy ifoda...
10	<i>Paronim so'zlar qatorini toping</i>		2	CHiroyli, go'zal, barno

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

**BOSHLANG`ICH VA MAKTABGACHA TA`LIM
USLUBIYOTI KAFEDRASI**

**Ona tili va adabiyot
fanining
adabiyot qismi bo`yicha**

MUSTAQIL TA`LIM

BUXORO-2018

**“Ona tili va bolalar adabiyoti” fanining “Bolalar adabiyoti” qismi bo`yicha
mustaqil ta`lim topshiriqlari (jami 72 soat)**

1. Yusuf xos Hojibning “Qutadg`u bilig” asari konspekti.
2. Kaykovusning “Qobusnoma” asari konspekti.
3. M.Qoshg`ariyning “Devoni lug`otit turk” asari mutolaasi.
4. “Avesto” kitobini o`qish va konspektlashtirish.
5. 1-2-sinflarga moljallangan O`qish kitobidagi badiiy, didaktik matnlar tahlili .
6. 3-4-sinf O`qish kitobidagi hikoya va she`rlar tahlili .
7. Sa`diyning “Guliston” va “Bo`ston” asari konspekti.
8. A.Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari konspekti va tahlili.
9. Farididdin Attorning “Ilohiynoma”, “Pandnoma” asarlari konspekti.
10. A.Jomiyning “Bahoriston” asari konspekti va tahlili .
11. “Qiz bola yoki Xolida”(S.Ayniy) – bolalar o`qishi uchun mo`ljallangan asar.

12. “Shaytanat” detektiv qissasini mutolaa qilish va unda jinoyatchilik olami tasviri haqida mushohada yuritish.
13. Oqiljon Husanov va Farhod Musajonov hikoyalari konspekti va tahlili .
14. T.Malikning “Alvido bolalik” qissasi tahlili
15. M.Osimning “Singan setor”, “Zulmat ichra nur” asarlari mutolaasi.
16. “Qasoskorning oltin boshi” (X.To`xtaboyev), “Dahshatli Meshpolvon” va “Meshpolvon janglari” (A.Obidjon) asarlari mutolaasi . Asarlardagi tarix va istuqlol munosabati ifodasiga e`tibor qaratish.
17. S.Jo`raning «Kimning xati chiroyli», «Mamatning kechirmishi» she`rlarida axloqiy-didaktik g`oyalar talqini.
18. Istiqlol g`oyalarining «Qirq savolga qirq javob» (M.A`zam) asarida yoritilishini tahlil qiling
19. Turg`unboy G`oyibovning nasriy-adabiy ertaklarida zamonaviy kashfiyotlar ifodasi
20. Po`lat Mo`minning “Qovoqvoy bilan Chanoqvoy” ertak pesasida zamon voqeligi ifodasi
21. K.Chukovskiyning “Ot dvux do pyati” asarini mutolaa va muhokama qilish
22. J.Rodarining “Grammatiki fantazii” asarini o`qish va gapirib berish.
23. A.S.Pushkin she`riy-adabiy ertaklarahaqida mulohaza yuritish.

24. J.Rodarining “Rim ertaklari” majmuasini mutolaa qilish.
25. G.X.Andersen ertaklarini o`qish va muhokama qilish .

“Ona tili va bolalar adabiyoti” fanining “bolalar adabiyoti” qismi bo`yicha o`rganish va yod aytib berishga mo`ljallangan janr namunalari

1. Sanama – 4 ta
2. Chorloma–2 ta
3. Tarqalmachoq–2 ta
4. Chandish–4 ta
5. Tegishmachoq–2 ta
6. O`yin qo`shiqalaridan–2 ta
7. Guldur –guplar–4ta
8. Tez aytish – 10 ta
9. Maqol–40 ta
10. Topishmoq –20 ta
11. Ertak– 6 ta
12. Ibn Sino ruboiylari va Ahmad Yassaviy hikmatlaridan aytish
13. A.Navoiyning ota-ona ta`rifida va “Sher bilan Durroj”, Hotami toy haqidagi hikoyatlarni so`zlab berish
14. Sh.Munisning “Savodi ta`lim”, A.Otinning “Yakka baytlar”idan aytish.
15. Uvaysiy chistonlaridan (8 ta) aytish.

16. A.Avloniy, S.Ayniy, Hamza va Elbekning maktab, axloq-odob haqidagi she`rlaridan namunalar aytish.
17. H.Olimjon, Oybek va G`.G`ulomning bolalar uchun yozgan she`rlaridan namunalar aytish .
18. Q.Muhammadiy, Sh.Sa`dulla, Q.Hikmat, P.Mo`min she`rlaridan 5 tadan yod aytish.
19. S.Barnoyev, M.A`zam, R.Tolib, T.Adashboyev, A.Obidjon she`rlaridan yod aytish.(jami 16 ta shoir she`ri)

“Ona tili va bolalar adabiyoti” fanining “bolalar adabiyoti” qismi bo`yicha mustaqil ta`lim topshiriqlari

№	Topshiriq shakli	Mavzu nomi	Mashg`ulot			Yuklama		O`qituvchi imzosi
			Sanasi	Vaati	Auditoriya	Rejalashtirilgan soat	M.T ball.	
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1.	Savol-javob	I. Kirish <i>Adabiyot (bolalar adabiyoti) fanining maqsad va vazifalari</i>				2	0,5	
2.	Ifodali aytish	<i>Bolalar kitobxonligi haqida.</i>				2	0,5	
3.	Savol-	<i>Bolalar folklori</i>				2	0,5	

	javob							
4.	Og`za ki	<i>Ertaklar. Adabiy ertaklar</i>				2	0,5	
5.	Yozma	III. O`zbek bolalar adabiyoti (umumiy tahlil) <i>O`zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi</i>				2	0,5	
6.	Og`za ki	Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi dostonlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid g’oyalar.				2	0,5	
7.	Ifodali aytish	Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibiga kirgan masallarda ilgari surilgan g’oyalar.				2	0,5	
8.	Ifodali aytish	A.Avloniyning pedagogik faoliyati. Yangi maktablar, o`quv jarayonlari, dars uslubi tashkil etishdagi faoliyati.				2	0,5	
9.	Ifodali aytish	“Turkiy guliston yoxud axloq” asarining ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati.				2	0,5	
10.	Ifodali aytish	H.H. Niyoziy ma’rifati. Uning ta’limda joriy etilgan o`qish kitoblari mohiyati.				2	0,5	
11.	Yozma	G’afur G’ulomning nasriy asarlari o`zbek bolalar adabiyotining ajoyib namunalarini sifatida.				2	1	
12.	Yozma	QuddusMuhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyatiShoirshehrlardagi musiqiylik.				2	1	
14.	Yozma	Zafar Diyorning hayoti va ijodi. Shukur Sa’dulla hayoti va ijodi.				2	1	
13.	Ifodali aytish	Sulton Jo’raning hayoti va ijodi. Hakim Nazirning hayoti va ijodi.				2	1	
14.	Og`za ki	Po`lat Mo`min va Quدرات Hikmat hayoti va ijodi.				2	1	
15.	Og`za ki	10.1 Xudoyberdi To`xtaboyev hayoti va ijodi. 10.2 “Sariq devni minib”, “Qasoskorning oltin boshi”, “Besh bolali yigitcha” asarlarining badiiy xususiatlari.				2	1	
16.	Og`za ki	Farhod Musajon hayoti va ijodi. M.Ahzam shehrlarida hayotga munosabat, ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy talqini.				2	1	
17.	Og`za ki	Tursunboy Adashboyev ijodida ona-tabiati va Vatan madhi. Qambar Ota yaratgan doston va doston-ertaklarda ilgari surilgan g’oyalar.				2	1	
18.	Og`za ki	Muhammad Ali yaratgan tarixiy romanlardagi bolalar obrazlari.				2	1	
19.	Og`za ki	Anvar Obidjon ijodi o`zbek bolalar adabiyotidagi yanigicha yo`nalish sifatida.				2	1	

20.	Og'zaki	Abusaid Ko'chimovning hayoti va ijodiy faoliyati.				2	1	
21.		Hamza Imonberdiyevning hayoti va ijodiy faoliyati. Abdurahmon Akbarning qofiyali nasr(saj') shaklidagi turkumidagi she'rlarning o'ziga xosligi.				2	1	
22.		Chet el bolalar adabiyotining umumiy tahlili. Sharl Perroning bolalar zavq oladigan ertaklariga xos xususiyatlar haqida.				2	1	
23.		Aka-uka Grimmlar yaratgan ertaklarda ilgari surilgan g'oyalar.				2	1	
24.		Xans Kristian Andersen asarlarida ilgari surilgan g'oyalar.				1	1	
25.		Aleksandr Sergeyevich Pushkin yaratgan ertak-dostonlarda ilgari surilgan g'oyalar. Nikolay Alekseyevich Nekrasov hayoti va ijodi.				2	1	
26.		Lev Nikolayevich Tolstoy tomonidan yaratilgan "Yangi alifbo" asari haqida. Korney Ivanovich Chukovskiy ertak-dostonlarida ilgari surilgan g'oyalar.				1	1	
27.		Samuil Yakovlevich Marshak asarlarining janr jihatdan rang-barangligi.				1	1	
		Jami:				50	25	

Bolalar adabiyoti fanidan mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan asarlar ro'yxati:

Jahon adabiyoti:

1. Jyul Vern "O'n besh yoshli kapitan" asari
2. Antuan de Ekzyuperi "Kichkina Shahzoda"
3. Paulo Koelo "Alkimyogar"
4. Chingiz Aytmatov "Oq kema"
5. Jahon xalq ertaklari
6. Jonatan Svift "Gulliverning sayohatlari"
7. Nodar Dumbadze "Hellados"
8. Daniel Defo "Robinzon Kruzo"
9. Mark Tven "Tom Soyerning sarguzashtlari"
10. Lyuis Kerrol "Alisa mo'jizalar mamlakatida"
11. Villi Maynk "Marko Poloning ajoyib va g'aroyib sarguzashtlari"
12. Agniya Barto she'rlari
13. Astrid Lindgren Mitti va tomida yashaydigan Karlson
14. Alan Aleksandr Miln "Vini Pux"
15. Ernest Xemenguey "Chol va dengiz" va boshqalar

O'zbek adabiyoti:

1. Go'ro'g'li turkumidagi dostonlar
2. Alpomish dostoni

3. O‘zbek xalq ertaklari
4. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”
5. Abdulla Qahhor “O‘tmishdan ertaklar”
6. G‘afur G‘ulom “Shum bola”
7. Mirkarim Osim “Zulmatdagi nur”
8. Asqad Muxtor “Chinor”
9. Oybek “Bolalik”
10. O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”
11. Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom”
12. Xudoyberdi To‘xtaboyev “Shirin qovunlar mamlakati”
13. Ulug‘bek Hamdam “Muvozanat”
14. Marhabo Karimova she‘riyati
15. Raim Farhodiy she‘riyati va boshqalar

Glossariy

Avtobiografik asar– (yun. Autos-o‘zim, bios–hayot, grafo–yozaman)–muallifning o‘z hayoti haqida izchil hikoya qilishiga asoslangan adabiy janr. Avtobiografik asar muallifi o‘z hayotini qaytadan yashab ko‘radi, uni bir butun sifatida idrok etishga intiladi. A.a.aksar hollarda mualliflarning ijodiy yetuklik pallalarida, umrlari nihoyasida yoziladi. (mas. Oybekning “Bolalik” qissasi.) U memuar, kundalik va sayohatnomalarga o‘xshab ketsa-da, ulardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, A. a. avtobiografik xarakterdagi asarlar hamda turli munosabatlar bilan yoziladigan tarjimayi hollardan tafovutlanadi.

Adabiyot – (ar. adab–go‘zal xulq) – keng ma‘noda, inson tafakkurining mahsuli o‘laroq dunyoga kelgan, o‘qish uchun mo‘ljallab yozilgan asarlar jami. Tor ma‘noda – so‘z san‘ati, badiiy adabiyot.

Adabiyotshunoslik–(ar. –adab, fors. tanish, o‘rganish)– badiiy adabiyotning kelib chiqishi, mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy aloqalarni o‘rganuvchi fan. A.ning obyekti bo‘lmish badiiy adabiyotga taalluqli ilmiy muammolar ko‘lami-predmeti juda keng.Zamonaviy A. fani uchta asosiy sohadan tashkil topadi:*adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid.* Uning matnshunoslik, manbashunoslik, bibliografiya singari yordamchi sohalari ham mavjud.

Allegoriya–(yun. allos-o‘zgacha, agoreuo- gapiraman)– 1) mavhum tushuncha yoki hodisani konkret narsa orqali ifodalashga asoslangan ko‘chim turi. Mas. tulki–ayyorlikni ifodalaydi.

Alliteratsiya– (lot.al- yonida, litera–harf) – she‘riy nutqda (nasrda nisbatan kam) bir xil undosh tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko‘rinishi. Mas. sochilgan sochingdek sochilsa siring (Cho‘lpon).

Annotatsiya– (lot. annotatio- izoh, sharh) – asar mazmunining qisqacha bayoni. Noshirlik amaliyotida kitoblarning ichki muqovasida, ilmiy maqolalarning sarlavhasidan keyin beriladi. A. asarning o‘ziga xos pasporti bo‘lib, u bilan umumiy tarzda tarzda tanishtiradi.

Antologiya– (yun. guldasta)– biror milliy adabiyot, davr, adabiy yo‘nalishga mansubligi jihatidan tanlangan ijodkorlar asarlaridan namunalarni jamlovchi to‘plam.

Aforizm –(yun. ta’rif, ixcham ifoda) – muallifi ma’lum bo’lgan, ixcham shaklda va ta’sirli ifoda etilgan umumlashma fikr.

Badiiy tahlil – (ar. tekshirish, hal qilish) – adabiy asarning mazmun mohiyatini idrok etish, uning yaxlit estetik hodisa sifatidagi mavjudligin turli aspektlarda o’rganib, o’ziga xosligini ochib berish va qimmatini belgilashga qaratilgan hissiy-intelektual faoliyat.

Badiiy to’qima – (ruscha kalka-xud.vim.)– yozuvchining ijodiy tasavvur va taxayyuli mahsuli, voqelikda real asosi yoki to’liq o’xshashi mavjud bo’lmagan badiiy obrazlar, hayotiy holatlar, voqealar yaratishda namoyon bo’luvchi bad. Ijodning muhim komponenti.

Band –she’rning ritmik ritmik – intonatsion va mazmuniy jihatdan nisbiy mustaqillikka ega bo’lagi.

Gimn –(yun. madhiya) –qadimgi yunon adabiyotida ilohlarni ulug’lash, maqtash uchun kuylangan qo’shiq. Mas. yunonlar Appolonna madh etgan. Keyinchalik tarixiy voqealar, qahramonlar madhetiluvchi tantanovar qo’shiqlar ham gimn deb yuritilgan.

Mazmunan dasturiy xarakterdagi she’r asosidagi tantanovar qo’shiq, muayyan ijtimoiy harakat, uyushma, davlat va shu kabilarning atributlaridan biri, madhiyasi.

Detektiv adabiyot– (yun. izquvar) –sarguzasht adabiyotining bir tarmog’I, sujeti asosida sirli jinoyatlarni ochish bilan bog’liq voqealar yotuvchi asarlarning umumiy nomi.

Didaktik adabiyot –(yun. o’rgatuvchi, ta’limiy) – muayyan ta’limiy, tarbiyaviy maqsadlarda yaratilgan adabiy asarlarning umumiy nomi. Mas. sa’diyning “Guliston” va “Bo’ston”, Kaykovusning “Qobusnoma” asari.

Improvizatsiya –(lot. kutilmagan, birdan)–badiiy ijodning alohida bir ko’rinishi bo’lib, bunda asar bevosita ijro jarayonida yaratiladi.

Interpretatsiya– (lot. tushuntirmoq) – talqin;adabiy asar mazmunini idrok qilish, uning mazmuni, badiiy konsepsiyasini anglash, tushunish.

Insenirovka– (lot. sahna) – aslida sahnaga mo’ljallab yozilmagan asarlarni (ko’proq, epic asarlarni) sahnalashtirish uchun qayta ishlash. I. sahnalashtirilishi mo’ljallangan asarning g’oyaviy-badiiy xususiyatlarini qayta yaratishni taqozo etadi.

Intonatsiya – (lot.-kuchli talaffuz etaman) – jonli nutqning ifodaviyligini ta’minlovchi asosiy omil, tipning fonetik vositalari (tovush toni, talaffuz tempi, tembr, pauzalar, melodika, mantiqiy va so’z urg’ulari) majmui. U estetik emotsional ta’sir o’tkazishda muhim ahamiyatga ega.

Remarka – (fr. - izoh) – dramatik asarlarda muallif tomonidan sahna voqeasining boshlanishi oldidan beriluvchi yoki uning kechishi davomida qavs ichida berib boriluvchi izohlar. Remarka parda yoki ko’rinish oldidan berilgan hollarda vopqea kechayotgan joy, vaqt, ishtirok etuvchilar va sh.k.lar haqidagi zarur ma’lumotlardan iborat bo’ladi.

Epigraf –(yun. – bitik.sarlavha) – asarning boshlanishida sarlavhadan keyinoq yoki uning bo’lim (bob.fasl)lari boshida keltiriluvchi qisqa, odatda, e’tiborli manbalardan (xalq ijodi, mashhur kishilarningpurhikmat so’zlari va sh.k) olingan ko’chirma, sitataning bir ko’rinishi.

ILOVALAR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

«Ro‘yxatga olindi»
BD-5111800-3.06

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim
vazirligi

2018-yil «___»_____

2018-yil «___»_____

ONA TILI VA BOLALAR ADABIYOTI

FANDASTURI

Bilim sohasi:	100000 –	Gumanitar
Ta‘lim sohasi:	110000 –	Pedagogika
Ta‘lim yo‘nalishi:	5111800 –	Maktabgacha ta‘lim

Toshkent – 2018

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil "___" _____dagi "___"-sonli buyrug'ining ___-ilovasi bilan fan dasturlari ro'yxati tasdiqlangan

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2016-yil «___» _____dagi ___-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lim muassasalari bilan kelishildi.

Tuzuvchilar:

Hamrayev M.A.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti
"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Pardayev B.O'.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Safarova R.

Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI katta ilmiy xodimi, pedagogika fanlari doktori, professor.

Jumaniyozov R.

Toshkent viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2016-yil «___» _____dagi ___-sonli majlis bayonnomasi).

KIRISH

Mazkur fan dasturi umumiy tilshunoslik fani haqida qisqacha ma'lumot, o'zbek tili leksikologiyasi, frazeologiyasi, leksikografiyasi, hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibi, fonetik tizimi, grafikasi, orfografiyasi, orfoepiyasi, grammatik qurilishi, morfologiyasi, sintaksisi, punktuatsiyasi, o'zbek tili uslublari, bolalar adbiyoti va bolalar folklori, maktabgacha, maktab va katta yoshdagi bolalar kitobxonligining o'ziga xos xususiyatlari, o'zbek va jahon bolalar adabiyoti haqidagi ma'lumotlarni qamrab olgan.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanning asosiy maqsadi - bo'lajak bog'cha tarbiyachilariga ona tilining fonetik xususiyatlari, talaffuz me'yorlari, lug'at (leksik) boyligi, imlo qoidalari va grammatik qurilishi yuzasidan nazariy bilim berish, bolalar adabiyoti va bolalar folklori, o'zbek va jahon bolalar adabiyoti haqida ma'lumot berish, talabalarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish va savodxonligini oshirish, takomillashtirish yuzasidan amaliy malaka hosil qilishdir.

Fanning vazifasi – ona tilining barcha bo'limlari yuzasidan talabalarga nazariy bilimlar berish va amaliyotda qo'llashga o'rgatish, ona tilining davlat tili maqomini olishi hamda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun materiallariga tayanish bilan bog'liq bo'lgan o'zgartishlarni yetkazish, o'zbek va jahon bolalar adabiyotining rivojlanish davrlarini tahlil qilish, jahon va o'zbek bolalar adabiyoti namoyandalarining ijodini o'rganish, o'zbek va jahon bolalar folklori namunalari o'rganish, maktabgacha, maktab va kata maktab yoshidagi bolalar kitobxonligining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.

Fan bo'yicha talabalarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Ona tili va adabiyoti fanini o'zlashtirish jarayonida

Bakalavr:

- ona tili va uning jamiyatda tutgan o'rni;
- ona tilining o'rganilish darajasi;
- tilshunoslik fanining boshqa fanlar tizimidagi o'rni;
- tilning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalar;
- tillarning taraqqiyoti;
- dunyo tillarining geneologik va morfologik tasnifi;
- tilshunoslikning sohalari: etimologiya, pragmatika, lingvopoetika, semasiologiya, matn lingvistikasi;
- fonetika va fonologiya;
- ona tilining unli va undosh tovushlar tizimi va ularning tasniflanishi;
- nutqning fonetik bo'linishi;
- urg'u va uning turlari;
- fonetik hodisalar;
- ona tili yozuvi tarixi va taraqqiyoti;
- imlo qoidalari;
- talaffuz me'yorlari;
- so'z ma'nolari va ularning o'zgarishi;
- so'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari;
- ona tili lug'at tarkibining ma'no jihatdan tavsiflanishi;
- lug'at tarkibidagi so'zlarning kelib chiqishi jihatidan tavsiflanishi;
- lug'at tarkibining ijtimoiy guruhlar tomonidan qo'llanishi jihatidan tavsiflanishi;

- lug‘at tarkibining faolligi yoki nofaolligi jihatidan tavsiflanishi;
- lug‘at tarkibining hissiy-ta‘siriy bo‘yoqdorligi jihatidan tavsiflanishi;
- lug‘at tarkibidagi ajralmas birikmalar – frazeologik birikmalarni ma’no va tarkib jihatdan tavsiflanishi;
 - leksikografiya, lug‘atlar va ularning turlari;
 - morfemika, morfema va uning turlari;
 - so‘z yasash usullari;
 - so‘zlarning tuzilish jihatdan turlari;
 - so‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari;
 - grammatik ma’no va grammatik shakl, ularning ifodalanish vositalari hamda usullari;
 - grammatik ma’noning lisoniy va pragmatik omillar vositasida ifodalanishi;
 - grammatik kategoriya va uni hosil qilish vositalari;
 - otning ta‘rifi va leksik-grammatik xususiyatlari
 - atoqli otlarning turlari;
 - turdosh otlarning turlari;
 - otlardagi son kategoriyasi;
 - otlarning aloqa-munosabat kategoriyalari;
 - otlarning nokategorial shakllari;
 - otlarning yasalishi;
 - otlarning tuzilish jihatdan turlari;
 - sifatning ta‘rifi va leksik-grammatik xususiyatlari;
 - sifatning ma’no jihatdan turlari;
 - sifatlardagi daraja kategoriyasi;
 - sifatning modal shakllari;
 - sifatning yasalishi;
 - sifatning tuzilish jihatdan turlari;
 - sonning ta‘rifi va leksik-grammatik xususiyatlari;
 - sonning ma’no jihatdan turlari;
 - sonning hisob so‘zlari bilan qo‘llanishi;
 - sonning ishlatilish jihatdan turlari;
 - sonning tuzilish jihatdan turlari;
 - olmoshning ta‘rifi va grammatik xususiyatlari;
 - olmoshning ma’no jihatdan turlari;
 - olmoshning ishlatilish jihatiga ko‘ra turlari;
 - olmoshning tuzilish jihatdan turlari;
 - fe‘lning ta‘rifi va leksik-grammatik xususiyatlari;
 - fe‘llarning ma’no turlari;
 - bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llar;
 - o‘timli va o‘timsiz fe‘llar;
 - fe‘llarning nisbat kategoriyasi;
 - fe‘llarning mayl kategoriyasi;
 - fe‘llarning zamon kategoriyasi;
 - fe‘llarning shaxs-son kategoriyasi;
 - fe‘llarning nokategorial shakllari;
 - fe‘llarning vazifa shakllari: ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi;
 - fe‘llarning yasalishi;
 - fe‘llarning tuzilish jihatdan turlari;
 - ravishning ta‘rifi va leksik-grammatik xususiyatlari;
 - ravishning ma’no turlari;
 - ravishning yasalishi;
 - ravishning tuzilish jihatdan turlari;
 - yordamchi so‘z turkumlarining ta‘rifi, turlari va grammatik xususiyatlari;

- alohida olingan soʻz turkumlarining taʼrifi, turlari va leksik-grammatik xususiyatlari;
- sintaksis va uning predmeti;
- sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar;
- soʻz birikmasi sintaksisi;
- gap sintaksisi;
- gaplarning ifoda maqsadiga koʻra turlari;
- gaplarning his-hayajon ifodalashiga koʻra turlari;
- gaplarning tasdiq-inkor ifodalashiga koʻra turlari;
- gaplarning tuzilish jihatdan turlari;
- sodda gaplarning turlari;
- murakkablashgan sodda gaplar;
- qoʻshma gaplarning turlari;
- matn sintaksisi;
- ona tili ishorat qoidalari;
- nutq uslublari va uslubiyat turlari;
- bolalar adabiyoti fanining predmeti va vazifalari;
- jahon bolalar adabiyotining tavsifi;
- folklorning oʻziga xos xususiyatlari;
- bolalar adabiyotining oʻziga xos xususiyatlari
- bolalar adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodi **haqida bilimga ega boʻlishikerak.**
- ona tilining strukturasi va sistemasini farqlay olish;
- ona tili fonetik tizimi va grafikasini taʼriflay olish;
- ona tili lugʻat tarkibini tahlil qila olish;
- ona tili frazeologiyasi va leksikografiyasiga taʼrif bera olish;
- ona tili morfemik tizimini tahlil qilish;
- ona tili soʻz yasash tizimini tahlil qilish;
- ona tili soʻz turkumlari tizimini tahlil qilish;
- ona tili sintaktik qurilishini farqlay olish;
- ona tili talaffuz, imlo va ishorat qoidalarini bayon qilish;
- bolalar adabiyoti fanining maqsad va vazifalarini farqlay olish;
- maktabgacha, maktab, oʻrta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligining oʻziga xos xususiyatlarini farqlay olish;
- bolalar folklori haqida hikoya qilish;
- oʻzbek va jahon bolalar adabiyoti durdonalari haqida hikoya qilish va insho yozish **koʻnikmalariga ega boʻlishikerak;**
- ona tilining jamiyatdagi rolini tushuntira bilish;
- ona tilining oʻrganilish darajasini bayon qila olish;
- tilning ijtimoiy mohiyatini tushuntira bilish;
- tilning paydo boʻlishi haqidagi nazariyalarni bayon qila bilish;
- ona tilining tovush tizimini tahlil qila olish;
- ona tili imlo va ishorat qoidalarini bayon qila bilish;
- ona tili lugʻat boyligining oʻziga xos tomonlarini bayon qila olish;
- ona tili frazeologiyasi va leksikografiyasi haqida maʼlumot bera olish;
- ona tili morfem va soʻz yasash tizimi haqida maʼlumot bera olish;
- ona tili grammatik qurilishini tahlil qila bilish;
- bolalar adabiyoti fanining maqsad hamda vazifalarini bayon qila olish;
- turli yoshdagi bolalar kitobxonligi haqida maʼlumot bera olish;
- bolalar folklori namunalari haqida maʼlumot bera olish;
- jahon va oʻzbek bolalar adabiyoti namunalari haqida oʻziga xos tomonlarini tushuntira bilish **malakalariga ega boʻlishikerak.**
- ona tilining fonetika bolimi boʻyicha olingan bilim, koʻnikma va malakalarni turli vaziyatlarda qoʻllay olish;

- ona tili imlo va ishorat qoidalari haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay bilish;
- ona tili lug‘at boyligining o‘ziga xos tomonlari bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni turli vaziyatlarda qo‘llay bilish;
- ona tili frazeologiyasi va leksikografiyasi haqida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni muammoli vaziyatlarda qo‘llay bilish;
- ona tili morfem va so‘z yasalish tizimi haqida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni muammoli vaziyatlarda qo‘llay bilish;
- ona tili grammatik qurilishi haqida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni muammoli vaziyatlarda qo‘llay bilish; tahlil qila bilish;
- bolalar adabiyoti fanining maqsad hamda vazifalarini haqida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay bilish;;
- turli yoshdagi bolalar kitobxonligi haqida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay bilish;;
- bolalar folklori namunalari haqida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni turli vaziyatlarda qo‘llay bilish;;
- jahon va o‘zbek bolalar adabiyoti namunalari haqida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni turli vaziyatlarda qo‘llay bilish *kompetensiyalariga ega bo‘lish kerak.*

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bo‘g‘liqligi, uslubiy jihatdan uzviyligi va ketma-ketligi

“Ona tili va bolalar adabiyoti” fanini chuqur o‘rganish uchun falsafa, tarix, etnografiya, adabiyotshunoslik fanlaridan xabardor bo‘lish talab etiladi. Tilning rivojlanish tarixi millat tarixi bilan chambarchas bo‘g‘liqdir. Jamiyat, xalq tarixida yuz bergan o‘zgarishlar tilning lug‘at boyligida aks etadi, badiiy adabiyotda o‘z ifodasini topadi.

Badiiy adabiyot adabiy tilni yangiliklar bilan boyitish uchun juda katta ahamiyatga egadir, shuning uchun talabalarni til muammolarini hal qilishda badiiy adabiyotga tayanishga o‘rgatish lozim.

Fanning ta‘limdagi o‘rni

“Ona tili va bolalar adabiyoti” fanining amaliy ahamiyati quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- har bir inson, ayniqsa, ziyoli inson o‘z ona tilisining imkoniyatlaridan mumkin qadar unumli foydalana bilishi kerak;
- ona tili har bir millatni millat sifatida farqlantiradigan, shakllantiradigan buyuk ne‘mat ekanligini tushunishimiz kerak;
- ona tili fani milliy til va uning tarkibiga kiruvchi adabiy tilning an‘anaviy vazifalaridan tashqari, komputering lingvistikasining keng imkoniyatlarini hayotga tatbiq etishda katta rol o‘ynaydi;
- bolalar adabiyoti ming yillar davomida dunyo xalqlari tomonidan yaratilgan so‘z san‘ati durdonalari bilan o‘quvchilarni tanishtiradi;
- o‘zbek milliy bolalar yozuvchilarining ijod namunalari bahramand qilish uchun xizmat qiladi.

Fanni o‘qitishda qo‘llanadigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“Ona tili va bolalar adabiyoti” fanini puxta o‘rgatish maqsadida o‘qituvchning dars jarayonida slaydlar, proyektorkabi zamonavaiy texnologik vositalardan mohirona foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Texnik vositalar talabalarga o‘qitilayotgan fanning

mohiyatini chuqur anglashga imkon beradi, mashg'ulotning qiziqarliroq bo'lishiga, o'tilgan mavzuni eslab qolishga, vaqtni tejab qolishga yordam beradi.

ASOSIY QISM

“Ona tili va bolalar adabiyoti” fanining “Ona tili” qismi nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Kirish.

Umumiy tilshunoslikdan ma'lumot 2

Tilshunoslik fani, uning o'rganish obyekti va turlari; tilning paydo bo'lishi; tilning ijtimoiy hodisa ekanligi; til va tafakkur; til va nutq; o'zbek tili – O'zbekiston Respublikasining davlat tili; tilning tuzilishi va tizim sifatidagi usuliyatlari; til taraqqiy qilib, o'zgarib boruvchi hodisa; milliy til va adabiy til; dunyo tillari va ularning tasnifi; tilshunoslikning sohalari; tilning paydo bo'lishi, tillarning taraqqiyoti, Tillarning tasnifi.

FONETIKA

Fonetika va uning turlari; fonetik birliklar va ularning turlari; nutq apparati; fonetik akustika; nutq tovushlarining artikulyatsiyasi; fonologiya haqida; tovush va fonema; fonemalarning turlari; o'zbek adabiy tili unli fonemalari va ularning tasnifi; ayrim unli fonemalar tavsifi; o'zbek tili undosh fonemalari va ularning tasnifi; undosh fonemalar tavsifi; qo'sh tovushlar va ularning qo'llanilishi; 2 fonemalarning o'zgarishi; transkripsiya; nutqning fonetik bo'linishi; urg'u va uning turlari; fonetik hodisalar; ohang; orfoepiya; grafika; yozuvning turlari; o'zbek yozuvi tarixidan; orfografiya va uning tamoyillari; o'zbek tilining asosiy imlo qoidalari; 2

LESIKLOGIYA

Leksikologiya, uning o'rganish obyekti, vazifalari; o'zbek tili lug'at tarkibining ma'no jihatidan tavsifi; so'z va leksema munosabati; leksemaning ifoda va mazmun tomoni; lug'aviy ma'no va uning tarkibiy qismlari; leksemalarda bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik; lug'aviy ma'noning turlari; lug'aviy ma'no taraqqiyoti yo'llari; 2 leksemalarning shakliy munosabatlariga ko'ra turlari; lug'at tarkibidagi so'zlarning kelib chiqishi jihatidan tavsiflanishi; o'zbek tili leksikasida o'z va o'zlashgan qatlam; lug'at tarkibining ijtimoiy guruhlar tomonidan qo'llanishi jihatidan tavsiflanishi; qo'llanish doirasi chegaralanmagan leksika (so'zlar); qo'llanish doirasi chegaralangan leksika (so'zlar); 2 lug'at tarkibining faolligi yoki nafaolligi jihatidan tavsiflanishi; tarixiy jihatdan o'zbek tili leksikasi; o'zbek tili leksikasining boyish manbalari; lug'at tarkibining hissiy-ta'siriy bo'yoqdorligi jihatidan tavsiflanishi; lug'at tarkibidagi ajralmas birikmalar frazeologik birikmalarni ma'no va tarkib jihatidan tavsiflanishi; frazeologiya; tasviriy ifoda (parafraza); leksikografiya, lug'atlar va ularning turlari; 2

MORFEMIKA. SO‘Z YASALISHI

Morfemika, morfema va uning turlari;so‘z yasalish usullari;so‘zlarning tuzilish jihatdan turlari;2

GRAMMATIKA. MORFOLOGIYA

Grammatika; so‘z shakl va grammatik ma‘no; grammatik ma‘noni ifodalash vosita va usullari; so‘zning grammatik shakli grammatik kategoriya va uni hosil qilish vositalari; so‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari.2

Otning ta‘rifi va leksik-grammatik xususiyatlari; otlarning ma‘no turlari; otlardagi son kategoriyasi;otlarning aloqa-munosabat kategoriyalari;otlarning nokategorial shakllari;otlarning yasalishi; otlarda modal shakl yasalishi otlarning tuzilish jihatdan turlari.2

Sifatning ta‘rifi va leksik-grammatik xususiyatlari; sifatlarning ma‘no jihatdan turlari; sifatlardagi daraja kategoriyasi; sifatlarning modal shakllari;sifatlarning yasalishi; sifatlarning tuzilish jihatdan turlari.2

Sonning ta‘rifi va leksik-grammatik xususiyatlari; sonlarning ma‘no jihatdan turlari; sonlarning hisob so‘zlari bilan qo‘llanishi; sonlarning ishlatilish jihatdan turlari; sonlarning tuzilish jihatdan turlari.2

Olmoshning ta‘rifi va grammatik xususiyatlari; olmoshlarning ma‘no jihatdan turlari; olmoshlarning ishlatilish jihatiga ko‘ra turlari; olmoshlarning tuzilish jihatdan turlari. 2

Fe‘lning ta‘rifi va leksik-grammatik xususiyatlari; fe‘llarning ma‘no turlari; bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llar; o‘timli va o‘timsiz fe‘llar; fe‘llarning nisbat kategoriyasi; fe‘llarning mayl kategoriyasi; 2fe‘llarning zamon kategoriyasi; fe‘llarning shaxs-son kategoriyasi; fe‘llarning nokategorial shakllari; fe‘llarning vazifa shakllari: ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi; fe‘llarning yasalishi; fe‘llarning tuzilish jihatdan turlari.2

Ravishning ta‘rifi va leksik-grammatik xususiyatlari; ravishlarning ma‘no turlari; ravishlarning yasalishi; ravishlarning tuzilish jihatdan turlari; 2

Yordamchi so‘z turkumlarining ta‘rifi, turlari va grammatik xususiyatlari; Alohida olingan so‘z turkumlarining ta‘rifi, turlari va leksik-grammatik xususiyatlari; sintaksis va uning predmeti.2

SINTAKSIS VA PUNKTUATSIYA

Sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar;so‘z birikmasi sintaksisi;2gap sintaksisi;gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari; gaplarning his-hayajon ifodalashiga ko‘ra turlari; gaplarning tasdiq-inkor ifodalashiga ko‘ra turlari. 2 Gaplarning tuzilish jihatdan turlari; sodda gaplarning turlari; murakkablashgan sodda gaplar; 2qo‘shma gaplarning turlari; matn sintaksisi; ona tili ishorat qoidalari; nutq uslublari va uslubiyat turlari.2

“Ona tili va bolalar adabiyoti” fanining “Bolalar adabiyot” qismi nazariy mashg‘ulotlari mazmuni

I. Kirish

- 1.1 Adabiyot (bolalar adabiyoti) fanining maqsad va vazifalari. 2
- 1.2 Bolalar kitobxonligi haqida.2

II. Bolalar folklori

- 2.1 Bolalar adabiyoti va bolalar folklorining mumtoz adabiyot namunalari bilan bog'liqligi.
- 2.2 Qo'shiqlar.
- 2.3 Maqollar.2
- 2.4 Topishmoqlar.
- 2.5 Masallar.
- 2.6 Tez aytishlar.
- 2.7 Ertaklar. Adabiy ertaklar.2

III. O'zbek bolalar adabiyoti (umumiy tahlil) 2

- 3.1 O'zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi.
- 3.2 O'tgan asrning 30-40 –yillaridagi o'zbek bolalar adabiyoti.
- 3.3 Hozirgi davrdagi o'zbek bolalar adabiyoti.

IV. Alisher Navoiy va Gulxaniy ijodi

- 4.1 Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi dostonlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalar.
- 4.2 Alisher Navoiyning pand-nasihat mazmunidagi asarlarida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy qarashlar.2
- 4.3 Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibiga kirgan masallarda ilgari surilgan g'oyalar.2

V. Abdulla Avloniy va Hamza ijodi 2

- 5.1 A.Avloniyning pedagogik faoliyati. Yangi maktablar, o'quv jarayonlari, dars uslubi tashkil etishdagi faoliyati.
- 5.2 “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati.
- 5.3 H.H. Niyoziy ma'rifati. Uning ta'limda joriy etilgan o'qish kitoblari mohiyati. 5.4 Hamza qalamiga mansub “Gul” turkumiga kiruvchi to'plamlarining badiiy ahamiyati.

VI. G'afur G'ulom va Quddus Muhammadiy ijodi

- 6.1 G'afur G'ulomning bolalar uchun yozilgan she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar.
- 6.2 G'afur G'ulomning nasriy asarlari o'zbek bolalar adabiyotining ajoyib namunalari sifatida.
- 6.3 G'afur G'ulomning ikkinchi jahon urushi davridagi ijodi.2
- 6.4 Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati.
- 6.5 Shoir shehrlardagi musiqiylik.
- 6.6 Q.Muhammadiy she'riyatida tabiatga munosabat; poetik obrazning o'rni hamda ahamiyati. 2

VII. Zafar Diyor va Shukur Sa'dulla ijodi 2

- 7.1 Zafar Diyorning hayoti va ijodi.
- 7.2 Zafar Diyorning “Mashinist” dostonida ilgari surilgan g'oyalar.
- 7.3 Zafar Diyorning she'riy asarlarida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning ifodalanishi.
- 7.4 Shukur Sa'dulla hayoti va ijodi.
- 7.5 Sh.Sahdulla ijodida hayotiy voqealarning haqqoniy badiiy tasviri, janr rang-barangligi va badiiy xususiyatlari, obrazlar talqini, tarbiyaviyligi, hayotiyliigi.2

VIII. Sulton Jo‘ra va Hakim Nazir ijodi 2

- 8.1 Sulton Jo‘raning hayoti va ijodi.
- 8.2 Shoirning ilmiy-ommabop mavzulardagi she‘rlarida ifodalangan g‘oyalar haqida.
- 8.3 Sulton Jo‘raning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlari tahlili.
- 8.4 Hakim Nazirning hayoti va ijodi.
- 8.5 Hakim Nazirning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan asarlariga xos xususiyatlar.
- 8.6 Hakim Nazirning mehnat, odob-axloq, vatanparvarlik mavzulariga bag‘ishlangan asarlarining ahamiyati haqida.

IX. Po‘lat Mo‘min va Qudrat Hikmatijodi 2

- 9.1 Po‘lat Mo‘minning hayoti va ijodi.
- 9.1 Po‘lat Mo‘min ijodida odob-axloq mavzusi.
- 9.3 Po‘lat Mo‘min – qo‘shiqchi shoir.
- 9.4 Qudrat Hikmatning hayoti va ijodi.
- 9.5 Qudrat Hikmatning tinchlik va baxtli bolalik haqidagi she‘rlarining o‘ziga xos xususiyatlari.
- 9.6 Qudrat Hikmat dostonlarida ilgari surilgan g‘oyalar.

X. Xudoyberdi To‘xtaboev va Farhod Musajon ijodi2

- 10.1 Xudoyberdi To‘xtaboyev hayoti va ijodi.
- 10.2 “Sariq devni minib”, “Qasoskorning oltin boshi”, “Besh bolali yigitcha” asarlarining badiiy xususiyatlari.
- 10.3 Farhod Musajon hayoti va ijodi.
- 10.4 Farhod Musajonning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan hikoyalarida ilgari surilgan g‘oyalar.
- 10.5 Farhod Musajon - dramaturg adib.

XI. Miraziz A‘zam va Tursunboy Adashboyev ijodi

- 11.1 Miraziz A‘zamning hayoti va ijodiy faoliyati.
- 11.2 M.Ahzam shehrlarida hayotga munosabat, ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy talqini.
- 11.3 Adib dramalarining maktab sahnasidagi ahamiyati.2
- 11.4 Tursunboy Adashboyev ijodida ona-tabiat va Vatan madhi.
- 11.5 T.Adashboyevning so‘nggi yillardagi ijodiy faoliyati.
- 11.6 Shoirning ona-tabiat va Vatan mavzusidagi she‘rlari badiiyati. 2

XII. Qambar Ota va Muhammad Ali ijodi 2

- 12.1 Qambar Otaning hayoti va ijodiy faoliyati.
- 12.2 Qambar Otaning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan she‘rlarining mavzu doirasi.
- 12.3 Qambar Ota yaratgan doston va doston-ertaklarda ilgari surilgan g‘oyalar.
- 12.4 Muhammad Ali yaratgan tarixiy romanlardagi bolalar obrazlari.
- 12.5 Muhammad Alining ona-tabiat tasviri chizilgan asarlari.
- 12.6 Muhammad Alining xalq afsonalari asosida yaratgan asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar.
- 12.7 Muhammad Alining temuriylarga bag‘ishlab yozilgan romanlari haqida.

XIII. Anvar Obidjon va Abusaid Ko‘chimov ijodi

- 13.1 Anvar Obidjon ijodi o‘zbek bolalar adabiyotidagi yanigicha yo‘nalish sifatida.
- 13.2 Anvar Obidjon she‘rlarida kitobxon ongiga ta‘sir qilish emas, qalbiga yo‘l topishga bo‘lgan urinishlar.
- 13.3 Anvar Obidjonning “Sen eshitmagan qo‘shiqlar” turkumi – o‘quvchilarning eng sevimli to‘plami.
- 13.4 Anvar Obidjon – ustozlar e‘tirofida.2
- 13.5 Abusaid Ko‘chimovning hayoti va ijodiy faoliyati.
- 13.6 Abusaid Ko‘chimovning kichkintoylarga bag‘ishlangan she‘rlarida ilgari surilgan g‘oyalar.
- 13.7 Abusaid Ko‘chimov ertak va dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.2

XIV. Hamza Imonberdiyev va Abdurahmon Akbarning ijodi 2

- 14.1 Hamza Imonberdiyevning hayoti va ijodiy faoliyati.
- 14.2 Hamza Imonberdiyev asarlarining mavzu doirasi.
- 14.3 Hamza Imonberdiyevning “Adolat kaliti” ertagida ilgari surilgan g‘oyalar.
- 14.4 Abdurahmon Akbar ijodidagi rang-baranglik.
- 14.5 Abdurahmon Akbarning qofiyali nasr(saj‘) shaklidagi turkumidagi she‘rlarning o‘ziga xosligi.
- 14.6 Abdurahmon Akbarning Vatan, tabiat va bolalar o‘yinlari haqidagi she‘rlari haqida.
- 14.7 Abdurahmon Akbarning alifbo shehrlari haqida.

XV. Chet el bolalar adabiyoti 2

- 15.1 Chet el bolalar adabiyotining umumiy tahlili.
- 15.2 Charl Perroning bolalar zavq oladigan ertaklariga xos xususiyatlar haqida.
- 15.3 Aka-uka Grimmlar yaratgan ertaklarda ilgari surilgan g‘oyalar.
- 15.4 Aka-uka Grimmlar yozgan ertaklarda ulug‘langan yoki qoralangan fazilatlar va xislatlar haqida.
- 15.5 Xans Kristian Andersen ijodining ko‘p qirrali va rang-barang ekanligi.
- 15.6 Xans Kristian Andersen asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar.

XVI. Rus yozuvchilarining bolalarga atab yozgan asarlari 2

- 16.1 Aleksandr Sergeyevich Pushkin yaratgan ertak-dostonlarda ilgari surilgan g‘oyalar.
- 16.2 Nikolay Alekseyevich Nekrasov hayoti va ijodi.
- 16.3 Nikolay Alekseyevich Nekrasovning bolalarga atab yaratgan asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari.

XVII. Rus yozuvchilarining bolalarga atab yozgan asarlari(davomi) 2

- 17.1 Lev Nikolayevich Tolstoy tomonidan yaratilgan “Yangi alifbo” asari haqida.
- 17.2 Lev Nikolayevich Tolstoyning “Mo‘ysafid olma ekdi” hikoyasida ilgari surilgan g‘oyalar haqida.
- 17.3 Korney Ivanovich Chukovskiy ertak-dostonlarida ilgari surilgan g‘oyalar.
- 17.4 Samuil Yakovlevich Marshak asarlarining janr jihatdan rang-barangligi.
- 17.5 Samuil Yakovlevich Marshak asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar. Jami 50

“Ona tili va bolalar adabiyoti” fanining “Ona tili” qismi amaliy mashg‘ulotlari mazmuni

Tilshunoslik fani, uning o‘rganish obyekti va turlari; tilning paydo bo‘lishi; tilning ijtimoiy hodisa ekanligi; til va tafakkur; til va nutq; o‘zbek tili – O‘zbekiston Respublikasining davlat tili; tilning tuzilishi va tizim sifatidagi usuliyatlari; til taraqqiy qilib, o‘zgarib boruvchi hodisa; milliy til va adabiy til; dunyo tillari va ularning tasnifi; tilshunoslikning sohalari; tilning paydo bo‘lishi, tillarning taraqqiyoti, tillarning tasnifi bo‘yicha savol-javob, mashqlar, test topshiriqlarini bajarish va lisoniy tahlil qoliqlarini to‘ldirish.

FONETIKA

Fonetika va uning turlari; fonetik birliklar va ularning turlari; nutq apparati; fonetik akustika; nutq tovushlarining artikulyatsiyasi; fonologiya; tovush va fonema; fonemalarning turlari; o‘zbek adabiy tili unli fonemalari va ularning tasnifi; ayrim unli fonemalar tavsifi; o‘zbek tili undosh fonemalari va ularning tasnifi; undosh fonemalar tavsifi; qo‘sh tovushlar va ularning qo‘llanilishi; fonemalarning o‘zgarishi; transkripsiya; nutqning fonetik bo‘linishi; urg‘u va uning turlari; fonetik hodisalar; ohang; orfoepiya; grafika; yozuvning turlari; o‘zbek yozuvi tarixidan; orfografiya va uning tamoyillari; o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari bo‘yicha savol-javob, mashqlar, test topshiriqlarini bajarish va lisoniy tahlil qoliqlarini to‘ldirish.;

LESIKLOGIYA

Leksikologiya, uning o‘rganish obyekti, vazifalari; o‘zbek tili lug‘at tarkibining ma’no jihatidan tavsifi; so‘z va leksema munosabati; leksemaning ifoda va mazmun tomoni; lug‘aviy ma’no va uning tarkibiy qismlari; leksemalarda bir ma’nolilik va ko‘p ma’nolilik; lug‘aviy ma’noning turlari; lug‘aviy ma’no taraqqiyoti yo‘llari; leksemalarning shakli munosabatlariga ko‘ra turlari; lug‘at tarkibidagi so‘zlarning kelib chiqishi jihatidan tavsiflanishi; o‘zbek tili leksikasida o‘z va o‘zlashgan qatlam; lug‘at tarkibining ijtimoiy guruhlar tomonidan qo‘llanilishi jihatidan tavsiflanishi; qo‘llanish doirasi chegaralanmagan leksika (so‘zlar); qo‘llanish doirasi chegaralangan leksika (so‘zlar); lug‘at tarkibining faolligi yoki nafaolligi jihatidan tavsiflanishi; tarixiy jihatdan o‘zbek tili leksikasi; o‘zbek tili leksikasining boyish manbalari; lug‘at tarkibining hissiy-ta’siriy bo‘yoqdorligi jihatidan tavsiflanishi; lug‘at tarkibidagi ajralmas birikmalar frazeologik birikmalarni ma’no va tarkib jihatidan tavsiflanishi; frazeologiya; tasviriy ifoda (parafraza); leksikografiya, lug‘atlar va ularning turlari bo‘yicha savol-javob, mashqlar, test topshiriqlarini bajarish va lisoniy tahlil qoliqlarini to‘ldirish.;

MORFEMIKA. SO‘Z YASALISHI

Morfemika, morfema va uning turlari; so‘z yasaliş usullari; so‘zlarning tuzilish jihatidan turlari bo‘yicha savol-javob, mashqlar, test topshiriqlarini bajarish va lisoniy tahlil qoliqlarini to‘ldirish.

GRAMMATIKA. MORFOLOGIYA

Grammatika; so‘z shakl va grammatik ma’no; grammatik ma’noni ifodalash vosita va usullari; so‘zning grammatik shakli grammatik kategoriya va uni hosil qilish vositalari;

soʻzlarni turkumlarga ajratish tamoyillari boʻyicha savol-javob, mashqlar, test topshiriqlarini bajarish va lisoniy tahlil qoliqlarini toʻldirish..

Otning taʼrifi va leksik-grammatik xususiyatlari; otlarning maʼno turlari; otlardagi son kategoriyasi; otlarning aloqa-munosabat kategoriyalari; otlarning nokategorial shakllari; otlarning yasalishi; otlarda modal shakl yasalishi otlarning tuzilish jihatdan turlari boʻyicha savol-javob, mashqlar, test topshiriqlarini bajarish va lisoniy tahlil qoliqlarini toʻldirish.

Sifatning taʼrifi va leksik-grammatik xususiyatlari; sifatlarning maʼno jihatdan turlari; sifatlardagi daraja kategoriyasi; sifatlarning modal shakllari; sifatlarning yasalishi; sifatlarning tuzilish jihatdan turlari boʻyicha savol-javob, mashqlar, test topshiriqlarini bajarish va lisoniy tahlil qoliqlarini toʻldirish..

Sonning taʼrifi va leksik-grammatik xususiyatlari; sonlarning maʼno jihatdan turlari; sonlarning hisob soʻzlari bilan qoʻllanishi; sonlarning ishlatilish jihatdan turlari; sonlarning tuzilish jihatdan turlari boʻyicha savol-javob, mashqlar, test topshiriqlarini bajarish va lisoniy tahlil qoliqlarini toʻldirish.

Olmoshning taʼrifi va grammatik xususiyatlari; olmoshlarning maʼno jihatdan turlari; olmoshlarning ishlatilish jihatiga koʻra turlari; olmoshlarning tuzilish jihatdan turlari boʻyicha savol-javob, mashqlar, test topshiriqlarini bajarish va lisoniy tahlil qoliqlarini toʻldirish.

Feʼlning taʼrifi va leksik-grammatik xususiyatlari; feʼllarning maʼno turlari; boʻlishli va boʻlishsiz feʼllar; oʻtimli va oʻtimsiz feʼllar; feʼllarning nisbat kategoriyasi; feʼllarning mayl kategoriyasi; feʼllarning zamon kategoriyasi; feʼllarning shaxs-son kategoriyasi; feʼllarning nokategorial shakllari; feʼllarning vazifa shakllari: ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi; feʼllarning yasalishi; feʼllarning tuzilish jihatdan turlari boʻyicha savol-javob, mashqlar, test topshiriqlarini bajarish va lisoniy tahlil qoliqlarini toʻldirish..

Ravishning taʼrifi va leksik-grammatik xususiyatlari; ravishlarning maʼno turlari; ravishlarning yasalishi; ravishlarning tuzilish jihatdan turlari boʻyicha savol-javob, mashqlar, test topshiriqlarini bajarish va lisoniy tahlil qoliqlarini toʻldirish.

Yordamchi soʻz turkumlarining taʼrifi, turlari va grammatik xususiyatlari; Alohida olingan soʻz turkumlarining taʼrifi, turlari va leksik-grammatik xususiyatlari; sintaksis va uning predmeti boʻyicha savol-javob, mashqlar, test topshiriqlarini bajarish va lisoniy tahlil qoliqlarini toʻldirish..

SINTAKSIS VA PUNKTUATSIYA

Sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar;soʻz birikmasi sintaksisi;gap sintaksisi;gaplarning ifoda maqsadiga koʻra turlari; gaplarning his-hayajon ifodalashiga koʻra turlari; gaplarning tasdiq-inkor ifodalashiga koʻra turlari. Gaplarning tuzilish jihatdan turlari; sodda gaplarning turlari; murakkablashgan sodda gaplar; qoʻshma gaplarning turlari; matn sintaksisi; ona tili ishorat qoidalari; nutq uslublari va uslubiyat turlari boʻyicha savol-javob, mashqlar, test topshiriqlarini bajarish va lisoniy tahlil qoliqlarini toʻldirish.

“Ona tili va adabiyot” fanining “Bolalatr adabiyoti” qismi amaliy mashgʻulotlari mazmuni

I. Kirish

1.1 Adabiyot (bolalar adabiyoti) fanining maqsad va vazifalari yuzasidan test topshiriqlarini bajarish, savol-javob oʻtkazish.

1.2 Bolalar kitobxonligi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi boʻyicha ishlash.

II.Bolalar folklori

- 2.1 Bolalar adabiyoti va bolalar folklorining mumtoz adabiyot namunalari bilan bog‘liqligi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash..
- 2.2 Qo‘shiq janri yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 2.3 Maqol janri yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 2.4 Topishmoq janri yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 2.5 Masal janri yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash..
- 2.6 Tez aytish janri yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash..
- 2.7 Ertak, adabiy ertaklar.

III. O‘zbek bolalar adabiyoti (umumiy tahlil)

- 3.1 O‘zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 3.2 O‘tgan asrning 30-40 –yillaridagi o‘zbek bolalar adabiyoti yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash..
- 3.3 Hozirgi davrdagi o‘zbek bolalar adabiyoti.

IV. Alisher Navoiy va Gulxaniy ijodi

- 4.1 Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi dostonlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash..
- 4.2 Alisher Navoiyning pand-nasihat mazmunidagi asarlarida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy qarashlar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash..
- 4.3 Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibiga kirgan masallarda ilgari surilgan g‘oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash..

V. Abdulla Avloniy va Hamza ijodi

- 5.1 A.Avloniyning pedagogik faoliyat, yangi maktablar, o‘quv jarayonlari, dars uslubi tashkil etishdagi faoliyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 5.2 “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash..
- 5.3 H.H. Niyoziy ma’rifati. Uning ta’limda joriy etilgan o‘qish kitoblari mohiyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash..
- 5.4 Hamza qalamiga mansub “Gul” turkumiga kiruvchi to‘plamlarining badiiy ahamiyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

VI. G‘afur G‘ulom va Quddus Muhammadiy ijodi

- 6.1 G‘afur G‘ulomning bolalar uchun yozilgan she‘rlarida ilgari surilgan g‘oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash..
- 6.2 G‘afur G‘ulomning nasriy asarlari o‘zbek bolalar adabiyotining ajoyib namunalari sifatida yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash..
- 6.3 G‘afur G‘ulomning ikkinchi jahon urushi davridagi ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash..
- 6.4 Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 6.5 Shoir she‘rlardagi musiqiylik yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash..
- 6.6 Q.Muhammadiy she‘riyatida tabiatga munosabat; poetik obrazning o‘rni hamda ahamiyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

VII. Zafar Diyor va Shukur Sa‘dulla ijodi

- 7.1 Zafar Diyorning hayoti va ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash .
- 7.2 Zafar Diyorning “Mashinist” dostonida ilgari surilgan g‘oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash .
- 7.3 Zafar Diyorning she‘riy asarlarida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning ifodalanishi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 7.4 Shukur Sa‘dulla hayoti va ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 7.5 Sh.Sahdulla ijodida hayotiy voqealarning haqqoniy badiiy tasviri, janr rang-barangligi va badiiy xususiyatlari, obrazlar talqini, tarbiyaviyligi, hayotiyiligi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

VIII. Sulton Jo‘ra va Hakim Nazir ijodi

- 8.1 Sulton Jo‘raning hayoti va ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 8.2 Shoirning ilmiy-ommabop mavzulardagi she‘rlarida ifodalangan g‘oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 8.3 Sulton Jo‘raning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlari tahlili yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 8.4 Hakim Nazirning hayoti va ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 8.5 Hakim Nazirning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan asarlariga xos xususiyatlar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 8.6 Hakim Nazirning mehnat, odob-axloq, vatanparvarlik mavzulariga bag‘ishlangan asarlarining ahamiyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

IX. Po‘lat Mo‘min va Qudrat Hikmatijodi

- 9.1 Po‘lat Mo‘minning hayoti va ijodi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash
- 9.1 Po‘lat Mo‘min ijodida odob-axloq mavzusi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

- 9.3 Po‘lat Mo‘min – qo‘shiqchi shoir. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 9.4 Qudrat Hikmatning hayoti va ijodi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 9.5 Qudrat Hikmatning tinchlik va baxtli bolalik haqidagi she‘rlarining o‘ziga xos xususiyatlari. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 9.6 Qudrat Hikmat dostonlarida ilgari surilgan g‘oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

X. Xudoyberdi To‘xtaboev va Farhod Musajon ijodi

- 10.1 Xudoyberdi To‘xtaboev hayoti va ijodi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash
- 10.2 “Sariq devni minib”, “Qasoskorning oltin boshi”, “Besh bolali yigitcha” asarlarining badiiy xususiyatlari. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash
- 10.3 Farhod Musajon hayoti va ijodi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash
- 10.4 Farhod Musajonning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan hikoyalarida ilgari surilgan g‘oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 10.5 Farhod Musajonning dramaturg sifatidagi ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

XI. Miraziz A‘zam va Tursunboy Adashboyev ijodi

- 11.1 Miraziz A‘zamning hayoti va ijodiy faoliyati. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash
- 11.2 M.Ahzam shehrlarida hayotga munosabat, ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy talqini. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 11.3 Adib dramalarining maktab sahnasidagi ahamiyati. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 11.4 Tursunboy Adashboev ijodida ona-tabiat va Vatan madhiyuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 11.5 T.Adaboshevning so‘nggi yillardagi ijodiy faoliyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 11.6 Shoirning ona tabiat va Vatan mavzusidagi she‘rlari badiiyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

XII. Qambar Ota va Muhammad Ali ijodi

- 12.1 Qambar Otaning hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 12.2 Qambar Otaning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan she‘rlarining mavzu doirasi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 12.3 Qambar Ota yaratgan doston va doston-ertaklarda ilgari surilgan g‘oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 12.4 Muhammad Ali yaratgan tarixiy romanlardagi bolalar obrazlari. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

- 12.5 Muhammad Alining ona-tabiat tasviri chizilgan asarlari. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 12.6 Muhammad Alining xalq afsonalari asosida yaratgan asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 12.7 Muhammad Alining temuriylarga bag‘ishlab yozilgan romanlari haqida yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

XIII. Anvar Obidjon va Abusaid Ko‘chimov ijodi

- 13.1 Anvar Obidjon ijodi o‘zbek bolalar adabiyotidagi yanigicha yo‘nalish sifatida.
- 13.2 Anvar Obidjon she‘rlarida kitobxon ongiga ta‘sir qilish emas, qalbiga yo‘l topishga bo‘lgan urinishlar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 13.3 Anvar Obidjonning “Sen eshitmagan qo‘shiqlar” turkumi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 13.4 Anvar Obidjon ustozlar e‘tirofida.
- 13.5 Abusaid Ko‘chimovning hayoti va ijodiy faoliyati. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 13.6 Abusaid Ko‘chimovning kichkintoylarga bag‘ishlangan she‘rlarida ilgari surilgan g‘oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 13.7 Abusaid Ko‘chimov ertak va dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlari. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

XIV. Hamza Imonberdiyev va Abdurahmon Akbarning ijodi

- 14.1 Hamza Imonberdiyevning hayoti va ijodiy faoliyati. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 14.2 Hamza Imonberdiyev asarlarining mavzu doirasi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 14.3 Hamza Imonberdiyevning “Adolat kaliti” ertagida ilgari surilgan g‘oyalar.
- 14.4 Abdurahmon Akbar ijodidagi rang-baranglik. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 14.5 Abdurahmon Akbarning qofiyali nasr(saj‘) shaklidagi turkumidagi she‘rlarning o‘ziga xosligi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 14.6 Abdurahmon Akbarning Vatan, tabiat va bolalar o‘yinlari haqidagi she‘rlari yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 14.7 Abdurahmon Akbarning alifbo shehrlari yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

XV. Chet el bolalar adabiyoti

- 15.1 Chet el bolalar adabiyotining umumiy tahlili. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 15.2 Sharl Perroning bolalar zavq oladigan ertaklariga xos xususiyatlar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.
- 15.3 Aka-uka Grimmilar yaratgan ertaklarda ilgari surilgan g‘oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

15.4 Aka-uka Grimmlar yozgan ertaklarda ulug‘langan yoki qoralangan fazilatlar va xislatlar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

15.5 Xans Kristian Andersen ijodining ko‘p qirrali va rang-barangligi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

15.6 Xans Kristian Andersen asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

XVI. Rus yozuvchilarining bolalarga atab yozgan asarlari

16.1 Aleksandr Sergeyevich Pushkin yaratgan ertak-dostonlarda ilgari surilgan g‘oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

16.2 Nikolay Alekseyevich Nekrasov hayoti va ijodi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

16.3 Nikolay Alekseyevich Nekrasovning bolalarga atab yaratgan asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

XVII. Rus yozuvchilarining bolalarga atab yozgan asarlari(davomi)

17.1 Lev Nikolayevich Tolstoy tomonidan yaratilgan “Yangi alifbo” asari yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

17.2 Lev Nikolayevich Tolstoyning “Mo‘ysafid olma ekdi” hikoyasida ilgari surilgan g‘oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

17.3 Korney Ivanovich Chukovskiy ertak-dostonlarida ilgari surilgan g‘oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

17.4 Samuil Yakovlevich Marshak asarlarining janr jihatdan rang-barangligi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

17.5 Samuil Yakovlevich Marshak asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

Har bir semestr yakunida amaliy mashg‘ulotda mustaqil o‘qish uchun tavsiya qilingan badiiy asarlar yuzasidan adabiy-ijodiy, tahliliy insho yozish tavsiya etiladi.

Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi shakllar tavsiya qilinadi:

- dasturda tavsiya qilingan darslik va qo‘llanmalardan foydalangan holda ona tili va adabiyot fanining bo‘limlarini o‘rganish;
- o‘zlari mustaqil izlab topgan qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan holda ona tili va adabiyot fanining bo‘limlarini o‘rganish;
- badiiy adabiyotlardan ona tili bo‘yicha muayyan mavzularga doir misollar ko‘chirish;
- chuqur o‘rganilishi talab qilinadigan mavzular yuzasidan jadvallar va slaydlar tayyorlash;
- muayyan mavzular bo‘yicha mustaqil tarzda test topshiriqlarini tayyorlash ;
- muayyan mavzular bo‘yicha mustaqil tarzda lug‘atlar tuzish ;

Fan dasturining informatsion-uslubiy ta’minoti

Didaktik vositalar

Jihozlar va uskunalar, moslamalar:elektron doska -Hitachi, LCD-monitor, sistemali blok,klavatura,sichqoncha,elektron ko‘rsatgich (ukaska).

video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter,Delltipidagi proyektor,DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko‘z (glazok),planshet,plotter.

Foydalaniladigan asosiy adabiyotlar ro‘yxati **Rahbariyat adabiyotlari**

1. Karimov. Barkomol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997-yil.
2. I.A. Karimov. Yuksakma’naviyat –yengilmas kuch. T. Ma’naviyat, 2008.

Asosiy adabiyotlar

- 1.M.Hamroyev,D.Muhamedova,D.Shodmonqulova,X.G‘ulomova,Sh.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to‘plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
2. Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti. –T.: O‘qituvchi, 2002, -290 bet.
3. Jumaboyev M Bolalar adabiyoti. –T.: O‘qituvchi,2011, 260 bet.

Qo‘shimcha adabiyotlar

- 1.H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006,“Universitet” nashriyoti.
- 3.R.Yunusov. O‘zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
- 4.U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. «O‘zbekiston», Toshkent. 1992-yil.
5. Z. Masharipova. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. T., 2008.
6. Yule G. The Study of Language. 4th edition. Cambridge: CUP, 2010

Elektron ta’lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-INTRANET.ped

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM
FAKULTETI**

MAKTABGACHA TA'LIM KAFEDRASI


**Ona tili va bolalar adabiyoti
fanining
bolalar adabiyoti qismi bo'yicha**

TAQDIMOT




slayd
2-slayd


Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari:



Alla janri xususiyatlari



BOLALAR FOLKLORI JANRLARI



ERKALAMA

- Erkalamalarda kichkin toylar kelajagiga daxldor orzularni kuylash-yetakchi motivdir. Ular, asosan, yetti yoshgacha bo`lgan bolalarga aytilsa-da, aslida bolalarni faol erkalash jarayoni 11-13-yoshga to`lganlaridagina va hatto undan keyin ham davom etishi mumkin.

Ha, do`rsa-do`rsa-
do`rsa..

Bozorga otasi borsa,
Go`shtu birinch
ketarsa,

Onasi pazanda bo`lsa.

Bolasi xo`randa
bo`lsa..

OVUTMACHOQLAR

Bolani
tinchlantirish
ehtiyojini
qondiruvchi
badihalardir:

Vo`y-vo`y, shuginani kim
urdi?Vo`y-vo`y, shuginaga
kim lab burdi?Yig`lama,
oppoqqinam,Boshimdagi
qalpoqqinam!


QAYTARMACHOQLAR.

Bolalar uchun, asosan, beshik davri tugagandan keyingi ma'naviy ehtiyoj taqozosiga ko'ra yuzaga kelgan badihalar bo'lib, she'riy namunasi ko'pincha monolog, nasriy shakli dialog (savol-javob) negizida quriladi.

-Kun, san nimadan kuchlisan?
-Man kuchli bo'lsam, bulut bosarmidi?
Bulut, san nimadan kuchlisan?
-Man kuchli bo'lsam, yomg'ir yog'armidi?

TOPISHMOQ

Xalqning turmush tarzi va qadimiy e'tiqodlari ifodasi sifatida yuzaga kelgan. Ular shartli nutq natijasida qadimiy ajdodlarimizning ibtidoiy animistik va totemistik qarashlari shakllana boshlagan davrlarda- «insoniy shuur endigina uchqunlana boshlagan zamonlarda» (F.I. Buslaev) paydo bo'la boshlagan.



6-slayd

Ertaklarni ijro etish tartibi



O`zbek ertaklarining uch ichki turini farqlab o`rganmoq ma`qul.




Hayvonlar haqidagi ertaklar.

1. Etiologik ertaklar. Bularda u yoki bu hayvon shakli, belgi xususiyatlari haqida ma`lumot berish etakchi motivdir.


2. Sof hayvonlar haqidagi ertaklar. Bularda insonlarga naf keltiruvchi hayvonlar madhi etakchi motivga aylangan.

3. Majoziy (allegorik) ertaklar. Bularda insonlarga xos qusur va kamchiliklarni hayvonlar fe`li va xatti - harakati timsolida tanqid qilish, fosh etish yoki kulish etakchi motiv darajasidadir.








2-slayd




3-slayd




4-slayd



5-slayd





Alisher Navoiy siymosining badiiy ifodasi navoiyshunoslar e'tiborida bo'lgan. Jumladan, Oybekning mashhur "Navoiy" romani, Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy" dramasi, M.Osimning "Zulmat ichra nur" qissasi, Oybekning "Alisherning yoshligi" qissalari kabi asarlar muayyan badiiy yoki ilmiy maqsad bilan yozilgan va bu maqsadga erishilgan

5-slayd



6-slayd

Alisher Navoiy ijodini boshlang`ich sinflarda o`rganish


Hirotda tuprog`ida voyaga yetgan,
 "Qush tili" yo'llarin munawar etgan,
 Yillar to`zonidan sog`-omon o`tgan
 Navoiy bobomlar
 Buyuk odamlar

Mir Alisher otash zabondir,
 Umri boqiy omon-omondir,
 G`azallari fidoyi – jondir,
 Navoiy bobomlar
 Qutlug` qadamlar
 (T.Adashboyev. "Navoiy bobomlar")

Navoiy eldan yordamini ayamagan, Hirotda aholisini og`ir soliqlardan qutqargan, u Hirotda bir qancha mashhur oromgohlar, madaniyat koshonalarini bunyod etgan, o`z mablag`lariga ko`pgina xonaqoh –u madrasalar, to`qqizta hammom, o`n to`ppta masjid qurdirgan

Navoiy bolaligidayoq hammaning e`tiboriga tushgan, avvalo, odobli bo`lgan, ko`p kitob o`qigan, zehni o`tkirligidan minglab misra g`azallarini yod bilgan. Kichiklikda yozgan she`rlariga ustozlari ham qoyil qolishgan, ona tilini yaxshi bilgan, fors va arab tillarini ham puxta o`rgangan (P.Mo`min. "Donolarning donosi")

XX asr boshlaridagi "usuli savtiya" maktablari ochib o`qituvchilik qilgan va o`qish kitoblari yaratgan ma`rifatparvar pedagog-adiblar



G'ayratiy

- O'zbek adabiyoti ravnaqiga o'z ulushini qo'shgan adiblardan bin G'ayratiy— Abdurahim Abdulla o'g'li 1902 yil 15 fevralda Toshkentning Degrez mahallasida hunamand oilasida dunyoga keldi. Uning otasi o'qimishli, adabiyotga qiziqqan kishi bo'lgan. Onasidan erda judo bo'lgan Abdurahim mahalladagi Oyimxon aya qo'lida tarbiya topgan. Uning adabiyotga qiziqishida ham aya aytgan ertaklar muayyan rol o'ynagan. 1912—1915 yillarda u avval eski maktabda, so'ng madrasalarda tahsil oladi. Shu yillarda Navoiy, Muqimiy, Furqat asarlari bilan tanishadi.



- 1926 yilda G'ayratiy Ozarboyjonga borib, Bokudagi bilim yurtida o'qiydi. U yerda M. O'rdubodiy, M. Mushfiq, S. Rustam, J. Jabbor kabi taniqli adiblar bilap tanishadi va muloqotda bo'ladi. Bokudan qaytgach, Toshkentdagi muzikali drama teatrida adabiy emakdosh bo'lib xizmat qiladi. 1929—1931 yillarda O'zbekiston Davlat nashriyotida muharrir va bo'lim boshlig'i bo'lib ishlaydi. Uning birinchi she'riy to'plami 1927 yilda «Erk tovushi» nomi bilan nashr etiladi. 1928 yilda «Yashash taronalari» she'riy to'plami, «Qutulish» nomli hikoyalar to'plami chop etiladi. She'riy to'plamga kirgan «She'rim», «Shoir», «Tanburchi qizga», «Mening tuyg'ularim» kabi she'rlarida shoirning dunyoqarashi gavdalanadi.

G'ayratiy dramalari


- Bulardan tashqari, G'ayratiy dramatik asarlar ham yaratgan. Uning «Omon», «Yo'ldosh», «Qanotli do'stlar», «O'rmonda» kabi dramalari uzoq yillar respublika qo'g'irchoq teatri va yosh tomoshabinlar teatri repertuaridan mustahkam o'rin olib keldi.


Men A.Avloniyning: “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”, - degan fikrini mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun bunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir. ”

(I.Karimov)

3-slayd

Abdulla Avloniy ijodining janriy arsenali:





“Odil Burgutshoh va “Zamburug”



- Anvar Obidjonning “Odil Burgutshoh va “Zamburug” laqabli josus haqida ertak” ertak -dostonining bosh qahramoni-Burgutshoh. Shoir bu asarda kontrast usuli, ya'ni holatlarni qarama-qarshi qo'yishdan foydalanadi. Asarda burgut va qarchig'ay, lochin va sor, qizilishton bilan qorayaloq, bulbul bilan boyqush qarama-qarshi qoyilgan. Yosh kitobxon o'zaro zid qo'yilgan obrazlarni solishtirib, tabiatda ular qanday qushligini o'rganish bilan birga, shoir ularni bejizga zidlantirmaganini anglay oladi.

- Negaki Burgut mag`rur qush,
- U o`laksa yemaydi, o`lganda ham mag`rur, o`zini qoyalarga urib o`ladi. Qarchig` ay burgutga yetolmaydi. Shuningdek, bulbul sayroqi qush, boyqush esa tunda yuradigan vahimali ovoozda sayraydigan, ayniqsa, bola etini junjiktiradigan qush.. Ertakning tuguni Qarchig` ay va Burgut orasidagi qarama-qarshilikdan boshlanadi. "Zamburug`"ning josus bo`lib Burgutning yurtiga kelishi tugundagi sirlilikni oshiradi. "Zamburug`" laqabli popishak josus sifatida saroyga kirar ekan, malika Shabnamga ustozlik qiladi.



Malika Shabnam va shahzoda Quyosh bir-birlarini sevar ekanlar. Ammo Shabnamga Chaqmoq uylangan. Chaqmoq to`ng`ich shahzoda bo`lib, bo`lajak tojkor. Shoir voqealar rivoji jarayonida fitnadan foydalanadi:

Ho`ng-ho`ng yig`lab yotarkan
Shabnam Шабнам,
Kirdi Chaqmoq xonaga ildam:
– Sendek makkor xotinga la`nat!
La`nat yog`sin menga ham abad!
Buncha kalta bo`lmasa fahmim,
Nechuk idrok etmabdi aqlim, –
Mamlakatga bo`lgin deya shoh,
Eringga baxt tilaganing choq
Qilganding-ku ukamga g`araz.



Ertakning kulminatsion nuuqtasida

- Quyosh zaharlanib o`ladi. Chaqmoq xotinini aybdor hisoblab, uni o`ldirishga urinadi. Asl aybdor Popishakligini bilgach, o`zini baland qasrdan yerga otadi. Shoir voqealarni shunchaki tasvirlab qo`ymaydi, balki, fitna, josuslik, xiyonat har doim mavjudligini, bu iflosliklar bois begunoh ezgu insonlar bevaqt o`lishi mumkinligini uqdiradi. Popishak zindondaligida soqchi Qarqunoqni aldab-suldab, o`zini ozod qilishga chorlaydi, behisob boyliklar, yaxshi hayot va`da qiladi. Oqibat Popishak ozod bo`lgach, qarqunoqni o`ldiradi.



Shoir xulosasi ertakning ahamiyatini ko`rsatuvchi jihatlaridan biridir:

Qichqirgan payt laqma Qarqunoq,
Ko`kragiga sanchildi pichoq.
Tanlolmadi o`zibop jo`ra,
Bo`lolmadi yot yurtida to`ra,
Bulg`andi el unga bergan tuz,
Qolib ketdi uyida yolg`iz
Xotini tul,
Bolasi sag`ir...
O, sotqinning qismati og`ir?



Demak, shoir asar xulosasida vatanfurushlikning jazosi eng og`irligini ana shunday timsollarda ochib berishga erishgan.

Mendek mashhur
Qarchig`ayshohga
Shartta qurbon bo`lmagan sallot-
Iltifotga loyiqmas...
Jallod!!!
Tiz cho`kib
Dod soldi "Zamburug`";
Ketingizga bo`layin quyruq"



Popishak o`ldiriladi. "O, josusning qismati og`ir!".
Shoir josusning qismatini ham yosh kitobxonnga shu tariqa uqdiradi.

Bu ertak-doston 1987-yilda e'lon qilingan.



Demak, asar shoirning istiqlogacha bo'lgan davr ijodi namunasi. Shoir odil shoh haqida fikr yuritadi, muhimi, u buyuk o'zgarishlarni, bugungi yorug' kunlarni ijodkor qalbi bilan his qila olgan:

Mo'l bo'larmi sandiqlarda don?
Uxlogaymi tunlar yosh jahon.
Eldoshlarin taqdirin bedor?
Boqolgaymi yovlarga hushyor?
Yurt tarixin supurmasmi yel?
O'zligini saqlolgaymi el?
Buzilmasmi ko'hna qasrlar?
Toptalmasmi qutlug' qabrlar?
Va undagi o'ychan lolalar?
...Ertak tamom.
Xayr, bolalar!



XX asr 30-80-yillar bolalar adabiyoti ning asosiy xususiyatlari

- Adabiy tur va janrlar shakllandi
- Bolalar ijodkorlari qaror topdi
- Bolalar matbuoti va publitsistikasi inkishofi
- Obrazlar va mavzular kengaydi
- Badiiy yuksak saviyali asarlar yozildi
- Folklorizm hodisasi ommalashdi
- Taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi
- Jahon bolalar adabiyoti ta'siri sezildi
- istiqlol arafasida g'oyaviy dolzarblilik o'sdi

XX asrning 30-80-yillaridagi bolalar adabiyotining fenomen shoirlari

G'afur G'ulom

Hamid Olimjon

Zafar Diyor

Sulton Jo'ra

Shukur Sa'dulla

Q.Muhammadiy

Qudrat Hikmat

Po'lat Mo'min


Ilyos Muslim

Miraziz A'zam

Tursunboy Adashboyev

Safar Barnoyev

Anvar Obidjon



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM
FAKULTETI**

**MAKTABGACHA TA'LIM
KAFEDRASI**

**Ona tili va adabiyot
fanining
adabiyot qismi bo'yicha**

TARQATMA MATERIAL

“Nortojining kurak tishi”

Oldingi to'rtta kurak tishining
Sog'i yo'q – hammasi chirik, darz ketgan.
Ba'zisi juda past, ba'zisi baland,
Ba'zisi lab yular-misli tikan.
Nortoji o'zi sho'x, erinchoq bola-
Yuzini haftada arang yuvadi.
Ko'cha ham kuylarda chang tuproq kechib,
“Olapar”, “To'rtko'z”ni doim quvadi.



«Turg'un va
O'rdak»
(1935),

«Mukofot»
(1940),

), «Tongotar
qo'shig'i» (1949),

“Bari seniki”
(1953)

“Kosmolog”
(1953)



Sen yetim emassan,
Tinchlan jigarim,
Quyoshday mehribon,
Vataning — onang,
Zaminday vazmin-u,



Mehnatkash mushfiq
Istagan narsangni tayyorlaguvchi
Xalq bor — otang bor.
Cho’chima, jigarim,
O’z uyingdasan.

“Shum bola”

- Adibning “Shum bola” qissasida o‘zbek xalqining o‘tmishdagi og‘ir hayoti, xususan, o‘smirlarning qarovsizligi, ularning bir parcha non deb darbadar kezishlari achinarli nasvirlansa, ba’zi obrazlarning harakatlari kulgi ostiga olinadi





Qissalari

“Netay”(1930)

“Yodgor”(1936)

“Tirilgan
murda”(1934)

“Shum
bola”(1936-
1963)

“Shum bola” kinofilmidan lavhalar



Тренинг «Ўрмонга сайр».

«Кўзингизни юмиб, ўзингизни эркин хис қилинг ва қуйидаги манзарани тасаввур қилинг:

Тасаввур қилинг, сиз ўрмонда кетяпсиз. Сиз бу ўрмонни тасаввур қилинг — у ерда қандай дарахтлар, ўтлар, гуллар ўсаяпти, қандай хайвонлар бор, ёруғлиги қандай, қайси фасл. У ерда йўл борми, ёки йўл йўқ жойлардан юряпсизми?

Кейин сиз ердан чашка топиб олдингиз. Уни ҳам тўлиқ тасаввур қилинг – эскимми, янгими, тозами, ифлосми, нимадан ясалган, ранги ва катталиги қандай?

Сайр қилишни давом этиб, сиз тўсиқга дуч келдингиз. Бу девор, канал, кулмак, дарё ёки бошқа нарса бўлиши мумкин. Бу вазиятда сизнинг кайфиятингиз ва хатти-харакатингиз ... тўлалигича тасвирланг.

Кейин сиз уй ёнида пайдо бўлдингиз. У уй қандай? Сиз уйга кирасиз, диққат билан атрофга қараб, у ердаги жиҳозларни, ёруғлигини тасаввур қилинг ва уйдаги сизнинг ҳаракатларингиз.

Уйдан чиқиб юришни давом этинг. Сиз ёввойи бўрига дуч келдингиз. Нима қиласиз? Бу вазиятдан қандай чиқиб кетасиз?

Бўри қочиб кетгач, сиз сайрни давом этиб кўлга дуч келдингиз. Кўлга яқин келганда сизнинг хатти-харакатингиз.

Ниҳоят, сиз узун баланд девор ёнида пайдо бўлдингиз. Унинг орқасида нима борлигини кўра олмайсиз. Сизнинг хатти-харакатингиз?

Ўйин қалити: Ўрмон - бу жамият. Ўрмоннинг ҳолати сизнинг жамиятда яшаш қобилиятингизни кўрсатади. Бу ўрмон сиз учун қандай бўлса, сиз атрофингиздаги инсонлар олами шундай тасаввур қиласиз.

Чашка – бу сизнинг ўзингиз, сизнинг ўз қиёфангиз. У қандай: тозами, ёрқинми, қорамтирми, ифлосми?

Тўсиқ - сиз уни қандай енгасиз – бу қийнчиликлар билан курашиш қобилиятингиз.

Уй ва ундаги хатти-харакатингиз – бу оила ва оилавий муносабатларингиз.

Бўри – уни қандай енганингиз – бу ўз кўркувингизни енга олиш қобилиятингиз.

Девор - бу ўлимни акс эттирувчи образ ва унга сизнинг бўлган муносабатингиз.

суҳбатлашгандай ёзиш ҳақиқатан ҳам мураккаброқ. Бугун болаларга бағишланган асарлар жуда кам, деярли йўқ ҳисоби.

1-2 апрел кунлари болалар китобхонлигини ҳимоя қилиш куни бўлди. Шу санада “Шарқ зиёкори” китоблар дўконига тадбир бўлиб ўтди. Атрофдагиларнинг эътиборини болалар адабиётига оид китоблар териби қўйилган тоқчага қаратдим. Чет эл адабиётидан Жонатан Свифт, Жанни Родари, ўзимиздан Анвар Обиджон, Фарҳод Мусажонларнинг китоблари бор. Аксарияти қайта нашр. Янгиларини изладим, нари борса уч-тўрт бет келадиган асарларни топдим, холос. Мендан олдин Эркин Малик сўзга чиқиб, бир қанча расмли китобларни кўрсатди. Боғдорчиликка оид – русчадан таржима, ҳайвонот оламига оид – русчадан таржима. Хайрият, Тошкент ҳақидаги китоб оригинал экан. Бундоқ қараганда, янги китоблар нашр этилаётганга ўхшайди. “Тулхан” журнали ёки “Тонг юлдузи” газетасида унча-мунча ҳикоя, қиссалар босилапти. Лекин бу тўққиз миллион нафар ўқувчи бола учун жуда оз, жуда-жуда оз. Салкам ўн минг ўрта таълим мактаби бор. Айрим мактабларнинг кутубхонасига кириб қолсангиз, латин алифбосида босилган китоблар кам эканига гувоҳ бўласиз. Шу мактабга қатнаётган болалар билан суҳбатлашиб кўраман. “Қани, ўғлим, бу йил қанақа китоб ўқидинг?” деб сўрайман. Ўйлаб-ўйлаб, битта-яримта эртақни айтади, бўлмаса – йўқ. Дарсликдаги нарсаларни ўқишади, лекин яхлит китоблар уларга етиб бормаяпти.

Китоблар икки минг, уч минг, беш минг нусхада чиқяпти. Бу олдингига солиштирганда битта маҳалланинг китоби, холос. Шу маънода, болаларбоп асарлар тақчил.

Лекин болаларга ёзиш қийин деган гапга қўшилмайман. Лев Толстойдай буюк ёзувчи болалар учун ёзган-ку! Ғафур Ғулом, Зулфия каби шоирларимиз болаларга бағишлаб шеърлар ёзган. Қийинлигини улар ҳам билган, лекин ички хоҳиш-истак уларга туртки берган. Битта аччиқ гапни айтиш жоиз: бугунги ёзувчилар болалар олдидаги масъулиятни унча ҳис қилмаяпти. Шу ўсаётган болалар эртага катта ёшдаги китобхонга айланади-ку! Ўқимасдан улғайган бола катта бўлгандан кейин ҳам ўқимай қўя қолади.

Яхши китобхонни болалигидан тайёрлаш керак. Агар газета, журналлар ўз саҳифаларидан болалар учун жой ажратса, уларнинг онгини, тафаккурини шакллантирадиган асарларни чоп этиб борса, жуда хурсанд бўлардим. Ҳеч бир киши болалар олдидаги масъулиятини унутмаслиги керак.

-Билишимча, ўқитувчи бўлиб ҳам ишлагансиз. Фаолиятингиз давомида иложсиз вазиятларга ҳам тушиб қолганмисиз? Қаҳрамонингиз Ҳошимжонга ўхшаган болалар билан қандай шуғуллангансиз?

-Икки марта ўқитувчилик қилганман. Дастлаб, Қўқон педагогика билим юртини битириб бориб, 1949-50 ўқув йилида Қайқубод деган қишлоқда 1-4-синфларга дарс берганман. Бу биринчи муаллимлик даврим эди. Бир қанча қийинчиликларга дуч келдим. Менга 1-синфни бериб қўйишди. Аслида, бу ишни тажрибали ўқитувчилар олиб бориши керак.

Бир-иккита мисол айтиб бераман. Болаларга қаттиқ гапириб бўлмас экан. Ўша пайтларда педагогикада қаттиқ гап ҳали бор эди. Ғуломжон деган бир ўқувчим бўлган. Бир куни ручкаси яхши ёзмаётганди, “ҳе, онангни...” деб сўқиб қолди. “Ҳой, ўғлим, онангни деб сўқмайди”, деб танбеҳ берсам, бир оздан кейин “ҳе, бувингни...” деб сўқяпти. “Ҳой, ўғлим, нега яна сўқиняпсан?” десам, “онангни демаяпман-ку” деб жавоб берди. Сўқиниш одобдан эмаслигини бафуржа тушунтиришимга тўғри келган.

Бир кун бир ўқувчим йўқолиб қолди. У Қайкубод қишлоғининг “Қўрғонча” маҳалласидан келарди. Тушдан кейин онаси келиб, ўғли уйга бормаганини айтди. Мен ҳамма катори уйга кетганини айтдим. Болалар билан чўмилиб юргандир, деб онаси қайтиб кетди. Кечга яқин ота-она биргаликда келди. Топишолмабди. Эртасига эрта келиб хонани очсам, кидирувдаги бола орқадаги партада сумкасини бошига болиш қилиб ухлаб ётибди. Хурсанд бўлишимниям, хафа бўлишимниям билмайман. Бола топилди. Ёмон томони, кеча синфни кулфлаётганда қарамаган эканман. Уйқудаги паҳлавонни уйғотдим, уйига хабар жўнатдим. “Э ўғлим, нимага бундай қилдинг?” десам, “Эртага тагин келарканман деб ухлайвердим”, дейди. “Қўрғонча” маҳалласи сал узоқроқ эди-да.

У пайтларда довот-қалам ишлатиларди. Болаларнинг битта одати бор эди: агар бугун кимдир қалам кўтармай келса, эртага ҳаммаси қаламсиз келарди. Бир куни битта ўқувчим қаламини уйда қолдириб келибди. Бошини силаб, яхши гапириб қалам топиб бердим. Эртасига бутун синф қаламсиз келди. Ҳа десам, бизгаям қалам олиб беринг, деб жавоб беришди.

Шунақанги қизиқ-қизиқ воқеалар мени болалар дунёсига яқинлаштирди.

Тўртинчи синфларни ҳам ўқитганман. Бу ҳам болалар дунёсини яхши ўрганишим учун катта ёрдам берган. Бир бола бир қизни яхши кўриб қолибди. Дарсдан кейин қолиб гаплашишади. Кет энди десанг, кетмайди. Бир куни Ҳусниддинова деган рус тили ўқитувчиси менга хат олиб чиқиб берди. Ҳалиги болалар гаплашаверибди, ёнига борса бири-бирига хат ўқиб бераётган экан. Мен нима қилишим керак? Ота-онасига ошкор этайми-йўқми? Улар анчагина “ёзишмалар олиб борган” экан. Муаллим чўнтақларидан олиб кўйибди. Хатни ошкор қилмадим, болаларни чақириб ўзларига қайтариб бердим. Энди бунақа иш қилманглар, еттинчи синфдан кейин ҳаммасига рухсат, дедим. Унда еттинчи синфгача ўқитиларди, ундан кейин қизлар эрга тегиши мумкин эди.

1955 йили университетни битириб келдим-да, яна мактабга ишга кирдим. Уч йил ишладим. Ўсмирлик ёшидаги болаларга дарс бердим. Бу пайт боланинг шаклланиш даври ҳисобланади. Бу мураккаб ўтиш палласининг сир-синоати, ўзига хосликларининг поёнига етолмадим. Ҳар бир ўсмир ўғил, ҳар бир ўсмир қиз ўзи бир дунё-да. Уларнинг ҳаётини кузатиб, жуда кўп воқеаларнинг гувоҳи бўлдим.

-Садриддин Айний ўз хотираларида ёзишча, Аҳмад Дониш ўз танишларини уйига тўплаб, зиёфат бериб, уларнинг шовқин-суронида ишлаган экан. Сиз қандай шароитда ижод қиласиз?

-Тўғри, ҳар ким ҳар хил шароитда ижод қилади. Баъзи бирлар сувнинг шилдирашини эшитиб шеърини оҳанг топар экан. Мен болаларнинг ичида ижод қиламан. Агар шу бугун тўртта болани кўрсам, бағримга босмасам, улар билан суҳбатлашмасам, кўнглим тўлмайди.

Анча йиллар олдин Ёзувчилар уюшмаси аъзоларига дала-ҳовли тарқатди. Ўша пайтларда партия ташкилотининг котиби эдим, ҳовли олсам бўларди. Лекин болаларни кўзим қиймади. Дала-ҳовлига йигирмата бола ўлиб қолса бормайди-ку. Ҳафтада учта болани ё кўраман, ё кўрмайман.

Яқинда, “13-студия” кўрсатувида қатнашганимда бир гапни айтдим: “Мен болаларга ош бераман, чунки улар менинг ўртоқларим, оғайнимларим”. Чунки мен шу болалар билан бирга завқланаман, улардан сюжет топаман, шу улфатларимнинг оҳангини, сўзини “ўғирлайман”.

-Тошкентга келиб ўрнашиб, ватан қилиш осон эмас. Қанақа қийинчиликларга дуч келгансиз, уларни қандай ҳал этгансиз? Уй-рўзғорни бошқаришда нималарга эътибор берасиз?

-Ҳаётда иқтисодий қийинчиликларга кўп учраганман. Ўзим уй-жой қилганман, уйланганман. Тошкентга келгандан кейин мусофирчиликда яшадим. Меҳнатим, ҳаракатим билан бу ерда ҳам уй-жой қилдим, ўғилларимни уйлантирдим, уй-жой, машина олиб бердим. Буларнинг ҳеч бири осонликча бўлгани йўқ.

Тошкентда иш бошлаган дастлабки йилларимда қайнотам меҳмон бўлиб келди. У киши савдо ходими бўлиб ишларди, бозорни яхши биларди. Бир ўринда менга рўзғор тебратиш тўғрисида насихат қилдилар. Айтган насихатлари ҳали-ҳануз ёдимда. Биринчиси – сув қаттиқ ерда тўхтайди, агар қаттиқ бўлмасанг пулни ушлай олмайсан. Иккинчиси – беш сўм пул топсанг, ҳар қандай шароитда ҳам икки сўмини асраб қўй. Учинчиси – сўмнинг онаси тийин, тийинни эҳтиёт қилсанг туғади, кўпаяди.

-Агар бола яхши тарбия кўрса, ҳалоллик, тўғрилиқни ўрганса, ўз ҳақини ҳимоя қила олса, кейинчалик бемалол мустақил яшай олади. Болаларда бундай хусусиятларни шакллантириш учун нималар қилиш лозим деб ўйлайсиз?

-Аввало ота-онанинг ҳалоллик йўли билан топаётган пуlining қадрига етиш керак. Бола келаётган пулларнинг ҳалоллигини билсин. Ота-она мабодо нопок йўл билан пул топган бўлса, болаларни ундан ҳимоялаш зарур. Халқимизда луқмаи ҳалол деган ибора бор. Ҳалол луқма еб ўсган бола ҳалол меҳнатни хуш кўрадиган, бирокнинг ҳақидан, ҳаромдан ҳазар қиладиган киши бўлиб етишади.

Халқ орасида “экканга, тикканга раҳмат” деган гап юради. Одам бошқаларнинг туз-намагидан тотганда, кимдир яратган боғ-роғнинг мевасидан баҳраманд бўлганда, уларнинг ҳақкига дуо қилишни ҳам билиши керак. Қадимда бир бой ўтган экан. Шу одам бозорга борганда одамлар мева-чева олгач, “экканга раҳмат, тикканга раҳмат” деб кетаётганини эшитиб қолибди. Келаси йили чоракорларига буюриб боғ-роғ барпо этибди. Вақти келиб шу боғнинг мевасидан одамлар баҳраманд бўлибди. Келганлар “экканга, тикканга раҳмат” дермиш-у, “эгасига раҳмат” деб айтмасмиш. Шунда бой ҳалол меҳнатнинг савоби улўғлигини англаб етиб келаси йили ўз кўли билан боғ яратибди.

Болани уйдаги буюмларни, кийим-бошни, умуман, ҳар қандай товарни асраб-авайлашга ўргатиш лозим. Сотиб олаётган маҳсулотининг сифатини, кадр-қимматини аниқлашда нималарга эътибор бериш кераклигини ўргатиш лозим.

Болтиқбўйи республикаларида болалар адабиёти кунлари бўлганди. Шу тадбирларда қатнашган пайтим бир ажойиб нарсага гувоҳ бўлганман. Бошланғич синфларда “Рўзғор арифметикаси” деган фан ўтилар экан. Ўқувчи алоҳида дафтар тутиб, ота-онаси, бобо-бувиси қанча маош ёки нафақа олишини ёзиб кўяркан. Кейин ҳар кунлик харажатларни қоғозга тушириб ҳисоблар экан. Масалан, ўзи мактабга қанча йўл кира билан келди, қанақа ўқув қуроли сотиб олди – буларни ҳар дарсда ўқиб бераркан. Нархлар, олинган нарсалар солиштирилади. Натижада бола юқори синфга ўтганда қиладиган харажатларига эътибор берадиган тайёр иқтисодчига айланади.

Қадимги бойларда бир одат бор экан. Ўғилларини эргаштириб бозорга олиб борарканда, савдо қилишга киришар экан. Биринчисидан, иккинчисидан, учинчисидан, ҳатто тўртинчи савдодан ҳам нарса сотиб олмас экан. Болалар бетоқат бўлиб кетар, бўлди энди, олақолайлик деб тихирлик қиларкан. Йўқ, ҳали кўришимиз керак деб, меъёри келгунча савдолашиб юраверар экан. Танга-тийинларни асрашни ўрганган бола ўз-ўзидан отанинг



топган мол-дунёсини кўкка совурмайди. Шу тариқа болада истеъмолчилик маданияти шаклланади.

-Иқтисодиёт қанчалик муҳим бўлса, маънавият шу қадар аҳамиятга эга. Бола маънавиятини шакллантиришда адабиётнинг қай даражада ўрни бор деб ҳисоблайсиз?

-Болани нимага ўргатишимиздан қатъи назар, хоҳ иқтисодга, хоҳ касб-хунарга бўлсин, маънавиятни ҳеч қачон ёдимиздан чиқармаслигимиз зарур. Энг аввало маънавият масалага қайғуриш керак. Қадимда бир киши ўғлини тарбиячига олиб борса, бўлажак устоз : “Ўғлингиз неча ёшга тўлди?” деб сўрабди. “Уч ёшга”, деб жавоб берибди ота. Шунда мураббий: “Э-э, аттанг, уч йил кечикибсиз-ку”, деган экан. Қиссадан ҳисса шуки, бола маънавиятини туғилганидан бошлабоқ шакллантириш керак. Бу нарса онасининг сути юзига томганда чақалокнинг ўзига арттиришдан бошланади.

Маънавиятни шакллантирмай туриб иқтисодни шакллантирсангиз ё чайқовчи, ё олғир, ё бировнинг ҳисобига боювчилар пайдо бўлади.

-Ҳозир енгил-елпи, маиший асарларга ишқибоз ўқувчилар кўп. Адиб китобхон эҳтиёжидан келиб чиқиб асар ёзиши керакми ёки адабий меъёрлар билан ҳисоблашиши зарурми?

-Онги-тафаккури баланд ўқувчи ҳамиша гўзалликни, ўзига хосликни истаб туради. Ўқиётган китоби бошқа китобдан баланд, эшитган концерти бошқаникидан савиялироқ бўлиши хоҳлайди. Навоийнинг буюк бўлишига ўша даврда туркий дунёда етилган буюк талаблар сабаб бўлган. Абдулла Қодирийнинг роман жанрига қўл уришиша ўша даврда бизнинг миллатимизда ҳам катта жанрларга эҳтиёж туғилгани туртки берган. Гафур Ғулломнинг буюк фалсафий шеърлари яралиши ҳам эҳтиёжга бориб тақалади. Баъзан паст савияли талабгорлар ҳам учрайди. Улар китоб кўрмай, шаклланмай улғайган. Ҳозир шуларга монанд ёзаётганлар кўпайиб кетди.

Президентиимзнинг “Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор” китобида шундай фикрлар бор: “Таъбир жоиз бўлса, одам ёзувчилик касбини танламайди, аксинча, бу касб ёзувчини танлайди. Истеъдод, истеъдод ва яна бир бор истеъдод соҳибларини топиш, тарбиялаш ва уларнинг меҳнатини муносиб кадрлаш ҳам энг асосий вазифамизга айланиши зарур”.

Ҳозир ёзувчилик касбини танлаётганлар кўпайиб кетган. Қараса китоб билан ҳам бизнес қилиш мумкин. Бир ойда китоб ёзади, иккинчи ойда бостиради, кейин йўлини топиб сотади. Чунки чўнтагида пули бор, имконияти бор. Яқинда “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетасида истеъдодсиз ёзувчилар, уларнинг чалажон асарлари тўғрисида мақола босилди. Унда қачонлардир берилган асарининг у ер-бу ерига ўзгартириш киритиб, янги асар деб босаётганлар, ўқувчининг олдида зиғирча масъулият ҳис қилмайдиган, енгил-елпи сюжет орқасидан қувувчи ёзувчилар ҳақида сўз юритилган. Мана шундай зўраки ёзувчилар катта адабиётнинг кадрини туширишга, маънавий даражани пасайтиришга ҳаракат қиляпти.

2010

Манба: Шоир Ориф Толиб веб-саҳифаси

«Сехрли қалпоқча» — Бадийий фильм

Худойберди Тўхтабоевнинг «Сариқ девни миниб» асари асосида.

Сценарий муаллифи ва режиссёрлар — Сарвар Каримов ва Нозим Жумаев


Бош тасвирчи — Иззатилла Лутфуллаев

Бош рассом — Акмал Саидов

Монтаж устаси — Тимур Суслин
Махсус эффектлар — United Soft
Картина директори — Фарход Усмонов
Бош рольда — Бунёд Рахматулла

Ertaqa O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboev 81 yoshgato'ladilar!
Xudoyberdi akabugungikunda asarlari eng ko'pinash retiladigan mashhur adiblar qatoriga kiradilar.
Asarlaridunyo bo'ylab 32 tilda, 58 davlatdacha topilgandir! Adabiyotimiz baxtiga,
millatimiz baxtiga omon bo'ling Xudoyberdi aka! Adabiyotimiz sha'nini dunyoga yoyishdan hech
qachon charchamang!

Мен болалик даврим, Худойберди Тухтабоевнинг "Сарик девни миниб", "Ширин
ковунлар мамлакатига саехат", "Мунгли кузлар"ни укиб улгайганман.... Асарлари бетакроп
маъноли ва самимий, оддий халк тушунадиган тилда езилгандир. Купгина дуне тилларига
угириб таржима қилинган..... Ва жуда катта тарбиявий аҳамиятга эгадир.... Балким, адабиётга
илк хавас ана шу асарлар мутолаасидан уйгонгандир.... Барибир.... хозир билмадим, бизнинг
болалик даврлар бир бошқача булган эди..... у даврларда на компьютерда ва на мобилда бекор
угириб вақт утказиш булган.... Чиройли бир езилган бадиий асар топиб уқирдик.... ва шу
хаели билан яшардик.... Ва уша асарларнинг роли хозир ҳаётимда катта аҳамиятга
эгадир..... Уқиб окни корадан ажратишни, яхшини емондан фарқ қилишни.... Зеро, езилган
бадиий асарлардан куп нарса олиб урганиш мумкин.... Хозирги ешларимиз ҳам
компьютер, техник уйинларга камрок машғул булиб китоб уқиб, дунекарашларини
ошириб, маънавий озуқа олиб турсалар яхши буларди.... Зеро, "Китоб-билим булогидир"! Устоз
адиб Худойберди Тухтабоевга эса, сихат-саломатлик узок умр! яна гузал бадиий асарлар
кутиб қоламиз!



Анвар Обиджон: Болаликдан айрилиш қийин



Анвар ака билан «Ёш гвардия» наشريётда узоқ йиллар (бир бўлимда, бир хонада) бирга ишлаганмиз. Ўша пайтлар наشريётнинг деворий газетасига ажойиб шоир дўстимиз Муҳаммаджон Раҳмон Анвар акага бағишлаб бир ҳазил шеър ёзганини эслайман (Афсуски, дастлабки икки сатри ёдимда қолган):

Келиб

Олтиариқдан

Ёзар олти жанрда...

Анвар аканинг шеър ёза бошлаганига салкам ярим аср бўлади. Мана шу йиллар мобайнида у ўзбек болалар адабиёти ва юмор соҳасида энг катта ислоҳотчи (реформатор) шоир сифатида намоён бўлди. Унинг ўзбек болалар шъриятини янгилашда қилган хизматлари ҳали етарлича баҳосини олмаган деб ўйлайман. Нашриётдан кейин ҳам телевидениеда, «Ёшлар» телеканалда бирга ишладик. Шу сабабдан бўлса керак, аканинг табиатини яхши биламан. Энг аввало, Анвар ака жуда пухта одам (олтиариқликларга хос сифат) сифатида биламан. Пухталигидан ҳатто тугилган куниниям икки сана билан белгилаган. Яъни: ровийларга кўра, 1947 йилнинг 8 январидида, ҳужжат бўйича эса 25 январидида тугилган. Биз- Анвар аканинг дўстлари, укалари буни тўғри қабул қилганмиз. Икки санадаям, ажойиб ёзувчи ва шоир, энг муҳими, ўхшаши топилмас инсонга узоқ умр ва баракали ижод тилаймиз.

Хуришид Даврон

Ўзбекистон халқ шоири

Анвар Обиджон

БОЛАЛИҚДАН АЙРИЛИШ ҚИЙИН

олалигимни кўмсайвераман, кўмсайвераман... Ичкиб-ичкиб

соғинаман...

Ваҳоланки, у замонларда ҳаёт енгил бўлмаган. Уйлар полсиз, қишда печка топилса, кўмир топилмайди. Ўтин ёқсанг, бир ловуллаб иситади-ю, яна тафти сўнади.

Сандалнинг аҳволи ҳам шу. Қор ёки ёмғир ёғса, томдан чакка ўтгани-ўтган, сув томчилаётган жойларга териб қўйилган турли идишлардан таралган “чак-чук”, “тиринг-тиринг”ларга кўринмас ажиналар ўйин тушаётгандек.

Иложи борича кундузи дарс тайёрлашга уринардим. Қоронғига қолсанг, керосин иси анқиб турадиган лампа-чироқ кўзларингни толиқтиргандан толиқтириб ташлайди. Эндигина пайдо бўлган электр чироқлари ойида уч-тўрт йилтиллаган бўлади, шундаям шамдан хира. Бу етмагандек, умумий қилиб солинган кўрпада қаторлашиб ётган опа-укаларинг: “Чироқни ўчир, ухла”, деб тихирлик қила бошлашади.

Иккинчи жаҳон уруши уқубатларидан эндигина қутулган хонадонларнинг кўпчилиги анча қашшоқ эди. Маҳаллада ёппасига тупроқтом уйлар, кўпининг ҳатто айвони ҳам йўқ. Фалончи томига шифер ёпганмиш дейишса, одамлар атайлаб кўргани боришарди. Кўчалардан дам иккала ғилдираги девор бўйи келадиган кўқонарава, дам ўрислар “бричка” деб атайдиган тўрт ғилдиракли кўтакарава ўтиб қолади. Кейинроқ қўш отли “хаптакач”лар кўпая борди. Бир сакраб, кенг юкшотининг четига осилиб олсанг, ана мазза, мана мазза. Колхозимиздаги иккита “полатўрка” юк машинасидан бири ёки хусусий мотоцикллар ҳафтада бир-икки бор кўзга чалиниб турарди, қий-чув кўтариб, ортидан чопқиллашга тушардик. Енгил машина учраб қолса-ку, байрам бўлиб кетарди. Лекин қандайдир “сирли катталар”ни олиб юрадиган бу машиналарга осилиш тугул, югуриб қувлашга ҳам ҳаддимиз сифмасди.

Оиламиз ўзига тўққина эди. Аммо, кўпчилик қўшниларникига кирганимда, дастурхонларида чой-нон, туршак-қоқилардан бўлак нарса йўқлигини кўриб, ғалати бўлиб кетардим. Бундай хонадонларда яшовчи ўртоқларимнинг бир унисини, бир бунисини уйимизга тез-тез бошлаб кирардим, бирга овқатланардим, дастурхонга қанд ҳам

қўйишларини талаб қилиб туриб олардим. Сен қандни ҳар куни ейсанми, дея ҳавас билан сўраб қўярди болалар. Хоҳласам, кунига ўн марта ейишим мумкин бўлса-да, негадир ёлғон гапириб, онда-сонда беришади холос, деб ғарибланар эдим. Оқ қандни-ку мендан аяшмас эди, бироқ гулдор қоғозчаларга ўралган попукли қандларни қутичада қулфлаб сақлашар, гоҳ қулфбузарлик қилишга мажбур бўлиб, бошимга бало орттирардим. Меҳмонлар келганда, олдиларига товоқчалардаги ширинликларни териб ташлашса, катта бўлиб меҳмонга борсам, наҳотки менинг олдимга ҳам попукли қандларни товоқчаси билан ишониб қўйиб қўйишса, деб ўйлардим. Биламан, егинг келиб турибди, олифталанмасдан лунжингга тикавермайсанми, деган хаёлда меҳмонга хитланиб боқардим.

* * *

Қўшни маҳалладаги мачит биноси ўртасига дувол урилган тарзда иккита синф хонасига мослаштирилган бўлиб, биттасида бешинчи синфгача биз ўқиганмиз. Биринчи ўқитувчимиз Аҳмадали Обидийни “мулла ака” деб чақирардик. У зот бирортамизни турткилаш у ёқда турсин, қаттиқ чақчайганини ҳам эслолмайман. Аччиғини келтирсак, ўзини қаттиқ ҳафа бўлгандек, астойдил аразлагандек тутиб, оқсоқланганича дераза ёнига борар, маъюс қиёфада жим туриб қолар, сочига оқ оралаган, ҳеч кимга озор беришни истамайдиган домламиз билан тезроқ ярашиб олишга тиришардик.

Бошланғичда ўқиётган чоғларимда Заҳрахон деган синглим, Ҳомитжон деган укам қаттиқ шамоллашдан бирин-кетин вафот этишган. Улар қайта-қайта тушимга кираверарди...

Чамаси, болалигимни ҳадеб қўмсайверишимнинг асосий сабаби ҳам шу – ўша даврларга қайтсам-у, Заҳрахон билан Ҳомитжон ёнимда диконглаб юришса, ҳамма ишни йиғиштириб қўйиб, уларни ўйнатаверсам, ўйнатаверсам. Улар вафот этадиган пайт яқинлашгач, ҳаётим яна янгитдан бошланаверса.

* * *

Бобомиз Баҳром ота эшон бўлган эканлар. Уйда мактаб очиб, болаларга дарс бериб ҳам тураркан. У киши оламдан ўтганларида, Обиджон дадам ўн ёшда, Шафоат аммам беш ёшда бўлишган экан.

Сарвинисо бувимизни эшон отанинг аёли сифатида ҳурматлашиб, кўплар зиёратга келиб туришар, отин ойилар тез-тез йиғилиб, китобхонлик қилишарди. Ҳали мактабга бормаган бола бир четда ёнбошлаб олиб, девона Машраб, Або Муслим, бобо Равшан қабилар ҳақидаги ривоятларни берилиб тинглардим.

Дадам эскича илмдан хабардор бўлсалар-да, диндорлар, айниқса таниқли диндорларнинг фарзандлари ҳам қаттиқ кузатув остида бўлган маҳалларда улғайгани учун замонга мос турмуш тарзини танлаган эдилар. Сиёсатга қизиққанларини билмайман. Эсимни таниганимдан то илк ўсмирлик давримгача пахта қабул қилиш пунктида товаршунос бўлиб ишлаган. У киши ўз ишининг ўта билимдони эканлиги, бошқа жойлардаги касбдошлари маслаҳат олишга келиб туришлари тўғрисида кўп гапиришарди. Онамиз Мунис ая ҳозир биркам тўқсондалар. Ёшлигида далага ялангоёқ қатнаб, колхознинг битта нони, бир коса ёвғоншўрваси эвазига саҳардан кечгача ишлаганини бот-бот эслаб туришади. Бизнинг назаримизда аямиз ҳамон кийимимизни ювиб, олдимизга овқат қўйиб, бир тергаб, бир эркалатиб юргувчи ўша-ўша уй бекаси.

Бувимизга ука бўлмиш Усмон тоғамиз сал дувонахонлиги боис уйланмасдан, бизникида яшаб ўтдилар. Бирин-кетин кўтариб катта қилгани учун у кишини ҳаммамиз жуда-жуда яхши кўрардик. Тоғажонимиз вафот этганида ўсмир эдим, нимага йиғлаяпсиз, деб аямга дағдаға қилганим ёдимда.

Дадам 1969 йилда ҳарбийдан қайтишим биланоқ мени уйлантириб, уч ойдан сўнг оламдан ўтдилар. У кишидан саккиз фарзанд қолган, уч опам, тўрт укам бор. Опаларим аллақачон дадамнинг ёшидан ўтиб кетишди. Шунни биламан, ишонгим келмайди.

* * *

Шеър ёзишга бошланғич синфлардаёқ ружу қўйганман. Дастлабки шеърларим ўша отин ойилардан эшитган Машраб ғазаллари радифларига тақлидан битганман. “Гунча” журналининг мухлисига айланганимдан сўнг болаларга тинимсиз ёзишга тушдим. Шу журналда ишловчи Миразиз Аъзам домла мени қулоғимдан тортқилаб шоир қилган, йўқса, бу ҳавасдан ўшандаёқ кўнглим совиб, бошқа ёққа чалғиб кетишим ҳеч гап эмасди.

Ўсмирлигимда дадамнинг ишлари сал орқага кетиб, оиламизга етишмовчиликлар оралаб қолди. Аямиз яхшигина чевар эдилар, ёзда кител, қишда пахтали камзул тикиб сотиб, рўзгорнинг камини ёпиб юришди. Менда ҳам тирикчилик ташвиши эртароқ бошланди, олти-еттинчи синфларда маҳаллалар аҳолисига текин хизмат кўрсатувчи сайёр киночига шогирд тушдим, кейинроқ кечки мактабда ўқиб, пахта заводида трактор миндим. Мактабни битиргач, кўрғошин конида бурғиловчи, қишлоқ кутубхоначиси бўлдим, Самарқанд Молия техникумини тугатиб, аскарликка кетдим. Уч йиллик хизматдан қайтганимдан сўнг, тўнғич ўғил бўлганим учун, отасиз оиланинг бошлиғига айландим. Колхозда табелчи бўлиб иш бошладим.

Шундай хилма-хил ҳаёт, шунча ташвишнинг ичида юриб, шеър ёзишдан барибир кўнглим совимади. Дафтарларим кетма-кет тўлаверди. Туман газетасига мухбирликка ўтганимдан кейин ҳозирги Миллий университетнинг журналистика факультетига сиртдан ўқишга кирдим-у, ниҳоят ўзим кўпдан орзулаб юрган йўлнинг бошига чиқиб олдим. Болаларга аталган “Она Ер” номли биринчи китобим бахтимга энди Миразиз Аъзам домланинг саховати билан 1974 йилда босилиб чиқди.

Туман газетасида олти йилча ишлаб, бирон-бир газета-журнал ёки нашриётга ўрнашиб олиш умидида бошкентга келдим, лоақал олдин мусаҳҳиҳликка ҳам лойиқ кўришмагач, Тошкент ёғ-мой комбинатига боғбон бўлиб жойлашдим. Тошкентга қуруқ ҳою ҳавасга эргшиб эмас, пухта ҳозирлик билан келиш лозимлигини англаб, яна қишлоққа қайтдим. Фарғона радиосидан иш беришди. 1980 йилда “Ёш гвардия”да “Баҳромнинг хикоялари” деган иккинчи китобим босилгач, шу ерда бош муҳаррир бўлиб ишловчи устоз Эркин Воҳидов ҳузурига чақириб, китобингизни ўқиб хурсанд бўлдим, бизга ишга келмайсизми, деб қолдилар. Ёшим ўттиз тўртда эканлиги, бешта фарзандим борлигига қарамай, 1981 йилнинг ёзида нашриётга келиб иш бошладим. Насиб экан, кейинчалик “Ёш куч”, “Муштум” журналларида, Чўлпон номидаги нашриёт, Ўзтелерадиокомпания тармоғида ҳам ишладим.

Ҳозиргача ўттизга яқин китобим чоп этилди, бир неча пьесаларим сахналаштирилди, айрим асарларим асосида болалар учун кинолар яратилди...

Ҳаётимнинг бу ёқдаги қисми ҳақида кўп гаплар айтилган, ёзилган, чўзғилашнинг хожати йўқ деб ўйлайман. Энг муҳими, юртимнинг эркини кўрдим, энг катта армондан халос бўлдим.

Бошимдан нималар кечган бўлмасин, барибир яхши яшадим. Нимаики кўрсатган бўлса, Яратгандан минг марта розиман. Имкон қадар сабрли бўлишга, бориға шукрона айтишга уриниб келдим. Тўғриси ҳам шу экан.

Ҳаёт давом этаяпти. Феълим эса, ўша-ўша – болалигимни қўмсаб-қўмсаб тураман. Бу менга ички куч ато этаверади.

Children's Literature in English

Children's literature in English, literature for children up to early adolescence, has been written since the mid-19th century.

-
-

Ernest Thompson Seton, author, artist

Along with Charles G.D. Roberts, Seton gave the animal story its distinctive form (Library and Archives Canada/C-9485).




Ida and the Wool Smugglers

Illustration by Ann Blades, published by Tundra Books (courtesy McClelland and Stewart).



Kusugak, Michael

Kusugak hunted caribou, seals and whales with his parents by dog team when he was young. He relates these stories in his children's books (courtesy Maclean's).





Mary of Mile 18

Illustration by Ann Blades, published by Tundra Books (courtesy M&S).



"Wynken, Blynken and Nod"

"Wynken, Blynken and Nod" by Eugene Field, illustrated by Ron Berg (1985) (courtesy Ron Berg and Scholastic-TAB Publishing Ltd).



"Jillian Jiggs"

Author Phoebe Gilman created the well-known character "Jillian Jiggs," a tenacious little girl who loves to dress up but always makes a huge mess (courtesy Phoebe Gilman and Scholastic-TAB Publishing Ltd).

Children's Literature in English

Children's literature in English, literature for children up to early adolescence, has been written since the mid-19th century. It was originally a literature in which portrayals of life in the new country - confrontations with and adaptations to the landscape and the native peoples, colonizing the territories and then creating and developing a nation - were in search of appropriate vehicles of expression. During the 19th and early 20th centuries the vehicles were generally those fashionable in Great Britain. At the turn of the century the animal story, the first distinctively Canadian genre, appeared. In the last half of the 20th century, authors and illustrators have used a variety of genres to reflect the geographical and cultural diversity of Canadian life.

The Animal Story

Although animals had been mentioned in earlier literature, the works of Sir Charles G.D. **ROBERTS** and Ernest Thompson **SETON** gave the animal story its distinctive form. Seton's highly popular *Wild Animals I Have Known* (1898) influenced Roberts, whose *The Kindred of the Wild* appeared in 1902 and *Red Fox* in 1905. Drawing on their observations of wildlife and their study of Darwinistic theories of natural selection, both writers focused on the lives of superior members of various species. In *Red Fox*, Roberts combined exceptional strength and intelligence in an individual fox, making him the novel's hero. To Seton, the important fact of animal life was death, often at the hands of man and always tragic. Among later wild-animal stories that end with death are Roderick **HAIG-BROWN's** *Ki-yu: A Story of Panthers* (1934) and Fred Bodsworth's *Last of the Curlews* (1955).

Pets have also provided the focus for many children's books. One of the best-known early children's novels, Margaret Marshall Saunders's *Beautiful Joe* (1894), is the "autobiography" of a "cur" who, having been rescued from a cruel master, lives a long and happy life. Farley **MOWAT's** *The Dog Who Wouldn't Be* (1957) is the humorous story of Mutt, a pet who "at some early moment of his existence ... concluded there was no future in being a dog." Sheila **BURNFORD'S** *The Incredible Journey* (1960) is the account of a 400 km trek across northern Ontario undertaken by 2 dogs and a cat.

The Adventure Story

The adventure story, a major form of Victorian children's literature, influenced Canadian books in the 19th century and, to a lesser degree, the 20th. Emphasizing the goodness of the British Empire, Christianity and physical courage, such British novels as Frederick Marryat's *The Settlers in Canada* (1844) and G.A. Henty's *With Wolfe in Canada* (1886) were immensely popular in Britain and the colonies, and shaped many young Canadians' views of their country. R.M. Ballantyne's firsthand account of the fur trade, *Hudson's Bay* (1848), was followed by his novels *Snowflakes and Sunbeams* (1856) and *Ungava* (1858). The vast landscape, populated by fierce wild animals and heathen savages, was supposedly won for civilization by people such as the young white heroes and heroines of the novels of these authors.

Of 19th-century stories, one of the most interesting is Catharine Parr **TRAILL's** *The Canadian Crusoes* (1852), which combines a knowledge of the wilderness north of Lake Ontario with elements of the survival story made popular by Daniel Defoe's *Robinson Crusoe*. In addition to describing how the 3 central figures, all teenagers, secure the basic necessities, the book portrays their strong belief in divine protection and their rescue of a native girl to whom they teach the tenets of Christianity. The popularity of the traditional adventure story during the early 20th century (eg, Seton's *Two Little Savages*, 1906; Alan Sullivan's *Brother Eskimo*, 1921, and *Brother Blackfoot*, 1937) may account for the appearance of many of its traits in such novels as Haig-Brown's *Starbuck Valley Winter* (1943), Mowat's *Lost in the Barrens* (1956) and James **HOUSTON's** *Frozen Fire* (1977). In each story the male hero grows to maturity, drawing on lessons learned through meeting native people and coping with the harsh wilderness. Tony German's *Tom Penny* (1977) and Bill Freeman's *Shantymen of Cache Lake* (1975) combine historical backgrounds and foregrounds of danger and suspense as youthful heroes confront the elements and evil characters.


Historical Fiction




There is no self-conscious tradition in Canadian fiction of mythologizing major historical characters and events as there is in American children's literature. Thus, in historical fiction, Canadian authors cannot relate their narratives with the confidence that their young readers will have a general familiarity with major eras or events. Certain periods of Canadian history (eg, the War of 1812 and the North-West Rebellion) seem to be favourites in novels. The former has been treated in Barbara and Heather Bramwell's *Adventure at the Mill* (1963) and John F. Hayes's *Treason at York* (1949); the latter in W.T. Cutt's *On the Trail of Long Tom* (1970) and Jan Truss's *A Very Small Rebellion* (1977). The Royal Canadian Mounted Police are portrayed in J.W. Chalmers's *Horseman in Scarlet* (1961); the **LOYALISTS'** escape to Canada in Mary Alice and John Downie's *Honor Bound* (1971), and the Cariboo Gold Rush in Christie Harris's *Cariboo Trail* (1957). In *Underground to Canada* (1977), Barbara **SMUCKER** describes the dangerous journey to Ontario of 3 slaves who have escaped from a Southern plantation. Many contemporary authors have created historical novels about the first half of this century. Barbara Smucker's *Days of Terror* (1979) is an account of the struggles of Mennonites who have fled their Ukrainian village and come to Canada during WWI. Jean Little, in *Listen for the Singing* (1977), details the tensions of a German-Canadian family during WWII. Myra Paperny's family story *The Wooden People* (1976) is set in Alberta in the 1920s, and Brian Doyle's *Up to Low* (1982) and *Angel Square* (1986) are based on the author's 1940s eastern Ontario boyhood.



Set in rural Alberta during the Depression, Cora Taylor's *Summer of the Mad Monk* (1994) presents a young teenager's encounter with a Russian blacksmith he believes to be the famous Czarist leader Rasputin. Paul Yee, in *Curses of the Third Uncle* (1986), deals with the impact the Chinese revolution of 1909 has on a Chinese Canadian girl. *Hockey Bat Harris* (1985), by Geoffrey Bilson, and Kit Pearson's *The Sky is Falling* (1989), *Looking at the Moon* (1991) and *The Lights Go On Again* (1993) recount the struggles of British children evacuated to Canada during WWII. Joy **KOGAWA's** *Naomi's Road* (1986) is based on the author's own experience of being interned as a Japanese-Canadian during WWII.

Some of the most distinguished historical fiction for children is found in books dealing with the native peoples, both before and after European contact. Often these stories centre on the rites of passage, as in **HAIG-BROWN's** *The Whale People* (1962), in which a Nootka youth is thrust into a position of authority after the death of his father. In Edith Sharp's *Nkwala* (1958), a Salish boy searches for a vision to guide him into adulthood. Cliff Faulknor's trilogy, *The White Calf* (1965), *The White Peril* (1966) and *The Smoke Horse* (1968), is set on the prairies just before and during the arrival of Europeans. Stories dealing with contacts between native and European cultures include J.F. Hayes's *Buckskin Colonist* (1947), Doris **ANDERSON's** *Blood Brothers* (1967) and Harris's *Forbidden Frontier* (1968). Jan Hudson's *Sweetgrass* (1984) combines historical research and a feminist viewpoint in detailing the life of a young Blackfoot woman in the early 19th century. Kevin Major's *Blood Red Ochre* (1989) draws parallels between the life of a contemporary Newfoundland native girl and her Beothuk ancestors.

Writers of biography and historical nonfiction have always had to avoid the pitfalls of accurate but dry scholarship, and exciting but inaccurate fictionalization. Among those biographies that have avoided the dangers are Haig-Brown's *Captain of the Discovery: The Story of Captain George Vancouver* (1956), Kay Hill's *And Tomorrow the Stars: The Story of John Cabot* (1968) and Roy **DANIELLS's** *Alexander Mackenzie and the North West* (1969). Accurate and lively histories for young readers include Pierre **BERTON's** *The Golden Trail* (1954), T.M. Longstreth's *The Scarlet Force* (1953) and William Toy's *The St. Lawrence* (1959), and Janet Lunn and Christopher Moore's *The Story of Canada* (1992). Although native peoples have been sensitively treated in fiction and in adaptations of folklore, they have not, with the exception of Harris's *Raven's Cry* (1966), been the subject of major biographies or histories for children.







1. O'zbek tilining izohli lug'ati.	8. Sinonimlar lug'ati.	1. O'zbekiston milliy ensklopediyasi.
2. Imlo lug'ati.	9. Omonimlar lug'ati.	2. Bolalar ensklopediyasi.
3. Atama lug'ati.	10. Antonimlar lug'ati.	3. Xotin-qizlar ensklopediyasi.
4. Etimologik lug'at.	11. Frazeologik lug'at	4. Uy-ro'zg'or ensklopediyasi.
5. Orfografik lug'at.	12. Sheva lug'ati.	
6. Orfoepik lug'at.		
7. Morfemik lug'at.		

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

**BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM
USLUBIYOTI KAFEDRASI**

**Ona tili va adabiyot
fanining
adabiyot qismi bo'yicha**

Test topshiriqlari

1. O‘zbek bolalar adabiyotining fan sifatida takomillashuvi va unga doir darsliklarning chop qilinishi to‘g‘ri qayd etilgan javobni aniqlang?

- a) XX asrning o‘rtalari, 1953, 1967, 1973, 1976, 1978, 1981, 1989;
- b) XX asr boshlari. 1905, 1910, 1937, 1953, 1981, 1989;
- d) XIX asr oxiri. 1889, 1898, 1900, 1913, 1917.
- e) to‘g‘ri javob yo‘q.

2. O‘zbek bolalar adabiyotining paydo bo‘lish omillari qaysi javobdabosqichma-bosqich to‘g‘ri ifodalangan?

a) folklor, jahon adabiyoti, rus adabiyoti, mumtoz adabiyot, jadid adabiyoti, mustaqillik davri adabiyoti;

b) ijtimoiy voqelik, xalq og‘zaki badiiy ijodi, o‘zbek mumtoz adabiyoti, yangi realistik o‘zbek adabiyoti, jahon varus xalqlari bolalar adabiyotini o‘rganish va o‘zlashtirish, ilk maktab darsliklari;

d) yozma yodgorliklar, xalq og‘zaki ijodi, sho‘ro davri mafkurasi, mustaqillik davri adabiyoti;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

3. Bolalar kitobxonligi haqidagi tushuncha qaysi javobda batafsilroq qaydetilgan?

a) umuman, kitob o‘qish hodisasi, kattalar didi, hayotiy tajribasi dunyoqarashiga mos holda yaratilib, bolalarning ham o‘qish doirasida amal qilgan hammmabop badiiy - ilmiy hamda professional bolalar adabiyoti;

b) bolalarning o‘zlari tomonidan ijod etilgan adabiyot namunalari;

d) kattalar uchun adabiyot namunalari;

e) faqat bolalarga ixtisoslashgan, ulargagina mo‘ljallangan adabiyot namunalari.

5. Bolalar kitobxonligi va adabiyotirasidagi tafovut qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) bolalar kitobxonligi og‘zaki, adabiyoti esa yozma shakldabo‘lishi;

b) bolalar kitobxonligi kattalarga, adabiyoti bolalargagina mo‘ljallanganligi;

d) bolalar kitobxonligida didaktikaning ustivorligi, adabiyotida esa uning ko‘zga tashlanmasligi;

e) bolalar kitobxonligi ijtimoiy-estetik hodisa sanalib unda mantiqiy tafakkurning ustivorligi, bolalar adabiyotida esa obrazli badiiy tafakkur amal qilib, adabiy-estetik hodisa hisoblanishi.

6. Badiiy adabiyotda obraz yaratuvchi yagona vosita qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) yozuv;

b) so‘z;

d) til;

e) tovushlar.

9. ”Bolalar adabiyoti bu..” ushbu mulohaza qaysi javobda to‘g‘ri davom ettirilgan ?

a) bolalarning o‘zlari o‘qishlari mumkin bo‘lgan adabiyot;

b) ota-onalar o‘qishiga mo‘ljallangan adabiyot;

d) sodda mazmunga ega rasmlar majmui;

e) bolalarning yosh xususiyatlariga ko‘ra ularga ixtisoslashgan professional badiiy adabiyot namunalari;

7. Bolalar adabiyoti fanining obyektini qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) bolalar uchun yozilgan yuksak badiiy ijod namunalari va adiblar ijodi;

b) maktab darsliklari;

d) bolalar matbuoti;

e) kichkintoylar psixologiyasi.

8. “Bolalar folklori bu-..” Qaysi javobdagi mulohaza o‘rinli?

- a) kattalarning bolalar uchun ijod etgan og‘zaki adabiyotlari;
- b) kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining o‘zaro uyg‘unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o‘yinlar, qo‘shiqlar, musiqiy poetik janrlar tizimidan iborat xalq og‘zaki ijodining tarmog‘i.
- d) bolalarning o‘zlari tomonidagina ijro etiladigan turli qo‘shiqlar;
- e) mavsumiy-marosim qo‘shiqlari.

9. O‘zbek bolalar folklorini to‘plash, tartib berish qachon va kim tomonidan amalga oshirilgan hamda u qanday nomlanadi?

- a) 1965-yil, Sh. Sa‘dulla, “Yoriltosh”;
- b) 1937-yil, Elbek, “Bolalar qo‘shig‘i”;
- d) 1984-yil, O. Safarov, “Boychechak”;
- e) 1975-yil, G. Jahongirov, “O‘zbek bolalar folklori”.

10. “Alla” istilohining lug‘aviy ma‘nolari qaysi variantdayorqinroq aks etgan vaxalq qo‘shiqlarining qaysi turkumiga mansub?

- a) “Olloh”, “aldamoq”, “ensa” ma‘nolarini bildiradi, erkalash poeziyasining beshik qo‘shiqlari turkumiga kiradi;
- b) “uxlamoq”, “tinchlamoq”, “jim bo‘lmoq” ma‘nolarini bildiradi, go‘dak qo‘shiqlari turkumiga kiradi;
- d) “yig‘lamoq”, “kuylamoq”, “orom olmoq” ma‘nolarini bildiradi, bolalik turkumidagi qo‘shiq hisoblanadi;
- e) barcha javoblar noto‘g‘ri.

11. Allaning ijro etilishi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) xor jo‘rligida ijro etiladi, mungli ohang;
- b) ifodali aytiladi, quvnoq ohang;
- d) alla faqat kuylanadi, monoton ohang;
- e) barcha javoblar to‘g‘ri.

5. Go‘dak uchun allaning nimasi muhim?

- a) kuyi;
- b) so‘zi;
- d) tovushi;
- e) hech biri.

12. Allaning kompozitsion butunligini ta‘minlovchi unsurlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) matni;
- b) kuyi;
- d) ohangi;
- v) so‘z, ohang va harakat birligi.

13. Tez aytishlar O‘zbekistonning turli joylarida qanday yuritiladiva undan kuzatilgan asosiy maqsad nima?

- a) “chalg‘itma”, “adashish” shakllari uchraydi, maqsad: bir nafasda shiddat bilan ayta olish;
- b) “chalish”, “adashtirish” deb yuritiladi, maqsad: alliteratsion so‘zlarni aytish;
- d) “total”, “chalish”, “adashish”, “chalg‘ituv” deb yuritiladi, maqsad: tez aytishda chalg‘ish, tutilish;
- e) to‘g‘ri javob yo‘q.

14. Tez aytishlarning yuzaga kelishi va janriy xususiyati qaysi javobda mufassalroq aks etgan?

- a) nutq tovushlari alliteratsiyasiga asoslanuvchi folklor janri;
- b) o‘xshash tovushli so‘zlar yoki so‘z birikmalarining bir nafasda shiddatli aytilishi;

d) u yoki butovush yo so‘z talaffuzida chalg‘ish natijasida voqe bo‘luvchi ma‘no o‘zgarishi;

e) a,b,d javoblar.

15. Topishmoqlarning paydo bo‘lish davri va yetakchi manbalari qaysi javobda o‘z aksini topgan?

a) antik davr, xalqning turmush tarzi;

b) qadimiy ajdodlarimizning animistik va totemistik qarashlari shakllana boshlagan zamonlar, ajdodlarning tabiat stixiyasi oldidagi ojizliklari, xalq ertaklari;

d) o‘rta asrlar, yozma adabiyotning takomillashuvi, xalq durdonalariga murojaat;

e) XX asr boshlari, xalq og‘zaki ijodini to‘plash va o‘rganish.

16. Topishmoqlarning tabiatiga xos xususiyat qaysi javobda to‘g‘ri ifodalangan?

a) hayvonot va nabotot dunyosi, tabiat hodisalariga oid aniq va ko‘z bilan ko‘rish mumkin bo‘lgan narsalarni ko‘proq jumboqlashtiradi;

b) yashiringan narsaning asosiy xususiyatlarini, eng muhim etakchi belgilarini xoh ko‘chma ma‘noda, xoh o‘z ma‘nosida bo‘lsin- aniq va ravshan izohlab beradi;

d) Har qanday topishmoq jumboq va javob qismlarining bir butunligidan iboratdir;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

17.1. Beli, belibelang ot, 2. Tog‘da talaymonni ko‘rdim,

Beli qalin yo‘g‘on ot, Suvda sulaymonni ko‘rdim,

Tog‘u toshdan yumalab, Tuzsiz pishgan oshni ko‘rdim,

Tura kelar to‘rig‘ ot; Yumalab yotgan boshni ko‘rdim.

Keltirilgan ikkala topishmoqda yashiringan predmet hamda ularning o‘zaro tafovutlanuvchi xususiyati qaysi variantda to‘g‘ri aks etgan?

a) birinchisida-egarli ot, ikkinchisida- bo‘ri, baliq, sumalak, toshbaqa; o‘zaro tafovuti - qofiyalanishida;

b) birinchisida-ot, ikkinchisida- bo‘ri, baliq, holvaytar, toshbaqa; birinchisi 15 so‘zli, ikkinchisi 12 so‘zli;

d) birinchisi- toshbaqa, ikkinchisi- bo‘ri, baliq, sumalak, toshbaqa; birinchi topishmoq bir predmetli, ikkinchisi ko‘p predmetli;

e) to‘g‘ri javob yo‘q.

18. Topishmoqlarning yozma badiiy adabiyotga ta‘sirini umumtoz she‘riyatdagi qanday janrlar bilan asoslash mumkin?

a) lug‘z, chiston, muammo, ta‘rix muvashshah;

b) chiston, masal, zarbulmasal, aforizm, lug‘z, tuyuq;

d) ruboiy, tuyuq, qit‘a, fard, chiston, lug‘z, maqol, chandish;

e) u faqat xalq og‘zaki ijodidagina mavjud.

19. O‘zbek bolalar she‘riyatida adabiy topishmoq janri qaysi adiblar ijodida ko‘proq uchraydi ?

a) Navoiy, Uvaysiy, Q. Muhammadiy, Sh. Sa‘dulla, G‘. G‘ulom;

b) P. Mo‘min, S. Barnoyev, S. Ahmad, A. Obidjon, T. Adashboyev;

d) A. Avloniy, Q. Hikmat, X. To‘xtaboyev, R. Tolib;

e) Sh. Sa‘dulla, I. Muslim, A. Rahmat, P. Mo‘min, S. Barnoyev, Q. Muhammadiy.

20. Maqollar el orasida yana qanday atamalar bilan aytilishi qaysi variantda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, foyda;

b) maqol, hikmatli so‘z, tanbeh, mashoyixlar so‘zi;

d) donolar yoki donishmandlar so‘zi, oqinlar so‘zi, otalar so‘zi;

e) a,b,d javoblar.

21. Maqolning qaysi so‘zdan olinib, qanaqa ma‘no anglatishi va qanday hodisaligi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang?

a) fors-tojikcha “matal” so‘zidan olingan, “so‘z” ma‘nosini anglatadi, umumadabiy hodisa;

b) arabcha “qavvola” soʻzidan olingan, “aytmoq,soʻzlamq” maʼnolarini bildiradi, umumfolklor hodisasi;

d) oʻzbekcha “hikmat” soʻzidan olingan, dono fikr maʼnosiga ega,donishmandlikka xos hodisa;

e)a,b,d javoblar.

22. Ertaklarning paydo boʻlish anʼanasi va shakllanish jarayoni qaysi variantda oʻz aksini topgan?

a) u ibtidoiy odamlarning turmushdagi biror voqeani oddiygina hikoya qilishlari asosida yuzaga kelgan;

b) ertaklar soʻzga sigʻinish, ilohiy kuchlarga sigʻinish, animistik,totemistik, fetishistik eʼtiqodlar,gallyutsinatsiya va tush taʼsiridafantastik vositalarga toʻlisha borgan;

d) insonlarning hayvonlarni ovlashlari, xonakilashtirishlari, mahsulotlari va kuchidan foydalanishlari oqibatida hayvonlar haqidagi ertaklar, nihoyat, feodal munosabatlar tarkib topib, ijtimoiy jarayon takomillasha borgachhayotiy-maishiy ertaklar ham paydo boʻlgan;

e)barcha javoblar toʻgʻri;

23. Ertaklarni ijro etish tartibi haqidagi mulohaza qaysi variantda toʻgʻri?

a) ertaklar professional ijrochilikka asoslangan;

b) oʻtmishda ertaklar yilning maʼlum davrida belgilangan paytda, ijrochilik salohiyatiga ega boʻlgan yoshi ulugʻ,dono, hurmatli va eʼtiborli kishilar tomonidan aytilgan;

d) ertak ertakchi tomonidan yo bir kishiga, yo butun bir jamoaga qarata aytiladi; ertak, odatda, dehqonlarning dala yumushlari tugagan paytda-kuz va qish mavsumlarida, uzun va zerikarli oqshomlarda aytilgan;

e) barcha javoblar toʻgʻri.

24. Sayyor sujetli ertaklarga xos xususiyatlar qaysi javobda oʻz aksini topgan?

a) shomdan boshlanuvchi qorongʻulik tonggacha hukmron boʻlganligidan ertaklar olamiga xos sirlilik;

b) ertaklar koʻpincha mazmunan oʻzaro oʻxshasalar-da, biroq milliy ruh, milliy urf-odat, milliy dunyoqarash, milliy tilga xosifodaviy vositalarva geografik muhit tasviriga koʻra farqlanuvchimustaqil adabiy- ogʻzakihodisa;

d) ertaklarning ayrimqismlari bevosita dramatik harakat yordamida , baʼzan deklamatsion shaklda ijro qilinishi;

e) a,b,d javoblar.

25. Oʻzbek xalq ertaklari ifodalayotgan voqeligining sajiyasi,gʻoyaviy mazmuni, obrazlar talqini, badiiy tili, uslubi va boshqa xususiyatlariga koʻra necha turga boʻlinadi ? Ular qaysilar?

a) 5 turga: sehrlil, novellistik,kumulyativ,hayvonlar haqida,hayotiy ertaklar;

b) 2 turga: fantastik va realistik;

d) 3 turga: hayvonlar haqidagi, odamlar haqidagi, hayotiy ertaklar;

e)3 turga: sehrlil-fantastik, hayvonlar haqidagi, maishiy- hayotiy ertaklar.

26.Tez aytishlar Oʻzbekistonning turli joylarida qanday yuritiladi va undan kuzatilgan asosiy maqsad nima?

a) “chalgʻitma”, “adashish” shakllari uchraydi, maqsad: bir nafasda shiddat bilan ayta olish;

b) “chalish”, “adashtirish” deb yuritiladi,maqsad: alliteratsion soʻzlarni aytish;

d) “tutal”, “chalish”, “adashish”, “chalgʻituv” deb yuritiladi, maqsad: tez aytishda chalgʻish, tutilish;

v) toʻgʻri javob yoʻq.

27.Tez aytishlarning yuzaga kelishi va janriy xususiyati qaysi javobda mufassalroq aks etgan?

a) nutq tovushlari alliteratsiyasiga asoslanuvchi folklor janri;

b) o'xshash tovushli so'zlar yoki so'z birikmalarining bir nafasda shiddatli aytilishi;
d) u yoki bu tovush yo so'z talaffuzida chalg'ish natijasida voqe bo'luvchi ma'no o'zgarishi;

v) A,V,D javoblar.

28. "Bir tup tut" tez aytishi qaysi unli va undosh tovushlar alliteratsiyasiga asoslangan, necha so'zdan iborat hamda u qaysi yoshdagi bolalar repertuariga xos?

a) "T" portlovchi, "R" undoshlari va "U" unlisi alliteratsiyasiga asoslangan. 27 so'zdan iborat, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar repertuariga xos;

b) "P" portlovchi undoshiga asoslangan, 28 so'zdan iborat, kichik maktab yoshidagi bolalar repertuariga xos;

d) "T" va "P" portlovchi undoshlari hamda "U" unlisi alliteratsiyasiga asoslangan, 28 so'zdan iborat, o'rta va katta yoshdagi bolalar repertuariga xos;

v) to'g'ri javob yo'q.

29. Qishda kishmish pishmash,

Pishsa kishmish qishmash.

-Bu tez aytishdagi muddao husni, tovush alliteratsiyasi hamda qanaqa ma'lumot tashiyotganligi qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?

a) "kishmish", "sh" undoshi, qish fasli;

b) "pishmoq", "m" undoshi, pishmaslik haqida ma'lumot;

d) "qish", "sh" undoshi, kishmish haqida ma'lumot;

v) "q", "sh", "m" undoshlari alliteratsiyasiga bag'ishlangan

30. Alisher Navoiy ijodining bolalar kitobxonligidagi o'rni qaysi asarlar bilan belgilanadi?

a) "Hayratul abror", "Mahbub ul-qulub", "Arbain hadis"

b) "Farhod va Shirin", "Lisonut tayr", "Sabba'i sayyor"

d) "Saddi Iskandariy", "Layli va Majnun", "Mantiqut tayr"

e) barcha javoblar to'g'ri

31. Qaysi javobda "Hayratul abror" dostoniga xos asosiy xususiyatlar bayon etilgan?

a) Doston 1488 yilda yozilgan bo'lib, 64 bobdan tarkib topgan;

b) Dostonning asosini 20 maqolot tashkil etadi, hikoya va masallar ularga ilovalar sanaladi;

d) Shoir bu asarda axloqiy-ta'limiy qarashlar silsilasidaxulq -odobni, mehnatsevarlikni, saxovatpeshalikni umuman, insonni sharaflovchi ezgu fazilatlarini targ'ib, yaramas odatlarni esa tanqid qiladi;

e) barcha javoblar to'g'ri.

32. Navoiy umrining so'ngida ustozlari Sa'diy va Jomiylardan ilhmlanib yozgandaktik asarining nomi, necha tarkibiy qismdan iboratligi ifodalangan javobni belgilang.

a) "Lisonut-tayr", yetti asosiy qism;

b) "Saddi Iskandariy", besh asosiy qism;

d) "Sabba'i sayyor", yetti qism;

e) "Mahbub ul-qulub", uch qismdan iborat;

33. "Mahbub ul-qulub"dagi "tanbih" so'zining ma'nosi va mazmun mohiyati qaysi javobda to'g'ri?

a) Nojo'ya xatti-harakat uchun beriladigan ta'zir, koyish, ogohlantirish yoki jazo;

b) Navoiyning uzoq hamda murakkab hayot tajribalarining natijalari, xulosalari bo'lib, aforistik xarakterga ega;

d) lo'nda, qisqa va obrazli qilib yaratilgan hikmat va donolik namunalari;

e) B va D javoblar.

34. "Bu paytda mening qiziquvchan ta'bim Farididdin Attorning "Mantiqut - tayr" dostoniga ko'ngil qo'ygani edi. Men bu asarni takror-takror o'qir, yosh ko'ngil

undan bahra topmoqda edi. ..Undagi ajoyib hikoyatlarga o'rganib qoldim, qush tilidan aytilgan kinoya va majoziy fikrlar menga oshno bo'lib qoldi". Bu e'tirof qaysi ijodkor tarjimai holiga xos va u qanday munosabat bilan aytilgan? To'g'rivariantnianiqlang.

- a) Sa'diy tarjimai holi, "Guliston" dostonining yozilish sababi;
- b) Jomiytarjimai holi, "Bahoriston" debochasida;
- d) Navoiy tarjimai holi, "Lisonut-tayr" dostonining yozilish sababini izohlash;
- e) Ibn Sino tarjimai holi, "Tayr risolasi"ni yozish jarayonida.

35. Majoziy personajlar- Simurg', Hudhud va qushlarning ramziy ma'nosi hamda ular ishtirok etgan asar nomito'g'ri qayd etilgan javobni belgilang.

- a) Simurg'-xudo, Hudhud-shayx, murshid, qushlar -kishilar; "Lisonut tayr";
- b) Simurg'-o'ttiz qush, Hudhud-popishak, qushlar-insonlar; "Tayr risolasi";
- d) Simurg'-si murg', Hudhud-podsho, qushlar-xalq; "Mantiq-ut tayr";
- e) barcha javob to'g'ri.

36. Abitsedariy mazmuni va mohiyati qaysi javobda to'g'ri qo'llangan?

- a) Alifbe manzumalar-o'qish va yozishni o'rgatishga asoslangan;
- b) Alfavit, harflarni o'rgatgan;
- d) Krill alifbosiga asoslangan "O'qish kitob"lari ;
- e) To'g'ri javob yo'q.

37. O'zbek tilida bitilgan ilk alifbo-manzuma nomi va muallifi bayon etilgan javobni belgilang.

- a) "Mufradot", Mirali Tabriziy;
- b) "Yakka baytlar", Anbar Otin;
- d) "Sirot ul-xat", Sulton Ali Mashhadiy;
- e) "Savodi ta'lim", Shermuhammad Munis.

38. "Zafar va Zahro", "Haqgo'ylar", "Bobom" dostonlari muallifini aniqlang.

- a) Sulton Jo'ra;
- b) G'.G'ulom;
- c) Zafar Diyor;
- d) Oybek.

39. Oybekning avtobiografik qissasining nomi qaysi javobda to'g'ri?

- a) "Alisherning yoshligi";
- b) "Bolalik";
- c) "Zafar va Zahro"
- d) "Shoirning bolalaigi"

3. Oybekning biografik qissasi nomi qaysi javobda to'g'ri?

- a) "Alisherning yoshligi";
- b) "Bolalik";
- c) "Zafar va Zahro";
- d) "Shoirning bolalaigi".

40. Oybekning xorijlik bolalar hayotidan hikoya qiluvchi qissalari qaysi qatorda to'g'ri korsatilgan?

- a) "Alisherning yoshligi", "Haqgo'ylar";
- b) "Qonli barmoqlar", "Zafar va Zahro";
- c) "Bobom", "Bolalik";
- d) "Singan umid", "Tillatopar".

41. Oybek buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodini o'rganishga kirishgan davri va Navoiy haqidagi asarlari nomi qaysi javobda to'g'ri?

- a) 1940 yildan, "Navoiy" romani, "Alisherning yoshligi", "Bolalik", qissalari;
- b) 1960 yillardan, "Guli va Navoiy", "Navoiy", "Bobom" dostonlari;
- c) 1928 yildan, "Navoiy", "Guli va Navoiy" dostonlari, "Navoiy" romani, "Alisherning yoshligi" qissasi;
- d) "Husayn va Navoiy", "Alisher navoiy" qissalari.

42. “Bolalik” qissasidagi Musa obrazining hayotdagi asosi qaysi javobda to‘g‘ri?

- a) adib Oybekning o‘zi;
- b) adib Oybekning bobosi;
- c) adib Oybekning ukasi;
- d) adib Oybekning otasi.

43. Hamid Olimjonning bolalar va o‘smirlar kitobxonligiga daxldor asarlari mundarijasini aniqlang;

- a) “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg‘ ” ertak dostoni;
- b) “ Hulkarning she‘ri”, “Samolyot”, “Lola”, “Vatan”, Ona va o‘g‘il she‘rlari;
- c) “Jangchi Tursun”, “Zafar dostoni”;
- d) barcha javob to‘g‘ri

44. Hamid Olimjon xalq og‘zaki ijodi ta‘sirida qaysi dostonlarni yaratdi?

- a) “Jangchi Tursun”, “Semurg‘”;
- b) “Oygul bilan Baxtiyor”;
- c) “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod”;
- d) b va c javoblar.

45. H.Olimjon “Oygul va Baxtiyor”ni xalq og‘zaki ijodidagi qaysi ertak asosida yozgan?

- a) “Malikai Husnobod”;
- b) “Malikai Turandot”;
- c) “Guliqahqah”;
- d) “Uchar gilam”;

46. “Oygul va Baxtiyor” ertak dostonidagi Darxon kim va u nima uchun isyon ko‘taradi?

- a) Oygulning otasi, ozodlik uchun jabr –zulmga qarshi ozodlik uchun kurash olib borgan isyonchilarning boshlig‘i;
- b) Jambil xonining zolimligini fosh etib, ozodlik yo‘lida qurbon bo‘lgan mehnatkash xalq vakili;
- c) Jambil elining xoni;
- d) a va b javoblar.

47. Toshkent qishloq xo‘jalik texnikumi, O‘rta Osiyo davlat universiteti biologiya fakultetini tamomlab, maktabda botanika o‘qituvchisi bo‘lib ishlashiga qaramay, ijodkor sifatida mashhur bolalar shoirini aniqlang?

- a) Sulton Jo‘ra;
- b) Zafar Diyor;
- c) G‘afur G‘ulom;
- d) Quddus Muhammadiy;

48. Bir maktabda gap mish-mish

Turg‘unning dumi bormish... Ushbu misralar muallifi, she‘rning nomi va yo‘nalishi qaysi javobda to‘g‘ri?

- a) Zafar Diyor, “Qahramon”, hajviy;
- b) Q.Muhammadiy, “Dum”, yumoristik ;
- c) Q.Muhammadiy, “Lapashang”, satiric;
- d) Q.Muhammadiy, “Nomsiz erkatoylar”, yumoristik.

49. Q.Muhammadiy ijodining cho‘qqisi-besh kitobdan iborat kitoblarning nomi, mundarijasi qaysi javobda to‘g‘ri qayd etilgan?

- a) 1-kitob-“Tabiat alifbesi”, quyosh, havo, yer va suv haqida;
- b) 2-kitob- “Cho‘pon bobo qo‘shig‘i”, jonivorlar haqida; 3-kitob “Qanotli do‘stlar”, 100 dan oshiq qushlarning hayoti aks etgan;
- c) 4-kitob-“Bog‘larda bolalar”, o‘simliklar va dov-daraxtlar haqida; 5-kitob “Odam-olam qo‘shig‘i”-insonlar haqida;
- d) A, B, C javoblar.

50. Q.Muhammadiyning ertak- dostonlari qaysi javobda to'g'ri?

a) "Bir o'zboshimcha chumchuq haqida", "Qo'ng'izoy va Sichqonboy", "Sandal va pechka";

b) "Tabiat alifbesi", "Odam-olam qo'shig'i";

c) "Momaqaymoq", "Shaftoli doktor";

d) "Asalari va Ahmadjon", "Mamajon shofyor".

51. Ushbu misralar muallifi kim?

Do'stlar mening yurtimni,

O'zbekiston deydilar.

Dong'i tutgan dunyoni

Bog'u bo'ston deydilar.

a) Hamid Olimjon;

b) Zafar Diyor;

c) Q.Muhammadiy;

d) Q.Hikmat.

52. "Kapalak", "Binafsha", "Navbahor", "Qushlar haqida qo'shiq" singari mashhur she'rlar muallifi va bu asosan qaysi yoshdagi bolalarga mo'ljallanganini aniqlang?

a) G'.G'ulom, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga;

b) Q.Muhammadiy, bolalar va o'smirlarga;

c) Z.Diyor, kichik maktab yoshidagi bolalarga;

d) to'g'ri javob yo'q.

53. Zafar Diyorning lirik –epik asarlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) "Mashinist", "Yuksak tog', keng o'tloq va mard o'rtoq haqida qissa";

b) "Qushlar haqida qo'shiq", "Madriddan kelgan mehmon";

c) "Tilsiz o'rtoq", "Madriddan kelgan mehmon", "Mamlakat", "Kazbek";

d) A va D javoblar.

54. Zafar Diyorning qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish mavzusidagi asari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) "Kichkina bog'bon haqida doston";

b) "Yuksak tog', keng o'tloq va mard o'rtoq haqida qissa";

c) "Madriddan kelgan mehmon";

d) "Mashinist".

55....1907 yilda Toshkent shahrida mehnatkash dehqon oilasida dunyoga keldi. 1925 yilda esa uning birinchi she'ri "Chuvalachi" maydonga keldi.Qaysi javob ma'lumotga mos?

a) Zafar Diyor;

b) Shukur Sa'dulla;

c) Quddus Muhammadiy;

d) G'afur G'ulom.

56. 1910 yilning 15 yanvarida Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Qag'altom qishlog'ida tug'ilgan bolalar adibi qaysi javobda keltirilgan?

a) Omon Muxtor;

b) Safar Barnoyev;

c) Sulton Jo'ra;

d) Zafar Diyor.

57. Sulton Jo'raning ilk she'rlari qachon va qayerda chop etilgan hamda dastlabki kitoblarining nomi to'g'ri qayd etilgan javobni aniqlang?

a) 1933 yilda Buxoro yosh shoirlarining "She'rlar" to'plamida;

b) 1939 yilda "Fidokor", 1941 yilda "Moskva"she'riy to'plamlari, 1942 yilda "Iroda" nomli pesasi nashr etilgan;

c) shoir vafotidan so'ng "Havo rang gilam", "Zangori gilam", "Bruno", "Parvoz", "Qaldirg'och", "Tanlangan asarlar" kitoblari bosilib chiqqan;

d) barcha javoblar to'g'ri.

58. Sulton Jo'raning Vatan urushi yillarida yaratgan asarlari nomi keltirilgan javobni aniqlang?

a) "To'pchi Muhammad", "Pulemyotchi ovozi", "Chavandoz", "Uch og'ayni botirlar", "Sog'incli salom";

b) "Nayzamiz", "Qahramon Qo'chqor", "Jahon seni olqishlar", "Berlin artekasida", "Salom xat";

c) "Qaldirg'och", "Zangori gilam", "Dengiz tagida", "Tinish belgilarining majlisi";

d) A va B javoblar.

59. Sulton Jo'raning pedagog –shoir sifatidagi ta'lim-tarbiyaviy she'rlari qaysi javobda to'g'ri?

a) "Kimning xati chiroyli", "Tinish belgilarining majlisi", "Harflar paradi";

b) "Oy nechta", "Mamatning kechirmishi", "Yaxshi"ning maqtovi";

c) "Sog'inchli salom", "Salom xat", "Sog'inish", "Yolg'onchi";

d) to'g'ri javob yo'q.

60. Uqdingizmi? Yetadimi? Bormi savol?

Yoki o'zim so'rayinmi sizdan savol? **bu misralar nimani tilidan aytilgan, qaysi she'rdan olingan va uning muallifini aniqlang.**

a) "Gunafsha", binafsha tilidan, Zafar Diyor

b) "Tinish belgilarining majlisi", so'roq belgisi tilidan, Sulton Jo'ra;

c) "Harflar paradi", harflar tilidan, Sulton Jo'ra;

d) "Temirlar o'yini", temirlar tilidan, Q. Muhammadiy.

61. Gar undalma gapda kelsa qoq o'rtada,

Uning ikki yonboshida men jo'rttaga...

Gar undalma gap so'ngida kelsa, u choq,

Undan oldin qo'ilarman, tushun o'rtoq! **Bu ta'rif qaysi tinish belgisiga xos. Sh'er nomi va muallifini aniqlang.**

a) qo'shtirnoqqa, "Kimning xati chiroyli", Sulton Jo'ra;

b) "A" harfiga, "Harflar paradi", Sulton Jo'ra;

c) tirega, "Tinish belgilarining majlisi", Sulton Jo'ra;

d) vergulga, "Tinish belgilarining majlisi", Sulton Jo'ra;

62. Chiroyli yoz, yozsang xat!

Chunki bu ham zo'r san'at... **she'r nomi, muallifi va mohiyati qaysi javobda to'g'ri?**

a) "Kimning xati chiroyli", Sulton Jo'ra,

b) yozuvning go'zal bo'lishida partada to'g'ri o'tirish qoidasiga qat'iy rioya qilish;

c) bolaning sog'lom, baquvvat bo'lib kamol topishi;

d) barcha javoblar to'g'ri.

63. Shukur Sa'dulla asarlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) "Shohista", "Dastyor qiz", "Ozoda", "Komandirning boshidan kechirganlari" she'rlar va hikoyalar to'plami;

b) "Yoriltosh", "Bizning bog'chamiz", "Ikki blakuzuk", "Zubayda", "Afsona yaratgan qiz" pesalari;

c) "Ism qo'yilmagan xat", "Sening bayraming", "Mening aziz bolalarim" qissa va ertak-dostonlari

d) noto'g'ri javob yo'q.

64. Milt etib chiqdi quyosh,

Dedi:-Do'stlar, qish odosh.

Ko'rsak yo'q qora bulut,

Yer yuzi ko'k gilam –o't. **Bu misralar Sh.Sa'dullaning qaysi she'ridan olingan va nima ta'riflanmoqda?**

- a) "Yomg'ir yog'aloq", yomg'r;
- b) "Boychechak", gul;
- c) "To'rt fasl", bahor ;
- d) "To'rt fasl", kuz.

65. Shukur Sa'dullaning xalq ertaklari uslubida yozilgan asarlarini aniqlang?

- a) "Uch ayiq", "Ayyor chumchuq", "Ari bilan qaldirg'och", "Laqma it";
- b) "Ivirsiq", "Anqov", "Komandirning boshidan kechirganlari";
- c) "Ikki donishmand", "Yalqov ayiqcha", "No'xat polvon", "It o'ziga qanday qilib do'st topdi", "Chol bilan bo'ri";
- d) A va C javoblar.

66. Shukur Sa'dullaning qissalari qaysi javobda keltirilgan?

- a) "Shohista", "Yalqov ayiqcha", "Dastyor qiz";
- b) "Aziz qishlog'im", "Komandirning boshidan kechirganlari";
- c) "Kachal polvon", "Ism qo'yilmagan xat";
- d) B va C javoblar.

67. Shukur Sa'dullaning xalq ertaklari uslubida yozilgan asarlarini aniqlang?

- a) "Uch ayiq", "Ayyor chumchuq", "Ari bilan qaldirg'och", "Laqma it";
- b) "Ivirsiq", "Anqov", "Komandirning boshidan kechirganlari";
- c) "Ikki donishmand", "Yalqov ayiqcha", "No'xat polvon", "It o'ziga qanday qilib do'st topdi", "Chol bilan bo'ri";
- d) A va C javoblar.

68. Shukur Sa'dullaning qissalari qaysi javobda keltirilgan?

- a) "Shohista", "Yalqov ayiqcha", "Dastyor qiz";
- b) "Aziz qishlog'im", "Komandirning boshidan kechirganlari";
- c) "Kachal polvon", "Ism qo'yilmagan xat";
- d) B va C javoblar.

69. "Qishloqdagi jiyanlarim", "Besh baho", "Cho'l havosi", "Yaxshi ism", "Meni taniysizmi?", "Bolajonlarim", kabi hikoyalar qaysi bolalar adibi qalamiga mansub?

- a) Shukur Sa'dulla;
- b) Hakim Nazir;
- c) Omon Muxtor;
- d) Zafar Diyor.

70. Hakim Nazirning kichik yoshdagi bolalar hayotini aks ettirishga bag'ishlangan asarlari qaysi javobda to'g'ri?

- a) "Bir og'iz so'z", "Rasmi kitobcha", "Davronning qushchasi", "Qanddon";
- b) "Qaysargina ukam", "Yaxshi ism", "Ikki o'rtoq", "Bulbul", "Igna", "Bir tup g'o'za";
- c) A,B javoblar;
- d) barcha javob to'g'ri.

71. H.Nazirning "Yonar daryo" qissasida qanday manzaralar aks etgan va voqealar kimning tilidan hikoya qilinadi?

- a) Qizilqum sahrosi kishilarining jasorati va "Gaz qaynar" manzarasi;
- b) oiladagi bola tarbiyasi, bunda ota-onaning tutgan o'rni;
- c) voqealar o'n ikki yoshli o'quvchi Damir tilidan hikoya qilinadi;
- d) A, B va D javoblar

72. H. Nazirning "Kenjatoy" va "Tohir-Zuhra" qissalarining yetakchi mavzusi qaysi javobda to'g'ri?

- a) "Kenjatoy"da hunar maktabi hayoti aks etgan bolib, o'smirlarda ishchi kasbiga havas uyg'otishga xizmat qiladi;
- b) "Tohir-Zuhra"da balog'at yoshidagi o'spirin va qizaloqlarning qalbida tug'ilgan ilk sevgi kechinmalari hikoya qilingan;

- c) A va B javoblar to‘g‘ri;
- d) qissalarning har ikkida qishloq hayoti aks etgan.

73. Hakim Nazirning so‘nggi xotira-qissa kitobi va uning mavzui qaysi javobda ko‘rsatilgan?

- a) “Oq fotiha”, bolalik sarguzashtlariga bag‘ishlangan; adib bu kitobida bolalik chog‘lari ko‘rgan-kechirganlarini jonli lavhalarda hikoya qiladi; kichikligida ota-onasidan olgan ilk insoniy saboqlari uchun chuqur va samimiy minnatdorchiligini izhor etadi;
- b) ijodiy yo‘li haqidagi adabiy suhbatlar;
- c) urush yillaridagi qahramonlar hayotiga bag‘ishlangan;
- d) barcha javoblar to‘g‘ri.

74. H.Nazir 1973 yilda qanday roman yozgan va uning asosiy obrazlari qaysi javobda to‘g‘ri?

- a) “Chiranma g‘oz, hunaring oz” ;
- b) “Lochin qanotlari”, urushga ketgan ota-onalar o‘rnini bosgan farzandlar ; “Dadamni topib beringlar”, bir dehqon oilasi boshiga tushgan nohaqlik;*
- c) romanda O‘ktam, Umri kabi yosh vatanparvarlar obrazi gavdalantirilgan;
- d) B va D javoblar to‘g‘ri.

75. H. Nazir qanday pesa yozgan?

- a) “Bir tup g‘o‘za”;
- b) “Ko‘korol chiroqlari”;
- c) “So‘nmas chaqmoqlar”;
- d) “Chiranma g‘oz - hunaring oz”.

76. Po‘lat Mo‘minning ertak –pesalari va ertak –dostonlari qaysi javobda keltirilgan?

- a) “Qovoqvoy bilan Chanoqvoy”, “Suqatoy-konfetvoy”, “Ona bolam deydi, bola onam”;
- b) “Alla bilan Jalla”, “Ziyrak fil va ziqna boqqol”, “Har kimniki o‘ziga, oy ko‘rinar ko‘ziga”, “Unutgan o‘g‘il”;
- c) “Oltin nay”, “Dono bola”, “Bilganni qari-bilmaydi pari”, “Tish cho‘tka, Poroshok va Atirsovun ertagi”;
- d) A , B va C javoblar.

77. Po‘lat Mo‘minning she‘riy to‘plamlari qaysi javobda keltirilgan?

- a) “Hunardan unar”, “To‘g‘ri o‘sgan gul bo‘lar”, “bir yarim Karim” “Bir yuz bir oltin qo‘l”, “Rahmatga rahmat”,)“Oftob va odob”, “Bu juda soz”;;
- b) “Gazpolvon ertak aytar”, “Do‘sting qancha ko‘p bo‘lsa” “Eson va Omon” “Oltmish olti oltin qo‘l”;
- c)A va B javoblar,; d) noto‘g‘ri javob yo‘q.

78.Po‘lat Mo‘minning “Suqatoy-konfetvoy” ertak –pesasining g‘oyaviy mundarijasi va obrazlari qaysi javobda to‘g‘ri?

- a) ilm, odob, halollik va mehnatsevarlik ulug‘lanadi;
- b) voqea Bilim xola, Janjal xola, Qurt o‘rtasidagi kurash asosida rivojlanadi;
- c) Qovoqvoy va Chanoqvoy o‘rtasidagi kurashdan tashkil topgan;
- d) A va B javoblar to‘g‘ri.

79. Tarvuz, Qovun, Chanoqvoy, Paxtaoy, G‘ujumoy, Lavlagi, Sholg‘om qishloq xo‘jalik ekinlari va zararkunanda hasharotlar chigirtka, kapalak hamda yalqov, tanbal, beg‘am Qovoqvoylarning allegorik obrazi Po‘lat Mo‘minning qaysi asarida tasvirlangan?

- a) “Alla bilan Jalla”;
- b) “Ona bolam deydi, bola onam deydi”;
- c) “Suqatoy va Konfetvoy”;
- d) “Qovoqvoy bilan chanoqvoy”.

80. “Saraton” qissasining muallifi va qahramonlari qaysi javobda ko‘rsatilgan?

- a) N.Fozilov; Kamol, To‘ra;
- b) F.Musajonov, Tohir, Zuhra;
- c) H.Nazir, damir, Omon;
- d) X.To‘xtaboyev, Hoshimjon, Akram

81. Bolalarning sehrli-fantastik va sargyzasht romannavis adibi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?.

- a) X. To‘xtaboyev;
- b) H.Nazir;
- c) A.Obidjon;
- d) S.Barnoyev

82. “Lochin qanotlar” romani muallifgi va mavzusi to‘g‘ri belgilangan javobni aniqlang.

- a) X.To‘xtaboyev; urush va bolalik mavzui talqini;
- b) H.Nazir, urush va bolalik mavzui talqini;
- c) S.Barnoyev, urush bolalari;
- d) A.Obidjon, istiqlol g‘oyasi.

TESTLAR

1. O‘zbek tili qaysi til oilasi va guruhiga mansub?

- A) hind-yevropa oilasining tohar guruhiga
- B) oltoy oilasining turkiy guruhiga
- S) eron oilasining hind-yevropa guruhiga
- D) turk oilasining chig‘atoy guruhiga

2. Quyidagi tillardan qaysi biri oltoy tillari oilasiga mansub?

- A) yapon tillari tarmog‘i
- S) eron tillari tarmog‘i
- B) turkiy tillar tarmog‘i
- D) mo‘g‘ul tillari tarmog‘i

3. Qadimgi turkiy til qaysi davrgacha qo‘llangan?

- A) X asrgacha
- S) VIII asrgacha
- B) XV asrgacha
- D) miloddan oldingi davrdan XII asrgacha

4. Eski o‘zbek adabiy tili qaysi davrda shakllangan?

- A) X-XI asrlarda
- S) XIII asrda
- B) XI- XII asrlarda
- D) XIV asrda

5. Dunyodagi xalqaro tillar qaysi qatordagi javobda aks etgan?

- A) ingliz, frantsuz, rus, ispan, arab, xitoy tillari
- B) o‘zbek, usmonli turk, qozoq, qirg‘iz, ozarbayjon, rus tillari
- S) ingliz, nemis, yapon, italyan, polyak, rus tillari
- D) lotin, hind, eron, xitoy, rus, ingliz tillari

6. XI asrda grammatikaga oid asar yozgan mashhur vatandoshimiz kim?

- A) Yusuf xos Hojib
- S) Abulqosim Zamaxshariy
- B) Mahmud Qoshg‘ariy
- D) Abu Bakr Narshaxiy

7. Hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun qaysi shevalar asos qilib olingan?

- A) Andijon - Shahrixon
- S) Toshkent - Guliston
- B) Xorazm - Urganch
- D) Farg‘ona - Toshkent

8. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili ekanligi

Konstitutsiyamizning nechanchi moddasida o‘z aksini topgan?

- A) 3-moddasida
- S) 1-moddasida
- B) 5-moddasida
- D) 4-moddasida

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" gi qonuni qachon qabul qilingan va unda nechta harfdan iborat alifbo joriy etilgan?

- A) 1993 - yil 2-sentabrda, 31 harf va 1 tutuq belgisi
B) 1940- yilda, 33 ta harf va 2 ta belgi.
S) 1929- yilda, 35 ta harf
D) 1995- yil 6 mayda, 29 harf

2. Lotin alifbosi asosidagi ilk o'zbek yozuvidan xalqimiz qachondan boshlab foydalangan?

- A) 1930- yildan
B) 1993- yildan
S) 1926- yildan
D) 1940 -yildan

3. Qadimiy yozuvlardan bo'lgan dulbarjin yozuvi yana qanday nom bilan ataladi?

- A) Uyg'ur yozuvi
B) O'rxun yozuvi
S) Sug'd yozuvi
D) Arab yozuvi

4. Quyidagi tillardan qaysi biri o'lik tillar sirasiga kiradi?

- A) uyg'ur tili
B) lotin tili
S) yoqut tili
D) arab tili

1. Javoblarning qaysi birida unli tovushlar ko'rsatilgan?

- A) b, f, k, t
B) a, u, o', i, o, e
S) sh, ch, ng
D) d, t, n, l, r, ch, j, s, sh, z

2. Qo'sh unli qaysi so'zda noto'g'ri qo'llangan?

- A) inshoot
B) taasarruf
S) istehzoomuz
D) koordinat

3. "Yam-yashil" so'zida nechta unli va nechta undosh tovush bor?

- A) 3 ta unli, 3 ta undosh
B) 5 ta unli, 5 ta undosh
S) 3 ta unli, 5 ta undosh
D) 4 ta unli, 4 ta undosh

4. Unli tovushlardan qaysi biri so'zga qo'shib, uning shaklini o'zgartiradi?

- A) i, a
B) u, o'
S) o, a
D) i, u

1. O'zbek adabiy tilida nechaundosh tovush mavjud va ular yozuvda necha harf bilan ifodalanadi?

- A) 27 ta tovush 27 ta harf
B) 23 ta tovush 23 ta harf
S) 23 ta tovush 25 ta harf
D) 29 ta harf 23 ta tovush

2. Hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lgan undosh tovushlar yozuvda necha harf vositasida ifodalanadi?

- A) 23 harf
B) 22 harf
S) 24 harf
D) 29 harf

3. Qo'sh undoshlarning biri tushirilganda o'zga ma'no ifodalovchi so'zlar qatorini aniqlang.

- A) karra, arra, kalla
B) avval, alla, balli
S) tilla, qattiq, ushshoq
D) naqqosh, taassurot, izzat

4. Q tovushining paydo bo'lish o'rni ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

- A) labda
B) til oldida
S) bo'g'izda
D) burunda

5. Tilning old qismida hosil bo'ladigan undosh tovushlarni belgilang.

- A) v, f
B) b, p
S) d, t
D) q

6. Tilning eng orqa qismida hosil bo'ladigan undosh tovushlar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) q, x
B) r, k
S) h, g
D) j, z

7. Qaysi undosh tovush lablar bir-biriga yaqinlashganda oradagi tirqishdan sirg'alib chiqadi?

- A) d S) v
B) s D) p

8. Qaysi undosh tovush pastki lab bilan ustki tish orasida hosil bo'ladi?

- A) a S) r
B) s D) f

9. Qaysi qatordagi so'zlarda faqat jarangli undoshlar bor?

- A) pastak, ko'ksulton, ko'lmak S) zag'izg'on, maydon, jadval
B) bardosh, ko'klam, badnafs D) paxsa, sukut, sochiq

10. Qaysi qatordagi so'zlarda faqat jarangsiz undoshlar bor?

- A) gilos, rayhon, gulkaram S) ziynat, ko'hlik, libos
B) sochpopuk, shafqat, ko'kat D) ko'makdosh, inson, ko'rgazma

11. Dublyaj, ekipaj, garaj so'zlaridagi j ning jarangsiz jufti qaysi tovush?

- A) b S) sh
B) A D) z

12. Qaysi so'zlar faqat jarangli undoshlardan iborat?

- A) ko'ylak S) jadval
B) maydon D) va'zxon

13. Tarkibida unli tovushlar bilan birga faqat jarangsiz undoshlar ishtirok etgan so'zlar qatorini toping.

- A) bayon, vazmin, go'zal S) ko'chat, hiqichoq, sath
B) bayt, dehqon, ibrat D) alifbe, andisha, dahshat

14. Qaysi qatordagi so'zlarning jarangli undoshlari jarangsiz juftiga aylantirilsa boshqa so'zlar kelib chiqadi?

- A) zo'r, zambil, beva S) did, jo'ja, bibi
B) go'ja, jag'jag' D) gugurt, gazak, guvala.

- A) bir yoki birdan ortiq ma'noga ega bo'lishiga ko'ra
B) tuzilishiga ko'ra
S) shakl va talaffuziga ko'ra
D) shakl va ma'no munosabatiga ko'ra

2. Omonim so'zlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) tort, dangasa, tanho
B) yot, yoq, yon
S) g'amsiz, tong, och
D) muzlar, noma, pul

1. Shakli har xil, ammo ma'nolari bir-biriga yaqin so'zlar nima deb aytiladi?

- A) shakldosh so'z S) qarama-qarshi so'z
B) ma'nodosh so'z D) bir va ko'p ma'noli so'zlar

2. Ma'nodosh so'zlar berilgan qatorni toping.

- A) lazziqli, laziz, xushta'm, shirin, totli, ta'mli, xushxo'r
B) oq-qora, shirin-achchiq, aqlli-aqlsiz
S) olma, anor, qovoq, non, tuz
D) mustaqillik, istiqloq, oynoma, ro'znoma

3. Bahsso'zining ma'nodoshini aniqlang.

- A) tovush, un, sado, sas, nido
B) shu'la, yog'du, ziyo
S) ayb, nuqs, qusur, kamchilik
D) tortishuv, munozara, mubohisa

4. "Lom-mim" demaslik – damni chiqarmaslik frazeologik birikmasi ma'nodosh so'zlarning qaysi turini tashkil etadi ?

- A) lug'aviy sinonimiyani
- B) frazeologik sinonimiyani
- S) morfologik sinonimiyani
- D) sintaktik sinonimiyani

5. 1963-yilda nashr qilingan "O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati" dagi ma'nodosh so'zlarning miqdori ko'rsatilgan to'g'ri javobni toping:

- A) 1700 dan ortiq
- B) 1800 ga yaqin so'z
- S) 90000
- D) 2500

6. Lug'at maqolalari quyidagicha tuzilgan: avval sinonimik qatordagi so'zlarning birlashtiruvchi ma'nosi ko'rsatilib, so'ng har bir sinonimning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Birlashtiruvchi ma'no hamda farqli belgi - xususiyatlar misollar vositasida tasdiqlangan bu lug'at nomini aniqlang:

- A) "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati"
- B) "O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati"
- S) "O'zbek tilining izohli lug'ati"
- D) "O'zbek tilining imlo lug'ati"

7. Quyidagi sinonimik qatordagi so'zlarning qaysi biri eskirgan ?

- A) osmon
- B) samo
- S) falak
- D) gardun

8. Quyidagi sinonimik qatorga mansub so'zlarning qaysi biri ko'chma ma'noda?

- A) ayyor
- B) mug'ombir
- S) hiylagar
- D) shayton

9. Sinonim sifatlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) xavfli, xavotirli, qo'rqinchli, barakali
- B) xayrlashmoq, xabarlashmoq, xushlamoq, vidolashmoq
- S) sabab, vaj, bahona, bois
- D) taxmin, tasmol, taslim, faraz

10. Sinonim iboralar qo'llangan qatorni aniqlang.

- A) Yog' tushsa yalagudek, toza, orasta.
- B) Do'ppisini osmonga otmoq, og'zi qulog'ida, og'zini tanobi qochgan.
- S) Suvga tushgan bo'lka nondek, qo'y og'zidan cho'p olmagan, yerga ura ko'kka sakraydi.
- D) Yulduzni benarvon urmoq, tegirmonga tushsa butun chiqmoq, uddaburon.

11. Bir-biriga zid ma'no bildiruvchi so'zlar nima deyiladi ?

- A) antonim
- B) sinonim
- S) omonim
- D) paronim

12. Antonimlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) ruxsat bermoq-taqiqlamoq, savodli-savodsiz, ilik-ilk
- B) sho'x-yuvosh, qo'y og'zidan cho'p olmagan, dovon-devon.
- S) kamtar, ishchan, epchil, erinmoq-ko'zlamoq, tez-tez, shodlik-g'am
- D) erinchoq-g'ayratli, tepsa tebranmas-epchil.

13. Quyidagi antonimik juftliklarning qaysi birida salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan so'z bor ?

- A) yaxshi - yomon
- B) shirin-bemaza
- S) chiroyli - badbashara
- D) xursand - xafa

14. Leksik antonimlar berilgan qatorni toping.

- A) xursand va dili siyoh
- B) yupqa va qalin
- S) oq ko'ngil va ichi qora
- D) ishladi va ishlamadi

15. Qaysi qatorda ot antonimlar mavjud ?

- S) ot, sifat, son, fe'l, olmosh, ravish.
- D) ot, yuklama, ko'makchi, ravish, fe'l, olmosh.

7. Yordamchi so'z turkumlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.

- A) ko'makchi, sifat, bog'lovchi .
- B) bog'lovchi, fe'l, yuklama.
- S) yuklama, ravish, fe'l.
- D) ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

8. Mustaqil ma'no anglatmaydigan so'zlar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.

- A) ona, keldi, bog'lamoq, bilan, uchun, biroq.
- B) kabi, yanglig', bilan, va, ammo, axir.
- S) faqat, hatto, goh-goh, kurash, dam-dam, sayin.
- D) hatto, tezroq, yangicha, hattoki, kino, qadar.

1. Ot so'z turkumining ta'rifi to'g'ri berilgan qatorni toping.

A) narsa va hodisalarning nomini bildirib, kim? nima? qaer? so'roqlariga javob bo'ladigan mustaqil so'z turkumiga ot deyiladi.

B) predmetlik ma'nosini ifodalab kim? nima? qaer? so'roqlariga javob bo'ladigan yordamchi so'z turkumi ot deyiladi.

S) predmetning belgisini ifodalab, kim? nima? so'roqlariga javob bo'ladigan mustaqil so'z turkumi ot deyiladi.

D) predmetning sonini bildirib, qancha? necha? so'roqlariga javob bo'ladigan mustaqil so'z turkumiga ot deyiladi.

2. Ot turkumiga oid so'zlar to'g'ri berilgan qatorni toping.

- A) yaxshilik, havo, suv, ancha, qo'lla, birinchi.
- B) bormoq, olomon, falak, yaxshi, gulzor, sersuv.
- S) kitob, armon, quvonch, o'quv, bog'bon, nonushta.
- D) farishta, yog'du, yo'lbars, daftar, olim, o'quvchi.

3. Kim? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlar to'g'ri berilgan qatorni toping.

- A) tuya, xo'roz, choynak, aka, amaki, guldon.
- B) odam, xola, uka, telefon, kompyuter, surat.
- S) opa, aka, Gulnora, rektor, singil, qizaloq.
- D) yulduz, sayyora, yer, tog'a, Salim, Nodira.

4. Nima? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlar to'g'ri berilgan qatorni toping.

- A) daryo, gul, tosh, telefon, yulduz, opam, buvim.
- B) suv, qozon, bog', piyoz, ovqat, yulduz, surat.
- S) tog', dengiz, ko'l, qayiq, baliq, singil.
- D) anxor, kitob, Karim, o'rdak, g'oz, ko'ylak.

5. Egalik qo'shimchasi qo'llangan gapni toping.

- A) qo'qiroq chalindi va xonaga o'qituvchi kirib keldi.
- B) Nurxon, darsni tayyorladingmi?
- S) Yangi yilingiz muborak bo'lsin!
- D) Shu payt telefon jiringladi.

6. Egalik qo'shimchalari qo'shilganda o'zagida o'zgarish yuz bergan so'zlar mavjud bo'lgan qatorni toping.

- A) Alimardon qayrilib qaraguncha, boshqa odamlar o'zini o'rab oldi.
- B) U quchog'iga to'lib, ko'z o'ngini to'sib qolgan gullarni qayerga qo'yishini bilmas, shu topda oyog'ining tagigacha gulga to'lib ketgan edi.
- S) Parda yopilgandan keyin gullarni konferans'e qizga topshirdi-da, tor yo'lakdan o'tib hovliga chiqdi.
- D) Zaldagi katta qandil uchdi. Chekka-chekkadagi eshiklar ustida yonib turgan qizil chiroqlargina qoldi.

7. Gapda ega vazifasida kelgan otni toping.

- A) Alimardon torini ko'ksiga bosib, tomoshabinlarga zimdan qarab qo'ydi.

- B) U ana shunday o'ylar bilan yo'lga otlandi.
S) Qora Lochinimning bo'yniga osilib, ho'ng-ho'ng yig'lay boshladim.

D) Chuqur yaqiniga sandiqday-sandiqday ikkita xarsangtoshni yumalatib keltirib o'rnattirdi.

8. Qaysi gapda ot turkumiga oid so'z kesim bo'lib kelgan?

- A) U savdogarga buyurib ziyofat bo'ladigan joydan nariroqqa kattagina chuqur qazdirdi.
B) Dugonamning singlisi shahardan o'n chaqirim naridagi fabrikada tikuvchi.
S) Nevarasi kelganda malika Bayda daryo bo'yidagi marmar qo'shqning nimqorong'i ichki xonasida xastalarday shiftga tikilib yotardi.
D) Qora Lochin yarmi tuproqqa to'lgan okopga ko'mganini berib tuzaladi.

1. Qaysi qo'shimchalar turlovchi qo'shimchalar deyiladi?

- A) egalik qo'shimchalari
B) shaxs-son qo'shimchalari
S) kelishik qo'shimchalari
D) fe'l nisbatlarini qosil qiluvchi qo'shimchalar

2. Ko'k... boqma, ko'p... boq (maqol). Nuqtalar o'rniga qaysi kelishik qo'shimchalarini qo'yish mumkin?

- A) qaratqich kelishigi
B) jo'nalish kelishigi
S) o'rin-payt kelishigi
D) chiqish kelishigi

3. -ga qo'shimchasining ko'rinishlari to'qri berilgan qatorni toping:

- A) k tovushi bilan bitgan otlarda -ka shakliga ega bo'ladi.
B) q tovushi bilan bitgan otlarda -qa shakliga ega bo'ladi.
S) mumtoz adabiyotda -qa, -na, -a shaklida qam uchraydi.
D) barcha javoblar to'g'ri.

4. Qaysi qatordagi gapda ko'plik qo'shimchasi ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qilgan?

- A) Saodatning qo'llari chaqqon harakat qilar edi.
B) Tumanli kunlarda muzlar erib, suvlar oqa boshladi.
S) Yo'q, akamdan naq balolarga qolaman.
D) Shu payt olimlar kirib keldilar.

5. Quyida berilgan gapdagi nuqtalar o'rniga qaysi qatordagi qo'shimchalarni qo'yish mumkin? U... voqea... bexabar ekani... bilib, butun vujudi... qorqinlik sezdi.

- A) -ni, -da, -ning, -ga
V) -ning, -dan, -ni, -da
S) -ga, -dan, -ning, -ni
D) -ning, -ni, -ga, -dan

6. Tushum kelishigi qo'shimchasining qisqargan shakli berilgan gapni aniqlang:

- A) Har oila o'chog'ining o'z qutluq tarixi bor.
B) Olmazorlar gulin to'kadi. Meva bog'lab shoxin bukadi.
S) Botirlari kanal qazadi. Shoirlari g'azal yozadi.
D) Tutmang hargiz nomimni, baxtiqaro deb axtaring.

7. Qaysi gapdagi qaratqich kelishigi qo'shimchasini chiqish kelishigi qo'shimchasi bilan almashtirish mumkin?

- A) Maqtanganning uyini ko'r, kerilganning to'yini.
B) Mehmonlarning yoshi ulug'i gapirdi.

S) Do'stimning do'sti - mening ham do'stim.

D) Universitet kutubxonasi birinchi qavatda.

8. Tushum kelishigi qo'shimchasi -i shaklida berilgan qatorni toping:

A) Tog'lardagi qip-qizil lola. Bo'lib go'yo yoqut piyola.

B) Adl qulog'i-la eshit holimi.

S) Har fasl o'z ishin bilsin. Qishvoy qishligin qilsin.

D) Birdan Alisherni dahshatli yolg'izlik tuyg'usi chulg'ab oldi.

9. Berilgan she'riy parchada nuqtalar o'rniga qaysi kelishik qo'shimchasini ishlatish mumkin?

Har fasl... o'z xislati bor,

Har fasl... o'z fazilati.

Kumush qish... zumrad bahor...

Qolishmaydi kuz... ziynati.

A) o'rin-payt va tushum kelishigi

B) chiqish va tushum kelishigi

S) qaratqich va chiqish kelishigi

D) qaratqich va jo'nalish kelishigi

10. "Yer haydasang, kuz hayda" maqolida qaysi kelishik qo'shimchalari belgisiz qo'llangan?

A) o'rin-payt va chiqish kelishigi

B) tushum va o'rin-payt kelishigi

S) chiqish va o'rin-payt kelishigi

D) tushum va jo'nalish kelishigi

1. Ko'p ma'noli so'zlarni toping.

A) men, sen B) besh, o'n C) ota, ona D) tomir, yoqa

2. Qaysi qatorda lug'aviy birliklar nomi sanalgan?

A) tovush, qo'shimcha, so'z B) qo'shimcha, so'z, ibora, gap C) so'z, ibora, gap D) so'z, ibora

3. Qaysi qatorda bo'g'in ko'chirish qoidasi buzilgan?

A) ko'ngil B) ing-liz C) men-ga D) si-ngil

4. Morfologik yozuv asosida yozilgan so'zlar qatorini toping.

A) fikr, chiroq, yumshoq, yaxshilik B) yasha, sanoq, Samarqand, avlod C) ikkov, uchinchi, qutulmoq, ko'm-ko'k D) Toshkent, go'sht, do'st, yuvindi.

5. Manmanlik qilib netarsan, obro'yingdan ketarsan. Ushbu maqolda qo'llangan yasama so'zlarga qaysi qatorda to'g'ri izoh berilgan?

A) otdan qo'shimcha orqali ot yasalgan B) ot hamda fe'ldan yasama so'zlar yasalgan C) olmoshdan ot va fe'l yasalgan D) olmoshdan ot yasalgan

6. Quyidagi so'zlarning qaysi biri uchta ma'noli qismga bo'linadi?

A) yupanch; B) suyanch; C) tayanch; D) ishonch;

7. Quyidagi iboralardan qaysi biri "hech qachon" ma'nosini anglatadi?

A) tuya ko'rdingmi - yo'q B) Qizil qor yoqqanda C) tuyaning dumi yerga etganda D) C, D.

8. Qaysi qatordagi so'zlarda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi?

A) Hatto, matematika, hunar B) respublika, albatta, gazeta C) ruchka, katta, kimdir D) hamma, gazeta, sanatoriy

9. Bo'yoq so'zining hosil bo'lishida qanday fonetik o'zgarish vujudga kelgan?

A) bo'ya fe'lidan ot yasalib, a tovushi tushib qolgan B) o'zak-negiz oxiridagi a tovushi o' tovushiga almashgan

C) o'zak-negiz oxiridagi o tovushi a tovushiga almashgan D) bo'ya fe'lidan ot yasalib, a tovushi orttirilgan

10. Nutq tovushlarining yozuvda ifodalanish usullarini qaysi bo'lim o'rgatadi?

A) orfoepiya B) orfografiya C) grafika D) fonetika

11. O`zbek tili imlo qoidasiga ko`ra qaysi unli tovush so`z oxirida qo`shaloq qo`llanishi mumkin?
A) a B) o, i C) a, i D) a, o, i
12. Qaysi so`zda ayirish belgisi noo`rin qo`llangan?
A) ta`qir B) ta`m C) ta`zir D) ta`b
13. Qaysi juft so`zlar butun va bo`lak munosabatidagi so`zlardan tashkil topgan?
A) S, D B) qozon-tovoq C) tog`-tosh D) gap-so`z
14. Quyidagi qo`shimchalardan qaysi biri faqat shakl yasovchi hisoblanadi?
A) -n B) -q C) -y D) -in
15. Qaysi turkumlarga oid juft so`zlar asosan antonimlardan hosil bo`ladi?
A) ot V) sifat C) son D) ravish
16. Yopiq bo`g`inlaridan biri faqat jarangli undoshlardan tashkil topgan so`zni toping.
A) ko`cha B) paxta C) sunbul D) kitob
17. Qaysi qatorda frazeologik sinonimlar mavjud?
A) lom-mim demaslik - lab(i)ni tishlamoq B) labini juftlamoq – og`iz rostlamoq C) larzaga solmoq – larzaga keltirmoq D) A, S
18. Baland boloxonali uy. Bu birlikda qanday holatda boloxonaning balandligi anglashiladi?
A) har qanday holatda ham boloxonaning balandligi anglashiladi. B) uchala so`z orasida pauza mavjud bo`lmasa C) boloxonali so`zidan so`ng pauza bo`lsa D) baland so`zidan so`ng pauza bo`lsa
19. Ular iliq kunlarda birpas ishlashar, harorat pasayishi bilan o`z ishlarini to`xtatishga qaror qilishardi. Shu gapdagi yasama so`zlar miqdorini aniqlang.
A) 5 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 2 ta
20. Omonim so`zlar qaysi qatorda?
A) sovuq, bosh, oltin B) yordam, ko`mak, madad C) yosh, zang, to`p D) qiziqmoq, bog`lamoq, ko`karmoq
21. Turkiy tillar (o`zbek, qozoq, qirg`iz, turkman, qoraqalpoq, uyg`ur, ozarbayjon va boshqa tillar) tilshunoslik tomonidan tekshirib aniqlangan qaysi til oilasiga kiradi?
A) Hind-yevropa tillari. B) Semit tillari. C) Xamit tillari. D) Oltoy tillari.
22. Jarangli undoshlar tog`ri berilgan qatorni aniqlang.
A) b, p, l, s, ch, g, k. B) b, ng, x, r, f, s, t C) b, v, g, d, j, z, y D) t, s, ch, d, sh, m, x.
23. Daraxt yaprog`i bilan go`zal, inson mehnati bilan. Ushbu gapda ajratilgan so`z orfografiyaning qaysi tamoyili asosida yozilgan?
A) morfologik tamoyil B) grafik tamoyil. C) fonetik tamoyil. D) tarixiy-an`anaviy tamoyil.
24. Nutqning asosiy fonetik birliklari qaysi javobda to`g`ri berilgan?
A) fraza, urg`u, intonatsiya, harf. B) nutq tovushlari, intonatsiya, takt. C) fraza, takt, fonetik so`z, bo`g`in, tovush. D) fonetik so`z, intonatsiya, takt, urg`u.
25. Portlovchi undoshlar qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?
A) f, v, z, y, g, r, l, s B) k, sh, j, ng, m, g, f, v C) t, d, k, b, g, p, q, ch D) n, m, l, x, v, s, p, r
26. Qo`y og`zidan cho`p olmagan, og`zi qulog`ida, ammamning buzog`i iboralari qanday turkumdagi so`zlarga sinonim?
A) sonlarga B) fe`llarga C) sifatlarga D) otlarga
27. Qaysi qatordagi barcha so`zlarda ng tovushi qo`llangan?
A) nonga, keng, tushuncha B) unga, donga, o`tinga C) maymunga, yurganga, borganga D) tongga, mingga, zangga.
28. Arxaik so`zlar qaysi qatorda berilgan?
A) jug`rofiya, riyoziyot, pargar, handasa B) xirurg, kalendar, seksiya, vzos C) obdasta, chelak, toj-taxt, arava D) podshoh, sardoba, vazir, kulliyot.

29. Assimlyatsiyaga uchragan soʻz qaysi gapda berilgan ?

A) Dugonasi shaddod qiz edi. B) Otangda bir akademikning tajribasi bor. C) Novvoy endigina tandirdan uzilgan nonni soʻriga uzatmoqda D) Odamning koʻngli bamisoli oyna

30. Ot turkumigagina oid antonimlar qaysi javobda berilgan?

A) ichki-tashqi, foydali-foydasiz, koʻp-oz, keldi-ketdi, keng-tor. B) kelajak-oʻtmish, erkak-ayol, olqish-qargʻish, aka-uka, qahr-mehr. C) toʻgʻri-egri, olmoq-bermoq, dono-nodon, tez-sekin, ishonchli-ishonchsiz. D) kecha-kunduz, yosh-qari, doʻst-dushman, past-baland, achchiq-chuchuk.

31. Oʻzbek milliy tili tarkibiga kirgan lahjalar qaysi javobda toʻgʻri berilgan?

A) Toshkent lahjasi, Fargʻona lahjasi, Qashqadaryo lahjasi. B) Oʻgʻuz lahjasi, qipchoq lahjasi, qorluq-chigil-uygur lahjasi. C) Namangan lahjasi, Andijon lahjasi, Buxoro lahjasi. D) Samarqand lahjasi, Xorazm lahjasi, Qashqadaryo lahjasi.

32. Til oldi unilari qaysi javobda toʻgʻri berilgan?

A) o, i, e B) u, a, o. C) i, e, u. D) a, e, i.

33. Qaysi qatorda faqat koʻp maʼnoli (polisemantik) soʻzlar berilgan?

A) bosh, ogʻiz, etak, oyoq, quloq, tomir. B) erk, lab, bayram, harf, qanot, zovur. C) atrof, til, dum, gʻalaba, yoqa, idrok. D) koʻz, qosh, burun, qorin, oyoq, soch.

34. Sonor undoshlar qaysi javobda toʻgʻri berilgan?

A) b, t, m, sh, k. B) m, n, l, ng, r. C) y, g, l, ch, f. D) t, n, k, ch, j.

35. Metaforaning taʼrifi qaysi javobda toʻgʻri berilgan?

A) predmetlar, hodisalar orasidagi aloqadorlikka asoslangan maʼnoning koʻchishi. B) butun bilan qism munosabatini ifodalashga asoslangan maʼnoning koʻchishi. C) predmetlar bajargan vazifadagi oʻxshashlikka asoslangan maʼnoning koʻchishi. D) predmetlar, belgilar, harakatlardagi oʻzaro oʻxshashlikka asoslangan maʼnoning koʻchishi.

36. Qaysi javobda oldingi boʻgʻiniga urgʻu tushadigan soʻzlar berilgan?

A) hamma, lider, akatsiya, birdaniga, birja, traktor, jirafa, vanna B) kuchuk, kodeks, janob, balkon, grammatika, ahvol.

C) keldi, ibrat, daʼvo, quruq, biolog, ishchan. D) maʼno, aslo, ruchka, radio, doim

37. Qaysi javobda orfografiyaga toʻgʻri taʼrif berilgan?

A) Nutq tovushlari va ularning yozilishini oʻrganuvchi boʻlim. B) Tildagi soʻz oʻzak-negizlari va affikslarini yagona tarzda yozish haqidagi qoidalar yigʻindisi. C) Adabiy talaffuz qoidalari toʻplami. D) Qoʻshma soʻzlarning tarkibiy qismlarini qoʻshib yoki ajratib yozish.

38. Mehmonlar iltifot ila bir necha aylana stolga taklif qilindi.

Ushbu gapdagi yasama soʻzlarning miqdorini aniqlang?

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

39. Qaysi qatorda tub soʻzlar berilgan?

A) oqish (sifat), oqish (feʼl) B) oqim, oqova C) oqin, oqma (feʼl) D) osish (sifat), oqim (ot)

40. Qaysi qatorda tub soʻz berilgan?

A) dodlamoq B) koʻzlamoq C) sharshara D) savalamoq

41. Qaysi javobda oʻzakdosh antonimlar berilgan?

A) Laylakning ketishini emas, kelishini kutishadi. B) Olining oti oʻzguncha, yaqinning toyi oʻzar. C) Ilmsiz bir yashar, ilmli ming yashar. D) Kamtarga kamol, manmanga – zavol.

42. Qaysi javobda tuzilishi jihatdan gapga teng frazeologik iboralar berilgan?

A) Ilonning yogini yalagan, chuchvarani xom sanamoq, gap tashlamoq. B) Bosh qotirmoq, gap otmoq, apoq-chapoq boʻlib ketmoq. C) Boshi osmonga yetdi, toqati toq boʻldi, tarvuzi qoʻltigʻidan tushdi.

D) Koʻzi toʻrt boʻldi, ishtahasi ochildi, taqdirga tan berdi.

43. Qaysi javobda orfografik jihatdan xato yozilgan soʻzlar mavjud?

A) dastarra, dastmoya, inshoot, ishyoqmas, adovat, passajir, landovur. B) dollar, ishbay, kinojurnal, oynai jaxon, datsgox, passajir. C) jigar rang, kongres, ish boshi, taXchillik, to`g`nagich, fo`ye

D) tutun, telefon, kongress, ahil, avtomat, izhor.

44. Qaysi javobda talaffuzi va yozilishi farq qiladigan so`zlar berilgan?

A) do`stona, pashsha, taraqqiyot, ballada, shaxta B) doira, zabardas, akkordeon, taassurot, apparat.

C) aksiya, bayonnoma, ballon, signal, zaif. D) uchta, shanba, tugun, telefon, g`alaba

45. Qaysi qatordagi so`zlarning yozilishi talaffuzidan farq qiladi?

A) yigitcha, otdan, tuzsiz. B) atlas, zarur, manba C) ketdi, yutdi, aytdi. D) barcha javobdagi so`zlarda

46. Sirg`aluvchi undoshlar berilgan qatorni toping.

A) m, ng, l, n, r. B) v, f, s, z, l. C) y, g, s, v, sh. D) b, d, l, r, n.

47. Qaysi qatordagi so`zlarni talaffuz qiladiganimizda bir burun tovushi boshqasi bilan almashadi?

A) kitob, hisob B) zarur, sariyog`. C) manba, sunbul, yonbosh. D) futbol, forma, ferma

48. Bo`g`inga ajralmaydigan so`zlar qatorini toping.

A) qit`a, qal`a, yechim. B) hukm, gramm, shart. C) ongi, yengil, yangi. D) yongan, singil, bong.

49. Atlas-átlas, akadémik-akademik, xol-hol, a`lam-alam so`zlari orfografiyaning qaysi prinsip (tamoyil)i asosida yozilgan?

A) grafik(differentsiatsiya) B) morfologik. C) fonetik. D) tarixiy-etimologik E) to`g`ri javob yo`q.

50. Tilshunoslikda lahja atamasi qanday tushunchani bildiradi?

A) ma`lum shevaning kichik bir qismi. B) sheva atamasining sinonimi. C) bir-biriga yaqin shevalar yig`indisi.

D) xalq tilining ma`lum me`yorga keltirilgan shakli.

51. Qaysi qatordagi qo`shimchalar o`zaro antonim bo`la oladi?

A) -choq, -chak, -cha, bo-. B) -siz, be-, ser-, ba-, -li. C) -ning, -chi, -da, -siz. D) -gi, -li, -ki, -qi.

52. Kuldi-og`zi qulog`iga yetdi; chiroyli - istarasi issiq kabi sinonimlar qanday sinonimlar sanaladi?

A) frazeologik sinonimlar B) leksik sinonimlar. C) leksik-frazeologik sinonimlar. D) A va B

53. Tilning old qismida hosil bo`ladigan tovushlarni toping.

A) ch, l, k. B) k, g, q. C) d, t, x. D) z, s, sh.

54. Mashshoq dutorning qulog`ini burab bir qo`shiq boshladi.

Ushbu gapdagi quloq

so`zining ma`nosi qaysi yo`l bilan ko`chgan?

A) metonimiya B) sinekdoxa C) metafora D) vazifadoshlik

55. Hosil bo`lish o`rniga ko`ra v hamda f tovushlariqanday undoshlar sanaladi?

A) lab-lab undoshlari. B) lab-tish undoshlari. C) lab-lab, lab-tish undoshlari. D) burun undoshlari.

56. Qorishiq portlovchilar berilgan qatorni toping.

A) b, g, d, ch. B) p, t, k, j C) v, j, s, z D) j, ch,

57. Dalil-dadil so`zlari shakl va ma`no munosabatiga ko`ra qanday so`zlar hisoblanadi?

A) omonim B) sinonim C) paronim D) antonim

58. Qaysi qatordagi gapda yasama so`z mavjud?

A) Ertani degan uzoqni ko`zlar. B) Joy olma, qo`shni ol. C) Olimdan ot qoladi, nodondan - dod. D) Tekinning minnati ko`p, mehnatning - ziynati

59. -ch qo`shimchasi qanday qo`shimcha?

A) so`z yasovchi B) shakl yasovchi C) so`z o`zgartiruvchi D) so`z va shakl yasovchi

60. Qaysi gapda yasama so`z mavjud?

A) Sanamay sakkiz dema. B) Dono odam uzoqni ko'zlar. C) Bolaning qulog'ini ari chaqib oldi, shuning uchun u dodlardi. D) Berilgan gaplarda yasama so'zlar mavjud.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. O'zbek tili qaysi oila va tillar turkumiga mansub?
2. Qadimgi turkiy tilda yozilgan yodgorliklardan qaysilari bizgacha yetib kelgan?
3. O'zbek tili qachondan boshlab mustaqil til sifatida shakllangan?
4. Umumxalq o'zbek adabiy tili (eski o'zbek adabiy til) nechanchi asrda paydo bo'lgan?
5. O'zbek adabiy tilining asoschisi kim?
6. Tilshunoslik masalalariga bag'ishlangan "**Muhokamat ul-lug'atayn**" asarini kim yozgan?
7. O'zbek tilining qanday lahjalari bor?
8. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qaysi shevalardan asos qilib olingan?
2. O'zbekiston Respublikasining davlat tili qaysi til?
3. "**O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida**" gi qonunining yangi tahriri necha moddadan iborat?
4. Tojik tili qaysi oila va tillar guruhiga mansub?
5. . Qadim zamonlarda insonlar qanday yozuvlarni bunyod etganlar ?
6. Qanday yozuvda har bir rasm ma'lum ma'no ifodalagan ?
7. Piktografik - rasm yozuvidan so'ng qanday yozuv paydo bo'lgan ?
8. Finikiy yozuvidan so'ng qanaqa yozuv yuzaga kelgan ?
9. O'zbek xalqining qanaqa yozuvlari bo'lgan ?
10. "**Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi**" qonuni qachon va kim tomontasdiqlangan ?
11. "**Lotin yozuviga asolangan o'zbek alifbosi**" da nechta harf bor? Tartib bilan ayting.
12. Alifbodagi harflar qo'llanishiga ko'ra necha guruhga bo'linadi ?
13. Qaysi harflarni yozishda qo'l harakati uzilmaydi ?
14. Yozma kichik harflar yozilishi hamda tutashtirilishiga ko'ra necha guruhga bo'linadi ?
15. Lotin alifbosidagi qaysi harf ko'rinish va yozilish jihatidan kirill alifbosidagi ba'zi bir harflarga o'xshaydi ?
16. Lotin tili va lotin yozuvi tushunchalari o'rtasida qanday farq bor?
17. O'zbek tili fani qaysi yozuv bilan o'rgatiladi ?
18. Hozirgi tojik adabiy tili qaysi yozuvda ish ko'radi ?
19. Alifbe va alifbo deganda nimani tushunasiz. Mazkur so'zlarning ma'no jihatdan farqini ayting.
27. Tovush nima?
28. Harf nima?
29. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida nechta harf va tovush bor?
- 30/ Harf nimani tashkil etadi?
- 31. Sh, ch, ng** harflari qanday ataladi?
32. Lotin alifbosida nechta birikma harf bor?
33. Qaysi tojik alifbosidagi harf o'zbek alifbosidagi "**Jj**" harfi o'rnida ishlatiladi?
34. Unli tovush deb nimaga aytiladi?
35. Unli tovushning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
36. Tovush va harf xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
37. O'zbekiston Respublikasi bayrog'i, gerbi va madhiyasi qachon qabul qilingan?
38. O'zbekiston Respublikasi bayrog'ida qanday rang va tasvirlar o'z aksini topgan?
20. Shakldosh so'zlarga qo'shimchalar qo'shilganda shakldoshlik saqlanadimi?

21. Lug'aviy sinonimiya nima ?
22. Frazologik sinonimiyani qanday tushunasiz ?
23. Morfologik va sintaktik sinonimiya nima ?
24. Ma'nodosh so'zlarning asosiy so'zi tilshunoslikda qaysi istiloh bilan ifodalanadi?
25. Ma'nodosh so'zlarning ijobiy va salbiy ma'nolari, asosan, nimalarda yaqqol namoyon bo'ladi?
26. 1963-yili O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti chop etgan "O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati" da nechta ma'nodosh so'zning tafsiloti berilgan ?
27. "O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati" qanday prinsiplarga ko'ra tuzulgan?
28. Qanday so'zlar bir ma'noli so'zlar deyiladi?
29. 2.Ko'p ma'noli so'zlar deganda nimani tushunasiz?
30. 3.Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar bir-biridan qaysi jihatdan farqlanadi?
31. 4.Ko'p ma'noli so'zlar qanday ma'nolarni anglatadi?
32. 5.Qanday so'zlar faqat bir ma'noni bildiradi?
33. . O'z va o'zlashma qatlam deganda nimani tushunasiz?
34. O'zbek tilining leksik qatlamini qanday so'zlar tashkil etadi?
35. O'zbek tili qanday so'zlar hisobiga boyib borgan ?
36. So'zlarning tarixi va qaysi tilga mansubligini aniqlash bilan tilshunoslik fanining qaysi bo'limi shug'ullanadi?
37. So'z turkumlarini o'rganuvchi bo'lim nomini ayting.
38. So'z turkumlari deb nimaga aytiladi?
39. Nima sababdan so'zlar mustaqil, yordamchi kabi guruplarga bo'linadi?
40. Mustaqil so'zlar deganda nimani tushunasiz?
41. Mustaqil so'z turkumlarini sanab bering.
42. Yordamchi so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
43. Yordamchi so'z turkumlari qaysilar?
44. Alohida olingan so'zlar guruhi qanday xususiyatlari bilan mustaqil va yordamchi so'zlardan farq qiladi? Ular qaysilar?
45. Morfologiya so'zining ma'nosini ayting. U nimani o'rganadi?
46. So'z turkumlari deb nimaga aytiladi?
47. So'z turkumlari nechta?
48. So'z turkumlari necha guruhni tashkil etadi?
49. Qanday so'zlar ot turkumiga kiradi?
50. Otlar qaysi gap bo'lalaklari vazifasida keladi.
- 51.** Otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda o'zakda qanday o'zgarish ro'y beradi?
52. Otlar ma'nosiga ko'ra necha turga bo'linadi?
53. Atoqli otlar deb nimaga aytiladi?
54. Turdosh otlardan yoki boshqa turkumga kiruvchi so'zlar asosida vujudga kelgan atoqli otlarga misol keltiring.
55. Turdosh otlar deb nimaga aytiladi?
56. Atoqli otdan turdosh otga o'tgan so'zlarga misol keltiring.
57. Ong yordamidagina idrok qilinadigan otlar qanday ataladi?
58. Mavhum otlarga ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda qanday vazifa bajaradi?
59. Qanday otlar faqat birlikda qo'llanadi?
60. Otlar gapda qanday sintaktik vazifalarda keladi?
61. Qaysi qo'shimchalar turlovchi qo'shimchalar deyiladi?
62. Turlanish deb nimaga aytiladi?
63. Kelishiklarni qo'shimchalari bilan sanab bering.

64. Tushum kelishigi qo'shimchasi poeziyada, mumtoz adabiyotda va jonli tilda qanday shakllarda qo'llanadi?
65. Qanday so'zlar sifat turkumiga kiradi?
66. Sifatlar gapda ko'pincha qaysi so'zga bog'lanib keladi?
67. Sifatning sintaktik vazifasi haqida gapiring.
68. Sifat ma'no va grammatik jihatdan qanday turlarga bo'linadi?
69. Shakl-ko'rinish va hajm-o'lchov bildiruvchi sifatlar haqida gapiring.
70. Rang-tus va maza-ta'm bildiruvchi sifatlar haqida so'zlab bering.
71. Sifatlar otlashadimi?
72. Sifatlar otlashganda gapda qanday vazifa bajaradi?
73. Sifat darajasi deb nimaga aytiladi?

74. Oddiy darajadagi sifat qanday belgini bildiradi?

75. Qiyosiy daraja sifatleri qanday hosil qilinadi?

76. Qiyosiy darajaning leksik usul bilan yasalishi haqida gapiring.

77. Orttirma daraja qanday belgini bildiradi?
78. Qanday so'zlar son turkumiga kiradi?
79. Sonlar ma'no jihatdan necha turga bo'linadi?
80. **-ta** qo'shimchasi sonning qaysi turini hosil qiladi?
81. **-larcha, -tacha, -lab** qo'shimchalari sonning qaysi turini hosil qilishda ishtirok etadi?
82. Tartib sonning hosil bo'lishi haqida gapiring.
83. Jamlovchi son qo'shimchalari ko'pincha qaysi sonlardan yasaladi?
84. Sonlar gapda qanday vazifa bajaradi?
85. Sonlar otlashish xususiyatiga egami?
86. Sonlar otlashganda qanday sintaktik vazifa bajaradi?
87. Olmosh deb nimaga aytiladi?
88. Olmosh ma'nosiga ko'ra necha turga bo'linadi? Ular qaysilar?
89. Olmoshning qaysi turi har uchala shaxs o'rnida ishlatiladi?
90. Barcha, hamma, bari, yalpi, butun so'zlari ma'nolariga ko'ra olmoshning qaysi turiga mansub?
91. So'roq olmoshlari haqida gapiring.
92. Gumon olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
93. Bo'lishsizlik olmoshlari qanday hosil bo'ladi?
94. Olmoshga aloqador tovush o'zgarishlari haqida so'zlab bering.
95. Fe'l so'z turkumi deb nimaga aytiladi?
96. Fe'l gapda, asosan, qanday vazifa bajaradi?
97. Tushum kelishigidagi so'zni qanday fe'llar boshqarib keladi?
98. O'timsiz fe'llar tushum kelishigidagi so'z bilan bog'lana oladimi?
99. Bo'lishli fe'l deb nimaga aytiladi?
100. Harakatning bajarilmaganligi, bajarilmayotgani va bajarilmasligini ifodalovchi fe'llar nima deb ataladi?
101. Bo'lishsizlik qanday grammatik vositalar orqali hosil qilinadi?
102. Kesim nima?
103. Sintaktik tahlilda birinchi bo'lib gap bo'laklaridan eng avval qaysi aniqlanadi?
104. Fe'l bilan ifodalangan kesim nima deb ataladi?
105. To'ldiruvchi nima?
106. To'ldiruvchi qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

107. Aniqlovchi nima?
 108. Hol nima?
 109. Hol qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
 110. Hol qanday guruhlarga bo'linadi?
 111. Hol ko'pincha nimaga bog'lanib keladi?

1-kurs 2-semestrda “Ona tili va dabiyot” fanining adabiyot qismi bo'yicha talabalar bilimlarini **reyting tizimi asosida baholash mezonlari**

№	Ko'rsatkichlar	JB ballari 30	OB ballari		Ya N ballari 30
			OB 40	Jami 70	
1.	Darsga qatnashish darajasi.	0-5			
2.	Ma`ruza matni va ma`ruzada o`tilgan mavzularni o`zlashtirganlik darajasi		0-20	0 - 40	
3.	Amaliy mashg`ulotda doskaga chiqish, seminar mashg`ulotlarida faol qatnashish.	0-15			
4.	She`r va badiiy asar tahlili	0-5	0-5		
5.	Adabiyotlar mutolaasini amalga oshirish		0-5		
6.	Talabaning amaliy va seminar mashg`ulotlari bo'yicha daftar yuritishi	0-5		0-30	
7.	Mustaqil ta`lim topshiriqlarini bajarish, ularning mazmunini o`zlashtirish darajasi.		0-10		
8.	Yakuniy baholashda yozma ish javoblari				0-30
	Jami:	JB- 30	OB 40	YaN 30	100

11. Baholash mezonlari:

a) **86-100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishilozim:** Bolalar adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodi bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlar asosida xulosa va qarorlar qabul qilish; “Bolalar adabiyoti” muammolari yuzasidan ijodiy fikrlay olish; “Bolalar adabiyoti” ning taraqqiyot bosqichlari yuzasidan ilmiy mushoqada yurita olish; “Bolalar adabiyoti” ga doir nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish; Bolalar adabiyoti namunalari taqlil qilish ko`nikmasiga ega bo`lish; Mavzularning moqiyatini tushunish.

b) **71-85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:** Bolalar adabiyoti janr xususiyatlari yuzasidan mustaqil ilmiy mushoqada yurita olish; Bolalar adabiyotidan olgan bilimlarni amalda qo`llay olish, Bolalar adabiyotining boshqa

fanlar bilan aloqasi yuzasidan umumiy tasavvurga ega bo'lish. Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy xulosalarga ega bo'lish.

v) **55-70 ball uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi**

lozim: Bolalar adabiyoti fani mavzulari bo'yicha tasavvurga ega bo'lish; Bolalar adabiyotiga doir nazariy ma'lumotlarni bilish, aytib berish;

g) **quyidagi hollarda talabning bilim darajasi 0-54 ball bilan baqolanishi**

mumkin: O'zbek bolalar adabiyoti fani bo'limlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lmaslik; O'zbek bolalar adabiyotidan o'tilgan mavzularni bilmaslik;

Nazorat	Turi	Maksimal ball	Saralash bali
Joriy nazorat	Savol-javob	10	6
	tahlil	10	6
	Mustaqil ish	10	6
Oraliq nazorat			
	Yozma ish	20	10
	Test	20	10
Yakuniy nazorat	Yozma ish	30	16
Jami		100	55

Talabning o'zlashtirish darajasini belgilash uchun maksimal ball: 100; saralash bali: 55. mazkur fandan 3 va 4-semestr oxirida yakuniy nazorat topshiriladi. ON uchun maksimal ball: 40 (har biri 20 balldan 2 marta yozma ish topshiriladi). JN uchun maksimal ball: 30 (dars davomida va mustaqil ish jarayonida to'planadi). YaN uchun maksimal ball: 30. YaNga ON va JNning 55% ini (ya'ni 47 ball) to'plagan talaba kiritiladi. "Bolalar adabiyoti va folklor" fanidan oraliq nazoratlarni o'tkazish uchun yozma ish variantlari tayyorlanadi. Har bir variantda ikkitadan nazariy savol beriladi. Nazariy savolga berilgan javoblar 0-20 ball oralig'ida baholanadi. Nazariy savolga to'g'ri va to'liq javob berilgan, fikr badiiy asarlardan olingan misollar bilan asoslangan, ifoda va bayonda uslubiy, mantiqiy izchillikka amal qilingan, tavsiya etilgan adabiyotlardan xabardorligi sezilib turgan hamda yozma ishda imloviy xatolari 1-2 tadan oshmagan ishlar 17-20 ball (86-100%) oralig'ida baholanadi. Nazariy savolga, asosan, to'g'ri javob bo'lsa ham ishda misollar kam, ifoda va bayonda izchillik buzilgan, tavsiya etilgan adabiyotlardan kam foydalanilgan, shuningdek, imloviy xatolari 3-4 ta bo'lgan ishlar 14-17 ball (71-85%) oralig'ida baholanadi. Nazariy savol yetarli ochilmagan, ifoda va bayonda uslubiy-mantiqiy izchillik buzilgan, tegishli adabiyotlardan xabarsizligi sezilib turgan va imloviy xatolari 5-7 tadan oshmagan ishlar 11-14 ball (55-70%) oralig'ida baholanadi. Nazariy savolga noto'g'ri javob berilgan yoki umuman javob berilmagan, misollar tahlili noto'g'ri, ifoda va bayonda bog'lanishlilik buzilgan, imloviy xatolari 8 tadan ko'p bo'lgan ishlar 0-10 ball (0-54%) oralig'ida baholanadi. "Bolalar adabiyoti" fanidan joriy nazoratlar uchun ajratilgan 30 ball talaba tomonidan amaliy mashg'ulot davomida to'planadi. Bolalar adabiyoti yuzasidan berilgan savollarga mantiqiy jihatdan to'g'ri va to'liq javob bergan, seminar mavzusini reja asosida konspektlashtirgan talabalar 5 ball(86-100%) bilan baholanadi.Og'zaki savollarga javob berishda qisman chalkashliklarga yo'l qo'ygan, o'z fikr-mulohazalarini ilmiy adabiyotlardan keltirgan misollar bilan asoslagan talabalar 4 ball (71-85%) bilan baholanadi.Fan yuzasidan berilgan savollar haqida tushunchasi sayoz bo'lgan, mavzuni bayon qilishda jiddiy chalkashliklarga yo'l qo'ygan talabalar 3 ball(56-70%) bilan baholanadi.Seminar mashg'ulotlarida o'tilgan mavzular yuzasidan berilgan savollar haqida umumiy tushunchasi bo'lmagan, mavzuni konspektlashtirmagan talabalar 0-3 ball (0-55%) bilan baholanadi. Talaba "Bolalar adabiyoti va folklor" fanidan mustaqil ish sifatida yozib topshirgan referati

uchun 15 balgacha baholanadi. Mustaqil ish o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan muayyan bir mavzu asosida tayyorlanadi. Baholashda o'zbek adabiyotiga oid ilmiy asarlardan foydalanilganligi, mavzuga aloqador misollar to'g'ri to'plangani va asosli tahlil qilingani, adabiyotlar ro'yxati to'g'ri shakllantirilgani kabilarga e'tibor beriladi. Ifodada uslubiy-mantiqiy izchillikka amal qilingan, tavsiya etilgan adabiyotlardan xabardorligi sezilib turgan, ko'chirmalarni iqtiboslarda keltirgan, reja asosida yozilgan va imloviy xatolari 1-2tadan oshmagan ishlar 13-15 ball (86%-100%) oralig'ida baholanadi. Ifodada izchillik buzilgan, tavsiya etilgan adabiyotlardan kam foydalanilgan, shuningdek, reja asosida yoritilmagan va imloviy xatolar miqdori 3-4tadan oshmagan ishlar 10-12 ball (71%-85%) oralig'ida baholanadi. Ifodada uslubiy-mantiqiy izchillik buzilgan, tegishli adabiyotlardan xabarsizligi sezilib turgan, tahlil to'g'ri olib borilgan va imloviy xatolari 5-7tadan oshmagan ishlar 8-9 ball (56%-70%) oralig'ida baholanadi. Ifodada bog'langanlik buzilgan, tahlil noto'g'ri olib borilgan, imloviy xatolari 8tadan ko'p bo'lgan ishlar 0-7 ball (0%-55%) oralig'ida baholanadi. "Bolalar adabiyoti va folklor" fanidan yakuniy nazoratlar yozma savol-javob tarzida o'tkaziladi. YaN uchun maksimal ball: 30. Yakuniy nazoratlarni o'tkazish uchun savol-javob variantlari tayyorlanadi. Har bir variantda uchtdan nazariy savol beriladi. Nazariy savollarga to'g'ri va to'liq javob berilgan, fikr badiiy asarlardan olingan misollar bilan asoslangan, ifodada uslubiy-mantiqiy izchillikka amal qilingan, tavsiya etilgan adabiyotlardan xabardorligi sezilib turgan bo'lsa 26-30 ball (86-100%) oralig'ida baholanadi. Nazariy savolga, asosan, to'g'ri javob bo'lsa ham ishda misollar kam, ifoda va bayonda izchillik buzilgan, tavsiya etilgan adabiyotlardan kam foydalanilgan ishlar 24-25 ball (71-85%) oralig'ida baholanadi. Nazariy savol yetarli ochilmagan, ifoda va bayonda uslubiy-mantiqiy izchillik buzilgan, tegishli adabiyotlardan xabarsizligi sezilib turgan ishlar 18,5-23,5 ball (56-70%) oralig'ida baholanadi. Nazariy savollarga noto'g'ri javob berilgan yoki umuman javob berilmagan, misollar tahlili noto'g'ri, ifoda va bayonda bog'lanishlilik buzilgan ishlar 0-13 ball (0-55%) oralig'ida baholanadi. Semestr yakunida fan bo'yicha joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat turlarining har biri bo'yicha saralash ballidan kam ball to'plagan talabning o'zlashtirishi qoniqarsiz (akadem qarzdor) hisoblanadi.

Rahbariyat adabiyotlari

1. Karimov. Barkomol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997-yil.
2. I.A. Karimov. Yuksakma'naviyat –yengilmas kuch. T. Ma'naviyat, 2008

Asosiy adabiyotlar

- 1.M.Hamroyev,D.Muhamedova,D.Shodmonqulova,X.G'ulomova,Sh.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
2. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 2002, -290 bet.
3. Jumaboyev M Bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi,2011, 260 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 1.H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
2. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006,"Universitet" nashriyoti.
- 3.R.Yunusov. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
- 4.U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil.
5. Z. Masharipova. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., 2008.

6. Yule G. The Study of Language. 4th edition. Cambridge: CUP, 2010

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-INTRANET.ped

III.Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006, "Universitet" nashriyoti.
3. Yunusov R. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
4. Tursunov U., Muxtorov J. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil. -290 bet.
5. Машарипова З. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Т., 2008. -150 bet.
6. Azizova O. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, "O'qituvchi", 1980
7. Zikrillaev F. Istiqlol va adabiy til. Toshkent, "Fan", 2004.
8. Ikromova R va b. O'zbek tili. Pedagogika – psixologiya fakultetlari uchun darslik. Toshkent, "O'qituvchi", 1983.
9. Mirzaev M. va b O'zbek tili Toshkent "O'qituvchi", 1978.
10. Ne'matov X, Rasulov R. O'zbek tili system leksikologiyasi asoslari. Toshkent, "O'qituvchi", 1995.
11. Tursunov U., Murotov J., Raxmatullaev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent, "O'zbekiston", 1992.tuvchi
12. Abdullaev Y. Hamrohim. Toshkent, "O'qituvchi" 1996.
13. Rahmatullaev SH, Hojiev A. O'zbek tilining imlo lug'ati Toshkent, "O'qituvchi", 1995.
14. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Buxoro, 2004.
15. Ibragimova Z. Anvar Obidjon– bolalar shoiri.– T.: Yangi asr avlodi, 2006 .
16. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T., "Fan", 2004
17. Murodov M. Oltin sandiq ochildi. Toshkent, "O'qituvchi", 1994.
18. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., "Musiq", 2010. Bolalik kuychisi. T.:Fan, 1978 ; yana: Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari. T.,1985; yana: Oliy o'quv yurtlarida bolalar adabiyotini o'qitish muammolari. "Til va adabiyot ta'limi" j., 1999y., 3-4 -sonlar.
19. O'zbekbolalaradabiyotivaadabiyjarayon. T.:Fan, 1989.
20. O'zbek bolalar adabiyoti antalogiyasi. Ikki jildlik. 1-2-jild.T:O'qituvchi, 2006.
21. O'zbek bolalar adabiyoti. Maqolalar. T.,:Yosh gvardiya, 1969.